ISSN 3030-3710
E-ISSN 3030-3095

ILMIY AXBOROTNOMA * НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК * SCIENTIFIC BULLETIN

№ 12, 2025

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI

ILMIY AXBOROTNOMASI

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

№ 12, 2025

https://bxu.uz

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

ilmiy-amaliy jurnal

SCIENTIFIC BULLETIN OF BUKHARA INTERNATIONAL UNIVERSITY

scientific and practical journal

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО МЕЖДУНАРОДНОГО УНИВЕРСИТЕТА

научно-практический журнал

№ 12-son, 1-qism 2025

Muassis: Buxoro xalqaro universiteti
Tahririyat manzili: Buxoro viloyati, Kogon tumani, B.Naqshband MFY, 20-uy
http://buxpxti.uz/, buxpxti@gmail.com

Tel: +998918312511 Sobirova D.A.
+998905124244 Ostanov Sh.Sh.
https://t.me/OstanovSH

"Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnal

BOSH MUHARRIR:

Baratov Sharif Ramazanovich

psixologiya fanlari doktori, professor,

Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Bosh muharrir o`rinbosari:

Shoumarov G'.B. – O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Mas'ul kotib:

Sobirova D.A. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

XORIJ OLIMLARI

Kozlov V.V. - psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)

Malix S.B. -psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)

Maksimenko S.D.- psixologiya fanlari doktori, akademik (Ukraina)

Rejep O`zyurek -psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Darya Gaysina - Sasseks universiteti Psixologiya fakultetida genetika va epigenetika, PhD (Angliya)

O'ZBEKISTON OLIMLARI

PSIXOLOGIYA FANLARI

Umarov B.M.- psixologiya fanlari doktori, professor

Qodirov B.R. - psixologiya fanlari doktori, professor

Qodirov U.D. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Kadirov K.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Abdurasulov R.A. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Baratova D.Sh. -psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Utepberganov M.A. - psixologiya fanlari doktori, professor

Nazarov A.M. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Atabayeva N.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Fayziyeva M.X. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Qarshiyeva D.S. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Abdullayeva D.U. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Arzikulov D.N. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Djurayev B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ayrapetova A.G.- psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Usmanova M.N. - psixologiya fanlari nomzodi, professor

Raximova I.I. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ostanov Sh.Sh. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rustamov Sh.Sh. psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ibaydullayeva U.R. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Sobirov A.A. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

PEDAGOGIKA FANLARI

Ibragimov X.I. - O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi

Olimov Sh.Sh. - pedagogika fanlari doktori, professor

Abdullayeva B.S. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Raxmonov K.D. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rajabov T.I. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Dilova N.G. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

FILOLOGIYA FANLARI

Shodmonov Q.B. – filologiya fanlari doktori, professor

Gadoyeva M.I.- filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rajabov D.Z. - filologiya fanlari doktori, professor

Haydarov A.A. - filologiya fanlari doktori, professor

Astanova G.A. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasulov Z.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor v.b.

Toirova G.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Murodov G.N. - filologiya fanlari doktori, professor

Eshbekov T.U. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Raxmatullayev Sh.N. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xalilova R.R. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Saidov X.Sh. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUHARRIRLAR:

Raxmatova M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov A.M. - BuxPXTI "Xorijiy tillar" kafedrasi mudiri

"Scientific Bulletin of Bukhara International University"
scientific-theoretical journal
EDITOR-IN-CHIEF:
Baratov Sharif Ramazanovich
doctor of psychology, professor, Full Member (academician) of the International Academy of Psychological Sciences
Deputy editor-in-chief:
Shoumarov G.B. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS

Responsible secretary:
Sobirova D.A. – Doctor of Psychology (DSc), professor

FOREIGN SCIENTISTS

Kozlov V.V. - Doctor of Psychology, academician (Russia)
Maliks S.B. - Doctor of Psychology, academician (Russia)
Maksimenko S.D. - Doctor of Psychology, academician (Ukraine)
Rejep Ozyurek - Doctor of Psychology, professor (Turkey)
Darya Gaysina - PhD, Genetics and Epigenetics, Faculty of Psychology, University of Sussex (England)

SCIENTISTS OF UZBEKISTAN
PSYCHOLOGICAL SCIENCES

Umarov B.M. - doctor of psychology, professor
Kadirov B.R. - doctor of psychology, professor
Kadirov U.D. - doctor of psychology, professor
Kadirov K.B. - doctor of psychology (DSc), professor
Abdurasulov R.A. - doctor of psychology (DSc), professor
Baratova D.SH. - doctor of psychology (DSc), professor
Utepberganov M.A. - doctor of psychology, professor
Nazarov A.M. - doctor of psychology (DSc), professor
Atabayeva N.B. - doctor of Psychology (DSc), professor
Fayziyeva M.Kh. - doctor of Psychology (DSc), professor
Karshiyeva D.S. - doctor of Psychology (DSc), professor
Abdullayeva D.U. - doctor of Psychology (DSc), professor
Arzikulov D.N. - doctor of Psychology (DSc), professor
Djurayev B. - doctor of Psychology (DSc), professor
Ayrapetova A.G. - doctor of Psychology (DSc), associate professor
Usmanova M.N. - candidate of psychology, professor
Raximova I.I. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Ostanov Sh.Sh. - doctor of Psychology (DSc), associate professor
Rustamov Sh.Sh. - doctor of Psychology (DSc), associate professor
Ibaydullayeva U.R. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Sobirov A.A. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor

PEDAGOGICAL SCIENCES

Ibragimov X.I. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan
Olimov Sh.Sh. - doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Abdullayeva B.S. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
Raxmonov K.D. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
Rajabov T.I. - doctor of pedagogic sciences (DSc), professor
Dilova N.G. - doctor of pedagogic sciences (DSc), professor

PHILOLOGY SCIENCES

Shodmonov Q.B. - doctor of Philology, professor
Gadoyeva M.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Rajabov D.Z. - doctor of Philology, professor
Haydarov A.A. - doctor of Philology, professor
Astanova G.A. - doctor of Philology (DSc), professor
Rasulov Z.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Toirova G.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Murodov G.N. - doctor of Philology (DSc), professor
Eshbekov T.U. - doctor of Philology (DSc), professor
Rakhmatullayev Sh.N. - doctor of philosophy in philology (PhD)
Khalilova R.R. - doctor of philosophy in philology (PhD)
Saidov X.Sh. - doctor of philosophy in philology (PhD

EDITORS:

Rakhmatova M.M. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Tursunov M.M. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Kurbonov A.M. - Head of the Department of Foreign Languages of BukhPFL

Raximov Farhod Xushboqovich
Innovatsion rivojlanish agentligi tasarrufidagi Ilmiy-texnik axborot markazi bo‘lim boshlig‘i, texnika fanlari doktori, professor
E-mail: frakhimov66@gmail,
Sobirov Abdulahay Shukurovich
Andijon davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori
E-mail: sobirov-195715@ gmail.com,
Nodira Rustamovna Abdullayeva
Innovatsion rivojlanish agentligi huzuridagi Ilmiy-texnik axborot markazi Ilmiy tahririyat va noshirlik boshqarmasi bosh mutaxassisi

ILMSHUNOSLIK VA ILMMETRIYANING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. *Zamonaviy ilm-fan, texnika taraqqiyoti tobora insoniyatni yuksak cho‘qqilar tomon yetaklab ketmoqda. Bu bir tomondan juda yaxshi, insoniyat sanoat, ishlab chiqarish, ta’lim-tarbiya jarayonlarida ulkan yutuqlarga erishmoqda. Lekin, ikkinchi bir tomondan inson o‘rnini uning o‘zi yaratgan sun’iy aql egallab bormoqda. Bugun u kirmagan, zamonaviy axborot texnologiyalari aralashmagan soha qolmadi hisob. Bu o‘z navbatida milliy tillarda minglab yangi so‘z va tushunchalarning shakllanishi hamda milliy tillarda qaror topishiga sababchi bo‘ldi. Bundan o‘zbek tili ham chetda emas. Yangi paydo bo‘lgan va tez rivojlangan sohalardan birini intellektual boylik bilan bog‘liq soha tashkil qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, ushbu maqolada intellektual mulk ob’ektlari (IMO), ya’ni “patent” tizimining mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni, ahamiyati Texnologiya va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash markazlari (TIQQM) bilan bog‘lab yoritildi. Ilmiy tadqiqotlardan boshlanuvchi yangilik va yangilanishlar soha mutaxassisi tafakkuri mahsuli ekanligi, shu sohani tashkil etuvchilar: ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali hamkorligi, muammolarga ijodiy yondashuv, g‘oyalarning paydo bo‘lishi, IMOlarni yaratilishi, huquqiy himoyalanishi, tijoratlashtirilishi, innovatsiyalar darajasigacha ko‘tarilishi kabi bosqichlarda milliy innovatsion ekotizimda amalga oshishi asoslangan.*

Kalit so‘zlar*: tafakkur, ilmiy tadqiqot, intellektual mulk ob’ekti, soha, innovatsiya, integratsiya, innovatsion rivojlanish, innovatsion ekomuhit, innovatsion mahsulot.*

ЗНАЧЕНИЕ НАУКОВЕДЕНИЯ И НАУКОМЕТРИИ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ

Аннотация. *Современная наука и технологии всё больше ведут человечество к новым вершинам. С одной стороны, это очень хорошо, человечество достигает больших успехов в промышленности, производстве и образовании. Однако, с другой стороны, искусственный интеллект, созданный самим человеком, занимает своё место. Сегодня нет ни одной сферы, куда бы он не вошёл, куда бы не вмешались современные информационные технологии. Это, в свою очередь, привело к образованию тысяч новых слов и понятий в национальных языках, и их закреплению в национальных языках. Узбекский язык не является исключением. Одной из новых и быстро развивающихся областей является сфера, связанная с интеллектуальной собственностью. Исходя из этого, в данной статье рассматривается сущность объектов интеллектуальной собственности (ОИС), то есть «патентная» система, её роль и значение в социально-экономическом развитии, во взаимосвязи с Центрами поддержки технологий и инноваций (ЦПТИ). Он основан на том, что инновации и нововведения, начиная с научных исследований, являются продуктом мышления специалиста в данной области, и что основополагающие принципы этой области: эффективное взаимодействие образования, науки и производства, творческий подход к проблемам, рождение идей, создание ИМО, правовая защита, коммерциализация и доведение до уровня инноваций, реализуются в национальной инновационной экосистеме именно на этих этапах.*

Ключевые слова: *мышление, научные исследования, объект интеллектуальной собственности, отрасль, инновация, интеграция, инновационное развитие, инновационная экосистема, инновационный продукт.*

THE IMPORTANCE OF SCIENTOMETRICS AND SCIENCE STUDIES IN SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT

Abstract. *Modern science and technology are increasingly leading humanity to new heights. On the one hand, this is a good thing; humanity is achieving great success in industry, manufacturing, and education. However, on the other hand, artificial intelligence, created by humans, is taking its place. Today, there is no area where it has not entered, where modern information technology has not intervened. This, in turn, has led to the creation of thousands of new words and concepts in national languages, and their consolidation in them. The Uzbek language is no exception. One of the new and rapidly developing areas is intellectual property. Based on this, this article examines the essence of intellectual property (IPR), that is, the "patent" system, its role and significance in socio-economic development, in conjunction with Technology and Innovation Support Centers (TISCs). It is based on the premise that innovation and new development, beginning with scientific research, are the product of the thinking of a specialist in a given field. The fundamental principles of this field-effective interaction between education, science, and industry, a creative approach to problems, the generation of ideas, the creation of an IMO, legal protection, commercialization, and development to the level of innovation-are realized in the national innovation ecosystem precisely at these stages.*

Key words: *thinking, scientific research, intellectual property, industry, innovation, integration, innovative development, innovation ecosystem, innovative product.*

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida davlatlar va millatlarning yashab qolishi kundan kunga o‘tkir muammoga aylanib bormoqda. Tarixi sayoz, milliy qadriyatlari zaif, aholisining dunyoqarashi tor mamlakatlar tobora tanazzul tomon yuz tutmoqda. Mamlakatni taraqqiy ettirish va aholi farovonligini oshirish sohasida O‘zbekiston davlati va rahbariyati tomonidan butun dunyoga o‘rnak bo‘ladigan ibratomuz ishlar bajarilmoqda. **“Milliy tiklanishdan milliy yuksalishga”** shiori ostida o‘z taraqqiyotining Uchinchi Renessansiga qadam qo‘ygan O‘zbek jamiyatida o‘z zimmasidagi buyuk maqsadlarni amalga oshirish uchun, birinchi galda, o‘tmish ajdodlarning boy tarixiy merosiga, hozirda dunyoning yetakchi mamlakatlari erishgan katta hayotiy tajrabalarga, ilm-fan, texnika sohasida erishilgan olamshumul yutuqlarga, innovatsion g‘oyalarga asoslangan holda, yurtimizda keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, dunyo tamadduniga munosib hissa qo‘shgan Muhammad al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Ahmad al-Farg‘oniy kabi buyuk hamyurtlarimizning faoliyati negizida ilm-fan, oldinga intilish, bugungi kun ta’biri bilan aytganimizda, “innavatsion g‘oyalar” yashirinib yotganini ko‘rishimiz mumkin. Ularning hammasi jamiyatni yangilash, odamlarning turmush tarzini tubdan yaxshilash uchun xizmat qilgani bilan ajralib turadi. Demak, hayotda ilm hamma narsadan ustun turadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek: **“Bilim ko‘p bor aytganimdek, o‘tda yonmaydi, suvga cho‘kmaydi. Yakkayu yagona najotimiz – ilm”** [https:// prezident.uz/uz/lists/view/4659].

Darhaqiqat, bugun qaysi mintaqada, qaysi davlatda jadal rivojlanish, yuksak taraqqiyot zuhr berayotgan bo‘lsa, uning negizida ilm-fan, texnika yangiliklari, inovatsion g‘oyalar yotibdi. Ilm-fan, texnika yutuqlarida millat, din, muayayyan joy muhim ahamiyat kasb etmaydi. Qaerda yetarli shart-sharoit, imkoniyat bo‘lsa, o‘sha yerda ilm-fan gullab-yashnayveradi. Biroq, alohida ta’kidlash joizki, ilm olishga harakat, yangilikka intilish, olam va jamiyat qonunlarini bilishga bo‘lgan rag‘bat hamma joyda bir xil kechmaydi. Ilmiy natijalar, fan samarasi unga bo‘lgan to‘g‘ri munosabatlarga borib taqaladi. Ilm-fanni ishlab chiqaruvchi kuch taraqqiyotining haqiqiy drayveriga aylantira olgan va uning yutuqlaridan ezgulik yo‘lida foydalanayotgan, ilm ahli saxovat ostida bo‘lgan mamlakatlarda davlat obro‘si, tinchlik va osoyishtalik, aholi farovonligi muttasil yuksalib boraveradi. Buni yuksak darajada rivojlangan qator mamlakatlar tajribasi yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Adabiyotlar sharhi. “Ilmning bahosi yo‘qdir. Hamma narsa ilmga bog‘liq, ilm esa sohibiga”, – deb yozgan edi islom ma’rifatining yetakchillaridan biri Imom G‘azzoliy [G‘azzoliy, 2023, 262]. Avvalo, inson martabasini ulug‘ qilgan, uni oldinga yetaklashda vosita bo‘layotgan ilm so‘zining ma’nosi haqida to‘xtalib o‘taylik.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa *ilm* so‘ziga quyidagicha ta’rif berilgan:

ILM [arabcha: *bilim; fan, nazariya*] 1. O‘qish-o‘rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishiladigan bilim; ko‘nikma, ma’lumot. 2. Ish-faoliyatning ilm bilan bog‘liq sohasi; tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar tizimi. 3. Ish-faoliyatning ma’lum bir sohasiga oid bilim; ma’lumot, malaka [O‘TIL, II, 195].

Ilm so‘zi ko‘p hollarda fan atamasiga ma’nodoshdir.

Fan arabchadan olingan bo‘lib, *san’at, mahorat; erkin kasb; ilm, bilim; tarmoq* degan ma’nolarni anglatadi. O‘zbek tilida tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonunlarini ochib beruvchi hamda o‘zi erishgan natijalar bilan atrof muhitga ta’sir ko‘rsatuvchi bilimlar tizimi; shunday bilimlar tizimining alohida tarmog‘i, yo‘nalishlari, sohalari ma’nosida qo‘llanadi [O‘TIL, IV, 324].

Ko‘rinib turibdiki, *ilm, fan* so‘zlari har bir jamiyatda muhim o‘rin tutadi. Boy tarixiy merosga ega o‘zbek ilm-fani ikkita katta poydevor ustida qurilgani bilan xarakterlidir. Birinchidan, u dunyo ilm-fani, madaniyati, san’ati tarixida muhim o‘rin tutgan, ta’lim va tarbiya, ma’naviy poklik, yuksak e’tiqod uyg‘unligiga asoslangan, arab, fors, hind, turkiy xalqlarning ilg‘or g‘oyalariga ergashib ish ko‘radigan hamda dunyo tamadduniga munosib hissa qo‘shgan Sharq ilm-fani an’analariga tayanadi. Ikkinchidan, o‘zbek ilm-fani XIX asrning so‘nggi yillaridan boshlanib, to bugungi kungacha davom etib kelayotgan, innovatsion g‘oyalar bilan chuqur sug‘orilgan, texnik jihatdan mukammal G‘arb ilm-fani yutuqlariga hammohangdir.

Moskva davlat universitetining nufuzli olimi V.V.Nalimov 1966 yilda o‘z maqolasida “Ilmshunoslik”dan farqli tarzda **“Ilmmetriya”** (“Naukometriya”) so‘zini ilk bor qo‘lladi. Keyinchalik shu nom bilan kitob nashr ettirdi [https://ru.wikipedia.org/wiki].

2007-yilda amerikalik ixtirochi olim, ilk ilmiy axborotlar instituti asoschisi, “ilmmetriya” (naukometriya) va “axborotmetriya” (informetriya) atamalarini fanga olib kirgan doktor Yudjin Garfild hamda vengriyalik Tibor Braunlar V.V.Nalimov talqiniga tayanib, yangi tashkil topgan jurnaliga “Scientometrics” nomini berishdi. Shu tariqa fanda ilmni boshqarishda “Ilmshunoslik” (“Science of science”)dan afzalroq deb qaralgan yangi tushuncha “Ilmmetriya” (Naukometriya//Scientometrics) shakllandi va taraqqiy topdi.

Bu haqda Yu.Garfild: **“***Biz bibliometrik tadqiqotlar sohasining yangi tarmoq – universitetlar va ilmiy jamoalarda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar samaradorligini baholashga aylantirilayotganligiga guvoh bo‘layapmiz*”. (“*Мы являемся свидетелями превращения библиометрических исследований в новую отрасл индустрии – отсенку результативности научных исследований, выполняемых в университетских и научных коллективах*”), – deya ta’kidlaganidek, hozirda ilmning son qiymati o‘lchovi uslubiyati paydo bo‘ldi va muttasil rivojlanib kelmoqda.

Global axborot makonida axborotlar oqimi hajmining kattaligi, internetning paydo bo‘lishi, ilmiy tadqiqotlar va ilmiy jamoalar sonining ortishi, tor ixtisosliklarga oid loyihalarning ko‘payishi kabi omillar bilan bog‘liq keng ko‘lamdagi chegarasi ko‘rinmaydigan axborot oqimi sharoitida jahonda ilk bor AQShning Ilmiy axborotlar institutida “Iqtiboslangan adabiyotlar ko‘rsatkichi” (*Ukazatel sitirovannoy literaturы – Science Citation Index*) Yu.Garfild tomonidan yaratildi va amaliyotda faol qo‘llanildi.

Fiziologiya va tibbiyot yo‘nalishidagi Nobel mukofoti laureati Barux Blumbergning e’tiroficha: “*Yudjin Garfild jahon ilm-fani tartibli tuzilishining yaratilishida salmoqli hissa qo‘shdi. Uning idroki tufayli tabiatdagi dastlabki ma’lumotlarni emas, balki undagi tirtibot sirlarini ham o‘rganish yo‘li ochildi.*” (“*Юджин Гарфильд внес выдающийся вклад о построении упорядоченных картин в мировой науке. Его средством является не сами исходные данные, а восприятия ученых, которые исследуют неизвестное в природе.*”).

Metodologiya. XX asr insoniyat tarixida olamshumul o‘zgarishlarga boy bo‘ldi. Aniq fanlar mislsiz darajada taraqqiy topdi: mexanika, molekular fizika, atom fizikasi, termodinamika, elektronika, organik ham noorganik kimyo, mikrobiologiya, ekologiya, astronavtika, ixtiologiya,

okeonologiya, geodeziya kabi yuzlab yangi fanlar paydo bo‘ldi va jadal rivojlandi. Ilm-fan texnikaning zamonaviy taraqqiyoti natijasida bioekologiya, gen muhandisligi, nanotexnologiya, sintetik biologiya, nutrigenetika, robototexnika, kompyuter lingvistikasi, mentalingvistika, ekolingvistika kabi oraliq fanlar shakllandi va ular ishlab chiqarish, sanoat, qishloq xo‘jaligi, ijtimoiy sohalarda katta samaralar bermoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra, ilm-fan sohalari va tarmoqlarining adadi 4000dan oshib ketdi va ularning har biri yana o‘nlab yo‘nalishlarga bo‘linmoqda. Masalan, ekologiya sinekologiya, aytekologiya, demekologiya, bioekologiya, geoekologiya, ijtimoiy ekologiya, lingvistik ekologiya singari alohida shahobchalarga ajraladi va ulardan har biri o‘zining aniq o‘rganish ob’ektiga ega Xolliev, Ikromov, 2001, 24].

Bugun ilm-fan, texnika sohasida metodlogik qarashlar, yondashuvlar o‘zgarmoqda. Narsa va hodisalarni tavsiflash, ularni qiyoslash, bir-biriga solishtirish, transformatsiyalash kabi metodlar qatoriga zamonaviy statistika, metrika, sinergetik kabi metodlar kelib qo‘shilmoqda va ular yaxshi natijalar bermoqda.

Ma’lumki, ilm-fandagi yuksalishlar, xilma-xilliklar hamma davrlarda o‘ziga xos tartibsizliklar (xaos)ni, yangidan yangi, bir-biriga zid bo‘lgan fikrlarni, uzoq davom etadigan tortishuvlarni, bahs va munozalarni keltirib chiqargan. Turli tizimlardagi mazkur jarayonlarni o‘rganuvchi fan sifatida asrimiz boshlarida ilmda sinergetika degan oraliq fan paydo bo‘ldi.

Sinergetika – bu ochiq tizimlardagi (masalan, biologik, kimyoviy va ijtimoiy tizimlardagi) energiya va axborotning o‘zaro ta’siri orqali yangi strukturalar va modellarning shakllanishini o‘rganuvchi fanlararo yo‘nalishdir. U tizimning umumiy xususiyatlari alohida qismlarining xususiyatlari yig‘indisidan katta bo‘lishi mumkinligini, ya’ni “butun qismlarining yig‘indisidan kattaroqdir” degan g‘oyani ilgari suradi. Sinergetika jamiyatdagi turli tizimlarga tegishli unsurlarning o‘zaro ta’siri tufayli fazo bilan vaqtda tartibsiz joylashuvlarni, xaosni hamda yangi tartibning yuzaga kelishini o‘rganadigan fan sifatida qaror topdi [https://studfile.net/preview/6213059/page:24].

Tadqiqot va texnologiyalar yuksalishi sharoitida yangilik va yangilanishlarning haddan tashqari ko‘pligi va katta axborotlar oqimining vujudga kelishi ular ustida bibliografik tadqiqotlarni olib borish ishlarini murakkablashtirdi. Bu holat sezilarli darajadagi sarmoyalar hisobiga amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liq axborotlar oqimlarini boshqarishda yanada qiyinlashtirdi. Mazkur shart-sharoitda tegishli sohalarga oid ilmiy axborotlarning bibliografik, tahliliy, referativ sharhlarini tayyorlash bilan bir qatorda, ularning monitoringini olib borish va baholashga hamma davlatlar va millatlarda katta ehtiyoj paydo bo‘ldi. Shu ehtiyoj tufayli o‘tgan asrning 30-yillarida ilm-fanni boshqarish haqida farazlar paydo bo‘ldi, 40-yillarida dastlabki izlanishlar yuzaga keldi, 60-yillarda “Ilmshunoslik” (“Naukovedenie”) faniga asos solindi.

Tadqiqot natijasi. Ilm-fan, texnika sohasidagi keng ko‘lamli tadqiqotlar, muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz tajriba va sinovlar, ulkan zafarlar – barcha-barchasi ostida birinchi navbatda tushuncha va so‘z turadi. Ilm-fan, texnikaga oid muayyan leksik birlikning ma’nosini anglab yetish uning sirlarini ochish toomn tashlagan birinchi qadamdir, chunki ilm-fan, texnika yangiliklari har vaqt so‘z vositasida ifodalanadi. Shu bois, ilm-fan sohalariga oid so‘z va tushunchlarni to‘plash, unifikatsiyalash, ular ustida ilmiy kuzatishlar olib borish sohalarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sohalararo turli tipdagi: izohli, mavzuiy, tarjima va hokazo lug‘atlarni yaratish masalasi esa oldimizda turgan kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalardan sanaladi.

Muhtaram Prezidentimizning “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasi”da [lex.uz] davlat tilining jamiyat hayotiga to‘liq joriy etilishini ta’minlash, o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish, zamonaviy yangi avlod o‘quv lug‘atlarini tuzish hamda ularning elektron shakllari va sohalar bo‘yicha atamalar lug‘atini yaratish kabi vazifalar bejiz qo‘yilmagan.

Ilmiy bilimlarni egallash, ularning ahamiyati va rolini tushunish, tahlil qilish hamda yangilarini yaratish uchun o‘zbek tilidagi o‘quv lug‘atlari, sohalar bo‘yicha atamalar lug‘ati zarur.

Mustaqillikdan keyingi yillarda millatimiz ilm-fani yangicha sifat belgisiga ega bo‘ldi. Ilgarilari rus ilm-fani ta’sirida rivojlangan bu ilm-fan endilikda to‘g‘ridan-to‘g‘ri jahon ilm-fanining uzviy bir qismi sifatida faoliyat olib bormoqda. Shu bilan bir qatorda rivojlanish bilan hammohang tarzda “ilmiy axborot” yoki “ilmiy-texnik axborot”lar tizimida yangi ilmlar holatini o‘rganish, ularga tegishli baho


berish bilan bog‘liq yo‘nalishlishlarni ochish va ilmiy darajaga ega kadrlar tayyorlashga katta hayotiy ehtiyoj paydo bo‘ldi va bu bugungi kun talabiga aylandi.

Ilm-fanning bu qadar keng ko‘lamdagi tarmoqlanishi uning hisob-kitobini chiqarish, ma’lum bir ma’noda boshqarish ehtiyojini keltirib chiqardi. Ilm-fan, texnika jadal rivojlanish bosqichiga o‘tgan XX asrning 1950-60 yillaridayoq ilm-fanda **“inson axborotlar oqimi girdobida cho‘kmoqda**” degan fikr-mulohazalar paydo bo‘lgan edi. Bugungi globallashuv jarayonlarida bu fikr yanada o‘tkir tus oldi. Zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalar ko‘lami, global sharoitdagi ilm-fan va texnikaning aql bovar qilmas shiddati butun dunyo ahlini avvalgidan ko‘ra ko‘proq, ustiga ustak elektronlashgan, tezkor “axborotlar oqimi girdobiga ko‘mib qo‘ydi”. Bundan yuz yil avval insoniyatning o‘zi tomonidan aytilgan “xatarli xavf”, ya’ni “axborotlar oqimi” hozirda “jilovlangan” holda insoniyatning o‘ziga, uning ish vaqti va bo‘sh vaqti taraqqiyotga xizmat qilmoqda. Hamma gap uni boshqarishga, tartibga solishga bog‘liq bo‘lib qoldi. Agar jilovlanmasa, oddiy soylar ham, daryolar ham kutilmagan katta talofatlarga olib kelishi mumkin. Shu ma’noda ilm-fan, texnika taraqqiyotini tartibga solish, uning hisobini chiqarish va ilmiy-tadqiqot ishlarini ezgu ishlar tomonga qarab yo‘naltirib turish kishilik jamiyati uchun eng kerakli bo‘lgan faoliyat turiga aylandi.

Ilmshunoslik – tadqiqotlarning tuzilishi, rivojlanish dinamikasi, turli ijtimoiy institutlar bilan o‘zaro ta’siri va aloqasini o‘rganuvchi, moddiy va ma’naviy hayotni tadqiq etuvchi soha bo‘lib, boshqacha aytganda, keng ijtimoiy, tarixiy va falsafiy kontekstda ko‘rib chiqiladigan fanlararo soha hisoblanadi. Ilmiy bilimlarni yaratish, ifodalash va egallash, uning ahamiyati va rolini tahlil qilish uchun ilmshunoslikda turli usullardan foydalanish nazarda tutilgan.

Bugun dunyo ilm-fanida *Scientometrics* fani quyidagi ko‘rinishga ega (1-rasm).

1-rasm. *Scientometrics* yo‘nalishlari.



Demak, o‘zbek ilm-fanida ham haqli ravishda “Ilmmetriya”, ya’ni tadqiqotlarning tuzilishi, rivojlanish dinamikasi, turli ijtimoiy institutlar bilan o‘zaro ta’siri va aloqasi, ilm ahlining moddiy va ma’naviy hayoti, statistikasi bilan shug‘ullanuvchi yangi tadqiqot sohasi paydo bo‘lganini e’tirof etish payti keldi.

"Ilmmetriya" bu – shunchaki inglizcha "*Scientometrics"* va ruscha "*Naukometriya"* fanlarining kalkasi (tarjimasi), ularga ko‘r-ko‘rona ergashadigan tarmoq emas, balki o‘zbek ilm-faniga tarixiy, ijtimoiy, falsafiy, ma’naviy aspektlarda yondashib ish ko‘radigan fanlararo mustaqil fan sohasi hisoblanadi. "Ilmmetriya"da ilmiy bilimlarni yaratish, tasniflash, tadqiq etish va ularning jamiyatdagi ahamiyatini tahlil qilishda turli usullardan foydalanish nazarda tutiladi.

Diskussiya. Ilmmetriya ilmiy-tadqiqot ishlarini o‘ziga xos o‘lchovi bilan shug‘ullanadi. U quyidagi ko‘rsatkichlar bilan ish ko‘radi: iqtiboslar indeksi; ilmiy jurnalning iqtiboslar indeksi; impakt-faktor; x-indeksi; kvartil. Bunday ko‘rsatkichlar hisobi ilmiy muassasalar, ilm-fan bilan shug‘ullanayotgan olimlarning milliy va xalqaro reytingiga chiqarish imkonini beradi.

Ilmmetriya – (inglizcha *Cientometrics*) ilmiy tadqiqotlar yo‘nalishida ilmning son qiymati o‘lchovi, ya’ni ilmiy axborotlarning ko‘plab o‘lchovlar va statistik tadqiqotlarga asoslangan evolyusiyasi (ma’lum davrda nashr ettirilgan ilmiy maqolalar soni, iqtibosi va h.k.) hisoblanadi.

Sohaning ko‘zga ko‘ringan yetakchi olimi M.A.Akoevning ta’kidlashicha, 1996-2017 yillar davomida jahonda 9 million nafar atrofidagi insonlar tegishli maosh olgan holda ilmiy bilimlar yaratganlar. Ushbu jarayonlarga aholining 0,18 foizini tashkil etuvchi 6 million nafar tadqiqotchi jalb etilgan. 2017 yil holatida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga (ITTKI) sarf-harajatlar jahon YaIMning 1,7 foiziga teng bo‘lgan [Akoev va boshq., 2014, 66; 2021, 70].

Albatta, har qanday ilmiy-tadqiqot ishini "ilmiy axborot" yoki "ilmiy-texnik axborot"larsiz tasavvur etib bo‘lmaydi, chunki har bir yangi ishlanma vorisiylik tamoyiliga asoslangan holda ungacha mavjud bo‘lgan texnik-texnologik yechimlarni atroflicha o‘rganish va chuqur tahlil qilishga asoslanadi.

Ilmmetriya – yangi fan sohasi. Albatta, yangilik qarshiliklarsiz bo‘lmaydi. Bugun oliy ta’lim muassalari professor-o‘qituvchilari, ilmiy-tadqiqot institutlari, Fanlar akedemiyasi tizimidagi ilmiy muassasalar, bir so‘z bilan aytganimizda, ilm bilan shug‘ullanayotgan barcha korxona, tashkilotlarga ilmiy faoliyat ko‘rsatishning yangicha turlari, shakllari tatbiq etilayotgan ekan, ularning monitoringini olib borish, hisob-kitob qilish, natijalarini umumlashtirish va reytingini aniqlashda ilmmetriyaning o‘rni katta. Qolaversa, ishlab chiqarishning barcha sohalarida raqamli ish yuritish usuliga o‘tish, tegishli idoralar tomonidan ilm-fanni rivojlantirish maqsadida muttasil ravishda amaliy va fundamental loyihalar tanlovining o‘tkazilishi bu ishni yanada jadallashtirmoqda.

Bugun Fanlar akademiyasi va OTMlarida faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlarning ish rejalari tartibga solinib, ularda oliy ta’lim muassasalarning birinchi mingtalik (top-1000) yoki fan yo‘nalishlari bo‘yicha birinchi yuztalik (top-100) xalqaro (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Yeducation yoki Academic Ranking of World Universities) reytinglarga kirgan oliy ta’lim muassasalarining onlayn ta’lim platformalariga kiritilgan yoki sayyor shaklda o‘tkazilgan har bir ma’ruza, "Scopus", "Web of Science" yoki boshqa umume’tirof etilgan indeksatsiyalangan ma’lumotlar bazalari jurnallarida e’lon qilingan har bir maqola (monografiya) uchun tegishli reyting ballarini hisob-kitob qilishda ham ilmmetriyadan keng foydalanilmoqda.

Xalqimiz orasida shunday bir rivoyat yuradi. Shohning huzuriga o‘z ishining ustasi bo‘lgan bir kishini olib kirishibdi. U og‘zidan olov chiqarib turfa o‘yinlar ko‘rsatibdi. Tomosha tugagach, shoh unga zarbof to‘n va bir xalta aqcha berishni, ortidan ellik darra kaltaklashni buyuribdi.

Haligi kishi buning sababini so‘raganda, shoh:

–To‘n va aqcha ko‘rsatgan hunaring, ellik darra esa hech kimga foydasi yo‘q hunarni egallaganing uchun, – deb javob bergan ekan.

Bugun xalq manfaatlari birinchi o‘ringa chiqqan tezkor zamonda ilm-fan yo‘lida qilingan har bir amalga uning Vatan va el ravnaqi uchun qay darajada xizmat qilishiga qarab turib xolis baho berilishi lozim. Buning uchun esa xuddi yuqoridagi kabi haqiqiy xulosa chiqarib beruvchi sub’ekt kerak. Bu vazifaning ilmshunoslik va ilmmetriya fanlari zimmasiga tushishi tabiiy. O‘zbek ilm-faning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri yo‘ldan ketayotganini aniqlash, ilmning o‘lchovini belgilash, xalqaro andozalar asosida

o‘zbek olimlarining ishlariga baho berish, jahon ilm-fanining ilg‘or tajribalarini mamlakaimiz olimlari faoliyatiga joriy qilish ilmshunoslik va ilmmetriyaning oldida turgan dolzarb masalalardan sanaladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli tarkibiy va institutsional islohotlar, yangilanishlar jarayonida “ilmiy axborot” yoki “ilmiy-texnik axborot” terminlariga yondashuv bilan bog‘liq xalqaro tajribani chuqur o‘rganish, ularni jamlash, har birining mazmun-mohiyatini og‘ishmasdan o‘zbek tilida atroflicha sharhlash, ma’nosini tushuntirish hamda tizimlashtirishga zarurat sezilmoqda.

Xulosa. Bugungi kunda ilmiy bilimlar yaratilishi dastavval dunyo hamjamiyati tomonidan sohalarda mavjud tadqiqotlarni o‘rganish, ularning tuzilishi, rivojlanish dinamikasini tadqiq etish, “ilmiy axborot” yoki “ilmiy-texnik axborot”larni saralash va vorisiylik tamoyiliga ko‘ra tahlil qilinishidan boshlanadi. “Ilmiy axborot” yoki “ilmiy-texnik axborot”lar tizimidagi “ilmshunoslik”, “ilmmetriya” kabi qator tushunchalar mazmun-mohiyatini chuqur bilish, tegishli ilmiy yondashuv va uslubiyatlar bilan qurollanish, ushbu yo‘nalishlarda ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash yangi ixtisosliklarini ochish bugungi kun talabidir. Bu o‘z navbatida barcha sohalardagi kabi ilm-fan va innovatsiyalar sohasida ham atamalar lug‘atining shakllantirilishini, ilmiy darajaga ega kadrlar tayyorlashni kun tartibiga qo‘yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Имом Ғаззолий. Олтин битиклар. – Тошкент: Фактор-пресс, 2023. – 320 б.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдлик. – 2-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2006. – 672 б.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдлик. – 4-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2008. – 608 б.
4. Холлиев И., Икромов А. Экология. – Тошкент: Меҳнат, 2001. – 207 б.
5. Википедия: свободная энциклопедия. – Режим доступа: https://ru.wikipedia.org/wiki
6. Акоев М. А., Маркусова В. А., Москалева О. В., Писляков В. В. Руководство по наукометрии: индикаторы развития науки и технологии / под ред. М. А. Акоева. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2014. – 250 с.
7. Акоев М. А., Маркусова В. А., Москалева О. В., Писляков В. В. Руководство по наукометрии: индикаторы развития науки и технологии / под ред. М. А. Акоева. – 2-е изд. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2021. – 358 с.

Parmonov Bobir Erkinovich
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,
Xakimova Sarvinoz Zuxriddin qizi
Andijon davlat universiteti
Psixologiya va pedagogika kafedrasi magistranti

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQ BUZILISHINING PSIXODIAGNOSTIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq buzilishlarining psixodiagnostik jihatlari tahlil qilinadi. Maqolada nutq rivojlanishining me'yoriy bosqichlari, nutq buzilishlarining asosiy sabablari va ularni aniqlashda qo'llaniladigan psixodiagnostik metodlar yoritilgan. Tadqiqotda logopedik tashxis, kuzatuv, suhbat va maxsus test metodikalari yordamida bolalarning nutq faoliyati, psixik rivojlanish darajasi hamda kommunikativ qobiliyatlari o'rganiladi. Shuningdek, nutq buzilishlarining bolaning emotsional holati va ijtimoiy moslashuviga ta'siri ham tahlil etilgan. Maqola yakunida psixodiagnostika asosida erta tashxis va korreksion ishlarni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha yosh, nutq buzilishi, psixodiagnostika, logopedik tashxis, nutq rivojlanishi, psixik jarayonlar, korreksion pedagogika, kommunikativ kompetensiya.*

ПСИХОДИАГНОСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ НАРУШЕНИЙ РЕЧИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. *В статье анализируются психодиагностические аспекты речевых нарушений у детей дошкольного возраста. Рассматриваются нормативные этапы развития речи, основные причины речевых нарушений и психодиагностические методы их выявления. В исследовании изучается речевая активность, уровень психического развития и коммуникативные способности детей с использованием методов логопедической диагностики, наблюдения, интервьюирования и специального тестирования. Также анализируется влияние речевых нарушений на эмоциональное состояние и социальную адаптацию ребенка. В заключении статьи даны рекомендации по организации ранней диагностики и коррекционной работы на основе психодиагностики.*

Ключевые слова: *дошкольный возраст, речевые нарушения, психодиагностика, логопедическая диагностика, речевое развитие, психические процессы, коррекционная педагогика, коммуникативная компетентность.*

PSYCHODIAGNOSTIC ASPECTS OF SPEECH DISORDERS IN PRESCHOOL CHILDREN

Abstract. *This article analyzes the psychodiagnostic aspects of speech disorders in preschool children. The article covers the normative stages of speech development, the main causes of speech disorders, and the psychodiagnostic methods used to identify them. The study studies the speech activity, level of mental development, and communicative abilities of children using speech therapy diagnosis, observation, interviewing, and special testing methods. The impact of speech disorders on the child's emotional state and social adaptation is also analyzed. At the end of the article, recommendations are given for organizing early diagnosis and correctional work based on psychodiagnostics.*

Key words*: preschool age, speech disorders, psychodiagnostics, speech therapy diagnosis, speech development, mental processes, correctional pedagogy, communicative competence.*

Kirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning to'liq va to'g'ri rivojlanishi ularning umumiy psixik, ijtimoiy hamda intellektual rivojlanishining muhim omillaridan biridir. Bola nutqi uning tafakkuri, hissiyoti va atrof-muhit bilan muloqotga kirishish qobiliyatini ifodalaydi. Shu sababli

maktabgacha yosh davrida nutq rivojlanishidagi har qanday og‘ishlar bolaning keyingi ta’lim jarayonida, ijtimoiylashuvda hamda shaxs sifatida shakllanishida sezilarli qiyinchiliklar tug‘diradi.

Hozirgi kunda nutq buzilishlari turli shakllarda - tovush talaffuzidagi nuqsonlar, so‘z boyligining cheklanganligi, grammatik tuzilmaning buzilishi, duduqlanish va boshqalar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Bunday holatlar ko‘pincha markaziy asab tizimi faoliyatidagi buzilishlar, psixologik travmalar, ijtimoiy muhitning salbiy ta’siri yoki tarbiyadagi kamchiliklar bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli nutq buzilishlarini erta aniqlash va ularning psixologik omillarini o‘rganish zamonaviy psixologiya va logopediyaning dolzarb masalalaridan biridir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishlarini o‘z vaqtida aniqlash, ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash va korreksion chora-tadbirlarni belgilashda psixodiagnostika muhim o‘rin tutadi. Psixodiagnostik tadqiqotlar yordamida bola nutqining rivojlanish darajasi, psixik jarayonlarning holati (diqqat, xotira, tafakkur, emotsional soha) hamda shaxsiy xususiyatlari aniqlanadi. Bu esa logopedik va psixologik yordamni individuallashtirish imkonini beradi.

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishlarining psixodiagnostik jihatlari, ularni aniqlash metodlari va diagnostik natijalardan foydalanishning samarali yo‘llari tahlil qilinadi.

So‘nggi yillarda jamiyatimizda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ayniqsa, maktabgacha ta’lim bosqichida bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash masalalariga katta e’tibor qaratilmoqda. Bola shaxsining to‘laqonli shakllanishida nutqning rivojlanish darajasi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki nutq – bu bolaning fikrlash, o‘z fikrini ifoda etish, atrofdagilar bilan muloqotga kirishish va ijtimoiy tajriba orttirish vositasidir.

Ammo amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, maktabgacha yoshdagi bolalar orasida turli darajadagi nutq buzilishlari tobora ko‘payib bormoqda. Bunday nuqsonlar nafaqat bola nutq faoliyatini, balki uning hissiy-irodaviy sohasini, intellektual rivojlanishini va ijtimoiy moslashuvini ham salbiy ta’sirga olib keladi. Shuning uchun nutq buzilishlarini erta aniqlash va ularning psixologik hamda fiziologik omillarini chuqur tahlil qilish bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy masala hisoblanadi.

Psixodiagnostika metodlari orqali nutq buzilishlarining turlarini aniqlash, ularning kelib chiqish sabablarini o‘rganish, bolaning psixik rivojlanishidagi o‘ziga xosliklarni baholash imkoniyati mavjud. Bu esa logopedik va psixologik korreksiya jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish hamda har bir bolaga individual yondashuvni ta’minlashga yordam beradi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida bolalar bilan ishlovchi pedagog-psixolog va logoped mutaxassislar faoliyatini rivojlantirish, ularni zamonaviy diagnostik texnologiyalar bilan qurollantirishga alohida e’tibor qaratilayotgani mazkur mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi. Shu jihatdan, maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishining psixodiagnostik jihatlarini ilmiy asosda o‘rganish ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, bolalar shaxsining har tomonlama barkamol rivojlanishiga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda maktabgacha yoshdagi nutq buzilishlarini o‘rganishga qaratilgan maqolalar va konferensiya materiallari soni ortmoqda. Mahalliy tadqiqotlar asosan nutq buzilishlarining turlari, risk-faktorlar, logopedik baholash va reabilitatsiya usullariga e’tibor qaratadi. Bir qancha maqolalarda maktabgacha yoshda 2–6 yosh oralig‘idagi bolalarda og‘irlik darajalari, logopedik baholash natijalari va erta diagnostika ahamiyati haqida ma’lumot berilgan [1].

O‘zbekiston tadqiqotlarida amaliy yo‘nalish - maktabgacha ta’lim muassasalarida logopedik ishni tashkil etish, oila va atrof-muhit omillari, hamda o‘yin metodikalarining nutq rivojiga ta’siri alohida o‘rganilmoqda. Shu bilan birga raqamli yechimlar (mobil ilovalar, onlayn maslahatlar) nutq rivoji kechikkanlar uchun xizmat ko‘rsatishni kengaytirish yo‘lida sinovdan o‘tkazilmoqda[2].

Psixodiagnostika jihatidan: mamlakat ichidagi tadqiqotlar ko‘pincha kompleks yondashuvni (obektiv testlar + kuzatuv + ota-ona anketalari) qo‘llashni taklif qiladi; lekin standartsiz testlar, til va madaniy moslashuv zarurati va milliy normativ bazaning cheklanishi - muammolar sifatida qayd etiladi[3].

MDH ilmiy maktablari nutq buzilishlarini klassifikatsiya qilish, kasallik mexanizmlarini aniqlash va logopedik reablitatsiya usullarini rivojlantirishda uzoq traditsiyaga ega. Ko‘plab rus tilidagi maqolalar pedagogik, nevrologik va psixologik tahlilni birlashtirgan tadqiqotlarni taqdim etadi

- masalan, umumiy nutq yetishmovchiligi, disartriya, alaliya va fonologik buzilishlar bo‘yicha klinik va epidemiologik tahlillar[4].

MDH tadqiqotlarida psixodiagnostik jarayon ko‘pincha multidistsiplinar guruh (logoped, psixolog, nevrolog, pediatr) yordamida amalga oshiriladi; diagnostika uchun maxsus ruscha testlar va baholash vositalari ishlab chiqilgan, ammo ular boshqa tillarga (masalan, turkiy yoki o‘zbek) bevosita ko‘chirilganda moslashuv talab qiladi. Shu sababli MDH amaliyotida til va madaniy kontekstni hisobga olgan adaptatsiya va normativ o‘rganish muhim deb topilgan[5].

MDH adabiyotida ham diagnostika aniqligini oshirish va “false positive/negative” holatlarini kamaytirish masalalari - muhim mavzulardan. Bu sohada turli tasniflamalar va diagnostik me’zonlar ustida bahslar davom etmoqda[6].

Xalqaro tadqiqotlar (AQSh, Yevropa, Janubi-Sharqiy Osiyo va boshqalar) psixodiagnostika uchun standartlashtirilgan skrining va baholash vositalarini (normativlar, fonologik testlar, artikulyatsiya sinovlari, til-kommunikatsiya baholari) keng qo‘llaydi. Keng ko‘lamli tadqiqotlar nutq tovush buzilishlarining ko‘lamini va ularning kelajakdagi o‘qish-yazish qobiliyatiga ta’sirini o‘rganib, erta identifikatsiya va aralashuvning ijobiy effekti haqida ishonchli dalillar beradi[7].

Ko‘p millatli va ko‘p tilli bolalarni diagnostika qilish borasida so‘nggi sharhlar va tavsiyalar ICF (International Classification of Functioning) kabi ramkalarni qo‘llashni, tilga xos normativlarni hisobga olishni va madaniy moslashtirilgan baholashni tavsiya etadi. Masalan, ko‘p tilli bolalar bilan ishlashda test natijalarini faqat bitta til standartlari bilan talqin qilish noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin - bu nuqta ko‘plab xalqaro qayta ko‘rib chiqishlarda ta’kidlangan[8].

Interventsiyalarni baholovchi sistematik sharhlar erta va tizimli aralashuv (individual logopedik mashg‘ulotlar, oilaviy qo‘llab-quvvatlash, maktabgacha tarbiyaviy muhitni moslashtirish) samaradorligini qo‘llab-quvvatlaydi. Biroq, turli aralashuv turlarining qaysi guruhlarda eng samarali ekanligi bo‘yicha tadqiqotlar hali ham davom etmoqda.

Psixodiagnostik jihatlar - sifatida ekrin skrining bo’yicha maktabgacha yoshda keng qamrovli skrining (tashqi kuzatuv, ota-ona anketasi, oddiy artikulyatsion va til-vazifa testlari) erta identifikatsiya uchun muhim. Xalqaro va mahalliy tadqiqotlar buni takrorlab tasdiqlaydi.

Standartlashtirilgan testlar va normativlar orqali agar mavjud bo‘lsa, tilga mos normativlardan foydalanish - aniqlikni oshiradi; Aks holda, moslashtirilgan diagnostik protokollar ishlab chiqish zarur.

Multidistsiplinar baholash orqali nutq buzilishlari ko‘pincha nevrologik, kognitiv va psixososial omillar bilan bog‘liq - shuning uchun logoped + psixolog + pediatr/nevrolog birgalikda qaror qabul qilishi kerak.

Madaniy va tillararo moslashuv orqali MDH va O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ruscha yoki inglizcha testlarni bevosita tarjima qilib qo‘llash noto‘g‘ri xulosalarga olib keladi - normativlarni mahalliy populyatsiyada qayta o‘rganish talab etiladi.

Tadqiqot natijalari. Metodikamizda “R.E. Levina va G.A. Volkova tomonidan ishlab chiqilgan nutq rivojlanish darajasini baholash metodikasi”dan foydalandik.

1-jadval

“R.E. Levina va G.A. Volkova tomonidan ishlab chiqilgan nutq rivojlanish darajasini baholash metodikasi” natijalari

Ko‘rsatkich	Umumiy son	Foiz (%)
Umumiy bola soni	150	100
O‘g‘il bolalar	80	53,3
Qiz bolalar	70	46,7
Yosh oralig‘i	4–6 yosh	-

Fonetik-fonematik rivojlanish
Lug‘at boyligi
Grammatik tuzilma
Nutqning izchilligi va mantiqiyligi

Har bir ko‘rsatkich 5 balli tizimda baholangan (1 – juda past, 5 – norma).
Ballar asosida quyidagi darajalar aniqlanadi:


1–2 ball: og‘ir nutq buzilishi

3 ball: o‘rtacha daraja

4–5 ball: norma yoki yengil kechikishTadqiqotga jami 150 nafar maktabgacha yoshdagi bola (4–6 yosh) jalb etilgan bo‘lib, ulardan 80 nafari o‘g‘il, 70 nafari qiz bolalardir. Bolalar asosan davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanayotgan, jismoniy va aqliy jihatdan sog‘lom, biroq nutq rivojlanishida turli darajadagi qiyinchiliklarga ega guruhlardan tanlab olingan.

Tadqiqot davomida R.E. Levina va G.A. Volkova tomonidan ishlab chiqilgan **“Nutq rivojlanish darajasini baholash metodikasi”**ning o‘zbek tiliga moslashtirilgan shakli qo‘llanildi. Baholash jarayonida har bir bolaning fonematik idroki, lug‘at boyligi, grammatik tuzilmani shakllantirish darajasi va nutqning izchilligi kabi to‘rtta asosiy ko‘rsatkich o‘lchandi.

Metodik kuzatishlar natijasida bolalarning nutq rivojlanishidagi farqlar nafaqat individual, balki jinsiy omilga ko‘ra ham sezilarli ekanligi aniqlandi.



1-rasm. “R.E. Levina va G.A. Volkova tomonidan ishlab chiqilgan nutq rivojlanish darajasini baholash metodikasi” natijalari

Mazkur diagrammada maktabgacha yoshdagi 150 nafar bolaning nutq rivojlanish darajalari foiz ko‘rinishida ifodalangan. Diagrammadan ko‘rinib turibdiki:

Og‘ir nutq buzilishiga ega bolalar - 23,3 %;

O‘rtacha darajadagi nutq rivojlanish - 34,7 %;

Yengil yoki normal rivojlanish darajasi - 42 % ni tashkil etgan.

Bu taqsimotdan ko‘rinadiki, tadqiqot ishtirokchilarining deyarli yarmi (42 %) nutq rivojlanishida yosh me’yorlariga yaqin darajada, biroq 23,3 % holatlarda jiddiy logopedik aralashuvga ehtiyoj mavjud.

Bu natija maktabgacha ta’lim muassasalarida erta diagnostika va logopedik kuzatuv tizimini yo‘lga qo‘yish zarurligini ko‘rsatadi. Chunki og‘ir buzilishlar o‘z vaqtida aniqlanmasa, keyingi bosqichlarda o‘qish, yozish va ijtimoiy moslashuv jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Umuman olganda, bolalarda nutq rivojlanish darajalarining turlicha taqsimlanganini va individual farqlarning yuqoriligini yaqqol aks ettiradi.

2-jadval

Jins omili bo‘yicha “R.E. Levina va G.A. Volkova tomonidan ishlab chiqilgan nutq rivojlanish darajasini baholash metodikasi” natijalari

Nutq darajasi	O‘g‘il bolalar (n=80)	Qiz bolalar (n=70)	Umumiy (%)
Og‘ir buzilish	25 (31,3%)	10 (14,3%)	23,3%
O‘rtacha	28 (35,0%)	24 (34,3%)	34,7%
Yengil / norma	27 (33,7%)	36 (51,4%)	42,0%

O‘g‘il bolalarda nutq buzilishining og‘ir darajasi yuqoriroq (31,3%), qiz bolalarda esa yengil yoki norma darajasi yuqori (51,4%). Bu farq psixologik-pedagogik kuzatishlarda ham tasdiqlangan.

Tahlil natijalariga ko‘ra, bolalarning 23,3% da og‘ir nutq buzilishi, 34,7% da o‘rtacha darajadagi kechikish, 42,0% da esa norma holati qayd etilgan.

Jinsiy farq aniq seziladi: o‘g‘il bolalar orasida nutq buzilishining og‘ir shakllari ko‘proq.

Korrelyatsion bahoda fonematik rivojlanish va grammatik tuzilma o‘rtasida o‘rta darajali musbat bog‘liqlik (r≈0,62) kuzatilgan.

Psixodiagnostik xulosa: maktabgacha yoshda nutq rivojlanishida jins, kognitiv rivojlanish sur’atlari va atrof-muhit (oila, bog‘cha) omillari muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu namunaviy tahlil shuni ko‘rsatadiki maktabgacha yoshdagi bolalarning qariyb choragi nutq rivojlanishida sezilarli buzilishga ega, psixodiagnostik metodikalar (Levina-Volkova usuli) bu holatlarni erta aniqlash uchun samarali, jinsiy omil va sotsial muhit farqlari diagnostika natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi;

Bunday tadqiqotlar natijasida logopedik aralashuvni erta bosqichda yo‘lga qo‘yish imkoniyati oshadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, “Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishining psixodiagnostik jihatlari” mavzusidagi tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshda nutq rivojlanishi bolaning umumiy psixik, ijtimoiy va intellektual yetukligining muhim ko‘rsatkichidir. Nutq buzilishlari erta yoshda aniqlanmasa, keyingi bosqichlarda o‘qish, yozish, ijtimoiy moslashuv va shaxsiy rivojlanishda jiddiy qiyinchiliklarga sabab bo‘ladi.

1. 150 nafar bola misolida o‘tkazilgan psixodiagnostik tahlil natijalariga ko‘ra:

2. Tadqiqot ishtirokchilarining 23,3 foizida og‘ir nutq buzilishlari, 34,7 foizida o‘rtacha darajadagi kechikishlar, 42 foizida esa yengil yoki norma holati qayd etilgan.

3. Jinsiy farqlar mavjud: o‘g‘il bolalarda og‘ir nutq buzilishlari nisbatan ko‘p (31,3 %), qiz bolalarda esa normal nutq rivojlanishi ustun (51,4 %).

4. Fonematik, leksik va grammatik rivojlanish ko‘rsatkichlari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik aniqlangan bo‘lib, bu nutq tizimining kompleks va ko‘p omilli xususiyatini tasdiqlaydi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshda nutq buzilishlarini erta diagnostika qilish logopedik aralashuv samaradorligini oshiradi, bolaning psixik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi va ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli moslashuviga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Лурия А. Р. Язык и сознание. – Москва: Академия, 2002. – 320 с.
2. Выготский Л. С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 1999. – 352 с.
3. Леонтьев А. А. Основы психолингистики. – Москва: Смысл, 2003. – 288 с.
4. Жинкин Н. И. Механизмы речи. – Москва: Наука, 1982. – 160 с.
5. Ефименкова Л. Н. Диагностика нарушений речи у детей дошкольного возраста. – Москва: Владос, 2010. – 224 с.
6. Лопатина Л. В., Серебрякова Н. В. Коррекция нарушений речи у дошкольников. – Москва: Просвещение, 2016. – 192 с.
7. Филичева Т. Б., Чиркина Г. В. Логопедия: Нарушения речи у детей дошкольного возраста. – Москва: Владос, 2015. – 256 с.

Eshquvvatov To'lqinjon Eshquvvatovich
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim mudiri
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
E-mail: t.eshquvvatov@mail.ru

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KONFLIKTOLOGIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarda konfliktologik kompetensiyani shakllantirish jarayonining ilmiy-nazariy va amaliy asoslari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida pedagogik jarayonlarda nizolarning kelib chiqish sabablari, ularni konstruktiv hal etish yo'llari hamda profilaktikasini amalga oshirishga xizmat qiluvchi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar aniqlangan. Tajriba-sinov ishlari asosida nizo profilaktikasiga oid o'quv kursining samaradorligi baholangan hamda oliy ta'limda konfliktologik yondashuvni joriy etishning metodik asoslari ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar*: konfliktologik kompetensiya, pedagogik nizo, nizo profilaktikasi, konstruktiv konflikt, pedagogik jarayon, tashkiliy-pedagogik shart-sharoit.*

ОРГАНИЗАЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ КОНФЛИКТОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретические и практические основы формирования конфликтологической компетентности будущих педагогов в системе высшего образования. На основе проведённых анкет, наблюдений и экспериментов выявлены причины возникновения педагогических конфликтов и пути их конструктивного разрешения. Обоснованы организационно-педагогические условия профилактики конфликтов в учебных процессах. Результаты исследования направлены на повышение профессиональной подготовки будущих учителей и эффективности образовательного процесса.*

Ключевые слова: *конфликтологическая компетентность, педагогический конфликт, профилактика конфликтов, конструктивное разрешение, педагогический процесс, образовательная среда.*

ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR DEVELOPING CONFLICTOLOGICAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation. *This article analyzes the theoretical and practical foundations for developing conflictological competence among future teachers in higher education institutions. Based on surveys, observations, and experimental data, the causes of pedagogical conflicts and effective ways to manage and prevent them are identified. The research substantiates the organizational and pedagogical conditions that enhance constructive conflict resolution in educational environments. The findings contribute to improving professional readiness and teaching effectiveness of future educators.*

Key words: *conflictological competence, pedagogical conflict, conflict prevention, constructive resolution, higher education, professional development.*

Bugungi kunda ta'lim tizimi nafaqat shaxsning intellektual salohiyatini namoyon etuvchi omil, balki insonlar o'rtasidagi ijtimoiy-madaniy munosabatlarni aks ettiruvchi jarayon sifatida ham e'tirof etilmoqda. Shu boisdan, ta'lim jarayonini nizolardan xoli, sog'lom psixologik muhitda tashkil etish, talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish va ziddiyatli holatlarni konstruktiv yo'l bilan bartaraf etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

So‘nggi yillarda oliy ta’lim muassasalarida nizoli vaziyatlarning oldini olish, ularni tahlil qilish va boshqarishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy izlanishlar ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Ta’lim muassasalarida pedagogik nizolar tabiatini o‘rganish, ularning kelib chiqish sabablari va zamonaviy profilaktika mexanizmlarini aniqlashga bag‘ishlangan tadqiqotlar kengaymoqda.

Pedagogik faoliyatga endigina kirishayotgan yosh mutaxassislar o‘z kasbiy faoliyatining ilk davrlaridanoq turli nizoli vaziyatlarga duch kelishi tabiiy holatdir. Ish joyiga moslashish, hujjatlar bilan ishlash, rahbariyat va jamoa bilan o‘zaro munosabat o‘rnatish jarayonida paydo bo‘ladigan ziddiyatlar ko‘pincha psixologik tanglik, stress, kasbiy ishonchsizlik yoki motivatsiyaning pasayishiga sabab bo‘ladi.

Bunday holatlarning yuzaga kelishida, asosan, yosh pedagoglarning oliy ta’lim jarayonida yetarli darajada konfliktologik tayyorgarlikka ega emasligi, ziddiyatlarni tahlil qilish va konstruktiv hal etish bo‘yicha kompetensiyalarining shakllanmaganligi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli, pedagoglarda konfliktologik kompetensiyani rivojlantirish zamonaviy ta’limning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi: Pedagogik nizolarni oldini olish va bo‘lajak pedagoglarda konfliktologik madaniyatni rivojlantirish masalalari ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlar N. Azizxodjaeva, R. Jo‘raev, X. Ibraimov, A. Xoliqov, N. Egamberdieva, Sh. Qurbonov, E. Seytxalilov kabi mahalliy olimlar hamda G. A. Zasobina, N. V. Savin, V. M. Afonkova, G. I. Koz’rev, N. Devenport, M. Posenberg, P. Smit, S. Sharp, A. Dezett singari xorijiy tadqiqotchilarning asarlarida o‘z aksini topgan.

Mazkur manbalarda pedagogik konfliktning mohiyati, uning turlari, sabablari va konstruktiv yechimlarini shakllantirish mexanizmlari ilmiy asosda yoritilgan. Jumladan, nizo jarayonining tipik belgilariga quyidagilar kiritiladi [2; 23-b]:

* natijaning oldindan noma’lumligi, ya’ni nizo ishtirokchilarining hech biri mojaro yakunini yoki uning oqibatlarini aniq tasavvur eta olmaydi;

* tomonlarning maqsadlari va manfaatlaridagi nomuvofiqlik;

* ishtirokchilarning o‘zaro harakat strategiyalaridagi tafovutlar.

Har qanday nizo o‘z mohiyatiga ko‘ra ob’ektiv va sub’ektiv omillar, real yoki taxminiy qarama-qarshi fikrlarning to‘planishi natijasida shakllanadi. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, fikrlar o‘rtasidagi oddiy ziddiyatning nizoga aylanishi uchun quyidagi shartlar yetarlidir [2; 24-b]:

1. vaziyatning ishtirokchilar uchun shaxsiy yoki ijtimoiy ahamiyat kasb etishi;

2. qarama-qarshi tomonlardan birining boshqa ishtirokchilar maqsadlariga erishish yo‘lidagi to‘siq sifatida namoyon bo‘lishi;

3. ishtirokchilardan kamida bittasining sabr va bag‘rikenglik chegarasining tugashi.

Ta’lim jarayonida yuzaga keladigan ziddiyatlar, asosan, didaktik jarayon bilan bog‘liq murakkab muammolardan kelib chiqadi. Xususan [5; 118-b]:

ta’lim oluvchilarga taqdim etilayotgan o‘quv materiali ularning tafakkur darajasiga mos kelmasligi;

o‘quv materialining haddan ziyod nazariy xarakterda bo‘lishi, amaliy faoliyat bilan yetarlicha bog‘lanmaganligi;

talabalarda mavzuni o‘rganish yoki kasbiy motivatsiyaning sustligi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagogik nizolarni profilaktika qilish, bo‘lajak o‘qituvchilarda konfliktologik kompetensiyani shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari bo‘yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, oliy ta’lim muassasalari sharoitida ushbu jarayonning bosqichlari, mexanizmlari va pedagogik shart-sharoitlarini chuqur o‘rgangan ishlar hali yetarli emas.

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu tadqiqot doirasida ilgari surilgan nazariy qarashlarni amaliy sinovdan o‘tkazish, natijalarni tajriba orqali tekshirish va ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish asosiy maqsad qilib olindi. Tadqiqotning bosh yo‘nalishi-bo‘lajak o‘qituvchilarning nizoli vaziyatlar profilaktikasiga tayyorligi hamda pedagogik faoliyatda konfliktologik kompetensiyalarini rivojlantirish tizimini takomillashtirishdan iborat bo‘ldi. Shuningdek, ishlab chiqilgan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar orqali o‘quv jarayonida sub’ektlarning faolligi va ta’lim samaradorligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishlari davomida quyidagi bosqichlarda ishlar olib borildi:

Nizolar sabablari va xususiyatlarini o‘rganish bosqichi. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar, professor-o‘qituvchilar hamda boshqaruv xodimlari (rektorat vakillari) ishtirokida maxsus anketa-so‘rovnomalar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnomalar yordamida ta’lim sub’ektlari o‘rtasida yuzaga kelayotgan nizolar sabablari, ularning tabiati va ijtimoiy-psixologik omillar tahlil qilindi. Mazkur metodika muassasa jamoasi ichida sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirish, hamkorlik aloqalarini mustahkamlash hamda mavjud ziddiyatlarning ildiz omillarini aniqlash imkonini berdi.

2. Konfliktologik tayyorgarlik va nizo profilaktikasini o‘qitish muammolarini tahlil qilish. Tadqiqot jarayonida talabalar va pedagoglar o‘rtasida konfliktologik kompetensiyalar darajasini aniqlovchi mezonlar ishlab chiqildi. Ushbu mezonlar asosida nizo profilaktikasi fanini o‘qitish zarurati, mavjud amaliy tajriba va muammolar o‘rganildi. Anketa savollari “tasdiqlash–inkor etish–munosabat bildirish” tipida tuzilib, o‘qituvchi va talabalar o‘quv jarayonining mazmunini takomillashtirish zaruratiga munosabat bildirgan holda fikr almashish imkoniga ega bo‘ldilar.

3. Nizolashuvchanlik darajasini aniqlash bosqichi. Bu yo‘nalishda respondentlarning ijtimoiy muloqotda, kasbiy faoliyatda va kundalik hayotdagi ziddiyatli vaziyatlarga bo‘lgan reaksiyalarini aniqlashga qaratilgan psixologik metodikalar qo‘llanildi. Talabalarning nizoli holatlarga munosabati, hissiy barqarorligi va o‘zini nazorat qilish qobiliyatlari tahlil qilindi. Bu natijalar asosida bo‘lajak pedagoglarda konfliktni oldindan ko‘ra bilish, o‘zini baholash va his-tuyg‘ularni boshqarish ko‘nikmalari shakllanish jarayoni baholandi.

Tajribaning muhim qismi sifatida, “Talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda nizo profilaktikasi” nomli maxsus o‘quv kursi ishlab chiqilib, pedagogik amaliyot jarayoniga tatbiq etildi. Ushbu kurs orqali talabalar real o‘quv jarayonida nizoli vaziyatlarni tahlil qilish, ularni bartaraf etish va konstruktiv muloqot yuritish ko‘nikmalarini egalladilar.

Nizolarni tahlil qilish jarayonida maqsadlarning bir-biriga yaqinlashuvi, ijtimoiylashuvi hamda ob’ektivlashuvi kuzatildi. Shu sababli, nizo profilaktikasini tashkil etishda o‘quv mazmunini quyidagi tamoyillar asosida takomillashtirish lozim deb topildi (1-jadval).

1-jadval. Nizo profilaktikasiga oid o‘quv tarkibni takomillashtirish tamoyillari

Xususiy tamoyillari	Umumiy tamoyillari	Taktik tamoyillari
Har qanday axborot, yangilik va bildirilayotgan fikrni sifatida ob’ektiv baholash	Konfliktologiyaning nazariy muammolari, uning shakllanish va rivojlanish tarixi haqidagi bilimlar tizimini shakllantirish	Nizo keltirib chiqadigan sabab va omillarni tahlil qilish
Jamlangan axborotni yaxlit tarzda sharhlash, tasniflash, diagnostika qilish	Sub’ektlar munosabatlarida konstruktivlik	Tahlilning bosqichligi, tushunarliligi
Aniq vaziyatni e’tiborga olish	Nizolarni paydo bo‘lish dinamikasi, bosqichlari va ularning xususiyatlarini avvaldan prognozlash	Nizolarni oldini olish va hal etish usullarini bilish, amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish

Bizning fikrimizcha, bo‘lajak o‘qituvchilarning nizoli vaziyatlarga tayyorligi -ularning kasbiy tayyorgarligining ajralmas qismidir. Shu bois, o‘quv dasturlariga quyidagi yo‘nalishlar kiritilishi maqsadga muvofiq:

nizo profilaktikasi mazmuni va pedagogik xususiyatlari;

konfliktologik yondashuvning texnologik asoslari.

Talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, motivatsiyasini oshirish, mustaqil ishlash va o‘zini rivojlantirish mexanizmlarini aniqlashtirish bu jarayonning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Mazkur muammoni hal etish jarayonida:

pedagogik nizolar profilaktikasini ilmiy asosda o‘rganish;

maxsus o‘quv kurslarini o‘qitish strategiyasini aniqlash;

nizo profilaktikasi jarayonini bosqichma-bosqich modellashtirish;

bo‘lajak o‘qituvchilarning konfliktologik tayyorgarligini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqish zarur.

Pedagogik nizolarni konstruktiv tarzda hal etish - bu o‘qituvchi shaxsida mantiqiy fikrlash, strategik qaror qabul qilish, metodik tahlil va empatiya qobiliyatlarini rivojlantirishni taqozo etadi. Shu bois, bo‘lajak o‘qituvchilarni nizoli vaziyatlarga tayyorlash amaliyotini tashkil etish ilmiy asoslangan strategiya, metod va mezonlar majmuasiga tayangan holda olib borilishi lozim.

Tahlil va natijalar: Tadqiqotning tajriba-sinov ishlari bosqichida o‘tkazilgan dastlabki so‘rov-nomalar respondentlarning ta’lim jarayonidagi nizoli vaziyatlarga munosabatini aniqlashga qaratildi. Quyidagi jadvalda tajriba-sinovda ishtirok etgan respondentlar soni va ularning asosiy ko‘rsatkichlari keltirilgan.

So‘rov natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarning aksariyati o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi ni-zolar sabablari sifatida bir nechta muhim omillarni qayd etganlar. Jumladan, **“Sizningcha, talaba–o‘qituvchi nizolariga nimalar sabab bo‘ladi?”** degan savolga 49 nafar talaba (11,5%) o‘qituvchilarn-ing kasbiy saviyasi yetarli emasligini, 353 nafar talaba (82,9%) o‘qitilayotgan fan mazmuni real hayot bilan bog‘liq emasligini ta’kidlagan. Shuningdek, 198 nafar respondent (46,4%) o‘qituvchilarning muomala madaniyatidagi qo‘pollikni, 253 nafar (59,4%) esa talabalarning o‘z xulq-atvoridagi tarbiya-viy nuqsonlarni asosiy sabab deb bilgan.

Bundan tashqari, respondentlar tomonidan o‘qituvchilarning talabani tushunmasligi, eskicha fikrlash, tanish-bilishchilikning saqlanib qolayotgani ham nizolarni kuchaytiruvchi omillar sifatida ko‘rsatilgan.

“Sizningcha, Universitet–talaba o‘rtasidagi nizolarning sabablari nimalarda?” degan savolga berilgan javoblar esa quyidagicha taqsimlandi: 342 nafar talaba (80,2%) ichki tartib-qoidalarning had-dan tashqari rasmiyligi, 138 nafar (48,5%) erkin fikr bildirish va muloqot imkoniyatlarining che-klanganligini, 348 nafar (81,9%) esa infratuzilmaning qoniqarsiz holatini nizo manbai deb ko‘rsatgan. Shuningdek, 264 nafar respondent (62,1%) yashirin korrupsiya holatlarining mavjudligini, 217 nafar (51,5%) fakultetlarda darslarni tashkiliy jihatdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganini, 214 nafar (50,3%) baholash tizimining noaniqligini, 233 nafar (54,6%) kutubxona faoliyatining yetarli emasligini, 381 nafar (89,6%) esa internet tizimidagi texnik muammolarni asosiy sabab sifatida ko‘rsatgan.

Bundan tashqari, talabalar o‘z ehtiyojlari muntazam o‘rganilmasligi, motivatsiya yetishmasligi va rahbariyat tomonidan talaba muammolariga yetarlicha e’tibor qaratilmasligini ham nizolarni kuchaytiruvchi omillar sifatida ta’kidlab o‘tganlar.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, oliy ta’lim tizimida nizolarning kelib chiqishiga sabab bo‘layotgan omillarni bartaraf etish uchun o‘quv jarayoniga konstruktiv yondashuv asosida tashkil etilgan tash-kiliy-pedagogik shart-sharoitlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday shart-sharoitlarni quyidagi yo‘nalishlar orqali tizimlashtirish mumkin:


O‘quv rejalari va dasturlarini takomillashtirish: fan mazmunining o‘quvchilar ehtiyojlari, zamon talablari va mehnat bozori bilan mosligi, natijalarning oldindan rejalashtirilganligi va amaliyotga yo‘naltirilganligi.

Ta’lim jarayonlarini texnologiyalashtirish: mashg‘ulotlarning interaktivligi, o‘quv jarayonida er-kin fikr almashish imkoniyatining yaratilishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

O‘quv-texnik bazani mustahkamlash: ta’lim resurslari, adabiyotlar, laboratoriya jihozlari va in-fratuzilmaning zamonaviy talablarga javob berishi.

Boshqaruv tizimini takomillashtirish: boshqaruvda ochiqlik, raqamli yechimlar, adolatli tartib va qoidalar asosida boshqaruv madaniyatini rivojlantirish.

Baholash tizimini takomillashtirish: talaba bilimini baholash mezonlarining shaffofligi, ob’ek-tivligi, xalqaro standartlarga muvofiqligi.



1-rasm. O‘quv jarayonlaridagi nizolar profilaktikasining tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari yo‘nalishlari.

Mazkur tahlil natijalari tadqiqot doirasida bo‘lajak o‘qituvchilarni nizoli vaziyatlarni oldini olish va hal etish ko‘nikmalariga tayyorlashni nazarda tutuvchi maxsus o‘quv kursi ishlab chiqish zaruratini asoslab berdi. Ushbu maxsus kursning asosiy maqsadi-bo‘lajak pedagoglarda nizolarni bartaraf etish, konfliktologik kompetensiyalarni rivojlantirish, ijtimoiy hamkorlik va psixologik barqarorlikni shakllantirishdir.

Shunday qilib, o‘tkazilgan tadqiqotlar ta’lim jarayonida yuzaga keladigan nizolarni chuqur tahlil qilish, ularning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini ilmiy asosda o‘rganish, shuningdek, profilaktik choralarni ishlab chiqish zaruratini ochib berdi.

Xulosa va Takliflar, Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish jarayonida belgilangan maqsad va vazifalarning aniq qo‘yilgani tadqiqotning ilmiy farazi, o‘tkazilgan so‘rovnomalar tahlili hamda olingan amaliy natijalarda o‘z tasdig‘ini topdi. Olingan ma’lumotlar bo‘lajak o‘qituvchilarda konfliktologik kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tizimli yondashuv asosida tashkil etish zaruratini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalariga tayanib aytish mumkinki, oliy ta’lim muassasalarida nizolarni oldini olish va ularni konstruktiv tarzda hal etish bo‘yicha ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar bo‘lajak pedagoglarning kasbiy shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Nizo profilaktikasini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish o‘qituvchi–talaba munosabatlarining sifatini yaxshilash, jamoaviy hamkorlikni kuchaytirish va sog‘lom psixologik muhitni ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, nizo profilaktikasi faqat nizoli vaziyat paydo bo‘lganidan keyin qo‘llaniladigan choralar tizimi emas, balki pedagogik jarayonning barcha bosqichlariga singdirilishi lozim bo‘lgan kompleks oldini olish mexanizmidir. Bunda o‘qituvchi, talaba va rahbariyat o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, o‘quv jarayonining tashkiliy, metodik va texnologik jihatlarini uyg‘unlashtirish asosiy ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, ta’lim tizimida nizolarni samarali boshqarish va oldini olish quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

1. O‘quv reja va dasturlarni takomillashtirish-fanlar mazmunini zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlar, mehnat bozori talablari va talabalarning shaxsiy rivojlanish yo‘nalishlari bilan muvofiqlashtirish;

2. Ta’lim jarayonlarini texnologiyalashtirish-interfaol metodlar, innovatsion yondashuvlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali muloqot samaradorligini oshirish;

3. O‘quv-texnik ta’minotni rivojlantirish-o‘quv resurslarining sifatini yaxshilash, talabalarga ochiq va qulay ta’lim muhitini yaratish;

4. Boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish-shaffoflik, raqamlashtirish, teskari aloqa mexanizmlarini kuchaytirish orqali adolatli muhitni ta’minlash;

5. Baholash tizimini yangilash-talaba bilimini ob'ektiv, ochiq va xalqaro mezonlarga mos ravishda baholash tizimini joriy etish.

Mazkur yondashuvlar asosida tashkil etilgan nizo profilaktikasi ta'lim jarayonida yuzaga keluvchi ziddiyatlarni erta aniqlash, ularning oqibatlarini yumshatish va ijobiy yo'nalishda hal etish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy yetukligini, ijtimoiy faoliyatini va shaxsiy mas'uliyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Azizxodjaeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat : darslik. — Toshkent : O'qituvchi, 2003. — 176 b.
2. Deutsch M. The Resolution of Conflict: Constructive and Destructive Processes. — New Haven : Yale University Press, 1973. — 420 p.
3. Egamberdieva N. Oliy ta'limda o'qituvchilarning konfliktologik madaniyatini rivojlantirish yo'llari : monografiya. — Toshkent : TDPU, 2020. — 158 b.
4. Ibragimov X. Pedagogik jarayonlarda konfliktlarni boshqarishning psixologik xususiyatlari : monografiya. — Samarqand, 2018. — 144 b.
5. Jehn K. A. A Multimethod Examination of the Benefits and Detriments of Intragroup Conflict // Administrative Science Quarterly. — 1995. — Vol. 40, № 2. — P. 256–282.
6. Jo'raev R. Pedagogik konfliktologiya asoslari : o'quv qo'llanma. — Toshkent : Fan, 2019. — 192 b.
7. Qurbonov Sh. Pedagogik munosabatlarda konfliktlarni boshqarishning zamonaviy yondashuvlari : monografiya. — Toshkent, 2021. — 168 b.
8. Rahim M. A. Managing Conflict in Organizations. — New Brunswick : Transaction Publishers, 2011. — 336 p.
9. Thomas K. W., Kilmann R. H. Conflict Mode Instrument. — Mountain View : CPP Inc., 2008. — 45 p.
10. Wall J. A., Callister R. R. Conflict and Its Management // Journal of Management. — 1995. — Vol. 21, № 3. — P. 515–558.

Ibrogimova Dilnoza Xalilovna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

MAHMUD QOSHG‘ARIYNING “DEVONU LUG‘OT IT-TURK” ASARIDA KASB-HUNAR LEKSIKASINING SEMANTIK VA MORFOLOGIK YASALISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘ot it-turk” asarida uchraydigan kasb-hunar leksikasining semantik va morfologik yasalish jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda kasb-hunar nomlarining tarixiy-etimologik ildizlari, ularning semantik kengayish xususiyatlari hamda morfologik modellar asosida shakllanishi o‘rganilgan. Shuningdek, bu so‘zlarning hududiy, ijtimoiy va madaniy kontekstlarda qo‘llanilishidagi farqlar ham yoritiladi. Maqola tilshunoslik, tarix va etnografiya fanlari kesishmasidagi muhim ilmiy manba sifatida “Devonu lug‘ot it-turk”ning ahamiyatini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *semantik yasalish, turkiy til, qo‘shimcha, kasb-hunar so’zlari, kasb- hunar nomlari, tarixiy-etimologik ildiz, kasb-hunar leksikasi, semantika, morfologiya, etimologiya, tarixiy tilshunoslik.*

SEMANTIC AND MORPHOLOGICAL FORMATION OF PROFESSIONAL AND CRAFT VOCABULARY IN MAHMUD KASHGARI’S WORK “DĪWĀN LUGHAT AT-TURK”

Annotation*. This article analyzes the semantic and morphological formation processes of professional and occupational vocabulary found in Mahmud al-Kashgari’s “Dīwān Lughāt at-Turk.” The study examines the historical and etymological roots of craft and profession names, their semantic expansion features, and morphological formation models. It also highlights the differences in the usage of these words in regional, social, and cultural contexts. The article demonstrates the significance of “Dīwān Lughāt at-Turk” as an important scholarly source at the intersection of linguistics, history, and ethnography.*

Key words*: semantic formation, Turkic language, affix, occupational vocabulary, profession names, historical-etymological root, professional lexicon, semantics, morphology, etymology, historical linguistics.*

СЕМАНТИЧЕСКОЕ И МОРФОЛОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-РЕМЕСЛЕННОЙ ЛЕКСИКИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ МАХМУДА КАШГАРИ «ДЕВОНУ ЛУГ‘ОТ ИТ-ТУРК»

Аннотация. *В данной статье анализируются семантические и морфологические процессы формирования лексики профессий и ремёсел, встречающейся в произведении Махмуда Кашгари «Дивану лугат ит-турк». В исследовании рассматриваются историко-этимологические корни названий профессий, особенности их семантического расширения и модели морфологического образования. Кроме того, освещаются различия в употреблении этих слов в региональном, социальном и культурном контекстах. Статья показывает значение «Дивану лугат ит-турк» как важного научного источника на пересечении лингвистики, истории и этнографии.*

Ключевые слова: *семантическое образование, тюркский язык, аффикс, лексика профессий, названия профессий, историко-этимологический корень, профессиональная лексика, семантика, морфология, этимология, историческое языкознание.*

Kirish. Turkiy xalqlarning boy madaniy merosi, ayniqsa, til yodgorliklari ularning qadimiy hayoti, dunyoqarashi va ijtimoiy tuzilmasini o‘rganishda bebaho manba hisoblanadi. Shu jihatdan Mahmud Qoshg‘ariyning XI asrda yaratilgan “Devonu lug‘ot it-turk” asari nafaqat turkiy tillarning ilk yozma lug‘ati, balki o‘sha davrning madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi ensiklopedik

manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Asarda keltirilgan so‘z boyligi orasida kasb-hunar nomlari, mehnat jarayoniga oid atamalar ham salmoqli o‘rinni egallaydi. Bu leksik birliklar orqali o‘sha davr turkiy xalqlarining mehnat turlari, ijtimoiy tabaqalanishi va ishlab chiqarish tizimi haqida muhim ma’lumotlar olish mumkin. Kasb-hunar leksikasining semantik tahlili so‘zlarning ma’no tizimini, ularning turli kasb va faoliyat turlari bilan bog‘liqligini aniqlashga yordam beradi. Morfologik jihatdan esa bu so‘zlarning qanday so‘z yasovchi qo‘shimchalar yordamida hosil qilingani, ularning grammatik xususiyatlari va leksik qatlamdagi o‘rni o‘rganiladi. Ayniqsa, “Devonu lug‘ot it-turk”da uchraydigan kasb-hunar nomlari orqali turkiy tillarda so‘z yasalish jarayonlarining tarixiy ildizlarini kuzatish mumkin. Mazkur maqolada Mahmud Qoshg‘ariy asarida uchraydigan kasb-hunar leksikasining semantik tahlili hamda ularning morfologik yasalish xususiyatlari o‘rganiladi. Tadqiqot natijasida qadimgi turkiy tilning leksik tizimidagi kasb-hunar atamalarining shakllanish tamoyillari, ularning ma’no doirasi va tarixiy taraqqiyot bosqichlari aniqlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi va nazariyasi. Turkiy xalqlar tarixida kasb-hunar leksikasi xalqning ijtimoiy hayoti, mehnat faoliyati, urf-odatlari va madaniy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq. XI asr allomasi Mahmud Qoshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘ot it-turk” asari orqali nafaqat so‘z boyligini, balki o‘sha davr turkiy xalqlarining ijtimoiy-madaniy hayotini, kasbiy tuzilmasini ham batafsil tasvirlab bergan [1, 15]. Kasb-hunar so‘zlari tilning eng qadimiy qatlamlaridan bo‘lib, ular xalq hayotining ishlab chiqarish va ijtimoiy mehnat tizimini aks ettiradi. Shu sababdan bu leksik qatlamning semantik va morfologik tahlili turkiy tillarning tarixiy taraqqiyoti, dialektologik tafovutlari hamda ijtimoiy tuzilmasini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi.

Muhokama va natijalar. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagicha yasalish xususiyatlarini ko‘rib o‘tamiz:

1. Semantik yasalish xususiyatlari

Mahmud Qoshg‘ariy kasb-hunar leksikasining semantik tabiatiga alohida e’tibor qaratgan. U ayrim so‘zlarning asosiy ma’nodan ko‘chma yoki ijtimoiy kontekstga ko‘ra kengaygan shakllarini qayd etadi [2, 70].

Masalan: “Demirchi” - temir bilan ishlovchi ustani bildiradi, biroq Qipchoq hududida bu so‘z harbiy qurolsoz ma’nosida ham qo‘llangan.

“Yazuvchi” - dastlab yozuvchi, kotib ma’nosida, keyinchalik tarixiy voqealarni qayd etuvchi shaxsni bildirgan.

“Pishiruvchi” - taom tayyorlovchi ayolni anglatsa-da, ayrim qabilalarda diniy marosim uchun maxsus osh tayyorlovchi shaxsni bildirgan.

“Ustoz” - faqat o‘qituvchi emas, balki jamiyatning ma’naviy rahnamosi, urf-odatlar saqlovchisi sifatida ishlatilgan. Bu misollar kasb-hunar leksikasining semantik tarmoqlanishi jamiyat ijtimoiy hayoti bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. Qoshg‘ariy tahlilida ma’no kengayishi - tilning tarixiy, geografik va sotsiokultural o‘zgarishlari bilan uzviy aloqada ekanini isbotlaydi [3, 87].

2. Morfologik yasalish xususiyatlari. “Devonu lug‘ot it-turk”da morfologik yasalishning aniq modellarini ko‘rish mumkin. Qoshg‘ariy kasb-hunar so‘zlarini ikki asosiy yo‘l orqali hosil bo‘lishini ta’kidlaydi:

a) Fe’l ildizidan yasalgan kasb nomlari:

“yaz-” → yazuvchi (yozuvchi),

“so‘z-” → so‘zchi (so‘z aytuvchi),

“pishir-” → pishiruvchi (taom tayyorlovchi).

b) Buyum nomidan yasalgan kasb nomlari:

“temir” → temirchi,

“pichoq” → pichoqchi,

“to‘qi” → to‘qichi.

Qoshg‘ariy “-chi”, “-gar”, “-van” qo‘shimchalarining yasalishdagi faol rolini alohida ko‘rsatadi:

nakkaşgar - naqsh ishlovchi usta,

süvarivan - otliq askar,

chopanchi - xabar yetkazuvchi kishi.

Bu qo‘shimchalar o‘sha davr turkiy tillarining yasalish tizimida kasb-hunar nomlarini hosil qilish uchun eng produktiv morfemalar bo‘lgan.

d) Morfologik yasalishning madaniy asoslari

Qoshg‘ariy uchun so‘z faqat grammatik birlik emas - u ijtimoiy vazifani ham ifodalaydi.

Masalan:

“Otchi” - ot bilan shug‘ullanuvchi kishi bo‘lish bilan birga, harbiy ierarxiyada yuqori mavqega ega shaxsni bildirgan.

“O‘qchi” - kamonchi, lekin ko‘pincha qahramonlik va himoyachilik ramzi sifatida ishlatilgan [4, 25].

“Dehqon” - faqat yer bilan shug‘ullanuvchi emas, balki jamiyatning iqtisodiy tayanchi sifatida baholangan. Bu holatlar til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Kasb-hunar so‘zlarining yasalishi jamiyatdagi mehnat taqsimoti, ijtimoiy maqom va gender rollarini ham aks ettirgan.

e) Hududiy va fonetik farqlar

Mahmud Qoshg‘ariy tilning mintaqaviy farqlariga ham e’tibor qaratgan. Masalan:

Qipchoq lahjasida demirchi, Yettisuvda temirçi;

Karluk tilida chopar, O‘g‘uzlarda chopanchi;

Ba’zi hududlarda chorvador o‘rniga chorvachi shakli qo‘llangan.

Bu farqlar turkiy tillarning tarixiy birligi va dialektal tizimining shakllanishini yoritadi [5, 77].

f) Morfologik model va semantik kengayish

Qoshg‘ariy tomonidan kuzatilgan “ildiz + qo‘shimcha + ijtimoiy kontekst” modeli turkiy tillarda so‘z yasalishning universal tamoyiliga aylangan. Masalan:

pishiruvchi - harakat asosida faoliyat bildiruvchi,

so‘zchi-ustoz - murakkab kasb ifodasi,

temirchi - moddiy mehnat faoliyatini bildiruvchi birlik.

Ushbu model orqali kasb-hunar so‘zlari nafaqat til birligi, balki tarixiy-madaniy belgini ham o‘zida mujassam etgan [7, 77]. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘ot it-turk” asari turkiy til tarixida kasb-hunar leksikasining eng qadimgi va mukammal tahlilini bergan manbalardan biridir. Olim kasb nomlarining semantik ko‘lamini, morfologik tuzilishini va ularning ijtimoiy-madaniy asoslarini izchil yoritgan. Asardagi kasb-hunar so‘zlarining semantik kengayishi - ijtimoiy kontekst bilan bog‘liq, morfologik modeli - turkiy til tizimining barqaror qonuniyatlarini aks ettiradi, hududiy tafovutlari - dialektologik tahlil uchun muhim manbadir [6, 155].

Shunday qilib, “Devonu lug‘ot it-turk” nafaqat leksik manba, balki turkiy xalqlarning mehnat madaniyati va ijtimoiy tizimini o‘rganishda beqiyos ilmiy qadriyatga ega asardir.

Xulosa. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘ot it-turk” asari turkiy xalqlar tilining eng qadimiy va ishonchli manbalaridan biri bo‘lib, unda o‘sha davrning ijtimoiy hayoti, madaniyati, urf-odatlari hamda mehnat faoliyati o‘z aksini topgan. Asarda uchraydigan kasb-hunar leksikasi turkiy xalqlarning xo‘jalik tizimi, kasbiy tabaqalanish jarayoni va mehnat an’analarini o‘rganish uchun muhim til materiali sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, “Devonu lug‘ot it-turk”dagi kasb-hunar nomlari semantik jihatdan turli mehnat turlariga - dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik, hunarmandchilik, harbiy ishlar va boshqalarga oid bo‘lib, ularning ko‘pchiligi xalq turmush tarzi bilan chambarchas bog‘langan. Morfologik tahlil esa ko‘plab kasb-hunar nomlarining so‘z yasovchi qo‘shimchalar yordamida hosil qilinganini, bu esa qadimgi turkiy tildagi so‘z yasash tizimining boy va faol bo‘lganini ko‘rsatadi. Masalan, -chi, -lik, -g‘u, -gar kabi affikslar yordamida turli kasb nomlari yaratilgan. Shuningdek, bu leksik qatlamda ko‘plab so‘zlar hozirgi zamon turkiy tillarida ham saqlanib qolganini ko‘rish mumkin. Bu esa turkiy xalqlar orasidagi tarixiy va madaniy uzviylikni, tilning barqaror rivojlanish jarayonini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, Mahmud Qoshg‘ariy asaridagi kasb-hunar leksikasining semantik va morfologik tahlili turkiy tillarning tarixiy leksik qatlamini, ularning so‘z yasash imkoniyatlarini hamda xalq hayotining moddiy va ma’naviy madaniyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Bu esa nafaqat tilshunoslik, balki etnografiya, tarix va madaniyatshunoslik sohalari uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov N. K. Sun'iy intellekt va ta'lim tizimini modernizatsiyalash: O'zbekiston tajribasi. – Toshkent: Fan, 2023. – 156 b.
2. Abdullayeva M. R. Ta'limda raqamli texnologiyalar: imkoniyatlar va muammolar // O‘zbekiston Pedagogika jurnali. – 2024. – T. 15, № 3. – B. 45–62.
3. Rizayev B. S., Tursunova G. A. Pedagog kasbining transformatsiyasi zamonaviy sharoitda // Ta'lim va innovatsiya. – 2022. – T. 8, № 2. – B. 112–128.
4. Mirzayeva D. N. Sun'iy intellekt vositalari va o‘qituvchi professionalligini rivojlantirish // Pedagogik tadqiqotlar. – 2023. – T. 12, № 4. – B. 78–95.
5. Беляков С. А., Клячко Т. Л. Искусственный интеллект в образовании: возможности и угрозы. – Москва: Издательский дом Высшей школы экономики, 2021. – 214 с.
6. Игнатьева Е. Ю. Этические аспекты применения искусственного интеллекта в педагогической практике // Педагогика. – 2022. – Т. 86, № 7. – С. 34–47.
7. Уваров А. Ю. Трансформация педагогической профессии в условиях цифровизации образования // Вопросы образования. – 2023. – № 2. – С. 156–178.

Jalilova Xolidaxon Fayzullo qizi
Phd student of Namangan State University
E-mail: xolidaxon0111@gmail.com

FORMATION OF SOCIO-CULTURAL COMPETENCE OF SENIOR STUDENTS THROUGH EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

Abstract. *This research focusses on the effectiveness of educational (upbringing) tools in developing sociocultural competence among secondary school pupils. Using a sort of experiment approach, 28 pupils from two groups were separated into control and experimental groups. Over the lesson, the experimental group received organised treatments that included digital storytelling, collaborative cultural simulations, and peer-mentoring technologies. The results show that the experimental group outperformed the control group in terms of socio-cultural awareness, sympathetic attitudes, and intercultural communication abilities. This thesis makes recommendations for using educational technologies into classrooms to help foster comprehensive sociocultural development.*

Key words: *socio-cultural competence, upbringing technologies, project-based learning, intercultural education.*

TARBIYA TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA YUQORI SINF O‘QUVCHILARINING IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot umumta’lim maktab o‘quvchilarida ijtimoiy-madaniy kompetentsiyani shakllantirishda tarbiyaviy vositalarning samaradorligini o‘rganishga qaratilgan. Tajriba usulidan foydalanib, ikki guruhdagi 28 nafar o‘quvchi nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Dars jarayonida tajriba guruhi raqamli hikoya yaratish, hamkorlikdagi madaniy simulyatsiyalar va tengdoshlar murabbiyligi texnologiyalarini o‘z ichiga olgan maxsus tashkil etilgan mashg‘ulotlarni oldi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan ijtimoiy-madaniy xabardorlik, hamdardlik munosabatlari va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalari bo‘yicha yuqori natijalarga erishdi. Ushbu dissertatsiyada ta’lim texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berilib, o‘quv jarayonida ijtimoiy-madaniy rivojlanishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash yo‘llari ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar*: ijtimoiy-madaniy kompetensiya, tarbiya texnologiyalari, loyihaviy ta'lim (loyiha asosida o‘qitish), madaniyatlararo ta’lim.*

ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТАРШЕКЛАССНИКОВ С ПОМОЩЬЮ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИИ

Аннотация. *Данное исследование посвящено изучению эффективности воспитательных средств в формировании социокультурной компетенции у учащихся средней школы. Используя экспериментальный подход, 28 учеников были разделены на контрольную и экспериментальную группы. В ходе занятий экспериментальная группа получила специально организированные задания, включающие цифровое сторителлинг, коллективные культурные симуляции и технологии наставничества среди сверстников. Результаты показали, что экспериментальная группа превзошла контрольную по уровню социокультурной осведомлённости, эмпатии и межкультурных коммуникативных умений. В диссертации даны рекомендации по использованию образовательных технологий в учебном процессе для всестороннего содействия социокультурному развитию.*

Ключевые слова*: социокультурная компетенция, технологии воспитания, проектное обучения, межкультурное образование.*

Introduction. Globalisation, digital change, and the increasing value of intercultural communication are all having an impact on education's function in the twenty-first century. Modern schools are

intended to prepare pupils not only academically, but also for life in a multicultural culture that values cooperation, tolerance, and mutual respect. In this sense, the concept of sociocultural competency emerges as an important educational consequence. Socio-cultural competency is defined as an individual's capacity to communicate effectively with representatives from many cultures while respecting societal traditions, values, and standards. It brings together cultural knowledge, linguistic skills, critical thinking, and empathy. Such competence demands novel ways that go beyond typical subject-based training. Educational (upbringing) technologies such as project-based learning, WebQuest, role play, cultural workshops, debates, and digital learning materials are useful pedagogical methods for actively participating students in the learning process. Unlike traditional approaches, educational technologies promote an interactive atmosphere that encourages communication, collaboration, and real-world problem solving. The purpose of this article is to study the efficacy of introducing technologies in the process of developing students' socio-cultural competency, drawing on both theoretical foundations and practical experimental findings.

Literature Review. For senior students, the acquisition of socio-cultural competence is essential, as they stand at the threshold of higher education, professional development, and active social participation. Educational (upbringing) technologies-pedagogical strategies, methods, and digital tools provide effective means of fostering these competencies [1]. By integrating interactive, student-centered, and culturally oriented technologies into the teaching-learning process, educators can cultivate students' socio-cultural awareness and equip them with practical skills for intercultural communication [5].

In our republic, along with educational technologies, special attention has also been given to the development of upbringing (educational) technologies. Among national scholars, M. Quronov ("Five Blows to One Threat") [2], R. J. Ishmukhammadov ("Collective Creative Work in Practice") [3], Sh. T. Ergasheva (technology of moral education), and Z. Salieva (technology for developing moral and ethical qualities) [4] have developed certain upbringing technologies. However, a comprehensive and flexible upbringing technology had not yet been created in our republic. In response to this issue, Doctor of Pedagogical Sciences N. M. Egamberdieva developed and implemented the "Upbringing Technology for Forming a Highly Spiritual Personality" [4].

Research mMethodology. The research conducted experimental designing approaches and ways to examine the effectiveness of educational technologies in developing socio-cultural competence of senior students. The research was carried out in secondary school with students aged 16-18. As mentioned above, the study involved two groups 14 pupils each. One group named experimental group with 14 pupils received instruction through upbringing/ educational technologies and interactive methods. Another group, namely, control group followed the traditional teaching approach without the integration of upbringing technologies. The groups were selected using a random sampling method and they were balanced in terms of gender, age and general achievement to ensure the validity of the results. To measure the formation of socio-cultural competence, the following instruments were applied: Firstly, socio-cultural competence test assessed pupils' knowledge of cultural norms, traditions and cultural communication rules. Secondly, intercultural sensitivity questionnaire measured pupils' openness, empathy and tolerance toward other cultures. Thirdly, observation sheet used by teachers to record pupils' participation, cooperation and interaction in other cultures.

Afterwards, the collected data were analyzed using both quantitative and qualitative methods: quantitative analysis included descriptive statistics and comparative analysis between pre and post-tests results of both groups. However, qualitative analysis involved thematic coding of pupils' reflections, teachers' notes and interviews to identify patterns of socio-cultural development.

Results and discussion. The research generated the following results: Students experiencing upbringing technologies demonstrated increased international understanding, tolerance for different cultures, and willingness to collaborate in multicultural teams. Project-based tasks and WebQuest activities helped them improve their critical thinking and problem-solving abilities by requiring them to analyse cultural cases and suggest innovative solutions. Role-playing and debates helped students improve communication skills, empathy, and respect for opposing ideas. According to surveys, 78% of students in the experimental group expressed an increased interest in cultural studies and global

issues, while just 42% in the control group did. Teachers observed an increase in pupils' self-expression, cooperation, and accountability as modern technology facilitated active engagement and peer learning.

The findings show that upbringing technologies are an effective mechanism for developing sociocultural competence. Unlike traditional training, which often concentrates on knowledge reproduction, technologically advanced approaches create interactive and collaborative situations. These environments enable students to gain not only knowledge, but also personal values, social awareness, and intercultural abilities that are required in today's society. However, the success of such technology is dependent on various aspects, including teachers' professional preparation, access to digital resources, and motivation among pupils. Challenges such as inadequate time, unequal access to technology, and insufficient methodological training for instructors were also noted. Despite these restrictions, incorporating modern technologies into educational practice has tremendous benefits for preparing students to live and work in a different environment.

Conclusion. The study confirms that upbringing technologies are effective tools for shaping pupils' socio-cultural competence. They foster intercultural understanding, tolerance, critical thinking, and collaborative skills, all of which are vital in contemporary education. For optimal results, teachers should combine traditional methods with innovative upbringing technologies, ensuring a holistic and student-centered approach to education. The development of socio-cultural competency among students is one of the most important educational concerns of the twenty-first century. Upbringing technologies are effective tools in this process, providing a diverse range of pedagogical strategies that address both cognitive and emotive aspects of learning. Using project-based learning, cultural immersion, dialogic interaction, and service learning, educators may help students negotiate intercultural environments successfully and respectfully. Finally, sociocultural competency is more than a talent; it is a fundamental human attribute that promotes societal harmony, mutual understanding, and global solidarity. Successfully integrating parenting technology into school would thus contribute to developing a generation capable of constructive intercultural conversation and peaceful relationship.

References.

1. Dodge, B. Focusing WebQuests: The power of Internet-based inquiry. – San Diego: San Diego State University, 2001.

2. Қуронов М. Болам бахтли бўлсин, десангиз... – Тошкент: Маънавият, 2013. – 160 б.

3. Салиева З.Т. Педагогика олий таълим муассасалари талабларини маънавий-маданиятини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш: Пед. фан. док. (DSc) дисс. – Тошкент, 2017. – 337 б.

4. Эгамбердиева Н.М. Маданий-инсонпарварлик ёндашув асосида талабаларни шахсий ва касбий ижтимоийлаштириш назарияси ва амалиёти (Педагогика олий таълим муассасалари мисолида): Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2010. – 332 б.

5. Sevy-Biloon, J.; Chroman, T. Developing intercultural communicative competence through technology and project-based learning // *Journal of Applied Research in Higher Education.* – 2021. – Т. 13, № 2. – P. 482–495.

Kurbanova Nargiza
Senior teacher of International innovative University

SEMANTIC ANALYSIS OF PROPER NOUNS

Annotation. *The article explores the significance and complexity of proper nouns within the field of semantics. It delves into how proper nouns function in language, their role in communication, and the methodologies used for their analysis. The author emphasizes by defining proper nouns and distinguishing them from common nouns. It categorizes proper nouns into various types, such as personal names, geographical names, and organization names.*

Key words: *lexical items, translation challenges, polysemy, homonymy, idiomatic expressions, cultural references, meaning, nuance, misinterpretation, paraphrasing, equivalent expressions, cultural context*

ATOQLI OTLARNING SEMANTIK TAHLILI

Annotatsiya. *maqolada semantika sohasidagi atoqli otlarning ahamiyati va murakkabligi o‘rganilgan. Bu to‘g‘i ismlarning tilda qanday ishlashini, ularning muloqotdagi rolini va ularni tahlil qilish uchun ishlatiladigan metodologiyalarni o‘rganadi. Muallif to‘g‘ri otlarni aniqlash va ularni umumiy otlardan ajratish orqali ta’kidlaydi. U atoqli otlarni shaxsiy ismlar, geografik nomlar va tashkilot nomlari kabi har xil turlarga ajratadi.*

Kalit so'zlar: *leksik unsurlar, tarjima muammolari, polisemiya, omonimiya, idiomatik iboralar, madaniy havolalar, ma'no, nuance, noto‘g‘ri talqin, parafrazlash, ekvivalent iboralar, madaniy kontekst*

СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИМЕН СОБСТВЕННЫХ

Аннотация. *В статье исследуется значение и сложность имен собственных в области семантики. В нем рассказывается о том, как имена собственные функционируют в языке, их роли в коммуникации и методах, используемых для их анализа. Автор делает акцент на определении имен собственных и отличии их от нарицательных. Он подразделяет имена собственные на различные типы, такие как личные имена, географические названия и названия организаций.*

Ключевые слова: *лексические единицы, трудности перевода, многозначность, омонимия, идиоматические выражения, культурные отсылки, значение, нюанс, неправильное толкование, перефразирование, эквивалентные выражения, культурный контекст*

Introduction. Proper nouns serve as the cornerstone of identity in language, providing distinct labels for individuals, places, organizations, and various entities. Unlike common nouns, which denote general categories, proper nouns are unique identifiers that carry specific meanings and connotations. The semantic analysis of proper nouns is a critical area of study within linguistics and natural language processing, as it reveals how these nouns function in communication and contribute to our understanding of the world.

In recent years, the increasing volume of textual data generated across digital platforms has highlighted the importance of accurately identifying and analyzing proper nouns. This task is not merely a matter of recognition; it involves understanding the nuanced roles that proper nouns play in conveying information, establishing context, and facilitating effective communication. As such, researchers and practitioners in fields such as linguistics, artificial intelligence, and information retrieval have turned their attention to the complexities of proper noun semantics.

This article aims to explore the multifaceted nature of proper nouns through a comprehensive semantic analysis. We will examine their definitions, classifications, and cognitive aspects, as well as the challenges faced in their analysis. Additionally, we will delve into computational approaches that enhance our ability to process and understand proper nouns within various contexts. By shedding light

on these elements, we hope to contribute to a deeper understanding of how proper nouns operate within language and their significance in both human communication and technological applications.

Conclusion: In this regard, as mentioned above, it becomes especially relevant to study the reflection of religious consciousness in the linguistic picture of the world. Telelinguistics as an independent branch of linguistics can include the above-mentioned approaches to the study of religious language or focus on the study of the problem of language and religion using the achievements of a number of related linguistic sciences: text linguistics, cognitive linguistics, sociolinguistics, communicative linguistics, linguoculturology, etc.

The study of verbalization of religiously defined language phenomena at the mutual level is one of the directions of theology. The analysis of the linguistic material showed that the linguistic means of verbally expressing the religious view of the world are represented by multi-level linguistic units.

References.

1. Bi Jing'e. The religious picture of the world and its reflection in Russian phraseology / Bi Jinye // Russian text in the Eurasian context: language, literature, culture: Collection. Art. - Ulan-Ude: Buryat University Publishing House, 2003. - pp. 89-95.

2. Kryvelev, I. A. The religious picture of the world and its theological modernization / I. A. Kryvelev. – M.: Nauka, 1968. - 292 p.

3. Religion and society / V. I. Garadzha [and others]. – M.: Nauka, 1994. -300 p.

4. Spirkin, A. G. Philosophy / A. G. Spirkin. – M.: Gardariki, 2002. - 736 p.

5. Strelnik, O. N. Philosophy: Textbook / O. N. Strelnik. – M.: Yurait-Izdat, 2008. - 335 p.

6. Philosophy: Textbook for university students / Ed. Kokhanovskaya T.I. - Rostov-on-Don: Phoenix, 2002. -576 pp.

7. Kondrashov N. A. History of linguistic teachings. – M.: Education, 1979. – 224 p.

8. Krysin L.P. About one gap in the system of functional styles of the Russian language // Russian language at school. – 1994. – No. 3. P. 69–79.

9. Markina Z. A., Pomerants G. S. Great religions of the world. – M.: RIPOL, 1995. – 403 p.

10. Mechkovskaya N. B. Language and religion. – M.: FAIR, 1998. – 352 p.

11. Prokhvatilova O. A. Extralinguistic parameters and linguistic characteristics of religious style // Development and functioning of the Russian language. – Volgograd: VolGU, 2006. – pp. 19–26. (Bulletin of VolSU; issue 5. Ser. 2. Linguistics)

12. Religion and society: a textbook on the sociology of religion / author. V. I. Garadzha, E. D. Rutkevich. – M.: Nauka, 1994. – 300 p.

13. Reformatsky A. A. Introduction to linguistics. – M.: Education, 1967. – 544 p.

14. Tokarev S. A. Religion in the history of the peoples of the world. – 5th ed. – M.: Politizdat, 1986. – 576 p.

15. Cambridge Advanced Learner's Dictionary / ed. by E. Walter. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – 1792 p.

16. Chronological Dictionary of Quotations / ed. by E. Wright. – London: Bloomsbury Publishing Ltd., 1994. – 464 p

Ziyayeva Muhayyo
Senior teacher in the Department of Integrated Uzbekistan State World Languages University,
Barotova Gulifor Jabbor qizi,
Xushvaqtova Iroda Zohid qizi,
Abdujalilova Ruxshona Sobirjon qizi
Students of Uzbekistan State World Languages University

ETHICAL ASPECTS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN EDUCATION AND THE TRANSFORMATION OF THE TEACHING PROFESSION

Abstract. *This article examines the ethical dimensions of artificial intelligence integration in educational settings and analyzes the resulting transformation of the pedagogical profession. The findings suggest that successful AI integration requires a balanced approach that preserves human-centered pedagogy while leveraging technological capabilities, necessitating updated professional development frameworks and robust ethical guidelines for educators navigating this technological transition.*

Key words: *artificial intelligence in education, educational ethics, pedagogical transformation, teacher professional development, algorithmic bias*

ЭТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБРАЗОВАНИИ И ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРЕПОДАВАТЕЛЬСКОЙ ПРОФЕССИИ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются этические аспекты интеграции искусственного интеллекта в образовательную среду и анализируется последующая трансформация педагогической профессии. Результаты исследования показывают, что успешная интеграция ИИ требует сбалансированного подхода, сохраняющего антропоцентричную педагогику и одновременно использующего технологические возможности, что требует обновления систем профессионального развития и четких этических принципов для педагогов, осуществляющих этот технологический переход.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект в образовании, образовательная этика, педагогическая трансформация, профессиональное развитие учителей, алгоритмическая предвзятость*

TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNING AXLOQIY JIHATLARI VA O‘QITUVCHILIK KASBINING TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sun'iy intellektni ta'lim muhitiga integratsiyalashning axloqiy jihatlari ko'rib chiqiladi va o'qituvchilik kasbining keyingi o'zgarishi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellektni muvaffaqiyatli integratsiyalash insonga yo'naltirilgan pedagogikani saqlab qolish bilan birga texnologik imkoniyatlardan foydalanishni ta'minlaydigan muvozanatli yondashuvni talab qiladi. Bu esa professional rivojlanish tizimlarini yangilash va ushbu texnologik o'tishni amalga oshiruvchi o'qituvchilar uchun aniq axloqiy tamoyillarni belgilashni talab qiladi.*

Kalit so'zlar: *ta'limda sun'iy intellekt, ta'lim etikasi, pedagogik o'zgarish, o'qituvchilarning professional rivojlanishi, algoritmik tarafkashlik*

Introduction. The swift infusion of artificial intelligence into teaching and learning processes has up to now, probably, been one of the most drastic changes in technological terms and it is directly relying on the change of traditional teaching and learning concepts that are [1]. Educators are the ones who have to deal with the ethical dilemmas created by AI so the dilemmas are not just axiomatic that the technology must first be adapted then followed by the practice; the dilemmas are questioning the very core of educators’ work [2]. If it is with the teaching profession, relationships between humans,

empathy and contextual judgment have been the foundation then the profession now is in a situation where algorithmic decision-making overlaps with teaching competence [3]. The transformation takes place in the midst of the more extensive societal discussions about AI moral issues, the humanities, and the equivalence of educational processes to AI ones, etc. [4].

The other side of the argument that supports AI in education is the democratization of the access to the same kind of quality education through personalized learning pathways, and the freeing of teachers' time for more productive activities via the data-driven insights. On the contrary, critics point at algorithmic systems that bear biases off of their creators, at the quality of the data being the most important factor in the application, and at the devaluation of teachers' roles as the key negative effects of the application of AI in education [5]. The ethical aspects question the responsibility to be given in the case AI systems decide or influence educational decisions, the openness of the algorithmic processes, and the elimination of human judgment in situations where empathy, cultural sensitivity, and moral reasoning are large [6].

Methodology and literature review. In the present research, a systematic literature review methodology is adopted for the examination of the ethical issues connected with AI in education along with the subsequent changes in pedagogical practices. The written works provide different themes which are greatly needed to be critically evaluated. The first one is the issue of algorithmic bias and educational equity that has been raised as an ethical issue mainly discussed in the literature, where studies reveal that AI systems trained with historical educational data can, in fact, maintain the status quo of inequalities related to economic class, ethnic background, or area of residence [7]. Different reports suggest that AI techniques based on machine learning which are used for student evaluation or resource allocation might unintentionally replicate the discrimination present in the training data, thus leading to the fundamental question of fairness and justice in AI-mediated education [8]. The second one is data privacy and surveillance concerns which represent the critical ethical territory, as AI systems typically require thorough collection of student behavioral, performance, and personal data which can lead to risks such as unauthorized access, commercial exploitation, or governmental monitoring that may violate student rights and compromise the trust which is essential in educational relationships [2].

The literature emphasizes that many educators lack adequate understanding of data governance frameworks, leaving students vulnerable in increasingly datafied learning environments [9]. Third, the question of pedagogical autonomy emerges as AI systems increasingly influence or automate instructional decisions traditionally within teacher purview, potentially reducing professional discretion and transforming educators into technicians implementing algorithmic recommendations rather than autonomous professionals exercising contextual judgment [3]. Research from post-Soviet educational contexts particularly highlights tensions between centralized technological mandates and local pedagogical expertise, suggesting that AI implementation without adequate teacher involvement may undermine professional identity and educational quality [10].

Fourth, the literature addresses the transformation of teacher roles and competencies, indicating that effective AI integration requires educators to develop new literacies including algorithmic literacy, data interpretation skills, and ethical reasoning capabilities while maintaining traditional pedagogical strengths in relationship-building, cultural responsiveness, and moral guidance [5]. International research suggests successful professional transformation depends on comprehensive development programs that treat teachers as active agents in technological change rather than passive recipients of innovation [4].

Results and discussion. The analytical synthesis of current literature reveals complex tensions and opportunities in the ethical integration of AI in education and the resulting transformation of teaching practice. The primary finding indicates that ethical challenges associated with educational AI are not merely technical problems requiring algorithmic refinement but reflect fundamental value conflicts about educational purposes, equity, and human development that demand ongoing deliberation and context-sensitive resolution strategies [7]. Regarding algorithmic bias, the evidence demonstrates that AI systems frequently reproduce and potentially amplify existing educational inequities, with particu-

lar concerns about assessment algorithms that may disadvantage students from marginalized communities or non-standard learning profiles, suggesting that ethical AI implementation requires not only technical debiasing approaches but also critical examination of the educational assumptions embedded in system design.

The discussion highlights that addressing bias necessitates diverse participation in AI development, transparent algorithmic processes, and robust mechanisms for contesting automated decisions, elements frequently absent in current educational technology deployment [2]. Privacy concerns emerge as especially acute given the sensitive nature of educational data and the vulnerability of student populations, with analysis revealing significant gaps between legal protections and actual data practices in many educational contexts, while commercial AI vendors often employ opaque data handling procedures that compromise institutional oversight and student rights [9]. The transformation of pedagogical autonomy presents perhaps the most profound challenge to professional identity, as educators report feeling deskilled or marginalized when AI systems assume functions previously requiring professional judgment, yet the literature also documents cases where thoughtful AI integration enhances teacher capacity by automating routine tasks and providing insights that inform rather than replace professional decision-making.

This suggests that the impact on autonomy depends substantially on implementation approach, with participatory models that involve teachers in system design and adaptation showing more positive professional outcomes than top-down technological mandates [5]. The discussion of role transformation indicates that the teaching profession is evolving toward configurations emphasizing uniquely human capabilities including empathy, ethical reasoning, cultural mediation, and creative problem-solving, competencies that AI cannot readily replicate, positioning educators as essential guides who help students navigate AI-mediated learning environments with critical awareness and ethical sensitivity.

However, this transformation requires substantial investment in professional development that many educational systems have not yet prioritized, creating risks that technological change will outpace institutional capacity to support meaningful professional adaptation [7]. The analysis further reveals significant variations in AI implementation approaches across different educational contexts, with more equitable and pedagogically sound outcomes observed in systems that prioritize educational values over efficiency metrics, maintain strong teacher involvement in technological decisions, and establish clear ethical guidelines governing AI use.

Conclusion. This analysis demonstrates that the integration of artificial intelligence in education presents profound ethical challenges and transformative pressures on the teaching profession that require careful navigation through frameworks prioritizing educational equity, human dignity, and pedagogical integrity. The ethical dimensions encompass concerns about algorithmic bias that may perpetuate educational inequities, privacy violations through extensive data collection, and threats to pedagogical autonomy as AI systems increasingly mediate instructional decisions. The transformation of teaching practice involves both risks of professional deskilling and opportunities for role enhancement, with outcomes depending substantially on implementation approaches that either marginalize or empower educators as active agents in technological change. The findings indicate that responsible AI integration requires comprehensive strategies including transparent algorithmic processes, robust data governance frameworks, participatory implementation models that preserve teacher autonomy, and substantial professional development supporting new literacies while maintaining core pedagogical values. Moving forward, educational institutions must resist technological determinism and commercial pressures that prioritize efficiency over educational quality, instead establishing ethical guidelines that ensure AI serves educational purposes rather than reshaping education to accommodate technological constraints. The teaching profession must evolve to emphasize uniquely human capabilities including ethical judgment, cultural responsiveness, and relational competence that remain essential even in AI-enhanced environments, positioning educators as critical guides helping students navigate technological mediation with awareness and agency. Ultimately, the successful integration of AI in education depends not on technological sophistication alone but on collective commitment to equity,

human development, and the preservation of education as a fundamentally humanistic endeavor that technology should enhance rather than supplant.

References.

1. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019. – 112 p.
2. Luckin R., Holmes W., Griffiths M., Forcier L. B. Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. – London: Pearson, 2016. – 72 p.
3. Selwyn N. Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education. – Cambridge: Polity Press, 2019. – 208 p.
4. Seldon A., Abidoye O. The Fourth Education Revolution: Will Artificial Intelligence Liberate or Infantilise Humanity? – London: University of Buckingham Press, 2018. – 330 p.
5. Uvarov A. Yu. Этические проблемы применения искусственного интеллекта в образовании // Вопросы образования. – 2022. – № 4. – С. 145–168.
6. Игнатьева Е. Ю. Этические аспекты цифровизации и внедрения ИИ в педагогическую практику // Педагогика. – 2021. – Т. 85, № 9. – С. 23–34.
7. Беляков С. А., Клячко Т. Л. Искусственный интеллект в образовании: возможности и угрозы. – Москва: Издательский дом Высшей школы экономики, 2021. – 214 с.
8. Karimov N. K. Ethical considerations of introducing AI technologies into national education systems // Central Asian Journal of Education Studies. – 2023. – Vol. 2, No. 3. – P. 44–57.
9. Mirzaeva D. N. Ethical challenges of AI-based educational tools // Journal of Modern Pedagogical Research. – 2022. – Vol. 5, No. 2. – P. 89–98.
10. Williamson B., Eynon R., Potter J. AI and the future of teaching: ethical implications for teacher identity and autonomy // Learning, Media & Technology. – 2020. – Vol. 45(3). – P. 268–282.
11. Flew T. Regulating platforms, AI ethics, and the future of digital education // Journal of Digital Ethics. – 2021. – Vol. 1, No. 2. – P. 11–29.
12. Rahimova M. O‘qituvchi kasbining transformatsiyasi va raqamlashtirish etikasi // Ta’lim va innovatsiya. – 2023. – T. 6, № 1. – B. 52–60.

Qayumova Sevara
Xalqaro innovatsion universiteti magistranti

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI YURIDIK TERMINLARNING FARQLARI VA O‘XSHASHLIKLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillaridagi yuridik terminlarning farqlari va o‘xshashliklarini tahlil qiladi. Yuridik terminlar, har bir tilning o‘ziga xos xususiyatlari va madaniy kontekstlariga asoslanib, turlicha shakllanishi mumkin. Maqolada ingliz va o‘zbek tillarida keng tarqalgan yuridik terminlar misollar bilan keltiriladi, shuningdek, ularning ma’nolari, qo‘llanilish doiralari va tilshunoslik nuqtai nazaridan farqlari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *yuridik terminlar, ingliz tili, o‘zbek tili, farqlar, o‘xshashliklar, tilshunoslik, muloqot, madaniyat.*

DIFFERENCES AND SIMILARITIES OF LEGAL TERMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation. *This article analyzes the differences and similarities of legal terms in English and Uzbek. Legal terms can be formed differently, based on the specific characteristics and cultural contexts of each language. The article will give examples of legal terms common in English and Uzbek, and will also consider their meanings, scope of application and differences from the point of view of linguistics.*

Key words: *legal terms, English, Uzbek, differences, similarities, linguistics, communication, culture.*

РАЗЛИЧИЯ И СХОДСТВА ЮРИДИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В данной статье анализируются различия и сходства юридических терминов в английском и узбекском языках. Юридические термины могут образовываться по-разному, исходя из специфических особенностей и культурного контекста каждого языка. В статье будут приведены примеры юридических терминов, распространенных в английском и узбекском языках, а также рассмотрены их значения, сфера применения и различия с точки зрения лингвистики.*

Ключевые слова: *юридические термины, английский, узбекский, различия, сходства, лингвистика, коммуникация, культура.*

Kirish. Dunyo tilshunosligida yuridik til, har qanday davlatning huquqiy tizimi va qonuniy faoliyatini ifodalovchi muhim komponentlardan biridir. Ingliz va o‘zbek tillarida yuridik terminologiya va lug‘at tuzish prinsiplari, huquqiy muammolarni hal etishda, qonunlarni tushunishda va xalqaro huquqiy aloqalarda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonning global integratsiya jarayonlari, xalqaro huquq va ingliz tilining keng tarqalishi yuridik sohada ingliz va o‘zbek tillarida aniqlik va to‘g‘rilikni ta'minlashni talab qiladi. Shuningdek, yuridik matnlarni tarjima qilishda va ularning ma'nosini to‘g‘ri tushunishda lug‘at tuzish prinsiplari muhim ahamiyatga ega.

Ingliz va o‘zbek tillarida yuridik lug‘at tuzish prinsiplari mavzusi nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir. Ushbu dissertatsiya, yuridik sohada terminologiya va lug‘at tuzishning zamonaviy usullarini o‘rganishga, shuningdek, O‘zbekistonning huquqiy tizimida ingliz tilining o‘rnini mustahkamlashga qaratilgan. Bu orqali mamlakatimizda yuridik ta’lim, qonunchilik va xalqaro aloqalarni rivojlantirishga hissa qo‘shish maqsad qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Yuridik terminologiya sohasida tilshunoslik va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Bu borada ingliz va o‘zbek tillaridagi yuridik terminlarning farqlari va o‘xshashliklarini tahlil qiluvchi adabiyotlar ko‘plab tadqiqotlarga asos bo‘lgan. Tilshunoslikda yuridik terminologiya sohasida bir qator muhim asarlar mavjud. Masalan, M. A.

Dzhavlonov, A. S. Zokirov, N. A. Teshabayeva, R. A. Karimova, S. M. Qodirov, D. R. Xudoyberdiev ishlarida muayyan darajada o‘rganilgan . Ingliz va o‘zbek tillaridagi yuridik terminlarning farqlari va o‘xshashliklarini o‘rganish, yuridik sohada samarali muloqot va hamkorlikni ta’minlash uchun zarurdir. Ushbu tadqiqotlar yuridik mutaxassislar uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi va xalqaro huquqiy muammolarni hal etishda yordam beradi. Ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi farqlar nafaqat grammatik tuzilishda, balki talaffuzda ham sezilarli. Ingliz tilida tovushlar soni ko‘p bo‘lib, talaffuz qilish qiyin bo‘lishi mumkin. O‘zbek tilida esa tovushlar soni nisbatan kamroq bo‘lib, unda harf va tovushlar o‘rtasidagi bog‘lanish aniqroqdir. Shuningdek, ingliz tilida aksent va intonatsiya juda muhim ahamiyatga ega. Bu esa ma’noni anglashda katta rol o‘ynaydi. O‘zbek tilida esa aksent ko‘proq so‘zning oxiriga qo‘yiladi va bu ham ma’noni anglashda muhimdir.

Ingliz tilidagi ko‘plab so‘zlar bir nechta ma'noga ega bo‘lishi mumkin, bu esa ularni kontekstga qarab tushunishni talab qiladi. O‘zbek tilida esa ko‘p ma’noli so‘zlar ham mavjud, lekin ularning konteksti ko‘proq aniqroq bo‘ladi. Bundan tashqari, ingliz va o‘zbek tillarida idiomatik ifodalar mavjud bo‘lib, ular har bir tilning madaniyatini aks ettiradi. Masalan, ingliz tilidagi “kick the bucket” (o‘lish) iborasi o‘zbek tilida “dunyo bilan xayrlashmoq” tarzida ifodalanishi mumkin. Bu kabi iboralar har ikki tilning o‘ziga xosligini ko‘rsatadi[1].

Ingliz tili xalqaro miqyosda keng tarqalgan bo‘lib, ko‘plab mamlakatlarda ikkinchi til sifatida o'rganiladi. O‘zbek tili esa asosan O‘zbekiston ichida so‘zlashiladi. Bu esa ikki tilning global ahamiyatini belgilaydi. Yana bir muhim jihat shundaki, ingliz tili ko‘plab ilmiy va texnologik terminlarni o‘z ichiga oladi, bu esa uni zamonaviy bilimlar bilan bog‘laydi. O‘zbek tili esa bu terminlarni qabul qilish jarayonida ba’zi qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi farqlar va o‘xshashliklar nafaqat grammatik tuzilishda, balki leksikada, talaffuzda va madaniyatda ham namoyon bo‘ladi. Ikkala tilni bilish nafaqat individual rivojlanishga xizmat qiladi, balki xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ham yordam beradi. Har ikki tilni o‘rganish jarayonida talabalar va mutaxassislar ularning farqlarini va o‘xshashliklarini aniqlab, ularni amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar. Bu nafaqat ularning bilimlarini kengaytiradi, balki turli madaniyatlar bilan samarali ishlay olishlariga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. Yuridik terminologiya har bir tilning o‘ziga xos jihatlariga ega bo‘lib, bu jihatlar ingliz va o‘zbek tillarida ham sezilarli farqlar va o‘xshashliklarni keltirib chiqaradi. Yuridik terminlar, asosan, huquqiy tushunchalarni ifodalash uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ularning aniq va to‘g‘ri ishlatilishi huquqiy tizimning samarali ishlashi uchun juda muhimdir. Ingliz tilidagi yuridik terminlar ko‘pincha lotin tilidan kelib chiqqan bo‘lib, bu esa ularning murakkabligini oshiradi. O‘zbek tilida esa, yuridik terminlar ko‘pincha rus tilidan yoki boshqa turkiy tillardan olingan, shuning uchun ularning tuzilishi va ma'nosi ingliz tilidagi terminlardan farq qilishi mumkin.

Ingliz tilidagi yuridik terminlar ko‘pincha qisqa va aniq bo‘ladi. Masalan, “plaintiff” (da’vo qiluvchi) va “defendant” (javobgar) atamalari sud jarayonida ishtirok etayotgan tomonlarni aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek tilida esa, bu tushunchalar “da’vo qiluvchi” va “javobgar” deb ataladi, bu esa o‘zbek tilida ham aniq va tushunarli. Biroq, ba’zi hollarda ingliz tilidagi terminlar ko‘proq kontekstga ega bo‘lishi mumkin, masalan, “tort” (zarar) atamasi, bu yerda zarar yetkazish jarayonlari va shartlari haqida ko‘proq ma’lumot beriladi.

O‘zbek tilidagi yuridik terminlar ko‘pincha rus tilidan kelib chiqadi, bu esa ularning ba’zi hollarda murakkabligini oshiradi. Masalan, “kontrakt” (shartnoma) atamasi ruscha “контракт” dan olingan bo‘lib, ingliz tilidagi “contract” bilan bog‘liq. Bu erda o‘xshashlik bor, lekin o‘zbek tilida bu atama ko‘proq an’anaviy tushunchalar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Yana bir misol sifatida “jurisdiction” (yurisdiktsiya) atamasini keltirish mumkin. Ingliz tilida bu atama sudning yoki boshqa organning ma’lum bir hududda yoki ma'lum bir masalalarda qaror qabul qilish huquqini anglatadi. O‘zbek tilida esa “yurisdiktsiya” atamasi ham shunday ma’noni anglatadi, lekin ba’zida bu atama turli kontekstlarda turlicha talqin qilinishi mumkin.

[1] Teshabayeva, N. A. Yuridik matnlarni tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar. O‘zbekiston tilshunosligi va tarjimashunosligi masalalari, 5(2), 45-52, 2021. P 9.

Terminologiyada o‘xshashliklar mavjud bo‘lishiga qaramay, har ikkala tilning o‘ziga xos kontekstlari va madaniyati mavjud. Masalan, ingliz tilida “due process” (jarayonning adolatli o‘tishi) atamasi juda muhim huquqiy tamoyil hisoblanadi. O‘zbek tilida esa bu tushuncha “adolatli sud” yoki “adolatli jarayon” shaklida ifodalanadi. Bu erda ham o‘xshashlik mavjud, lekin ularning qo‘llanilishi va ahamiyati har xil bo‘lishi mumkin.

Yuridik terminologiyaning farqlari va o‘xshashliklari nafaqat tilni o‘rganishda, balki xalqaro huquqiy munosabatlarda ham muhim ahamiyatga ega. Ingliz tili xalqaro huquqiy hujjatlarda keng qo‘llaniladi, shuning uchun ingliz tilidagi terminlarni to‘g‘ri tushunish va ulardan foydalanish zarurdir. O‘zbek tili esa mahalliy huquqiy tizimda ahamiyatga ega bo‘lib, o‘zbekistonlik yuristlar uchun muhimdir. Umuman olganda, yuridik terminlarning farqlari va o‘xshashliklarini o‘rganish huquqshunoslar uchun zarurdir. Bu nafaqat ularning professional faoliyatini yaxshilashga yordam beradi, balki xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Har ikkala tildagi yuridik terminlarni bilish orqali yuristlar turli madaniyatlar va huquqiy tizimlar bilan samarali ishlay olishlari mumkin[1].

Xulosa va takliflar. Yuridik uslublar esa rasmiylik darajasi va tushunarli bo‘lishi bilan ajralib turadi. Huquqiy madaniyat va an’analar o‘rtasidagi farqlar esa har bir jamiyatning ijtimoiy tuzilishi va qadriyatlari bilan bog‘liqdir. Bu jihatlar yuridik sohada xalqaro aloqalarni yanada rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi farqlarni tushunish nafaqat tilshunoslik, balki huquqiy sohada ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Bu bilimlar yuridik terminlarni to‘g‘ri talqin qilish va ularni amaliyotda qo‘llashda yordam beradi. Har ikki tilni mukammal bilish esa xalqaro huquqiy munosabatlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Abdullayeva L. Tarjima jarayonida yuridik terminologiyaning ahamiyati // Tarjimon va uning roli. — 2020. — T. 6, № 1. — B. 12–19.
2. Dzhavlonov M. A. Yuridik til va uning xususiyatlari : monografiya. — Toshkent : Yuridik universitet nashriyoti, 2020. — 164 b.
3. Karimova R. A. Yuridik til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlar : monografiya. — Toshkent : O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018. — 152 b.
4. Qodirov S. M. Yuridik kommunikatsiya: nazariya va amaliyot : o‘quv qo‘llanma. — Toshkent : Yuridik fakulteti nashriyoti, 2022. — 176 b.
5. Teshabayeva N. A. Yuridik matnlarni tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar // O‘zbekiston tilshunosligi va tarjimashunosligi masalalari. — 2021. — T. 5, № 2. — B. 45–52.
6. Zokirov A. S. O‘zbek tilidagi yuridik terminlar : monografiya. — Toshkent : O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, 2019. — 188 b.

[1] Zokirov, A. S. O‘zbek tilidagi yuridik terminlar. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, 2019. - 236b.

Safarova Zulfiya Karimovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Rus tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi,
Isroilov Dilshodxo'ja Saidqosim o'g'li
Rus tili va adabiyoti kafedrasi talabasi

ABDULLA QODIRIY ROMANLARINING DUNYO REALIZMI BILAN BOG'LIQLIGI

Annotatsiya. *Ushbu maqola Abdulla Qodiriyning ijodiy merosini jahon adabiyoti kontekstida tahlil qiladi. Asosiy e'tibor yozuvchining realizm uslubini shakllantirishdagi mahoratiga qaratiladi."O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari misolida milliy realizmning o'ziga xos jihatlari yoritiladi. Qodiriy qahramonlarining ichki dunyosi, ruhiy ziddiyatlari G'arb realizmi namunalariga yaqinligi bilan izohlanadi. Adib ijodida ijtimoiy muammolar, tarixiy voqealar va inson taqdiri uyg'un tarzda aks etadi.Maqolada Tolstoy, Balzak, Flauber singari yozuvchilar bilan qiyosiy tahlil o'tkaziladi. O'zbek realizmining jahon adabiy maktablari bilan aloqasi ilmiy asosda ochib beriladi. Qodiriyning badiiy tafakkuri Sharq va G'arb estetik qarashlarini uyg'unlashtiradi. Adib asarlarida xalq ruhiyati va milliy qadriyatlar chuqur aks etgan. Uning realizmi insoniy fazilatlar va ijtimoiy adolat g'oyalariga tayanadi. Tadqiqotda tarjima va ta'sir masalalari ham ko'rib chiqiladi. Maqola zamonaviy adabiy jarayon bilan bog'liq holda tahlil qilingan. Natijada Qodiriy ijodi jahon adabiyotida o'ziga xos o'rin egallagani isbotlanadi. Tadqiqot o'zbek adabiyotining global madaniyatdagi o'rnini yoritadi.*

Kalit so'zlar: *Abdulla Qodiriy, realizm, jahon adabiyoti, o'zaro ta'sir, milliylik, qiyosiy tahlil, tarixiy roman, ijtimoiy muammo, badiiy obraz, adabiy maktab.*

THE CONNECTION OF ABDULLA QODIRIY'S NOVELS WITH WORLD REALISM

Annotation. *This article analyzes Abdulla Kadiri's creative heritage in the context of world literature.The focus is on his mastery in developing a realistic writing style. Through "Bygone Days" and "Scorpion from the Altar," features of national realism are explored. The psychological depth of Kadiri's heroes is compared with Western realist models. Social issues, historical events, and human destiny are harmoniously depicted in his works. The article conducts a comparative study with writers like Tolstoy, Balzac, and Flaubert. Connections between Uzbek realism and global literary traditions are examined. Kadiri's artistic thinking merges Eastern and Western aesthetic views. His novels vividly reflect the spirit and values of the Uzbek people.His realism emphasizes human virtues and social justice. Translation and influence aspects are also discussed in the study.The article links Kadiri's realism to modern literary processes.It proves that Kadiri's works occupy a unique place in world literature.The study highlights the role of Uzbek literature in global culture.*

Key words: *Abdulla Kadiri, realism, world literature, interaction, nationality, comparative analysis, historical novel, social issue, artistic image, literary tradition.*

СВЯЗЬ РОМАНОВ АБДУЛЛЫ КАДЫРИ С МИРОВЫМ РЕАЛИЗМО́М

Аннотация. *В данной статье анализируется творческое наследие Абдуллы Кадыри в контексте мировой литературы. Особое внимание уделено мастерству писателя в формировании реалистического стиля.На примере романов «Минувшие дни» и «Скорпион из михраба» раскрываются особенности национального реализма. Внутренний мир героев Кадыри сопоставляется с образцами западного реализма. В его произведениях гармонично отражены социальные проблемы и судьба человека. Проводится сравнительный анализ с Толстым, Бальзаком и Флобером. Раскрывается взаимосвязь узбекского реализма с мировыми литературными школами. Художественное мышление Кадыри соединяет восточную и западную эстетику.Произведения писателя глубоко отражают дух народа и национальные ценности. Его реализм основан на гуманистических и социальных идеях. Рассматриваются также вопросы*

перевода и литературного влияния. Анализ проводится в связи с современными литературными процессами. Доказано, что творчество Кадыри занимает особое место в мировой литературе. Статья подчеркивает значение узбекской литературы в мировой культуре.

Ключевые слова: *Абдулла Кадыри, реализм, мировая литература, взаимодействие, национальность, сравнительный анализ, исторический роман, социальная проблема, художественный образ, литературная школа.*

Kirish. O‘zbek adabiyoti tarixida Abdulla Qodiriy nomi alohida o‘rin tutadi. U o‘zining betakror ijodi bilan o‘zbek nasrini yangi bosqichga olib chiqib, milliy romanchilik maktabiga asos soldi. Qodiriy o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy hayotini, inson ruhiy kechinmalarini va millat taqdirini chuqur tahlil etgan yozuvchi sifatida nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki jahon realizm maktabi doirasida ham e’tirofga loyiq ijodkordir. Uning romanlari xalq hayoti, urf-odatlari, ijtimoiy muhitdagi o‘zgarishlar va insoniy qadriyatlarning badiiy ifodasidir. XX asr boshlarida Yevropa adabiyotida realizm oqimi ijtimoiy hayotni haqqoniy aks ettirishga, inson ruhiyatini tahlil etishga qaratilgan edi. L. Tolstoy, O. Balzak, G. Flauber, Ch. Dikkens kabi yozuvchilar bu yo‘nalishning eng yirik namoyandalari bo‘lib, ular inson taqdiri, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik va axloqiy qadriyatlarni o‘z asarlarida chuqur tahlil qildilar. Shu bilan birga, o‘zbek adabiyotida ham ana shu g‘oyalar Qodiriy ijodi orqali milliy zamin va ruh bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ldi. “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari o‘zbek xalqining tarixiy taraqqiyoti, o‘tish davrining murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini realistik ruhda tasvirlagan birinchi yirik asarlardir.

Qodiriy ijodining o‘ziga xosligi shundaki, u G‘arb realizmi an’analarini to‘liq takrorlamaydi, balki ularni milliy muhit va xalq ruhiyati bilan boyitadi. Uning asarlarida realizmning asosiy tamoyillari – hayotiylik, tipik obrazlar, ijtimoiy muammolarga e’tibor, ichki monolog va psixologik tahlil o‘ziga xos tarzda qo‘llanadi. Shu jihatdan Qodiriy romanlari G‘arb realizmi bilan umumiylikka ega bo‘lsa-da, o‘zbek xalqining tarixiy, diniy va ma’naviy qadriyatlarini badiiy talqin etish orqali milliy koloritni saqlab qoladi.

“O‘tkan kunlar” romanida yozuvchi o‘z davrining eng dolzarb masalalaridan biri - millat taqdiri va insoniy or-nomus muammosini ko‘taradi. Asarda Otabek va Kumush obrazlari orqali shaxsiy va ijtimoiy erkinlik, muhabbat va fidoyilik, urf-odatlar va zamonaviylik o‘rtasidagi ziddiyatlar yoritiladi. Bu jihatdan roman Tolstoyning “Anna Karenina”si yoki Flauberning “Madam Bovari” asarlari bilan ma’lum darajada o‘xshashdir. Ammo Qodiriy o‘z qahramonlarini Sharq jamiyatining qadriyatlari va mentaliteti asosida yaratgani bois, ularning xarakteri, harakati va ichki ziddiyatlari o‘zbek xalqining ruhiga xos tarzda ifodalanadi.

Qodiriy realizmi milliylik va umuminsoniylik sintezidan tashkil topgan. Yozuvchi o‘zbek xalqining hayotini tasvirlar ekan, uni jahon adabiyoti kontekstida tahlil etish mumkin bo‘lgan darajada chuqur falsafiy mazmun bilan boyitadi. Uning romanlari o‘zbek adabiyoti realizmini shakllantiribgina qolmay, jahon adabiy tafakkuri bilan muloqotga kirishgan asarlardir. Shu boisdan ham Qodiriy ijodini o‘rganish, uni jahon realizmi bilan qiyoslab tahlil qilish o‘zbek adabiyotining xalqaro adabiy jarayondagi o‘rnini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.Shunday qilib, Abdulla Qodiriy romanlari jahon realizmi tamoyillari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, o‘zbek milliy adabiy maktabining shakllanishi va rivojlanishida yangi bosqichni boshlab bergan. Uning badiiy merosi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, aksincha, milliy adabiyotimizni jahon madaniyatiga olib chiqishda mustahkam zamin bo‘lib xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar sharhi. Abdulla Qodiriy ijodi o‘zbek adabiyotida yangi badiiy tafakkur bosqichini boshlab bergan hodisa sifatida baholanadi. Adabiyotshunoslar uning ijodini jahon adabiyoti, xususan realizm maktabi kontekstida o‘rganishni dolzarb ilmiy yo‘nalish deb biladilar. O‘zbek, rus va ingliz olimlarining tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, Qodiriy realizmi milliylik va umuminsoniylikning uyg‘unlashgan shaklidir.

O‘zbek adabiyotshunosi Ozod Sharafiddinov o‘zining “XX asr o‘zbek adabiy jarayoni” asarida Qodiriyni “haqqoniy realizmning asoschisi” deb ataydi. Uning fikricha, Qodiriy “hayot hodisalarini shunchaki tasvirlamaydi, balki ularni ijtimoiy va ma’naviy sabablar bilan tahlil qiladi”. Shu jihatdan, yozuvchi Balzak yoki Tolstoy singari ijtimoiy psixologik realizmga yaqin turadi. U.Normatov esa Qodiriy romanlarini “milliy ruhni jahon badiiy tafakkur darajasida ifodalagan asarlar” deb ta’riflaydi.

Rus olimlaridan Е. Бертельс va В. Жирмунский turkiy xalqlar adabiyotini o‘rgangan tadqiqotlarida Qodiriy ijodiga ham to‘xtalib, uning realizm uslubini “Sharq adabiy merosi bilan Yevropa badiiy tafakkurining sintezi” sifatida baholaydilar. Buning zamirida Qodiriy o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy muhitini g‘arbcha realistik metod bilan yoritganini, lekin bu metodni milliy ruh bilan to‘ldira olganini ta’kidlaydilar.

N. Karimov “Abdulla Qodiriy va o‘zbek romanchiligi” nomli tadqiqotida yozuvchining “O‘tkan kunlar” romanini o‘zbek xalqining tarixiy xotirasi va jamiyatdagi o‘zgarishlarni aks ettiruvchi “milliy epos” deb ataydi. Uning fikricha, Qodiriy ijodining kuchi hayotiy detallar, psixologik chuqurlik va ijtimoiy tipiklikda namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, u G‘arb realizmining ayrim tamoyillarini ijodiy o‘zlashtirib, ularni Sharq estetik tafakkuri bilan uyg‘unlashtira olgan.

Ingliz adabiyotshunoslaridan Edward Allworth o‘zining “Central Asian Writers and Soviet Literature” asarida Qodiriyni Markaziy Osiyoda “realizmni milliy muhitga moslashtira olgan birinchi yozuvchi” sifatida tilga oladi. Uning fikricha, “Bygone Days” romani (ingliz tilidagi tarjimasi bilan) nafaqat o‘zbek, balki butun turkiy xalqlar adabiyoti uchun yangi bosqich bo‘lgan. Allworth Qodiriyni XIX asr G‘arb yozuvchilaridan Balzak, Flauber va Dickens bilan qiyoslab, ularning umumiy jihati - inson hayotini real muhitda, jamiyatdagi ijtimoiy to‘qnashuvlar fonida ko‘rsatish - ekanini qayd etadi.

V. Nabiev va A. Rasulov singari o‘zbek tadqiqotchilari ham Qodiriy realizmining psixologik xususiyatlarini tahlil qilib, uning obraz yaratishdagi aniqlik va ruhiy chuqurlikka e’tibor qaratadilar. Ularning fikricha, yozuvchi realizmni faqat tashqi hodisalar tasviri sifatida emas, balki inson ichki olamini, jamiyatdagi ziddiyatlarni ochish vositasi sifatida qo‘llaydi. Shu bilan u jahon adabiyotida mavjud realistik psixologizm maktabi bilan mushtaraklik hosil qiladi.

Bundan tashqari, ingliz tadqiqotchisi Geoffrey Wheeler o‘zining “Modern Uzbek Literature” nomli maqolasida Qodiriy asarlarining badiiy tuzilishiga e’tibor qaratib, ularni “milliy realizmning g‘arbiy shakllar bilan uyg‘unlashgan namunasi” deb ataydi. Unga ko‘ra, Qodiriy “o‘zbek xalqining o‘zlikni anglash jarayonini adabiyot orqali ifodalagan, bu jihatdan esa u Tolstoyning Rossiyadagi, Balzakning Fransiyadagi roliga teng”.

Qodiriy ijodi bo‘yicha keyingi yillarda ham ko‘plab izlanishlar olib borilmoqda. Masalan, A. Qo‘chqorov o‘z tadqiqotida yozuvchining til va uslub xususiyatlarini o‘rganib, “uning nasriy tili realistik tasvirning tabiiy vositasiga aylangan” degan xulosani beradi. Shuningdek, M. Jo‘rayev Qodiriyning badiiy obraz yaratishdagi aniqligi, dialoglarning tabiiyligi va zamonaviy roman texnikasiga yaqinligi haqida fikr bildiradi.

Yevropa va o‘zbek olimlarining qarashlarini solishtirganda, umumiy xulosa shuki: Abdulla Qodiriy asarlarida realizm nafaqat adabiy yo‘nalish, balki estetik dunyoqarash sifatida namoyon bo‘ladi. U hayotni, inson ruhiyatini va tarixiy o‘zgarishlarni badiiy haqiqat orqali ko‘rsatadi. Shu bois, uning romanlarini jahon realizmi rivoji kontekstida o‘rganish o‘zbek adabiyotining xalqaro adabiy jarayonlardagi o‘rnini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi - Abdulla Qodiriy ijodidagi realizm elementlarini jahon adabiyoti kontekstida aniqlash va tahlil qilishdir. Tadqiqot jarayonida bir nechta ilmiy metodlar uyg‘un tarzda qo‘llanildi, bu esa natijalar ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi. Matn tahlili. Asosiy metod sifatida matn tahlili qo‘llanildi. Tadqiqot uchun Qodiriy romanlarining eng muhim asarlari - “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” tanlandi. Matn tahlili davomida quyidagi jihatlar o‘rganildi:

Qahramonlarning psixologik xarakteri va ruhiy kechinmalari;

Ijtimoiy va tarixiy voqealarning badiiy tasviri;

Ichki monolog va dialoglar orqali realizm elementlarining namoyon bo‘lishi;

Asardagi ijtimoiy muammolar va ularning yechimlari.

Matn tahlili metodikasi yordamida har bir qahramonning xarakter rivoji, hayotiy ziddiyatlar va voqea rivojining tafsilotlari sistematik ravishda qayd etildi. Shu yo‘l bilan Qodiriy romanlaridagi realizmning milliy va jahon elementlari aniqlanib, ularni G‘arb realizmi namunalariga yaqinligi tahlil qilindi.

Qiyosiy tahlil. Qiyosiy tahlil metodikasi yordamida Qodiriy romanlaridagi realizm uslubi XIX–XX asr Yevropa realizmi (Tolstoy, Balzak, Flauber, Dickens) bilan solishtirildi. Solishtirish quyidagi mezonlar bo‘yicha amalga oshirildi:

Psixologik tasvir va qahramon ichki dunyosi;
Ijtimoiy voqeliklar va jamiyatdagi ziddiyatlarni aks ettirish;
Realistik badiiy tafsilotlar, voqea rivoji va konfliktlar;
Milliy koloritsiya va tarixiy fonning tasviri.

Qiyosiy tahlil yordamida Qodiriy realizmining G‘arb realizmi bilan umumiy va farqli jihatlari aniqlandi. Shu bilan birga, yozuvchining milliy qadriyatlar, urf-odatlar va tarixiy kontekstni realistik tasvirga qanday integratsiya qilgani ko‘rsatildi.

So‘rov va statistik tahlil. Tadqiqotda 150 respondent (o‘zbek adabiyotshunoslari, universitet talabalar va o‘qituvchilar) o‘rtasida so‘rov o‘tkazildi. So‘rovning maqsadi - Qodiriy romanlaridagi realizm darajasini baholash va uning jahon adabiyoti bilan qiyosiy aloqasini aniqlash.

So‘rov shakli quyidagi mezonlar asosida tuzildi:
Qahramonlarning psixologik tasviri (5 ballik shkalada baholandi);
Ijtimoiy voqeliklarning realistikligi;
Milliy qadriyat va tarixiy fonning realizmga qo‘shgan hissasi;
Romanlarning global adabiy jarayondagi ahamiyati.
Natijalar statistika vositalari orqali tahlil qilindi. Masalan:
Qahramon psixologiyasini yuqori darajada realistik deb baholagan respondentlar - 60%;
Ijtimoiy voqeliklarning realizmi - 78%;
Milliy koloritsiyaning realizmga hissasi - 70%;
Global adabiyot bilan aloqasi yuqori deb hisoblaganlar - 85%.

Bu raqamlar Qodiriy romanlarining realizmga doir badiiy qiymatini, shuningdek uning jahon adabiyotidagi o‘rnini ishonchli tarzda tasdiqlaydi.

4. Kvalitativ intervyu . Shuningdek, tadqiqot doirasida 10 nafar adabiyotshunos bilan chuqur intervyu o‘tkazildi. Intervyular davomida Qodiriy ijodining G‘arb realizmi bilan aloqasi, milliy realizmning shakllanishi, qahramonlarning psixologik tahlili va ijtimoiy muammolarni badiiy tasvirlash metodlari muhokama qilindi. Ushbu ma’lumotlar so‘rov natijalari bilan solishtirildi va tadqiqot xulosalarini mustahkamladi.

5. Natijalarni tahlil qilish metodlari. Matn, qiyosiy tahlil, so‘rov va intervyu natijalari birlashtirilib, integrativ tahlil qilindi. Kvalitativ va kvantitativ natijalar o‘zaro bog‘lanib, Qodiriy realizmining jahon adabiyotidagi o‘rni, milliy va global elementlarning uyg‘unligi ilmiy asosda aniqlangan.

Xulosa. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi - Abdulla Qodiriy romanlaridagi realizm elementlarini aniqlash va ularni jahon adabiyotidagi realizm maktabi bilan bog‘lashdir. Tadqiqot davomida matn tahlili, qiyosiy tahlil, so‘rov va intervyular orqali Qodiriy ijodining o‘ziga xos jihatlari o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, Qodiriy asarlari nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki global adabiy jarayonda ham muhim o‘rin tutadi.

Matn tahlili natijalari Qodiriy romanlarida qahramonlar psixologiyasining chuqurligi va ijtimoiy voqeliklarning hayotiy tasviri mavjudligini isbotladi. “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlarida qahramonlarning ichki kechinmalari, shaxsiy va ijtimoiy ziddiyatlari aniq va badiiy ravishda ifodalangan. Shu jihatdan ularning psixologik tasviri XIX–XX asr G‘arb realizmi vakillari - Tolstoy, Balzak va Flauber qahramonlarining ruhiy tahliliga yaqin. Biroq Qodiriy o‘z ijodida milliy madaniyat, tarixiy voqeliklar va xalq qadriyatlarini uyg‘unlashtirib, o‘zbek realizmining milliy koloritini saqlab qolgan.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, Qodiriy realizmi G‘arb realizmiga o‘xshash jihatlar - ijtimoiy muammolarni aks ettirish, psixologik aniqlik va voqea rivojini realistik tasvirlash - bilan birga milliy va tarixiy tafsilotlar orqali o‘ziga xos shakllangan. Bu o‘zbek realizmini jahon adabiy maktablari bilan bog‘laydigan muhim jihat hisoblanadi.

So‘rov natijalari tadqiqotning kvantitativ asosini tashkil etdi. 150 respondent o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov shuni ko‘rsatdiki: respondentlarning 85% Qodiriy romanlarini yuqori darajadagi realizm bilan baholagan; 78% ijtimoiy voqeliklar va milliy koloritsiyani realistik deb hisoblagan; 60% psixologik tasvirni yuqori darajada baholagan. Ushbu natijalar Qodiriy realizmining G‘arb va milliy elementlarini muvaffaqiyatli uyg‘unlashtirgani va uning jahon adabiyotida yuqori badiiy qiymatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Shuningdek, adabiyotshunoslar bilan o‘tkazilgan intervyular Qodiriy ijodining global kontekst bilan bog‘liqligini qo‘shimcha ravishda tasdiqladi. Mutaxassislar uning romanlarida ijtimoiy adolat, insoniy fazilatlar va milliy qadriyatlar uyg‘unligi mavjudligini ta’kidladilar. Shu orqali Qodiriy ijodi o‘zbek adabiyotini jahon adabiy maktablariga yaqindan integratsiyalashga xizmat qilganligi ko‘rsatildi.

Umumiy xulosa shuki, Abdulla Qodiriy romanlarida realizm nafaqat badiiy metod, balki jamiyat, inson va tarix o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni aks ettiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Qodiriy ijodi milliy realizmni shakllantirib, uni jahon adabiy jarayoni bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘zbek adabiyotining xalqaro maydondagi o‘rnini mustahkamladi. Shu jihatdan uning asarlari bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, ilmiy tadqiqotlar, universitet darsliklari va adabiy tahlillar uchun muhim manba hisoblanadi.

Kelajakda Qodiriy ijodini yanada chuqurroq tadqiq qilish, uning romanlaridagi psixologik va ijtimoiy tafsilotlarni zamonaviy adabiyotshunoslik metodlari bilan tahlil qilish orqali o‘zbek adabiyotining jahon adabiy jarayonidagi nufuzini oshirish mumkin. Shu bilan birga, Qodiriy asarlarini tarjima qilish va ularni global o‘quvchilar uchun taqdim etish milliy madaniyatimizni dunyo miqyosida targ‘ib qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Allworth E. Central Asian Writers and Soviet Literature. — New York : Columbia University Press, 1990. — 312 p.
2. Karimov N. Abdulla Qodiriy va o‘zbek romanchiligi : monografiya. — Toshkent : Sharq, 2015. — 184 b.
3. Nabiyev V., Rasulov A. O‘zbek realizmi va psixologik tahlil : monografiya. — Toshkent : Adabiyot nashriyoti, 2017. — 196 b.
4. Normatov U. Abdulla Qodiriy romanchiligi: milliy realizm va jahon adabiyoti : monografiya. — Toshkent : Fan, 2016. — 208 b.
5. Sharafiddinov O. XX asr o‘zbek adabiy jarayoni : monografiya. — Toshkent : O‘qituvchi, 2018. — 240 b.
6. Wheeler G. Modern Uzbek Literature: Historical and Cultural Perspectives. — London : Routledge, 2003. — 268 p.
7. Берцельс Э. История тюркских литератур. — Москва : Наука, 1974. — 356 с.
8. Жирмунский В. Проблемы восточной литературы. — Москва : Наука, 1961. — 412 с.

Elmurodova Sohiba Saitmurodovna
Qarshi davlat universiteti “Fakultetlararo ingliz tili” kafedrasi o‘qituvchisi

ARAB BOSQINI DAVRIDA MARKAZIY OSIYO TILLARIDA DINIY LEKSIKANING SHAKLLANISHI VA O‘ZGARISH JARAYONI

Annotatsiya. *Ushbu maqola Arab bosqini va Islomning Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati va tillariga kirib kelishi natijasida diniy leksikada yuz bergan o‘zgarishlarni o‘rganadi. Tadqiqot arabcha diniy terminlarning fonetik, morfologik va semantik moslashuv jarayonlarini, mahalliy tillar bilan uyg‘unlashuvini tahlil qiladi. Arab istilosi natijasida yuzaga kelgan yangi leksik qatlamlar mahalliy ma’naviyat, ilmiy va ijtimoiy kontekstlarda mustahkam o‘rin oldi. Maqola arab diniy terminologiyasining mahalliy tillarda semantik kengayishi, ilmiy va madaniy integratsiyasini yoritadi hamda tarixiy-etimologik va sotsiokultural tahlil orqali ularning ahamiyatini ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *Arab bosqini, Markaziy Osiyo, diniy leksika, tilshunoslik, etimologiya, Islom, semantik rivojlanish.*

ФОРМИРОВАНИЕ И ЭВОЛЮЦИЯ РЕЛИГИОЗНОЙ ЛЕКСИКИ В ЯЗЫКАХ СРЕДНЕЙ АЗИИ В ПЕРИОД АРАБСКОГО ЗАВОЕВАНИЯ

Аннотация. *Данная статья рассматривает изменения религиозной лексики в Центральной Азии в результате арабского нашествия и распространения ислама. Исследование анализирует фонетическую, морфологическую и семантическую адаптацию арабских религиозных терминов, их интеграцию в местные языки. В результате арабской экспансии формировался новый лексический слой, который получил широкое распространение в духовной, научной и социальной сферах. Статья освещает семантическое расширение арабской религиозной лексики в местных языках и её роль в культурной и научной интеграции.*

Javoblar	Yashash hududi		Jins		Kasbi		Umumiy
	Shahar	Tuman	Ayol	Erkak	Xodim	Xizmat ko‘rsatuvchi	
Tashqi ko‘rinish va kiyim	31	32	33	29	32,5	29	**30**
Kommunikatsiya ko‘nikmalari (verbal va noverbal)	15	13	12	19	14	14	**14**
O‘z-o‘ziga ishonch va o‘zini tutish	35	35	37	31	35,5	34	**36**
Aqliy va emotsional intellekt	13	11	12	12	11	14	**12**
Ijtimoiy tajriba va moslashuvchanlik	6	9	6	9	7	9	**8**

1-jadval natijalariga ko‘ra “Ijtimoiy munosabatlarda muaffaqiyatli imij yaratishda asosiy omillarni qanday baholaysiz?” degan savolga berilgan savolimizga respondentlar bergan javoblarga

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-190-son Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. Toshkent sh., 2023-yil 8-noyabr, PF-190-son

ijtimoiy munosabatlarda muaffaqiyatli imij yaratishda birinchi o‘rinda irodaviy sifatlar va keyingi o‘rinlarda shaxsning tashqi ko‘rinishi asosiy omil sifatida qayd etilgan. Aqliy va emotsional intelekt ijtimoiy tajriba va moslashuvchanlik sifatlari asosiy omillar qatoridan joy olmagan. Demak, repondent-larning fikriga ko‘ra shaxsning muvaffaqiyatga erishishi uning irodaviy sifatlariga, ahloq me’yorlariga rioya qilishligi, hamda tashqi prizentabelligiga bog‘liq ekanligi ma’lum bo‘lganligi aniqlandi.

2-jadval.

“O‘zingizni ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatli imijni yaratishda qanday ko‘nikma-larga ega deb hisoblaysiz?” degan savolga berilgan javoblar natijalari (n=408)

Javoblar	Yashash hududi		Jins		Kasbi		Umumiy
	Shahar	Tuman	Ayol	Erkak	Xodim	Xizmat ko‘rsatuvchi	
Tashqi ko‘rinishni boshqarish	20	33	23	14	21	19	**21**
Ajoyib muloqot ko‘nikmalari	35	13,5	40	24	36	31	**35**
Yuqori darajadagi empatiya	19	34	10	23	13	17	**14**
Qaror qabul qilishda tezkorlik	20	10,5	14	29	16	28	**18**
Jamoadagi muvozanatni saqlash	7	8	13	10	14	5	**12**

2-jadvalga muvofiq respondentlarning ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatli imijni yaratishga ega ko‘nikmalari orasida shahar va tuman aholisi o‘rtasida keskin farqlarni ko‘rish mumkin. Shahar-liklarning aksariyati (35%) muvaffaqiyatli imijni namoyon qilish uchun ularda muloqot ko‘nikmalari mavjudligini qayd etgan bo‘lsalar tuman respondentlarining aksariyati (34%) muvaffaqiyatli imijni namoyon qilish uchun ularda yuqori darajadagi empatiya mavjudligini bildirganlar. Shunigdek, tuman aholisi tashqi ko‘rinishni boshqarish ko‘nikmalarini mavjudligini (33%) qayd etganlar. Umumiy re-spondentlarning natijalariga ko‘ra imijga bog‘liq kompetentlikni namoyon qilishda muloqot eng asosiy ko‘nikma ekanligi, undan keyingi o‘rinda tashqi ko‘rinishni boshqarish va qabul qilishdagi teskorlik ko‘nikmalari ketma-ketligi o‘rin olganligi tadqiqotimizda o‘z isbotini topgan.

3-jadval.

“Sizning fikringizcha, psixotip (ektrovert, introvert, ambivert) ijtimoiy imijga qanday ta'sir ko‘rsatadi?” degan savolga berilgan javoblar natijalari (n=408)

Javoblar	Yashash hududi		Jins		Kasbi		Umumiy
	Shahar	Tuman	Ayol	Erkak	Xodim	Xizmat ko‘rsatuvchi	
Psixotip hech qanday ta'sir ko‘rsatmaydi.	27	50	19	19	25	19	**24**
Ekstrovert psixotip ijtimoiy imijni pozitiv va faol ko‘rsatishga yordam beradi.	45	22	54	45	46	53	**48**
Introvert psixotip imijga salbiy ta'sir ko‘rsatadi, chunki u faol bo‘lmaydi	23	19	19	29	21	19	**20**
Ambivert psixotip muvozanatni saqlashga yordam beradi.	5	9	8	7	8	9	**8**

Navbatdagi 3- jadvalning natijalariga ko‘ra, respondentlar shaxsning ekstrovert, introvert yoki ambivert tipga mansubligi uning ijtimoiy maydonda qanday qabul qilinishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

So‘rovnoma natijalari quyidagi asosiy to‘rt pozitsiya bo‘yicha yig‘ildi: ekstrovert psixotipning ijobiy ta’siri, introvertlikning salbiy ta’siri, ambivertlikning muvozanatga erishishdagi roli va psixotipning umuman ta’sir ko‘rsatmasligi haqidagi qarashlarga doir javoblar qayd etildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, respondentlarning eng katta qismi – 48 % (45 % shaharda, 22 % tuman hududida yashovchi, 54 % ayol, 45 % erkak, 46 % xodimlar, 53 % xizmat ko‘rsatuvchi) - ekstrovert psixotipni ijtimoiy imijning ijobiy va faol shakllanishida muhim deb hisoblashgan. Ushbu fikrga ko‘ra, ochiq, tashabbuskor, jamoa bilan tez integratsiyalashuvchi shaxslar omma e’tiborini o‘ziga jalb etishda va ijobiy taassurot uyg‘otishda yuqori samaradorlikka ega. Ayniqsa, xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yuritayotganlar orasida ushbu fikr yetakchilik qiladi (53%). Bu holat kommunikativ ko‘nikmalarning imij shakllanishida hal qiluvchi omil ekanligini ko‘rsatadi. Yashash hududi, jins va kasb kesimida kuzatilgan tafovutlar shuni ko‘rsatadiki, shahar aholisi orasida ekstrovertlik ancha ijobiy baholangan, bu esa urban madaniyatda ochiqlik va tashabbuskorlikning qadrlanishini aks ettiradi. Ayollar ekstrovertlikka erkaklarga nisbatan yuqoriroq baho bergan, bu esa ularning kommunikativ ijtimoiy rollarda faol ishtirok etayotganligini anglatadi. Kasbiy kontekstda esa xizmat ko‘rsatuvchi soha vakillari ekstrovertlikni eng ko‘p qadrlashgan, bu esa mijozlar bilan muloqotda faol bo‘lish zarurati bilan dalillandi.

Bunga ko‘ra, ekstrovert psixotip ijtimoiy imijni shakllantirishda eng samarali deb qaralayotgan bir paytda, introvertlik esa sust faollik bilan bog‘lanib salbiy baholanmoqda. Ambivertlik esa muvozanatni ta’minlovchi omil sifatida ijobiy e’tirof etilgan bo‘lsa-da, yetarlicha baholanmagan. Ba’zi respondentlar esa psixotip umuman imijga ta’sir qilmaydi deb hisoblaydi, bu esa ijtimoiy konstruktivistik yondashuvning mavjudligini ko‘rsatadi. Shu boisdan, psixotip va imij o‘rtasidagi munosabatni tadqiq qilishda ijtimoiy-madaniy kontekst, kasbiy soha va gender omillarini ham hisobga olish zarur.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kompetentlikni namoyon qilishda universal imij uslubi sifatida aynan "ish-harakat uslubi" ko‘proq samarali bo‘lib, turli psixotiplar orasida kengroq qo‘llanilmoqda. Boshqa imij uslublari esa shaxslarning individual psixologik xususiyatlari, ijtimoiy va emotsional ehtiyojlariga qarab tanlanishi kuzatilmoqda. Bu natijalar shaxsning ijtimoiy muhitdagi o‘zini namoyon qilish strategiyasini tanlashda psixotip xususiyatlarini inobatga olish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

References.

1. Zapesotsky, A. S. Imidzhologiya: teoriya i praktika [Image Studies: Theory and Practice]. St. Petersburg: Piter, 2003. - 352 p.
2. Shkalenkova, P. Psikhologiya imidzha [Psychology of Image]. Moscow: Eksmo, 2020. - 288 p.
3. Vasilieva, L. I. Stil povedeniya i imidzh lichnosti [Behavioral Style and Personal Image]. Moscow: Akademiya, 2018. - 216 p.
4. Gippenreiter, Yu. B. Vvedenie v obshchuyu psikhologiyu [Introduction to General Psychology]. Moscow: CheRo, 2005.
5. Kon, I. S. Psikhologiya ranney yunosti [Psychology of Early Adolescence]. Moscow: Prosveshchenie, 1989.

Nusratov Anvar Nematjonovich
Buxoro davlat pedagogika instituti professori
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)

"UBAYDIY" MANAVIY AXLOQIY QARASHLARIDA BARKAMOL SHAXS TIMSOLI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Shayboniylar sulolasining yirik vakillaridan biri, Ubaydullaxon, Ubaydulla Sulton, Ubaydiy (to'liq ismi: Abulg'oziy Ubaydulloh Bahodirxon ibn Mahmud Sulton ibn Shoh Budog' Sulton ibn Abulxayrxon) Ubaydiy, (XVI asr)ning ma'naviy-axloqiy qarashlari va adabiy merosi tahlil qilinadi. Ubaydiy o'zining zullisonayn (ikki tilda - forsiy va turkiy) ijodi orqali Ahmad Yassaviy boshlab bergan hikmatnavislik an'anasining munosib davomchisi sifatida namoyon bo'lgan. Tadqiqotda Ubaydiyning hikmatlaridagi ma'naviy, axloqiy va pedagogik qarashlar zamonaviy ta'lim tizimi nuqtayi nazaridan ham tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Ubaydiy, Ahmad Yassaviy, hikmat, Shayboniylar, ma'naviyat, axloq, qo'lyozma, zullisonayn, xattotlik, "Kulliyot", nasx yozuvi.*

ОБРАЗ ВСЕСТОРОННЕ РАЗВИТОЙ ЛИЧНОСТИ В ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ ВЗГЛЯДАХ УБАЙДИЙ

Аннотация. *В данной статье анализируются духовно-нравственные взгляды и литературное наследие одного из выдающихся представителей династии Шайбанидов - Убайдулла-хана, также известного как Убайдулла Султан или Убайди (полное имя: Абулгази Убайдуллах Бахадурхан ибн Махмуд Султан ибн Шах Будог Султан ибн Абулхайрхан), жившего в XVI веке. Убайди, создававший произведения на двух языках - персидском и тюркском (зуллисонайн), проявил себя как достойный продолжатель традиции написания «хикматов», основанной Ахмадом Яссави. В исследовании также рассматриваются духовные, нравственные и педагогические идеи, отражённые в хикматах Убайди, с точки зрения современной системы образования.*

Ключевые слова: *Убайди, Ахмад Яссави, хикмат, Шайбаниды, духовность, нравственность, рукопись, зуллисонайн (двуязычие), каллиграфия, «Куллиёт», почерк насх.*

THE IDEAL OF A PERFECT (WELL-DEVELOPED) PERSON IN UBAYDIY'S SPIRITUAL AND MORAL VIEWS

Abstract. *This article analyzes the spiritual, ethical, and literary legacy of one of the prominent representatives of the Shaybanid dynasty - Ubaydullah Khan, also known as Ubaydullah Sultan or Ubaydi (full name: Abulg'ozi Ubaydulloh Bahodirkhan ibn Mahmud Sultan ibn Shoh Budog Sultan ibn Abulkhayr Khan) - a distinguished figure of the 16th century. Through his zullisonayn (bilingual) creative works in both Persian and Turkic, Ubaydi emerges as a worthy successor to the tradition of hikmat (wisdom poetry) initiated by Ahmad Yassawi. The study also examines the spiritual, moral, and pedagogical ideas expressed in Ubaydi's hikmats from the perspective of the modern educational system.*

Key words: *Ubaydi, Ahmad Yassawi, hikmat, Shaybanids, spirituality, ethics, manuscript, zullisonayn (bilingualism), calligraphy, Kulliyat, Naskh script.*

Kirish. O'zbek mumtoz adabiyotining ma'naviy ildizlari tasavvuf, hikmat va irfon an'analari bilan chambarchas bog'liqdir. Tasavvuf nafaqat diniy yo'nalish, balki insonni ruhiy poklik, axloqiy kamolot va komil insonlik darajasiga yetaklovchi tarbiya tizimi sifatida shakllangan. Ayniqsa, Xoja Ahmad Yassaviy asos solgan hikmatnavislik maktabi Sharq ma'naviy tafakkurida alohida o'rin tutadi. Bu maktabning asosiy mohiyati Qur'on va hadislarning axloqiy talqinini she'riy shaklda ifodalab, xalq ruhiyatiga singdirishdan iborat bo'lgan.

Hikmat so‘zi arabcha “hikmat” so‘zidan olingan bo‘lib, “donishmandlik”, “to‘g‘ri so‘z”, “chuqur ma’no” kabi ma’nolarni anglatadi. U, Qur’on oyatlarida, ko‘pincha “pand-nasihat”, “haqiqatni fahmlash”, “ilm-u farosat” kabi ma’nolarda ishlatiladi. Hikmat so‘zining ma’naviy zaminida aql, ilm, e’tiqod va axloqning uyg‘unligi yotadi. Shu bois hikmatnavislik Sharq she’riyatida eng qadimiy va eng ma’naviy janrlardan biri hisoblanadi.

Bu an’anani dastlab Ahmad Yassaviy o‘z “Hikmatlar”ida asoslab bergan bo‘lsa, keyinchalik Sulaymon Boqirg‘oniy, Xoja Ahror, Mahdumi A’zam Ahmad al-Kasaniy va uning o‘g‘li Ubaydiy kabi allomalar uni davom ettirdilar. Ayniqsa, Shayboniylar davrida bu yo‘nalish yanada yuksak darajaga ko‘tarildi. Ubaydiy o‘z davrining yirik hukmdori, shoir, xattot va mutasavvif sifatida Yassaviy maktabining ma’naviy merosini qayta jonlantirib, uni siyosiy va adabiy muhitda mustahkamlashga xizmat qildi.

Ubaydiyning ijodi, xususan, “Hikmatlar” to‘plami orqali uning komil inson haqidagi tasavvurlari, axloqiy qadriyatlari va ma’naviy-ruhiy konsepsiyasi yaqqol namoyon bo‘ladi. U o‘zini Yassaviy an’anasining sadoqatli davomchisi deb bilgan va o‘z hikmatlarini ham shu yo‘nalishda bitgan. Shoir uchun hikmat - bu nafaqat she’riy shakl, balki ilohiy haqiqatni ifodalovchi, insonni o‘zini anglashga da’vat etuvchi vositadir.[2.33]

Asosiy qism: Abulg‘oziy Ubaydulloh Bahodirxon ibn Mahmud Sulton ibn Shoh Budog‘ Sulton ibn Abulxayrxon- Ubaydiy (XVI asr) nafaqat Shayboniylar sulolasining siyosiy yetakchilaridan biri, balki o‘z davrining eng yirik ma’naviy-axloqiy mutafakkirlaridan biri sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirgan. U o‘z davrida ilm, adabiyot va tasavvufni uyg‘unlashtirgan shoir, hukmdor va xattot sifatida tanilgan. Uning ijodida Xoja Ahmad Yassaviy asos solgan hikmatnavislik an’analari chuqur davom ettirilgan bo‘lib, Ubaydiy bu an’anani yangi mazmun bilan boyitgan. U hikmat janrini diniy-irfoniy mazmun doirasidan kengaytirib, uni shaxs kamoloti, axloqiy mas’uliyat va ma’naviy uyg‘onish masalalariga bag‘ishlagan.

Asosiy qism. Hikmat aytish Ubaydiy uchun ilohiy bir ilhom, Allohning in’om etgan buyuk ne’mati sifatida talqin qilinadi. Bu holatni u o‘z asarlarida “Hikmat aytish Allohning buyuk mukofoti” deb izohlaydi. Ubaydiy nazarida hikmat aytish uchun faqat bilim emas, balki qalb pokligi, halollik va Haqqa sadoqat zarurdir. Uning hikmatlari insonni o‘zini anglash, nafsni tiyish, sabr, shukr, tavozu’ va halollikka da’vat etadi. Shuning uchun ham Ubaydiy ijodi nafaqat diniy yoki falsafiy, balki pedagogik ahamiyatga ham ega.

Ubaydiy ijodiy merosi juda boy. Uning “Kulliyot”, “Devon”, “Hikmatlar” kabi asarlari zamonasining yirik xattotlari tomonidan chiroyli nasta’liq va nasx yozuvida ko‘chirilgan. U uch tilda - turkiy, forsiy va arabiy ijod qilgan zullisonayn shoir bo‘lib, o‘z asarlarida xalq tili va tasavvuf tili uyg‘unligini mahorat bilan yaratgan. Bu jihatdan u nafaqat Yassaviy an’anasining, balki Navoiy maktabining ham peshqadamlaridan biridir.

Ubaydiyning hikmatlari, asosan, Qur’on, hadis va tasavvuf falsafasiga tayanadi. U har bir hikmatida insonni ilohiy haqiqatni anglashga, o‘z ruhini tarbiyalashga, nafsni jilovlashga undaydi. Uning asarlarida “hikmat” so‘zi nafaqat donolik, balki ma’naviy tajriba, qalbning Haq bilan bog‘lanish holati sifatida talqin etiladi. Ubaydiyning hikmatlarida “ishq”, “nafs”, “zikr”, “sabr”, “itoat”, “muhabbat”, “sadoqat” kabi tasavvufiy tushunchalar asosiy o‘rinni egallaydi.

Ubaydiyning hikmatnavislikdagi o‘rni Yassaviy maktabi bilan chambarchas bog‘liq. U Yassaviyni “mashoyixlar sarvari”, “muridlar rahbari” deb e’tirof etadi va o‘zini uning sadoqatli shogirdi sifatida ko‘rsatadi. Shoirning “Barcha mashoyix sarvari Xoja Ahmad Yassaviy” misrasi Yassaviy ta’limotiga chuqur hurmatini ifodalaydi. Bu holat shundan dalolat beradiki, Ubaydiy o‘z davrida Yassaviy hikmatlarini faqat takrorlamay, balki ularni yangi falsafiy bosqichga ko‘targan.[2.33]

Ubaydiyning “Hikmatlar” to‘plami bugungi kunda ikki muhim qo‘lyozma shaklida bizgacha yetib kelgan. Birinchisi - O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida 8931 raqam ostida saqlanayotgan nusxa bo‘lib, u 991/1583 yilda Mir Husayn al-Husayniy tomonidan ko‘chirilgan. Bu qo‘lyozma 695 sahifadan iborat bo‘lib, unda turkiy, forsiy va arabiy she’rlar joy olgan. Qo‘lyozmaning tuzilishida hamd-u na’t, manoqib, “Muqaddimat us-salot”, hikmatlar, g‘azallar, ruboiy va didaktik asarlar (“Sabrnoma”, “G‘ayratnoma”, “Omonatnoma”) mavjud. Unda “Devoni hazrati Ubaydullaxon” degan yozuv bo‘lib, asarning muallifiga hurmat ifodasi bilan yozilgan.

Ikkinchi muhim qo‘lyozma esa Turkiyaning Istanbul shahridagi “Nuri Usmoniya” kutubxonasida 4904 raqam ostida saqlanmoqda. Bu nusxa o‘z davrining mashhur xattoti Mir Ali kotib tomonidan yozilgan. Qo‘lyozma nafaqat chiroyli xat uslubi, balki hikmatlarning tartibi, til va mazmun boyligi bilan ham alohida ahamiyatga ega. Bu nusxada O‘zbekiston nusxasida mavjud bo‘lmagan arabcha hikmatlar ham keltirilgan. Demak, bu ikki qo‘lyozma Ubaydiy merosining turli davrlarda shakllangan variantlarini ifodalaydi.

Ubaydiy hikmatlarida inson kamoloti masalasi markaziy o‘rinni egallaydi. Uningcha, komil inson - bu ilm, amal va ixlos birligiga erishgan, o‘z nafsini poklab, Haqqa yaqinlashgan shaxsdir. Ubaydiyning axloqiy qarashlarida ilm odobdan ajralmas tushuncha sifatida talqin etiladi. U insonni haqiqiy kamolotga eltuvchi yo‘l sifatida “sabr”, “muhabbat” va “sadoqat”ni ko‘rsatadi. Uningcha, sabr - bu qalb quvvati, muhabbat - ruhiy kamolotning mezoni, sadoqat esa insonni Haqqa bog‘lovchi eng yuksak fazilatdir. Ubaydiyning hikmatlarida bu uchlik komil insonning ma’naviy formulasi sifatida takrorlanadi.

Ubaydiy hikmatlarida yana bir muhim g‘oya - bu “o‘zini anglash” va “Odobga egalik” masalalaridir. U shoir inson kamolotining asosiy omili sifatida adab (odob, axloqiy tarbiya)ni ulug‘laydi. Uning mashhur baytida bu fikr quyidagicha ifodalangan:

“ Zinhor adab o‘rganing, ey ahli talab,
Kimda bordur adab guli saodatqa sabab.
Shaytonki, adabsiz erdi, qo'ldi mahrum,
Odamni ko'ring, - ne erga etkurdi adab..” [1.32]

Bu satrlar shoir tarbiyani bir martalik emas, uzluksiz jarayon deb biladi.
Bu fikr zamonaviy pedagogika tamoyillaridan biri - doimiy o‘rganish va o‘zini tarbiyalash g‘oyasiga hamohangdir. Ubaydiyning bu she’ri tarbiyaviy, axloqiy va ma’naviy didaktik vosita bo‘lib, yosh avlodni adabga, ilmga va axloqiy kamolotga undaydi. She’r nafaqat badiiy ifoda, balki ta`limiy-axloqiy ustuvor g`oya bo`lib ham xizmat qiladi.

Ubaydiyning ma’naviy-axloqiy qarashlari faqat ruhiy poklanish bilan cheklanmay, amaliy hayotga ham yo‘naltirilgan. U “hikmat”ni faqat bilim yoki so‘z sifatida emas, balki amal bilan tasdiqlanishi lozim bo‘lgan ma’rifat deb bilgan. Uningcha, ilm amal bilan, aql esa odob bilan bezalmasa, u haqiqiy kamolotga olib bormaydi. Shu bois, Ubaydiy hikmatlari insonni o‘z nafsini tarbiyalash, atrofdagi odamlar bilan muomala madaniyatini saqlash, halollik va adolat tamoyillariga rioya qilishga chaqiradi.

Ubaydiyning ijodi o‘z davrida ham, bugungi kunda ham ma’naviy va pedagogik ahamiyatini yo‘qotmagan. Uning hikmatlarida ifodalangan g‘oyalar zamonaviy ta’limda shaxs tarbiyasiga oid ko‘plab konsepsiyalar bilan uyg‘unlashadi. Masalan, u ilgari surgan sabr, muhabbat, halollik va o‘zini anglash tushunchalari hozirgi ta’lim tizimida “axloqiy kompetensiyalar” va “emosional-intellektual tarbiya” tushunchalariga mos keladi. Shu bois, Ubaydiy merosini faqat tarixiy manba emas, balki zamonaviy inson kamoloti uchun amaliy dastur sifatida o‘rganish zarur.

Xulosa Yuqoridagi ma’lumot va misollar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, Ubaydiy hikmatnavislikda Xoja Ahmad Yassaviy an’anasiga ongli ravishda tayanib, uni mazmun va ohang jihatidan yangi bosqichga ko‘targan. Ubaydiyning hikmatlari nafaqat g‘oyaviy-badiiy jihatdan, balki manbashunoslik nuqtayi nazaridan ham alohida tarixiy qimmatga ega: shoirning Yassaviy hikmatlarini “asl shaklida” o‘qib, bevosita ta’sirlangani haqidagi dalillar (Yassaviyga bag‘ishlangan madhiyalar, ohang va vazn yaqinligi, Qur’on oyatlari va hadisga ishoratlar) uning ijodiy izchilligi va maktabiy mansubligini tasdiqlaydi. Ubaydiy hikmatlarining irfoniy-axloqiy ruhi-nafsni tiyish, sabr, shukr, tavozu‘, sidq, muhabbat va xizmat kabi fazilatlarning birligi-komil inson konsepsiyasini badiiy-ma’rifiy tizim sifatida ifoda etadi. Arab tilini mukammal bilishi va diniy-ilmiy tayyorgarligi tufayli shoir ayrim hikmatlarni arab tilida bitgan bo‘lib, Qur’on va hadis matnlariga tayanuvchi pand-nasihat uslubini nazmda nafis tarzda uyg‘unlashtiradi.[1]

Qo‘lyozma manbalari Ubaydiy merosining tarkibiy tarki va variantlaridagi farqlarni (hikmatlarning joylashuvi, til qatlamlari, arabcha hikmatlarning mavjudligi) ko‘rsatadi; bu esa

matnshunoslik va tekstologiya uchun muhim tadqiqot yo‘nalishlarini ochadi. Shuningdek, Hindiston (Rizo Rampur), Britaniya muzeyi va AQShdagi (Indiana) fondlarda saqlanayotgan nusxalar haqidagi qaydlar Ubaydiy merosining geografik tarqalishi va qadimgi ko‘chirish an’analari bilan bog‘liq madaniy almashinuvni yoritadi. Umuman olganda, Ubaydiy hikmatlari Yassaviy maktabining uzviy davomiyati sifatida, bir tomondan, klassik irfoniy merosni saqlab qoladi, ikkinchi tomondan esa davrining ijtimoiy-madaniy muhitiga mos yangi ma’naviy talqinlarni taklif etadi.[4] Bu jihatlar Ubaydiy ijodini zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonida axloqiy kompetensiyalarni (sidq, mas’uliyat, sabr, o‘zini anglash) shakllantirishga xizmat qiladigan manba sifatida qayta o‘qish va amaliy tatbiq etish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. А. Ҳайитметов Қул Убайдий вафо қилсанг (Туркий «Девон»дан намуналар) Нашрга тайерловчи - филология фанлари доктори Тошкент «Ёзувчи» нашриёти 1994.32-bet

2. Xojiyeva, M. *Xoja Ahmad Yassaviyning ma’naviy-tarbiyaviy qarashlari* (N.D.). Toshkent. 2004 y 33 bet

3. I.Haqqulov. *O‘zbek tasavvuf she’riyatining shakllanishi va taraqqiyoti (g‘oyaviylik, izdoshlik, obrazlar olami)* (N.D.). Toshkent. 1995. 87-bet

4. Ubaydiy. (1583/991 h.). *Devoni Ubaydullaxon* [Qo‘lyozma, inv. № 8931]. O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti, Toshkent.

Xonkeldiyeva Gulandom Meyliyevna
Iqtisodiyot va pedagogika
Xorijiy tillar fakulteti Rus tili va adabiyoti kafedrasi dotsent

O‘ZBEK TILINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA PADEJ TUSHUNCHASINING MUAMMO HAMDA YECHIMLARI

Annotatsiya. *mazkur maqolada o‘zbek tilining lingvistik xususiyatlari batafsil tahlil qilinadi. Avvalo, tilning agglutinativ tabiatiga xos jihatlar, so‘z tartibining erkinligi, fonetik tizim va singarmonizm hodisalari haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, kelishik kategoriyasi (padej)ning o‘zbek tili morfologik tizimidagi o‘rni, uning qo‘llanishidagi nazariy va amaliy muammolar yoritiladi. Tadqiqotda dialektal farqlar, normativ masalalar, tarjima qiyinchiliklari ham ko‘rib chiqilib, ularning ilmiy yechimlari tavsiya etiladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili, agglutinativlik, kelishik, padej, morfologik tizim, tarjima, qiyosiy tahlil.*

SPECIFIC FEATURES OF THE UZBEK LANGUAGE AND THE PROBLEMS AND SOLUTIONS RELATED TO THE CONCEPT OF CASE

Abstract. *This article provides a detailed analysis of the linguistic features of the Uzbek language. It first discusses the characteristics typical of its agglutinative nature, the flexibility of word order, the phonetic system, and the phenomenon of vowel harmony. The study also highlights the role of the case category within the morphological system of Uzbek and examines both theoretical and practical issues of its usage. In addition, dialectal differences, normative aspects, and translation difficulties are explored, with scientific solutions proposed.*

Key words: *Uzbek language, agglutinativity, case, morphological system, translation, comparative analysis.*

ОСОБЕННОСТИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ПРОБЛЕМЫ, СВЯЗАННЫЕ С ПОНЯТИЕМ ПАДЕЖА И ИХ РЕШЕНИЯ

Аннотация. *в данной статье подробно анализируются лингвистические особенности узбекского языка. В первую очередь рассматриваются черты, присущие агглютинативной природе языка, свобода порядка слов, фонетическая система и явления сингармонизма. Кроме того, освещается роль категории падежа в морфологической системе узбекского языка, а также теоретические и практические проблемы её употребления. В исследовании также рассматриваются диалектные различия, нормативные вопросы и трудности перевода, предлагаются их научные решения.*

Ключевые слова: *узбекский язык, агглютинативность, падеж, морфологическая система, перевод, сравнительный анализ.*

Kirish. O‘zbek tili turkiy tillar oilasining qadimiy va yirik vakillaridan biri bo‘lib, u Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati hamda turkiy sivilizatsiya taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Tilning shakllanish jarayoni, fonetik tizimi, morfologik tuzilishi va leksik boyligi tarix davomida ijtimoiy hamda madaniy omillar ta’sirida takomillashib, bugungi kunda barqaror grammatik tizimga ega milliy til maqomiga ega bo‘lgan [1, 45–47; 2, 12–18].

O‘zbek tili agglutinativ tuzilmaga ega bo‘lib, grammatik ma’no qo‘shimchalar orqali ifodalanadi. So‘z yasash va grammatik munosabatlarni belgilashda affiksal tizimning izchil qo‘llanilishi bu tilning struktur-funksional xususiyatlarini aniqlab beradi [3, 63–65; 4, 21–23]. Bu holat o‘zbek tilini flektiv tipdagi tillardan tubdan farqlaydi.

Til xalqning tarixiy xotirasi, madaniy o‘zligi va dunyoqarashi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ma’naviy hodisadir. Shuning uchun o‘zbek tili nafaqat aloqa vositasi, balki milliy tafakkur va o‘zlikning muhim timsoli hisoblanadi [5, 89–90; 6, 101–105].

O‘zbek tilida kelishik kategoriyasi otlarning gapdagi sintaktik munosabatlarini ifodalovchi markaziy grammatik birliklardan biridir. Bu kategoriya egalik, yo‘nalish, o‘rin-payt, tushum, chiqish va boshqa sintaktik aloqalarni aniq ifodalashga xizmat qiladi [7, 54–57; 8, 44–46]. Biroq o‘zbek tilidagi kelishik tizimini rus tilidagi падеж tizimi bilan to‘liq tenglashtirish ilmiy nuqtayi nazardan to‘g‘ri emas, chunki ikkala tilning grammatik qurilishi turlicha asosga ega [9, 81–83; 10, 118–120].

Masalan, rus tilida grammatik ma’no so‘z shaklining o‘zgarishi orqali ifodalansa, o‘zbek tilida ma’no affiksatsiya yo‘li bilan hosil qilinadi: kitobni, uydan, odamga, o‘qituvchining kabi shakllar turli sintaktik funksiyalarni bajaradi [11, 72–74]. Shu sababli, o‘zbek kelishik tizimi mustaqil tipologik model sifatida qaraladi.

Mazkur maqolada o‘zbek tilining fonetik va grammatik xususiyatlari, kelishik kategoriyasining tarixiy shakllanishi va zamonaviy talqinlari, shuningdek rus va ingliz tillari bilan qiyosiy jihatlari ochib beriladi. Shuningdek, kelishik kategoriyasining o‘rganilishida uchraydigan lingvistik va tarjimaviy muammolar yoritiladi.

Adabiyotlar sharhi va metodologiya. O‘zbek tili grammatik tizimi, xususan uning morfologik tuzilishi, kelishik kategoriyasi va agglutinativ tabiatiga oid masalalar mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan keng yoritilgan. Turkiy tilshunoslikning dastlabki ilmiy asoslari sifatida A. N. Kononov, A. K. Borovkov, E. D. Polivanov va B. A. Serebrennikovning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tilining morfologik strukturasini, grammatik kategoriyalarning shakllanish va rivojlanish jarayonlarini batafsil tadqiq qilgan [12, 33–41].

O‘zbek tilshunosligi taraqqiyotining keyingi davrida bu yo‘nalish N. Mahmudov, A. G‘ulomov, S. Ibrohimov, R. Rasulov va A. Abduazizov kabi olimlar tomonidan davom ettirilgan. Ularning tadqiqotlarida o‘zbek tilining milliy grammatik modeli, morfemalararo munosabatlar, kelishik kategoriyasining sintaktik va semantik vazifalari chuqur tahlil qilinadi [14, 118–120].

Xususan, N. Mahmudov kelishik kategoriyasini otlarning gapdagi sintaktik aloqalarini belgilovchi markaziy grammatik vosita sifatida baholaydi [14, 118], A. G‘ulomov esa kelishik qo‘shimchalarining semantik yuklamalarini morfemik tahlil asosida izohlaydi [10, 45–46].

So‘nggi yillarda tilshunoslikda qiyosiy-tipologik yondashuv muhim ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi. Bu yondashuv turkiy (o‘zbek) va slavyan (rus) tillari kelishik tizimlarini struktura va semantika nuqtayi nazaridan tahlil qilish imkonini beradi [12, 38–40; 7, 54–57].

Tadqiqotning metodologik asoslari quyidagicha:

Qiyosiy-tipologik yondashuv – kelishik qo‘shimchalarining umumiy va farqli grammatik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Bu yondashuv turli til tiplaridagi kelishik kategoriyalarining o‘zaro funksional mos yoki nomos qismlarini ochib beradi [9, 81–83; 7, 56].

Struktur-morfologik tahlil – qo‘shimchalarning morfemik tarkibi va grammatik vazifalarini aniqlashga yo‘naltiriladi [14, 119; 15, 44].

Funktsional yondashuv – kelishiklarning sintaktik roliga qo‘shimcha ravishda ularning nutq jarayonidagi kommunikativ va pragmatik vazifalarini yoritadi [8, 144–148].

Dialektologik yondashuv – o‘zbek shevalarida kelishik qo‘shimchalari shakli va talaffuzidagi farqlarni aniqlashga yordam beradi, masalan, ayrim janubiy lahjalarda qisqarish va fonetik almashuvlar kuzatiladi [4, 21–23].

Tarjimashunoslik yondashuvi – o‘zbek tilidagi kelishik kategoriyasining rus va ingliz tillariga tarjimasida vujudga keladigan ekvivalentlik muammolarini o‘rganadi. Masalan, kitobni o‘qimoq birikmasi ingliz tilida predlog yoki kelishiksiz shaklda ifodalanadi, natijada grammatik transformatsiya yuz beradi [10, 118–120; 4, 23; 5, 89].

Bu metodlarning uyg‘un qo‘llanishi o‘zbek tilidagi kelishik kategoriyasining semantik, morfologik va funksional xususiyatlarini puxta va tizimli yoritishga imkon beradi.

Asosiy qism. O‘zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, agglutinativ tuzilishi bilan ajralib turadi. Bu tipdagi tillarda grammatik ma’no so‘zlarga ketma-ket qo‘shimchalar qo‘shilishi orqali ifodalanadi va har bir affiks mustaqil grammatik vazifaga ega bo‘ladi. Masalan, kitob – bosh kelishik, kitoblar – ko‘plik, kitoblarimiz – egalik, kitoblarimizni – tushum kelishigi shakllarida morfemalarning har biri o‘z semantik yukini saqlaydi [12, 33–35; 14, 118–120].

Bunday qatlamli morfologik struktura o‘zbek tilini analitik tipdagi ingliz yoki fransuz tillaridan ajratib turadi, chunki o‘zbek tilida grammatik ma’no yordamchi so‘z yoki so‘z tartibiga emas, balki affiksal tizimga asoslanadi [12, 36–40; 14, 119].

O‘zbek tili fonetik tizimi qadimiy turkiy fonetik asoslarni saqlagan bo‘lsa-da, unda singarmonizm to‘la saqlanmagan. Bu holat arab, fors va rus tillari bilan uzoq tarixiy ta’sirlar natijasi hisoblanadi. Ayrim lahjalarda singarmonizm unsurlarining saqlanib qolganligi kuzatiladi. Shuningdek, o‘zbek tilida unli tovushlarning cho‘ziqlik-qisqalik oppozitsiyasi mavjud emasligi bilan u boshqa turkiy tillardan farqlanadi [15, 43–45]. Shu jihatdan o‘zbek tili fonetik tizimi barqaror va talaffuz jihatidan iqtisodiy xususiyatlarga ega.

O‘zbek tilining asosiy sintaktik modeli subyekt–obyekt–fe‘l (SOV) tartibiga tayanadi. Biroq morfologik ko‘rsatkichlarning mavjudligi so‘z tartibini erkin o‘zgartirish imkonini beradi. Masalan, “Men kitobni o‘qidim” va “Kitobni men o‘qidim” mazmunan bir xil bo‘lsa-da, urg‘u va stilistik ohang farqlanadi. Bu esa sintaktik moslashuvchanlikni oshiradi [10, 44–46].

O‘zbek tilida oltita asosiy kelishik mavjud:

bosh kelishik

qaratqich kelishigi

jo‘nalish kelishigi

tushum kelishigi

o‘rin-payt kelishigi

chiqish kelishigi

Har biri so‘zlar o‘rtasidagi sintaktik bog‘lanishni belgilaydi va semantik yukni ifodalaydi. Masalan, o‘qituvchining kitobi - egalik, maktabga bordi - yo‘nalish, maktabda o‘qidi - o‘rin, maktabdan qaytdi - chiqish ma’nosini bildiradi [14, 118–120; 8, 144–145].

O‘zbek tilida tushum kelishigi belgili (kitobni o‘qidim) va belgisiz (kitob o‘qidim) shakllarga ega. Belgili shakl predmetning aniq ekanini bildiradi, belgisiz shakl esa umumiy yoki mavhum obyektni bildiradi. Bu tafovut rus va ingliz tillarida to‘liq aks etmaydi va tarjima jarayonida kompensatsiya vositalarini talab qiladi [10, 118–120; 11, 72–74].

Rus tilidagi падеж va o‘zbek tilidagi kelishik terminlari mazmun jihatidan o‘xshash bo‘lsa-da, ularning grammatik ifoda tizimi farqlanadi. Rus tilida grammatik ma’no so‘z shaklining o‘zgarishi orqali ifodalansa, o‘zbek tilida u affiksatsiya yo‘li bilan yuzaga keladi. Ingliz tilida esa kelishik tizimi mavjud emas, grammatik munosabatlar predloglar yordamida ifodalanadi [9, 81–83; 4, 21–23].

O‘zbek tilining hududiy lahjalarida kelishik qo‘shimchalari fonetik jihatdan farqlanishi mumkin: masalan, uyga o‘rniga uya, kitobdan o‘rniga kitobdo shakllari. Bunday farqlar qadimgi turkiy fonetik jarayonlarning izidir [4, 22–23].

Hozirgi kunda kelishik tizimini takomillashtirish quyidagi yo‘nalishlarda olib borilmoqda:

normativ grammatik me’yorlarni mustahkamlash;

sintaktik va morfologik tahlil ko‘nikmalarini o‘qitishda kuchaytirish;

avtomatik tarjima tizimlari uchun morfologik modellar yaratish;

turkiy tillar doirasida qiyosiy-tipologik tadqiqotlarni kengaytirish [1, 45–47; 2, 12–18; 3, 63–65].

Natijada, o‘zbek tili grammatik tizimi zamonaviy lingvistika, tarjimashunoslik va raqamli texnologiyalar kesishmasida yangi rivoj bosqichiga ko‘tarilmoqda.

Xulosa. O‘zbek tili o‘zining agglutinativ tabiati, boy fonetik tizimi va sintaktik moslashuvchanligi bilan jahon tillari orasida alohida o‘rin tutadi. Bu xususiyatlar uni murakkab grammatik struktura va semantik imkoniyatlarga ega tizim sifatida e’tirof etishga asos yaratadi. O‘zbek tilida kelishik kategoriyasi faqat grammatik funksiya emas, balki semantik va kommunikativ ahamiyatga ega bo‘lgan birlik sifatida til tizimining markazida turadi.

Kelishiklarning to‘g‘ri qo‘llanilishi fikrning mantiqiy izchilligini, sintaktik bog‘liqlikni va matnning grammatik yaxlitligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, terminologik nomuvofiqliklar, dialektal tafovutlar va tarjima jarayonidagi grammatik ekvivalentlik muammolari bu kategoriyani o‘rganishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Mazkur holatni bartaraf etish uchun normativ me’yorlarni mustahkamlash, ta’lim tizimida amaliy grammatikani rivojlantirish, kompyuter lingvistikasi imkoniyatlaridan foydalanish hamda qiyosiy-

tipologik tadqiqotlarni chuqurlashtirish zarurdir. Ushbu yondashuvlarning uyg‘un qo‘llanilishi o‘zbek tilining grammatik tizimini takomillashtirish, tarjimalarning sifatini oshirish va tilni raqamli muhitda samarali qo‘llash imkonini beradi.

`Natijada, kelishik kategoriyasi nafaqat morfologik birlik, balki milliy tafakkur, muloqot madaniyati va zamonaviy lingvistik taraqqiyotning ajralmas qismi sifatida o‘z o‘rnini yanada mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Qo‘chqorov, A. O‘zbek tili tarixi. – Toshkent: Fan, 2015. – 230 b.
2. Karimov, Sh. O‘zbek tilining grammatik tuzilishi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. – 198 b.
3. Serebrennikov, B. A. Sravnitel’naya grammatika tyurkskix yazykov. – Moskva: Nauka, 1970. – 312 s.
4. Nematov, H. Hozirgi o‘zbek tili morfologiyasi. – Toshkent: TDPU, 2008. – 156 b.
5. Sapir, E. Language: An Introduction to the Study of Speech. – New York: Harcourt, 1921. – 258 p.
6. Xo‘jiev, A. Til va tafakkur. – Toshkent: Fan, 1992. – 210 b.
7. Vinogradov, V. V. Russkiy yazyk: Grammatičeskoe uchenie o slove. – Moskva: Nauka, 1972. – 302 s.
8. Rasulov, R. O‘zbek tili sintaksisi masalalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 185 b.
9. Polivanov, E. D. Ocherki po obshchemu yazykoznaniyu. – Moskva: AN SSSR, 1933. – 265 s.
10. Komissarov, V. N. Teoriya perevoda. – Moskva: Vysshaya shkola, 1980. – 240 s.
11. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. Comparative Stylistics of French and English. – Toronto: University of Toronto Press, 1958. – 314 p.
12. Kononov, A. N. Grammatika sovremennogo uzbekskogo yazyka. – Moskva: Izdatel’stvo AN SSSR, 1960. – 380 s.
13. Borovkov, A. K. Uzbekskaya grammatika. – Moskva–Leningrad: AN SSSR, 1949. – 295 s.
14. Mahmudov, N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 256 b.
15. Abduazizov, **A.** O‘zbek tilining fonologiyasi va morfologiyasi. – Toshkent: Fan, 2001. – 210 b.

Djurabayeva Zamira Axmedovna
Andijon davlat pedagogika instituti PhD, dotsenti
E-mail: zamiradjurabayeva1958@gmail.com

"ATROF-MUHITNI ASRASH VA YASHIL IQTISODIYOT" YILIDA EKOLINGVISTIK QARASHLAR

Annotatsiya. *Azaldan inson va tabiat masalasi kishilik jamiyatining eng muhim muammolaridan biri bo'lib kelgan. Insonning o'zi yaxlit olamning bir qismi sifatida tevarak-atrofga, tabiatdagi flora va fanuna olamiga muntazam ta'sir o'tkazib keladi. Aslida, tabiat odamizotning yashash sharti, unga bu yorug' dunyoda yetarli ozuqa yetkazib beruvchi manbai sanaladi. Insonlarning tabiatga faol aralashuvi natijasida o'rtadagi muvozanatga putur yetkazildi. Suv, havo, yer ifloslandi, ularning ko'pchiligi qayta tiklanmaydigan holatga keldi. Buning natijasida ilm-fanda ekologiya va uning tilshunoslikdagi aks-sadosi sifatida ekologik lingvistika fani paydo bo'ldi va juda katta tezlikda taraqqqiy etdi. Bu jarayondan o'zbek tili ham chetda qolmadi. Shundan kelib chiqqan holda ushbu maqolada "2025-yil – Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili"da aholi o'rtasida ekologik bilim va ekologik madaniyatni oshirish maqsadida qilinadigan ishlar, o'simliklarni ifodalovchi nomlar va ularni asrab-avaylash bilan bog'liq fikr-mulohazalar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *"2025-yil – Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili", ekologiya, ekolingvistika, ekologik bilim, ekologik madaniyat, ekologik qarash.*

ЭКОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ В ГОДУ "ОХРАНЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ И ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ"

Аннотация. *С незапамятных времен вопрос о человеке и природе является одной из важнейших проблем человеческого общества. Сам человек, как часть всего мироздания, постоянно влияет на окружающую среду, на мир флоры и фауны. Природа, по сути, считается условием существования человека, источником достаточного питания для него в этом ярком мире. В результате активного вмешательства человека в природу нарушено равновесие в окружающей среде. Вода, воздух, земля загрязнены, многие из них стали непоправимыми. В результате в науке возникла и развивается стремительными темпами наука об экологии и её отголосок в языкознании – экологическая лингвистика. Узбекский язык не остался в стороне от этого процесса. Исходя из этого, в данной статье описывается работа по повышению экологических знаний и экологической культуры населения в «2025 году – Году охраны окружающей среды и зелёной экономики», приводятся названия растений и высказываются мнения, связанные с их сохранением.*

Ключевые слова: *«2025 год – Год охраны окружающей среды и зеленой экономики», экология, эколингвистика, экологические знания, экологическая культура, экологическое видение.*

ECOLINGUISTIC PERSPECTIVES IN THE YEAR OF "ENVIRONMENTAL PROTECTION AND THE GREEN ECONOMY"

Abstract. *From time immemorial, the issue of man and nature has been one of the most important problems of human society. Man himself, as part of the whole universe, has constantly influenced the environment, the world of flora and fauna in nature. In fact, nature is considered the condition of human existence, a source of sufficient nutrition for him in this bright world. As a result of active human intervention in nature, the balance in the environment has been disrupted. Water, air, land have been polluted, many of them have become irreparable. As a result, the science of ecology and its echo in linguistics, ecological linguistics, has emerged in science and has developed at a very rapid pace. The Uzbek language has not been left out of this process. Based on this, this article describes the work to be done to increase environmental knowledge and environmental culture among the*

population in "2025 - The Year of Environmental Protection and Green Economy", the names of plants and opinions related to their preservation.

Key words: *"2025 - The Year of Environmental Protection and Green Economy", ecology, ecolinguistics, environmental knowledge, environmental culture, environmental vision.*

Kirish. Bugun butun dunyoda ekologik tanglik hukm surmoqda. Ekologik inqiroz – inson faoliyati natijasida biosferadagi tabiiy jarayonlarning jiddiy buzilishi, natijada atrof-muhitning salbiy o'zgarishi va inson salomatligi, farovonligi va ekotizimlarning omon qolishiga tahdid solishidir. Asosiy ko'rinishlarga issiqxona effekti tufayli global isish, ozon qatlamining yemirilishi, suv, tuproq va havoning ifloslanishi va biologik xilma-xillikning yo'qolishi kiradi. Inqirozlar mahalliy, mintaqaviy yoki global bo'lishi mumkin. [https://translate.google.com]

Ekologik tanglik mazkur tushunchaning barcha fanlar ichiga chuqur kirib borishiga sababchi bo'ldi va ekologiya aralashuvidan oraliq fanlar yuzaga keldi. Shulardan birini ekologik lingvistika tashkil etadi.

Ekologik lingvistika ekologiyaga oid terminlardan tortib, tabaitani asrash, biologik xilma-xilliklarni saqlab qolish, o'simliklar, hayvonot olamiga insonlarning mehr-shafqatini anglauvchi matnlarni o'z ichiga oladi. Misol uchun quyidagi matnga e'tibor qilaylik.

"Hozirda bug'doy o'rish mavsumidan so'ng dalasini yoqib yuborish fermerlar o'rtasida urfga ylangan, lekin ekologlarning hisob-kitobiga ko'ra, 1000 gektar yerda yoqib yuborilgan somon poyasi atmosferaga 500 kilogramm azot oksidi, 379 kilogramm uglevodorod, 3 tonna kul, 20 tonna is va tutun chiqaradi. Somon yoqilganda 1500-3000 million donagacha turli mikroorganizmlar nobud bo'ladi, tuproq strukturasi buzilib, eroziya kuchayadi. Bu esa tuproq hosildorligiga, atmosfera havosiga va inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi". [Shokirov, 2006, 11-12].

Matndagi *tutun, is, mikroorganizm, eroziya, somon yoqish* kabi birliklar bevosita ekolingvistik mohiyatga ega so'zlar sanaladi. Ularni talil qilish insonlarda ekologgik madaniyatni oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi. Dunyo tilshunosligida ekolingvistika sohasida olib borilayotgan izlanishlarni quyidagi to'rtta yo'nalishga ajratish maqsadga muvofiq: 1) ekolingvistika *(Eco linguistics)* – ekologiya va lingvistikaga oid umumiy masalalarni o'rganadi) 2) til ekologiyasi *(Ecology of languages)* – muayyan tildagi leksik birliklarni sof holda saqlab qolish va ulardan to'g'ri foydalanish masalalarini tadqiq etadi; 3) ekolingvistika *(Ecological linguistics)* – ekologiyaga oid terminlarning lingvistik tahlili bilan shug'ullanadi; 4) ekolingvistika *(Language ecology)* – tilshunoslik va ekologiya o'rtasidagi aloqalarni tekshiradi [Ivanov, 2007, 41-47].

Mazkur yo'nalishlardan barchasi bugungi ekologik tanglik va uning hosilasi sanlgan voqea-hodisalarning milliy tillarda aks etishini ifodalaydi. Bundan o'zbek tili ham mustasno emas. Davlatimiz tomonidan 2025-yil bekorga "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilingani yo'q. Mazkur voqea munosabati bilan tilimizda avvaldan mavjud bo'lgan ekologiyaga oid so'z va tushunchalar jonlantirildi, ular qatoriga yangidan yangi leksik birliklar kirib keldi.

Shu tariqa ekolingvistika fani asta-sekin rivoj topdi. Bugungi kunda ekologiya fani yuzlab bo'lim va yo'nalishlarni o'z ichiga qamrab olgan kompleks fanlardan biri sifatida gavdalanmoqda. Ularning kamida o'ttizdan ortig'i oraliq fanlardir. [Kovyazina, 2003, 16-21].

Ekologik terminlar ilk bor o'zbek fanida X.D.Poluanovaning doktorlik ishida o'zbek, qoraqalpoq, ingliz va rus tillari misolida qiyosiy aspektda o'rganilib, bunday terminlarning derivatsion-semantik xususiyatlarini ochib berilgan. [Poluanova, 2016, 128].

N.Z. Pazliddinovaning tadqiqotida o'zbek tili fitonimlari tizimiga nominatsiya nazariyasi asosida baho berilgan. [Pazliddinova, 2018, 28].

2025-yil "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili"da Atrof-muhitni asrash vap "yashil iqtisodiyot yili" da nazarda tutilgan masalalar qatorida bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri tabiatni muhofaza qilishning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan o'simliklar dunyosini muhofaza qilishga ham alohida e'tibor qaratilgan. Boisi Respublikamiz florasi rang-barang bo'lib, o'simliklarning miqdori 4500tani tashkil etadi. Ularning 2000dan ziyodi yem-xashak, 1000tasi bol beruvchi, 700tasi dorivor, 530tasi bo'yoqli, 660tasi efir moyli, 350tasi ozuqabop, 270tasi xushbo'y, ziravor, 450tasi teri oshlovchi o'simliklar sanaladi. Hozirda o'simliklarning 1-12 foizi muhofazaga muhtoj.

Metodologiya. Bu borada Hukumatimiz tomonidan tegishli qonuniy hujjatlar qabul qilindi. 1991-yili O‘zbekiston Respublikasining “Qizil kitobi”ga o‘simliklarning 163 tasi kiritilgan edi. 1999 yilga kelib ularning soni 301 taga yetdi. Bu tashvishli holat. Sababi kamyob, yo‘qolib borayotgan o‘simliklar, butalar, daraxtlar bilan birgalikda ularning nomlari ham iste’moldan butunlay chiqib ketmoqda. Shu bois, ekofitonimlar (ekologik ahamiyatga ega bo‘lgan daraxt va o‘simlik nomlari)ning lingvistik xususiyatlarini tadqiq etish zamonaviy ilm-fanning o‘tkir muammolaridan biri bo‘lib qoldi. Shu maqsadda o‘simliklarning nomini targ‘ib qilish, ularning yasalish qoliplarini aniqlash, qo‘llanish chegaralarini tavsiflash aholi o‘rtasida ularni asrab-avaylash, o‘simliklar genefondini saqlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilishi tabiiy.

Tadqiqot natijalari. O‘zbek tilidagi o‘simlik nomlari xalqimizning ko‘p asrlik tajribalari, ular haqidagi bilim va ko‘nikmalari asosida shakllangan va har bir nom ostida ko‘hna tarix sahifalari, o‘simliklarning shakl-shamoyili, rang-tusi, belgi-xususiyatlari bilan bog‘liq jihatlari yashirinib yotibdi.

I. 1. Daraxt nomlari: *qora archa, oq saksovul, qora saksovul, o‘rik archa, savr archa, Fedchenko na’matagi, Korelkov uchqati, qoraqand, pufanak, irg‘ay, O‘rta Osiyo noki, chiziqpoyali pildiroq mevasi, Fedchenko pildiroq mevasi, zag‘ozak, tubulg‘u, shilvi* va shu kabilar.

2. Buta nomlari: *qora saksovul, yovvoyi anjir, yovvoiy uzum, chilon jiyda, pista*

3. O‘simlik nomlari: *behetmak, normushk, qizg‘ish asragul, rakodes astraguli, zarhallangan kiyikpanja, Angren mumsigi, uchqat (ajoyib shilvi), bolquray (mayda mevali dorema), ko‘pgulli ferganiya, Severtsov mug‘ultoviyasi, Aflotun piyozi, Eduard xolmoni, pushti sirach, Zarafshon parpisi, oq parpi (Talas parpisi), sug‘ur o‘t, Knorringisfaragi, Turkiston fumariolasi, Oloy nataliellasi, Oloy xiyoli, Olga sorbariyasi, Shokaptar lamiropappusi, bazulbang, omonqora, marmarak, Eron zirasi, anzur piyoz, Pskom piyozi, tilla rang sug‘uro‘t, tulkiquyruq, tuyaqorin, isiriq, oq jusan, qizilburun, qo‘ng‘irbosh, eshakmiya, shirinmiya, devpechak, qizil kandir, chakanda, zog‘oza, toron, sachratqi, shotara, bobuna, itburun, ko‘k sutlama, choyo‘t, quyonsuyak, sanchiqo‘t, kovrak, savrinjon, bo‘znoch, ermon, qarovin shirachi, botqoq toshyorari* kabi.

Mazkur o‘simlik nomlarining har biri ostida xalqimiz turmush tarzi, madaniyati, ekologik bilimlari, ekologik qarashlari bilan bog‘liq juda katta ma’lumotlar yotibdi. Masalan, kovul yoki kovar o‘simligi.

Kovul, kovar (Capparis spinosa L.) - kovuldoshlar oilasiga mansub yarim buta. Poya va shox-chalari yotiq, bargi tuxumsimon, guli yirik, oq yoki och pushti. Mevasi qizil etli, ko‘p urug‘li o‘simlik. [https://uz.wikipedia.org].

“Kovul-kovar” xalq tilida itqovun deb ham ataladi. U haqda qiziq ma’lumotlar uchraydi.

“Kovul mevasini jayralar sevib iste’mol qilganligi uchun aholi uni “jayrabodring” deb ham ataydi. Qadimda Forishda yashovchi mahalliy aholi kovul mevasi va gulidan “kabarbo” deb nomlangan sho‘rva tayyorlaganlar. [Шарофий, 2012, 4].

Lolaning *soxta qo‘shgul lola, Butkov lolasi, sarg‘ish lola, chipor lola, Farg‘ona lolasi (javg‘aza lola), Greys lolasi (qizil lola), targ‘il lola, Korolkov lolasi, Chimyon lolasi, Turkiston lolasi* kabi turlari haqida ham shunday deyish mumkin.

1926-yili Zominda *yashil gulli shirach* uchragan edi. Hozirda u butunlay yo‘q bo‘lib ketgan.

O‘simliklarning tarqalish hududlarini ifodalovchi terminlar: *mikroflora, dendroflora, introduksiya–karantin ko‘chatxonasi, botanika bohi, poliz, dala hovli, fermer xo‘jaligi, dehqon xo‘jaligi, tomorqa, oranjereya, ko‘chatxona, parvarishxona, yaylov, bog‘-rog‘, o‘rmon, polantatsiya, arpaxanzor, yaltirboshzor, qasmaldoqzor, qiltiqzor, efemerzor, bug‘doyiqzor, yaylov turlari, rangzor yaylov turlari, efemerli yaylov, qo‘ng‘irboshli yaylov* kabi leksik birliklar haqida to‘liq ma’lumotlarga ega bo‘lish bizning ekologik bilimlarimizni oshiradi, aholiningg ekologik madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Har bir nom ostida o‘zbek jamiyatining o‘simliklar dunyosiga bo‘lgan munsabati, ona tabiatni asrab-avaylash, uni yanada go‘zalroq qilish, tabiat ko‘rinishlariga o‘zgartirishlar kiritish kabi muammolari va ularning yechimlari mavjud. Masalan, *milliy bog‘*. Mazkur atama insonlarning hayotiy tajribasi asosida shakllangan bo‘lib, uning ostida mavjud flora va fauna olamini saqlab qolish, asrab-avaylash, ularga yaxshi munosabatlarda bo‘lish kabi xatti-harakatlar mujassam. Chunki, bunday

joyda hayvonlarni otish, ovlash, o‘simliklar dunyosini yo‘q qilishga qaratilgan har qanday faoliyat taqiqlanadi.

O‘simliklarning ko‘rinishi, shaklini ifodalovchi *o‘t, o‘t-o‘lan, maysa, ko‘chat, buta, daraxt;* sifatini ifodalovchi *tanqis, noyob, kamyob, dorivor, texnik, oziq-ovqatbop, yog‘ochbop, tabiiy, madaniy, begona, yovvoyi, tikanli, lalmikor, endemik, siyrak, nodir, bir yillik, mavsumiy, ko‘p yillik, poyali, poyasiz, vegetativ, dukkakli, o‘tsimon, butasimon, yog‘ochlangan, tukli, sertuk, hidli, to‘p gulli, tuganak ildizli, nashtarsimon, serbarg, rezavorsimon, tor arealli, qo‘zoq;* ularning qismlarini ifodalovchi *xas-xashak, xazon, novda, chiviq, shox-shabba, to‘ngak, po‘k, po‘stloq, tomir, barg, qalamcha, piyoz, tuganak, meva;* o‘simliklarning parvarishlash va muhofaza qilish bilan bog‘liq *urug‘, ekmoq, sepmoq, madaniylashtirmoq, parvarishlamoq, ko‘kartirmoq, butamoq, shakl bermoq, introduksiya, o‘simliklar genetik fondi, genbank, seleksiya;* o‘simliklarga oid shaxs nomlarini bildiruvchi : *bog‘bon, o‘rmonchi, o‘rmon begi, nazoratchi, bionazoratchi, ixtisoslashgan fumigatsiya otryadi, inspektor;* fitonimlar o‘sishiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi *payhonlash, qirqish, kesish, arralash, yiqitish, nobud qilish, uzish, yulish; yong‘in, garmsel, qurg‘oqchilik, degressiyabrakonerlik, tirik zamburug‘, bakteriya, virus, nemadot, kana, hasharot* kabi leksik birliklar o‘zbek tilining oltin fondidagi so‘zlar sanaladi.

Ulardan nutqda unumli foydalanish orqali faqat ekologik madaniyatimizni o‘stirish, shu sohadagi bilimlarimizni ko‘paytirish imkoniyatlariga ega bo‘lamiz. Mayin tukli qandim, Paleskiy qandimi, mantey qandimi (juzg‘unlar), endem, chiroyshakl (formovka) berish, degressiya – oziqa hajmining kamayishi, muhofaza qilish, mog‘orlashish, yashil qalqon, rekratsiya (dam olish), bionazorat, biosfera rezarvati, cheklov, biorezervat kabi so‘zlardan hamma ham xabardor emas.

Xulosa. Umuman olganda, tabiatni asrash, o‘simliklar dunyosiga ijobiy munosabatda bo‘lish har birimizning ona tabiat oldidagi insoniy burchimizdir. Aholi o‘rtasida ekologik bilimlarni oshirish birinchi galdagi vazifamiz. Zero, hamyutrtlarimiz mamlakatimizda qaror topgan o‘simliklar va ularni ifodalovchi atamlardan to‘la xabardor emas. Ular haqidagi ma’lumotlarni bilish va har biriga alohida munsabatda bo‘lish ekologik madaniyatni oshiradi.

“2025-yil – Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili”da bu vazifa yanada o‘tkirlashganini hamisha yodidimizda tutishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Иванова Ye.B. Цели, задачи и проблемы эколингвистики. Прагматический аспект коммуникативной лингвистики и стилистики // Сборник научных трудов Е.В.Иванова. Челябинск: Изд-во ИИУМС. – Образование, 2007. – С. 41-47.

2. Ковязина М.А. Экология: наука и терминология // Языки профессионалной коммуникатсии: материалы международной научной конференции. – Челябинск, 21-22 октября 2003 г. – С. 116-121.

Ijtimoiy obyektlar. Qiyosiy tahlilning ikkinchi sohasi ijtimoiy hodisalarga taalluqlidir. Ijtimoiy hayot murakkab tizim bo‘lib, unda mehnat, jamiyat, insonlararo munosabatlar, siyosiy va axloqiy qarashlar mujassam. Shu bois ijtimoiy obyektlarni qiyoslashda tahlil doirasi kengayadi: iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy va madaniy omillar birgalikda ko‘rib chiqiladi. Masalan, Abdulla Qahhorning “Sinchalak” asaridagi sovet qishlog‘i tasviri bilan Hemingueyning “Qariya va dengiz” asaridagi amerikalik baliqchi hayoti turli sharoitlarga asoslangan bo‘lsa-da, har ikkala asarda mehnatning ma’nosi, matonat va insoniy g‘urur g‘oyasi mushtarakdir. Demak, ijtimoiy obyektlarni qiyosiy tahlil qilish - jamiyat qadriyatlari va ularning vaqt davomida o‘zgarishini aniqlash demakdir.

Ma’naviy-g‘oyaviy obyektlar. Adabiyotning eng markaziy sohasi - insonning ichki dunyosi, e’tiqodi va g‘oyaviy qarashlari bilan bog‘liq ma’naviy hodisalardir. Ularda qadriyatlar, ideal, burch va muhabbat singari tushunchalar ifodalanadi. Masalan, Navoiy “Farhod va Shirin”da muhabbatni fidoyilik va vatanparvarlik bilan uyg‘un holda tasvirlasa, Shekspir “Romeo va Jul’yetta”da uni ehtiros va fojeiy taqdir bilan bog‘laydi. Shu sababli ma’naviy obyektlarni qiyoslash ikki darajada amalga oshiriladi: 1) g‘oyaviy mazmun darajasi (qadriyatning mohiyati), 2) badiiy ifoda darajasi (g‘oyaning qanday vositalar orqali berilgani). Ushbu ikki qatlam uyg‘un holda o‘rganilganda tahlil ilmiy jihatdan asosli bo‘ladi.

V. M. Jirmunskiy ta’kidlaganidek, qiyosiy tahlilning mohiyati obyektlarni tabiat, jamiyat va inson ruhiyati bilan bog‘liq yaxlit tizim sifatida ko‘rishdir. Shunday qilib, qiyosiy tahlilning obyektlari - bu faqat narsa yoki hodisa emas, balki inson tafakkuri va uni o‘rab turgan ijtimoiy hamda ma’naviy muhitning murakkab o‘zaro munosabatlaridir.

Qiyosiy tahlilning vazifalari

Qiyosiy tahlil - bu oddiy solishtirish emas, balki bilish, tushunish va baholash jarayoni bo‘lib, u obyektlar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash orqali umumiy mohiyat va qonuniyatlarni ochib beradi. Mineralov Yu. I. ta’kidlaganidek, komparativ tahlil fikrlash doirasini kengaytiradi va tadqiqotchini yangi ilmiy xulosalar sari olib boradi.

1. Gnoseologik vazifa (bilish vazifasi).

Qiyosiy tahlilning asosiy maqsadi yangi bilim hosil qilishdir. Obyektlarni solishtirish orqali tadqiqotchi ularning ichki mohiyatini chuqurroq anglaydi. Masalan, Navoiy va Dante asarlaridagi inson kamoloti g‘oyasini qiyoslash ikki madaniyatda shakllangan umuminsoniy qadriyatning turli talqinlarini ochib beradi. Shu tariqa gnoseologik vazifa bilimni kengaytirish va yangi tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

2. Mantiqiy vazifa.

Qiyosiy tahlil mantiqiy izchillikni talab qiladi. Obyektlar tarixiy, madaniy va funksional jihatdan solishtiriladigan darajada mos bo‘lishi lozim. Aks holda, tahlil yuzaki va noaniq bo‘lib qoladi. Masalan, “rashk” motivi asosida “O‘tgan kunlar”ni “Otello” bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri qiyoslash ilmiy jihatdan asosli emas, lekin insoniy his-tuyg‘ular universalligi nuqtayi nazaridan qaralganida mantiqiy asos paydo bo‘ladi.

3. Metodologik vazifa.

Qiyosiy tahlil ilmiy izlanish yo‘nalishini belgilaydi. U turli fanlar - tarix, madaniyatshunoslik, tilshunoslik, sotsiologiya va psixologiyaning integratsiyasini talab qiladi. Masalan, tarjimashunoslikdagi komparativ yondashuv lingvistik bilan bir qatorda madaniy va ijtimoiy kontekstni ham hisobga oladi. Bu esa kompleks metoddan foydalanishni zarur qiladi.

4. Akseologik vazifa (baholash vazifasi).

Bu bosqichda obyektlar madaniy va estetik qiymati nuqtayi nazaridan baholanadi. Tadqiqotchi hodisaning jamiyat taraqqiyotiga, ma’naviy ongga, madaniy o‘zlikni anglashga qo‘shgan hissasini aniqlaydi. Masalan, “Kecha va kunduz”ni tahlil qilishda uning milliy uyg‘onish g‘oyasidagi ahamiyati baholanishi akseologik vazifaning mazmunini tashkil etadi.

Qiyosiy tahlilda tipik vaziyatlar

Qiyosiy tahlil har doim ma’lum kontekstda olib boriladi. Kontekstni to‘g‘ri aniqlash tahlilning xolisligini ta’minlaydi. Jirmunskiy V. M. ta’kidlaganidek: “Komparativ adabiyotshunoslikda kontekstni tan olish - xolislikning birinchi shartidir.” [5] Ilmiy adabiyotda quyidagi to‘rtta tipik qiyoslash holati ajratiladi:

Bir makon – bir zamon
Bir makon – turli zamon
Turli makon – bir zamon
Turli makon – turli zamon
Bir makon – bir zamon.

Bu eng sodda qiyoslash turi bo‘lib, hodisalar bir madaniy muhit va bir davrga mansub bo‘ladi. Masalan, O‘tkir Hoshimov va Tohir Malik asarlarida mustaqillik arafasidagi jamiyat muammolari tasvirlanadi, biroq ular insoniy qadriyatlarni turlicha talqin etadilar. Bu holat individual uslub va poetik tafakkurni aniqlashga yordam beradi 2.Bir makon – turli zamon. Bir xalq adabiyotida turli davrlarda yaratilgan asarlar qiyoslanadi. Masalan, Muqimiy va Muhammad Yusuf she’riyati xalqona ruhda mushtarak, ammo ifoda usuli davr ruhiga ko‘ra farqlanadi. Mineralov Yu. I.: “Bir makondagi turli zamonlarni solishtirish - milliy adabiyotning o‘zini anglash jarayonidir.” [1] 3. Turli makon – bir zamon. Turli madaniyatlarda bir davrda yaratilgan asarlar qiyoslanadi. Masalan, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani va Viktor Gyugo asarlarida inson erkinligi va adolat g‘oyasi o‘xshash tarzda yoritilgan. Bu tur bir davr ruhining umumiyligini ko‘rsatadi. 4. Turli makon – turli zamon.

Eng murakkab, ammo falsafiy chuqur qiyoslash turi. Masalan, Navoiy va Shekspir asarlarida adolat g‘oyasi mavjud bo‘lsa-da, biri tasavvufiy, ikkinchisi xristian axloqiy talqinida namoyon bo‘ladi. Dyurishin D.: “Turli davr va madaniyatlarni qiyoslash - insoniyat ruhining umumiy qonuniyatlarini ochadi.” [3]

Qiyosiy tahlil metodologiyasi

Qiyosiy tahlil har qanday ilmiy tadqiqot singari aniq metodologik asosga tayanadi. Metodologiya - bu nafaqat usullar majmuasi, balki ilmiy tafakkurning yo‘nalishi va tahlilning ichki mantiqidir. Qiyosiy tahlilning metodologiyasi kompleks xususiyatga ega bo‘lib, tilshunoslik, tarix, falsafa, psixologiya, estetika va madaniyatshunoslikka oid yondashuvlarni birlashtiradi. Rasulov R. ta’kidlaganidek: “Metod bo‘lmasa, tahlil faqat tasvir darajasida qoladi.”[1]

Umumilmiy metodlar

Analiz va sintez. Analiz - asarni qismlarga ajratib o‘rganish; sintez - olingan ma’lumotlarni yagona xulosaga keltirish. Masalan, Navoiyning “Farhod va Shirin” va Shekspirning “Romeo va Jul’yetta” asarlarida muhabbatning turlicha badiiy talqini analiz qilinadi, sintezda esa bu g‘oya umuminsoniy qadriyat sifatida yaxlit ko‘rinadi. Induksiya va deduksiya. Induksiya: ko‘plab faktlardan umumiy qonuniyat chiqarish;

Deduksiya: umumiy nazariyani alohida misollar bilan isbotlash. Masalan, romantik qahramonning idealga intilishi haqidagi nazariyani Farhod, Pechorin yoki Jan Valjan obrazlarida deduktiv tasdiqlash mumkin. Analogiya va modellashtirish. Analogiya o‘xshashlikka asoslanadi (Raskolnikov va Otabekning vijdon kurashi). Modellashtirish murakkab hodisalarni sxematik shaklda ifodalaydi (masalan, “Sharq va G‘arb adabiyotida qahramonning ruhiy inqirozi” modeli).

Maxsus komparativ metodlar

Qiyosiy-tarixiy metod. Asar va g‘oyalar tarixiy ildizlari, an’ana va ta’sir mexanizmlarini ochadi. Masalan, “Layli va Majnun” syujetining Sharqdan G‘arb adabiyotiga o‘tishi. Kontrastiv metod.

O‘xshashlikdan ko‘ra farqlarga e’tibor qaratadi. Masalan, Dostoevskiy nutq pauzalari va ularning o‘zbek tarjimasidagi punktuatsion o‘zgarishlarini tahlil qilish.

Fanlararo (integrativ) yondashuv

Zamonaviy qiyosiy tahlil semiotika, kognitologiya, psixolingvistika va madaniyatshunoslik bilan uyg‘un holda olib boriladi. Masalan, badiiy obrazlarning tarjimada o‘zgarishini kognitiv model orqali tahlil qilish yoki Dostoevskiy sintaksisi va qahramon ruhiyati orasidagi bog‘liqlikni psixolingvistik yondashuvda ko‘rsatish.

Qiyosiy tahlil metodologiyasi analiz-sintez orqali mazmunni chuqurlashtiradi, induksiya va deduksiya ilmiy asos yaratadi, analogiya va modellashtirish umumlashtirishni ta’minlaydi, qiyosiy-tarixiy metod an’ana va uzviylikni ochadi, kontrastiv metod esa farqlarning mohiyatini yoritadi. Shu tarzda qiyosiy tahlil ilmiy aniqlik, madaniy kenglik va estetik teranlikka ega bo‘ladi.

Tarjima – qiyosiy adabiyotshunoslik obyekti sifatida.

Tarjima jarayonining komparativ mohiyati. Tarjima - bu so‘zlarni o‘girish emas, balki madaniyatlar o‘rtasidagi murakkab kommunikatsiya jarayonidir. U orqali bir xalqning estetik qadriyatlari, tafakkuri va dunyoqarashi boshqa xalqqa yetkaziladi. Shu bois, tarjima qiyosiy adabiyotshunoslikning eng tabiiy obyektlaridan biri hisoblanadi.P. M. Topper ta’kidlaganidek: “Tarjima – ikki millat orasidagi madaniy muloqotning eng yuksak shaklidir; u orqali xalq o‘zini boshqa xalq nigohi bilan ko‘radi.” [1]. Qiyosiy adabiyotshunoslik tarjimani ikki yo‘nalishda o‘rganadi: Original va tarjima matni o‘rtasidagi muvofiqlik; Madaniy transformatsiya, ya’ni bir madaniyatning boshqasiga o‘zlashuvi.Masalan, Navoiy asarlari rus tiliga tarjima qilinganda ularning ma’naviy-estetik ruhi o‘zgaradi, lekin bu orqali Sharq madaniyati rus o‘quvchisiga tanish bo‘ladi.

Tarjimaning nazariy asoslari. Tarjima nazariyasi bir nechta asosiy modellarga tayanadi: Transformatsion model - grammatik o‘zgarishlar va sintaktik qayta qurilishga asoslanadi; Semantik-semiotik model - ma’no va belgi tizimining uzatilishini tahlil qiladi; Situativ model - iboralar va mazmunning kontekstga ko‘ra mos tarjimasini izlaydi (masalan, bread and butter – “tirikchilik manbai”); Kommunikativ model - tarjimani madaniy muloqot vositasi sifatida baholaydi. Shunday qilib, tarjima - faqat lingvistik hodisa emas, balki madaniyatlararo komparativ jarayondir.

Adekvatlik va ekvivalentlik. Tarjimaning sifatini belgilovchi asosiy mezonlar - adekvatlik va ekvivalentlikdir. Adekvat tarjima – originalning ruhini, mazmunini va uslubini saqlaydi; Ekvivalent tarjima – mazmunan mos, lekin ifodasi tabiiy bo‘lgan variantdir. Masalan, Dostoevskiyning “Бедные люди” asarini “Bechora odamlar” deb tarjima qilish - adekvat, chunki semantik ma’no saqlanadi. “Yomon ahvoldagi odamlar” esa grammatik jihatdan to‘g‘ri, lekin estetik jihatdan ekvivalent emas.Tarjima jarayonida ilmiy aniqlik va badiiy ifoda o‘rtasida muvozanatni topish tarjimon mahoratini belgilaydi.

Tarjima va adabiy ta’sir. Tarjima milliy adabiyotlarning rivojida muhim omildir. U orqali xalqlar bir-birining tajribasini o‘zlashtiradi, yangi g‘oyalar va janrlar paydo bo‘ladi. Masalan, XIX asr rus adabiyoti Yevropa klassiklari, o‘zbek adabiyoti esa Pushkin, Tolstoy va Shekspir asarlari tarjimalari orqali yangi estetik darajaga ko‘tarilgan. Shunday qilib, tarjima - adabiyotlararo rezonans, ya’ni bir asarning boshqasida aks sadosidir.

Tarjimon – madaniyatlararo vositachi. Tarjimon - bu ikki tildan ham ko‘ra, ikki madaniyatni birlashtiruvchi shaxs.

G‘. Salomov aytganidek: “Tarjimon so‘z ustasi bo‘lishdan oldin, ikki xalqning yuragiga kirishni bilishi kerak.” [2]

U milliy kolorit, xalqona ohang va madaniy ruhni boshqa tilda qayta yaratadi. Shu bois tarjima qiyosiy tahlil uchun bebaho material bo‘lib, madaniyatlararo muloqotni ta’minlaydi.

Tarjima tahlilining metodologik ahamiyati. Tarjima qiyosiy tahlilda uchta asosiy vazifani bajaradi: Ilmiy - tillararo semantik moslikni aniqlaydi; Estetik - originalning uslub va ritmini tahlil qiladi; Madaniy - xalqlar tafakkuridagi o‘zaro ta’sirni ko‘rsatadi.Shuning uchun tarjimashunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik bugun integratsiyalashgan fanlar sifatida shakllanmoqda. Tarjima natijasi - bu matndan tashqari, yangi madaniy hodisadir.

Xulosa. Maqolada qiyosiy tahlilning nazariy asoslari, metodologik prinsiplari, baholash mezonlari va xolislik shartlari yoritildi. Quyidagi umumiy natijalar shakllandi:

Qiyosiy tahlil - bu hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar orqali yangi bilim yaratuvchi falsafiy jarayon. 1) Uning obyektlari inson tafakkurining tabiiy, ijtimoiy va madaniy qatlamlarini qamrab oladi.2)Baholash mezonlari (tarixiy, gnoseologik, mantiqiy, metodologik, akseologik) ilmiy aniqlikni ta’minlaydi.3) Xolislik - komparativ tahlilning ma’naviy poydevori bo‘lib, tadqiqotchi dalil va kontekstga tayanib ish yuritishi zarur.4) Tarjima - qiyosiy adabiyotshunoslikning markaziy obyekti; tarjimon esa ikki xalq tafakkurini birlashtiruvchi vositachidir.

Xulosa qilib aytganda, qiyosiy tahlil bugungi adabiyotshunoslikda fanlararo metodologik tizim sifatida o‘z ahamiyatini mustahkamlamoqda. U milliy va jahon adabiyotlari o‘rtasida ma’naviy ko‘prik yaratadi hamda inson tafakkurining umumiy qonuniyatlarini ochadi. “Haqiqat qiyosda bilinadi” degan xalq hikmati mazmunida bo‘lgani kabi, qiyosiy tahlil - inson tafakkurining eng halol, eng tabiiy shaklidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Минералов, Ю. И. Сравнительное литературоведение (компаративистика). - М.: Юрайт, 2018. - 325, [1] с.

2. Жирмунский, В. М. Сравнительное литературоведение: избранные труды. - Л.: Наука, 1979. - 492 с.

3. Расулов, Р. Умумий тилшунослик. - Тошкент: Fan va texnologiya, 2007. - 256 б.

4. Саломов, Ғ. Таржима назарияси асослари. - Тошкент: Ўқитувчи, 1983. - 232 б.

4. 5 Илясов, Б. Искусство поэтического перевода. - Тошкент: Фан, 2007. - 124 с.

5. Топер, П. М. Перевод в системе сравнительного литературоведения. - М.: [n. p.], 2000. - 252 с.

6. Конрад, Н. И. О литературных связях. - М.: Наука, 1978. - 462 с.9

7. Қосимов, А.; Ҳамроқулов, А.; Ҳожаєв, С. Қиёсий адабиётшунослик. - Тошкент: Akademnashr, 2019. - 160 б.

To‘rahonova Barno Tursunboy qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Maxsus pedagogika kafedrasi dotsent

ZAMONAVIY MAKTAB TA’LIMIDA O‘SMIRLAR SHAXSINING AXLOQIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI RIVOJLANISH DINAMIKASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy maktab ta’limi sharoitida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning axloqiy-psixologik xususiyatlari, ularning shakllanishi va rivojlanish dinamikasi tahlil qilingan. O‘smirlik davrida shaxsning axloqiy qadriyatlari, mas’uliyat hissi, empatiya va o‘zini anglash darajasi maktab muhitidagi pedagogik va psixologik omillar ta’sirida qanday shakllanishi ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqotda o‘smirlarning axloqiy rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy-madaniy muhitning roli hamda o‘qituvchi va ota-onalarning ta’siri muhim omil sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘smirlik, axloqiy rivojlanish, shaxs psixologiyasi, maktab muhiti, ijtimoiy qadriyatlar, empatiya, o‘zini anglash.*

ОСОБЕННОСТИ ДИНАМИКИ РАЗВИТИЯ МОРАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК ЛИЧНОСТИ ПОДРОСТКОВ В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В статье анализируются морально-психологические особенности личности подростков в условиях современного школьного образования. Раскрыта динамика формирования нравственных ценностей, чувства ответственности, эмпатии и самосознания подростков под влиянием педагогических и психологических факторов школьной среды. Особое внимание уделено этапам морального развития, роли социокультурной среды, а также влиянию учителей и родителей на личностное становление подростков.*

Ключевые слова: *подростковый возраст, моральное развитие, психология личности, школьная среда, социальные ценности, эмпатия, самосознание.*

SPECIFIC FEATURES OF THE DYNAMICS OF MORAL AND PSYCHOLOGICAL DEVELOPMENT OF ADOLESCENTS’ PERSONALITY IN MODERN SCHOOL EDUCATION

Annotatsion. *This article analyzes the moral and psychological characteristics of adolescents within the context of modern school education. It examines the dynamics of moral value formation, sense of responsibility, empathy, and self-awareness as influenced by pedagogical and psychological factors of the school environment. The study highlights the stages of moral development, the role of the socio-cultural context, and the impact of teachers and parents on the personal growth of adolescents.*

Key words: *adolescence, moral development, personality psychology, school environment, social values, empathy, self-awareness.*

Hozirgi davrda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, axborot texnologiyalarining keng qo‘llanilishi va globallashuv jarayonlari maktab ta’limi tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Bu jarayonda o‘quvchilarning, ayniqsa, o‘smir yoshdagilarning shaxsiy va axloqiy rivojlanishiga alohida e’tibor qaratish zarur. O‘smirlik davri inson hayotida shaxsiy o‘zini anglash, mustaqil fikrlash va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish bosqichi sifatida alohida ahamiyatga ega. Shu boisdan zamonaviy maktab ta’limida o‘smirlarning axloqiy-psixologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish, ularning rivojlanish dinamikasini tahlil qilish, shuningdek, pedagogik va psixologik omillar ta’sirini aniqlash dolzarb masalalardan biridir. Mazkur tadqiqot o‘smirlar shaxsining axloqiy yetukligini ta’minlovchi psixologik mexanizmlarni o‘rganish va ularni samarali rivojlantirish yo‘llarini aniqlashga qaratilgan.

Shaxs rivojlanishi va tarbiyasi haqidagi zamonaviy psixologik nazariyalarga, jumladan, L.S. Vygotskiy, J. Piaje, E. Erikson, K. Kholberg va A. Banduralarning ilmiy qarashlariga tayanadi. Tadqiqotda o‘smirlik davrida axloqiy ong, shaxsiy qadriyatlar va ijtimoiy javobgarlik hissining shakllanish jarayonini aniqlash maqsadida kompleks yondashuv qo‘llanilgan.

Metodologik asos sifatida sistemali-tahliliy, faoliyatga yo‘naltirilgan hamda shaxsga yo‘naltirilgan psixologik yondashuvlar tanlab olindi. Ushbu yondashuvlar o‘smirlarning axloqiy rivojlanishini individual va ijtimoiy-pedagogik omillar bilan o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish imkonini beradi.

L.S. Vygotskiy – o‘zining madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida shaxs psixikasining shakllanishi ijtimoiy muhit bilan faol o‘zaro ta’sirda yuz berishini ta’kidlaydi. Vygotskiyga ko‘ra, o‘smirlik davrida axloqiy ongning rivojlanishi sotsiokultural tajriba va nutq faoliyati orqali ro‘y beradi [1].

J. Piaje o‘zining kognitiv rivojlanish nazariyasida bola tafakkuri va axloqiy tafakkur bosqichma-bosqich murakkablashishini, o‘smirlik davrida esa abstrakt va printsipial fikrlash shakllanishini asoslaydi [2].

E. Erikson – psixosotsial rivojlanish nazariyasida o‘smirlik davrini “shaxsiy identifikatsiya va rol konfliktlari” bosqichi deb ta’riflaydi. Bu davrda inson o‘zining “men”ini anglaydi va ijtimoiy mas’uliyatni his eta boshlaydi [3].

K. Kolberg – o‘zining axloqiy rivojlanish nazariyasida inson axloqiy qarorlar qabul qilishda uchta asosiy daraja (prekonventsional, konventsional va postkonventsional) bosqichlardan o‘tishini ko‘rsatadi. O‘smirlik davrida axloqiy mulohaza qilishning konventsional bosqichi shakllanadi [4].

A. Bandura – ijtimoiy o‘rganish nazariyasida axloqiy xatti-harakatlarning o‘zlashtirilishida kuzatish, taqlid va modellashtirish jarayonining ahamiyatini asoslaydi. Unga ko‘ra, o‘smirlar axloqiy me’yorlarni o‘qituvchi, ota-ona va tengdoshlardan o‘rganadilar [5].


Tadqiqotimizda L.Kolbergning “Axloqiy fikrlash darajalarini aniqlash metodikasi” orqali o‘smirlarning axloqiy tafakkuri darajasini, ya’ni ular axloqiy qarorlarni qabul qilishda qaysi bosqichda (prekonventsional, konventsional yoki postkonventsional) ekanligini aniqlashdan iborat. Respondentlarga turli axloqiy dilemmalar (masalan, “Geynz dilemmasi”) taqdim etiladi. Har bir holatda o‘quvchi insonning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri harakatini baholaydi va o‘z fikrini asoslaydi. Bunda 1–2-bosqich - Prekonventsional daraja: jazodan qochish va foyda olish motivi, 3–4-bosqich - Konventsional daraja: ijtimoiy me’yorlarga rioya etish, boshqalarni ma’qullash istagi, 5–6-bosqich - Postkonventsional daraja: umumiy insoniy qadriyatlar asosida mustaqil axloqiy qaror qabul qilish orqali baholanadi. Metodikaning afzalligi shundaki o‘smirlarning axloqiy fikrlash darajasini chuqur tahlil qilish imkonini beradi va maktab ta’limida axloqiy tarbiya samaradorligini baholashda qo‘llaniladi.

Keyingi tadqiqotimizda A.Mehrabian va N.Epsteynning “Empatiya darajasini aniqlash metodikasi” asosida o‘smirlarning boshqalarga nisbatan hissiy sezgirligi, empatiya qobiliyati va ijtimoiy moslashuv darajasini aniqlash. Metodika 33 ta bayonotdan iborat bo‘lib, har bir bayonotga 1 dan 5 gacha ball qo‘yiladi (1- “butunlay to‘g‘ri emas”, 5 - “to‘liq to‘g‘ri”). Savollar shaxsning hissiy javob berish qobiliyatini, beg‘amlik yoki rahm-shafqat darajasini o‘lchaydi. Shuningdek, 100 balldan yuqori - yuqori empatiya darajasi, 70–100 ball - o‘rtacha empatiya hamda 70 balldan past - past empatiya, bu ijtimoiy izolyatsiya yoki indifferentlikni bildiririshi orqali baholanadi. O‘smirlarning boshqalarga nisbatan hissiy munosabatini aniqlab, axloqiy-psixologik rivojlanish dinamikasini baholashga imkon beradi.

Ya’ni bu ikki metodika axloqiy tafakkur va empatiyani o‘lchash orqali o‘smir shaxsining axloqiy-psixologik rivojlanish dinamikasini kompleks baholashga imkon beradi.

L.Kolbergning “Axloqiy fikrlash darajalarini aniqlash metodikasi” orqali olingan natijalar ko’rsatkichi N=150

Axloqiy rivojlanish darajasi	N	(%)
Prekonventsional (1–2 bosqich)	30	20%
Konventsional (3–4 bosqich)	90	60%
Postkonventsional (5–6 bosqich)	30	20%
Jami	150	100%



20 foiz o’smirlarda “Prekonventsional” darajada guruhdagi o‘smirlar axloqiy qarorlarni ko‘proq shaxsiy foyda yoki jazodan qochish asosida qabul qiladi. Maktab muhitidagi axloqiy tarbiya ularda nazorat va tushuntirish orqali samarali bo‘ladi.

60 foiz “Konventsional” darajadagi o‘smirlar axloqiy qarorlarini jamiyat me’yorlariga va o‘qituvchi, tengdoshlarning fikriga asoslab qabul qiladi. Bu yoshdagi o‘smirlar uchun ijtimoiy qoidalarni mustahkamlash va empatiya rivojlantirish muhimdir.

20 foiz o’smirlarda “Postkonventsional” darajadagi o‘smirlar guruhida axloqiy qarorlarni mustaqil ravishda, umumiy insoniy qadriyatlar asosida qabul qiladi. Ular ijtimoiy mas’uliyatni chuqur his qiladi va murakkab axloqiy dilemmalarni ham mustaqil hal qila oladi.

Mehrabian va Epsteinning “Empatiya darajasini aniqlash metodikasi” orqali olingan natijalar N=150

Empatiya darajasi	O‘g‘il (n=75)	Qiz (n=75)	Jami (n=150)
Past	15 (20%)	5 (6.7%)	20 (13.3%)
O‘rtacha	40 (53.3%)	30 (40%)	70 (46.7%)
Yuqori	20 (26.7%)	40 (53.3%)	60 (40%)
Jami	75 (100%)	75 (100%)	150 (100%)

Tadqiqotimizda o‘g‘il bolalarda o‘smirlar empatiya darajasining tahlili past daraja 20 foizni tashkil etdi. O‘smirlarning 5 dan 15 kishi empatiyasi pastligini ko‘rsatadi. Past empatiya darajasi shuni anglatadiki, ushbu guruhdagi o‘smirlar boshqalar his-tuyg‘ularini yetarlicha tushunmaydi va ijtimoiy

vaziyatlarda hissiy javob berishda cheklangan bo‘lishi mumkin. O‘rtacha daraja Ko‘pchilik o‘smirlar (40 nafar) empatiya darajasi o‘rtacha 53,3 foiz, ya’ni ular boshqa insonlarning his-tuyg‘ularini tushunishga moyil, lekin bu qobiliyat ba’zan past darajada namoyon bo‘lishi mumkin. Bu ularning ijtimoiy moslashuvini o‘rtacha darajada ta’minlaydi. Yuqori daraja 26,7 foiz guruhdagi 20 nafar o’smirlar empatiya jihatidan kuchli, ya’ni ular boshqalarning his-tuyg‘ularini sezishda va ularga mos javob berishda yuqori qobiliyatga ega. Bu ularning ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beradi. O‘smirlar orasida empatiya darajasi o‘rtacha va pastroq guruhlar ko‘p. Yuqori empatiya darajasi nisbatan kamroq, bu o‘g‘il o‘smirlar his-tuyg‘ularni ifodalash va boshqalarning holatini tushunish qobiliyati jihatdan qisman cheklanganligini ko‘rsatadi.

Qiz bolalarda o‘smirlar empatiya darajasining tahlili yuzasidan past daraja 6,7 % Faqat 5 nafar qiz past empatiya ko‘rsatgan. Bu juda kam, ya’ni qizlar orasida empatiya darajasi past bo‘lganlar kam. O‘rtacha daraja 40 % 30 nafar qizlar o‘rtacha empatiyaga ega. Bu qizlarning boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va ularga mos javob berish qobiliyati barqaror darajada ekanini ko‘rsatadi. Yuqori daraja 53,3 % 40 nafar qizlarda yuqori empatiya ko‘rsatgan, ya’ni ular boshqalarning his-tuyg‘ularini sezish va ularga moslashish qobiliyatiga ega. Bu ularning ijtimoiy vaziyatlarda kuchli hissiy sezgirlik va mehribonlik ko‘rsatishini bildiradi. Ya’ni o‘smirlar orasida yuqori empatiya darajasi o‘g‘illarga nisbatan sezilarli darajada ko‘p. Bu jinsiy farq empatiya rivojlanishida biologik va ijtimoiy omillar ta’sirida yuzaga keladi. Qizlar odatda hissiyotlarni ifodalash va boshqalar bilan emosional bog‘lanishda ko‘proq qobiliyatli bo‘ladilar.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o‘smirlar orasida empatiya darajasi jinsga qarab sezilarli farq qiladi. Qizlar ko‘proq yuqori empatiya darajasiga ega bo‘lib, boshqalar his-tuyg‘ularini tushunish va ularga mos javob berishda o‘g‘illarga nisbatan ustunlikka ega. O‘g‘il o‘smirlar orasida esa empatiya darajasi ko‘proq o‘rtacha va pastroq bo‘lib, hissiy sezgirlik jihatidan qizlarga qaraganda pastroq darajada namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, empatiya darajasi o‘smirlarning ijtimoiy moslashuviga, boshqalar bilan samarali muloqot qilishiga va hissiy jihatdan barqaror bo‘lishiga ta’sir qiluvchi muhim psixologik xususiyat ekanligi ko‘rinib turadi. Natijalar jinsiy farqlarni hisobga olgan holda o‘quv va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda, shuningdek, ijtimoiy-emotsional rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashda muhim asos bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. 1Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
2. Piaget J. The Moral Judgment of the Child. – London: Routledge & Kegan Paul, 1932. – 418 p.
3. Erikson E. H. Identity: Youth and Crisis. – New York: W. W. Norton, 1968. – 336 p.
4. Kohlberg L. Essays on Moral Development. Vol. 1: The Philosophy of Moral Development. – San Francisco: Harper & Row, 1981. – 440 p.
5. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977. – 247 p.

Саиджонова Фарангиз Садриддиновна
магистр направления русской лингвистики
Бухарского международного университета

ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РЕЧЕВОГО РАЗВИТИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ В УСЛОВИЯХ БИЛИНГВИЗМА

Аннотация. *В статье рассматриваются психолингвистические механизмы речевого развития младших школьников в условиях билингвизма. Анализируются особенности формирования языковой компетенции, влияние взаимодействия двух языковых систем на процессы восприятия, понимания и продуцирования речи. Особое внимание уделено роли межъязыковой интерференции, когнитивных стратегий и эмоционально-мотивационных факторов в освоении речи. Представлены результаты наблюдений и экспериментов, подтверждающих специфические закономерности речевого развития билингвальных детей младшего школьного возраста.*

Ключевые слова: *билингвизм, психолингвистика, речевое развитие, младшие школьники, языковая компетенция, интерференция.*

PSYCHOLINGUISTIC MECHANISMS OF SPEECH DEVELOPMENT IN PRIMARY SCHOOL CHILDREN UNDER CONDITIONS OF BILINGUALISM

Annotation. *The article explores the psycholinguistic mechanisms of speech development in primary school children under conditions of bilingualism. It analyzes the formation of linguistic competence and the influence of interaction between two language systems on the processes of speech perception, comprehension, and production. Special attention is paid to interlingual interference, cognitive strategies, and emotional-motivational factors in language acquisition. The study presents observation and experimental data confirming the specific patterns of speech development in bilingual children of primary school age.*

Key words: *bilingualism, psycholinguistics, speech development, primary school children, language competence, interference.*

BILINGVIZM SHAROITIDA KICHIK MAKTAB O‘QUVCHILARINING NUTQ RIVOJLANISHINING PSIXOLINGVISTIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Maqolada bilingvizm sharoitida kichik maktab yoshidagi bolalarning nutqiy rivojlanishining psixolingvistik mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Til kompetensiyasining shakllanish xususiyatlari, ikki til tizimining o‘zaro ta’siri natijasida nutqni idrok etish, tushunish va ishlab chiqish jarayonlariga ta’siri tahlil qilinadi. Til o‘zaro aralashuvi (interferensiya), kognitiv strategiyalar va emotsional-motivatsion omillarning ahamiyatiga alohida e’tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari bilingv bolalarda nutq rivojlanishining o‘ziga xos qonuniyatlarini tasdiqlaydi.*

Kalit so‘zlar: *bilingvizm, psixolingvistika, nutqiy rivojlanish, kichik maktab yoshi, til kompetensiyasi, interferensiya.*

Введение. В современном мире билингвизм становится одним из наиболее распространённых социокультурных и психолингвистических явлений. Термин «билингвизм» (от лат. bi - «два» и lingua - «язык») обозначает способность человека владеть двумя языками и использовать их в различных коммуникативных ситуациях. В научной литературе различают индивидуальный и социальный билингвизм, а также ранний (приобретаемый в детстве) и поздний (формирующийся во взрослом возрасте) его типы.

С психолингвистической точки зрения билингвизм рассматривается как сложная динамическая система взаимодействия двух языковых кодов в сознании человека, которая влияет на процессы восприятия, понимания, кодирования и декодирования речевых сообщений. Владение двумя языками не является простым суммированием языковых навыков; это особая форма

речевого поведения, включающая когнитивные, эмоциональные и нейропсихологические механизмы, обеспечивающие гибкость и адаптивность мышления.

Рассмотрение билингвизма в данной статье обусловлено тем, что именно в условиях двуязычия особенно ярко проявляются психолингвистические закономерности развития речи. Младший школьный возраст - это этап, когда ребёнок активно осваивает систему родного языка, овладевает письменной и устной формами речи, формирует внутреннюю речь и грамматический строй. При наличии второго языка эти процессы протекают с определённой спецификой, связанной с интерференцией языковых систем, необходимостью переключения между кодами (code-switching) и развитием метаязыкового сознания.

Таким образом, билингвизм представляет собой не только лингвистическое, но и психолингвистическое явление, позволяющее глубже понять механизмы формирования речевой деятельности человека. Изучение речевого развития младших школьников в билингвальной среде важно для выявления как трудностей (задержка речи, смешение кодов, ограниченный словарь), так и преимуществ (гибкость мышления, усиление памяти, развитие аналитических способностей).

В связи с этим исследование психолингвистических механизмов речевого развития в условиях билингвизма позволяет определить закономерности усвоения языка, когнитивные стратегии и эмоционально-мотивационные факторы, влияющие на эффективность речевого и интеллектуального развития детей.

Теоретические основы билингвизма. Проблема билингвизма на протяжении десятилетий является предметом междисциплинарного исследования - лингвистики, психологии, педагогики и нейропсихологии. Различные научные школы по-разному определяли сущность билингвизма, его структуру и влияние на развитие личности.

С точки зрения классической лингвистики (Л. Блумфилд, У. Вайнрайх), билингвизм - это регулярное использование двух языков одним и тем же индивидом в зависимости от ситуации общения. Вайнрайх одним из первых указал на явление интерференции - взаимного влияния языковых систем, проявляющегося в фонетике, грамматике и семантике речи билингва. Это определение подчёркивает, что владение двумя языками не является изолированным процессом, а сопровождается постоянным взаимодействием между ними.

С позиции психолингвистики билингвизм рассматривается как когнитивный феномен, включающий операции выбора, переключения и контроля языковых кодов. Л. С. Выготский в своих трудах указывал, что язык - это не только средство общения, но и инструмент мышления. Следовательно, овладение двумя языками формирует особый тип двуязычного сознания, в котором когнитивные процессы (восприятие, память, внимание) подстраиваются под двойную систему знаков.

В отечественной науке развитие теории билингвизма связано с трудами А. А. Леонтьева, Е. С. Кубряковой, Т. Г. Винокура, которые рассматривали психолингвистические механизмы речи через взаимодействие языковых, когнитивных и мотивационных структур. Леонтьев подчёркивал, что при билингвизме наблюдается не простое удвоение языковой способности, а перестройка всей речевой деятельности, включающая осознание языковых форм и повышение уровня метаязыкового контроля.

Современные зарубежные исследователи (J. Cummins, E. Bialystok, F. Grosjean) обращают внимание на нейропсихологические аспекты билингвизма. Их работы показывают, что владение двумя языками способствует развитию исполнительных функций мозга - таких как когнитивная гибкость, способность к переключению внимания и подавлению интерференции. Согласно модели Камминса, билингвизм может быть сбалансированным (равное владение обоими языками) или доминантным (преобладание одного языка), что влияет на уровень речевого и когнитивного развития ребёнка.

Особое значение для психолингвистики имеет различие между одновременным (simultaneous) и последовательным (successive) билингвизмом. В первом случае ребёнок осваивает оба языка с раннего возраста в естественной среде общения, а во втором - второй язык добавляется позже, чаще в образовательном процессе. От этого зависит структура речевого

опыта и характер взаимодействия языковых систем. Таким образом, теоретические исследования показывают, что билингвизм - это не просто способность говорить на двух языках, а многоуровневое психолингвистическое образование, в котором взаимодействуют когнитивные, аффективные и социальные компоненты. Его изучение позволяет глубже понять универсальные механизмы речевого развития, а также индивидуальные особенности двуязычных детей в процессе обучения и социализации.

Методология исследования

Цель исследования. Целью исследования является выявление и описание психолингвистических механизмов, обеспечивающих развитие речи младших школьников в условиях билингвизма, а также определение факторов, влияющих на успешность овладения двумя языковыми системами в раннем школьном возрасте.

Таблица 1. Связь эмпирических методов с целями исследования

Метод	Цель исследования	Ожидаемые результаты
Наблюдение	Выявить поведение ребенка в реальной двуязычной среде	Фиксация случаев интерференции, кодового переключения, компенсаторных стратегий
Тестирование	Определить уровень языковой компетенции и речевых навыков	Количественные данные о словарном запасе, синтаксисе, понимании и продуцировании речи
Интервью	Сбор информации о языковой среде и стратегии обучения	Качественные данные о семейной практике, педагогических методах и мотивации ребенка
Контент-анализ	Анализ речевых стратегий и ошибок	Структурированная информация о типах ошибок, частоте и способах преодоления языковых трудностей
Анкетирование	Определить доминирующий язык и мотивацию	Данные о предпочтении языка в разных ситуациях, мотивационные факторы билингвизма

Задачи исследования

Определить уровни и формы проявления билингвизма у младших школьников (естественный, искусственный, сбалансированный, доминантный).

Проанализировать влияние билингвизма на формирование языковой компетенции и речевых стратегий.

Выявить психолингвистические механизмы (интерференция, внутренний перевод, кодовое переключение, компенсаторные стратегии), проявляющиеся в речи билингвальных детей.

Разработать и апробировать диагностические задания, позволяющие оценить особенности речевого развития в двуязычной среде.

Таблица 3. Итоги исследования по задачам

№	Задача исследования	Используемые методы	Наблюдаемые результаты	Выводы
1	Определить уровни и формы проявления билингвизма у младших школьников	Наблюдение, интервью, анкетирование	Выявлены три типа билингвизма: доминирующий, сбалансированный, естественный; частое кодовое переключение у сбалансированных билингвов	Билингвизм проявляется как динамическая система, зависимая от языковой среды и педагогической поддержки
2	Проанализировать влияние билингвизма на формирование языковой компетенции	Тестирование, контент-анализ	Интерференция на уровне синтаксиса и морфологии у доминирующих билингвов; компенсаторные стратегии при дефиците словаря	Двуязычие влияет на структуру речи и скорость формирования грамматических навыков; метаязыковая осознанность ускоряет усвоение второго языка
3	Выявить психолингвистические механизмы речи	Наблюдение, контент-анализ	Интерференция, внутренний перевод, кодовое переключе-	Психолингвистические механизмы адаптивны: позво-

			ние, компенсаторные стратегии, метаязыковая осознанность	ляют сохранять коммуникацию и развивать когнитивную гибкость
4	Разработать и апробировать диагностические задания для оценки речевого развития	Тестирование, наблюдение	Дети успешно выполняли задания на пересказ, построение предложений, словообразование; ошибки зависели от типа билингвизма	Разработанные задания показали высокую валидность и позволяют выявлять уровень речевой компетенции и характер психолингвистических механизмов
5	Определить связь языковой среды и успешности речевого развития	Интервью с родителями и учителями, анкетирование	Дети из семей с активным использованием двух языков демонстрировали меньшую интерференцию, более развитое переключение и метаязыковую осознанность	Языковая среда и педагогическая поддержка являются ключевыми факторами успешного речевого развития в били

Объект и предмет исследования

Объект: процесс речевого развития младших школьников в условиях двуязычия.

Предмет: психолингвистические механизмы восприятия, понимания и порождения речи у билингвальных учащихся.

Гипотеза исследования. Предполагается, что билингвизм, при адекватных педагогических и коммуникативных условиях, способствует развитию метаязыковой осознанности, когнитивной гибкости и ускоряет формирование речевых навыков. Однако при доминировании одного языка возможны проявления интерференции и замедление грамматического усвоения второго языка.

Методы исследования. Для достижения поставленных целей использовался комплекс методов, включающий как теоретические, так и эмпирические подходы:

Теоретические методы

анализ и систематизация научной литературы по психолингвистике, когнитивной психологии, педагогике и социолингвистике;

сопоставительный анализ отечественных и зарубежных исследований по проблеме билингвизма;

моделирование психолингвистических процессов речепорождения у детей

Таблица 4. Теоретические методы исследования

Метод	Описание	Цель применения	Значение для исследования
Анализ научной литературы	Изучение отечественных и зарубежных публикаций по психолингвистике, билингвизму, когнитивной психологии	Определение состояния изученности проблемы, выявление пробелов	Позволяет систематизировать существующие знания о психолингвистических механизмах речевого развития
Систематизация и обобщение	Классификация данных, выделение закономерностей и типологий билингвизма	Структурирование информации, создание обоснованной теоретической базы	Обеспечивает логическую основу для анализа эмпирических данных
Сравнительный анализ	Сопоставление результатов разных исследований, моделей и подходов	Выявление сходств и различий в теоретических концепциях билингвизма	Позволяет адаптировать международные модели к условиям Узбекистана и младшего школьного возраста

Моделирование психолингвистических процессов	Создание схем и моделей речевого развития билингвальных детей	Визуализация взаимодействия языковых систем и когнитивных механизмов	Помогает интерпретировать эмпирические данные и прогнозировать динамику речевого развития
Индуктивный и дедуктивный анализ	Выведение общих закономерностей из конкретных примеров и проверка гипотез	Формулирование выводов о влиянии билингвизма на речевое развитие	Позволяет выявить универсальные и специфические механизмы речевого формирования у младших школьников

Эмпирические методы

Наблюдение за устной речью учащихся в естественной школьной и бытовой среде;

Тестирование (задания на понимание и продуцирование речи на двух языках);

Метод интервью с учителями и родителями (для определения языковой среды и стратегии воспитания);

Контент-анализ детских высказываний (для фиксации случаев интерференции, кодового переключения, компенсаторных стратегий).

Таблица 1. Эмпирические методы исследования билингвизма у младших школьников

Метод	Описание	Цель применения	Примечания
Наблюдение	Систематическое отслеживание устной речи учащихся в классе и бытовой среде	Выявление проявлений интерференции, кодового переключения, компенсаторных стратегий	Проводилось в естественной коммуникационной среде; фиксировались фразы, ошибки, переключения языка
Тестирование	Задания на понимание и продуцирование речи на двух языках	Определение уровня языковой компетенции, грамотности и речевого реагирования	Включало упражнения на пересказ, построение предложений, словообразование
Интервью с учителями и родителями	Структурированные беседы о языковой среде и методах воспитания	Сбор информации о языковой практике детей, частоте использования языков	Использовались стандартизированные вопросы для унификации данных
Контент-анализ речевых высказываний	Качественный анализ устной речи и письменных заданий	Выявление интерференции, компенсаторных стратегий, кодового переключения	Выделялись типовые примеры, подсчитывалась частота ошибок и стратегий
Анкетирование	Опрос детей о предпочтениях в использовании языков	Определение доминирующего языка и мотивации к двуязычию	Использовались простые вопросы и иллюстрированные шкалы для младших школьников

Методы обработки данных

качественный анализ речевых ошибок и стратегий;

частотный анализ (определение преобладающих типов психолингвистических проявлений);

сравнительный анализ показателей между группами билингвов разного типа (доминирующий, сбалансированный, пассивный

Эмпирическая база исследования

Исследование проводилось в 2024–2025 гг. на базе общеобразовательных школ г. Ташкента, Бухары, Самарканда и Ферганы.

В исследовании приняли участие 60 младших школьников (7–10 лет), обучающихся в билингвальной среде.

По критерию языковой принадлежности выделено три группы:
Группа A: узбекско-русские билингвы (доминирование русского языка);
Группа B: узбекско-английские билингвы (искусственное двуязычие);
Группа C: узбекско-таджикские билингвы (естественное двуязычие).
Надёжность и валидность исследования
Надёжность обеспечивалась:
репрезентативностью выборки;
многоэтапной проверкой данных (повторное наблюдение, межэкспертная оценка);
использованием сочетания качественных и количественных методов.

Валидность обеспечена сопоставлением результатов с теоретическими моделями В. Вайнрайха, Дж. Камминса и Л. Щербы, а также с данными лингводидактических исследований, проведённых в Узбекистане.

Этические аспекты

Исследование проводилось с соблюдением принципов добровольного участия, анонимности и этического обращения с детьми. Родители были предварительно информированы о целях и методах исследования.

Изученность проблемы билингвизма в Узбекистане. В условиях многонациональности и поликультурности современного Узбекистана билингвизм является устойчивым и массовым явлением. Для большинства граждан страны владение двумя и более языками - естественная жизненная необходимость, обеспечивающая успешную коммуникацию, обучение и профессиональную самореализацию. В связи с этим исследование особенностей билингвизма и его влияния на развитие личности ребёнка представляет собой одну из актуальных задач современной педагогики, психологии и лингвистики.

В последние годы в Узбекистане значительно возрос интерес к изучению билингвизма, особенно в контексте школьного образования. Ряд современных работ посвящён социально-педагогическим и когнитивным аспектам двуязычия. Так, в исследовании «Exploring audiovisual speech perception in monolingual and bilingual children in Uzbekistan» (2023) рассматриваются особенности восприятия аудиовизуальной речи у монолингвальных и билингвальных детей в возрасте от 4 до 10 лет. Авторы подчёркивают, что дети, владеющие двумя языками, демонстрируют более развитую способность к различению звуковых и визуальных сигналов речи, что отражает специфику их когнитивных механизмов.

В статье «Социально-педагогические аспекты билингвизма в общеобразовательных школах Республики Узбекистан» отмечается, что узбекско-русский билингвизм является наиболее распространённой формой двуязычия в школах страны. Авторы подчёркивают необходимость формирования методической базы для билингвального обучения и создания условий, минимизирующих языковую интерференцию.

Особый интерес представляют публикации, непосредственно касающиеся младших школьников. Например, работа «Факторы формирования явления билингвизма у детей младшего школьного возраста» (Interscience.uz) анализирует влияние семейной среды, образовательных условий и интенсивности языковых контактов на развитие двуязычия. Автор делает вывод, что раннее включение второго языка способствует развитию когнитивной гибкости, но требует системного педагогического сопровождения.

Кроме того, в ряде научных статей («Билингвизм и полилингвизм в Центральной Азии», «Code-switching among bilingual English learners in Uzbekistan» и др.) рассматриваются вопросы языковой идентичности, кодового переключения и педагогических стратегий обучения в билингвальной среде. Эти исследования позволяют заключить, что узбекский контекст отличается сочетанием традиционного узбекско-русского и формирующегося узбекско-английского билингвизма, что делает языковую ситуацию особенно многослойной.

Несмотря на значительное количество публикаций, большинство из них носят социолингвистический или педагогический характер и не затрагивают глубинных психолингвистических механизмов речевого развития. Недостаточно изучены процессы восприятия, понимания и продуцирования речи в условиях взаимодействия двух языковых систем, а также когнитивные и эмоционально-мотивационные особенности младших школьников-билингвов.

Таким образом, можно отметить, что в Узбекистане существует прочная исследовательская база, посвящённая проблемам билингвизма, однако вопрос о психолингвистических механизмах речевого развития младших школьников в билингвальной среде остаётся малоизученным. В этом заключается научная новизна и практическая значимость настоящего исследования: оно направлено на восполнение данного пробела и на выявление закономерностей речевого развития детей, для которых двуязычие является естественной частью повседневного опыта.

Эмпирические кейсы исследования билингвизма у младших школьников в Узбекистане

Эмпирическая база исследования формировалась на основе наблюдений, анкетирования и анализа речевой деятельности младших школьников, обучающихся в двуязычной среде (узбекско-русской и узбекско-английской). Всего в исследовании приняли участие 60 учащихся 2–4 классов из общеобразовательных школ Ташкента и Бухары, где обучение ведётся на двух языках.

Цель эмпирического анализа заключалась в выявлении психолингвистических механизмов восприятия, понимания и продуцирования речи у билингвальных детей, а также факторов, влияющих на формирование их языковой компетенции.

Таблица 1. Эмпирические кейсы психолингвистических проявлений билингвизма у младших школьников

№	Регион / тип школы	Языковая пара	Возраст детей	Психолингвистические проявления	Примеры речевых высказываний	Интерпретация (механизм)
1	Бухара , городской лицей	Узбекско-русский	8–9 лет	Интерференция на уровне синтаксиса и морфологии	«Я делаю завтрак маме» (влияние узбекской структуры)	Синтаксическая интерференция, внутренний перевод
2	Бухара, частная школа	Узбекско-английский	9–10 лет	Смешение кодов, гибкость в переключении языков	“Mana bu my father, he is working in office.”	Code-switching, билингвальный контроль внимания
3	Самарканд, смешанные классы	Узбекско-таджикский, узбекско-русский	7–8 лет	Недостаток словаря, компенсаторные стратегии	“Men bu so‘zni bilmayman, lekin ana shu narsa haqida aytmoqchiman.”	Компенсаторный механизм, речевая интуиция
4	Навои, двуязычная семья	Узбекско-русский	8 лет	Быстрое переключение между языками в диалоге с родителями	«Мама, можно я пойду? - Ha, bor, lekin tez qayt!»	Динамическое кодовое переключение, когнитивная гибкость
5	Фергана, сельская школа	Узбекско-русский	9 лет	Замедленное формирование грамматических конструкций второго языка	«Он ходить школа каждый день»	Неполная языковая автоматизация, влияние родного синтаксиса
6	Бухара, билингвальная семья + русская школа	Русско-узбекский	10 лет	Метаязыковая осознанность: ребёнок объясняет, почему «делаю» ≠ «готовлю»	“Потому что по-русски так говорят, а по-узбекски - boshqacha”	Формирование метаязыковой рефлексии, когнитивная осознанность

Краткий аналитический вывод по таблице

У городских детей наблюдается высокая частота code-switching и меньшая интерференция - признак развитого билингвального контроля.

В сельской среде преобладают структурные ошибки и медленное усвоение грамматики.

Дети из семей, где оба языка активно используются, демонстрируют наиболее устойчивое развитие речи и метаязыковую осознанность.

Кейс 1. Узбекско-русский билингвизм в городской среде (Бухара)

В одном из бухарских лицеев наблюдались учащиеся, для которых узбекский язык является родным, а русский - языком обучения. В ходе исследования были зафиксированы особенности внутреннего речевого планирования: дети при построении русских предложений часто мысленно формулировали фразу сначала на узбекском, а затем переводили её. Это указывало на внутренний перевод как промежуточный психолингвистический механизм.

Пример: при задании «Расскажи о своём утре» ребёнок начинал ответ с узбекского синтаксического шаблона: «Я делаю завтрак маме» вместо нормативного «Я готовлю завтрак для мамы». Таким образом, грамматическая структура родного языка сохранялась на уровне речевого плана, что свидетельствует о синтаксической интерференции.

Дополнительные наблюдения показали, что дети, у которых родители активно использовали оба языка в семье, демонстрировали меньше признаков интерференции и лучшее владение метаязыковыми навыками (умение объяснить значение слова, грамматическую форму и т.п.).

Кейс 2. Узбекско-английский билингвизм в частных школах (Бухара)

Во втором кейсе рассматривались учащиеся школ с углублённым изучением английского языка, где обучение велось на узбекском и английском языках. У детей наблюдалась выраженная когнитивная гибкость, способность к быстрому переключению между языковыми кодами (code-switching).

Asosiy qismda o‘quvchilarning estetika sezgisini rivojlantiruvchi metodlar - “badiiy detallarni ochish”, “tasviriy vositalarning funksiyasini aniqlash”, “matndagi poetik musiqiylikni eshitish” kabi yondashuvlar ham qo‘llanishi maqsadga muvofiqdir. Navoiy matni o‘ziga xos musiqa va ritmga ega bo‘lgani sababli, tahlil jarayonida ohangdorlik, qofiya tizimi, so‘z tanlash mahoratini ko‘rsatish o‘quvchining badiiy didini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Dostonni o‘qitishda yana bir dolzarb metod - “tarixiy-adabiy kontekstni tiklash” hisoblanadi. O‘quvchi Navoiy yashagan davrning madaniy muhiti, adabiy an’analari, temuriylar saroyidagi ilmiy-estetik qarashlar bilan tanishgach, dostonni chuqurroq idrok etadi. Bu jarayonda “Farhod va Shirin”ning Sharq adabiy an’anasidagi o‘rni, uning Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Jomiy an’analari bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. O‘quvchi Sharq mumtoz adabiyotidagi “muhabbat - kamolot maktabi” g‘oyasini tushunib boradi, bu esa matn talqinini boyitadi.

Dostonni o‘qitishda zamonaviy psixologik yondashuvlardan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Qahramonlarning qarorlari, ularning ichki o‘zgarishlari va konfliktlarining psixologik asoslarini tahlil qilish o‘quvchilarda ruhiy jarayonlarni anglash ko‘nikmasini shakllantiradi. Bu metod ayniqsa, yuqori sinf o‘quvchilari uchun samarali bo‘lib, ular obrazlarni tahlil qilish orqali o‘z shaxsiy tajribalariga yaqin xulosalarga kelishlari mumkin.

Dostonni o‘qitishda “ijtimoiy-ma’naviy mazmunni tahlil qilish” metodi ham o‘z o‘rniga ega. Farhodning mehnatsevarligi, fidoyiligi, Shirin obrazining ma’naviy go‘zalligi, Xusravning hokimiyatga munosabati kabi jihatlar hozirgi yoshlarning ma’naviy tarbiyasida muhim maqsadlarni belgilab beradi. O‘quvchi ushbu obrazlar orqali irodalilik, vafodorlik, poklik, sadoqat kabi fazilatlarga doir o‘z qarashlarini shakllantiradi.

Metodik yondashuvlarning yana biri - “matnni qayta yaratish va ijodiy rekonstruksiya qilish”dir. O‘quvchilarga doston voqealarini zamonaviy uslubda qayta yozish, Farhodning zamonaviy hayotdagi obrazi haqida esse yozish, yoki Shirin Xarizmning bugungi jamiyatdagi timsoli sifatida munozara tashkil qilish topshiriqlari berilishi mumkin. Bu esa o‘quvchining badiiy tafakkurini kengaytiradi, matnni o‘z hayoti bilan bog‘lash imkonini yaratadi va ijodiy yondashuvni kuchaytiradi.

Shuningdek, “Farhod va Shirin” dostonining kinoversiyalari, teatr talqinlari, tasviriy san’atdagi yoritilishi bilan ishlash o‘quvchilarda intermedial tahlil ko‘nikmasini shakllantiradi. Bunda ular badiiy matnning boshqa san’at turlari bilan qanday uyg‘unlashishini, syujetning san’atlararo transformatsiyasini tushuna boshladilar. Bu nafaqat darsni jonlantiradi, balki o‘quvchilarni multidisiplinar fikrlashga o‘rgatadi.

Xulosa va munozara. “Farhod va Shirin” dostonini o‘qitishda badiiy talqin va obrazlar tizimi tahlilini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish mumtoz adabiyot darslarining konseptual asosini tashkil etadi. Interfaol

metodlar o‘quvchilarni faollikka undaydi, sahnalashtirish obrazlar tabiatini jonlantiradi, kontekstual yondashuv esa dostonni keng adabiy makon ichida anglash imkonini beradi. O‘quvchilar mustaqil tahlil orqali obrazlarning psixologik qatlamlarini tushunadi, badiiy tafakkuri rivojlanadi va Navoiy merosiga chuqur ilmiy-estetik munosabat shakllanadi. Bu esa mumtoz adabiyot o‘qitishda ta’lim sifatini oshiruvchi eng muhim metodik omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Mamarasulov r. Navoiy dostonlari talqini. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 256 b.
2. Quronov D. Mumtoz adabiyot asoslari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017. – 320 b.
3. Hakimova M. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2020. – 284 b.
4. Bertels E. E. Navoiy ijodi va Sharq adabiyoti. – Moskva: Vostochnaya literatura, 2015. – 410 b.

Ergashova Ra'no Turayevna
Professor, Military Aviation Institute,
University of Military Security and Defense of the Republic of Uzbekistan
E-mail:ergashova-91@mail.ru

SOCIOLINGUISTIC DYNAMICS OF TERMINOLOGICAL DEVELOPMENT IN AVIATION DISCOURSE

Annotation. *This article analyzes the formation, development, and sociolinguistic aspects of terminology in aviation discourse. The study examines the influence of professional communities, international standards, intercultural communication, and technological advancements on aviation terminology. The global status of English, local adaptation processes, ICAO-approved standard phraseology, and the development of technology-related terms are scientifically analyzed. Furthermore, the communicative, functional, and pragmatic features of terms are explored using a sociolinguistic and linguopragmatic approach. The article provides evidence-based conclusions on the functional significance of aviation terminology within professional communities, its adaptation to international standards, and its role in ensuring flight safety. Prospects for future terminological development and adaptation to emerging communicative trends in global aviation discourse are also discussed.*

Key words*: aviation terminology, sociolinguistics, discourse, professional communication, terminological development, international standards, linguopragmatics.*

AVIATSIYA DISKURSIDA TERMINLAR RIVOJINING SOTSIOLINGVISTIK DINAMIKASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada aviatsiya diskursida terminlarning ijtimoiy kontekstda shakllanishi, rivoji va sotsiolingvistik jihatlari tahlilga tortilgan. Professional jamoalar, xalqaro standartlar, madaniyatlararo muloqot va texnologik taraqqiyotning terminologiyaga ta'siri chuqur o'rganilgan. Ingliz tilining global mavqei, terminlarning lokal adaptatsiya jarayonlari, ICAO tomonidan belgilangan standart frazeologiya va yangi texnologiyalar bilan bog'liq terminlarning rivoji ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, terminlarning kommunikativ, funksional, pragmatik xususiyatlari sotsiolingvistik yondashuv va lingvopragmatik tahlil asosida yoritilgan. Aviatsiya terminologiyasining professional jamoalar ichidagi funksional ahamiyati, xalqaro standartlarga moslashuvi, shuningdek, parvoz xavfsizligini ta'minlashdagi roli haqida ilmiy asoslangan xulosalar keltirilgan. Terminlarning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari va global aviatsiya diskursida yangi kommunikativ tendensiyalarga moslashish imkoniyatlari ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit so'zlar*: aviatsiya terminologiyasi, sotsiolingvistika, diskurs, professional kommunikatsiya, terminlar rivoji, xalqaro standartlar, lingvopragmatika.*

СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ДИНАМИКА РАЗВИТИЯ ТЕРМИНОВ В АВИАЦИОННОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация. *В статье анализируются формирование, развитие и социолингвистические аспекты терминов в авиационном дискурсе. Исследование рассматривает влияние профессиональных сообществ, международных стандартов, межкультурной коммуникации и технологического прогресса на авиационную терминологию. Глобальный статус английского языка, процессы локальной адаптации, стандартизованная фразеология, утвержденная ИКАО, а также развитие терминов, связанных с новыми технологиями, исследованы на научной основе. Кроме того, коммуникативные, функциональные и прагматические особенности терминов изучены с социолингвистической и лингвопрагматической точки зрения. В статье приведены научно обоснованные выводы о функциональном значении авиационной терминологии в профессиональных сообществах, её соответствии международным стандартам и роли в обеспе-*

чении безопасности полётов. Рассматриваются перспективы дальнейшего развития терминологии и её адаптации к новым коммуникативным тенденциям в глобальном авиационном дискурсе.

Ключевые слова: *авиационная терминология, социолингвистика, дискурс, профессиональная коммуникация, развитие терминологии, международные стандарты, лингвопрагматика.*

Introduction. Aviation is one of the most technically complex and highly regulated fields of human activity, where accurate communication is not only essential for operational efficiency but also a matter of safety and risk management. Within this specialized domain, terminology functions as more than just technical labels; it is a critical medium that structures communication between pilots, air traffic controllers, engineers, and other aviation professionals. The precision, clarity, and standardization of these terms directly impact the effectiveness of interactions, decision-making, and coordination during flights, making the study of their development highly significant. Aviation terminology is inherently dynamic, continuously shaped by evolving technological innovations, professional practices, and international regulatory frameworks. Its development cannot be fully understood without considering the social and cultural environments in which it operates, as these contexts influence both the creation and adoption of terms within professional discourse.

One of the defining characteristics of aviation terminology is its reliance on standardization to minimize ambiguity and miscommunication. International organizations such as the International Civil Aviation Organization (ICAO) have established comprehensive phraseology standards that govern the use of terms in air traffic control communication, ensuring consistency across different linguistic and cultural contexts. These standards provide clear guidelines for message formulation, reduce the likelihood of errors, and contribute to global safety protocols. At the same time, English has emerged as the global lingua franca of aviation, serving as the primary language for most international flights. This dominance facilitates communication across multilingual and multicultural teams but also necessitates the careful adaptation of terminology to local languages, allowing non-native speakers to apply terms effectively within their operational context. Such adaptations include transliteration, semantic shifts, and lexical borrowing, all of which are shaped by sociolinguistic norms within specific aviation communities.

Technological advancements in aviation, including the introduction of automated flight systems, digital cockpits, fly-by-wire controls, and AI-assisted navigation, have further expanded the lexicon of aviation terminology. Each innovation introduces new concepts, devices, and procedures that require precise linguistic labeling for effective communication. The emergence of these new terms reflects the interaction between technological progress and social factors: professional communities must rapidly learn, standardize, and integrate these terms into everyday discourse, while international organizations often formalize their usage to maintain uniformity and safety. Consequently, aviation terminology exemplifies a sociolinguistic system in constant evolution, where linguistic, functional, and pragmatic dimensions intersect to serve both communicative and operational needs.

This study investigates the sociolinguistic dynamics of aviation terminology by examining how terms are formed, standardized, adapted, and employed within professional discourse. It considers not only the linguistic structures and semantic properties of terms but also their functional, pragmatic, and regulatory roles in facilitating effective communication and ensuring flight safety. By analyzing these factors, the research aims to provide a comprehensive understanding of aviation terminology as a socially situated, functionally driven, and technically precise system. Furthermore, the study highlights how sociolinguistic principles shape the adoption, dissemination, and evolution of terms, revealing the complex interplay between language, professional practice, international regulation, and technological innovation in the aviation domain.

Methodology. The investigation of aviation terminology applies a qualitative, sociolinguistically informed approach, conceptualizing terms not merely as technical units but as socially and functionally embedded elements of professional discourse. Aviation terms are analyzed as dynamic linguistic resources shaped by regulatory frameworks, professional hierarchies, intercultural interaction, and technological innovation. The analysis begins with the structural and morphological characteristics

of terms, including compounding, derivation, abbreviation, and lexical borrowing, which reflect the dual need for precision and brevity in high-stakes communication. Semantic features are examined to identify distinctions between core standardized meanings and context-dependent interpretations, highlighting the flexibility required in operational settings. The sociolinguistic dimension is central to the investigation, following Labov's principles of language variation in social contexts [9: 27] and Holmes's frameworks on professional discourse, to understand how social roles, institutional norms, and intercultural interaction influence term adoption, standardization, and adaptation[7: 32]. Special attention is given to English as the global lingua franca of aviation, including how non-native speakers negotiate meaning through strategies such as transliteration, calquing, and semantic adjustment, thereby illustrating language contact phenomena in specialized discourse. The functional and pragmatic roles of terms are analyzed through a linguopragmatic lens [5:46], considering how terms facilitate coordination, information transfer, regulatory compliance, and risk management during flight operations. Data sources include ICAO-approved phraseology manuals, operational communication transcripts, aviation training materials, and documented instances of informal professional discourse, enabling a comprehensive examination of both standardized and contextually variable usage. These sources are evaluated to reveal patterns of term formation, frequency, functional deployment, and social adaptation across different professional strata, including pilots, air traffic controllers, and technical personnel. In addition, technological innovations such as automated flight systems, fly-by-wire controls, AI-assisted navigation, and digital cockpit interfaces are examined to determine their influence on the emergence and modification of terminology, reflecting the interplay between technological progress and linguistic adaptation. The methodological framework combines descriptive linguistic analysis, functional categorization, and sociolinguistic interpretation to provide a holistic understanding of aviation terminology as a socially situated, pragmatically effective, and professionally regulated system. This approach underscores the complex ways in which terminology mediates communication, supports safety-critical interactions, reflects professional and institutional norms, and evolves over time in response to social, technological, and regulatory pressures, illustrating the inherent sociolinguistic dynamism of specialized discourse.

Results and discussion. The analysis of aviation terminology within professional discourse reveals a complex interplay of linguistic, functional, and sociolinguistic factors that shape its formation, standardization, and practical use. ICAO-approved phraseology provides the backbone for communication between pilots and air traffic controllers, ensuring clarity, precision, and consistency across multilingual and multicultural operational environments. Standardized expressions such as "*climb and maintain flight level 350," "cleared for takeoff," and "approach established"* demonstrate how syntactic and semantic precision is critical for operational safety, allowing rapid comprehension under time-critical conditions. Beyond formal phraseology, the study observes significant sociolinguistic variation influenced by professional hierarchy, language proficiency, and cultural context. For instance, senior pilots often employ abbreviations and jargon like variants such as *"TCAS RA"* for *"Traffic Collision Avoidance System Resolution Advisory,"* or *"ILS approach"* for *"Instrument Landing System approach"* in informal discussions, while junior pilots tend to adhere strictly to full ICAO phraseology, reflecting a negotiation of authority, expertise, and trust within the aviation community.

English, as the global lingua franca of aviation, plays a dual role: it standardizes communication internationally while simultaneously creating a context for sociolinguistic adaptation. Non-native speakers frequently modify terms to align with local linguistic systems without compromising operational meaning, employing strategies such as transliteration, semantic shift, or calquing. For example, Russian-speaking pilots may adapt "*taxi to holding point*" into a more compact, locally comprehensible form while maintaining the essential instruction. Similarly, in French and Spanish aviation communities, terms like *"standby*" or "*go-around*" may be pronounced or slightly modified to match phonological patterns, demonstrating both the resilience of standard terms and the flexibility of professional discourse to accommodate language contact.

Technological innovation introduces additional layers of terminological evolution. Automated flight systems, digital cockpits, and AI-assisted navigation necessitate new terms that quickly gain functional and sociolinguistic significance. Terms such as "*autoland mode*", "*flight envelope protection*", "*VNAV path*" and "*engine out procedure*" emerge to label procedures or automated functions,

and are rapidly disseminated among professional communities. Sociolinguistic factors influence how these terms are learned, used, and adapted: less experienced crew members may initially struggle with abbreviations like "*V1*" (*decision speed during takeoff) or "MCP" (mode control panel*) and require explicit training, while experienced personnel integrate them fluidly into routine communication, often combining them with additional modifiers or context-specific shorthand. This illustrates how aviation terminology is not static but evolves dynamically according to professional, technological, and social pressures.

The functional analysis shows that aviation terms simultaneously perform multiple roles. Informational functions, exemplified by "*weather at destination 080 degrees, 10 knots"*, convey precise environmental data. Coordinative functions, such as "*descend via STAR*" (*Standard Terminal Arrival Route*), synchronize the actions of multiple actors in the flight process. Regulatory and safety functions, including *"hold short of runway 27"* or *"checklists complete"*, ensure compliance with operational standards. Pragmatic functions govern interpersonal and hierarchical dynamics, such as when a pilot uses *"request pushback clearance"* versus the more directive *"pushback approved*", reflecting subtle differences in authority, initiative, and communicative politeness. Even minor variations in pronunciation, abbreviation, or phrasing can signal professional experience, regional training influences, or level of authority, highlighting the sociolinguistic complexity embedded in operational terminology. Furthermore, informal and context-dependent usage provides additional insight into the social dimension of aviation terms. For instance, in cockpit-to-cockpit or maintenance communication, terms like "*gear up*" ,"*flaps 15*," or "*hold short*" are often condensed or adapted based on familiarity, illustrating peer-group sociolinguistic norms. These informal variants coexist with rigid ICAO standards, demonstrating the tension between formal regulatory language and the adaptive, socially negotiated nature of professional communication. Technological, institutional, and social factors interact continuously, ensuring that aviation terminology remains both precise for safety-critical communication and flexible enough to accommodate professional, cultural, and linguistic variation.

Overall, the results reveal that aviation terminology constitutes a dynamic sociolinguistic system, where linguistic structure, functional purpose, social context, and technological innovation intersect. Standardized phraseology ensures operational safety and international uniformity, while sociolinguistic adaptation allows professional communities to negotiate meaning, express expertise, and maintain effective communication in complex, real-world conditions. The analysis emphasizes that understanding aviation terminology requires recognizing its dual nature as a technical and socially embedded system, capable of evolving in response to professional practice, technological advancement, and intercultural interaction. These findings underscore the importance of sociolinguistic awareness in aviation training, standardization, and international collaboration, demonstrating that the effectiveness of communication depends not only on linguistic precision but also on the nuanced understanding of social and functional dynamics within aviation discourse.

Conclusion and recommendations. Aviation terminology functions as a dynamic system shaped by linguistic, sociocultural, and technological factors. Standardized ICAO phraseology ensures precision, clarity, and operational safety, while sociolinguistic factors such as professional hierarchy, language proficiency, cultural background, and peer-group norms affect the adaptation, variation, and practical use of terms. The study highlights that terms perform multiple functions: informational (e.g., "*weather at destination 080 degrees, 10 knots*"), coordinative (e.g., "*descend via STAR*"), regulatory (e.g., "*hold short of runway 27*"), and pragmatic (e.g., "*request pushback clearance*"), and that functional effectiveness often depends on the user's experience and familiarity with standardized and context-dependent variants. Technological innovations, such as automated flight systems, digital cockpits, and AI-assisted navigation, generate new terminology (e.g., "*autoland mode*," "*VNAV path," "engine out procedure*"), requiring rapid assimilation by professional communities. Sociolinguistic adaptation allows non-native speakers to integrate these terms through transliteration, semantic adjustment, or phonological adaptation, maintaining international comprehensibility without compromising safety. These findings confirm that aviation terminology is not static but evolves in response to operational, social, and technological pressures.

Based on the analysis, several practical recommendations can be made:

Aviation training programs should incorporate sociolinguistic awareness, emphasizing both standardized phraseology and common informal variants to improve comprehension and communication efficiency.

The introduction of new technology-related terms should be accompanied by standardized documentation and practical exercises to ensure rapid and consistent adoption.

In conclusion, the study underscores that aviation terminology is a socially embedded, functionally critical, and technologically responsive system. Its effectiveness depends on the balance between rigorous standardization and flexible sociolinguistic adaptation, emphasizing the importance of integrating linguistic, social, and operational perspectives in training, regulation, and research.

Used literature.

1. Agheyisi, Rebecca and Joshua A. Fishman Language attitude studies. Anthropological Linguistics 1970, 12, 5: 137–57

2. Cabre M. T. Terminology: Theory, Methods and Applications. John Benjamins. 1999

3.Ergashova R. About aviation terms // Mental Enlightenment Scientific – Methodological Journal (http://mentaljournal-jspu.uz/index.php/mesmj/index) 2023. Pages: 31-38

4. Ergashova R. Linguaculturological features of military aviation terminology // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti Ilmiy-nazariy jurnal 2023, № 7, avgust, 58-63 betlar

5. Fischer K. Pragmatics and Professional Discourse. De Gruyter. 2007

6. Fomin I. “Sublanguage and Communication in Russian Aviation Discourse.” // Journal of Applied Linguistics, 2023,12(1), – P.45–63.

7. Holmes J. (2013). An Introduction to Sociolinguistics. Routledge. Fourth edition published 2013, – P. 489.

8. Gotti M. Investigating Specialized Discourse: Linguistic Features and Applications. Peter Lang. 2008, – P.240.

9. Labov W. (1972). Sociolinguistic patterns. (Conduct and Communication, 4.) Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972

10. Valdman, Albert (1988) Diglossia and language confl ict in Haiti. International Journal of the Sociology of Language 71: 67–80.

Sadikova Umida Botirovna
Ma'mun universiteti o'qituvchisi
Psixologiya bo'yicha falsafa dokori(PhD)
E-mail:sadikova.umi@gmail.com

QANDLI DIABETGA CHALINGAN BEMORLARDA PSIXOLOGIK SO'ROVNOMA NATIJALARINING TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qandli diabet tashxisli bemorlarning psixologik nuqtayi nazardan o'rganishning dolzarbligi, aynan bu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarning ahamiyati, tibbiyot amaliyotiga psixologik diagnostika va so'rovnomalar orqali integratsiya jarayoni hamda mazkur hududda diabet bilan yashovchi bemorlar uchun psixologik yondashuvni joriy etish bo'yicha amalga oshirilgan bir qator ishlar tahlili yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Iroda, psixoemotsional holatlar, insulin, dipressiya, agressiya, hayot sifati.*

АНАЛИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ОПРОСА У ПАЦИЕНТОВ С САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ

Аннотация: *В данной статье раскрывается актуальность психологического изучения пациентов с диагнозом сахарный диабет, подчеркивается значимость научных исследований в этом направлении, рассматривается процесс интеграции психологической диагностики и опросников в медицинскую практику, а также проводится анализ ряда мероприятий, реализованных в регионе с целью внедрения психологического подхода к работе с людьми, страдающими сахарным диабетом.*

Ключевые слова: *Воля, психоэмоциональные состояния, инсулин, депрессия, агрессия, качество жизни.*

ANALYSIS OF PSYCHOLOGICAL SURVEY RESULTS IN PATIENTS WITH DIABETES MELLITUS

Annotation: *This article highlights the relevance of studying patients diagnosed with diabetes mellitus from a psychological perspective, emphasizes the importance of scientific research in this field, examines the process of integrating psychological diagnostics and questionnaires into medical practice, and analyzes a number of initiatives carried out in the region aimed at introducing psychological approaches for individuals living with diabetes.*

Key words: *Willpower, psycho-emotional states, insulin, depression, aggression, quality of life.*

Dunyo bo'yicha butun jahon olimlari barcha insonlar o'z salomatligiga va yaqinlarining sog'ligi uchun butun asrlar davomida shug'ullanib kelganlar. Har bir shaxs salomatligi uchun bevosita tarixga murojaat qilgan holda, insonni sog'lomlashtirish muammolari bilan tibbiy va falsafiy tafakkur rivojiga ulkan hissa qo'shgan yirik mutafakkirlar sifatida Gippokrat, Ibn Sino, Aristotel, Ramansin va boshqalar tarixda chuqur iz qoldirgan. buyuk mutafakkirlar inson salomatligi, ruhiy holati va tanadagi jarayonlar haqida fundamental g'oyalarni shakllantirgan, hamda, aholi salomatligiga turli ijtimoiy sharoitlar ta'siri haqida qator fikrlarni keltirganlar.

So'nggi yillar davomida aholida turli xil kasalliklarning keng tarqalishi tendensiyasi kuzatilmoqda. Ushbu xastaliklar orasida eng ko'p uchraydigan hamda yosh chegarasini tanlamaydigan kasalliklardan biri - qandli diabetdir.

Qandli diabetning kelib chiqish tarixi aslida qadimiy manbalarga borib taqaladi. Antik davrda yashagan Rim imperatori Tiberius zamonining yirik tabibi Aulus Kornelius Sels (miloddan avvalgi taxminan 25-yillarda tug'ilgan, milodiy 50-yillarga kelib vafot etgan) ushbu kasallikni kuzatgan bemorlar haqida batafsil ta'riflar bergan. Selsning fikricha, diabetning yuzaga kelish sababi ichki a'zolarning ovqatni to'laqonli hazm qila olmasligi, shuningdek bemorlarda haddan tashqari ko'p siyish holati bilan kechishi - kasallikning asosiy belgilaridan biri hisoblangan.

Mazkur kasallik nomi esa qadimgi yunon tabibi Aretus tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, yunoncha “diabaino” atamasidan kelib chiqqan. Ushbu so‘z “o‘tib ketish”, “oqib o‘tish” ma’nolarini anglatadi. Aretus bunday nom berish orqali bemor ichgan suyuqlik organizmdan chanqoqni qondirmagan holda, deyarli to‘liq ravishda va juda tez ajralib chiqayotganini ta’riflab bergan.

Aretusning bizga qoldirgan tibbiy qo‘lyozma merosidan shu xususiyatni qayd etganki, “Qandli diabet kasalligi ayollarda tez-tez uchraydi. Bu holatda tanani ham, oyoq-qo‘llarni ham eritib yuboradi ... Agar siz suyuqlikni ichishni rad qilsangiz, bemorning og‘zi quriydi, quruq teri, shilliq pardalar, ko‘ngil aynish, qusish, qo‘zg‘alish va o‘lim darajasiga olib boradi”-deya o‘z asarlarida qayd qilgan[8].

So‘nggi yillarda qandli diabetning 2-turi tashxisi qo‘yilgan bemorlar soni dahshatli sur’atlarda o‘sib bormoqda. JSST ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi 40 yil ichida Qandli diabet va semizlik bilan kasallanganlar soni hozirgi kungacha uch baravar ko‘paydi. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra 2030 yilga borib, dunyoda yoshi katta aholining 38% i ortiqcha vazn va 20% ida semizlik uchraydi. Qandli diabetning 2-turiga chalinayotgan bemorlarning safi ko‘payishi semizlik bilan bevosita bog‘liq bo‘lib , bemorlarning taxminan 90%i ortiqcha vaznli yoki semizlik bilan og‘rigan bemorlarning tashkil etishi va bu kasalliklar natijasida o‘lim soni ham ortib borishi qayd etilmoqda.

Ma’lumki, o‘limning asosiy sababi aholi yurak-qon tomir (48%) va saraton (21%) kasalliklari; umumiy 87 % i tuzilishda yuqumli bo‘lmagan kasalliklar orasida qandli diabet 3,5% ni tashkil etib, 6-o‘rinda turadi [2, 3]. 2008-yilda yurak-qon tomir va onkologik nisbati kasalliklar biroz boshqacha (39% va 27%) edi . Bir qator olimlar qandli diabetdan o‘lim allaqachon 5-o‘rinda ekanligiga ishonishadi va rivojlangan mamlakatlarda 8-9% qandli diabetdan vafot etishini ta’kidlaydilar. Va bu taxmin juda to‘g‘ri yurak-qon tomir kasalliklari (YuQK) bilan og‘rigan bemorlarning yarmi, xususan, yurak tomirlari kasalligi bilan og‘rigan bemorlarning yarmida uglevod almashinuvi buzilganligi ma’lum bo‘lganligi sababli va o‘lim holatlarida ular yurak-qon tomir kasalliklaridan vafot etgan bemorlar guruhiga kiritilgan, ammo koronar tomirlardagi o‘zgarishlarning sababi qandli diabetning mavjudligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligi qayd etishgan[5].

Kasallik tarixiga e’tibor beradigan bo‘lsak diabet kasalligini bu nomini bergan birinchi kishi miloddan avvalgi II-asrda Rimda yashagan shifokor E.Aretius edi. Keyinchalik 1776-yilda diabet bilan og‘rigan bemorlarning peshobini o‘rgangan shifokor DobSon (ingliz shifokori) uning shirin ta’mi borligini aniqladi, Unda shakar mavjudligi haqida gapirdi. Shunday qilib, diabet “shakar” deb, ya’ni qandli diabet deb nomlana boshlandi. [2].

Keyingi yillarda butun dunyo olimlarining e’tiborini qandli diabet bilan kasallanishning ko‘payishi jalb qilmoqda. Qandli diabet bizning davrimizning eng jiddiy muammolaridan biri bo‘lib, uning ko‘lami tobora ortib bormoqda va har qanday yoshdagi va mamlakatlardagi odamlarning manfaatlariga o‘z ta’sirni ko‘rsatmoqda.

Qandli diabet –tizimli geterogen kasallik bo‘lib, absolyut (1 tur) yoki nisbiy (2 tur) insulin yetishmovchiligi oqibatida rivojlanadi,birinchi navbatda uglevod almashinuvining buzulishi, so‘ngra moddalar almashinuvining barcha turdagi buzulishiga, oqibatda esa organizmning barcha funksional tizimlarini izdan chiqishiga olib keladi.[3]

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, dunyoda diabet qayd qilinishi bo‘yicha Xitoy birinchi o‘rinda turadi, ya’ni diabet bilan kasallanganlar 116 million kishini tashkil qiladi. Xitoydan keyin Hindiston (diabet kasalligi bilan kasallangan 77 million kishi), keyin esa AQSh 31 million kishini tashkil qiladi [4].

Mamlakatimizda ham qandli diabet bilan kasallangan bemorlar soni ortishi kutilmoqda. Mutaxassislarning qayd etishicha, 2018-yil olib borilgan tadqiqotlar va Namanganda o‘tkazilgan o‘rganishlar natijasida mamlakatimizda qandli diabet bilan kasallangan bemorlar soni (230 ming) kelgusida 4-5-martaga oshgani qayd etilgan. 2021-yil O‘zbekistonda qandli diabet bilan kasallanganlar soni 245 mingdan ko‘proqni tashkil etib, ulardan 2, 3 mingdan ortig‘i – bolalarni tashkil etmoqda [7]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022 yil 26-yanvardagi «Endokrinologiya xizmatini takomillashtirish va ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 102-sonli qarorida 2022-2024 yillarda Respublika aholisiga endokrinologiya yordami ko‘rsatishni rivojlantirish dasturi qabul qilingan bo‘lib, unda belgilangan rejalarga ko‘ra, respublikan-

ing 40 yoshdan oshgan aholisida yiliga bir marta qandli diabet kasalligiga skrining o‘tkazilishi va sohada ko‘plab islohotlar o‘tkazilishi qayd qilingan. Aynan mutaxassislar Covid pandemiyasidan so‘ng ushbu dardga chalinganlar soni ortgani, umuman diabet Covid asoratlaridan biri ekanligini qayd etishmoqda [6].

Qandli diabet kasalligiga chaalingan bemorlarning ko‘pchiligida noto‘g‘ri ovqatlanish asosiy omil hisoblansada, aksincha o‘rganishlarning ko‘pchiligi qattiq ruhiy stress natijasida vujudga kelishini ko‘rsatmoqda. Buning natijasida bemorlar bilan kasallikning keltirib chiqaradigan eng asosiy omillarni topish maqsadida shaxs emotsional xususiyatlarini aniqlaydigan ijtimoiy psixologik so‘rovnoma o‘tkazildi.

2-turdagi qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarning klinik va psixologik xususiyatlarini (shaxs xususiyatlarini) o‘rganishda qator savol javoblar o‘tkazildi va shu savol javoblar asosida qandli diabet kasalligiga chalingan bemorlar uchun ijtimoiy psixologik so‘rovnoma tuzildi. So‘rovnoma 4 ta savoldan iborat bo‘lib 76 ta bemordan olindi. Tadqiqotni O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi Xorazm viloyat Endokrinologiya disponser-akademik Yo.X.To‘raqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi RIEIATM Xorazm filiali davolanayotgan bemorlardan olindi.


Tadqiqot quyidagicha so‘rovnoma o‘tkazish orqali olib borildi.

1. Kasallikni bilganda qanday holatga tushgansiz?
2. Siz o‘zingizni jismoniy qobiliyatingizdan xavotirdamisiz?
3. Kasallik sizning psixologik holatingizga qanday o‘zgarishlarni vujudga keltirdi?
4. Kasallik sababli psixikangizdagi o‘zgarish boshqalar bilan munosabatlaringizga ta’sir qildimi?

Yuqoridagi so‘rovnoma qandli diabet tashxisi qo‘yilgan 76 ta bemordan o‘tkazildi.


So‘rovnoma natijalariga ko‘ra bemorlar ko‘rsatkichi quyidagi rasmlarda izohlari bilan ko‘rsatilgan:

1-rasm.



1-rasm ko‘rsatkichlari tahliliga ko‘ra kasallik aniqlangandan keyin yomon ahvolga tushdim deya javob berganlar 32,9 % , kasallikning kutilmaganda aniqlanganidan qattiq qo‘rquv holatiga tushganlar 18,4% ni , kasallik aniqlanishi natijasida yig‘laganlarni 18,4 % ni ko‘rsatgan bo‘lsa, kasalligi tashxis natijalari yordamida aniqlangandan keyin bedavo dard deya qabul qilganlar 11.8% , kasalligi ma’lum bo‘lgach stressga tushib, uydan chiqmay o‘tirganlar 7,8% , bu dardni o‘rtacha qabul qilganlar 5,2 %, tabiiy qabul qilganlar 2,6% , mutlaqo befarqlik bilan qabul qilganlar 2,6% da aniqlandi.

2-rasm.




2-rasmdagi natijalar o‘zining jismoniy qobiliyatidan xavotirda bo‘lgan bemorlar 67,1 % ni , jismoniy qobiliyati kasallik sababli o‘zgarish deya qabul qilmaganlar ko‘rsatkichini 21,1% ni, kasallik sababli jismoniy qobiliyatimdan ba’zan havotirlanaman degan javob bergan ishtirokchilar 11,8 % ni ko‘rsatgan.

3-rasm.



3-rasmda kasallik sizning psixologik holatingizga qanday o‘zgarishlarni vujudga keltirdi? - deya berilgan savolga 30,2% sinaluvchi kasallik sababli juda asabiy bo‘lib qoldim, 22,3% ni juda injiq bo‘lib arzimagan narsadan bahona izlaydigan bo‘lib qoldim deya javob berishdi. Xotirasining sezilarli pasayishi bo‘yicha 15,7 % ni , birdaniga qizib ketib, yaqinlar bilan urushadiganligini ko‘rsatuvchi raqam 11,8 % ni tashkil qildi. Odamlar bilan muloqatdan qochish, ayniqsa shaxsiy hayoting uchun savol beradigan davralarda o‘tirishdan qochadigan bo‘lib qolganlar soni 10,5 % ni , negadir odamlar bilan chiqisha olmaydigan bo‘lib qolganligi, aslida odamlar meni tushunmaydi deya 5,2 % ni, odamovi bo‘lib qolganliklarini 3,9 % ni ko‘rsatdi.

4-rasm



4-rasmdagi natijalar tahlili so‘rovnamadagi savolga nisbatan, kasallik sababli boshqalar bilan munosabatingizga ta’sir qildimi degan savolga muloqat va ish jarayoniga nisbatan ta’siri borligini 56,6% ni, aksini, ya’ni ta’sir qilmagani 35,5% ni, qisman ba’zan deya 7,9 % ni tashkil qildi.

Xulosa o‘rnida 2- tur qandli diabet tashxisi qo‘yilgan bemorlarning psixologik xususiyatlarida eng avval kasallik tashxisi qo‘yilgan bemorlarning stress, dipressiya, noto‘g‘ri turmush tarsi, ya’ni kamharakatchanlik va noto‘g‘ri ovqatlanish natijasida ulardagi kasallikning avj olishiga olib kelishi natijada bemorlarning atrof-muhitdagilar bilan munosabatining yomonlashuvi va aloqalarning buzulishi, agressiyaning kuchayishiga olib kelishi aniqlangan bo‘lsa, ulardagi ruhiy stresslarni bartaraf etish yo‘llarini psixologik jihatdan yechish, diabet kasalligi aslida hayotni tartibga soluvchi hastalik deya qarashni singdirib, ulardagi kasallik bilan kurashish immunitetini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Iskandarova Sh.T, Maxmudova N.M, Djalilova G.A.- Jamoat salomatligi, sog‘liqni saqlashni -tashkillashtirish va boshqarish bo‘yicha-o‘quv qo‘llanma-t-2011
2. Safarova Z.T, Shamsiyeva Sh.H- Qandli diabet haqida nimalar bilamiz?- (pp. 1315-1318)
3. Shagazatova B, Endokrinologiya -2020г - 235стр
4. IDF Diabetes Atlas, 2019
5. Ergasheva Gulshan Toxirovna-Qandli diabet 2-tur va o’limni keltirib chiqaruvchi sabablar-Лучшие интеллектуальные исследования-Часть-14_ Том-4_ Февраль -2024
6. https://kun.uz/uz/news/2022/02/28/oshib-borayotgan-qandli-diabet-uni-davolash-va-profil-aktika-qilish-rejalari
7. https://kun.uz/uz/news/2021/11/16/ozbekistonda-qandli-diabetga-chalinganlar-soni-malum-qilindi
8. https://www.google.com

G‘ofurov Azizbek Umarjonovich
Farg‘ona davlat universiteti, Talabalar amaliyoti bo‘limi boshlig‘i
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINING SPORT TURIZMI FAOLIYATIGA NISBATAN MOTIVATSION YO‘NALGANLIGINI BAHOLASH VA RIVOJLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining sport turizmi faoliyatiga nisbatan motivatsion yo‘nalganligini baholash va rivojlantirish usullarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda motivatsiya kontseptsiyasi, sport turizmi faoliyatining xususiyatlari va o‘qituvchilarning professional tayyorgarligiga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, motivatsiyani oshirish va sport turizmi bilan shug‘ullanishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirishga qaratilgan samarali metodlar taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Sport turizmi, motivatsiya, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari, professional rivojlanish, motivatsion yo‘nalganlik*

METHODS FOR ASSESSING AND DEVELOPING THE MOTIVATIONAL ORIENTATION OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS TOWARD SPORTS TOURISM ACTIVITIES

Abstract. *This article is dedicated to assessing and developing the motivational orientation of future physical education teachers towards sports tourism activities. The study analyzes the concept of motivation, the characteristics of sports tourism activities, and their impact on teachers’ professional preparation. Effective methods for enhancing motivation and increasing interest in engaging in sports tourism are also proposed.*

Key words: *Sports tourism, motivation, physical education teachers, professional development, motivational orientation*

МЕТОДЫ ОЦЕНКИ И РАЗВИТИЯ МОТИВАЦИОННОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ К ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СПОРТИВНОМ ТУРИЗМЕ

Аннотация. *Статья посвящена оценке и развитию мотивационной направленности будущих преподавателей физического воспитания в отношении деятельности в сфере спортивного туризма. В исследовании анализируются концепции мотивации, особенности деятельности в спортивном туризме и их влияние на профессиональную подготовку педагогов. Также предлагаются эффективные методы повышения мотивации и увеличения интереса к участию в спортивном туризме.*

Ключевые слова: *Спортивный туризм, мотивация, преподаватели физического воспитания, профессиональное развитие, мотивационная направленность*

Kirish. Sport turizmi so‘nggi yillarda jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishda muhim vosita sifatida e’tibor qozonmoqda. Bu faoliyat nafaqat jismoniy salomatlikni mustahkamlashga, balki shaxsning ijtimoiy, ma’naviy va psixologik rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun sport turizmi tajriba va bilimlarni amaliyotga tatbiq etishning samarali vositasi hisoblanadi. Shu bilan birga, bu yo‘nalish o‘qituvchilarning professional qobiliyatlarini oshirish, jamoaviy ish ko‘nikmalarini rivojlantirish va talabalarda sportga qiziqishni uyg‘otish imkoniyatlarini yaratadi.

Motivatsiya har qanday faoliyatning samaradorligi va davomiyligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari sport turizmi bilan shug‘ullanishda o‘zlarini

qanchalik motivatsiyalangan his qilishi, nafaqat ularning professional tayyorgarligiga, balki talabalarning bu sohada qiziqish hosil qilishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, bo'lajak o'qituvchilarning sport turizmi faoliyatiga nisbatan motivatsion yo'nalganligini aniqlash va uni rivojlantirish usullarini ishlab chiqish zamonaviy pedagogika va sport psixologiyasi nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega.

Zamonaviy ta'lim jarayonida sport turizmi o'quvchilar va talabalar uchun interaktiv, qiziqarli va foydali faoliyat turi sifatida taqdim etilmoqda. Bu jarayonda motivatsion yo'nalganlik o'qituvchilarning shaxsiy qiziqishlari, ehtiyojlari, qadr-qimmatini tushunishi va pedagogik strategiyalar bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bilan birga, sport turizmi faoliyati talabalarda nafaqat jismoniy tayyorgarlikni, balki liderlik, tashkilotchilik va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun motivatsiyani oshirishning ilmiy asoslangan usullarini aniqlash, ularni professional faoliyatga tayyorlashda yangi yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliy tavsiyalar yaratish bugungi kunda muhim vazifa sifatida qaraladi. Shu bois, ushbu tadqiqot sport turizmi faoliyatiga motivatsion yo'nalganlikni baholash va rivojlantirishning samarali mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan.

Umuman olganda, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sport turizmi faoliyatiga nisbatan motivatsion yo'nalganligi nafaqat ularning shaxsiy va professional rivojlanishiga, balki umumiy ta'lim sifatini oshirishga, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga va yosh avlodda sportga qiziqishni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqot mavzusi nafaqat pedagogik, balki psixologik, ijtimoiy va madaniy jihatdan ham dolzarbdir.

Adabiyotlar tahlili. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sport turizmi faoliyatiga motivatsion yo'nalganligini o'rganish masalasi zamonaviy pedagogika va sport psixologiyasi sohalarida keng tadqiq etilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, motivatsiya nafaqat shaxsning faoliyatga bo'lgan qiziqishini belgilaydi, balki uning natijaviyligini va professional rivojlanishini ham ta'minlaydi (Deci & Ryan, 2000; Vallerand, 2007).

Sport turizmi faoliyati bilan bog'liq tadqiqotlar motivatsiyaning turli jihatlarini yoritadi. Masalan, Malina & Bouchard (1991) tadqiqotida sport bilan muntazam shug'ullanish va turizm faoliyatida qatnashish o'quvchilar va o'qituvchilar orasida ijobiy psixologik holat va shaxsiy rivojlanishni kuchaytirishini ko'rsatgan. Shuningdek, sport turizmi faoliyatining ijtimoiy jihati ham alohida e'tibor talab qiladi, chunki u jamoaviy ish, hamkorlik va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantiradi (Weed & Bull, 2004).

Motivatsion yo'nalganlikni rivojlantirishga oid tadqiqotlar pedagogik yondashuvlarning samaradorligini ta'kidlaydi. Masalan, intrinsik va ekstrinsik motivatsiya nazariyasi (Deci & Ryan, 1985) o'qituvchilarni sport turizmi faoliyatiga jalb qilishda asosiy vosita sifatida ishlatilishi mumkin. Intrinsik motivatsiya shaxsning ichki qiziqishi va faoliyatdan zavq olishiga bog'liq bo'lsa, ekstrinsik motivatsiya tashqi rag'batlar - mukofotlar, baholar va ijtimoiy e'tirof bilan bog'liq.

Mahalliy tadqiqotlar ham bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sport turizmi faoliyatiga bo'lgan motivatsiyasini o'rganishga katta e'tibor qaratgan. Masalan, O'zbekistonlik olimlar (Tursunov, 2018; Ismoilova, 2020) sport turizmi va jismoniy tarbiya o'qituvchilari motivatsiyasining pedagogik ahamiyatini tadqiq etib, motivatsion yondashuvlarni tizimli ravishda shakllantirish zarurligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, motivatsiyani rivojlantirishning samarali usullari sifatida interaktiv mashg'ulotlar, treninglar, sayohatlar va amaliy tajribalar qo'llanilishi mumkin.

Shuningdek, xalqaro tadqiqotlar (Chelladurai, 2014; Gould et al., 2002) motivatsiya va sport faoliyati o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur o'rganib, sport turizmi faoliyatida muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsion yondashuvlarning individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun motivatsiyani baholash va rivojlantirish metodologiyasini shakllantirishda asosiy ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sport turizmi faoliyatiga motivatsion yo'nalganligini o'rganish nafaqat psixologik, balki pedagogik, ijtimoiy va madaniy jihatdan muhimdir. Shuningdek, mavjud tadqiqotlar motivatsiyani oshirishning turli metodlarini taklif etadi, ularni amaliyotga tatbiq qilish orqali bo'lajak o'qituvchilarning professional tayyorgarligi va sport turizmi faoliyatiga qiziqishi sezilarli darajada oshishi mumkin.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining sport turizmi faoliyatiga nisbatan motivatsion yo‘nalganligini aniqlash va rivojlantirish usullarini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy jihatlardan iborat:

Tadqiqot obyekti va predmeti

Obyekt: Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining sport turizmi faoliyati.

Predmet: Bo‘lajak o‘qituvchilarning sport turizmi faoliyatiga nisbatan motivatsion yo‘nalganligi va uni rivojlantirish usullari.

Tadqiqot usullari

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Sorovnoma va so‘rovlar – talabalar va o‘qituvchilar orasida motivatsiyani aniqlash uchun.

Intervyu – sport turizmi bo‘yicha faoliyat tajribasini chuqur tahlil qilish uchun.

Eksperiment – motivatsiyani rivojlantirish bo‘yicha amaliy usullarni sinash.

Statistik tahlil – olingan ma’lumotlarni tartibga solish va xulosalar chiqarish uchun.

Tadqiqot ishtirokchilari

Tadqiqotda 50 nafar bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisi ishtirok etdi. Ularning yoshi 18–25 yosh oralig‘ida bo‘lib, turli kurslarda tahsil oluvchi talabalar edi.

Ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish

Tadqiqot ma’lumotlari sorovnomalar va intervyular orqali yig‘ildi. Ma’lumotlar kvantitativ va sifatli tahlil usullari yordamida o‘rganildi. Kvantitativ tahlilda motivatsion yo‘nalganlik darajasi foizlar va ballar orqali baholandi. Sifatli tahlil esa talabalarning shaxsiy fikrlari va tavsiyalarini o‘rganishga imkon berdi.

Motivatsion yo‘nalganlikni baholash jadvali

Quyidagi jadval bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining sport turizmi faoliyatiga motivatsion yo‘nalganlik darajasini ko‘rsatadi:

Motivatsiya darajasi	Ta’rif	Ishtirokchilar soni	Foiz (%)
Yuqori	Sport turizmi faoliyatiga kuchli qiziqish, faol ishtirok	15	30
O‘rta	Ba’zan ishtirok etadi, qiziqishi mavjud	25	50
Past	Qiziqish past, faol ishtirok etmaydi	10	20

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, o‘rta darajadagi motivatsiyaga ega talabalar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Shu sababli, tadqiqotning asosiy e’tibori motivatsiyani yuqori darajaga ko‘tarishga qaratilgan.

Tadqiqotning metodologik ahamiyati

Tadqiqot metodologiyasi bo‘lajak o‘qituvchilarning motivatsion yo‘nalganligini aniqlash va uni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga imkon yaratadi. Shuningdek, metodologiya ta’lim jarayonida sport turizmi faoliyatini samarali tashkil etish va talabalarni faol jalb qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining ko‘pchiligi sport turizmi faoliyatiga nisbatan o‘rta darajadagi motivatsiyaga ega. Ushbu holat ularning faoliyatga qiziqishi mavjudligini, lekin motivatsiyani yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi. Yuqori darajadagi motivatsiyaga ega bo‘lgan ishtirokchilar sport turizmi faoliyatida faol ishtirok etib, o‘zlarining jismoniy va pedagogik salohiyatlarini rivojlantirishi mumkin, shuningdek, talabalar orasida sportga qiziqish uyg‘otishda muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqot davomida ma’lum bo‘lishicha, motivatsiyani oshirishga eng samarali ta’sir qiluvchi omillar orasida amaliy tajriba, interaktiv mashg‘ulotlar va guruh bilan birgalikdagi sayohatlar yetakchi o‘rin egallaydi. Bu usullar bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘zini professional sifatida his qilish hissini kuchaytiradi va sport turizmi faoliyatiga bo‘lgan qiziqishni mustahkamlaydi. Shu bilan birga,

ekstrinsik rag‘batlar, masalan, mukofotlar, sertifikatlar va ijtimoiy e’tirof motivatsiyani qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi.

Shuni ta’kidlash lozimki, o‘rta darajadagi motivatsiyaga ega talabalar ko‘pchilikni tashkil qilganligi sababli, pedagogik va psixologik yondashuvlar yordamida ularni yuqori motivatsiya darajasiga olib chiqish mumkin. Buning uchun o‘qituvchilarni sport turizmi faoliyatida faol ishtirok etishga jalb qiluvchi treninglar, seminarlar va amaliy mashg‘ulotlarni tizimli ravishda tashkil etish tavsiya etiladi.

Tursunov Asadullo Shuhratjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrasi tayanch doktaranti
E-mail:tursunovasadullo07@gmail.com

O‘ZBEK TILINING MORFEMIK SATHIDA PLEONAZM HODISASI

Annotatsiya. *So‘zlovchi narsa yoki hodisa belgisining mazmunini aniq va tushunarli ifodalash maqsadida uning xususiyatlarini hamda hodisaning qanday sharoitda ro‘y berganini batafsil bayon etishga intiladi. Sintaktik model strukturasining kengayishi, ya’ni ortiqcha yoki o‘rinsiz so‘z va birikmalarning qo‘llanishi, ko‘pincha tayyorgarliksiz nutqiy jarayon natijasida yuzaga keladi. Bunday holatlar pleonazmning ayrim ko‘rinishlarini namoyon etadi. Ushbu maqola morfemik sathdagi pleonazm hodisasini ilmiy jihatdan tahlil qiladi. Pleonazmning ta’riflari, nazariy asoslari va affiksal turlari ko‘rib chiqilgan bo‘lib, hodisa til evolyutsiyasi, so‘z yasash va stilistik funksiyalar bilan bog‘lanib o‘rganilgan. Maqolada A.Hojiyev, N.Mahkamov, J.Maruzo kabi olimlarning ta’riflari asosida pleonazm semantik ortiqchalik sifatida baholanadi hamda uning affiksal shakllari (kontakt va distant) misollar orqali yoritilgan. Badiiy adabiyotdan olingan namunalar (A.Ekzyuperi, I.Mirzo, B.Mashrab, Tohir Malik va boshqalar) hodisaning stilistik ahamiyatini ko‘rsatadi. Pleonazmning yuzaga kelish sabablari, grammatik va leksik-semantik xususiyatlari deskriptiv, taqqoslash, struktural-lingvistik metodlar yordamida tahlil etilgan. Natijada, pleonazm til me’yori va ekspressivligiga hissa qo‘shishi ta’kidlanadi. Tilning sathlararo paradigmatik munosabatida pleonazmning tutgan o‘rni va mavqeyini belgilash bugungi kun tilshunosligining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *Pleonazm, morfemik sath, affiksal pleonazm, stilistik funksiya, semantik ortiqchalik, so‘z yasash, til evolyutsiyasi, grammatik shakl, adabiy me’yor, nutqiy figura.*

ЯВЛЕНИЕ ПЛЕОНАЗМА НА МОРФЕМНОМ УРОВНЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. *чтобы ясно и доходчиво выразить значение признака вещи или события, говорящий стремится подробно описать его характеристики и обстоятельства, при которых произошло событие. Расширение структуры синтаксической модели, то есть использование избыточных или неподходящих слов и сочетаний, часто происходит в результате неподготовленной речи. Такие случаи демонстрируют некоторые проявления плеоназма. В данной статье научно анализируется явление плеоназма на морфемном уровне. Рассматриваются определения, теоретические основы и аффиксальные типы плеоназма, а само явление изучается в связи с эволюцией языка, словообразованием и стилистическими функциями. В статье плеоназм оценивается как семантическая избыточность, основываясь на определениях таких ученых, как А.Ходжиев, Н.Махкамов, Дж.Марузо, и иллюстрируются его аффиксальные формы (контактные и дистантные) на примерах. На примерах из художественной литературы (А. Экзюпери, И.Мирзо, Б.Машраб, Тохир Малик и др.) демонстрируется стилистическая значимость явления. С помощью описательного, сопоставительного и структурно-лингвистического методов анализируются причины возникновения плеоназма, его грамматические и лексико-семантические особенности. В результате подчеркивается, что плеоназм способствует формированию нормы и выразительности языка. Определение места и статуса плеоназма в межуровневых парадигматических отношениях языка является одной из важных задач современной лингвистики.*

Ключевые слова: *плеоназм, морфемный уровень, аффиксальный плеоназм, стилистическая функция, семантическая избыточность, словообразование, эволюция языка, грамматическая форма, литературная норма, фигура речи.*

THE PHENOMENON OF PLEONASM AT THE MORPHEMIC LEVEL OF THE UZBEKISTAN LANGUAGE

Annotation. *In order to clearly and intelligibly express the meaning of a sign of a thing or event, the speaker seeks to describe in detail its characteristics and the circumstances under which the event*

occurred. The expansion of the structure of the syntactic model, that is, the use of redundant or inappropriate words and combinations, often occurs as a result of unprepared speech. Such cases demonstrate some manifestations of pleonasm. This article scientifically analyzes the phenomenon of pleonasm at the morphemic level. The definitions, theoretical foundations and affixal types of pleonasm are considered, and the phenomenon is studied in connection with language evolution, word formation and stylistic functions. The article evaluates pleonasm as semantic redundancy based on the definitions of such scientists as A.Hojiyev, N.Mahkamov, J.Maruzo, and illustrates its affixal forms (contact and distant) through examples. Examples from fiction (A.Exupery, I.Mirzo, B.Mashrab, Tohir Malik, etc.) demonstrate the stylistic significance of the phenomenon. The reasons for the emergence of pleonasm, grammatical and lexical-semantic features are analyzed using descriptive, comparative, structural-linguistic methods. As a result, it is emphasized that pleonasm contributes to the norm and expressiveness of the language. Determining the place and status of pleonasm in the inter-level paradigmatic relationship of the language is one of the important tasks of modern linguistics.

Key words: *pleonasm, morphemic level, affixal pleonasm, stylistic function, semantic redundancy, word formation, language evolution, grammatical form, literary norm, figure of speech.*

Kirish. Tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo‘lgan pleonazm hodisasi tilning turli darajalarida namoyon bo‘lib, nutqning samaradorligi va me’yor masalalariga oid muhim muhokamalarga sabab bo‘ladi. Bu hodisa leksik, sintaktik va morfologik darajalarda kuzatilishi mumkin bo‘lsa-da, ushbu maqolada e’tibor morfemik sathga qaratiladi. Morfemik sathda pleonazm so‘z ichidagi morfemalar orqali yuzaga keladigan ortiqcha semantik takrorlanishni o‘z ichiga oladi. O‘zbek tilida bu hodisa tilning evolyutsiyasi, so‘z yasash jarayonlari va nutqiy me’yorlar bilan chambarchas bog‘liq.

Tilda har bir fonetik, leksik, morfologik yoki sintaktik birlik o‘z vazifasiga ega. Ushbu birliklarning o‘zaro uyg‘unligi, takrorlanish holatlari tilda ba’zan semantik to‘yinganlik, ba’zida esa ortiqchalik (pleonazm) hosil qiladi. Tilshunoslikda pleonazm hodisasi ko‘proq sintaktik va leksik sathlarda o‘rganilgan bo‘lsa-da, morfemik sathda ham bu hodisaning mavjudligi va tildagi roli alohida e’tiborga loyiqdir.

Pleonazm hodisasi bugungi kunda tilshunos olimlar tomonidan faol o‘rganilayotdan lingvistik hodisalardan biri hisoblanadi. Tilning sathlararo paradigmatik munosabatida pleonazmning tutgan o‘rni va mavqeyini belgilash bugungi kun tilshunosligining muhim vazifalaridandir.

Asosiy qism. Maqolada deskriptiv, taqqoslash va struktural-lingvistik metodlar asosida pleonazm hodisasining affiksal, sinonimik va stilistik shakllari tahlil qilingan.

Pleonazm hodisasi tilshunoslikda uzoq vaqtdan beri o‘rganilmoqda. Jahon tilshunosligida pleonazmning birinchi ta’riflari antik yunon va rim tilshunoslarida uchraydi. Masalan, Aristotel va Kvintilianning nutq san’ati haqidagi asarlarida ortiqcha so‘zlarning nutqqa salbiy ta’siri haqida gapiriladi. XX asrda strukturalizm maktabi (F.de Sossyur, R.Yakobson) pleonazmni til tizimining ichki ziddiyatlari sifatida ko‘rib chiqdi. Ularning fikricha, pleonazm tilning iqtisod tamoyiliga zid bo‘lib, semantik ortiqchalikni keltirib chiqaradi.

XX asrning 50-yillaridan boshlab til sathi (lingvistik sath) tushunchasi maydonga keldi. Bu tushunchaning shakllanishi va ilmiy asoslanishida L.Yelmslev hamda bir qator Amerika deskriptiv tilshunoslari, xususan, Dj.Treyjer, K.Payk, Ch.Xokket, Z.Xarris singari olimlarning xizmati katta bo‘ldi.

Til sistemasidagi har bir sath birligi – fonema, morfema, leksema, so‘z shakl, sintaksema, matn kabilar lingvistik birliklar sanaladi**.**

Morfema leksemadan ajralgan holda o‘z mohiyatini namoyon qila olmaydigan, shakl va denotativ bo‘lmagan mazmunning birligidan iborat bo‘lgan kichik lisoniy birlik. Qo‘shimcha ana shu psixofizik mohiyatning nutqda namoyon bo‘lishi. Morfema ham tashqi (moddiy) va ichki (ma’no, vazifa) jihat yaxlitligidan iborat. Atov mustaqilligiga, mustaqil sintaktik mavqega ega bo‘lmagan bu birliklar o‘zida leksik va grammatik mohiyatni uyg‘unlashtirgan:

a) yangi so‘zlar hosil qiladi;

b) so‘zlarga qo‘shimcha leksik-semantik qiymat beradi.

So‘zlarga qo‘shimcha leksik-semantik qiymat berishda pleonazm muhim ahamiyat kasb etadi. Bu lingvistik hodisa haqida jahon va o‘zbek tilshunosligida ko‘plab olimlar o‘z fikrlarini bayon

qilganlar. Xususan, jahon tilshunosligida bu hodisa Ferdinand de Sossyur va strukturalizm maktabi vakillari tomonidan til tizimi sifatida o‘rganilgan bo‘lsa, o‘zbek tilshunosligida A.Nurmonov va N.Mahkamov kabi olimlarning ishlarida pleonazm adabiy norma bilan bog‘lab tahlil etilgan.

Tilshunos olim A.Hojiyevning qayd etishicha, “Pleonazm (yun. *pleonasmos* – ortiqchalik) nutqda bir-biriga yaqin ma’noli yoki deyarli bir xil ma’noli birliklarning (ortiqcha holatda) qo‘llanishi, bir ma’lumotning bir necha marta ifodalanishidir” [11: 69]. J.Maruzoning fikricha, “pleonazm fikrni aniq yetkazish nuqtayi nazardan gapda so‘zlarning ortiqcha
qo‘llanishidir” [8: 60]. O.S.Axmanova ushbu terminga “pleonazm nutqiy figura bo‘lib, sinonimik ifodalarning bir joyda yig‘ilib qolishidir”, – deb ta’rif beradi [5: 325]. Pleonazm hodisasini o‘zbek tilshunosligida ilk marta monografik tarzda tadqiq etgan olim N.Mahkamovning izohlashicha, “Pleonazm – bir xil yoki sinonimik ifoda vositalarining, ya’ni til birliklarining semantik jihatdan takror holda bo‘lishidir” [9: 7].

Tilshunos olim A.Bolganbayev esa “pleonastik qo‘llanish deb shunday birikmalarni aytish kerakki, qaysi birikma tarkibidagi bo‘laklar o‘zining asosiy ma’nosini yo‘qotmaydi, balki bir bo‘lakning ma’nosi ikkinchi bir bo‘lakning ma’nosini to‘ldiradi va kuchaytiradi” deb hisoblaydi. Bizning fikrimizcha, ushbu ta’rif biryoqlama qarash bo‘lib qoladi. Chunki pleonazm bu – bir xil yoki sinonimik ifoda vositalarining, ya’ni til birliklarining semantik jihatdan takror holda bo‘lishidir. Pleonazm nafaqat muayyan mazmunni to‘liq ifodalash uchun, balki uslubiy jihatdan ham ortiqcha so‘z qo‘llash, demakdir. Shu nuqtayi nazardan u stilistikaning obyekti hisoblanadi.

N.Mahkamovning ta’kidlashicha [9: 7] nutqda qo‘llanilayotgan bir xil yoki sinonim til birliklarining takrorlanishi doim ham pleonastik hodisani yuzaga chiqara olmaydi. Qachonki, shu takror holda qo‘llangan til birligining biri tushirib qoldirilganda ham ma’no o‘zgarishga uchramasa, ushbu holatni pleonastik hodisa deyish mumkin. Pleonastik qo‘llashni belgilash uchun shakllarning takrori asosiy me’zon bo‘la olmaydi. Chunki pleonazmga bu tomondan qarash tilga formal yondashish bo‘ladi. Pleonazm uchun mavjud ma’noning qayta takrorlanishi asosdir. Ushbu ilmiy qarashni takror so‘zlar misolida isbot etaylik: *tandir* – predmet; *tandir-tandir* – miqdoran ko‘plik; *chelak* – predmet; *chelak-chelak* – miqdoran ko‘plik. Bu o‘rinda so‘zlar takrori hech qanday nutqiy ortiqchalikni yuzaga chiqarmagan, balki ko‘plikni ifodalash uchun xizmat qilgan.

Muloqotda affiks va so‘zlarning pleonastik qo‘llanishi ham mavjud. Ma’lumki, ***-zor*** affiksi asosga qo‘shilganda birdaniga jamlik, o‘rin ma’nolarini anglatadi. Lekin o‘zbek tilida shunday so‘zlar borki, ular o‘rin ma’nosini anglatuvchi so‘z sifatida ishlatilsa-da, uning semantikasida o‘sha predmetning jamligi, ko‘pligi ham anglashiladi Shu sababli, ularga takror holatda o‘rin va jamlik ma’nosini yasovchi morfemaning qo‘shilishiga hech qanday ehtiyoj yo‘q. Masalan,

*U **to‘qayzor**da sassiq alaflarning, qamishlarning, gulni payhon qiluvchi to‘ngizlarning borligidan ajablanmadi.* (A.Ekzyuperi “Kichkina shahzoda”)

*Sening sayyorangda dedi, – Kichkina Shahzoda, odamlar bir **chamanzor**da besh mingta gul o‘stirar ekan-u izlaganmi topolmas ekan.* (A.Ekzyuperi “Kichkina shahzoda”)

Bu misollardagi ***to‘qayzor, chamanzor*** so‘zlaridagi ***-zor*** affiksi pleonastik qo‘llangan. Qiyoslaymiz, *daraxtzor, olmazor, lolazor* kabi so‘zlar asosida o‘rin ma’nosi ham, jamlik ma’nosi ham yo‘q, *zor* affiksi qo‘shilib shu ma’nolar yuzaga kelgan. Lekin *to‘qayzor, chamanzor* so‘zlarining o‘zagida (to‘qay, chaman) ham o‘rin, ham jamlik ma’nosi anglashiladi [2: 504-506].

Natijalar va muhokama. Pleonazm morfemik sathda tilning ichki tuzilishida ortiqcha elementlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Masalan, so‘z yasash jarayonida bir xil semantik yukni ko‘taruvchi morfemalarning ketma-ket qo‘llanilishi nutqni og‘irlashtirishi va me’yor buzilishiga olib kelishi mumkin.

Pleonazmni turlarga bo‘lish masalasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, mutaxassislar takrorlanayotgan elementlarning turiga qarab, ularni affiksal, leksik, semantik, leksik-semantik, sintaktik pleonazmlarga bo‘lib o‘rganishni taklif etgan edilar [9: 10]. Mazkur tasniflar ichida **affiksal pleonazm** tilda eng sermahsul hisoblanadi.

G.F.Blagova o‘zining “Тюркский аффиксальнний плеоназм в сравнктельно-историческом и ареально-лингвистическом освегцении” [6: 83] nomli maqolasida turkiy tillardagi affiksal pleonazmning 3 turi (sintagmalar tarkibida, analitik formalar tarkibida va bir so‘z tarkibida) mavjudligini ta’kidlab o‘tgan.

O‘zbek tilidagi affiksal pleonazm ham 3 turga bo‘linadi:

1. Sintagmalar tarkibida uchrovchi affiksal pleonazm – sintagmalarning har bir a’zosi ma’lum formaning, masalan, egalik, kelishik affikslarining (uyushiq bo‘laklarning har birida) takrorlanishidir.

2. Analitik formalar tarkibida uchrovchi affiksal pleonazm. G.F.Blagovaning fikricha, affiksal pleonazmning ikkinchi turini *solinib bo‘lindi, ichilib qo‘yildi* kabi analitik formalar tashkil qiladi. Ya’ni analitik formaning yetakchi komponentiga ham, ko‘makchi komponentiga ham bitta grammatik ma’noni ifodalovchi birgina affiks qo‘shiladi. Masalan, *yozilib borildi, chiqartirib yubortirdi, ichilib qo‘yildi* kabi.

3. Bir so‘z tarkibida uchrovchi affiksal pleonazm. G.F.Blagova pleonazmning bu turini “toza” (“чистый”) tur deb ataydi. Bunda bir so‘zga birdan ortiq affiks qo‘shiladi. Masalan, (-chacha – ko‘rpa-chacha) yoki bitta Grammatik vazifani bajaradigan ikki xil (bo‘taloqcha) affiksi bo‘lishi mumkin [7: 156].

N.Mahkamov [9: 15] affikslarning distant va kontakt holatda joylashuviga ko‘ra affiksal pleonazmni ikki guruhga bo‘ladi:

1. Affikslarning distant pozitsiyada joylashib pleonastik qo‘llanishi.

2. Affikslarning kontakt holatda joylashib pleonastik qo‘llanishi.

O‘zbek tili grammatikasining morfologiya bo‘limiga bag‘ishlangan 1-jildida ham affiksal pleonazmga maxsus ta’rif berib o‘tilgan. Affiksal pleonazm deb bir so‘zda ma’nolari bir xil yoki yaqin bo‘lgan affikslarning – bir xil affiksning takrorlanishi (ikki, ba’zan uch)ga aytiladi [10: 107]. Bunda bir affiksning aynan o‘zi takrorlanadi: *kichkina-gina, tik-tir-tir* yoki tashqi shakli har xil bo‘lgan – sinonim affikslar takrorlanadi: *kel-ingiz-lar, ayt-di-lar-ingiz* kabi. Takrorlangan bu affikslar kontakt holda (yonma-yon, ketma-ket: *yozdirtir*) yoki distant holda (ajralgan: *uydaligimda* ikkita *-da,* lekin ketma-ket emas) ham bo‘ladi.

Affiksal pleonazmning yuzaga kelish sabablari turlichadir. Quyida bu haqida to‘xtalamiz:

1. Bir affiks asos bilan juda zich bog‘lanib, asosning tarkibiga singib ketadi, natijada shu affiks (ba’zan uning sinonimi) yangidan qo‘shiladi yoki so‘z tarkibidagi affiks arxaiklashgan bo‘lib, undan keyin o‘sha ma’nodagi iste’molda mavjud bo‘lgan “tirik” affiks qo‘shiladi. Bu holatni quyidagi grammatik shakllar misolida ko‘rish mumkin: 1) kelishik affikslari bilan bog‘liq pleonazm: *tashqariga, ichkariga, ilgariga, nariga, beriga.* Ma’lumki, til taraqqiyotining dastlabki davrlarida jo‘nalish kelishigining ***-g‘aru//-gärü//-qaru//-kärü, -ra//-rä, -ru//-rü*** affikslari bilan ham yasalgan formalari mavjud bo‘lib, eski o‘zbek tilida bu qo‘shimchalar o‘rnini *-qa//-g‘a//-kä//-gä,* hozirda esa *-ga//-ka//-qa* affikslari egallagan. Tilda mavjud bo‘lgan mazkur so‘zlarning valentlik imkoniyati (tarkibidagi affikslar ma’nosi va funksiyasi xiralashgandan so‘ng) ularning yana aynan shu grammatik shaklda kelishini talab qiladi va o‘z navbatida arxaik va betaraf affiksning bir so‘z ichida kelishi pleonazmni yuzaga keltiradi; 2) egalik affikslari bilan bog‘liq pleonazm: *bar-i-si (bar // bor), qay-i-si-si (qaysinisi).* Shu o‘rinda qayd etish lozimki, egalik affikslarining III shaxs birlik va ko‘plik shakllari tarixan ***-i//-ï, -si//-sï*** shaklida uchragan. Egalikning bu shaxsidagi ***-i//-ï*** qo‘shimchasi qadimiy bo‘lib, ***-si//-sï*** qo‘shimchasi til taraqqiyotining keyingi davrlari mahsuli deb hisoblanadi. Ya’ni ***-i//-ï*** qo‘shimchasi unli tovush bilan tugagan turkiy o‘zaklarga qo‘shilganda talaffuzni qiyinlashtirgan va bu qiyinchilikni bartaraf etish uchun shunga muvofiq undosh tovush talab qilingan. Bu vazifani shunga moyil **s,** ayrim turkiy tillarda **z, sh** undoshlari bajargan va ***-i//-ï*** affiksining ***-si//-sï//-zi//-zï*** variantlari kelib chiqqan [3: 91]. Bizning fikrimizcha, yuqoridagi olmoshlar tarkibiga ham dastlab egalikning ***-i//-ï*** varianti qo‘shilgan (masalan, *qayu* – olmoshning asosi *qa,* uning tarkibidagi *-yu* III shaxs egalik affiksi) [4: 107], ***-si//-sï*** variantining qo‘shilishi esa keyinchalik yuz bergan pleonastik holatdir; 3) ko‘plik affiksi bilan bog‘liq pleonazm: bunday ortiqchalikni *biz, siz* kishilik olmoshlariga ***-lar*** ko‘plik shaklining qo‘shilishida *(bizlar, sizlar)* ko‘rish mumkin. Bu o‘rinda ushbu olmoshlar tarkibidagi ***-z*** affiksi aslida ko‘plik ko‘rsatkichi bo‘lib, so‘zga *-lar* qo‘shilishi natijasida ko‘plik tushunchasi yanada kuchaytirilgan [9:42].

2. Boshqa tildan kirgan affiks ma’nosi tushunarli bo‘lmaganligidan undan so‘ng shu tilning o‘sha ma’noni bildiradigan jonli affiksi qo‘shiladi: *yoronlar, boyonlar.*

R.Qo‘ng‘urov [7: 156] bir so‘z tarkibida bir necha subyektiv baho formalarining qavatlanishi natijasida vujudga keluvchi affiksal pleonazmlarni quyidagicha izohlaydi: bir so‘z tarkibida ikki yoki uch formaning pleonastik takrorlanishi, bir tomondan, ma’no farqlash, kuchaytirish maqsadi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ba’zi bir elementning xiralashishi yoki boshqa tildan qabul qilingan

elementning hozirgi kunda tushunilmasligi bilan bog‘liq. Affiksal pleonazmning sabablaridan biri sifatida tilshunoslar ma’lum bir shaklning shu tilda o‘lik holiga kelishi, xiralashishi yoki boshqa tildan qabul qilingan elementning bu tilda so‘zlovchi tomonidan to‘g‘ri tushunilmasligini ko‘rsatadilar. Shuningdek, olim qavatlanishning quyidagi ko‘rinishlarini keltirib o‘tadi:

1) birgina affiks (subyektiv baho formasi) hech o‘zgarishsiz yoki fonetik o‘zgarish bilan ikki marta takrorlanadi. Bunda takrorlangan affiksning birinchi qismi ko‘pincha kichraytirish ma’nosini bildirsa, ikkinchi qism erkalatish ottenkasiga ega bo‘ladi. Misollar: *Saida arzon chit bo‘lsa ham, yaxshi tikilgan ko‘ylagining orqa etagini g‘ijim qilmaslikka tirishib, ehtiyotlik bilan kursiga o‘tirdi, yo‘l-yo‘l baxmal jiletkasining biqin cho‘ntagidan yarmi chiqib turgan kichkinagina bloknotini olib, stol ustiga qo‘ydi* (A. Qahhor “Sinchalak”, 4-bet);

2) struktural boshqa-boshqa formadagi subyektiv baho formalari bir so‘zga qo‘shiladi. Ammo ularning har ikkalasi ham bir xil grammatik va semantik vazifani bajaradi. Ya’ni ularning har ikkalasi ham baholash ottenkasiga ega bo‘ladi (albatta, ularning biri ikkinchisidan ma’no nozikliklari bilan farqlanadi): – *Tavba qildim poshshobibijon! – dedi u.* (J.Ikromiy. Buxoroning o‘n ikki darvozasi, 128);

3) ba’zan ikki marta qabatlangan subyektiv baho formalaridan so‘ng egalik affiksi qo‘shiladi. Bunday vaqtda qandaydir emotsional-ekspressivlik kuchaygandek seziladi. Biz bu ko‘rinishni uchinchi darajali qavatlanishga kiritishni lozim deb topamiz. Masalan: *Askarginam, Arslontoyginam, Tushimga ham kirdi shu kuni* (Oybek “Quyosh qo‘shig‘i”, 169-bet).

Affiksal ortiqchalikning ayrim ko‘rinishlari til taraqqiyoti uchun xizmat qilgan. Biror tildan o‘tgan so‘z, garchi grammatik formasi mavjud bo‘lsa-da, asos holatidagi o‘zlashma so‘z sifatida qabul qilinadi va grammatik ma’noni qabul qilgan tilning affikslari bilan ifodalaydi, natijada grammatik analogiya tufayli ortiqchalik vujudga keladi [6: 83].

Hey, yoronlar-ey!
Bulbul dilim sayrab turar,
Jismi jonim yayrab turar,
Shukronalar aylab turar,
Shunday zamonlarni ko‘rib,
Davr-u davronlarni ko‘rib. (I.Mirzo “Shukrona”)
Kel, ey Mashrab, agar oshiq bo‘libsan, bo‘lmag‘il g‘ofil,
Bu g‘aflat uyqusidin, ey *yoronlar*, uyg‘onib bo‘lmas.
(B.Mashrab “Oshiq bo‘libsan, bo‘lmag‘il g‘ofil”)

Xohlag‘on vaqtimda Toshkandga borsam, xohlag‘on vaqtimda Keshg‘a otlansam, Buxorog‘a, Termizg‘a, Andijong‘a, Xorazmg‘a yo‘l tutsam... Men ham bir odamday do‘st-u yoronlar bilan ulfatchilik qilsam, Sirdaryoning bo‘ylarida yalangoyoq kezsam, yurtimda emin-erkin yursam, yotsam, uxlasam... – Ko‘nglimda o‘zlariga xuddi shuni tilar edim, oh, oh! Dilimdagini so‘zladilar! Ilohi, baraka topsunlar, Amir Sohibqiron! – jilmaydi dodxoh.

(Muhammad Ali “Sohibqiron o‘ylari”)

Boyonlarimizning bari hushyor. Aqli bo‘lgani uchun boy bo‘lganda.

(Oybek, Tanlangan asarlar).

Ul bechora choyxonaning egasini ko‘rub o‘z ahvolotini aytgan vaqtda mazkur o‘yunchi nasihat berdi: «San o‘zing chiroylik xotunsen va nag‘mani yaxshi bilasan va, agar xohlasang, bul joyg‘a kech bo‘lganda kelib nag‘ma qilsang, man o‘zum va istirohat oladurgan ***boyonlar*** *ham sanga in’om berodur, andin san avqot topasan», – deyadur.*

(Mahmudxo‘ja Behbudiy “Bir vafoli zaifani xususida hikoya” 1905).

3. Affiksatsiya natijasida yuz beradigan fonetik hodisalar bir affiksning ikki marta qo‘shilishiga sabab bo‘ladi: *yarmisi, kichkinagina, unisi, anavinisi, qaysinisi, singlisi.* Bu holat o‘zbek tilining ayrim dialektlarida ancha keng tarqalgan: *ulisi – o‘g‘li, munnisi – burni, moynisi – bo‘yni, siynisi – singli, ikkovisi* va boshqalar. Shu bilan bir qatorda, bir so‘z tarkibida ikki egalik affiksining pleonastik qo‘llanishi (ko‘pincha yosh bolalarga qarata aytilganda) erkalash, suyish uslubiy vazifasini ham bajaradi: *burnisi, boshisi, ko‘zisi* kabi.

Yarmi yashil, **yarmisi** sariq,
Kapalaklar aylanar boshda.
Sumbulajon, suvingiz tiniq,

Charxpalaklar aylanar boshda.
(I.Mirzo “Sumbula”)

Kim bilan gaplashsang «xalqim», “xalqim” deydi. - O‘shalarning yarmisi «xalqim» emas, yaxshilab quloq solsang “xalqum” deydi. - Bu gapingiz ham to‘g‘ri, - dedi kulib Chuvrindi.
(Tohir Malik “Shaytanat 2-kitob” 2007, 75-bet)

Uning hozirgi fe’li, qo‘rsligi Sobitxonni avvaliga ajablantirdi, so‘ng picha qo‘rquvga soldi. Agar odamlar orasida yurgan gap-so‘zlar rost bo‘lsa, kichkinagina masjidning imomi birdaniga yo‘qolib qolsa ham ajab emas-da. Hozir uning bu xonadonga kirganini kim ko‘rdi? Chiqdimi, chiqmadimi - kim surishtirib o‘tiribdi? Qori shularni o‘ylab seskandi.

Xoqoni olam! Otaliq eski bir qulingizdir. Kichkinagina bir erkalik qilg‘ani uchun uni o‘ldirmak nechuk bo‘lar Xon (Qozining so‘zini eshitmagandek biroz o‘ylag‘andan so‘ng). Farhod otaliqni eski bir qulimmi, Qozi Nizom.
(Abdurauf Fitrat “Abulfayzxon”, Tanlangan asarlar 1-jild, 183-bet)

Arava yakka qanotli kichkinagina bir eshik oldida to‘xtab, aravakash bola qamchi sopi bilan eshikni qoqqanda va ichkaridan bir kampirning ingichka va jonsiz ovozi “Kim u?” deb so‘raganda, odamlar bir uyquni urgan edilar… Kampirchaning so‘rog‘iga aravakash hazillashib javob – Shahardan bir arava mehmon olib keldim, ena! Uyingiz kuydi toza! Ikki kunda bor-yo‘g‘ingizdan ajralib qoqlanasiz endi! Qani, bo‘ling, eshikni oching! Qornimiz o‘lgudek Qizlar kuldilar. Kampir qizlarning kulishini eshitganidan keyin mehmonlarning kimligini –Ha-a-a, Saltanatxonlardir? – dedi Shu so‘z bilan birga kichkinagina zanjirining shiriqlab tushgani va eshikning g‘ichirlab ochilgani eshitildi. Kampircha eshikni ochar-ochmas sevinchilamoq uchun ichkariga yugurgan – Qani, tushinglar endi, opalar! – deb muzaffarona bir ovoz bilan Faqat uning bu chaqirig‘i foydasiz edi.
(Abdulhamid Cho‘lpon “Kecha va kunduz” romani 24-bet)

Affiksal pleonazm yana bir qancha birliklar tarkibida uchraydi va aksariyat hollarda stilistik funksiya bajarishga xizmat qiladi, ba’zilarida esa adabiy me’yorga bo‘ysunmagan holatlarni ham kuzatish mumkin:

1. Uyushiq bo‘laklarda takror qo‘llanuvchi egalik, kelishik va ko‘plik shakllari affiksal pleonazmni yuzaga keltiradi: *Bulbullarning, qumrilarning, sa’valarning yoqimli sayrashi kishiga zavq beradi.* Ushbu gapda uyushiq bo‘laklarning har ikkisi tarkibida ko‘plik va kelishik shakllari takror holda qo‘llanmoqda. Bu esa nutqiy ortiqchalikni yuzaga keltirmoqda. Bunday holatlardagi nutqiy ortiqchalik subyektiv baho ifodalash xarakteriga ham ega – uyushiq bo‘laklarning har birini ta’kidlash, alohida ajratib ko‘rsatish vazifalarini bajargan.

*Sutti**mi**, baliqchi**mi**, chittak**mi**, qumri**mi**, itolg‘i**mi**, qirg‘iy**mi**, miqqiy**mi** – biror qushning nomini yashirishadi.* (G‘.G‘ulom “Shum bola” qissasi 7-bet)

*Darrov sham**ni**, holva**ni**, nosvoy**ni**, anor**ni** bir chekkaga qo‘yib, chilimning suvini yangilab, sarxonasini tozaladim.* (G‘.G‘ulom “Shum bola” qissasi, 120-bet)

2. Affiksal pleonazm ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalarida nisbat shakllarining ham yetakchi, ham ko‘makchi fe’l tarkibida ortiqcha qo‘llashdan yuzaga keladi: *yozib borildi – yozilib borildi; chiqartirib yubordi – chiqartirib yubortirdi; ichib qo‘yildi – ichilib qo‘yildi* kabi.

3. Juft so‘zlarning har ikki qismiga bir xil affikslar takror holda qo‘llanadi: *otasi-onasi; cheksiz-chegarasiz; sog‘lik-salomatlik.* Biroq *bo‘libdi-qolibdi, aytdi-qo‘ydi, yozdi-oldi* juft fe’llari tarkibiga bir xil affiks qo‘shilgan bo‘lsa-da, ular pleonazm hisoblanmaydi. Chunki bu o‘rinda affikslar so‘zlar tarkibida uslubiy funksiya emas, balki grammatik funksiya bajarmoqda [9:23].

4. Leksemalarning subyektiv baho ifodalovchi shakllarida ma’nosi bir-biriga yaqin yoki bir xil affikslar takror qo‘shiladi: *bolajonginam, qizaloqcha, toychoqcha, tugmachadekkina, qo‘zichoqcha* kabilar.

Rangi ham g‘alati. Buni ko‘rgan O‘shmurat sayis boshini chayqab, yoqasini tutgancha “Hiq-q” etdi. Haligi toychoqcha to‘rt oyog‘ida turmoqchi bo‘lib qancha urinmasin, o‘rnidan qo‘zg‘alolmay, ko‘zlarini pirpiratib Qo‘shmurat og‘aning yuziga javdirab tikilishi, keksa sayisning yuragiga xanjarday botardi. Kuliyev K. “Ko‘kbo‘ri”. Turkman zamonaviy adabiyoti antoligiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. 99-jild. 278-bet.)

Xulosa. O‘zbek tilining morfemik sathida pleonazm hodisasi tildagi ichki semantik, grammatik va stilistik jarayonlar o‘zaro ta’sirining mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Pleonastik shakllar, odatda,

so‘z tarkibidagi affikslarning takrorlanishi yoki sinonim affikslarning qo‘shma qo‘llanishi orqali yuzaga keladi. Bunday holatlar til tizimida ortiqchalikni vujudga keltirgan bo‘lsa-da, ular ko‘pincha tarixiy, morfologik va stilistik omillar bilan izohlanadi.

Affiksal pleonazmning kontakt va distant ko‘rinishlari, shuningdek, egalik, ko‘plik, kelishik affikslari hamda subyektiv baho shakllarida namoyon bo‘lishi hodisaning turli darajadagi funksional yukini ko‘rsatadi. Ularning ayrimlari tildagi qadimiy affikslarning xiralashuvi yoki boshqa tillardan o‘zlashgan elementlarning moslashuvi natijasida shakllangan bo‘lsa, boshqalari nutqiy ekspressivlik va emotsional ta’sirchanlikni kuchaytirish vazifasini bajaradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, morfemik sathdagi pleonazm hodisasi o‘zbek tili tizimida ikki yo‘nalishda ahamiyat kasb etadi: bir tomondan, u me’yordan chetga chiqish holati sifatida baholansa, ikkinchi tomondan, u stilistik vosita sifatida tildagi ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Shunday qilib, affiksal pleonazm o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyotida grammatik va uslubiy xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan murakkab lingvistik hodisa bo‘lib, uni tizimli tahlil qilish tilning evolyutsiyasi va normativ me’yorlarini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Kuliyev K. “Ko‘kbo‘ri”. Turkman zamonaviy adabiyoti antoligiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. 99-jild.
2. Sobirova D., Ziyoyeva M. O‘zbek muloqotida pleonazm. // Davlat tili – ijtimoiy taraqqiyot va milliy yuksalish mezoni mavzusidagi Respublika masofaviy ilmiy-amaliy anjumani. – Buxoro, 2020.
3. Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. – Тошкент: Фан, 2009.
4. Абдураҳмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973.
5. Ахманова О. Словарь лингвистических терминов. – Москва, 1966.
6. Благова Г.Ф. Тюркский аффиксальнний плеоназм в сравнктельно-историческом и ареально-лингвистическом освегцении. – «Вопросн язьжознания», 1968, № 6.
7. Қўнғуров Р. Субектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент, 1980.
8. Марузо Ж. Словарь лингвистических терминов. – Москва, 1960.
9. Маҳкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. – Тошкент, 1988.
10. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. – Тошкент, 1975.

Abdurazzaqov O‘ktam Abduqayumovich
Oriental universiteti Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail: abdullohuktamovich@gmail.com

APPLICATION OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES AND INTERACTIVE METHODS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract. *The rapid transformation of education in the 21st century has necessitated the integration of pedagogical technologies and interactive methods to enhance the quality, accessibility, and efficiency of teaching and learning. Pedagogical technologies provide a systematic, scientifically grounded framework for designing and implementing instruction, while interactive methods foster student engagement, collaboration, and active knowledge construction. This article explores the theoretical foundations, implementation strategies, and practical implications of applying pedagogical technologies and interactive methods in the educational process. Using conceptual analysis, literature synthesis, and illustrative empirical examples, the paper identifies key components-conceptuality, systematicity, efficiency, manageability, and reproducibility-as essential criteria for effective pedagogical technology. A detailed alignment matrix template is proposed to document the systematic structure between learning objectives, activities, and assessments. The results highlight that interactive methods such as project-based learning, collaborative problem-solving, and gamified instruction enhance students’ motivation, critical thinking, and retention when implemented through coherent technological frameworks. The discussion emphasizes teacher readiness, institutional support, and contextual adaptation as determining factors for successful implementation.*

Key words: *pedagogical technology; interactive methods; educational process; systematicity; learner-centered approach; digital pedagogy; instructional design; teacher innovation.*

ПРИМЕНЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. *Быстрое преобразование образования в XXI веке обусловило необходимость интеграции педагогических технологий и интерактивных методов для повышения качества, доступности и эффективности обучения и преподавания. Педагогические технологии обеспечивают системный, научно обоснованный подход к проектированию и реализации учебного процесса, в то время как интерактивные методы способствуют вовлечённости студентов, их сотрудничеству и активному формированию знаний. В данной статье рассматриваются теоретические основы, стратегии внедрения и практические аспекты применения педагогических технологий и интерактивных методов в образовательном процессе. На основе концептуального анализа, синтеза литературных данных и иллюстративных эмпирических примеров определяются ключевые компоненты эффективной педагогической технологии: концептуальность, системность, результативность, управляемость и воспроизводимость. Предложен шаблон детализированной матрицы соответствия для документирования системной связи между учебными целями, учебной деятельностью и оцениванием. Результаты показывают, что интерактивные методы, такие как проектное обучение, совместное решение проблем и игровая форма обучения, повышают мотивацию студентов, формируют критическое мышление и улучшают усвоение материала при условии их реализации в рамках целостных технологических моделей. В обсуждении подчёркивается, что готовность педагогов, институциональная поддержка и адаптация к конкретному контексту являются определяющими факторами успешного внедрения.*

Ключевые слова: *педагогическая технология; интерактивные методы; образовательный процесс; системность; личностно-ориентированный подход; цифровая педагогика; проектирование обучения; педагогические инновации.*

Introduction. The evolution of modern education increasingly demands a shift from traditional, teacher-centered instruction to student-centered, interactive, and technology-enhanced learning environments. In the context of globalization and the digital revolution, education systems must prepare learners for lifelong learning, creativity, and problem-solving in rapidly changing societies (Reigeluth 5). Pedagogical technologies-understood as structured, research-based models of teaching-offer a systematic framework to achieve these goals. They encompass not only the integration of technological tools but also scientifically substantiated methods, organizational forms, and evaluation mechanisms.

At the same time, interactive methods-such as project-based learning, role-playing, and collaborative problem-solving-embody the principles of active learning. When pedagogical technologies and interactive methods are combined, they create powerful synergies that enhance the quality and sustainability of learning outcomes (Wiggins and McTighe 14).

The problem this study addresses is how to ensure that technological innovations and interactive strategies are not fragmented or superficial but are systematically aligned with pedagogical objectives, learner characteristics, and measurable outcomes. Therefore, the aim of this article is to examine the theoretical foundations and practical application of pedagogical technologies and interactive methods, using conceptual analysis and illustrative examples from contemporary educational practice.

The methodology of this study is based on a conceptual and analytical approach that seeks to illuminate how pedagogical technologies operate as organized instructional systems within contemporary educational practice. To achieve this aim, the research draws on a systematic analysis of scholarly literature and a comparative examination of case-based educational practices across different contexts. The theoretical grounding combines insights from instructional design, as articulated by Gagné, constructivist perspectives developed by Bransford and colleagues, and the critical pedagogical principles advanced by Freire, allowing for a multidimensional interpretation of how technological and interactive approaches function in structured learning environments.

The source base for the study includes classical and modern works on instructional design, learning theory, and teacher education, complemented by empirical research published in peer-reviewed journals, educational policy reports, and case studies that document the use of technological and interactive methods in practice. These materials were analyzed through the five widely recognized criteria of pedagogical technology-conceptuality, systematicity, efficiency, manageability, and reproducibility-which provide a coherent framework for evaluating the instructional logic of various methods. This framework also informed the development of an alignment matrix that links learning objectives, content selection, instructional activities, and assessment procedures into a unified system.

The research proceeded through several stages: first, the theoretical criteria associated with pedagogical technology were identified; second, representative interactive teaching methods were selected; third, these methods were compared and evaluated in relation to the selected criteria; and finally, a practical alignment matrix was designed to guide the operationalization of technological approaches in instructional planning.

The findings demonstrate that pedagogical technology constitutes a structured and theory-driven model of teaching and learning aimed at achieving predictable and measurable outcomes. As Reigeluth has noted, pedagogical technology represents “a systematic process designed to improve the effectiveness and efficiency of instruction,” a definition that underscores its integrative nature. Its core components-objectives, content, methods, means, and assessment-form a logically connected system that supports learner development. Constructivist and humanistic theories reinforce this structure by emphasizing active engagement, reflective learning, and social interaction, themes deeply rooted in the work of Vygotsky and Rogers.

Empirical evidence from various educational settings further illustrates the value of coherent technological and interactive approaches. In Uzbekistan, the introduction of blended learning in primary schools resulted in a 22 percent increase in student engagement; in Finland, project-based STEM activities enhanced students’ critical thinking and collaboration skills; in South Korea, gamified English lessons improved vocabulary retention and classroom participation; and in Kazakhstan, collaborative moral-education discussions contributed to significant gains in moral reasoning. Collectively, these cases suggest that interactive methods are most effective when embedded within a well-structured pedagogical technology that aligns activities with learning objectives and assessment.

The analysis highlights several key dimensions. First, successful innovation requires conceptual alignment with established learning theories. For example, project-based learning fits naturally within Vygotskian social constructivism, which views cognitive growth as a socially mediated process. Second, systematicity is essential: instructional goals, learning activities, and assessment practices must form a coherent whole. Fragmented or random use of methods and digital tools tends to diminish instructional impact. Third, efficiency gains are possible when digital resources are combined with collaborative learning, though such results depend heavily on teachers' competence and the quality of institutional infrastructure. The teacher's role becomes that of a designer and facilitator who must be skilled in diagnosing learners' needs, adapting methods, and managing interaction.

The discussion also points to institutional and cultural factors that shape the adoption of interactive pedagogies. In some educational environments, traditional expectations and norms may impede innovation, making gradual integration and policy support essential for sustainable change. At the same time, several challenges persist: reliance on technology without pedagogical grounding, increased teacher workload in preparing technology-enhanced lessons, unequal access to digital resources, and the difficulty of assessing complex interactive activities. Addressing these issues requires systematic planning, professional development, and ongoing evaluation.

Despite these challenges, pedagogical technologies offer clear advantages over conventional didactic approaches. They support individualized learning paths, strengthen student agency, enable richer feedback mechanisms, and promote interdisciplinary collaboration. Research consistently shows that interactive and technologically supported methods lead to higher motivation, improved retention, and enhanced higher-order thinking skills, confirming their relevance in modern education.

Conclusion. The application of pedagogical technologies and interactive methods represents a paradigm shift from content delivery to learning design and facilitation. When grounded in sound theoretical principles and applied systematically, these methods lead to measurable improvements in learning quality, motivation, and cognitive development. The key lies in achieving alignment-between objectives, methods, technology, and assessment. Teachers must therefore act as reflective practitioners, continuously designing, monitoring, and refining their instructional technologies.

References.

1. Bransford, John D., Ann L. Brown, and Rodney R. Cocking, editors. How People Learn: Brain, Mind, Experience, and School. National Academy Press, 2000.
2. Freire, Paulo. Pedagogy of the Oppressed. Continuum, 1970.
3. Gagné, Robert M. The Conditions of Learning and Theory of Instruction. Holt, Rinehart and Winston, 1985.
4. Guskey, Thomas R. Evaluating Professional Development. Corwin Press, 2000.
5. Kim, Hyo Jung. "Gamified English Vocabulary Learning: Effects on Motivation and Retention." Computers & Education, vol. 172, 2021, pp. 1–12.
6. Lakkala, Minna, and Liisa Ilomäki. "Project-Based Learning in Finnish Schools: Pedagogical Practices and Outcomes." Education Inquiry, vol. 13, no. 2, 2022, pp. 217–236.
7. Reigeluth, Charles M., editor. Instructional-Design Theories and Models: A New Paradigm of Instructional Theory. Lawrence Erlbaum Associates, 1999.
8. Rogers, Carl R. Freedom to Learn. Charles Merrill, 1969.
9. Vygotsky, Lev S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.

Alibayeva Lola Namozovna
Termiz davlat universiteti, Rus va jahon adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi
E-mail: alibayeval@tersu.uz

SHARQ VA RUS MADANIY AN'ANALARI O'RTASIDAGI BADIIY MULOQOT

Annotatsiya. *Maqolada Sharq va rus madaniy an'analari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va badiiy muloqotning tarixiy shakllanish jarayoni tahlil qilinadi. Rus adabiyotida Sharq obrazining paydo bo'lishi va rivojlanishi, shuningdek, Sharq adabiyoti va falsafasining rus yozuvchilari ijodiga ko'rsatgan ta'siri ko'rib chiqiladi. Maqolada madaniy dialogning ikki yo'nalishi - rus adabiyotida Sharq obrazining shakllanishi va rus madaniyatining Sharqqa ta'siri o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ochib berilgan. Tadqiqot A. S. Pushkin, M. Yu. Lermontov, L. N. Tolstoy, S. A. Yesenin va boshqa yozuvchilarning asarlari misolida tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Sharq, rus madaniyati, badiiy muloqot, orientalizm, madaniyatlararo dialog, estetika, falsafa.*

ARTISTIC DIALOGUE BETWEEN EASTERN AND RUSSIAN CULTURAL TRADITIONS

Abstract. *The article analyzes the historical process of the formation of the interaction between the Eastern and Russian cultural traditions and artistic dialogue. The emergence and development of the image of the East in Russian literature, as well as the influence of Eastern literature and philosophy on the work of Russian writers, are considered. The article reveals the inextricable link between two directions of cultural dialogue - the formation of the image of the East in Russian literature and the influence of Russian culture on the East. The study is analyzed using the examples of the works of A. S. Pushkin, M. Yu. Lermontov, L. N. Tolstoy, S. A. Yesenin and other writers.*

Key words: *East, Russian culture, artistic dialogue, orientalism, intercultural dialogue, aesthetics, philosophy.*

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ДИАЛОГ МЕЖДУ ВОСТОЧНЫМИ И РУССКИМИ КУЛЬТУРНЫМИ ТРАДИЦИЯМИ

Аннотация. *В статье анализируется исторический процесс становления взаимодействия восточной и русской культурных традиций и художественного диалога. Рассматривается становление и развитие образа Востока в русской литературе, а также влияние восточной литературы и философии на творчество русских писателей. В статье раскрывается неразрывная связь двух направлений культурного диалога – формирования образа Востока в русской литературе и влияния русской культуры на Восток. Исследование анализируется на примере произведений А. С. Пушкина, М. Ю. Лермонтова, Л. Н. Толстого, С. А. Есенина и других писателей.*

Ключевые слова: *Восток, русская культура, художественный диалог, ориентализм, межкультурный диалог, эстетика, философия.*

Kirish. Sharq va rus madaniy an'analari o'rtasidagi badiiy muloqot insoniyat tarixida madaniyatlararo integratsiyaning yorqin namunasidir. Rus madaniyati, ayniqsa XVIII–XIX asrlarda, Sharq madaniy merosidan ilhom olgan, uni estetik, falsafiy va axloqiy manba sifatida o'zlashtirgan. Sharq esa rus adabiyoti orqali o'zining boy ma'naviy an'analarini, go'zallik haqidagi tasavvurlarini va hayot falsafasini jahon miqyosida ifoda etish imkoniga ega bo'ldi.

Rus yozuvchilari uchun Sharq – ekzotika va sirli olam emas, balki inson qalbi, ma'naviy izlanish va go'zallik haqidagi abadiy qadriyatlar ramzi bo'lgan. Shu jihatdan, rus adabiyotidagi Sharq obrazi G'arbning "orientalistik" stereotiplaridan farqli ravishda yanada chuqur, falsafiy mazmunga ega edi. Bu jarayon madaniy muloqotning ikki yo'nalishda kechganini ko'rsatadi: bir tomondan, rus adabiyoti

Sharqdan ilhom olgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, rus adabiyoti va falsafasi ham Sharq madaniy tafakkuriga ta’sir ko‘rsatgan.

Natijada, Sharq va rus madaniy an’analari o‘rtasidagi badiiy muloqot ikki tomonlama jarayon sifatida - estetik, axloqiy va ruhiy qadriyatlarning o‘zaro boyishiga xizmat qilgan.

Sharq va rus madaniy an’analari o‘rtasidagi badiiy muloqot zamonaviy san’at, adabiyot va madaniyatshunoslikda muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi. Tarixiy jarayon davomida Sharq va Rossiya madaniyatlari o‘zaro aloqada bo‘lgan, bir-birining estetik va g‘oyaviy xususiyatlarini boyitgan. Badiiy muloqot nafaqat turli madaniy tizimlar orasidagi o‘zaro tushunishni kuchaytiradi, balki ijodiy yangiliklar va yangi badiiy uslublar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Sharq madaniy an’analari o‘zining poetik tafakkuri, falsafiy chuqurligi va ramziy ifodalar orqali rus badiiy an’analari bilan o‘zaro uyg‘unlashadi. Bu jarayon nafaqat adabiyot va san’at sohalarini boyitadi, balki madaniyatlararo dialogni rivojlantirish va xalqaro estetik qadriyatlarni shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, badiiy muloqot orqali ikki madaniyatning ijtimoiy, tarixiy va falsafiy kontekstlari o‘zaro bog‘lanadi, yangi ijodiy interpretatsiyalar va badiiy loyihalar yuzaga keladi.

Pedagogik va ilmiy nuqtai nazardan qaraganda, Sharq va rus madaniy an’analari o‘rtasidagi badiiy muloqotni o‘rganish yosh avlodni madaniy qadriyatlar bilan tanishtirish, estetik didni rivojlantirish va global madaniyat maydonida ularning o‘zaro tushunishini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, tadqiqotning asosiy maqsadi Sharq va rus madaniy an’analari o‘rtasidagi badiiy muloqotning xususiyatlarini aniqlash, uning ijodiy va estetik ahamiyatini o‘rganishdir.

Ushbu tadqiqot badiiy muloqot jarayonida yuzaga kelgan estetik va g‘oyaviy uyg‘unliklarni tahlil qiladi, Sharq va rus madaniy an’analari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni aniqlaydi va badiiy jarayonlarning rivojlanishiga ilmiy yondashuvni taklif qiladi. Shu bilan birga, tadqiqot nafaqat tarixiy va nazariy jihatlarni o‘rganadi, balki zamonaviy san’at va adabiyotdagi badiiy yangiliklarni ham yoritadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotning metodologik asosi madaniyatlararo yondashuv, badiiy-komparativ tahlil hamda falsafiy-semantik tahlil metodlariga tayangan holda ishlab chiqildi. Ushbu yondashuvlar Sharq va rus madaniy an’analari o‘rtasidagi badiiy muloqotni ko‘p qirrali, tizimli va konseptual jihatdan o‘rganish imkonini beradi.

Avvalo, madaniyatlararo yondashuv tadqiqotning nazariy asosini tashkil etadi. Bu yondashuv doirasida Sharq va rus madaniyatlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar, ularning badiiy qadriyatlar tizimidagi o‘xshash va farqli jihatlar, hamda madaniy semantika darajasidagi uyg‘unlik tahlil qilindi. Madaniyatlararo tahlilning qo‘llanilishi rus adabiyotida Sharq obrazining nafaqat estetik, balki sotsiokultural, ma’naviy va falsafiy kontekstlarda shakllanganligini ochib beradi [2, 725].

Badiiy-komparativ tahlil esa ikki madaniyat o‘rtasidagi badiiy muloqotning konkret adabiy ifodalarini aniqlashda qo‘llanildi. Bu usul orqali rus adabiyotidagi Sharq motivlari, timsollari va estetik qadriyatlari Sharq adabiy an’analari, afsonaviy va diniy obrazlari bilan solishtirildi. Ayniqsa, A. S. Pushkin, M. Yu. Lermontov, N. V. Gogol, L. N. Tolstoy, S. Yesenin kabi yozuvchilarning asarlarida Sharq manzaralari, g‘oyaviy obrazlar va ma’naviy izlanishlar qanday talqin qilinganligi chuqur tahlil etildi [5, 78]. Ushbu yondashuv madaniyatlararo muloqot jarayonini adabiy matnlar orqali ifodalash imkonini berdi.

Shuningdek, falsafiy-semantik tahlil metodidan ham samarali foydalanildi. Bu yondashuv rus adabiyotida Sharq konseptining semantik maydonini, ya’ni “Sharq” tushunchasi bilan bog‘liq ma’naviy, axloqiy va ontologik mazmun qatlamlarini aniqlashga yordam berdi. Sharq obrazining inson ruhiyati, tabiat, muhabbat, go‘zallik, ilohiylik va ezgulik timsollari bilan uyg‘unlashuvi falsafiy tahlil asosida izohlandi.

Natijalar va tahlil. Rus adabiyotida Sharq obrazining shakllanishi dastlab ekzotik va romantik yo‘nalishda kechgan. XVIII–XIX asrlarda rus yozuvchilari Sharqni g‘ayritabiiy go‘zallik, ruhiy osoyishtalik va ma’naviy poklik makoni sifatida tasvirlaganlar. Bu tasvirlar orqali ular inson qalbining ichki dunyosini ochishga, ruhiy muvozanat va ma’naviy uyg‘unlik g‘oyalarini ifodalashga intilganlar.

A. S. Pushkin Sharq obrazini muhabbat va go‘zallik ramziga aylantirgan bo‘lsa, Lermontov uni insoniy azob-u iztirob, yovuzlik va ezgulik o‘rtasidagi kurash sahnasiga aylantirdi. Tolstoy esa Sharq falsafasini inson ruhining ozodlanishi va ma’naviy komillikka erishish g‘oyasi bilan bog‘ladi [1, 549].

Sharq falsafasi - xususan, tasavvuf, islom axloqiy tamoyillari va hind-buddaviy g‘oyalar - rus yozuvchilarining ma’naviy dunyosiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Tolstoyning kechki falsafasida “ichki poklanish” va “zo‘ravonliksiz hayot” g‘oyalari Sharq falsafasi bilan uzviy bog‘liqdir. Bu g‘oyalar keyinchalik rus diniy-falsafiy tafakkurida ham o‘z aksini topgan.

Sharq va rus madaniy muloqoti bir yoqlama jarayon bo‘lmagan. XIX–XX asrlarda rus adabiyoti va madaniyati Sharq xalqlari tafakkuriga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Masalan, Markaziy Osiyo, Kavkaz va Eron adabiyotida rus realizmi va romantizmi ta’sirida yangi badiiy shakllar paydo bo‘lgan. Shu tariqa, bu o‘zaro ta’sir madaniyatlarning bir-birini boyitishiga sabab bo‘lgan.

Sharq va rus madaniyatlari o‘rtasidagi badiiy muloqot mohiyatan ruhiy uyg‘unlik va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi [3, 106]. Bu muloqotda har ikki madaniyat insonni ma’naviy kamolotga, ichki go‘zallikka, ezgulik va tinchlikka undaydi. Shu bois bu jarayon faqat tarixiy emas, balki estetik-falsafiy hodisa sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Sharq va rus madaniy an’analari o‘rtasidagi badiiy muloqot insoniyat tarixidagi eng sermahsul madaniy integratsiya jarayonlaridan biridir. Rus adabiyoti Sharq orqali o‘zining ma’naviy va estetik qirralarini boyitgan bo‘lsa, Sharq madaniyati rus tafakkuri orqali yangi talqin va jahon miqyosidagi e’tirofga sazovor bo‘lgan.

Bu o‘zaro ta’sir natijasida badiiy tafakkur yanada universallashgan, madaniyatlar o‘rtasida o‘zaro tushunish, hurmat va ruhiy yaqinlik tamoyillari shakllangan. Shu bois, Sharq va rus madaniy muloqotini o‘rganish nafaqat tarixiy, balki bugungi globallashuv davrida madaniy identifikatsiyani mustahkamlash uchun ham dolzarbdir.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Sharq va rus madaniy an’analari o‘rtasidagi badiiy muloqot ikki turli madaniyat o‘rtasida chuqur va murakkab aloqalarni shakllantiradi. Badiiy muloqot orqali turli madaniy kontekstlar o‘zaro ta’sir qiladi, bir-birining estetik va g‘oyaviy xususiyatlarini boyitadi. Sharqiy an’analar o‘zining poetik tafakkuri, ramziy va falsafiy yo‘nalishlari bilan rus badiiy an’analari bilan uyg‘unlashadi, shu orqali yangi ijodiy ifodalar va uslublar yuzaga keladi.

Badiiy muloqot jarayonida Sharq va rus madaniy an’analari o‘zaro o‘rganadi va o‘zaro ta’sirchanlik hosil qiladi. Bu jarayon nafaqat san’at, adabiyot va falsafa sohalarini boyitadi, balki madaniyatlararo dialog va global madaniy integratsiyaga hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, badiiy muloqot orqali o‘quvchilar va adabiyot ixlosmandlari ikki madaniyatni chuqurroq tushunadi, ularning estetik qadriyatlarini qadrlashni o‘rganadi.

Xulosa qilib aytganda, Sharq va rus madaniy an’analari o‘rtasidagi badiiy muloqot nafaqat ijodiy yangiliklar yaratadi, balki madaniyatlararo tushunish, bag‘rikenglik va estetik didni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, badiiy muloqotning rivojlanishi zamonaviy san’at va adabiyotning ajralmas qismi hisoblanadi hamda global madaniyat maydonida muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Joraboyev B., Mamadiyorova X. Sharq tillarida tarjimaning nazariy va amaliy masalalar // Scientific Progress. – 2021. – T. 2, № 2. – S. 546–553.
2. Jumanova M. Tillarni o‘rganish va madaniyatlararo muloqotning ijtimoiy ahamiyati // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2022. – T. 2, Special Issue 20. – S. 724–728. – DOI: 10.24412/2181-1784-2022-20-724-728.
3. Niyazova M. Sharq va g‘arb sentimental nasri an’analari // Наука и инновация. – 2024. – № 2(33). – S. 104–108. – URL: https://inlibrary.uz/index.php/scin/article/view/51204
4. Said E. Orientalism. – New York: Vintage Books, 1979.
5. Виноградов В. В. История русской литературы XIX века. – Москва: Наука, 1985.
6. Лихачёв Д. С. Поэтика древнерусской литературы. – Ленинград, 1979.
7. Эткинд Е. Внутренний человек и внешняя речь. – Москва, 1998.

Jakbarova Nasiba
A senior teacher at Namangan State Institute of Foreign Languages, (PhD)
E-mail: jakbarovanastinka@gmail.com

ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN LANGUAGE PEDAGOGY

Abstract. *This article examines the transformative impact of Artificial Intelligence (AI) on language pedagogy, emphasizing its role in personalizing instruction, enhancing learner engagement, and providing real-time feedback. Drawing on mixed-methods research involving undergraduate EFL learners and language instructors, the study demonstrates that AI-powered tools-such as ChatGPT, Duolingo, Grammarly, and ELSA Speak-significantly improve learners' writing accuracy, vocabulary retention, and pronunciation. While AI supports individualized learning through adaptive algorithms and intelligent tutoring systems, the findings also highlight limitations related to cultural nuance, ethical concerns, dependence on technology, and data privacy. The discussion underscores the importance of teacher facilitation, ethical governance, and balanced integration to ensure AI serves as a complementary tool rather than a replacement for human pedagogy.*

Key words: *Artificial Intelligence, language pedagogy, AI tools, adaptive learning, intelligent tutoring systems, language learning technologies*

TIL PEDAGOGIKASIDA SUN'IY INTELLEKT

Annotatsiya. *Ushbu maqola sun'iy intellektning (SI) til o'qitish metodikasiga ta'sirini tahlil qiladi va ta'lim jarayonida o'quvchilarga moslashtirilgan yondashuv, real vaqtli fikr-mulohaza hamda yuqori darajadagi motivatsiyani ta'minlashdagi imkoniyatlarini yoritadi. Aralash tadqiqot usuli asosida o'tkazilgan tahlillar Duolingo, Grammarly, ChatGPT va ELSA Speak kabi SI vositalari talabalarning yozma nutq aniqligi, lug'at boyligi va talaffuz ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirganini ko'rsatdi. Shuningdek, maqolada SI texnologiyalarining cheklovlari-madaniy kontekstni yetarli tushunmaslik, etika, ma'lumotlar xavfsizligi va texnologiyaga qaramlik masalalari-yoritilgan. Xulosa sifatida, SI inson o'qituvchini to'liq almashtirmasligi, balki pedagogik jarayonni to'ldiruvchi vosita sifatida oqilona va etik me'yorlarda qo'llanishi zarurligi ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, til o'qitish metodikasi, SI vositalari, adaptiv ta'lim, intellektual o'qitish tizimlari, til o'rganish texnologiyalari.*

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ПРЕПОДАВАНИИ ЯЗЫКОВ

Аннотация. *Статья посвящена анализу влияния искусственного интеллекта (ИИ) на методику преподавания языков и подчеркивает его потенциал в персонализации обучения, повышении мотивации студентов и обеспечении мгновенной обратной связи. На основе смешанных методов исследования показано, что ИИ-платформы-такие как Duolingo, Grammarly, ChatGPT и ELSA Speak-существенно улучшают точность письменной речи, словарный запас и произносительные навыки обучающихся. При этом автор отмечает существующие ограничения технологий ИИ, связанные с интерпретацией культурных нюансов, этическими рисками, зависимостью от цифровых ресурсов и вопросами конфиденциальности данных. В заключение подчеркивается, что ИИ должен рассматриваться как вспомогательное средство, а не как замена преподавателя, и его использование требует внимательного, этически ориентированного подхода.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, методика преподавания языков, ИИ-инструменты, адаптивное обучение, интеллектуальные обучающие системы, языковые технологии.*

Introduction. Artificial Intelligence (AI) has revolutionized multiple sectors of modern life, and education has been one of its most influential domains. Advancements in machine learning, deep learning, and natural language processing (NLP) have enabled the creation of adaptive systems capable of

understanding, analyzing, and generating human language [1]. In language pedagogy, AI has emerged as a transformative tool that personalizes instruction, provides real-time feedback, and enhances learner engagement. The growing global demand for multilingual communication and diverse learner needs have accelerated the integration of AI-driven tools such as ChatGPT, Duolingo, Grammarly, and ELSA Speak into classrooms [2].

Traditional language instruction often struggles to meet individual learning paces, styles, and feedback requirements. Teachers face challenges in providing continuous, error-specific correction across listening, speaking, reading, and writing skills [3]. Moreover, students outside immersive environments lack access to authentic communicative practice with native speakers. AI helps bridge these gaps through adaptive tutoring systems, conversational bots, and pronunciation correction tools powered by automatic speech recognition (ASR).

This paper explores the pedagogical implications, benefits, and limitations of integrating AI into language education. It further examines how educators can ethically and effectively incorporate AI technologies to enhance learner autonomy and communicative competence while ensuring equity and data security.

2. Literature Review

The evolution of AI in education can be traced back to the era of Computer-Assisted Language Learning (CALL) in the 1960s, which primarily focused on repetitive grammar drills and vocabulary exercises [4]. With the rise of multimedia in the 1990s and the Internet in the 2000s, CALL evolved into more interactive and communicative forms. In the 2010s and beyond, the emergence of AI, big data, and NLP led to the development of Intelligent Tutoring Systems (ITSs) and adaptive platforms that analyze learner performance in real-time [5].

Intelligent Tutoring Systems (ITS) are one of the most significant innovations in AI-driven education. They dynamically adjust instructional content, feedback, and assessment based on each learner's progress [6]. For instance, Duolingo employs reinforcement learning algorithms that adapt question difficulty according to user performance, ensuring personalized progression. Similarly, Grammarly uses NLP and deep learning to detect grammatical, stylistic, and semantic errors in writing [7]. ELSA Speak leverages speech recognition to provide real-time pronunciation analysis and visual feedback, enabling learners to refine phonetic accuracy [8].

Chatbots such as ChatGPT offer authentic communication practice in a non-judgmental environment, reducing learner anxiety and increasing engagement [9]. Google Translate, once limited to word-for-word substitution, now employs neural machine translation (NMT) that interprets context and idiomatic expressions, significantly improving accuracy [10]. These tools have become instrumental in providing flexible, 24/7 access to personalized language learning environments.

Despite their benefits, AI applications face criticism for potential overreliance, ethical concerns, and lack of socio-emotional depth [11]. AI cannot fully interpret cultural nuances, humor, or sarcasm, which are integral to communicative competence. Additionally, algorithmic bias in training data can reinforce linguistic stereotypes or inaccuracies [12]. Hence, teachers must remain central as facilitators and critical evaluators, integrating AI thoughtfully into human-centered pedagogy.

3. Methodology

This study employs a mixed-methods approach, combining quantitative and qualitative analysis to explore the pedagogical impact of AI in language learning. Quantitatively, pre- and post-test data from EFL learners using AI-based platforms (e.g., Duolingo and Grammarly) are compared to a control group using traditional materials. Qualitatively, semi-structured interviews with language teachers and learners provide insights into perceptions, challenges, and motivational shifts [13].

Participants include 120 undergraduate EFL students from three universities and 15 English instructors trained in technology-assisted pedagogy. Data are collected through proficiency tests, usage logs, and reflective journals. Quantitative data are analyzed using paired-sample t-tests to measure performance differences, while qualitative responses are examined through thematic analysis [14].

Ethical considerations include participant consent, anonymization of AI usage data, and compliance with data protection laws such as GDPR. Bias mitigation strategies are applied by triangulating quantitative and qualitative data to ensure reliability and validity [15].

4. Results

The quantitative findings indicate statistically significant improvements in learners' grammar, vocabulary, and pronunciation accuracy when AI tools are integrated into instruction [16]. For example, the Grammarly-assisted group demonstrated a 28% increase in writing accuracy, while Duolingo users improved vocabulary retention by 22% compared to the control group. Pronunciation-focused learners using ELSA Speak showed higher intelligibility scores on phoneme recognition tasks [17].

Qualitative data revealed positive learner attitudes toward AI-enhanced learning. Participants reported increased motivation, autonomy, and engagement due to immediate feedback and gamified learning experiences [18]. However, some expressed concerns regarding dependency on technology and the impersonality of AI interaction, particularly in developing cultural and pragmatic competence.

5. Discussion

The results confirm that AI tools significantly enhance the personalization and efficiency of language learning, aligning with constructivist and sociocultural theories of education [19]. According to Vygotsky's concept of the Zone of Proximal Development (ZPD), AI functions as a form of 'scaffolding'-providing learners with adaptive support until mastery is achieved [20]. Similarly, Krashen's Input Hypothesis emphasizes the importance of comprehensible input, which AI facilitates through adaptive reading and listening materials tailored to proficiency levels.

AI's integration redefines the teacher's role from content deliverer to facilitator and mentor. Teachers curate learning experiences, interpret AI data, and provide socio-emotional support. AI handles repetitive tasks like grading, freeing educators to focus on creative and interpersonal aspects of instruction [21]. Nonetheless, challenges such as digital literacy gaps, privacy concerns, and inequitable access persist, especially in developing educational contexts [22].

The ethical dimension of AI in language pedagogy demands careful governance. Developers must prioritize transparency, data security, and inclusivity. Institutions should establish frameworks for responsible AI use, ensuring that technology complements rather than replaces human interaction.

6. Conclusion

Artificial Intelligence holds transformative potential in language pedagogy by enhancing personalization, motivation, and feedback efficiency. However, its success depends on thoughtful integration, teacher readiness, and ethical safeguards. AI cannot substitute human empathy, cultural awareness, or creativity but can serve as a powerful partner in delivering equitable and adaptive education. Future research should focus on longitudinal studies assessing the long-term impact of AI on learner autonomy, intercultural competence, and assessment validity.

References.

1. Liang J.C., Hwang G.J., Chen M.R.A. Roles and research foci of artificial intelligence in language education. – London: Routledge, 2021.

2. Doğan Y., Talan T. Artificial intelligence in foreign language learning: A bibliometric analysis. – Ankara: Journal of Pedagogical Research, 2025. – 12 p.

3. Gutiérrez M. Pedagogical challenges in large-scale EFL classrooms. – Madrid: Language Teaching Today, 2023. – 17 p.

4. Beatty K. Teaching and researching computer-assisted language learning. – New York: Routledge, 2010. – 220 p.

5. Peng T. The evolution of AI in educational technology: A historical perspective. – Tokyo: Educational Technology & Society, 2024. – 18 p.

6. Woo J.H., Choi H. Systematic review of AI-based language learning tools. – London: Educational Review, 2021. – 19 p.

7. Grammarly. About our AI writing assistant. – San Francisco: Grammarly Press, 2023. – 15 p.

8. ELSA Speak. AI pronunciation coach for learners. – California: ELSA Publications, 2023. – 10 p.

9. OpenAI. ChatGPT for education. – San Francisco: OpenAI Press, 2024. – 20 p.

10. Google Translate. Neural machine translation update. – California: Google Publications, 2024. – 14 p.

11. Butarbutar R. Artificial intelligence for language learning and teaching. – Jakarta: Englisia Journal, 2024. – 16 p.

12. Floridi L., Cowls J. A unified framework of five principles for AI in education. – Berlin: AI & Ethics, 2022. – 21 p.

13. Creswell J.W. Research design: Qualitative, quantitative, and mixed methods approaches. – Los Angeles: Sage Publications, 2018. – 304 p.

14. Braun V., Clarke V. Thematic analysis: A practical guide. – London: Sage, 2021. – 180 p.

15. European Commission. General Data Protection Regulation (GDPR). – Brussels: EU Publications, 2023. – 120 p.

16. Frontiers. Artificial intelligence in language instruction: Impact on English learning. – Lausanne: Frontiers in Psychology, 2023. – 22 p.

17. Xu J., Lin S., Huang T. Speech recognition in CALL. – Seoul: CALL Journal, 2022. – 19 p.

18. Klimova B., Seraj P. AI chatbots and student motivation. – Berlin: Education and Information Technologies, 2023. – 24 p.

19. Krashen S.D. The input hypothesis: Issues and implications. – London: Longman, 1985. – 120 p.

20. Vygotsky L.S. Mind in society: The development of higher psychological processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.

21. Kim E., Lee H., Park J. Teachers' perceptions of AI integration in ESL classrooms. – London: Language Teaching Research, 2023.

22. UNESCO. AI and education: Guidance for policymakers. – Paris: UNESCO Publishing, 2024. – 210 p.

Axtamova Nigora Baxtiyorovna
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail:axtamova.nigora@mail.ru

“O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDAGI QAVM-QARINDOSHLIK NOMLARINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy ishda Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida qo‘llanilgan qavm-qarindoshlik nomlari lingvokulturologik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Asarda uchraydigan ota, ona, opa atamalar nafaqat biologik rishtalarni, balki o‘zbek xalqining ijtimoiy tuzilmasi, madaniy qadriyatlari va ruhiy olamini aks ettiradi. Tadqiqotda bu nomlarning ijtimoiy maqomi, adabiy kontekstdagi roli hamda ularning milliy mentalitetdagi o‘rni o‘rganiladi. Lingvokulturologik tahlil orqali roman qahramonlari o‘rtasidagi munosabatlar, hurmat, mehr-oqibat, ijtimoiy mas’uliyat kabi qadriyatlar til vositasida qanday ifodalanganiga e’tibor qaratiladi. Qarindoshlik tizimi faqatgina biologik aloqalarni emas, balki xalqning tarixiy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini ham aks ettiruvchi lingvomadaniy hodisa sifatida ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *qarindoshlik nomlari, madaniyat, til, urf-odat, milliy qadriyatlar, lingvomadaniyat.*

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РОДСТВЕННЫХ И РОДОВЫХ ТЕРМИНОВ В РОМАНЕ "ПРОШЕДШИЕ ДНИ"»

Аннотация. *В данной научной работе на основе лингвокультурологического подхода анализируются имена людей и родственные связи, используемые в романе Абдуллы Кадыри «Минувшие дни». Термины «отец», «мать», «сестра», встречающиеся в произведении, отражают не только биологические связи, но и социальную структуру, культурные ценности и духовный мир узбекского народа. В исследовании изучается социальный статус этих имен, их роль в литературном контексте и место в национальном менталитете. Посредством лингвокультурологического анализа уделяется внимание тому, как отношения между героями романа, такие ценности, как уважение, доброта и социальная ответственность, выражаются через язык. Система родства рассматривается как лингвокультурный феномен, отражающий не только биологические связи, но и исторические, социальные и культурные особенности народа.*

Ключевые слова: *родственные имена, культура, язык, традиции, национальные ценности, лингвокультура.*

LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF KINSHIP TERMS IN THE NOVEL ‘BYGONE DAYS’”

Abstract. *In this scientific work, the names of people and kinship used in the novel “By gone Days” by Abdulla Qodiriy are analyzed based on a linguo-cultural approach. The terms “father”, “mother”, “sister” found in the work reflect not only biological ties, but also the social structure, cultural values and spiritual world of the Uzbek people. The study studies the social status of these names, their role in the literary context, and their place in the national mentality. Through linguo-cultural analysis, attention is paid to how the relationships between the heroes of the novel, values such as respect, kindness, and social responsibility are expressed through language. The kinship system is considered as a linguo-cultural phenomenon that reflects not only biological ties, but also the historical, social, and cultural characteristics of the people.*

Key words: *kinship names, culture, language, traditions, national values, linguistic culture.*

Kirish. Qarindoshlik atamalari har bir xalqning tilida o‘ziga xos tarzda shakllangan bo‘lib, ular orqali jamiyatdagi ijtimoiy tuzilma, oila qadriyatlari va madaniy me’yorlar ifodalanadi. Ayniqsa, o‘zbek tilida qarindoshlik nomlari murakkab, ammo aniqligi bilan ajralib turadi. Bu esa o‘z navbatida xalqimizning qadimiy oilaviy an’analari, hurmat-izzatga asoslangan ijtimoiy munosabatlari va tarbiya

tizimining tilga singganligining ifodasidir. Qarindoshlik terminlari har bir xalqning tilida va madaniyatida muhim ijtimoiy-madaniy vazifani bajarishi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular nafaqat biologik yoki qon-qarindoshlik munosabatlarini ifodalaydi, balki xalqning urf-odatlari, qadriyatlari, dunyoqarashi, tarixiy taraqqiyoti va ijtimoiy tuzilmasi haqida ham muhim axborot beradi. Qarindoshlik nomlari orqali xalqning o‘ziga xos milliy o‘zligi namoyon bo‘ladi. O‘zbek xalqining qadimiy oilaviy tuzilmasi, oila, urf-odat va tarbiya tizimi til orqali, ma;lum ma’noda qarindoshlik atamalari orqali ham ifodalanadi. Qarindoshlik atamalari - bu faqat tilshunoslik emas, balki madaniyatshunoslik, etnografiya va sotsiologiya bilan uzviy holda o’rganiladigan nomlardir. Ular millatning qadimiy urf-odatlari, jamiyat tuzilmasi va insonlar orasidagi munosabatlar tizimini o’zida namoyon qiladi. O‘zbek tilidagi qarindoshlik nomlari xalqning madaniy merosi, axloqiy me’yorlari va ijtimoiy qadriyatlarini ifodalab beradi.

Asosiy qism.O‘zbek qarindoshlik nomlari nafaqat qon-qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi terminlar emas, balki xalqning milliy o'zligi, madaniy qadriyatlari va ma’naviyatining tirik ifodasidir. Ular orqali o‘zbek xalqining oilaga, katta-kichik munosabatlariga va milliy an'analariga bo'lgan sadoqati namoyon bo'ladi. Qarindoshlik nomlari har bir millatning milliy o‘zligini, madaniy merosi va dunyoqarashini aks ettiruvchi lingvomadaniy manbadir. Qarindoshlik atamalari - bu tilimizning nafaqat leksik boyligi, balki xalqimizning ko‘p asrlik madaniyati, tarbiyasi va urf-odatlarining yorqin aksidir. O‘zbek tilidagi qarindoshlik nomlari jamiyatdagi o‘zaro hurmat, mehr-muhabbat va mas’uliyat kabi qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Ularni bizga meros bo’lib qolgan o’lmas asarlarimiz orqali o‘rganishimiz milliy madaniyatimizning chuqur qatlamlarini yanada teranroq anglashimizga xizmat qiladi.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani – XX asr o‘zbek adabiyotining ilk yirik realistik romani bo‘lib, unda nafaqat voqealar, balki o‘zbek xalqining tarixiy hayoti, ijtimoiy tuzilmasi, oila modeli va madaniy qadriyatlari keng yoritiladi. Asarda ishlatilgan qarindoshlik nomlari - bu xalq tilining, tafakkurining va madaniyatining ifodasidir. “O‘tkan kunlar” romanida nafaqat sevgi va ijtimoiy adolatsizlik muammolari ko‘tarilgan, balki o‘zbek xalqining tarixiy oila tizimi, ijtimoiy tuzilmasi va madaniy qadriyatlari ham o’z aksini topgan. Asardagi qarindoshlik nomlari – o‘zbek xalqining ma’naviy dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlarining tili sifatida xizmat qiladi. Ushbu tahlil aynan shu qarindoshlik nomlari orqali asarda tasvirlangan oila, jamiyat va madaniyat manzarasini ochib berishga xizmat qiladi. “O‘tkan kunlar” asaridagi qarindoshlik nomlari orqali o‘zbek xalqining urug‘-aymoq tuzilmasi, oilaviy tartib-intizomi, hurmat-izzat, an’anaviy nikoh tushunchasi va ayol erkak munosabatlari aniq tasvirlangan. Bu nomlar asarda lingvokulturologik belgilar sifatida xizmat qiladi - ya’ni tilning so‘z boyligi orqali madaniy, ijtimoiy, tarixiy tafakkur ifodalanadi. Shu jihatdan, asar tili nafaqat badiiy, balki madaniyatshunoslik manbai sifatida ham qimmatlidir. Ular lingvokulturologik jihatdan, ya’ni til va madaniyat tutashgan nuqtada tahlil qilinadi.

Asarda Yusufbek hoji - an’anaviy o‘zbek otasi obrazidir. U:

- O‘z avlodining ma’naviy poydevorini mustahkamlovchi,
- O‘g‘li Otabekga jamiyatda to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi,
- Tarbiya, axloq va halollikni targ‘ib qiluvchi shaxs sifatida ko‘rsatiladi.

Yusufbek Hojining ismi-unvoni (“bek” – hukmdor, “hoji” – diniy yetuklik) uning yuqoridagi barcha vazifalarni mukammal bajaradigan an’anaviy ota bo‘lishi kerakligini anglatadi. Yusufbek hojining Otabekka qilgan nasihatlari o‘zbek oilasidagi ota – ma’naviy ustoz ekanligini ko’rishimiz mumkin.

-Yusufbek Hoji bir necha vaqt o’ylab qoldi.O’zbek oyim depsinib-epsinib eriga qarab olar edi.Anchagina so’zsiz o’lturg’andan so’ng hoji muloyimona so’z ochdi.

- *O’g’lim, hali san eshitdingmi,yo’qmi haytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qo’ydik…*
- *O’g’lim san onangning gapiga achchig’lanma.*
- *O’g’lim, bizning sandan boshqa umid nishonimiz, hayot quvonchimiz yo’q.*

“Hoji muloyimona so‘z ochdi” – Bu ibora otaning o‘z hukmronligini yumshoqlik va donolik bilan boshqarishini ko‘rsatadi. U hokimiyatdan foydalanishning o‘ziga xos usuliga ega: Bu o‘zbek madaniyatidagi otaning eng muhim fazilatlaridan biri – u qo‘pollik bilan emas, balki hikmat bilan hukmronlik qiladi.

“Biz saning ustingdan bir ish qilib qo’ydik…”– Bu yerda “biz” so‘zi alohida e'tiborga molik. Ota o‘z qarorini yolg‘iz o‘zi qilmagan, balki bu qaror oilaviy maslahat, onaning roziligi va oilaning butunligi natijasida qabul qilinganligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, u o‘g‘liga nisbatan o‘zining mas'uliyatini bildiradi.

“Bir necha vaqt o’ylab qoldi” va *“Anchagina so’zsiz o’lturg’andan so’ng”* – Bu jumlalar otaning donoligining kalitidir. U o‘g‘li bilan muhokama qilishdan oldin, gapirishning to‘g‘ri vaqtini, eng yaxshi so‘zlarni tanlab olish uchun sabr bilan kutadi. Bu uning harakatini aql-idrok va atrofdagilarga nisbatan hurmat bilan belgilaydi. U g‘azabli ota emas, balki vazmin va fikrlashga odatlangan ma’naviy ustozdir.

“O’zbek oyim depsinib-epsinib eriga qarab olar edi""– Bu ibora Yusufbek Hojining oilasidagi munosabatlarning sog‘lomligini ko‘rsatadi. Xotin (“O‘zbek oyim”) erining dono maslahatiga ishonadi va uning qarorini kutishga tayyor. Bu er-xotin o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, ishonch va hamjihatlikni tasvirlaydi. Ota oila boshlig‘i sifatida faqat o‘z fikrini emas, balki xotinining ham fikrini qadrlashini namoyon qiladi.

"O’g’lim" deb murojaat qilish – Bu so‘zda g‘azab, qattiqlik emas, balki mehribonlik, iliq aloqa va otalik muhabbati mavjud. U o‘g‘lini qoralash yoki buyruq bermoqchi emas, balki unga yaxshilikni yetkazmoqchi, yo‘l ko‘rsatmoqchi.

"Hali san eshitdingmi, yo’qmi haytovur..." – Bu ifoda uning o‘g‘liga nisbatan ehtiyotkorligini ko‘rsatadi. U o‘g‘li bu ishni allaqachon bilishi mumkinligini hisobga oladi va suhbatni bunday muloyim tarzda boshlaydi. Ushbu qisqa parcha orqali Yusufbek Hoji obrazida o‘zbek oilasidagi otaning eng yaxshi fazilatlari mujassam etilgan:

Shunday qilib, Yusufbek Hoji – o‘g‘lini jismonan emas, balki ma'nan tarbiyalaydigan, unga nafaqat otalik qiladigan, balki ustozlik qiladigan ideal ota timsolidir. U o‘g‘liga nasihati bilan emas, balki o‘zi ko‘rsatayotgan namuna va xulq-atvori bilan ta'sir ko‘rsatadi. Bu an'anaviy o‘zbek oilasida otaning roli naqadar muhim va ko‘p qirrali ekanligining badiiy ifodasidir.

Romanda Hasanali obrazi orqali Otabek hayotidagi o‘rni juda muhim va ko‘p qirrali bo‘lgan, tom ma’nodagi ikkinchi otasi tasvirlangan.

Hasanali bekning har bir siriga o’zini mahkam deb hisblaganlikdan, darhaqiqat, Otabekka Malham bo’lishga loyiq bir mehribonchiliqqa ega bo’lg’anliqdan xo’jazodasi bilan ochiq so’zlashish fikriga keldi.Bir necha daqiqa muqaddima uchun reja qurib o’lturgandan so’ng tilga keldi:

- *O’g’lim,Otabek.*
- *So’zlangiz.*
- *Aytingiz-chi,men sizning kimingiz?*

Otabek,Hasanalining maqsadig’a tushunolmay majhul unga nazar tashladi:

- *Sizmi? – deb kulimsiradi. – Otam bo’lmasangiz ham meni otaliq muhabbati bilan suygan sodiq va mehribon bir kishimsiz-ya’ni ma’naviy otam.*
- *Barakalla,o’g’lim, - dedi Hasanali,- javobingiz o’z o’ylag’animchadir.*

Otabek uni *"ma'naviy otam"* deb ataydi. Bu Hasanali bekning nafaqat dunyoviy, balki ma'naviy jihatdan ham Otabekka yo‘l ko‘rsatishini anglatadi. U donolik, tajriba va odob-axloq me'yorlari bilan Otabekning shaxsiy va axloqiy rivojlanishiga katta ta'sir ko‘rsatadi. Otabekning biologik otasi Yusufbek Hoji bilan munosabati murakkab va ba'zan keskin bo‘lishi mumkin. Bu bo’shliqni Hasanali to‘ldirib turardi. U Otabekga shartsiz mehribonlik, hurmat va tushunish ko‘rsatadi, bu esa ba'zan haqiqiy ota bilan munosabatlarda yetishmayotgan narsa bo‘ladi. Hasanali Otabek hayotida sirdosh, ustoz, tayanch, himoyachi va sevgi bilan suygan ota obrazining birlashmasidir. Uning Otabekka nafaqat maslahat berish, balki uning ruhiy salomatligi va shaxsiy rivojlanishi uchun xavfsiz, ishonchli va mehribon muhit yarata olishida ko’rinadi. Bu munosabat shuni ko‘rsatadiki, haqiqiy "otalik" qon munosabatidan ko‘ra, sadoqat, g‘amxo‘rlik va doimiy hurmat asosida quriladi.

Romanda onalarning obrazida ham o‘ziga xoslik bor. Otabekning onasi – mehribon va sabrli, ammo ba’zi holatlarda oila qarorlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qila olmaydi. Bu holat o‘sha davrda ayollar mavqeining cheklanganligini ko‘rsatadi.

-O'zbek oyim kelib kirdi va o'lturmasdanoq hojiga imlab qo'ydi.Buni Otabek payqamagan bo'lsa hamlekin anuv gapni aniq shu majlisda ochilishig'a ko'zi yetib, chiqib ketishning ilojini qilolmadi.O'zbek oyim kelib kirgandan so'ng, yusufbek Hoji bir necha vaqt o'ylab qoldi.O'zbek oyim depsinib-epsinib eriga qarab olar edi.

Ushbu jumlalardan O‘zbek oyim timsolida eriga nisbatan to‘liq itoatkor va bo‘ysunuvchi ayollar obrazini kuzatamiz. U erining oldida *“depsinib-epsinib qarab olar edi”.* Bu uning harakatlarida beqarorlik, chalg‘itish va hatto qo‘rquv borligini ko‘rsatadi. U erining munosabatini kutayotgandek, uning hukmini eshitishga tayyor turayotgandek qiyofada tasvirlanadi. Bu an’anaviy jamiyatda ayolning eri oldidagi o‘rni – u erining qarorlariga shak-shubhasiz bo‘ysunishi kerak, degan tasavvurni aks ettiradi.

Uning bu passivligi, shuningdek, o‘z fikrini aytolmaslik yoki g‘azabini ifoda eta olmaslik kabi holatni ham ko‘rsatadi. U majlisda g‘azablangan yoki g‘ash bo‘lgan bo‘lishi mumkin, lekin buni ochiq namoyon eta olmaydi. Faqatgina *“qarab olish”* uning cheklovini ifodalaydi.

- *“Ilojini qilolmadi”* – Bu ibora uning kuchsizligini emas, balki erkinligining cheklanganligini ko‘rsatadi. U erining huzuridan ruxsatsiz chiqib ketish huquqiga ega emas. Bu uning harakatlarini cheklovchi qat'iy ijtimoiy ierarxiya (er - xotin) mavjudligini bildiradi.

- ***“Depsinib-epsinib”*** – Bu holatni ifodalovchi so‘z beqarorlik, chalg‘itish, ichki iztirob, qo‘rquv va shu bilan birga itoatkorlikni anglatadi. U eriga so‘z bilan emas, balki ko‘zlar orqali murojaat qiladi. Bu an'anaviy jamiyatda ayollarning ko‘pincha o‘z fikrlarini bevosita aytish o‘rniga norasmiy, noverbal usullardan foydalanishiga misoldir.

- *“Qarab olar edi”* – bu holatining doimiy takrorlanuvchi odati ekanligini ko‘rsatadi. Bu uning eri bilan munosabatlaridagi barqaror, bo‘ysundirilgan mavqeini tasvirlaydi.

Asarda kelinlar – Kumush va Zaynab obrazlari orqali milliy qadriyatlar aks etadi. Ayniqsa Kumush obrazi orqali:

-Itoat, sadoqat, sabrlilik, vafodorlik, bosh egish,

-Oila sha’nini saqlash, qaynota-qaynonaga xizmat,

-Ayolning o‘z baxti uchun emas, boshqalar rohatini o‘ylashi kabi qadriyatlar tasvirlanadi. Kumush o‘zining barcha shaxsiy iztiroblariga qaramasdan, “kelin”lik burchini oxirigacha ado etadi. Bu o‘zbek ayolining kuchli, ammo jim qahramonligini ko‘rsatadi

-Oyim, oyim!.. -dedi hoji.Kumush ko'zini ochib besaranjom unga nazar tashladi va tanib… qo'zg'almoqchi bo'ldi.

-Qo'zg'almang, oyim … qo'zg'almang!

Kumushning ko'z yoshisi chakkasidan oqib tushdi…

Hoji ham o'zini to'xtatolmay, Kumushning yoshini artib, boshini siladi:

-Xudo shifo berar,bolam!

O‘zbek madaniyatida "oyim" so‘zi nafaqat onani anglatadi, balki hurmat, e‘zozlash, mehribonlik va g‘amxo‘rlikni ifodalovchi murojaat shaklidir.

Hoji Kumushni "oyim" deb murojat qilish orqali unga bo‘lgan chuqur hurmat, e‘tibor va g‘amxo‘rlik his-tuyg‘ularini namoyon qiladi. O‘zbek madaniyatida ko‘z yoshini oqizish zaiflik emas, balki samimiyat, chin dildan qayg‘urish va hamdardlikni bildiradi. Hojining Kumushning yoshini arta boshlashi uning g‘amxo‘rlik, mehr va rahm-shafqat hissiyatlarini ko‘rsatadi.

O‘zbek xalq an'analarida bosh silash - bu mehr, marhamat, bolalarga bo‘lgan mehribonlik va ularni tinchlantirish, og‘riq-qayg‘ularini yengillashtirish belgisidir.

Bu harakat orqali Hoji Kumushga onalik mehrini eslatadi va unga xotirjamlik bag‘ishlaydi.

Bu ibora islomiy e‘tiqod va an'anaviy diniy tasavvurlarni aks ettiradi, shifo Xudodan tilash, uning qudratiga ishonishni bildiradi. *“Bolam”* so‘zi esa mehribonlik, kamtarlik va g‘amxo‘rlikni ifodalovchi murojaat shakli bo‘lib, Hojining Kumushga bo‘lgan mehr-muhabbatini chuqurroq namoyon qiladi. Ushbu dialognutq madaniyati va til orqali o‘zbek xalqining mehribonlik, hurmat, hamdardlik, diniy e‘tiqod va oilaviy qadriyatlarini aks ettiradi. Hoji va Kumush o‘rtasidagi munosabat nafaqat qon-qarindoshlik, balki chuqur insoniy va ma'naviy bog‘liqlik asosida shakllangan.

-Xushro'ybibi Zaynabning egachisidir.Zaynab egachisi Xushro'ydan yetti yosh chamasi kichik edi.Garchi bu egachi-singil bir qorindan talashib tushgan bo'lsalar ham tanib bo'lmalik darajada bir-birlaeidan farqlik edilar. Jumladagi *“egachi”* so‘zi - o‘zbek tilining ayrim shevalarida ishlatiladigan

qarindoshlik atamasi bo‘lib, u “opa” ma’nosini bildiradi. Ya’ni, egachi-singil birikmasi - opa-singil deganidir. “Egachi” so‘zi qadimgi turkiy tilga borib taqaladi. “Devonu lug‘otit-turk”da “ekā” shaklida uchraydi va “opa” deb izohlanadi. “-chi” qo‘shimchasi bu yerda e’zozlash yoki erkalash ma’nosini beradi. Ya’ni, “egachi” - hurmat bilan aytilgan “opa”. Ba’zi o‘zbek shevalarida “egachi” akaning xotini - yanga ma’nosida ham ishlatiladi, lekin adabiy tilda u opa degan ma’noni anglatadi:

-Zaynabning tusi shu choqqacha ko’rilmagan ravishda o’zgarib ketdi.Negadir tinmay oqib turgan ko’z yoshisi ham quridi va tovushida ham hanuz eshitilmagan keskin bir ohang bor edi:

- Esimni kiritdingiz,opa,-dedi,- Rahmat sizga

O‘zbek madaniyatida “opa” - hurmat, mehr, himoya, maslahat va tarbiya timsolidir.

Opa - oilada katta ayol sifatida ko‘riladi: u kichiklarga yo‘l ko‘rsatadi, ularni himoya qiladi, ruhiy tayanch bo‘ladi.

Jumladagi *“Esimni kiritdingiz, opa”* iborasi - minnatdorchilik, ruhiy uyg‘onish, va katta kishining hikmatiga tan berish ifodasidir.

Xulosa. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida qavm-qarindoshlik nomlari nafaqat til birliklari sifatida, balki o‘zbek xalqining madaniy tafakkuri, ijtimoiy tuzilmasi va ruhiy olamini aks ettiruvchi lingvokulturologik ko‘rsatkichlar sifatida namoyon bo‘ladi. “O‘tkan kunlar” romanidagi qarindoshlik nomlari orqali Qodiriy:

- O‘zbek xalqining an’anaviy oila tuzilmasini,
- Oila a’zolari o‘rtasidagi ijtimoiy rollarni,
- Har bir qarindoshning madaniy va axloqiy yuklamasini nafaqat til orqali, balki obrazlar orqali ham chuqur yoritgan.

Bu atamalar – faqatgina so‘zlar emas, balki butun bir milliy tafakkur tizimi, ma’naviy qadriyatlar, va madaniy arxetiplarning aksidir. Qodiriy ularni voqealar rivoji, konfliktlar, dramatik lahzalar orqali o‘quvchiga chuqur his ettiradi. Lingvokulturologik tahlil shuni ko‘rsatadiki, qarindoshlik atamalari adabiy matnda faqat semantik emas, balki madaniy va axloqiy mazmunni ham o‘zida mujassam etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Bahromova, G. Abdulla Qodiriy ijodi va milliy ruhi // Academic Research. Uzbekistan materiallari. – 2021.

2. Ismoilov, I. Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari. – Toshkent: Fan, 2010.

3. Ishaev, A. Turkiy tillarda qarindoshlik terminlari o‘zgarganmi? // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1973. – №6.

4. Karimov, M. Lingvokulturologiya asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2021.

5. Narzieva, M. Qon-qarindoshlik nomlarining komponent tahlili // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1986. – №5. – B. 14–17.

6. Qodiriy, A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1992.

7. Sabirova, Z. S. Turk va o‘zbek madaniyatida qarindoshlik atamalarining o‘rganilishi // Oriens ilmiy jurnali. – 2022.

Xamrayeva Dilnura Rustamovna
Termiz davlat pedagogika instituti,
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda ingliz tili yo’nalishi talabasi,
Eshquvvatova Gulasal Abdullo qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
Gumanitar yo’nalishlarda xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi

BOLALAR UCHUN CHET TILINI O‘QITISHDA CLIL (SUBJECT + LANGUAGE) YONDASHUVI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bolalar uchun chet tilini o‘qitishda CLIL (Content and Language Integrated Learning) - “Fan va til integratsiyasi” yondashuvining ahamiyati, uning ta’lim jarayonidagi afzalliklari hamda amaliy qo‘llash imkoniyatlari yoritiladi. CLIL yondashuvi bolalarda til kompetensiyalarini rivojlantirish bilan birga, fanga oid tasavvurlarini kengaytiradi, tanqidiy fikrlash, muloqot, ijodkorlik va hamkorlik kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi. Maqolada, shuningdek, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim yoshidagi bolalarga mos bo‘lgan metodlar, o‘yin texnologiyalari, ko‘rgazmali vositalar va multimediadan foydalanishning samarali usullari tahlil qilingan. CLIL yondashuvining O‘zbekiston ta’lim tizimidagi qo‘llanishi, mavjud tajribalar va rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ham berilgan.*

Kalit so‘zlar: *CLIL, integratsiyalashgan ta’lim, bolalar uchun ingliz tili, chet tili o‘qitish metodikasi, kontentga asoslangan yondashuv, kommunikativ kompetensiya, multimediya, boshlang‘ich ta’lim, kognitiv rivojlanish.*

ПОДХОД CLIL (ПРЕДМЕТ + ЯЗЫК) В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ ДЕТЕЙ

Аннотация. *В данной статье рассматривается значимость подхода CLIL (Content and Language Integrated Learning) - интегрированного обучения предмету и иностранному языку - в процессе преподавания иностранного языка детям. Подчеркивается, что использование CLIL способствует одновременному развитию языковой компетенции и познавательной активности учащихся, формированию критического мышления, коммуникативных навыков, творческого подхода и сотрудничества. В статье анализируются эффективные методики, игровые технологии, наглядные средства и мультимедийные ресурсы, подходящие для дошкольного и начального возраста. Кроме того, представлены примеры применения CLIL в образовательной системе Узбекистана и рекомендации по совершенствованию данного подхода.*

Ключевые слова: *CLIL, интегрированное обучение, преподавание иностранного языка детям, предметно-языковой подход, коммуникативная компетенция, мультимедиа, начальное образование, когнитивное развитие.*

CLIL (SUBJECT + LANGUAGE) APPROACH IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO CHILDREN

Abstract. *This article explores the importance of the CLIL (Content and Language Integrated Learning) approach in teaching foreign languages to children. It highlights how CLIL enhances both language proficiency and subject-related understanding while fostering critical thinking, communication skills, creativity, and collaboration. The paper examines effective strategies, play-based techniques, visual aids, and multimedia tools suitable for preschool and primary-level learners. Additionally, it discusses the implementation of CLIL within the education system of Uzbekistan and provides practical recommendations for further improvement and wider adoption of the method.*

Key words: *CLIL, integrated learning, foreign language teaching for children, content-based approach, communicative competence, multimedia tools, primary education, cognitive development.*

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda chet tili ta'limini erta yoshdan samarali yo'lga qo'yish ta'lim tizimining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bolalar psixologiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar erta yoshdagi o'rganish jarayoni tabiiylik, tezkorlik va yuqori idrokchanlik bilan ajralib turishini ko'rsatadi. Shuning uchun chet tilini o'qitishda yangicha pedagogik yondashuvlardan foydalanish, xususan, CLIL (Content and Language Integrated Learning) metodikasini qo'llash zamonaviy ta'lim ehtiyojlariga to'la javob beradi.

CLIL yondashuvining mohiyati shundaki, chet tili faqat lingvistik bilim sifatida emas, balki matematika, tabiatshunoslik, san'at, texnologiya, geografiya kabi fanlarni o'rganishga xizmat qiluvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Bu esa bolalarga tilni real hayotiy vazifalar doirasida qo'llash imkonini beradi. Til va kontentning bunday integratsiyasi o'quvchilarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, ular o'rganayotgan tilni o'zlashtirish jarayonini yanada mazmunli va samaraliroq qiladi.

CLIL metodikasi 4C tamoyillariga tayangan holda bolalarda bir vaqtning o'zida ko'plab kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi:

- Content - fan bo'yicha mazmunni o'zlashtirish;
- Communication - chet tilida muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- Cognition - tahlil qilish, solishtirish, xulosa chiqarish kabi kognitiv jarayonlarni faollashtirish;
- Culture - boshqa xalqlar madaniyatiga hurmat bilan qarash, global dunyoqarashga ega bo'lish.

Ayniqsa, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichidagi bolalar uchun CLIL yondashuvi o'yin texnologiyalari, tajriba metodlari, rasm, rang, audio-video materiallar orqali o'qitishni yanada interaktiv va qiziqarli qiladi. Bu esa ularning tabiatidagi o'yin orqali o'rganish ehtiyojiga to'la mos keladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida chet tilini erta yoshdan o'rgatish, interfaol metodlarni joriy etish, o'quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan yangicha pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu jarayonda CLIL yondashuvi alohida ahamiyat kasb etib, o'quvchilarning lingvistik salohiyati bilan bir qatorda ularning ijtimoiy, madaniy, muloqot va intellektual rivojlanishini ta'minlaydi.

Mazkur maqola CLIL metodikasining nazariy asoslari, uni maktabgacha va boshlang'ich ta'limda qo'llashning didaktik imkoniyatlari, pedagogik afzalliklari hamda amaliy tajribada qo'llash bo'yicha tavsiyalarni yoritishga bag'ishlanadi. CLILning O'zbekiston ta'lim tizimiga integratsiya qilinishi natijasida bolalarda yuqori darajadagi til kompetensiyasi, mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv va global madaniyatni qabul qilish ko'nikmalari shakllanishi kutiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Chet tilini erta yoshdan samarali o'qitishga oid ilmiy izlanishlar so'nggi yillarda sezilarli darajada kengaydi. Xalqaro pedagogika tajribasi bolalarni kichik yoshdan chet tili muhitiga jalb etish, ayniqsa, integrativ yondashuvlar - jumladan, CLIL (Content and Language Integrated Learning) metodidan foydalanish samarali natijalar berishini ko'rsatmoqda. Turli mamlakat olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar CLILning nazariy asoslari, uning yosh bolalarning kognitiv rivojlanishiga ta'siri, shuningdek, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichida qo'llash imkoniyatlarini chuqur yoritib bergan.

Avvalo, CLIL konsepsiyasining nazariy poydevori Coyle, Hood va Marsh tomonidan ishlab chiqilgan 4C modeli - Content, Communication, Cognition va Culture bilan bog'liq. Ushbu modelda chet tili o'z-o'zidan maqsad emas, balki fan mazmunini o'zlashtirish vositasi sifatida talqin etiladi. Tadqiqotlarga ko'ra, o'quvchilar tilni izolyatsiya qilingan holda emas, balki ma'lum bir fanni o'rganish jarayonida tabiiy muhit orqali egallaganida til ko'nikmalari barqarorroq shakllanadi. Marshning maktabgacha ta'lim bo'yicha olib borgan kuzatuvlari ham shuni tasdiqlaydiki, CLILning o'yinga asoslangan muhitda qo'llanilishi bolalarning qiziqishini kuchaytiradi, ularni faol muloqotga undaydi va tilni tabiiy tarzda o'zlashtirishga yordam beradi.

CLIL yondashuvining bolalar rivojiga mosligi psixologik nazariyalar bilan ham tasdiqlanadi. Piaget, Vygotskiy va Bruner ishlanmalarida ta'kidlanishicha, bolalar bilimni faoliyat, tajriba, muloqot, tasviriy faoliyat, harakat va o'yin orqali samarali qabul qiladi. Tilning shakllanishi ham aynan ijtimoiy muloqot jarayoniga bog'liq. Shu jihatdan CLILning multimodal resurslarga, ko'rgazmalilikka, tajribalar va faol o'yinlarga tayangan metodlari erta yoshdagi psixologik rivojlanish tamoyillari bilan to'liq uyg'unlashadi.

Xalqaro tajriba CLILning amaliy samaradorligini yanada aniqroq ko‘rsatib beradi. Yevropa Ittifoqida o‘tkazilgan ko‘plab monitoringlar Ispaniya, Finlyandiya, Estoniya va Avstriyada CLIL dasturlarini joriy etish natijasida o‘quvchilarning ingliz tili kompetensiyasi 20–30 foizga oshganini qayd etadi. Qolaversa, CLIL o‘quvchilari an’anaviy grammatik yondashuv asosida ta’lim olgan tengdoshlariga nisbatan ko‘proq spontan muloqot qilish qobiliyati, yuqori motivatsiya hamda fanlarni chuqurroq tushunish kabi ustunliklarga ega bo‘lishi aniqlangan.

Mazkur tajribalar O‘zbekiston ta’lim tizimida ham o‘z aksini topmoqda. Mahalliy tadqiqotlarda CLILning interaktiv o‘yinlar, qo‘shiqlar, tajriba asosidagi topshiriqlar, STEAM elementlari va vizual materiallar bilan qo‘llanilganda bolalarning lug‘at boyligi, talaffuz aniqligi, tinglab tushunish va muloqot ko‘nikmalarida sezilarli o‘sish kuzatilgani qayd etiladi. Shuningdek, CLIL bolaning kuzatuvchanligini kuchaytirishi, fanlararo bog‘lanishlarni anglashga yordam berishi, kreativ fikrlashni faollashtirishi va madaniyatlararo sezgirlikni shakllantirishi mahalliy ilmiy manbalarda keng yoritilgan. Bu esa mazkur metodikaning O‘zbekistonning kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim strategiyasi bilan to‘liq mos kelishini ko‘rsatadi.

CLIL bo‘yicha metodik adabiyotlar esa darsni rejalashtirish jarayonida muhim amaliy ko‘rsatmalarni taqdim etadi. Coyle, Marsh va Mehisto tomonidan berilgan tavsiyalar asosida dars mazmuni (kontent) va til maqsadlarini birlashtirish, scaffolding (til va mazmunni bosqichma-bosqich qo‘llab-quvvatlash), ko‘rgazmali vositalardan foydalanish, grafik organayzerlar, jadvallar, piktogrammalar va multimediaga tayangan holda o‘qitish taklif etiladi. Ayniqsa, yosh bolalar uchun darsning qisqa, dinamik, o‘yin va faoliyatga asoslangan bo‘lishi, tilning sodda, takroriy va kontekstual tarzda berilishi CLILning samaradorligini oshiruvchi muhim omillar sifatida ko‘rsatiladi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, CLIL yondashuvi nafaqat chet tilini, balki bolasining intellektual, ijtimoiy va madaniy kompetensiyalarini ham rivojlantiruvchi integrativ model bo‘lib, bugungi global ta’lim talablariga to‘liq javob beradi. O‘zbekiston ta’lim tizimida CLILni keng joriy etish esa kichik yoshdagi o‘quvchilarda amaliy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, fanlararo integratsiya orqali keng fikrlashni shakllantirish va zamonaviy kompetensiyalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning metodologiyasi bolalar uchun chet tilini o‘qitishda CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvining samaradorligini chuqur tahlil qilish, uning didaktik va metodik imkoniyatlarini aniqlash hamda ta’lim jarayoniga joriy etishning maqbul yo‘llarini belgilashga asoslanadi. Tadqiqotning nazariy poydevori sifatida CLILning mashhur 4C modeli (Content, Communication, Cognition, Culture), Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi, Brunerning konstruktiv yondashuvi hamda Piagetning kognitiv rivojlanish bosqichlari tanlandi. Bu nazariy manbalar CLILning aynan erta yoshdagi bolalar bilan ishlashda samarali bo‘lishini tushuntirish uchun mustahkam konseptual asos yaratdi.

Tadqiqot Termiz davlat pedagogika instituti hamda uning amaliyot maktablari bazasida, maktabgacha ta’lim muassasalari va 1–2-sinf o‘quvchilari ishtirokida olib borildi. Tajribada 5–7 yoshli tarbiyalanuvchilar, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, ingliz tili o‘qituvchilari va CLIL metodistlari qatnashdi. Guruhlar teng yoshdagi, o‘xshash tayyorgarlik darajasiga ega bo‘lgan ishtirokchilardan shakllantirildi, bu esa tadqiqot natijalarining xolisligi va qiyosiy tahlilning to‘g‘riligini ta’minladi.

Tadqiqot davomida nazariy va empirik metodlar kompleks qo‘llanildi. Nazariy bosqichda ilmiy adabiyotlar, xalqaro CLIL tajribalari, o‘quv dasturlari va metodik qo‘llanmalar chuqur tahlil qilindi. Bu jarayon CLILning afzalliklari, shakllari, tamoyillari va erta yoshdagi bolalarga moslashtirilgan variantlarini aniqlashga xizmat qildi. Empirik bosqichda CLIL asosida ishlab chiqilgan dars ishlanmalari amalda sinovdan o‘tkazilib, matematika, tabiatshunoslik, san’at elementlari ingliz tilida integratsiyalangan tarzda o‘qitildi. Mashg‘ulotlarda o‘yin texnologiyalari, amaliy tajribalar, ko‘rgazmali vositalar, multimediadan foydalanildi. Dars jarayonida bolalarning muloqotga kirishish faolligi, lug‘aviy o‘sishi, fan mazmunini tushunish darajasi va mustaqil fikrlashi muntazam kuzatilib bordi.

Tadqiqotning yana bir muhim tashkil etuvchisi suhbat va intervyu metodlari bo‘lib, ular orqali o‘qituvchilar, tarbiyachilar va ota-onalarning CLIL metodikasiga doir fikrlari, kuzatishlari va takliflari o‘rganildi. Diagnostik testlar yordamida o‘quvchilarning tilni o‘zlashtirish darajasi tadqiqot boshida va yakunida baholandi. Testlar lug‘at boyligi, tinglab tushunish, sodda gap tuzish, muloqot ko‘nikmasi

va fan mazmunini anglash kabi kompetensiyalarni qamrab oldi. Olingan natijalar CLILning an'anaviy yondashuvga nisbatan ustun tomonlarini aniqlash imkonini berdi.

Annotatsiya. *Maqolada G‘arb va Sharq adabiyotida mistik ramzlarning semiotik tahlili amalga oshirilgan bo‘lib, “nur”, “zulmat” va “ruhiy uyg‘onish” obrazlari inson ruhiyatining badiiy ifodasi sifatida talqin etiladi. Muallif metafizik timsollar orqali insonning ichki kechinmalari, ilohiylikni his etish jarayoni hamda bola tafakkurida ezgulik va yovuzlik tasavvurlarining shakllanish mexanizmlarini tahlil qiladi. G‘arb adabiyotida nur metafizik uyg‘unlik va ichki ilhomning manbai sifatida talqin qilinadi, Sharq adabiyotida esa zulmat ruhiy yuksalish, poklanish va ma’naviy o‘sishga eltuvchi sinov bosqichi sifatida talqin qilinishi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *mistik ramz, semiotika, nur, zulmat, ruhiy uyg‘onish, metafizik tafakkur, ma’naviy tajriba, bola tafakkuri, G‘arb, Sharq.*

THE SYSTEM OF MYSTICAL SYMBOLS IN EASTERN AND WESTERN LITERATURE: LIGHT, DARKNESS, AND THE SEMIOTIC MODEL OF SPIRITUAL AWAKENING

Abstract. *The article provides a semiotic analysis of mystical symbols in Western and Eastern literature, interpreting the images of “light,” “darkness,” and “spiritual awakening” as artistic representations of human inner experience. Through metaphysical symbols, the author examines the mechanisms of emotional and spiritual perception, as well as the formation of the concepts of good and evil in the child’s consciousness. In Western literature, light is interpreted as a source of metaphysical harmony and inner inspiration, while in Eastern literature, darkness is understood as a stage of spiritual elevation, purification, and moral growth.*

Key words: *mystical symbol, semiotics, light, darkness, spiritual awakening, metaphysical thought, spiritual experience, child’s cognition, West, East.*

СИСТЕМА МИСТИЧЕСКИХ СИМВОЛОВ В ВОСТОЧНОЙ И ЗАПАДНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: СВЕТ, ТЬМА И СЕМИОТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ДУХОВНОГО ПРОБУЖДЕНИЯ

Аннотация. *В статье рассматривается система мистических символов в литературе Запада и Востока на основе семиотического анализа. Символы «свет», «тьма» и «духовное пробуждение» трактуются как художественные знаки внутренней трансформации личности. В западной литературе свет трактуется как источник метафизической гармонии и внутреннего вдохновения, тогда как в восточной традиции тьма понимается как этап духовного возвышения, очищения и нравственного роста.*

Ключевые слова*: мистический символ, семиотика, свет, тьма, духовное пробуждение, метафизическое мышление, запад, восток, духовная культура.*

Kirish. Adabiyot insoniyat tafakkurining eng qadimiy va universal bilish shakllaridan biri sifatida nafaqat estetik, balki gnoseologik hodisa hamdir. U insonning ruhiy kechinmalari, ma’naviy izlanishlari hamda borliqni idrok etish jarayonining badiiy in’ikosidir. Ezgulik va yovuzlik, nur va zulmat, ruh va jism o‘rtasidagi abadiy ziddiyat barcha madaniy tizimlarda turli badiiy timsollar vositasida talqin etilib kelgan. Shu ma’noda mistik ramzlar insonning ilohiy mohiyatni anglashga, borliqning ichki tartibini his etishga qaratilgan metafizik tajribaning ramziy ifodasidir.

G‘arb va Sharq adabiyotida ushbu ramzlarning shakllanishi turlicha madaniy, diniy va falsafiy paradigmalarga tayanadi. G‘arb adabiyotida “nur” tushunchasi zulmatni yengish, gunohdan poklanish

va soteriologik najotga erishish jarayoni bilan bog‘liq. Sharq tafakkurida esa aksincha, nur ilohiy tajalli, ruhiy uyg‘unlik va Haqqa yaqinlashuvning ramzi sifatida talqin etiladi. Demak, nur G‘arbda tashqi kurash va ma’naviy sinovning, Sharqda esa ichki tajriba va ruhiy uyg‘onishning semiotik belgisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Bolalar adabiyotida mazkur metafizik ramzlar soddalashgan, lekin ma’nodoran chuqur shaklda o‘z ifodasini topadi. Bola ongida “nur” obrazining semantik maydoni mehr, ezgulik, ishonch va hayot quvonchi kabi qadriyatlar bilan to‘ldiriladi; “zulmat” esa qo‘rquv, yolg‘izlik, sinov va o‘zini anglash jarayonining timsoliga aylanadi.[1] Shu sababli mistik ramzlar bola tafakkurida ratsional emas, balki intuitiv, emotsional va sezgiy idrok mexanizmlari orqali shakllanadi. Bu jarayon bolalik tajribasining badiiy semiotik modellashtirilishida muhim kognitiv rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar tahlili (Literature Review)

Mazkur tadqiqotda G‘arb va Sharq adabiyotida mistik ramzlar tizimining shakllanishi, ularning semiotik va estetik mohiyatini yorituvchi bir necha muhim manbalar tahlil qilindi. Ularning har biri “nur”, “zulmat” va “ruhiy uyg‘onish” timsollarining madaniy-falsafiy manbalarini anglash hamda bola tafakkurida ularning badiiy talqinini tushuntirishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

1. Jung, C. G. “Man and His Symbols” (1964)

Yungning ushbu asari arxetip va ramzlar psixologiyasiga oid fundamental manba hisoblanadi. Unda “nur” va “zulmat” inson ongining arxetipik qarama-qarshiliklari sifatida talqin etilib, ularning uyg‘unlashuvi ruhiy integratsiyaning belgisi sifatida ko‘rsatiladi. Tadqiqotda Yungning “kollektiv ongsizlik” konsepsiyasi mistik ramzlarning universal tabiatini asoslashda asosiy nazariy tayanch sifatida qo‘llandi. Ayniqsa, bola tafakkurida orzu va qo‘rquvning badiiy modellashtirilishi Yung ta’riflagan “soyali men” konsepsiyasi bilan bog‘landi.

2. Eliade, M. “The Sacred and the Profane” (1957)

Eliade mistik timsollarni insonning muqaddaslik tajribasi bilan bog‘laydi. Uning fikricha, “nur” bu - ilohiylikning tajallisi, “zulmat” esa profan (oddiy) makonning chegarasi. Bu g‘oya Sharq adabiyotida “nur”ning ruhiy uyg‘unlik va Haqqa yaqinlashuv ramzi sifatida shakllanishini tushuntiradi. Tadqiqot doirasida Eliadening “muqaddaslik markazi” haqidagi qarashlari Sharq mistitsizmidagi “ichki nur” konsepsiyasini ilmiy asosda izohlash uchun qo‘llanildi.

3. Campbell, J. “The Hero with a Thousand Faces” (1949)

Kempbell o‘zining mashhur “qahramonning safar arxetipi” modelida ruhiy sayohatni “zulmat orqali nur sari” harakat sifatida tahlil qiladi. Unga ko‘ra, har bir madaniyatda qahramonning sinov, qulash va uyg‘onish bosqichlari mavjud bo‘lib, bu jarayon ruhiy kamolotning ramzidir. Mazkur yondashuv Sharq va G‘arb adabiyotidagi “ruhiy uyg‘onish” timsolini qiyosiy o‘rganishda metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

4. Avgustin, A. “Ispovedi” (V asr)

Avgustin g‘oyalarida G‘arb mistitsizmining asosiy ontologik modeli shakllangan. U “zulmat”ni insonning Haqdan uzoqlashuvi, “nur”ni esa ilohiy inoyat sifatida talqin etadi. Uning “illuminasio” (nurlanish) nazariyasi G‘arb adabiyotida ruhiy uyg‘onish jarayonini tahlil qilishda asosiy metafizik mezon bo‘lib xizmat qildi.

5. Rumiy, J. “Masnaviy ma’naviy” (XIII asr)

Jaloliddin Rumiy o‘z asarida nur va zulmatni inson qalbining ikki qutbi sifatida talqin etadi. Uningcha, “zulmat” - bu ruhiy tozalikka eltuvchi zarur bosqich, “nur” esa ma’rifatning yakuniy manzili. Rumiyning “ichki uyg‘onish” konsepsiyasi Sharq adabiyotidagi nur ramzining estetik-falsafiy mohiyatini aniqlashda nazariy tayanch bo‘ldi.[2]

6. Navoiy, A. “Lison ut-tayr” (XV asr)

Navoiy asarida qushlar sayohati orqali “nur” va “zulmat” timsollari inson ruhining Haq sari sayrini ifodalaydi. U “tong”, “yo‘l”, “sham” va “nur” obrazlarini ruhiy uyg‘onishning badiiy modeli sifatida yaratadi.[3] Tadqiqotda Navoiy merosi Sharq adabiyotida nur ramzining poetik tizimga aylanish jarayonini ko‘rsatish uchun tahlil qilindi.

---

[1] G‘ulomov, A. *Adabiy tahlil nazariyasi.* – Toshkent: Universitet, 2011. – 310 b.
[2] Rumiy, J. *Masnaviy ma’naviy.* – Tehron: Ketabxona-ye Eron, 2010. – 428 b.
[3] Navoiy, A. *Lison ut-tayr.* – Toshkent: Fan nashriyoti, 1987. – 320 b.

7. G‘ulomov, A. “Adabiy tahlil nazariyasi” (2011)

G‘ulomovning ilmiy ishlari mazkur maqolada qo‘llangan komparativ-tahliliy yondashuvni shakllantirishda metodologik asos bo‘ldi. Uning adabiy tahlil nazariyasi matn strukturasini, ramziy qatlamni va semantik maydonlarni tahlil qilishda samarali vosita sifatida ishlatildi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Mazkur tadqiqotda mistik ramzlarning semiotik va falsafiy talqinini ilmiy asosda tahlil etish maqsadida ko‘p yo‘nalishli metodologik yondashuv qo‘llanildi. Har bir metod o‘zining nazariy vazifasi va tahliliy qamrovi jihatidan ramzlarning madaniy, psixologik hamda estetik mohiyatini ochib berishga xizmat qildi.

Matnshunoslik (textual) metod. Adabiy manbalar - G‘arb va Sharqning mumtoz hamda zamonaviy matnlari - asosiy tadqiqot materiali sifatida tanlandi. Ushbu metod orqali nur, zulmat, yo‘l, tong, ilohiy nur va ruhiy uyg‘onish kabi ramzlarning matn ichidagi funksional o‘rni, poetik sintaksisi hamda kontekstual semantikasi tahlil qilindi.

Semiotik metod. Semiotik yondashuv asosida ramzlar mustaqil belgi tizimi sifatida tahlil qilindi. “Nur” va “zulmat” obrazlarining G‘arb adabiyotidagi diniy-mifologik mazmuni hamda ularning metafizik oppozitsiyadagi o‘zaro dinamik harakati ushbu model doirasida izohlandi. Shuningdek, ushbu timsollarning Sharq adabiy an’analarida ruhiy, tasavvufiy va madaniy qatlamlar orqali qanday kodlanishi qiyosiy tarzda yoritildi.

Janriy metod. Adabiy matnlar o‘z janriga ko‘ra - mifopoetik, falsafiy va bolalar adabiyotiga oid asarlar sifatida guruhlanib o‘rganildi. Ushbu metod yordamida ramzlarning janrga xos funksiyalari, ularning bola ongida aks etish shakllari aniqlab chiqildi.

Ramziy va simvolik metod. Ushbu metod orqali “nur”, “zulmat”, “yo‘l”, “ko‘l”, “qush” va “tong” kabi timsollarning metafizik mazmuni tahlil qilindi. Avvalo, G‘arb xristian an’anasidagi “illumination” g‘oyasi bilan bog‘liq ramziy qatlamlar sharhlab berildi, so‘ngra zardushtiylikdagi yorug‘lik va zulmat dualizmi hamda Sharq tasavvufidagi “nur ul-anvor” konsepsiyasi bilan qiyosiy jihatlari ochib ko‘rsatildi.

Mantiqiy-tahliliy metod. Mistik ramzlarning inson ruhiyati bilan aloqador jihatlari mantiqiy ketma-ketlikda o‘rganildi. Bu metod ramzlarning ma’nosini tushuntirishda tizimlilik, sababiylik va o‘zaro semantik bog‘liqlik tamoyillarini ta’minladi.

Psixologik metod. Ramzlarning bola tafakkurida idrok etilish jarayoni Yungning arxetiplar nazariyasi va zamonaviy kognitiv psixologiya asosida tahlil qilindi. “Qo‘rquv–nur” o‘zgarish modeli orqali bolaning ruhiy o‘sish bosqichlari aniqlanib, mistik ramzlarning tarbiyaviy va affektiv funksiyasi yoritildi.

Sotsiologik metod. Adabiy ramzlarning milliy madaniyatdagi ijtimoiy funksiyasi, ularning xalq og‘zaki ijodi va diniy an’analar bilan uzviy aloqasi o‘rganildi. Ushbu metod yordamida nur va zulmat obrazlarining kollektiv ongda qanday semantik qatlam hosil qilgani aniqlab chiqildi.

Natijalar va muhokama (Results and Discussions)

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, G‘arb va Sharq adabiyotida shakllangan mistik ramzlar tizimi - “nur”, “zulmat”, “yo‘l”, “ko‘l”, “tong” kabi obrazlar - insonning ruhiy taraqqiyoti va ichki evolyutsiyasini ifodalovchi universal semiotik modellar sifatida namoyon bo‘ladi. Har ikki madaniy an’anada ushbu timsollar ruhiy o‘zgarish, o‘zini anglash hamda ilohiy uyg‘onish jarayonining badiiy ifodasiga aylangan.

G‘arb adabiyotida “zulmat” - bu ruhiy inqiroz, shubha va iztirob orqali ma’naviy poklanishga olib boruvchi holatdir. Xristian soteriologiyasida “nur” - najot, “zulmat” esa insonning gunoh holati sifatida talqin etiladi. Ammo aynan zulmatdan o‘tmasdan, najotga erishish mumkin emas. Avgustin o‘zining “Ispovedi” asarida o‘z qalbini “zulmat bilan o‘ralgan, ammo Haq nuri bilan uyg‘onayotgan” tarzda tasvirlaydi. Dante “Ilohiy komediya”da do‘zax zulmatidan o‘tib, poklanish tog‘iga chiqadi va oxir-oqibat ilohiy nurga erishadi.[1] Shunday qilib, G‘arb mifopoetik modelida zulmat - ma’naviy yangilanish uchun zarur sinovdir. Zamonaviy adabiyotda bu motiv J. R. R. Tolkienning “The Lord of the

[1] Dante, A. *Božestvennaya komediya (The Divine Comedy).* – Moskva: Eksmo, **2007.** – 544 s.

Rings" asarida Frodo obrazida, C. S. Lewisning "The Chronicles of Narnia"sida esa Lyusi va Edmund orqali davom etadi - ular zulmatni (qo‘rquv, shubha, yovuzlik) yengib, nurga erishadi.

Sharq tafakkurida esa "nur" tushunchasi inson qalbida yashovchi ilohiy zarraning uyg‘onishini bildiradi. Bu g‘oya tasavvuf falsafasining markaziy tushunchalaridan biridir. Jaloliddin Rumiy "Masnaviy"da insonni "zulmatdan nur sari yuruvchi chiroq" sifatida tasvirlaydi, ya'ni insonning haqiqiy vazifasi - o‘z qalbidagi ilohiy zarrani uyg‘otish. Alisher Navoiy "Lison ut-tayr"da qushlarning Simurg‘ sari yo‘l olishi orqali ruhiy sayrni ramziy tasvirlaydi: bu sayohat zulmatdan - jaholatdan chiqib, nur - Haqqa yaqinlashuvdir. Rumiyda "nur" - sevgi, mehr va ilohiy muhabbat orqali qalbda yongan ichki chiroq; Navoiyda esa - ma'rifat sari yuksalish ramzi. Masalan, "Sham'" obrazi ko‘p hollarda o‘zini yoqish orqali boshqalarga yo‘l ko‘rsatishning timsolidir - bu tasavvufdagi "fanā" g‘oyasiga to‘liq mos keladi.

G‘arb va Sharq timsollarining semantik tahlili ularning o‘zaro qarama-qarshi bo‘lishiga qaramay, bir-birini to‘ldiruvchi mazmun kasb etishini ko‘rsatadi. G‘arb tafakkurida nur tashqi, ilohiy manbadan inson qalbiga tushuvchi inoyat sifatida talqin qilinsa, Sharq an'anasida u insonning o‘z qalbida uyg‘onadigan ichki porloqlik sifatida tushuniladi. Masalan, Avgustin ta'limotida nur inson qalbiga tushadigan ilohiy rahmatdir, Rumiyda esa "chiroq" qalbning ichidan yonadi. G‘arbda ruhiy uyg‘onish ko‘pincha kurash, iztirob va gunohni yengish orqali amalga oshsa, Sharq tafakkurida bu jarayon sokin mushohada, sabr va ichki uyg‘unlik yo‘li bilan yuzaga keladi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, mazkur ramzlarning semiotik funksiyasi bolalar adabiyotida ham davom etadi, ammo soddalashgan shaklda. Bola uchun "nur" - mehr, ishonch, ezgulik va do‘stlik timsoli; "zulmat" esa qo‘rquv, yolg‘izlik, sinov va o‘zini topish jarayonidir. Masalan, Andersenning "The Snow Queen" ertagida Gerdaning yuragi "muhabbat nuri" bilan qor malikasi yaratgan "zulmat muzini" eritadi. Bu - G‘arb modelidagi "zulmat orqali nur sari" konsepsiyasining bolalar ongiga moslashtirilgan shakli. Sharq adabiyotida esa "nur" ko‘proq orzular, mehr va ichki tinchlik ramzi sifatida tasvirlanadi. Masalan, O‘zbek xalq ertaklarida "tong", "oy", "qush" yoki "ko‘l" timsollari bola ongida ezgulikni, poklikni bildiradi - bola o‘z tasavvurida ularni yovuzlikni yenguvchi kuch sifatida qabul qiladi.

Ruhiy uyg‘onishning semiotik modeli.

Bu jarayon semiotik jihatdan "ruhiy uyg‘onish modeli"ni tashkil etadi. Ramzlar bola tafakkurida belgilar tizimi sifatida faol ishlaydi - bola ularni mantiqan emas, balki hissiy va intuitiv yo‘l bilan idrok etadi. Bola o‘z "zulmati" - qo‘rquv yoki noaniqlikni - yengib, "nur" - ya'ni ishonch va mehrga erishadi. Shu tariqa, bolalik tasavvuri falsafiy abstraksiyani emotsional tajribaga aylantiradi. Adabiyot shu jarayonda "ruhiy laboratoriya" vazifasini bajaradi - u bola qalbida ezgulik, rahm-shafqat va nur sari intilishni uyg‘otadi.

Muhokama natijalariga ko‘ra, G‘arb adabiyotidagi modelda bola avvalo tashqi zulmat - qo‘rquv, sinov va begonalik bilan to‘qnash keladi va aynan shu jarayon orqali o‘zining "ichki nurini" kashf etadi. Sharq an'anasida esa aksincha, "ichki nur" bola ongida tabiiy ravishda, intuitiv sezgi sifatida shakllanadi: u avval o‘zidagi ezgulikni his qiladi va unga tayanadi. G‘arb ertaklarida qahramon zulmatdan chiqish yo‘lini izlab topadi, Sharq ertaklarida esa personaj "ko‘ngil ko‘zi" orqali yo‘lni anglaydi. Shu bois G‘arb modelida uyg‘onish sinovlar orqali, Sharq modelida esa uyg‘unlik va ichki mushohada yo‘li bilan ro‘y beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mistik ramzlar tizimi universal bo‘lsa-da, uning semantik talqini madaniy an'analarga ko‘ra farqlanadi. G‘arb adabiyotida bu tizim ko‘proq kurash, iztirob va ma'naviy g‘alabaga erishish g‘oyasi bilan bog‘liq bo‘lsa, Sharq an'anasida u sokinlik, ichki uyg‘unlik va qalbdagi ruhiy nur konsepsiyasiga tayanadi. Biroq har ikki modelning asosiy vazifasi bir - insonni (yoki bolani) ruhiy yetilish va yuksalish sari yo‘naltirish. Ramzlar estetik shakl va ma'naviy mazmunni birlashtirib, adabiyotning eng muhim vazifalaridan biri - inson ruhini tarbiyalash funksiyasini bajaradi.

Xulosa. Mistik ramzlarning G‘arb va Sharq adabiy tafakkuridagi talqini insonning ruhiy olamini badiiy idrok etishning eng chuqur qatlamlarini ochib beradi. Adabiyotda "nur" va "zulmat"ning qarama-qarshiligi oddiy metaforik oppozitsiya bilan cheklanmay, balki inson tafakkurining ichki o‘sishi, borliqni anglash yo‘lidagi ruhiy tajribalarning falsafiy modeli sifatida namoyon bo‘ladi.

G‘arb adabiyotida "zulmat" ko‘pincha inson ruhining inqirozi, iztirobi va ma'naviy sinovlari sifatida talqin qilinadi, "nur" esa poklanish va najotning timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Avgustin,

Dante va Kempbell asarlarida zulmatdan o‘tish - insonning o‘zini anglash, poklanish va ruhiy o‘sish uchun zarur bosqich sifatida ko‘rsatiladi. Shu bois G‘arb modelida ruhiy uyg‘onish sinov, kurash va ichki iztirob orqali shakllanadi. Sharq adabiyotida esa “nur” ilohiy uyg‘unlik, qalb poklanishi va Haqqa yaqinlashuvni anglatadi, “zulmat” esa ruhiy izlanish yo‘lida zarur bo‘lgan ichki sinov sifatida talqin etiladi. Rumiy, Navoiy va Yassaviy merosida bu jarayon sabr, mushohada va sevgi orqali ro‘y beradi - inson o‘z “men”ini yengganidagina haqiqiy nurga erishishi mumkin.

G‘arb va Sharq tafakkuridagi ushbu ikki model tashqi ko‘rinishda farqli bo‘lsa-da, ularning mazmuniy mohiyati bir - insonni nur sari, ya’ni ruhiy yuksalish yo‘liga yo‘naltirishdir. G‘arb an’anasida bu jarayon kurash, iztirob va o‘zini sinovdan o‘tkazish orqali kechsa, Sharq talqinida uyg‘onish ichki sokinlik, ruhiy uyg‘unlik va mushohada orqali ro‘y beradi. Bolalar adabiyotida esa mazkur murakkab falsafiy model soddalashtirilgan, biroq kuchli emotsional obrazlar orqali ifodalanadi. Bola uchun “nur” - mehr, ishonch va orzu timsoli bo‘lib, “zulmat” qo‘rquv, noaniqlik va sinovlar orqali o‘zini anglash jarayonini bildiradi. Shu tariqa, bolalar adabiyotida mistik ramzlar bola ongida ruhiy uyg‘onishning dastlabki semiotik strukturasi sifatida shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, “nur” va “zulmat” ramzlari - bu insoniyat tafakkurining umumiy metafizik kodi, u madaniyatlar chegarasidan yuqori turadi. G‘arb va Sharq adabiyoti bu kodni turlicha tilda ifoda etadi, ammo maqsad bir: inson qalbida ezgulikni uyg‘otish, ruhni yuksaltirish va nur sari yetaklash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Andersen, H. C. The complete fairy tales and stories. – New York: Anchor Books, 2005. – 980 p.
2. Augustine, St. Ispovedi. – Moskva: Eksmo, 2002. – 432 s.
3. Campbell, J. The hero with a thousand faces. – Princeton: Princeton University Press, 1949. – 416 p.
4. Dante, A. Božestvennaya komediya (The Divine comedy). – Moskva: Eksmo, 2007. – 544 s.
5. Eliade, M. The sacred and the profane: The nature of religion. – New York: Harcourt, Brace and World, 1957. – 232 p.
6. Eshonqulova, M. Sharq va G‘arb mifologiyasida nur va zulmat konsepsiyasi. – “Filologiya masalalari” jurnali, №4, 2020. – B. 87–95.
7. G‘ulomov, A. Adabiy tahlil nazariyasi. –Toshkent: Universitet, 2011.–310 b
8. Jo‘rayev, M. Folklor va bolalar adabiyoti aloqalari. – Toshkent: Universitet, 2016. – 155 b.
9. Jung, C. G. Man and his symbols. – London: Aldus Books, 1964. – 268 p.
10. Lewis, C. S. The Lion, the Witch and the Wardrobe. – London: Geoffrey Bles, 1950. – 208 p.
11. Navoiy, A. Lison ut-tayr. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1987. – 320 b.
12. Qurbonov, P. A. Bolalar adabiyotida ramziy obrazlarning psixologik talqini. – Turon Universiteti ilmiy jurnali, №2, 2023. – B. 44–53.
13. Rumiy, J. Masnaviy ma’naviy. – Tehron: Ketabxona-ye Eron, 2010. – 428 b.
14. Turdieva, N. Sharq adabiyotida ramz va timsollar poetikasi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018. – 190 b.

Kuryozova Dilfuza
Xorazm Ma'mun akademiyasi doktoranti

SHERMUHAMMAD MUNIS TARJIMASIDAGI "RAVZAT-US-SAFO" ASARIDA QO'LLANILGAN TURKIY QATLAMGA MANSUB LEKSIKA XUSUSIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Shermuhammad Munis tomonidan amalga oshirilgan "Ravzat-us-safo" tarjimasida uchraydigan turkiy qatlamga mansub leksika xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda qo'llangan turkiy so'zlarning semantik ko'lami, ularning stilistik funksiyasi hamda tarjima jarayonidagi o'rni yoritilgan. Tadqiqot turkiy leksikaning tarixiy-madaniy ahamiyatini aniqlash, shuningdek, Munis tarjima maktabining lingvistik xususiyatlarini ko'rsatishga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *Munis, Ravzatu-s-safo, turkiy leksika, tarjima, tarixiy til, semantika, uslubiyat.*

ОСОБЕННОСТИ ЛЕКСИКИ ТЮРКСКОГО СЛОЯ, ИСПОЛЬЗОВАННОЙ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «РАВЗАТ-УС-САФО» В ПЕРЕВОДЕ ШЕРМУХАММАДА МУНИСА

Аннотация. *В данной статье рассматриваются особенности тюркской лексики, использованной в переводе произведения «Равзат-ус-сафо», выполненном Шермухаммадом Мунисом. Анализируются семантические особенности тюркских слов, их стилистические функции и роль в переводческом процессе. Исследование направлено на выявление историко-культурного значения тюркской лексики и лингвистических особенностей переводческой школы Мунисa.*

Ключевые слова: *Мунис, Равзату-с-сафо, тюркская лексика, перевод, исторический язык, семантика, стилистика.*

FEATURES OF THE TURKIC LEXICAL LAYER USED IN SHERMUHAMMAD MUNIS'S TRANSLATION OF RAVZAT-US-SAFA

Annotation. *This article examines the features of the Turkic lexical layer used in Shermuhammad Munis's translation of Ravzat-us-Safa. The study analyzes the semantic range of the Turkic vocabulary, its stylistic functions, and its role in the translation process. The research aims to reveal the historical and cultural significance of the Turkic lexicon as well as the linguistic characteristics of Munis's translation tradition.*

Key words: *Munis, Ravzatu-s-Safa, Turkic lexicon, translation, historical language, semantics, stylistics.*

Kirish. Tilimiz tarixiy taraqqiyotida muhim o'rin tutgan har bir asar leksikasining tarixiy-etimologik tahlili o'zbek tili leksikasi umumtaraqqiyotini o'rganish, uning rivojlanish qonuniyatlari va boyish manbalarini o'rganishga yordam beradi. Bu borada E.A.Begmatovning o'zbek tilining lug'aviy qatlamlari bo'yicha e'lon qilgan ilmiy ishlaridagi nazariy qarashlar, o'zbek tili tarixiy leksikasi bo'yicha amalga oshirilgan keyingi umumiy plandagi ishlarda ilgari surilgan fikrlar e'tiborga molikdir. Eski o'zbek tilida bitilgan asarlari leksikasini tashkil etgan ayrim so'zlar tarixiy-etimologik tahlilida ularning turli leksikografik manbalar va tarixiy leksikaga oid tadqiqotlarda bir-biridan farqli ravishda, ba'zan biri ikkinchisiga butunlay qarama-qarshi holatda talqin qilinganiga guvoh bo'lamiz.

Metodologiya. Tadqiqotda kompleks lisoniy tahlil usuli qo'llandi:

Leksik-semantik yondashuv - asosiy terminlarning ma'no doirasi aniqlanib, kontekstual tahlil qilindi;

Falsafiy va irfoniy sharh - terminlarning kalom, hikmat va tasavvufdagi talqinlari Dehxudo va Sajjodiy lug'atlari asosida solishtirildi;

Konseptual tahlil - "mavjudot", "mufradot", "murakkabot" kabi atamalarning semantik iyerarxiyasi ochib berildi.

Mavzuga oid manbalar Munis tarjimasidagi “Ravzatu-s-safo” leksikasini muayyan guruhlarga bo‘lib o‘rganish imkoniyatini beradi.

Natijalar va muhokama. Har bir asar leksikasi tizimida turli lug‘aviy qatlamlarga mansub so‘zlar miqdori yozma adabiyotda muallifning uslubi, asar bitilgan yoki undagi voqealar qalamga olinayotgan davr muhiti kabi omillar bilan bog‘liq ravishda o‘zgarib turadi. Turkiy so‘zlarning aksariyati ko‘plab qarindosh tillar uchun umumiy, ya’ni mushtarak qatlam bo‘lgani uchun mavjud adabiyotlarda bu tushuncha umumturkiy leksika, umumturkiy qatlam, turkiy qatlam kabi ifodalar bilan tahlil qilinadi.

Tilshunosligimizda keyingi yillarda o‘zbek tilining etimologik lug‘atini yaratish borasida muhim qadam qo‘yildi. Shuningdek, xorijlik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham o‘z qatlamga mansub so‘zlarni aniqlash va etimologik tavsifida muhim nazariy asos bo‘la oladi.

Albatta, ushbu tadqiqot davomida asarda qo‘llanilgan turkiy qatlamga oid barcha lug‘aviy birliklarning tarixiy-etimologik tavsifi xususida so‘z yuritish imkoniyati mavjud emas. Shuning uchun asosiy e’tiborni etimologik tavsifida hanuz ham bir to‘xtamga kelinmagan, qolaversa, ayrim tadqiqotchilar tomonidan genetikasi turkiy tillarga mansubligi shubha ostiga olingan so‘zlar tahliliga qaratdik. Bu, bizningcha, muhim ma’naviy- ma’rifiy ega bo‘lib, “biz ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur” ekanligidan kelib chiqadi.

Asarda qo‘llanilgan turkiy qatlamga mansub so‘zlarning tarixiy-etimologik tavsifi ham yuqoridagi fikrlar to‘g‘riligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari CVC (undosh+unli+undosh

Har bir asar leksikasi tizimida turli lug‘aviy qatlamlarga mansub so‘zlar miqdori yozma adabiyotda muallifning uslubi, asar bitilgan yoki undagi voqealar qalamga olinayotgan davr muhiti kabi omillar bilan bog‘liq ravishda o‘zgarib turadi. Turkiy so‘zlarning aksariyati ko‘plab qarindosh tillar uchun umumiy, ya’ni mushtarak qatlam bo‘lgani uchun mavjud adabiyotlarda bu tushuncha umumturkiy leksika, umumturkiy qatlam, turkiy qatlam kabi ifodalar bilan tahlil qilinadi.

Tilshunosligimizda keyingi yillarda o‘zbek tilining etimologik lug‘atini yaratish borasida muhim qadam qo‘yildi. Shuningdek, xorijlik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham o‘z qatlamga mansub so‘zlarni aniqlash va etimologik tavsifida muhim nazariy asos bo‘la oladi.

Albatta, ushbu tadqiqot davomida asarda qo‘llanilgan turkiy qatlamga oid barcha lug‘aviy birliklarning tarixiy-etimologik tavsifi xususida so‘z yuritish imkoniyati mavjud emas. Shuning uchun asosiy e’tiborni etimologik tavsifida hanuz ham bir to‘xtamga kelinmagan, qolaversa, ayrim tadqiqotchilar tomonidan genetikasi turkiy tillarga mansubligi shubha ostiga olingan so‘zlar tahliliga qaratdik. Bu, bizningcha, muhim ma’naviy- ma’rifiy ega bo‘lib, “biz ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur” ekanligidan kelib chiqadi.

Asarda qo‘llanilgan turkiy qatlamga mansub so‘zlarning tarixiy-etimologik tavsifi ham yuqoridagi fikrlar to‘g‘riligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari CVC (undosh+unli+undosh) ko‘rinishida bo‘lgan bugungi kunda eng kichik ma’noli komponet deb qaralgan ayrim so‘zlarning tarixan yasama bo‘lganligi haqidagi mulohazani o‘rtaga tashlash imkonini beradi. Masalan, “*go‘sht, jun, sut olish uchun boqiladigan uy hayvoni*” ma’nosidagi *qoy* so‘zini olaylik. Bu so‘z

tomonidan *qoy, qon* tarzida ko‘rsatilib, uning dastlabki shakllari qod va qoz bo‘lganini taxmin qilish mumkin. Chunki, “Qutadg‘u bilik”da ham bu so‘z *qoy* shaklida ishlatilsa-da, Hamal burjining nomi Qozi tarzida tilgan olinadi[4, 97]. Asarda Savr burjining nomi Ud tarzida ishlatilgani, shuningdek, inak so‘zi bilan sinonimlik kasb etib, “sigir” ma’nosini berganiga qarab xulosa chiqaradigan bo‘lsak, bu so‘z keyinchalik “ho‘kiz” ma’nosida uy shaklida ishlatilgan (3, 44). Xuddi shu tarzda bu so‘zning omonimi “biror makonga joylashtirmoq” ma’nosidagi fe’lning dastlabki shakli qod bo‘lgani ma’lum. Ushbu so‘z tahlilida Sh.Rahmatullayev “qoz-, qot- so‘zlarini ham qamrab olib fikr yuritsak, qadimgi turkiy tilda “o‘rin” ma’nosini anglatgan qo oti mavjud bo‘lganiga, qod-, qoy-, qot- so‘zlari oxiridagi undoshlar aslida fe’l yasovchi ekaniga ishonch qilamiz” – deb yozadi. Olim ta’kidlaganidek, ushbu misollardagi -d, -y “yo‘nalish”, -z, -t “qoldirish” ma’nosini ifodalagan bo‘lib chiqishini to‘y (bu o‘rinda biror narsani yig‘ishtirib, joylash, tug- fe’lining qipchoq lahjasidagi shakli) va tut- fe’llarini qiyoslash orqali ham ko‘ramiz. Shu tariqa qoy va qozo so‘zlarining ildizi umumiy deb hisoblasak, qoy so‘zining o‘zi qo o‘zagidan hosil bo‘lgan sanaladi. Lekin bu masala anchayin

murakkab bo‘lib, N.A.Baskakov ancha yillar oldin ta’kidlagan bo‘lishiga qaramay, “turkiy o‘zaklarning qurilish muammosi va ularning fonetik tarkibi haqidagi munozara hamda ularning tadrijiy taraqqiyoti (C)VC-CV(C)- (C)V(C)-CVCdan boshlanganmi yoki V>CV-VC-CVCdan boshlanganmi, bu narsa hozirgi paytgacha tortishuvchi va hal etilmay kelinmoqda”.

Demak, qo‘d // qo‘z (“z” tishora undosh) // qo‘y qadimgi turkiy qo – “o‘rin” so‘ziga “joylashish” ma’nosidagi -d // -y qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan (1, 90). Buni mazkur jonivorning dastlabki uy hayvonlaridan bo‘lganini taxmin qilish, ajdodlar tomonidan dastlab xonakilashtirilgan jonzotlardan ekanini hisobga olish bilan asoslash mumkin. Shunga ko‘ra, -d // -y undoshlari “joylashish” ma’nosida ayni paytda ham ot, ham fe’l hosil qilishi ayon bo‘ladi. Turkiy tillarda ot va fe’l o‘rtasidagi bu tariqa yuzaga kelgan omonimlar maxsus o‘rganilgan.

Hozirgi turkiy tillardan turk tilida koyun, ozarboyjon, turkman tillarida g‘ojun, oltoy, qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz, no‘g‘oy, uyg‘ur, gagauz tillarida kojun, tuva, xakas tillarida xoi bo‘lgan bu so‘zning oltoy oilasiga mansub mo‘g‘ul tilida xoni(n), manjur tilida xonin, tungus tilida konin bo‘lgani ham bu so‘zning naqadar qadimiyligiga dalolat qiladi. Sh.Rahmatullayev qoyun va qono`n shakllaridagi -n qo‘shimchasini kichraytirish-erkalash ma’nosini ifodalasa kerak, degan mulohazani bildiradi (2, 81). Ibn Muhanna lug‘atida ham ushbu shakl keltirilgan.

“Qo‘yning bir yoshgacha bo‘lgan bolasi” ma’nosidagi qo‘zi so‘zi, fikrimizcha, tarixan qo‘yning qo‘z shakliga -i qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan. Bunda mazkur qo‘shimcha “-simon”; “o‘xshash”; “tegishli” ma’nolarini berishi ehtimolga yaqin. Bu qo‘shimchaning shu ma’nolardan birini berishini boshqa bir hayvon nomi bo‘ri so‘zida ko‘rishimiz mumkin. Bo‘ri “kulrang”, “ko‘kimtir” ma’nosini anglatgan bo‘z // bo‘r so‘zidan yasalgani qayd etiladi. Bundan ham asosliroq deb hisoblash mumkin bo‘lgan mulohaza shuki, qadimgi turkiy tilda “o‘simlik” ma’nosidagi *i* oti bo‘lgan. “O‘simlik” ma’nosining esa “nasl”; “avlod” (ildiz so‘zi “ajdod” semasiga qadar kengaygani kabi) mazmunini kasb etishi yoki aksincha ma’no siljishi yuz berishi “oson”. Agar ko‘plab qo‘shimcha va ko‘makchilar mustaqil so‘zlardan shakllanganini e’tiborga olsak, bu holat turkiy tillar tabiatiga xosligini ko‘ramiz. Qo‘d // qo‘zi shu tariqa “qo‘yning bolasi” mazmunini kasb etganligi va undagi tishora z keyinchalik qo‘y bilan farqlash (differensatsiya tamoyili) asosida y o‘rniga, til oldi z ga almashgan bo‘lishi ehtimolga yaqin. O‘ ning “-simon”; “o‘xshash”; “tegishli” ma’nolari keyingi tadrijiy taraqqiyot mahsuli hisoblanadi.

Xulosa. Xulosasi sifatida aytish shuni mumkinki, Munis tarjimasidagi “Ravzatu-s-safo” leksikasidagi turkiy qatlamga mansub so‘zlarning tarixiy-etimologik tahlili o‘zbek tili lug‘at fondining asosiy tayanchi bo‘lgan turkiy qatlamga mansub ayrim so‘zlarning semantik tarixini yoritishda muhim o‘rin tutsa, ayrim so‘zlar etimologiyasidagi bir to‘xtamga kelinmagan o‘rinlarni to‘ldirish, fikrlarni qat’iylashtirish, bir-biriga solishtirish uchun ahamiyatli xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi. Asardagi turkiy qatlamga murojaat genetikasi munozaralali bo‘lgan so‘zlar tahlilida ham qo‘l kelishi uning ilmiy-ma’naviy ahamiyatini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билик. Т., “Ғ.Ғулом” нашр., 1971.
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000.
3. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. III жилд. – Тошкент: Ўз ФАН, 1963.
4. Саъдий Шерозий. Гулистон. Таржимон Ғ.Ғулом, Ш.Шомуҳамедов, Р.Комилов, нашрга тайёрловчи М.Васфий. Т., “Ғ.Ғулом” нашр., 1968.

Toirova Muhayyo Rahmonaliyevna
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi
E-mail: toirovamuhayyo97@gmail.com

JADID TILSHUNISLARI MEROSI: O‘ZBEK TILI TA'LIMIDA YANGILIKLAR VA ISLOHOTLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jadid tilshunoslari merosi va ularning o‘zbek tili ta’limiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Jadidchilik harakati davrida til, ta’lim va madaniyat sohalarida amalga oshirilgan islohotlar, xususan, yangi usul maktablari, darsliklar va o‘qitish metodlarining shakllanishi haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, jadid tilshunoslarining g‘oyalari zamonaviy o‘zbek tili o‘qitish tizimida qanday davom etayotgani, ularning metodik qarashlari bugungi ta’limda qanday yangicha mazmun kasb etayotgani ilmiy asosda yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Jadidchilik, tilshunoslik, o‘zbek tili ta’limi, yangi usul maktablari, islohotlar, metodika, zamonaviy ta’lim, til madaniyati.*

THE HERITAGE OF JADID LINGUISTS: INNOVATION AND REFORMS IN UZBEKISTAN LANGUAGE EDUCATION

Abstract. *This article analyzes the legacy of Jadid linguists and their contribution to Uzbek language education. The reforms carried out in the fields of language, education and culture during the Jadid movement are discussed, in particular, the formation of new method schools, textbooks and teaching methods. It also sheds light on how the ideas of Jadid linguists continue in the modern Uzbek language education system, and how their methodological views acquire new content in today's education.*

Key words: *Jadidism, linguistics, Uzbek language education, new-method schools, reforms, methodology, modern education, language culture.*

НАСЛЕДИЕ ЯЗЫКОВЕДОВ-ДЖАДИДОВ: ИННОВАЦИИ И РЕФОРМЫ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. *В статье анализируется наследие языковедов-джадидов и их вклад в узбекское языковое образование. Рассматриваются реформы, проведенные в сфере языка, образования и культуры в период джадидизма, в частности, формирование новометодных школ, учебников и методик преподавания. Также рассматривается, как идеи языковедов-джадидов находят свое продолжение в современной системе узбекского языкового образования и как их методические взгляды обретают новое содержание в современном образовании.*

Ключевые слова: *джадидизм, языкознание, узбекское языковое образование, новометодные школы, реформы, методика, современное образование, языковая культура.*

Kirish. Jadidchilik - XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda, xususan, Turkiston o‘lkasida yuzaga kelgan ilmiy-ma’rifiy, ijtimoiy va madaniy harakat bo‘lib, uning bosh maqsadi millatni uyg‘otish, xalqni savodli qilish, ta’lim tizimini yangilash, diniy ta’limni dunyoviy fanlar bilan uyg‘unlashtirish edi. Bu jarayonda jadid ziyolilari til masalasini milliy o‘zlikni anglash va madaniyatni yuksaltirishning asosiy omili sifatida ko‘rdilar. Shuning uchun ular tilni tozalash, o‘qitish usullarini isloh qilish, yozuv va imlo masalalarini tartibga solish, o‘zbek adabiy tilini shakllantirish yo‘lida katta xizmat qildilar [1].

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon, Hamza kabi jadid mutafakkirlar til va ta’lim masalalariga chuqur e’tibor qaratganlar. Masalan, Behbudiy “Padarkush” asarida xalqni jaholatdan qutqarishning yo‘li ilm va ma’rifatda, zamonaviy bilimlarni o‘rganishda ekanini ta’kidlaydi. Avloniy esa o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ma’naviy-axloqiy aloqaning ahamiyatini ko‘rsatadi. Fitrat esa “Til va adabiyot qoidalari” nomli asarida o‘zbek adabiy tilining ilmiy

asoslarini yaratishga harakat qilgan, tildagi ortiqcha arabcha va forscha so‘zlarni qisqartirishni, xalq tiliga yaqin bo‘lgan shakllarni ishlatishni tavsiya qilgan [2].

Adabiyotlar sharhi. Behbudiy [1] o‘z asarlarida o‘zbek xalqining ma’rifat orqali yuksalishi uchun tilni isloh qilish, ilmiy terminologiyani rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. Uning qarashlari bugungi zamonaviy o‘zbek tili ta’limining ma’naviy poydevorini tashkil etadi.

Fitrat [2] esa o‘zbek tilining ilmiy asoslarini ishlab chiqib, tilshunoslikni milliy taraqqiyotning strategik yo‘nalishi sifatida ko‘rsatadi. U imlo, grammatik tizim va uslubiy me’yorlarning soddalashuviga e’tibor qaratgan.

Avloniy [3] o‘zining pedagogik qarashlarida tilni axloq, madaniyat va ma’naviyat bilan bog‘lagan holda, “ona tili xalq ruhining oynasidir” degan fikrni ilgari suradi. Bu yondashuv bugungi o‘zbek tili ta’limida ham o‘z aksini topgan.

Munavvarqori [4] o‘qituvchilarning yangi metodik yondashuvlarni egallashini, har bir darsni o‘quvchining tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirish zarurligini uqtirgan. Uning asarlari o‘qituvchi faoliyatining ma’naviy mas’uliyatini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Jadid tilshunoslarining yondashuvlari o‘z davri uchun o‘ta ilg‘or edi. Ular ta’limni faqat yod olishga emas, balki tafakkurga, tahlil va ijodiy fikrlashga asoslashni maqsad qilganlar. Yangi usul maktablarida fonetik yozuv, orfoepiya, imlo, so‘z boyligini oshirish, nutq madaniyatini shakllantirish kabi mavzular alohida o‘rganilgan. Bu o‘z davrida o‘zbek tili o‘qitish metodikasining poydevorini yaratdi [3].

Zamonaviy o‘zbek tilini o‘qitishda jadidlar merosiga qaytish katta ahamiyat kasb etmoqda. Ularning darslik tuzish, o‘quvchilarni faol ishtirokchi qilish, muammoli ta’lim va mustaqil fikrlashga undash kabi g‘oyalari bugungi kunda kompetensiyaga asoslangan ta’lim konsepsiyasi bilan uyg‘unlashadi. Masalan, Fitratning ta’lim metodikasida har bir so‘zning ma’nosini kontekstdan anglash, tahlil qilish, o‘quvchi tomonidan mustaqil xulosa chiqarish kabi yondashuvlar mavjud bo‘lib, bu hozirgi “interfaol metodlar”ning asl manbasi sanaladi [4].

O‘zbek tilshunosligi sohasida jadidlarning yangiliklari bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Ular o‘zbek tili grammatikasini tizimlashtirish, leksikografiya va orfoepiya asoslarini shakllantirish, imlo islohoti, yozuv madaniyati va matbuot tilini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaganlar. Masalan, Avloniy o‘z asarlarida ona tili ta’limini milliy tarbiya bilan bog‘lash zarurligini ta’kidlagan bo‘lsa, Behbudiy ilm-fan terminlarini xalq tili asosida yaratish zarurligini ilgari surgan [5].

Natijalar. Hozirgi kunda o‘zbek tili ta’limida multimedia, interfaol metodlar, raqamli platformalar orqali o‘qitish, integratsion yondashuvlar jadidlarning ilgari surgan g‘oyalarining mantiqiy davomi sifatida qaralmoqda. Ularning ilmiy merosi bugungi ta’limda milliylik va zamonaviylik uyg‘unligini ta’minlashda, shuningdek, o‘zbek tilining xalqaro maydondagi mavqeini oshirishda mustahkam metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda [6].

Jadid tilshunoslari ilgari surgan “ta’lim xalqni taraqqiyotga olib boradigan yagona yo‘l” degan g‘oya hozirgi ta’lim tizimining ham bosh tamoyiliga aylangan. Ularning merosi faqat tarixiy emas, balki metodik, g‘oyaviy va ma’naviy manba sifatida har bir o‘zbek tili o‘qituvchisi uchun ilhom va tajriba maktabidir [7].

Jadid tilshunoslari faoliyati, aslida, o‘z davrining ilmiy-pedagogik inqilobi edi. Ular millatning ma’naviy uyg‘onishi, o‘zligini anglash va taraqqiyot sari intilishida tilning markaziy o‘rinda turishini chuqur his etganlar. Shu boisdan ham jadidlar “tilsiz millat – jonsiz tanadir” degan g‘oyani amalda isbotlashga urindilar. Ularning faoliyati natijasida o‘zbek tili ilmiy, ta’limiy va madaniy muhitda faol qo‘llanila boshladi, darsliklar, grammatik qo‘llanmalar, lug‘atlar va matbuot sahifalarida milliy tilning mavqei mustahkamlandi.

Jadidlar ilgari surgan ta’lim islohotlari orasida “usuli jadid” – ya’ni yangi o‘qitish usuli eng muhim yangilik bo‘ldi. Bu usul an’anaviy yodlashga asoslangan darslardan farqli ravishda, talabaning fikrlash qobiliyatini, kuzatuvchanligini va nutq faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan edi. Harflarni yodlash emas, ularni tovush bilan bog‘lash, tildagi so‘zlarning ma’nosini tushunish orqali o‘rganish prinsipi o‘z davrida metodik yangilik sifatida baholandi [1]. Ushbu tamoyillar zamonaviy o‘zbek tili darslarida interfaol metodlar – “aqliy hujum”, “fikr almashish”, “klaster” kabi usullar shaklida o‘z aksini topgan.

Shuningdek, jadid tilshunoslari terminologiya yaratish masalasiga ham alohida e'tibor qaratganlar. Ular ilmiy tushunchalarni o'zbek tili negizida ifodalashga, arabcha va forscha so'zlardan iloji boricha voz kechishga intilganlar. Bu hol o'zbek adabiy tilining mustaqil rivojlanish yo'lini belgilab berdi. Fitrat, Avloniy va Munavvarqorining lug'at tuzish bo'yicha ishlari hozirgi o'zbek leksikografiyasi fanining poydevorini tashkil etadi. Masalan, Fitrat o'zining "O'zbek tili qoidalari" asarida o'quvchilarga grammatik tushunchalarni xalq tili misollarida tushuntirishni tavsiya qilgan, bu esa o'qitishda tabiiylik va milliylik tamoyillarini kuchaytirgan [2].

Jadid tilshunoslarining faoliyati nafaqat ta'lim tizimini yangilash, balki o'zbek xalqining ma'naviy uyg'onish jarayonini shakllantirishga qaratilgan keng qamrovli ijtimoiy-madaniy harakat sifatida namoyon bo'ladi. Ularning til, ma'rifat va tarbiya haqidagi qarashlari o'sha davrning mavjud qoloqlik sharoitida keskin yangilik bo'lib, jamiyatning barcha qatlamlari uchun fikrlash ufqlarini kengaytirishga xizmat qilgan. Jadidlar tildagi islohotni faqat lug'aviy tozalik bilan cheklab qo'ymagan, balki tilni xalqning ijtimoiy ongini yuksaltiruvchi ma'rifiy qurol sifatida talqin qilganlar. Shuning uchun ular tomonidan yaratilib, yangicha mazmun berilgan darsliklar, qo'llanmalar va yangi usuldagi maktablar o'zbek jamiyatining pedagogik taraqqiyotida tub burilish yasadi.

Jadidlarning tilga doir qarashlari ichida eng muhim jihatlardan biri - tilni milliy o'zlikning markaziy tayanchi sifatida ko'rishidir. Ular tilda xalqning tarixi, ruhiyati, qadriyati mujassam bo'lishini ta'kidlagan. Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Cho'lpon singari ziyolilarning tilni milliy uyg'onishning asosiy omili deb bilishi bejiz emas edi. Chunki mustamlaka davrida tilni rivojlantirish orqali milliy o'zlikni tiklash, xalq ongiga o'z qadriyatlarini qaytarish imkoniyati mavjud edi. Bu g'oya, ayniqsa, Fitratning ilmiy merosida aniq namoyon bo'ladi - u o'zbek tilini mustaqil ilmiy tizimga aylantirishni, uni xalq tiliga yaqinlashtirishni, ortiqcha dabdababozlikdan xalos etishni taklif qilgan edi.

Shuningdek, jadid tilshunosligining yana bir muhim jihati - ta'lim mazmunini hayotiylik tamoyiliga asoslashdir. Jadid pedagogikasida o'quv jarayoni hayot bilan uzviy bog'langan: darslar amaliy faoliyatga yo'naltirilgan, matnlar esa o'quvchilarning real hayot tajribalariga mos tanlangan. Bu yondashuvning zamirida shunday fikr yotar ediki, bolaga faqat matnni yodlatish emas, balki uni tushuntirish, savol berishga undash, mustaqil xulosa chiqarish imkonini yaratish zarur. Shu bois, jadid ta'limida o'qituvchi passiv bilim beruvchi emas, balki o'quv jarayonining tashkilotchisi, yo'lboshchisi sifatida namoyon bo'lgan.

Jadidlar til va ta'limni modernizatsiya qilishda matbuotning o'rniga ham katta ahamiyat berishgan. "Oyna", "Taraqqiy", "Shuhrat", "Sadoi Turkiston" kabi nashrlar orqali ular xalqni ilm, fan, madaniyat va milliy o'zlikning ahamiyati haqida ma'rifatli qilishga intilganlar. Matbuot tili sodda, xalqchil, tushunarli bo'lishi kerakligi haqidagi talab bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Zamonaviy o'zbek tili o'qitish metodikasida matbuot tilining o'rganilishi, media matnlar bilan ishlash, funksional savodxonlikni rivojlantirish kabi yo'nalishlar aynan jadidlarning yondashuvlariga borib taqaladi.

Jadidlarning tilshunoslikdagi innovatsion qarashlari zamonaviy kompetensiyaga asoslangan ta'lim tizimi bilan hamohangdir. Bugungi ta'lim jarayonida o'quvchini mustaqil izlanishga, fikrlashga, tanqidiy tahlilga, ijodkorlikka undovchi topshiriqlar asosiy o'rin egallaydi. Bu, aslida, jadidlarning "o'quvchi faol bo'lsin", "o'quvchi fikrlasin", "o'quvchi savol bersin" degan g'oyalarining tabiiy davomidir. Masalan, Fitratning lingvodidaktik qarashlarida matnning mazmunini kontekstdan anglash, mantiqiy bog'lanishlarni aniqlash, sabab-natija munosabatlarini ko'rish talab etilgan. Hozirgi zamon o'zbek tili darslarida qo'llaniladigan tahliliy o'qish, matn ustida ishlash, funksional yondashuvlar aynan shu an'anaga asoslanadi.

Zamonaviy o'zbek tili ta'limida jadidlar merosining amaliy ahamiyati yanada kengayib bormoqda. Raqamli ta'lim, elektron darsliklar, interfaol metodlar va kreativ topshiriqlar bilan boyigan dars jarayonlarida jadidlarning tamoyillari zamonaviy shaklga ega bo'lmoqda. Shuningdek, tilni milliy o'zlik va madaniyat bilan bog'lash, ta'limda ma'naviy tarbiyani kuchaytirish, o'quvchini jamiyatga foydali, fikrlay oladigan shaxs sifatida shakllantirish kabi maqsadlar bugungi ta'lim siyosatining ham ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

Jadid tilshunosligi merosining zamonaviy ta'limga qo'shayotgan eng muhim hissalaridan yana biri - til madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan g'oyalaridir. Ular so'zning ma'nosini bilish, tilni

me'yor asosida ishlatish, ravon nutqqa ega bo'lish kabi ko'nikmalarni shakllantirishni ta'limning asosiy vazifasi deb bilganlar. Bu tamoyil bugungi kun o'zbek tili ta'limida nutq madaniyati, orfoepiya, so'z boyligini oshirish, matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish kabi yo'nalishlarda o'z aksini topmoqda.

Jadid tilshunoslari merosini chuqur tahlil qilgan tadqiqotchilar ularning faoliyati faqat ma'rifat targ'ibotiga qaratilgan oddiy harakat bo'lmay, balki kompleks pedagogik tizim sifatida shakllanganini ta'kidlaydilar. Jadidlarning til siyosati, ta'lim falsafasi va madaniy islohotlari o'zaro bir-birini to'ldiruvchi yaxlit g'oyaviy platforma bo'lib, o'zbek tili ta'limining bugungi poydevorini belgilab berdi. Ular ta'limni jamiyat taraqqiyotining markaziy yo'nalishi sifatida ko'rganlari uchun tilni o'rgatish masalasiga ham mafkuraviy, ham didaktik yondashuvda bo'lganlar. Ayniqsa, tilning jamiyatdagi o'rni, so'zning tarbiyaviy kuchi, nutq madaniyati va yozuvni takomillashtirish haqidagi fikrlar ularning asarlarida markaziy o'rin egallaydi.

Jadidlarning o'ziga xos yangiliklaridan biri - tilni ijtimoiy ongni shakllantiruvchi kuch sifatida talqin qilganidir. Ular tilni nafaqat aloqa vositasi, balki milliy tafakkurni shakllantiruvchi omil, ma'naviy birlikni ifodalovchi mezon sifatida baholaganlar. Shu bois maktab darsliklarida tilshunoslikka oid mavzularni xalq tilidan olingan namunalar bilan tushuntirishga, asarlarni o'quvchi ongiga yaqinlashtirishga intilganlar. Aynan shu yondashuv zamonaviy o'zbek tili o'qitishida "kompetensiyaga asoslangan" metodikaning nazariy ildizlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Shuningdek, jadidlar o'quvchi nutqini rivojlantirishda matn bilan ishlash tamoyillarini ishlab chiqqanlar. Ular matnni tahlil qilish, mazmunni ajratish, asosiy g'oyani anglash, qayta hikoya qilish, mulohaza bildirishi kabi amaliy ko'nikmalarni o'quvchi tafakkurini shakllantirishda eng samarali vosita deb hisoblaganlar. Bu yondashuv bugungi o'qish savodxonligi darslarida qo'llanilayotgan "matn ustida ishlash" metodining ilmiy asosini tashkil etadi.

Jadid tilshunoslarining darslik yaratish borasidagi mehnati ham o'z davri uchun yuksak innovatsiya edi. Behbudiy, Avloniy, Fitrat va Munavvarqorining darsliklari - mazmuniy tizim, til-grammatika tartibi, mashq turlari va tarbiyaviy g'oyalar jihatidan o'zbek ta'limi tarixidagi birinchi ilmiy asoslangan o'quv qo'llanmalari bo'ldi. Ularning har bir darsligi nafaqat bilim berishga, balki o'quvchining mustaqil fikr yuritish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. Darsliklar orqali o'quvchilarga nafaqat til, balki hayotiy qadriyatlar, madaniyat, odob-axloq me'yorlari o'rgatilgan.

Jadidlarning yozuv islohoti borasidagi faoliyati ham o'zbek tili ta'limida chuqur iz qoldirdi. Ular arab yozuvidan lotin yozuviga o'tishni taklif qilganlarida faqat texnik qulaylikni emas, balki ta'limning tezlashishi, savodxonlikning ommalashishi, adabiy tilning soddalashuvi kabi maqsadlarni ko'zlagan edilar. Yozuvni soddalashtirish orqali o'quvchilar uchun o'qishning tez, tushunarli va tizimli bo'lishiga katta e'tibor berilgan. Bu jarayon zamonaviy o'zbek yozuvi shakllanishida ham hal qiluvchi rol o'ynagan.

Jadidchilik merosining yana bir muhim tomoni - o'qituvchi shaxsiga bo'lgan yondashuvdir. Ular o'qituvchini jamiyatning eng yuksak ma'rifatparvar vakili sifatida ko'rganlar. Avloniy o'z asarlarida o'qituvchini "millatning bosh murabbiysi" sifatida ta'riflaydi. Bunday yondashuv zamonaviy ta'lim jarayonidagi "o'qituvchi – motivator", "o'qituvchi – yo'l ko'rsatuvchi" kabi tushunchalarning tarixiy ildizini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bugungi o'zbek tili ta'limida jadidlar merosi innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, kreativ pedagogika bilan uyg'unlashgan holda davom etmoqda. Raqamli ta'lim, elektron darsliklar, mediaresurslardan foydalanish jarayonida jadidlar ilgari surgan tamoyillar – soddalik, tushunarlilik, xalqchillik, ma'naviyat – hamon asosiy yo'nalish bo'lib qolmoqda. Zero, zamonaviy texnologiyalar vosita bo'lsa, jadid g'oyalari - ta'lim falsafasidir.

Shuningdek, bugungi global ta'lim jarayonida tilning ijtimoiy-ma'naviy vazifalarini chuqur anglash, o'quvchilarda milliy identifikatsiya, madaniy o'zlik va ma'naviy immunitetni shakllantirish ham jadidlar merosining bevosita davomi sanaladi. Tilni faqat lingvistik hodisa emas, balki ma'naviy-ideologik kuch sifatida talqin qilish - jadidchilikning eng yirik yutug'i edi. Bu yondashuv o'zbek tili ta'limining bugungi vazifalariga hamohangdir.

Xulosa va munozara. Jadid tilshunoslari o'z davrining ilg'or islohotchilaridan bo'lib, ularning o'zbek tili va ta'lim sohasiga qo'shgan hissasi beqiyosdir. Ular tilda soddalik, xalqchil ruh, milliy

g‘urur va ma’naviyatni birlashtirish orqali o‘zbek tili o‘qitish metodikasining poydevorini yaratdilar. Bugungi kunda jadidlarning ta’limiy qarashlari zamonaviy pedagogika, innovatsion texnologiyalar va kompetensiyaga asoslangan ta’lim bilan uyg‘unlashmoqda. Shu bois, jadid tilshunoslari merosini chuqur o‘rganish va uni zamonaviy dars jarayonlariga tatbiq etish o‘zbek tili o‘qitish sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Behbudiy M. Padarkush. – Samarqand: Matbaa-i Tarbiyat, 1911. – 78 b.
2. Fitrat A. Til va adabiyot qoidalari. – Toshkent: Maorif, 1926. – 156 b.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Ma’naviyat, 1992. – 196 b.
4. Munavvarqori A. Muallimlar uchun yo‘ldosh. – Toshkent: O‘qituvchi, 1917. – 104 b.
5. Qosimov B. Jadidchilik va o‘zbek madaniyati. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000. – 312 b.
6. Yo‘ldoshev M. Jadidchilikning til va ta’limdagi o‘rni. – Toshkent: Fan, 2014. – 220 b.
7. Razzokov O. O‘zbek tilini o‘qitishda jadid merosidan foydalanish metodikasi. – Termiz: TDPI nashriyoti, 2020. – 185 b.

Jo‘raqulova Mohiro‘y
Turon university master’s student
E-mail: juraqulovnuriddin896@gmail.com

LINGUOPOETIC EXPRESSION OF THE IMAGE OF A WOMAN IN ENGLISH AND UZBEK POETRY

Abstract. *In this article, based on a comparative analysis, the linguopoetic interpretation of the image of a woman in English and Uzbek poetry is studied. In the course of the study, the functional tasks of metaphors, symbols, epithets, images of nature, emotional vocabulary, and cultural signs that form the concept of woman were considered. It has been established that in English poetry, the individual psychological world of a woman, personal experiences, and the striving for freedom are manifested as a leading semantic direction, while in Uzbek poetry, the image of a woman is depicted as an artistic ideal enriched with grace, kindness, loyalty, purity, and national symbols. The results of the study show that the image of a woman is a universal aesthetic category in both literatures, and is shaped by the unique poetic views and artistic traditions of each culture. The article reveals the semantic layers of the concept of woman based on linguopoetic, conceptual-semantic, and comparative-typological approaches.*

Key words*: female image, linguopoetics, English poetry, Uzbek poetry, metaphor, symbolism, poetic image, cultural symbols, comparative analysis, semantic field.*

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ОБРАЗА ЖЕНЩИНЫ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ

Аннотация. *В данной статье на основе сравнительного анализа изучена лингвопоэтическая интерпретация образа женщины в английской и узбекской поэзии. В процессе исследования были рассмотрены функциональные функции метафор, символов, эпитетов, образов природы, эмоциональной лексики и культурных знаков, формирующих концепт женщины. Установлено, что в английской поэзии индивидуальный психологический мир женщины, личные переживания и стремление к свободе проявляются как ведущее семантическое направление, а в узбекской поэзии образ женщины изображается как художественный идеал, обогащенный изяществом, добротой, верностью, чистотой и национальными символами. Результаты исследования показывают, что образ женщины является универсальной эстетической категорией в обеих литературах, а также формируется уникальными поэтическими взглядами и художественными традициями каждой культуры. В статье раскрываются содержательные пласты концепта женщина на основе лингвопоэтического, концептуально-семантического и сравнительно-типологического подходов.*

Ключевые слова: *женский образ, лингвопоэтика, английская поэзия, узбекская поэзия, метафора, символика, поэтический образ, культурные символы, сравнительный анализ, семантическое поле.*

INGLIZ VA O‘ZBEK SHE’RIYATIDA AYOL OBRAZINING LINGVOPOETIK IFODASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek she’riyatida ayol obrazining lingvopoetik talqini qiyosiy tahlil asosida o‘rganilgan. Tadqiqot jarayonida ayol konseptini shakllantiruvchi metafora, simvol, epitet, tabiat obrazlari, emotsional leksika va madaniy ishoralarning funksional vazifalari ko’rib chiqildi. Ingliz she’riyatida ayolning individual psixologik olami, shaxsiy kechinmalari va erkinlikka intilishi yetakchi semantik yo’nalish sifatida namoyon bo’lgani, o’zbek she’riyatida esa ayol obrazi latofat, mehr, sadoqat, poklik va milliy timsollar bilan boyigan badiiy ideal sifatida tasvirlanganligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari ayol obrazining har ikki adabiyotda universal estetik*

kategoriya bo'lishi bilan birga, har bir madaniyatning o'ziga xos poetik qarashlari va badiiy an'analari bilan shakllanishini ko'rsatadi. Maqola lingvopoetik, konseptual-semantik va qiyosiy-tipologik yondashuvlar asosida ayol konseptining mazmuniy qatlamlarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: *ayol obrazi, lingvopoetika, ingliz she'riyati, o'zbek she'riyati, metafora, simvolika, poetik tasvir, madaniy timsollar, qiyosiy tahlil, semantik maydon.*

Introduction. At each stage of human thought and cultural development, the image of a woman occupies a special place, she is not only an artistic and aesthetic symbol, but also a mirror illuminating the subtle layers of the spiritual world. Poetry stands out as the genre that can depict women's nature most deeply and elegantly among the arts. Because the linguopoetic possibilities of poetic speech, such as imagery, musicality, symbolism, metaphorism, create a very convenient basis for describing such complex concepts as a woman's experiences, her mental state, status in society, and cultural identity. Therefore, the presentation of the image of a woman in English and Uzbek poetry, the study of the linguistic units representing it, and their artistic and aesthetic functions have become one of the urgent directions of modern literary studies. In English poetry, the image of a woman often appears as a symbol that is romantic, rich in lyricism, and deeply illuminates psychological layers. It is closely related to the concepts of love, beauty, freedom, and personal freedom, and forms a linguopoetic space through poetic means such as metaphor, epithet, symbol, personification. In particular, English romantics, depicting a woman through the elements of nature - wind, dawn, flower, sea, light, elevate her beauty and spiritual world to the level of a universal artistic image. Modernists, however, interpret a woman's inner monologue, personal identity, role in society, and psychological complexity in a new way using linguistic methods.

In Uzbek poetry, the linguopoetic expression of the image of a woman is inextricably linked with national mentality, values, traditions, and socio-aesthetic views. In Eastern artistic thought, a woman is often interpreted as a symbol of such qualities as loyalty, grace, modesty, kindness, and selflessness. At the same time, in modern Uzbek poetry, a woman's individual experiences, mental anguish, social problems, and independent thinking are also expressed through powerful artistic means. In this case, the metaphorical possibilities of the language, the symbolic layer, intertextual communication, and national symbols acquire an important linguopoetic load. The different interpretation of the image of a woman in English and Uzbek poetry is connected, on the one hand, with cultural and mental differences, and on the other hand, with the peculiar stages of development of poetic traditions. Therefore, a comparative analysis of the linguopoetic expression of the image of a woman serves not only to reveal typological similarities and differences between the two literatures, but also to determine the national and universal features of artistic thinking. This research approaches the issue from the point of view of the semantic-stylistic layers of poetic language, the functional features of the means of artistic representation, as well as gender poetics and cultural semantics.

In this article, a comparative analysis of the linguopoetic interpretation of the image of a woman in English and Uzbek poetry is carried out, the logical and semantic nature of the poetic means used in the depiction of a woman is highlighted, and the artistic and philosophical content of the concept of a woman in both poems is revealed. The results of the study show how the aesthetic possibilities of language and cultural factors play a role in the formation of the image of a woman and serve as an important scientific conclusion for the methods of linguopoetic analysis.

Literature analysis. The study of the artistic interpretation of the image of a woman and its linguopoetic expression is one of the widely studied areas in international literary studies and linguistics. The initial theoretical foundations go back to the scientific views created about the structure of poetic language, the nature of metaphorical images, and the formation of artistic concepts. The use of such means as metaphor, symbol, epithet, parallelism, metonymy in the expression of the image of a woman in poetic language has been interpreted as an artistic and aesthetic category in many studies, and their linguopoetic function is of particular scientific importance. In particular, it is emphasized that the concept of woman is interpreted in linguistics in connection with national-cultural mentality, social stereotypes, gender poetics, and artistic thinking. In English literary studies, the depiction of the image of a woman has been deeply studied in the context of such literary trends as romanticism, modernism, and postmodernism. In romantic literature, a woman is interpreted as a sacred element of nature, a

source of inspiration, a symbol of purity and spiritual balance. In subsequent stages, especially in modernist poetry, the psychological complexity of the image of a woman, individual experiences, human freedom, and her place in society are interpreted in a new way through linguistic and poetic means. In modern English studies, the semantic field of the concept of woman is illuminated in connection with gender identity, intertextual symbols, personal and collective experience. These views show that cultural context and the aesthetic possibilities of artistic language play an important role in the formation of the image of a woman in poetry.

In Uzbek literary studies, the poetic interpretation of the image of a woman has aroused special scientific interest in ancient lyrics, classical literature, modern poetry of the 20th century, and examples of modern creativity. In classical poetry, a woman is interpreted as a symbol of beauty, grace, fidelity, and divine love, illuminated through the symbolic content of linguistic units. In modern poetry, issues related to the inner spiritual world of a woman, personal experiences, sufferings, social position, and identity are expressed with strong linguopoetic means. Uzbek researchers have analyzed the structure of the artistic language representing the image of a woman, its semantic field, metaphorical networks, and the process of understanding through national symbols based on various theoretical approaches. Scientific works conducted within the framework of comparative literary studies show the presence of common poetic elements and national peculiarities in the formation of the image of women in English and Uzbek poetry. In many sources, the concept of woman is considered as a universal aesthetic category, and it is noted that it acquires a different semantic load in each literary space. In this case, national values, cultural stereotypes, historical processes, and the uniqueness of the literary school are noted as important factors. Also, the use of approaches to the theory of conceptual metaphor, cognitive poetics, gender linguistics, and intercultural semantics in the study of the linguopoetic interpretation of the image of a woman made it possible to scientifically substantiate this topic.

Methodology. This study is aimed at determining the linguopoetic expression of the image of a woman in English and Uzbek poetry, in which the methods of comparative-typological analysis, linguopoetic analysis, conceptual-semantic analysis, and interpretative hermeneutics were used. First of all, metaphors, epithets, symbols, intertextual elements, and cognitive structures representing the image of a woman in selected poetic texts were analyzed based on a linguopoetic approach. Then, the semantic field of the concept of woman in English and Uzbek poetry was compared using the comparative-typological method, and common and national features were identified. The conceptual-semantic approach made it possible to analyze the spiritual, aesthetic, and cultural content of the female image, while the hermeneutic approach was used in the semantic interpretation of the hidden, symbolic layers of poetic images. Thus, the harmonious application of various methods served to scientifically reveal the similarities and differences of the female image in the English and Uzbek poetic traditions.

Results and discussion. Although the linguopoetic interpretation of the image of a woman in English and Uzbek poetry has developed based on common artistic and aesthetic principles, there are significant differences in their semantic direction, semantic stresses, and means of poetic expression. First of all, in English poetry, the concept of woman is closely connected with individuality, personal experience, and mental state, and is revealed through the inner monologue of the lyrical hero, psychological experiences, and the process of self-awareness. In Uzbek poetry, the approach to the image of a woman is more closely connected with socio-spiritual values, Eastern morality, and the traditional role in society, but it has been observed that the elements of individuality are also increasing in the work of modern poets. In English poetry, metaphorical comparisons with images of nature occupy a special place in the depiction of women. A woman's eyes are compared to the light of a star, her smile to the light of dawn, and her face to spring flowers; such metaphors are given in close connection with the feelings of the lyrical subject. In such images, color names (white, blue, gold), the opposition of light and shadow, verbs expressing movement (shine, bloom, whisper) give a dynamic, living poetic scope to the image of a woman. In addition, in English poetry, lexical units representing the image of a woman are often combined with such semantic components as freedom, independence, inner strength, the ability to make decisions, through which a woman is embodied not only as an object of beauty, but also as an active subject.

In Uzbek poetry, the metaphorical system representing the image of a woman is formed more through national symbols - flower, basil, garden, crescent moon, sun, moon, sun, spring, garden bonus.

A woman is often described with phrases such as «home boss», «family heart», «house light», and her qualities such as kindness, loyalty, dedication, and patience come to the semantic center. It is also observed that the image of a woman is imbued with a national spirit through folk imagery, proverbs and sayings, parallelisms and repetitions. Analysis shows that in Uzbek poetry, the image of a woman is seen not in the image of a single lyrical hero, but within the framework of various social roles such as mother, spouse, sister, bride, teacher, and the semantic-verbal features specific to each role form an independent poetic layer. In both literature, the lexico-semantic field representing the image of a woman is very broad and multi-layered. In English poetry, key words such as «beauty, grace, soul, freedom, voice, silence, pain, desire» are often used together with the concept of woman and serve to subtly express her psychological state. In Uzbek poetry, units such as «mehr, or-nomus, hayo, latofat, sadoqat, orzu, armon» semantically enrich the image of a woman. The difference here is that in English poetry, the internal conflicts of women, the search for a personal «I», and internal dissatisfaction with society are strongly reflected from a linguopoetic point of view, while in Uzbek poetry, these aspects are more soft, symbolic, and sometimes indirectly expressed.

Rhythm and intonational construction also appear as an important tool in the poetic interpretation of the image of a woman. In English poetry, the sharp change of rhythmic structure and tone, pauses and enjambments (transition of lines to the next line) serve to express the instability of a woman's mental state, inner struggle, emotional explosion. In Uzbek poetry, the regularity of rhyme and radif, the use of internal rhyme, alliteration, and assonance give the female image musicality, softness, and lyrical smoothness. In this sense, in both literatures, the sound organization of the poem acts as a linguopoetic mechanism that strengthens the semantic-pragmatic load of the female image. Biblical plots, ancient mythology (the images of Aphrodite, Athena, the sacred mother), as well as references to other literary texts play an important role in illuminating the image of women in English poetry; through this, the image of women is connected with universal cultural memory. In Uzbek poetry, there are intertextual connections with Eastern classical literature, folklore, heroes of legends and epics, historical figures, symbols of motherhood and patriotism, and the national-cultural foundations of the female image are strengthened. This once again confirms that the concept of woman is not only a linguistic, but also a cultural-semiotic phenomenon.

In English and Uzbek poetry, the image of a woman is poetically interpreted differently depending on historical stages. If in the romantic period of English poetry, a woman is depicted more as a source of inspiration, a symbol of ideal beauty, then in the new era she appears as an active subject of socio-political processes, a thinking and decision-making person. Similarly, in Uzbek poetry, if initially a woman was idealized mainly within the framework of traditional family values, then in subsequent periods, the social activity of women, scientific and educational potential, and equal participation in society come to the center of the artistic image. At the same time, it is observed that lexical units, metaphors, and syntactic constructions representing the image of a woman are also being updated in the language of modern poets. In the linguopoetic interpretation of the image of a woman, not only the means of artistic language are important, but also the communicative-pragmatic layer of speech. If in English poetry it is common for a woman to appear on stage as a speaking subject, to speak from the position of «I», then in Uzbek poetry the lyrical subject often speaks about a woman in the third person, which creates an idealized image of the image of a woman observed from the outside. Nevertheless, it was especially noted that in modern Uzbek lyric poetry, the tendency of women to express their feelings directly through first-person speech is noticeably increasing.

In general, although the linguopoetic interpretation of the image of a woman in English and Uzbek poetry was formed in different cultural, historical, and social conditions, the concept of woman appears as a fundamental aesthetic category in both literatures. The image of a woman possesses universality as a singer of beauty, love, spiritual strength, spiritual stability, and the continuity of life. The metaphorical, symbolic, and emotional possibilities of poetic language serve to reveal this image in a deep, multi-layered, and colorful interpretation. As a result of a comparative analysis of the English and Uzbek poetic traditions, it was established that the linguopoetic expression of the image of a woman has important scientific and theoretical significance not only within the framework of individual national literatures, but also in the process of intercultural poetic communication.

Conclusion. The results of the study showed that, despite the fact that the linguopoetic interpretation of the image of a woman in English and Uzbek poetry is based on common aesthetic criteria, it has its own formation in connection with the cultural, historical, and poetic traditions of both literatures. In English poetry, the image of a woman is more vividly manifested through individual psychologism, freedom, inner experience, and personal identity, while in Uzbek poetry, she is interpreted as an ideal artistic symbol enriched with grace, kindness, loyalty, purity, and national symbols. In modern literature, it has been observed that in both literatures the individual «I», spiritual contradictions, and social status of women are expressed in new semantic colors. Metaphor, symbol, images of nature, and emotional vocabulary serve as the leading means of forming the image of a woman. In English poetry, it is aimed at depicting psychological states, and in Uzbek poetry, at expressing national aesthetic ideals. At the same time, the image of a woman is universalized in both literatures as a symbol of beauty, love, spiritual strength, and spiritual growth.

The list of used literature.

1. Abrams M.H. A Glossary of Literary Terms. – Boston: Heinle & Heinle, 1999. – №7 – 320 b.
2. Barry P. Beginning Theory: An Introduction to Literary and Cultural Theory. – Manchester: Manchester University Press, 2009. – №3 – 308 b.
3. Beauvoir S. de. The Second Sex. – London: Vintage Classics, 2010. – №1 – 822 b.
4. Cuddon J.A. A Dictionary of Literary Terms and Literary Theory. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2013. – №5 – 784 b.
5. Cameron D. The Myth of Mars and Venus: Do Men and Women Really Speak Differently? – Oxford: Oxford University Press, 2008. – №1 – 196 b.
6. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 2003.– №2 – 256 b.
7. Showalter E. The Female Malady: Women, Madness and English Culture, 1830–1980. – London: Virago Press, 1985. – №1 – 320 b.
8. Moi T. Sexual/Textual Politics: Feminist Literary Theory. – London: Routledge, 2002. – №2 – 230 b.
9. Richards I.A. Principles of Literary Criticism. – London: Routledge, 2001. – №2 – 276 b.
10. Wellek R., Warren A. Theory of Literature. – London: Penguin Books, 2003. – №3 – 456 b.

Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna
Termiz davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING NUTQIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyasini izchil ravishda shakllantirishda integrativ yondashuvning ilmiy-metodik asoslari keng yoritiladi. Integrativ yondashuv o‘quvchilar nutqini faollashtirish, til ko‘nikmalarini mustahkamlash va muloqot madaniyatini rivojlantirishda fanlararo bog‘liqlik, faol o‘quv muhitini yaratish va mavzularni hayotiy kontekstda o‘rgatishni nazarda tutadi.*

Tadqiqot natijalari integrativ yondashuvning o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, o‘z fikrini ravon ifodalash, savol-javob madaniyati, so‘z boyligi va grammatik ko‘nikmalarni chuqurlashtirishda yuqori samaradorlikka ega ekanini tasdiqlaydi. Shuningdek, maqolada o‘quvchilarning yosh psixologik xususiyatlariga mos bo‘lgan zamonaviy didaktik texnologiyalar, interfaol metodlar va kommunikativ o‘yinlarning nutqiy kompetensiya rivojiga ta’siri ilmiy asosda izohlangan.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, integrativ yondashuv, nutqiy kompetensiya, lingvistik rivojlanish, kommunikativ metodlar, fanlararo integratsiya, zamonaviy didaktika, o‘quv faoliyati.*

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

Аннотация. *В данной статье всесторонне рассматриваются теоретико-методические основы формирования речевой компетенции младших школьников посредством интегративного подхода. Интегративное обучение обеспечивает объединение различных учебных дисциплин, что позволяет создавать целостную образовательную среду, способствующую развитию у учащихся коммуникативных навыков, богатства словарного запаса, грамматической грамотности и культуры речевого общения.*

Результаты исследования подтверждают, что интегративный подход является эффективным инструментом повышения речевой активности, развития аналитического мышления и формирования устойчивой языковой компетентности у младших школьников.

Ключевые слова: *начальное образование, интегративный подход, речевая компетенция, межпредметные связи, коммуникативное развитие, интерактивные методы, языковая грамотность, образовательные технологии.*

METHODOLOGY OF DEVELOPING SPEECH COMPETENCE OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

Abstract. *This article provides an in-depth analysis of the methodological foundations for developing speech competence in primary school students through an integrative approach. Integrative teaching combines various subject areas, creating a holistic learning environment that enhances students' linguistic, communicative, and cognitive abilities. By linking language instruction with subjects such as reading literacy, environmental studies, visual arts, and technology, the integrative approach strengthens students' motivation and supports natural speech development.*

Findings demonstrate that the integrative approach significantly improves students’ speech activity, coherence, grammatical accuracy, and cultural awareness, thereby fostering a more meaningful and context-driven language acquisition process.

Key words: *primary education, integrative approach, speech competence, communicative development, cross-curricular integration, interactive methodology, linguistic skills, learner-centered teaching.*

Kirish. Nutqiy kompetensiya boshlang‘ich ta’lim bosqichida har bir o‘quvchining lingvistik, kommunikativ va ijtimoiy rivojlanishining asosiy mezonlaridan biridir. Hozirgi globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida bolalarning so‘zlashuv madaniyati, fikrini aniq va tushunarli ifodalash qobiliyati hamda muloqotga kirishish salohiyati nafaqat ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki ularni kelajakdagi ijtimoiy va akademik faoliyatga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bois, nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish maktabgacha va boshlang‘ich ta’limning ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaraladi.

So‘nggi o‘n yilliklarda pedagogik tadqiqotlar nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning samarali usullarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, shu jumladan integrativ yondashuv alohida ahamiyat kasb etmoqda. Integrativ yondashuv - bu til o‘rgatishni boshqa fanlar bilan uyg‘unlashtirish, o‘quv jarayonini o‘yin, amaliy mashg‘ulotlar, loyihalar va interfaol vazifalar orqali boyitish demakdir. Ushbu metod bolalarda nafaqat grammatik bilimni egallash, balki uni real muloqot vaziyatlarida qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Shuningdek, integrativ yondashuv o‘quvchilarda fanlararo bog‘liqlikni tushunish, kreativ fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi. Masalan, ona tili darsi bilan birlashtirilgan atrof-muhit, matematika yoki tasviriy san’at mashg‘ulotlari nutqiy faoliyatni stimulyatsiya qiladi, so‘z boyligini oshiradi va tushunchalarni aniq ifodalashga yordam beradi.

Hozirgi ta’lim tizimida interfaol va integrativ metodlar joriy etilishi bilan birga, o‘quvchilarning nutqiy faoliyati, tinglab tushunish, so‘z boyligi va muloqotga kirishish qobiliyati sistematik ravishda rivojlanmoqda. Shu sababli, integrativ yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda zamonaviy pedagogik izlanishlarning asosiy yo‘nalishlaridan birini tashkil etadi.

Ushbu maqola aynan shu jarayonning nazariy asoslari, metodik tamoyillari va amaliy ishlanmalarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyani shakllantirishning samarali usullarini tizimli yoritadi. Tadqiqot natijalari integrativ yondashuvning didaktik samaradorligini, o‘quv jarayonida o‘zaro bog‘liq fanlar orqali nutqiy kompetensiyani oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatadi va pedagogik amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyasini shakllantirish masalasi pedagogika va lingvistika sohalarida uzoq yillardan buyon tadqiq qilinib kelmoqda. So‘nggi o‘n yilliklarda bu yo‘nalishdagi izlanishlar sezilarli darajada faollashdi. Tadqiqotchilar, jumladan Bruner (1966), Vygotskiy (1978) va Piaget (1970), bolalarning kognitiv rivojlanish bosqichlarini o‘rganish orqali nutqiy faoliyatning shakllanishida faoliyat va kontekstning muhimligini ta’kidlagan. Ularning fikricha, til o‘rganish jarayoni faqat alohida grammatika yoki lug‘at bo‘yicha emas, balki fanlararo integratsiya va amaliy mashg‘ulotlar orqali samarali amalga oshiriladi.

Shuningdek, Mahmudova (2015), Karimova (2018) kabi mahalliy tadqiqotchilar boshlang‘ich ta’limda nutqiy kompetensiyani shakllantirishning amaliy jihatlarini tadqiq qilgan. Ularning natijalariga ko‘ra, integrativ darslar bolalarning so‘z boyligini oshirish, tinglab tushunish qobiliyatini rivojlantirish va muloqotga kirishish ko‘nikmalarini mustahkamlashda samarali vosita hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalar nutqiy faoliyatni o‘yin, loyiha, tajriba va interfaol mashg‘ulotlar orqali yaxshiroq egallaydi, bu esa ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini ham rag‘batlantiradi.

Xalqaro tajribalar ham integrativ yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi. Masalan, Coyle (2007) va Mehisto (2010) CLIL (Content and Language Integrated Learning) metodikasini qo‘llash orqali bolalarda tilni real kontekstlarda o‘rganish, fanlararo bog‘liqlikni tushunish va nutqiy faoliyatni oshirish mumkinligini ko‘rsatgan. Bu yondashuv bolalarni faqat bilim bilan emas, balki kommunikativ va madaniy ko‘nikmalar bilan ham boyitadi.

So‘nggi yillarda Mamatraimova (2021) integrativ yondashuvning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyani shakllantirishdagi samaradorligini ilmiy jihatdan tahlil qilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, integrativ metodika o‘quvchilarning so‘z boyligini sezilarli darajada kengaytiradi, tinglab tushunish va muloqotga kirishish qobiliyatini rivojlantiradi, shuningdek darslarga qiziqishni oshiradi.

Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili nutqiy kompetensiyani shakllantirishda integrativ yondashuvning nafaqat pedagogik, balki ilmiy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. U nafaqat til ko‘nikmalarini

rivojlantirish, balki bolalarning ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va fanlararo tushunishni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, adabiyotlar tahlili integrativ yondashuvni boshlang‘ich sinf pedagogikasi uchun eng samarali metodik vositalardan biri sifatida tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyani shakllantirish masalasi pedagogika va lingvistika sohalarida uzoq vaqtdan buyon tadqiq qilinib kelmoqda. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning samarali yo‘llaridan biri integrativ yondashuvni qo‘llashdir. Piaget, Vygotskiy va Brunerning kognitiv rivojlanish nazariyalari bolalar faoliyati va muloqot orqali bilim egallashini, shu bilan birga til va nutq ko‘nikmalarini tabiiy va samarali shakllantirish mumkinligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, Coyle va Mehisto tadqiqotlari til o‘rganishni boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan mashg‘ulotlar orqali amalga oshirishning ahamiyatini ko‘rsatadi. Bu yondashuv nafaqat kommunikativ va lingvistik ko‘nikmalarni rivojlantiradi, balki madaniy sezgirlik va ijodiy fikrlashni ham oshiradi.

Oldingi ilmiy manbalar, shu jumladan, integrativ yondashuv va CLIL metodikasini tadqiq qilgan maqolalar va monografiyalar, nutqiy kompetensiya tarkibiy qismlari – so‘z boyligi, tinglab tushunish, gap tuzish va muloqotga kirishish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodlarini aniqlashda asos bo‘ladi. Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, integrativ mashg‘ulotlar o‘quvchilarning fanlararo bog‘liqlikni tushunish va ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirishga ham yordam beradi.

Ushbu tadqiqot metodologiyasi esa adabiyotlar tahlilidan olingan ilmiy xulosalarni amaliyotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan. Tadqiqot obyekti sifatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyasi olinib, ishtirokchilar sifatida 7–10 yoshli o‘quvchilar va amaliyotchi pedagoglar tanlandi. Tadqiqotda nazariy va empirik metodlar uyg‘un qo‘llanildi. Nazariy metodlar qatoriga adabiyotlarni tahlil qilish, matnni filologik va stilistik jihatdan o‘rganish, nutqiy kompetensiya tarkibiy qismlarini aniqlash kiradi. Empirik metodlar esa integrativ mashg‘ulotlarni amaliyotda o‘tkazish, kuzatuv, suhbat va intervyu, shuningdek diagnostik testlar orqali olingan ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Ma’lumotlarni tahlil qilish jarayonida o‘quvchilarning nutqiy faoliyati, so‘z boyligi, tinglab tushunish va muloqotga kirishish ko‘nikmalari tizimli ravishda qayd etildi. Shu bilan birga, integrativ yondashuvning dars jarayonidagi samaradorligi baholandi, fanlararo bog‘liqlik va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishi kuzatildi. Tadqiqotning ishonchliligi uchun darslar bir xil sharoitda o‘tkazilib, guruhlar va metodik vositalar standartlashtirildi. Nazariy va empirik metodlar uyg‘un qo‘llanilib, natijalar qiyosiy tahlil qilindi.

Natijada adabiyotlar sharhi va tadqiqot metodologiyasining uyg‘unligi, integrativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyasini shakllantirishning samarali yo‘llarini tizimli ravishda o‘rganish imkonini berdi. Shu orqali bolalarning nutqiy faoliyati, so‘z boyligi, muloqotga kirishish va fanlararo bog‘liqlik ko‘nikmalarining rivojlanishiga integrativ metodikaning ijobiy ta’siri ilmiy asosda isbotlandi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasi integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslar orqali baholandi. Eksperimental mashg‘ulotlar davomida til o‘rganish boshqa fanlar – matematika, atrof-muhit, san’at va texnologiya bilan birlashtirildi. Darslarda interfaol metodlar, o‘yin texnologiyalari, multimediya vositalari va vizual materiallar qo‘llanildi. Shu tarzda o‘quvchilar tilni kontekstual va amaliy vaziyatlarda ishlatish imkoniga ega bo‘ldi.

Kuzatuv va diagnostik testlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, integrativ yondashuv qo‘llangan guruhdagi o‘quvchilar:

Nutq faoliyatida faolroq bo‘lib, mustaqil gap tuzish va so‘z boyligini kengaytirish darajasida sezilarli o‘sish ko‘rsatdilar;

Tinglab tushunish va matnni izohlash ko‘nikmalari yuqori darajada rivojlandi;

Muloqotga kirishish, o‘z fikrini bayon qilish va savol-javob jarayonida faol qatnashish qobiliyatlari oshdi;

Fanlararo bog‘liqlikni tushunish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalari yaxshilandi.

Shu bilan birga, pedagoglar va o‘quvchilardan olingan suhbatlar, intervyular va kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, darslar o‘quvchilar uchun qiziqarli va motivatsion bo‘lib, til o‘rganish jarayonini tabiiy va samarali qiladi.

Tahlil natijalari shuni isbotlaydiki, integrativ yondashuv nafaqat nutqiy kompetensiyani shakllantirishga, balki o‘quvchilarning ijtimoiy va kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham

yordam beradi. Masalan, o‘quvchilar o‘z fikrini boshqa fanlar kontekstida ifodalash orqali muloqot va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini mustahkamlashdi. Shu bilan birga, interfaol va o‘yinlarga asoslangan mashg‘ulotlar diqqatni jamlash va o‘quvchilarning qatnashuvini oshirishda muhim rol o‘ynadi.

Empirik tadqiqot natijalari asosida tahlil shuni ko‘rsatdiki, integrativ yondashuv qo‘llanilmagan guruh bilan solishtirganda, eksperimental guruhdagi o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasi ancha yuqori darajada rivojlangan. Bu, avvalo, darslarning interfaol xarakteri, fanlararo integratsiya va tilni amaliy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyati bilan izohlanadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyasini shakllantirish jarayonida integrativ yondashuvning metodik asoslari o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, til o‘rganishni boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda tashkil etish o‘quvchilarning kommunikativ, lingvistik, madaniy va kognitiv ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Empirik kuzatuvlar va diagnostik testlar ma’lumotlari asosida aniqlanishicha, integrativ yondashuv qo‘llanilgan guruhdagi o‘quvchilar: nutq faoliyatida faolroq, so‘z boyligi kengaygan, muloqotga kirishish va o‘z fikrini ifodalash qobiliyatlari rivojlangan; fanlararo bog‘liqlik va ijodiy fikrlash ko‘nikmalari sezilarli darajada oshgan. Shu bilan birga, interfaol metodlar, o‘yin texnologiyalari va multimediya vositalari darslarni qiziqarli va motivatsion qilish orqali o‘quvchilarni faol qatnashishga undadi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, integrativ yondashuv nafaqat nutqiy kompetensiyani shakllantirishda, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy qaror qabul qilish va muloqotga kirishish qobiliyatlarini rivojlantirishda ham samarali vosita hisoblanadi. Shu sababli, boshlang‘ich ta’lim jarayonida integrativ yondashuvni qo‘llash pedagogik amaliyot uchun muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, integrativ metodika o‘quvchilarning so‘z boyligini kengaytirish, nutqiy faoliyatini rivojlantirish va dars jarayonini interaktiv, qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’limda integrativ yondashuvni keng joriy etishning nazariy va amaliy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Akhmedov, S. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 256 b.
2. Mamatraimova, D. Integrativ yondashuv asosida nutqiy kompetensiyani shakllantirish metodikasi. – Termiz: TDPU Nashriyoti, 2022. – 184 b.
3. Karimov, A. Nutqiy kompetensiya va uning shakllantirish metodlari. – Toshkent: Fan, 2019. – 210 b.
4. Abdullayeva, N. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lingvistik ko‘nikmalarini rivojlantirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 192 b.
5. Coyle, D., Hood, P., Marsh, D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 276 p.
6. Piaget, J. The Psychology of Intelligence. – New York: Routledge, 2001. – 320 p.
7. Vygotsky, L. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 250 p.
8. Bruner, J. The Process of Education. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960. – 210 p.
9. Mehisto, P. CLIL Principles and Practices. – Cambridge: Cambridge University Press, 2015. – 198 p.

Mamajonova E‘zozxon Madaminjon qizi
Andijon davlat universiteti filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

INGLIZ TILI MATERIALLARI ASOSIDA “TASTE” KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK MODELLASHTIRILISHI

Annotasiya. *Ushbu maqolada ingliz tili materiallari asosida “taste” konseptining lingvokulturologik modellashtirilishi aks ettirilgan. Shu bilan birga, ta’m-maza tuyg‘usini tavsiflashda sifat, intensivlik, ijtimoiy belgilar, idrokning emotsionallik darajasi va boshqalar qo‘llanilishi izohlab berilgan.*

Kalit so‘zlar*: konsept, “taste-ta’m-maza” konsepti, “ifoda plani”, “mazmun plani”, “surface structure”, “deep structure” terminlari.*

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ КОНЦЕПТА “TASTE” НА ОСНОВЕ АНГЛИЙСКИХ МАТЕРИАЛОВ

Аннотация. *В данной статье отражено лингвокультурологическое моделирование концепта “вкус” на основе материалов английского языка. В то же время объясняется, что при описании вкусовых ощущений используются качественные, интенсивные, социальные признаки, уровень эмоциональности восприятия и другие.*

Ключевые слова: *концепт, концепт “вкус-вкус», “план выражения”, “план содержания”, “поверхностная структура”, “глубокая структура”.*

LINGUOCULTURAL MODELING OF THE “TASTE” CONCEPT BASED ON ENGLISH MATERIALS.

Abstract. *This article reflects the linguocultural modeling of the concept of “taste” based on English language materials. At the same time, it is explained that when describing taste sensations, qualitative, intensive, social characteristics, the level of emotional perception, and others are used.*

Key words: *concept, “taste-taste” concept, “expression plan”, “content plan”, “superficial structure”, “deep structure”.*

Ingliz tilida “taste-ta’m-maza” konsepti alohida til misolida yoki qiyosiy planda maxsus tadqiqot mavzusi sifatida shu kunga qadar o‘rganilmagan.

“Taste-ta’m-maza” konsepti deganda invariant “taste” arxisemasi atrofida birlashgan, ushbu konseptda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan, turlicha morfologik va sintaktik tuzilish va qolipga ega, yaqin yoki distant (bosh ma’nodan uzoqlashgan) ma’noviy aloqada bo‘lgan, bir va undan ortiq ma’noli, mono yoki polifunksional, o‘zaro paradigmatik, sintagmatik aloqada bo‘lgan, vazifalariga ko‘ra faol va nofaol, ifodaliligi jihatidan turlicha bo‘yoqdorlikka ega til birliklari sistemasini tushunamiz.

Lingvistikada har qanday konsepsiyalar kabi “taste-ta’m-maza” konsepti mazmun va ifoda planiga ega. Dunyo tilshunosligida konseptlarning bu ikki muhim va bir-birini taqozo etuvchi tomonlari “ifoda plani”, “mazmun plani”, “surface structure”, “deep structure” kabi terminlar bilan atalmoqda.

Konseptning mazmun plani deganda “taste-ta’m-maza” umumiy arxisemasi va u bilan aloqador yaqin va uzoq semalar majmuini tushunamiz. Konseptning ifoda plani deganda tilning fonetik, leksik, grammatik qonun-qoidalari imkoniyatlari doirasida shakllangan, og‘zaki va yozma nutqqa xos “taste” umumiy ma’nosi atrofida birlashgan turli leksik birliklarni tushunamiz.

“Taste” umumiy ma’nosi asosida jamlangan, alohida paradigmatik qatorlarni tashkil etuvchi til birliklarining lisoniy mazmun xususiyatlarini ochib berish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ingliz tilidagi lug‘atlarni (Webster's Encyclopedic Unabridged Dictionary of the English Language, Longman Dictionary of English Language and Culture, Longman Active Study Dictionary, Collins English Dictionary, Hornby Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English,

Roget's Thesaurus oi English) tahlil qilish jarayoni shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilidagi “taste-ta’m-maza” konseptining semantik tuzilishi quyidagi tushunchalardan iborat bo‘lib, bu konseptning konseptual qatlamni tashkil etadi.

“Taste” so‘zining boshqa ma’nolarini lug‘atdagi ketma-ketlikda tarjima usuli orqali quyidagicha aniqladik:

Ingliz tillari izohli lug‘atlari ustida o‘tkazilgan tahlillar “taste” leksemasi polisemantik xususiyatga ega ekanligi va ular alohida olinganda ham, so‘z birikmalari va frazeologik birikmalar tarkibida kelganda ham turli-tuman ma’nolarni kasb etishlari mumkinligini ko‘rsatdi. Bu hol “taste” leksemasi bilan bog‘liq qator ma’nolar orasida ulardan qay biri invariant, umumiy ma’no bo‘la olishligini aniqlashda qiyinchiliklar tug‘diradi. Shuni inobatga olgan holda lug‘atlarda ro‘yxatga olingan “taste” va u bilan bog‘liq morfologik va sintaktik tuzilishga ega birliklarni ma’noviy nuqtayi nazardan tahlil etishni lozim deb topdik.

Ingliz tilidagi “taste” leksemasiga lug‘atlarda berilgan ta’riflarga e’tibor beramiz. Vebsterning “Ingliz tilining uchinchi yangi xalqaro lug‘ati” (Webster’s third new international dictionary of the English Language”, Könemann, 1993, P. 713) da ot so‘z turkumiga kiruvchi “taste” so‘zi o‘rta asrlar ingliz tilida “tast, touch”, qadimgi fransuz tilda “taster”, so‘zlariga qarindosh ekanligi, uning asl va etakchi ma’nosi “action of touching, testing, tasting, taste,” (tatib ko‘rish, tatib ko‘rish harakati) ekanligi yozilgan1:

“Taste” so‘zining boshqa ma’nolarini lug‘atdagi ketma-ketlikda tarjima usuli orqali quyidagicha aniqladik:

•ta’m-mazani his qilishni rag‘batlantirish natijasida paydo bo‘ladigan hissiyot (hissiyotlarning umumiy aralashmasi, teginish va boshqalar);

•tajribaning o‘ziga xos xususiyati (tuyg‘uga ishora yoki uni uyg‘otadi, aksincha bo‘lishi);

•individual afzallik:

•narsalarni farqlash va ajratish (badiiy yoki tabiat asarlaridagi turli darajadagi mukammallik turlariga nisbatan (adabiyotning ovozli kanonlarini o‘rnatish));

•g‘amxo‘rlik yoki qadrlashni ko‘rsatuvchi uslub (estetik asosda baho berishga qodir bo‘lgan xatti-harakatlar);

•tor ingichka ipak lenta:

•asosan til va og‘iz bo‘shlig‘iga o‘rnashib qolgan neyroepitelial sezgir hujayralari (og‘iz bo‘shlig‘i bilan amalga oshirilganda);

•ta’m-mazani sezish qobilyati yoki lazzatlanish hissi:

•gapni yozishdan yoki gapirishdan oldin uni sinovi yo ta’sir kuchi:

•hasharotlarda lazzatlanish vazifasiga ega nayza:

•ta’mga ega bo‘lishn sifati va holati.

Berilgan ta’riflarga qo‘shimcha tarzda yana quyidagi lug‘at ma’lumotlarini qo‘shish mumkin. A.S.Xorinbining ikki minginchi yil chop etilgan “Oxford advanced learner*s dictionary of current english” lug‘atida berilishicha2:

“Flavour” (the particular quality that different foods and drinks have that allows you to recognize them when you put them in your mouth) (turli xil ovqatlar va ichimliklarni ichkaningizda ularni ta’mi bilan ajratuvchi sifat). I don*t like the taste of olives.

“Sense” (the sense you have that allows you to recognize different foods and drinks when you put them in your mouth)(turli xil narsa va taomlarni iste’mol qilganda tanib olishga imkon beradigon tuyg‘u). I*ve lost my sense of taste.

“Small quantity” (a small quantity of food or drink that you try in order to see what it is like.) (uning qanday ta’mga ekanligini bilish uchun o‘lchamli oziq-ovqat yoki ichimlik).Just have a taste of this cheese.

“Short experience” (A short experience) (biroz tajribaga ega bo‘lish). This was my firsttaste of live theatre.

[1] Webster’s third new international dictionary of the English Language”, Könemann, 1993. – P. 2343.

[2] Hornby A.S. Oxford Advanced Learner’s Dictionary of Current English. – London.: Oxford Univ.Press, 1980.– P. 1330-1331.

“Ability to choose well” (A person*s ability to choose things that people recognize as being of good quality or appropriate) (Odamlar sifatli yoki mos deb tan olingan narsalarni tanlash qobiliyati). The room was furnished with taste.

“What you like” (What a person likes or prefers) (Inson yoqtirgan yoki afzal ko‘rgan narsa). The colour and style is a matter of personal taste.

“Taste bud” . Hand-knitted, hand-painted pottery.

“Tasty”(having a strong and pleasant flavor), (kuchli va yoqimli ta’mga ega bo‘lish). A word that some men use about women that they think are sexually attractive.

Bundan tashqari “taste – ta’m-maza” semantikasini quyidagi ko‘chma ma’nolarini ham lug‘atlarda kuzatdik.

•qo‘pol bo‘lish va umuman nomunosib, majmayalashmoq: Be in bad taste, Be in poor taste, the worst possible taste, For example: Most of his jokes were in very poor taste- Uni ko‘p xazillari bachkana.

•xos, taalluqli, mos, aynan, o‘zginasi degan ma’nolarini ham ifodalaydi: Be in good taste, the best possible taste.

•og‘zida ta’m sezmay qolish: Leave a bad/nasty taste in the mouth.

•biron-bir narsani o‘z ixtiyoridagiga yoki tatib ko‘rish uchun zarur bo‘lgan miqdor: To taste.For example: Add salt and pepper to taste.

•muayyan ta’mga ega bo‘lish: Have flavor, Having a particular flavor.For example:This drink tastes like sherry.

•mazasini bilib olmoq, ta’mi og‘zida qolmoq: (Ko‘pincha can yoki could bilan ishlatiladi), to be able to recognize flavours in food and drink. For example: You can taste the garlic in this stew.

•sinab ko‘rish nuqtayi nazaridan: To Taste. For example: Taste it and see if you think there*s enough salt in it.

•yagona tanlov: To Taste. For example: I*ve never taste anything like it

•biror narsani mazasini vaqtincha tatib ko‘rish yoki qisqa tajribaga ega bo‘lish: To Taste. For example:He had tasted freedom only to lose it again

Shu bilan birga, idrokning tarkibiy qismi sifatida “taste-ta’m-maza” kategoriyasini ifoda etishning leksik va semantik vositalarining boyligi bilan ta’mni idrok etish subyektiv tabiati va didni baholashi tufayli ta’mni idrok etish subyekti ancha qashshoqlashadi. Ta’m-maza tuyg‘usini tavsiflashda sifat, intensivlik, ijtimoiy belgilar, idrokning emotsionallik darajasi va boshqalar qo‘llaniladi.

Masalan: That is another case said he, it is calling, and therefore my duty, but as you made this voyage on trial you see what a taste Heaven has given you of what you are to expect if you persist.

“Taste-ta’m-maza” kategoriyasini og‘zaki bayon qilishda predikat, predmet va subyektning o‘ziga xos leksik-semantik namoyishlari diktum va modus tarkibiy qismlarida leksik, semantik-sintaktik va grammatik shakllarda ifodalanadi.

“Taste-ta’m-maza” semasiga ega bo‘lgan leksema of one*s own medicine yoki differ kabi so‘zlar bilan qo‘llanilganda ko‘chma ma’noda qo‘llanilib, “O‘zingdan chiqqan baloga qayga bore davoga”, “Didlar xaqida baxslashmaydilar yoki didlar turlicha bo‘ladi” kabi metaforik modellar hosil qiladi. M: And with these rarified dishes you so carefully prepare, do we all taste different? While the taste resembles the taste of the original Kristall brand, connaisseurs are able to taste the difference. If bakers don't differ in tastes from others, the demand for bread might be affected by a change in bakers' wages, with a consequent effect on the price of bread.

Bunday modellarni ayrim maqol va matallarda ham uchratish mumkin: Sour, sweet, bitter, pungent, all must be tasted; If one eats less, one will taste more – (Yarimta non- ofati jon, Kam yegan ko‘p yashaydi) maqolida esa “non –jon ” metaforik modeli qo‘llangan.

Ushbu misollarga tayangan holda aytish mumkinki, ingliz tilida “ta’m-maza” semasiga ega bo‘lgan so‘zlar insonning ichki va tashqi dunyosi o‘rtasidagi o‘ziga xos chegara rolini bajaryapti.

Metaforik modellar bilan bir qatorda ingliz tilida “ta’m-maza” so‘z-inson hayotidagi metonimik modellarda ham qo‘llaniladi. Masalan: cell- so‘zi bilan birikib “tatib ko‘radigan hujayra yoki ta’mni xis qilish retseptorlari” tarjimasida keladi. M: The taste cell of man are constantly changing as he

segregates the blessings bestowed upon him in the universe". "The smell of barber shops makes me weep.

"Taste" semantikasini quyidagi xususiyatlarini ham ta'kidlash lozimdek ko'rinadi:

"Taste" va "smell" fe'llari bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib, ularning har biri teng his-tuyg'ularni bildirish uchun ishlatilishi mumkin. M.: It tastes good, it smells well.

Konsept inson va uni o'rab turgan tashqi olam haqidagi bilimlari o'rtasida kognitiv aloqani aks ettirib beradi. Konseptni kognitiv kategoriya sifatida o'rganish ko'p aspektlardan iborat va u tilshunoslar uchun bir til materialida ham, bir necha tillar materialida ham o'rganish obyekti sifatida qiziqish uyg'otadi.

Demak, inson faoliyatining turli sohalariga aloqador bo'lgan aynan bir narsa konseptning turli xususiyatlarini o'zida aks ettiradi1.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, biz ingliz tilidagi "taste" konsepti quyidagi madellarda o'z ifodasini topgan deb o'ylaymiz.

N yoki V (sodda tuzilishga ega bir o'zakli so'zlar); taste, to taste; For example:

1). With the onset of autumn, the taste for richer food returns. - Kuzning boshlanishi bilan yanada yog'liroq taomning ta'mi qaytadi. [Bruce Kraig, Colleen Taylor Sen. Street food around the world: an encyclopedia of food and culture. ABC-CLIO. 2013. USA. 188 p]

2) Mr. Irwine and I are come to taste it with you, and I am sure we shall all like anything the better that the rector shares with us. - Men va janob Irvin siz bilan birga tatib ko'rgani keladiganmiz va ishonamanki, rektor biz bilan baham ko'rgan hamma narsa bizga yoqadi. [Adam Bede. George Eliot. ICON classics International, Inc., USA. 2005. P. 293].

N+suffix+suffix=Adv (bir sifat yasovchi va bir ravish yasovchi suffiksli yasama so'z); tastefully; For example: The street chef pounds these foods until the juices run together into a beautiful, aromatic, crunchy, and tastefully cohesive mess. – Ko'cha oshpazi bu taomlarni sharbatlar go'zal, xushbo'y, qarsillab, did bilan bir-biriga aralashib ketgunga qadar uradi. [Bruce Kraig, Colleen Taylor Sen. Street food around the world: an encyclopedia of food and culture. ABC-CLIO. 2013. USA. 347p]

N+N=N (qo'shma ikki o'zakli so'zlar); taste blood; For example:

Curious about why you taste blood when running? Discover the causes and solutions to this common phenomenon, and learn how to prevent it. - Nima uchun yugurayotganda qonni ta'mini tuyasiz? Ushbu keng tarqalgan hodisaning sabablari va yechimlarini toping va uning qanday qilib oldini olishni o'rganing.

Once the team had tasted blood, there was no preventing them from winning by a wide margin.- Jamoa adabini eb ko'rganidan so'ng, ularning yirik hisobda g'alaba qozonishiga hech qanday to'sqinlik yo'q edi. [Collins English Dictionary]

N+suffix= Adj (sifat yasovchi suffiksli yasama so'z); tasteful; For example:

The world is not just what we like; do touch it up with a tasteful pencil, and make believe it is not quite such a mixed entangled affair. - Dunyo faqat biz yoqtirgan narsa emas; uni sifatli qalam bilan chizing va bu unchalik aralash chigal ish emasligiga ishonch hosil qilasiz. [Adam Bede. George Eliot. ICON classics International, Inc., USA. 2005. P. 196].

N+suffix+suffix= N (bir sifat yasovchi va bir ot yasovchi suffiksli yasama so'z); taste-less-ness; For example:

However, despite the aggressive encroachment of tastelessness and vulgarity, interest in literature still lives in society. - Biroq, didsizlik (ma'zasizlik) va qo'pollikning tajovuzkor tajovuzlariga qaramay, jamiyatda adabiyotga qiziqish saqlanib qolmoqda.

N+N+suffix= N (qo'shma ikki o'zakli va ot yasovchi suffiksli so'z) taste budding;:

N+suffix= Adj (ot yasovchi suffiksli yasama so'z); tasty-kinoya;

N+suffix= N (ot yasovchi suffiksli yasama so'z); taster, tasty – yuvgich;

a wine-taster - vino deguster (tatib beruvchi). [Cambrige dictionary]

N+V =WC (ot va feldan iborat so'z birikma); opinions differ; For example:

[1] Шокиров Ш, Мамажонова Э.М. Инглиз тилида "Taste -таъм-маза" семасини ифодаловчи сўзларнинг семантик хусусиятлари // "Илм сарчашмалари" – Урганч, 2021. №6. – Б. 142-146.

You have a quiet confidence that helps you handle people well, even if your opinions differ. - Sizning didlaringiz (fikringiz) turlicha bo‘lsa ham, sizda odamlarga yaxshi munosabatda bo‘lishga yordam beradigan o‘ziga ishonch bor. [Collins English Dictionary].

N + suffix = Adv (bir ot va bir suffiksli yasama so‘z); Tastily For example:

The dessert is small, but tastily paired with an unusual honey ice-cream. - Shirinlik kichik, ammo g‘ayrioddiy asalli muzqaymoq bilan mazali birlashtirilgan. [Cambrige dictionary].

Her performance was tastily wry and sardonic, and her character vivid. - Uning ijrosi juda qiziqarli (zavqli) va istehzoli, xarakteri esa yorqin edi. [Cambrige dictionary].

11. N+suffix+N=V (bir ot va fel yasovchi bir suffiksli va bir otdan iborat qo‘shma ikki so‘zlar); tasted blood; For example:

Once the team had tasted blood, there was no preventing them from winning by a wide margin.- Jamoa bir marta qiyinchilikni ta’tib ko‘rganidan so‘ng, ularning yirik hisobda g‘alaba qozonishiga hech qanday to'sqinlik yo'q edi. [Collins English Dictionary].

Ushbu madellar og‘zaki va yozma nutqda reallashadi. Bu madellardan foydalanib, gaplar va matnlar tuzish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

10. Adam Bede. George Eliot. ICON classics International, Inc., USA. 2005. P. 293
11. Webster’s third new international dictionary of the English Language”, Könemann, 1993. – P. 2343.
12. Hornby A.S. Oxford Advanced Learner’s Dictionary of Current English. – London.: Oxford Univ.Press, 1980.– P. 1330-1331.
13. Шокиров Ш, Мамажонова Э.М. Инглиз тилида “Taste -таъм-маза” семасини ифодаловчи сўзларнинг семантик хусусиятлари // “Илм сарчашмалари” – Урганч, 2021. №6. – Б. 142-146.
14. Bruce Kraig, Colleen Taylor Sen. Street food around the world: an encyclopedia of food and culture. ABC-CLIO. 2013. USA. P. 434
15. Charles Dickens. A tale of two cities. ICON classics. USA. 2005. P. 43.

Otajanov Olimbay
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti

O‘SMIR YOSHIDAGI BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN TARBIYAVIY ISH-LAR SHAKLLARI

Annatatsiya. *Zamonaviy jamiyatning dolzarb muammolaridan biri o‘smirlar bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil etishdir. So‘nggi yillarda o‘smir yoshidagi bolalar juda o‘zgardi, bu esa o‘smirlar o‘rtasida jinoyatchilikning ko‘payishiga va ularda tajovuzkor xulq-atvorning rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda. Hammaga ma’lumki, "o‘smirlik" atamasining aniq ta’rifi yo‘q, ammo kichik tadqiqot o‘tkazib, biz quyidagi ta’rifni aniqladik - bu bolalikdan kattalikka o‘tishning keskin kechishi bo‘lib, unda qarama-qarshi tendensiyalar bo‘rtib turadi.*

Kalit so‘z: *o‘smirlik davri, tarbiyaviy ish, tarbiyaviy ish shakli, tarbiyaviy ish shakllarining turlari.*

ФОРМЫ ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ С ПОДРОСТКАМИ

Аннотация. *Одной из актуальных проблем современного общества является организация воспитательной работы с подростками. В последние годы дети подросткового возраста сильно изменились, что приводит к росту преступности среди подростков и развитию у них агрессивного поведения. Всем известно, что нет точного определения термина "подростковый возраст," но, проведя небольшое исследование, мы определили следующее определение - это резкий переход от детства к взрослой жизни, в котором намечаются противоположные тенденции.*

Ключевое слово: *подростковый возраст, воспитательная работа, форма воспитательной работы, виды форм воспитательной работы.*

FORMS OF EDUCATIONAL AND UPBRINGING WORK WITH ADOLESCENTS

Annotation. *One of the pressing problems of modern society is the organization of educational work with adolescents. In recent years, adolescent children have changed dramatically, leading to an increase in juvenile delinquency and the development of aggressive behavior. As everyone knows, there is no exact definition of the term "adolescence," but after conducting a small study, we identified the following definition - it is a sharp transition from childhood to adulthood, in which opposite tendencies are prominent.*

Key words: *adolescence, educational work, form of educational work, types of forms of educational work.*

Jamiyat taraqqiyotining poydevori - barkamol, yetuk va ma’naviy jihatdan sog‘lom shaxsni tarbiyalashdir. Har bir davr o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy xususiyatlariga ko‘ra yoshlardan yangi sifatlarni talab etadi. Shu bois o‘smir yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmuni, shakli va usullarini to‘g‘ri tanlash bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O‘smirlik davri inson hayotida eng murakkab va mas’uliyatli bosqichlardan biri bo‘lib, bu davrda shaxsda mustaqil fikrlash, o‘z “men”ini anglash, atrofdagilarga nisbatan tanqidiy munosabat shakllana boshlaydi. Shu sababli o‘qituvchi va tarbiyachilarning ushbu yoshdagi bolalar bilan ishlash jarayonida psixologik xususiyatlarni inobatga olgan holda, tarbiyaviy ishlarning samarali shakl va metodlarini qo‘llashi nihoyatda muhimdir.

O‘smirlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar - bu shaxsning ijtimoiy faolligini oshirish, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni singdirish, milliy va umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishga qaratil-

gan tizimli pedagogik jarayondir. Mazkur jarayon samaradorligi tarbiyaviy ishlarning to‘g‘ri rejalashtirilishi, o‘quvchi-yoshlarning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olish hamda oila, maktab va jamoatchilik o‘rtasidagi hamkorlik darajasiga bevosita bog‘liqdir.

Har bir yosh o‘zicha yaxshi. Shu bilan birga, har bir yoshning o‘ziga xos xususiyatlari, murakkabliklari bor,o‘smirlik yoshi (11-14 yosh) ham istisno emas.

Bu eng uzoq o‘tish davri bo‘lib, bir qator fizik o‘zgarishlar bilan tavsiflanadi. Bu vaqtda shaxsning intensiv rivojlanishi, uning ikkinchi tug‘ilishi sodir bo‘ladi. O‘smirlik davri - bolalikdan kattalikka o‘tishning keskin davri bo‘lib, unda qarama-qarshi tendensiyalar bir-biriga bog‘lanib ketadi [4]. Bir tomondan, bu murakkab davr uchun salbiy ko‘rinishlar, shaxs tuzilishidagi nomutanosiblik, bolaning ilgari qaror topgan qiziqishlari tizimining buzilishi, uning kattalarga nisbatan xulq-atvorining norozilik xarakteri yaqqol namoyon bo‘ladi. Ikkinchi tomondan, o‘smirlik davri ko‘pgina ijobiy omillar bilan ham ajralib turadi: bolaning mustaqilligi ortadi, boshqa bolalar, kattalar bilan munosabatlari yanada xilma-xil va mazmunli bo‘ladi, uning faoliyat doirasi ancha kengayadi va hokazo. Ushbu davr bolaning sifat jihatidan yangi ijtimoiy pozitsiyaga chiqishi bilan ajralib turadi, bunda uning jamiyat a’zosi sifatida o‘ziga ongli munosabati shakllanadi.

O‘smirni har jihatdan "me’yor"ga tashnalik bilan chulg‘aymiz, toki u "hammadek," "boshqalardek" bo‘lsin. Ammo aynan shu yoshga xos disproporsiya, ya’ni <me’yor>ning yo‘qligidir [2]. Rivojlanish sur’atidagi farq ruhiyatga va o‘z-o‘zini anglashga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

O‘qituvchi bilan munosabat o‘zgaradi. Agar quyi sinflarda pedagog o‘quvchilar uchun so‘zsiz obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan va o‘zini shunga muvofiq tutgan bo‘lsa, o‘rta maktabda muhit yanada demokratik, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlar esa erkinroq bo‘ladi. Va bu hamma o‘smirlar tomonidan adekvat qabul qilinmaydi. Ba’zilar berilgan erkinlikni o‘qituvchining zaifligi deb hisoblay boshlaydilar. Bu, ayniqsa, avtoritar oilada tarbiyalangan o‘smirlarga xosdir.

Tarbiya jarayonini tashkil etishda o‘smir bolalar xulq-atvorining barcha xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Tarbiyaviy ish - bu o‘qituvchilar tarkibi, ta’lim muassasalarining barcha bo‘linmalari ma’muriy-boshqaruv xodimlarining shaxsni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha maqsadli, tizimli va muvofiqlashtirilgan birgalikdagi faoliyatidir.

Bola maktab ostonasiga qadam qo‘yar ekan, har bir komponenti u yoki bu darajada bolalar tarbiyasiga ko‘maklashadigan tarbiya makoniga tushib qoladi. Jamiyat hayotining hozirgi sharoitida o‘sib kelayotgan avlodni tarbiyalash maktabning eng muhim vazifalaridan biridir, chunki aynan maktab ishonch, tushunish va insonparvarlik o‘chog‘idir [1].

Maktabning tarbiyaviy ishi - bu pedagogik maqsadlar bolalarning maqsadlariga yo‘naltirilgan va aniq ijtimoiy sharoitlarda tarbiya vazifalarini amalga oshirish ta’minlanadigan yaxlit tarbiya jarayoniga tarbiyaviy ta’sirlarni birlashtirish shaklidir [3]. Maktabdagi tarbiyaviy ish murakkab va xilma-xildir: bu ta’lim jarayonidagi, jamiyat va jamoadagi, oila va maktabdagi tarbiya, bu o‘z-o‘zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash, bu mehnat, o‘yin, muloqot, ijtimoiy faoliyat, havaskorlik, o‘z-o‘zini ijod qilish va o‘z-o‘zini boshqarish jarayonidagi xilma-xil tarbiyaviy ishdir. Hozirgi zamon maktabining eng muhim vazifasi - insonparvar insonni shakllantirish, erkin, ma’naviy, ijodkor shaxsni fuqarolik, vatanparvarlik, oilaparvarlik, mehnatsevarlik fazilatlari bilan shakllantirishdir. O‘quvchilarda ushbu sifatlarning shakllanishi maktabdagi tarbiyaviy ishlarning asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish jarayonida sodir bo‘ladi: axloqiy tarbiya; estetik tarbiya; fuqarolik-vatanparvarlik tarbiyasi; ekologik tarbiya.

Ko‘pchilik maktablarning pedagogik kollektivi o‘quvchilar bilan ishlashda tarbiyaviy ishning xilma-xil shakllaridan foydalanadi. Shakllarni tanlashda ularning nomiga e’tibor berish kerak, chunki nom uslubiy asosga ega. Ish shaklini to‘g‘ri tanlash uchun ularning har birini batafsilroq ko‘rib chiqish kerak.

Pedagogika fanida tarbiyaviy ish shakllari to‘g‘risida yagona fikr yo‘q. "Tarbiyaviy ish shakli" tushunchasining mohiyatini anglab yetish uchun ushbu hodisa pedagogik jarayonda qanday o‘rin tutishi, uning funksiyalari nimalardan iboratligini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Birinchi funksiya - tashkilotchilik. Tarbiyaviy ishning har qanday shakli tashkilotchilik vazifasini hal etishni nazarda tutadi. Tashkilotchi vazifasini pedagog ham, o‘quvchilar ham bajarishi mumkin.

Ishni tashkil etish harakatlarning muayyan mantiqini, ishtirokchilarning o‘zaro munosabatlarini aks ettiradi. Biroq, tashkil etish shaklning yagona vazifasi emas.

1. Ikkinchi funksiya - rostlovchi. U yoki bu shakldan foydalanish o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi, shuningdek, bolalar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish imkonini beradi.

2. Uchinchi funksiya - informativ. Ushbu funksiyani amalga oshirish nafaqat o‘quvchilarga u yoki bu bilimlar to‘plamini bir tomonlama yetkazishni, balki ulardagi mavjud bilimlarni dolzarblashtirishni, ularning tajribasiga murojaat qilishni ham o‘z ichiga oladi.

Shaxsiy tajribadan ma’lum bo‘ldiki, pedagogika nazariyasi va amaliyotida tarbiyaviy ishlarning ko‘plab shakllari mavjud. Tarbiyaviy ishning barcha shakllarini sanab o‘tishning iloji yo‘q va bunga zarurat ham yo‘q. Har bir shakl boshqasini takrorlamaydi, faqat unga o‘xshash bo‘lishi mumkin.

Tarbiyaviy ish shakllarining uchta asosiy turi mavjud: tadbirlar, ishlar, o‘yinlar. Ular quyidagi belgilar bo‘yicha farqlanadi: maqsadga yo‘naltirilganligi, tarbiyaviy jarayon ishtirokchilarining pozitsiyasi, obyektiv tarbiyaviy imkoniyatlari bo‘yicha.

O‘yin - bu dam olish, o‘rganish va rivojlanish uchun maqsadli ravishda tashkil etilgan xayoliy yoki haqiqiy faoliyatdir.

1. Tadbir - pedagog tomonidan ularga bevosita ta’sir ko‘rsatish maqsadida tashkil etiladigan jamoadagi voqea, mashg‘ulot, vaziyat. Masalan, san’at asarlari, yo‘l harakati qoidalari bilan tanishish, ma’lum bir mavzu bo‘yicha ma’ruza, uchrashuv, ma’ruzalar turkumi, mutaxassisni taklif qilish, xavfsizlik texnikasi bo‘yicha mashg‘ulot, sayrlar, sayohatlar va boshqalar.

2. Ish - bu jamoa a’zolariga, shu jumladan o‘zlariga ham foyda va quvonch keltiradigan umumiy ish, muhim voqea [3].

O‘tkazish vaqtiga ko‘ra barcha shakllarni quyidagilarga bo‘lish mumkin: a) qisqa muddatli (davomiyligi bir necha daqiqadan bir necha soatgacha); b) davomli (davomiyligi bir necha kundan bir necha haftagacha); v) an’anaviy (muntazam takrorlanadigan).

Faoliyat turlari bo‘yicha shakllarni farqlash mumkin - o‘quv, mehnat, sport, badiiy faoliyat shakllari; pedagogning ta’sir ko‘rsatish usuli bo‘yicha - bevosita va bilvosita [3].

Tashkil etish subyektiga ko‘ra shakllarning tasnifi quyidagicha bo‘lishi mumkin: a) bolalarning tashkilotchilari pedagoglar, ota-onalar va boshqa kattalar hisoblanadi; b) faoliyat hamkorlik asosida tashkil etiladi; v) tashabbus va uni amalga oshirish bolalarga tegishli.

Natijasiga ko‘ra barcha shakllarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: a) natija axborot almashinuvi hisoblanadi; b) natija ifodalanadi umumiy yechim (fikr) bayoni; v) natija ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulot hisoblanadi.

Ishtirokchilar soniga ko‘ra shakllar quyidagicha bo‘lishi mumkin: a) individual (tarbiyachi - tarbiyalanuvchi); b) guruhli (tarbiyachi - bolalar guruhi); v) ommaviy (tarbiyachi - bir necha guruhlar, sinflar).

Tarbiyaviy ishning barcha shakllarini sanab o‘tish va ayniqsa, tavsiflashning iloji yo‘q. Ularning birgalikdagi faoliyatining barcha turlarida amal qiladigan va eng ko‘p tarqalgan ba’zilarinigina ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Individual shakllar darsdan tashqari barcha faoliyatga, pedagoglar va bolalar muloqotiga singib ketadi. Ular guruhli va jamoaviy shakllarda harakat qiladi va oxir-oqibatda boshqa barcha shakllarning muvaffaqiyatini belgilaydi. Ishning individual shakllariga quyidagilar kiradi: suhbat, samimiy suhbat, maslahat, fikr almashish (bu muloqot shakllari), birgalikdagi topshiriqni bajarish, muayyan ishda individual yordam ko‘rsatish, muammo va vazifalarning yechimini birgalikda izlash. Bu shakllar mustaqil harakat qilishi mumkin, ko‘pincha ular bir-biriga hamroh bo‘ladi. O‘quvchilarning har biri bilan turlicha munosabatda bo‘lish kerak, har bir o‘quvchi uchun o‘ziga xos, individuallashtirilgan munosabat uslubi zarur. O‘smirni o‘ziga moyil qilish, uni ochiq gapirishga chaqirish, uning ishonchini qozonish, o‘z fikrlari va shubhalarini pedagog bilan baham ko‘rish istagini uyg‘otish muhimdir.

Ishning guruhli shakllariga ish kengashlari, ijodiy guruhlar, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, mikroto‘garaklarni kiritish mumkin. Bu shakllarda pedagog o‘zini oddiy ishtirokchi yoki tashkilotchi

sifatida namoyon qiladi. Jamoa shakllaridan farqli o‘laroq, uning bolalarga ta’siri ko‘proq seziladi, chunki unga ko‘proq maktab o‘quvchilarining e’tibori qaratilgan.

pedagoglarning maktab o‘quvchilari bilan olib boradigan ishlarining jamoa shakllariga avvalo turli ishlar, konkurslar, spektakllar, konsertlar, agitbrigadalar, poxodlar, turistik slyotlar, sport muso-baqalari va boshqalar kiradi. O‘quvchilarning yoshiga va boshqa bir qator shart-sharoitlarga qarab pedagoglar bu shakllardan foydalanishda turli rollarni bajarishlari mumkin: yetakchi ishtirokchi, tashkilotchi; bolalarga shaxsiy namunasi bilan ta’sir ko‘rsatadigan faoliyatning oddiy ishtirokchisi; bilimdonroq kishilarning tajribasini egallashda shaxsiy namunasi bilan maktab o‘quvchilariga ta’sir ko‘rsatadigan yangi ishtirokchi; faoliyatni tashkil etishda bolalarga maslahatchi, yordamchi.

Barcha tasniflar o‘zaro bog‘liq va yondashuvga qarab, bir xil shakl ushbu tasniflarning har biriga tegishli bo‘lishi mumkin.

Tarbiyaviy ish shakli tavsifining quyidagi sxemasini tuzish mumkin:

1. nomi;
2. o‘tkazish davomiyligi;
3. dastlabki tayyorgarlik yoki ekspromt o‘tkazish;
4. ishtirokchilar soni;
5. faoliyatni kim tashkil etadi;
6. pedagog ta’sirining xarakteri;
7. hamkorlikdagi faoliyat natijasi.

Darsdan tashqari ishlarning shakllari, ularning mazmuni juda xilma-xil va hisobga olish qiyin. Har bir pedagog o‘z faoliyatida tarbiyaviy ishning xilma-xil shakllaridan foydalanishga intiladi, lekin kimdir ulardan, kimdir boshqalaridan muvaffaqiyatliroq foydalanadi. O‘qituvchilar o‘z ish tajribalari bilan sinf rahbarlarining metodik birlashmalarida o‘rtoqlashadilar.

O‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin: tarbiyaviy ishning har bir shaklidan maktabda o‘smir bolalarni tarbiyalash maqsadida foydalanish mumkin; o‘smirlar tarbiyaviy ishning turli shakllariga ijobiy munosabatda bo‘ladilar, ko‘pchilik alohida qiziqish bild-iradilar; o‘smirlar bilan tarbiyaviy jarayonni tashkil etish kichik va katta yoshdagi bolalar bilan tarbiyaviy jarayonni tashkil etishdan farq qilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Безрукова В.С. Педагогика. Проективная педагогика. Екатеринбург, 1999.
2. Зуннунов А., Тўхлиев Т. Педагогика. – Ташкент: Ўқитувчи, 2003. – 256 б.
3. Ғозиев Э. Онтогенез психологияси (Ривожланиш психологияси). – Тошкент: Фан, 2002. – 312 б.
4. Саидаҳмедов Н. Педагогик маҳорат. – Тошкент: Олий мактаб, 2010. – 280 б.
5. Бўриев О., Қодиров Р. Умумий педагогика**.** – Тошкент: Илм зиyo, 2012. – 350 б.
6. Выготский Л.С. Возрастная психология. – Москва: Смысл, 2006. – 322 с.
7. Божович Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте. – Москва: Просвеще-ние, 1976. – 464 с.
8. Краевский В.В., Лернер И.Я. Основы обучения. – Москва: Педагогика, 1995. – 192 с.
9. Ҳамрокулов Р. Тарбиявий иш методикаси. – Тошкент: Олий таълим, 2018. – 210 б.
10. Ҳасанов А.А. Ўсмирлик даври психологияси. – Тошкент: Фан ва технология, 2015. – 240 б.
11. Шарипов Ш., Жўраев У. Мактабда тарбиявий ишлар технологияси. – Тошкент: Зиё-нет, 2020. – 198 б.

Tashpulatova Nafisa Baxtiyarovna
Jahon iqisodiyoti va diplomatiya universiteti katta o'qituvchisi

KVALITATIV SINTAKSEMA VA UNING YURIDIK XUJJATLAR TARJIMASIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kvalitatativ sintaksema tushunchasi va uning yuridik hujjatlar tarjimasidagi o'rni lingvistik nuqtai nazardan yoritiladi. Kvalitatativ sintaksemalarning mazmun-mohiyati, ularning matndagi funksional yuklamasi hamda huquqiy matnlar tarjimasida aniqlik, aniq ifoda va huquqiy normativni to'g'ri aks ettirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot, shuningdek, tarjimada semantik noaniqliklarning oldini olish va rasmiy uslubni saqlashda sintaktik birliklarning ahamiyatini ochib beradi.*

Kalit so'zlar: *kvalitatativ sintaksema, yuridik hujjatlar, tarjima, sintaktik birlik, semantika, rasmiy uslub, lingvistika.*

КВАЛИФИКАТИВНАЯ СИНТАКСЕМА И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ ПРИ ПЕРЕВОДЕ ЮРИДИЧЕСКИХ ДОКУМЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье рассматривается понятие квалификативной синтаксемы и её значение в переводе юридических документов. Анализируются содержание и функции таких синтаксем, их роль в обеспечении точности, однозначности и правильной передачи юридических норм при переводе. Исследование подчёркивает важность синтаксических единиц в предотвращении семантической неоднозначности и в сохранении официально-делового стиля текста.*

Ключевые слова: *квалификативная синтаксема, юридические документы, перевод, синтаксическая единица, семантика, официальный стиль, лингвистика.*

QUALITATIVE SYNTAX AND ITS IMPORTANCE IN THE TRANSLATION OF LEGAL DOCUMENTS

Annotation. *This article examines the concept of qualitative syntaxeme and its significance in the translation of legal documents. The study analyzes the semantic and functional features of qualitative syntaxemes, highlighting their role in ensuring precision, clarity, and accurate representation of legal norms in translation. The research also emphasizes the importance of syntactic units in preventing semantic ambiguity and maintaining the formal style of legal texts.*

Key words: *qualitative syntaxeme, legal documents, translation, syntactic unit, semantics, formal style, linguistics.*

Kvalifikativ sintaktik semantika kategorial ya'ni umumiy semantik unsur bo'lib, u substansial (predmet yoki substansiyani bildiradi) yoki protsessual (umumiy harakat-jarayonni ifodalaydi) kategorial semantik unsurlardan farqli o'laroq, predmetning umumiy belgisini, xarakteristikasini, sifatini, holatini anglatadi.

Mazkur maqolada kvalifikativlik semantikasi xalqaro huquq hujjatlari matni gaplarining tarkibida kesim o'rnida ishlatiladigan sintaktik semantik elementlarning – sintaksemalarning umumiy mazmunidagi sifat, belgi, xoslik semantik unsurini ifodalab keladi.

Formal distributiv xususiyatgia ko'ra substansial sintaksemlar this - these, that - those ko'satish olmoshlari, his, her, their, my, your, kabi o'zlik olmoshlari, artikl hamda qaratqich kelishigi shaklidagi (N's) otlar bilan birikib kela olsa, kvalifikativ sintaksemalar substansial sintaksemalardan farqli o'laroq, bunday birikish xususiyatiga ega emas. Kvalifikativ sintaksemalarning birikishiga xos xususiyat shundan iboratki, u asosan very, more, most, less, so, quite kabi daraja elementlari bilan gap tarkibida birikib kelishi mumkin. Bu adabiy-badiiy matnga xos xususiyatdir. Ammo, tahlilga tortilgan xalqaro huquq hujatlarida makur daraja elemetlari bilan birikib kelgan kvalifikativ sintaksemalar uchratilmadi. Shunday bo'lsada, ularni sun'iy ravishda yuridik gaplar tarkibiga kiritib, grammatik

to‘g‘ri gap hosilasini olish mumkin. Masalan, quyidagi ikki gapni qo‘shimcha element kiritish eksperimentiga tortib ko‘ramiz: 1. Elementary education shall be compulsory - Началное образование должно быть обязателным. - Boshlang‘ich ta’lim majburiy bo‘lishi kerak (A-26, UDHR) ---Elementary education shall be more compulsory - Началноэ образование должно быт более обязателным. - Boshlang‘ich ta’lim ko‘proq majburiy bo‘lishi kerak; 2. All persons shall be equal before the courts and tribunals - Все лица равны перед судями и трибуналами - Barcha shaxslar sudlar va tribunallar oldida tengdir (A-14, ICCPR) 2. All persons shall be more equal before the courts and tribunals - Все лица более равны перед судами и трибуналами - Barcha shaxslar sudlar va tribunallar oldida ko‘proq tengdir (ko‘proq teng bo‘lishlari kerak – tuzatish bizniki) (A-14, ICCPR).

Ularning tarkibiga more, более, ko‘proq daraja elementlarini kiritish ham garammatik, ham ma’no jihatdan to‘g‘ri gaplarni keltirib chiqardi, ya’ni gapning grammatik qurilishi va mazmuniga putur yetmadi. Demak, tadqiqot ostiga olingan sintaksemalar tarkibida kvalifikativ sintaktik semantikasi mavjud ekan.

Bundan tashqari, turli kategoriyaga oid sintaksemalar o‘zlarining ifoda vositalar sistemasiga ega bo‘lib, ular faqat mustaqil so‘z turkumlarining shakllari bilan yoki ularning yordamchi so‘z turkumlari birikmasi yordamida ifodalanishi bilan bir birlaridan farq qiladilar. Jumladan, ingliz tilida substansial sintaksemalar ko‘p hollarda otlar hamda ularning yordamchi so‘z (predloglar, bog‘lovchi fe’llar) birikmalari bilan, protsessual sintaksemalar asosan fe’llarning shaxsli va shaxssiz shakllari bilan ifodalansa, kvalifikativ sintaksemalarning ifoda vositalari asosan sifatning o‘zi, uning bog‘lovchi fe’lli birikmalari, hamda –ly bilan tugaydigan ravishlar hisoblanadi.

Bizning tadqiqtimiz ob’ekti bo‘lgan xalqaro huquq hujjatlari matni gaplarida kesim o‘rnida ishlatiladigan kvalifiktiv sintaksemalar asosan sifatning (A) bog‘lochi fe’l to be ning hozirgi zamon, brinchi shaxs, birlik va ko‘plik shakllari (is/are) (is A/are A) bilan modal fe’llar (shall, may) birikmasi (shall be A, may be A) tashkil qiladi. Shunday qilib, avval sifatning bog‘lovchi fe’lli birikmalarini, keyin esa modal fe’lli birikmalarning sintaktik semantikasini ko‘rib chiqamiz.

Protsessual kategoriyaga oid sintaksemalar tarkibida bir qator nokategoriyal sintaktik semantik unsurlar (aktivlik, yo‘naltirilganlik, stativlik, modallik, neativlik va h.k.) bir sintaktik element tarkibida qorishib uning sintaktik semantik mazmun-mundarijasini tashkil qilgani singari, kvalifikativlik kategoriyaga oid sintaktik elementlar-birliklar tarkibida ham nokategorial sintaktik- semantik unsurlar mavjud bo‘lib, mazkur kvalifikativ sintaksemaning mazumunini tashkil qiladi. Masalan, xalqaro huquq hujjatlari matnidan olingan quyidagi gaplarni tahlil qilamiz:

The present Covenant is open for signature by any State Member of the United Nations… - Настоящий Пакт открыт для подписания любым государством - членом Организатсии Объединенных Наций… - Mazkur Pakt Birlashgan Milatlar Tashkilotining ... a’zosi bo‘lgan har qanday davlat tomonidan imzolash uchun ochiqdir (A-48, ICCPR).

Everyone is entitled to all the rights and freedoms set forth in this Declaration… - Каждый человек должен обладат всеми правами и всеми свободами, провозглашенными настоящей Декларатсией - Har bir inson... Deklaratsiyada e’lon qilingan barcha huquq va barcha erkinlikka ega bo‘lishi zarur (A-2, UDHR).

They are entitled to equal rights as to marriage, during marriage and at its dissolution - Они ползуются одинаковыми правами в отношении вступления в брак, во время состояния в браке и во время его расторжения - Ular nikohdan o‘tishda, nikohda turgan vaqtlarida va uni bekor qilish vaqtida bir xil huquqdan foydalanadi (A-16, UDHR).

All are equal before the law and are entitled without any discrimination to equal protection of the law - Все люди равны перед законом и имеют право, без всякого различия, на равную защиту закона - Barcha odamlar qonun oldida tengdir va hech bir tafovutsiz qonun bilan teng himoya qilinish huquqiga egadir (A-7, UDHR).

Har uch tilda keltirilgan gaplarda kesim o‘rnida faollashgan so‘z va so‘z birikmalari is open, открыт, ochiqdir, is entitled, должен обладат, ega bo‘lishi zarur, are entitled, ползуются, huquqdan foydalanadi, are equal, are entitled, равны, имеют право, tengdir, huquqiga egadir o‘zlarining kvalitativ (belgi, sifat, xususiyat) sintaktik semantikasini har bir gapning boshida kelgan ega o‘rnida faollashgan sintaksema bilan predikativ bog‘lanish asosida ro‘yobga chiqaradi. Buni asoslash uchun biz ingliz tilidagi asl gaplar tarkibiga daraja elementi quite ni kiritish eksperimentiga murojaat qilamiz.

Masalan: 1. ---The present Covenant is quite open for signature by any State Member of the United Nations…. 2. --- Everyone is quite entitled to all the rights and freedoms set forth in this Declaration…. 3. ---They are quite entitled to equal rights as to marriage, during marriage and at its dissolution. 4. ---All are quite equal before the law and are quite entitled without any discrimination to equal protection of the law…

Mazkur gaplar ustida o‘tkazgan eksperimentimiz natijasida grammatik jihatdan to‘g‘ri, mazmun jihatdan o‘zgarmagan, aksincha, birmuncha kuchaytirilgan gaplar hosil bo‘ldi. Bu biz ehtimol qilgan kvalitativ sintaktik-semantikasining tahlil ostiga olingan gaplar tarkibida mavjudligidan dalolat beradi.

Aniqlangan kvalitativ sintaksemalar (1-4 gaplardagi) o‘zlarining formal distributiv xususiyatlariga ko‘ra berilgan gaplarning egasi vazifasi o‘rnida faollashgan kvalitativlik semantikasini o‘zida tashib kelgan Convenant, Everyone, They, All bilan predikativ bog‘lanish orqali sintaktik munosabatga kirib, o‘zining kvalitativlik semantikasini, to be bog‘lovchi fe’lining aniqlik mayli, hozirgi zamon, birlik va ko‘plik kabi kategoriyalari orqali namoyon qiladi. Bu kabi grammatik kategoriyalar yuridik predikatsiyaning tashqi olam bilan munosbatini amalga oshirib, faollashtiradigan lingvistik omillar hisoblanadi.

Tahlil ostiga olingan gaplarning 4-chisi alohida e’tibor talab qiladi. Shuning uchun bu gapning yana bir marta uch tilda keltiramiz: 4. All are equal before the law and are entitled without any discrimination to equal protection of the law - Все люди равны перед законом и имеют право, без всякого различия, на равную защиту закона - Barcha odamlar qonun oldida tengdir va hech bir tafovutsiz qonun bilan teng himoya qilinish huquqiga egadir (A-7, UDHR).

Mazkur gapda are equal, are entitled bilan ifodalangan kvalitativ sintaksemalar predikativ bog‘lanishdan tashqari, koordinativ (uyushiq) bog‘lanish asosida bir-biri bilan uyushib mazkur gapning uyushiq kesimini tashkil qiladi. Bu koordinativ bog‘lanish har uch tilda ham teng bog‘lovchilar and, i, va bilan amalga oshirilgan. Demak, bu yerda kvalitativ sintaksema ikki sintaktik aloqa - ham predikativ, ham koordinativ aloqa asosida gap tarkibida faollashmoqda.

Mazkur 4 - gapning tarjimasiga e’tibor bersak, tarjima rus va o‘zbek tillarida ham asl ingliz tilidagi mazmunni aks ettira olgan. Tarjimani qiyoslang:

The present Covenant is open for signature by any State Member of the United Nations… - Настоящий Пакт открыт для подписания любым государством - членом Организатсии Объединенных Наций… - Mazkur Pakt Birlashgan Milatlar Tashkilotining ... a’zosi bo‘lgan har qanday davlat tomonidan imzolash uchun ochiqdir (A-48, ICCPR).

Everyone is entitled to all the rights and freedoms set forth in this Declaration… - Каждый человек должен обладат всеми правами и всеми свободами, провозглашенными настоящей Декларатсией - Har bir inson... Deklaratsiyada e’lon qilingan barcha huquq va barcha erkinlikka ega bo‘lishi zarur (A-2, UDHR).

They are entitled to equal rights as to marriage, during marriage and at its dissolution - Они ползуются одинаковыми правами в отношении вступления в брак, во время состояния в браке и во время его расторжения - Ular nikohdan o‘tishda, nikohda turgan vaqtlarida va uni bekor qilish vaqtida bir xil huquqdan foydalanadi (A-16, UDHR).

All are equal before the law and are entitled without any discrimination to equal protection of the law - Все люди равны перед законом и имеют право, без всякого различия, на равную защиту закона - Barcha odamlar qonun oldida tengdir va hech bir tafovutsiz qonun bilan teng himoya qilinish huquqiga egadir.

Ko‘rinib turibdiki, tarjimada grammatik jahatdan gapning tuzilishi, stilistik jihatdan uning yuridik tilga xos bo‘lgan lo‘ndaligi va aniqligi saqlanib qolingan. Ayni paytda o‘zbek tilidagi variant xalqaro huquq hujjati qabul qilingan asl til, ingliz tilidan to‘ppadan to‘g‘ri tarjima qilinmasdan, rus tili orqali tarjima qilingani yaqqol ko‘zga tashlanib turibdi. Ayniqsa 1- gap shakl va mazmun jihatdan aslga yaqin. Ammo berilgan 2, 3 va 4 gaplardagi is entitled birikmasi bilan ifoda etilgan kvalitativ sintaksema rus va o‘zbek tillariga 3 xil tarjima qilingan: (2) должен обладат - ega bo‘lishi zarur, (3) ползуются .(..правами) - huquqdan foydalanadi, (4) имеют право - huquqiga egadir. Ikkinchi gapdagi is entitled bilan ifodalangan sintaksema tarkibida modallik sematikasi bo‘lmasada, tarjimada modallik unsuri “(2) должен обладат - ega bo‘lishi zarur” qo‘shib tarjima qilingan. Ayniqsa, tarjimada

lingvistik eksperiment -tarnsformatsiya metodiga murojaat qilinib, kvalifikativlik kategoriyasi protsessuallik kategoriyasiga aylantirilgan, ya'ni sifat fe'llashtirilgan. Bu hatto bir til doirasida ham mumkin bo'lgan perefraza qoidasidir. Bunda tadqiqot ob'ekti bo'lgan "open, equal, is entitled" ning qurshovidagi til elementlari saqlanib qolinadi. Ular o'z qurshovidagi ob'ektni boshqaruv bog'lanishi vositasida qanday boshqargan bo'lsa, rus va o'zbek tilidagi 4ta gapning tarjima variantlarida ham o'timli fe'llar bu talabga rioya qilinganligi uchun tarjima tushunarli, lunda va aniq chiqqan. Adabiy-badiiy matndan farqli o'laroq, xalqaro huquq hujjatlari matnida kvalitativ sintaksemaning yordamchi fe'lining hozirgi zamon, uchinchi shaxs, birlik va ko'plik shakllari bilan ifodalangan variantlari ichida negativ va interrogativ unsurli elementlarning qo'llanish holati uchramadi.

Odatda, xalqaro huquq hujjatlari gaplarining kesimini ifodalab kelgan "is/are entitled" sifat birikmasini huquqqa ega, huquqi bor deb tarjima qilish holatlari uchraydi. Bundan tashqari, mazkur birikmani o'zbek tilida xuddi shuday sifat bo'lgan "haqli" so'zi bilan tarjima qilish tarjimani asl matnga nisbatan adekvatligini ta'minlashga xizmat qilishi mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkimki,mazkur kvalitativ sintaksemaning ingliz tilidagi leksik manbai juda ham chegaralangan bo'lib, uni sanoqli sifatlar tashkil qiladi, xolos, jumladan: open, entitled, equal, available, possible, nessessary.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Абдулрагимов Э.Г., Конструкции с переходными глоголами в разносистемных языках. Автореф.дисс.канд.наук:10.02.04. Баку,1981.-197 стр.

2. Аванесов Р.И. Второстепенные члены предложения как грамматические категории //Русский язык в школе, 1936.№4. - 53-60стр.

3. Адмони В.Г. Синтаксис современного немецкого языка. Система отнашений и система построения, - 1973,1942 стр.

4. Акбулатова А.М. Родительный падеж в структуре предложений современного английского языка: Дис. Канд. Филол. Наук:10.02.04. Л. - 1984, 31-32 стр.

5. Александров Н.М.К вопросу щ членх предложения. – 1957, 45-46 стр.

QISQARTMA SO'ZLAR IZOHI

UDHR - Universal declaration of human rights - adopted and proclaimed by the un general assembly resolution 217 a (iii) of 10 december 1948. In: human rights and you. Compiled and edited by Frederick Quinn. Published by OSCE/ODIHR, Warsaw, Poland.1999. In: human rights and you. Compiled and edited by Frederick Quinn. Published by OSCE/ODIHR, Warsaw, Poland.1999.

ICCPR - International covenant on civil and political rights - adopted and opened for signature, ratification and accession by UN General Assembly Resolution 2200a (xxi) of 16 december 1966. Entry into force 23 march 1976, in accordance with article 49. Fuqarolik va siyosiy huquqlar To'g'risidagi xalqaro pakt 1966 yil 19 dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan. In: human rights and you. Compiled and edited by Frederick Quinn. Published by OSCE/ODIHR, Warsaw, Poland.1999.

Yusupova Kandilatkhan
Renessans ta'lim universiteti, Xorijiy til va adabiyoti kafedrasi dotsenti, PhD
E-mail: kandilatyusupova71@gmail.com

"ANDISHA VA G'URUR" ROMANIDAGI YETAKCHI AYOL OBRAZINING PSIXOLOGIK TADQIQI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Jeyn Ostinning "Andisha va g'urur" romanidagi yetakchi ayol obrazining psixologik jihatdan tahlili olib borilgan. Elizabet Bennet personajining ichki dunyosi, ruhiy holati va ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri o'rganilib, ayollarning shaxsiy rivojlanishi hamda ijtimoiy rolining murakkabligi yoritilgan. Maqolada, shuningdek, gender munosabatlari psixologiyasi va feminist diskurs doirasida ushbu obrazning ahamiyati ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *Jeyn Ostin, "Andisha va g'urur", Elizabet Bennet, psixologik tahlil, ayol obrazi, feminizm, ijtimoiy rol*

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ОБРАЗА ГЛАВНОЙ ЖЕНЩИНЫ В РОМАНЕ «АНДИША И ГУРУР»

Аннотация. *В данной статье рассматриваются этапы формирования реалистического направления в западной литературе, его основные принципы и художественное мастерство писателей XIX века. Особое внимание уделено вопросам типизации, взаимосвязи характера и среды, а также правдивому отражению социальной действительности. Исследование направлено на раскрытие развития западной реалистической школы и её влияния на последующую литературную эволюцию.*

Ключевые слова: *реализм, западная литература, характер, типизация, социальная среда, литературный процесс XIX века.*

PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF THE LEADING FEMALE CHARACTER IN THE NOVEL "ANDISHA VA G'URUR"

Annotation. *This article analyzes the stages of the development of the realist movement in Western literature, its fundamental principles, and the artistic mastery of 19th-century writers. Special attention is given to typification, the relationship between character and environment, and the truthful depiction of social reality. The study highlights the evolution of the Western realist school and its influence on later literary trends.*

Key words: *realism, Western literature, character, typification, social environment, 19th-century literary process.*

Kirish. Angliya yozuvchisi Jeyn Ostin (Jane Austen, 1775–1817) ijodiga mansub "Andisha va g'urur" ("Pride and Prejudice", 1813) romanining adabiy-badiiy tahlilidan oldin, muallifning ijodiy qarashlari, xususan, uning asarlaridagi tarixiy va madaniy xususiyatlarni yoritish muhimdir. Garchi adibaning umri unchalik uzoq bo'lmagan bo'lsa-da, bu umr mazmunli voqealarga boy bo'lgan. Jeyn Ostin XVIII asrda hukm surgan Avgustin davri va XIX asrda yuzaga kelgan Romantik davr oralig'ida yashab ijod etdi.

"Andisha va g'urur" romanidagi yetakchi ayol obrazining psixologik tahlili davomida bir nechta asosiy jihatlar alohida e'tiborga loyiqdir. Avvalo, asarda ayol xarakteri ijtimoiy-madaniy muhitning psixologik bosimlari bilan shaxsiy ichki ehtiyojlar o'rtasidagi murakkab ziddiyatlar orqali ochib beriladi. Bu ziddiyatlar ayolning ruhiy kechinmalarini, qaror qabul qilish jarayonidagi ikkilanmalarini va shaxsiy qadr-qimmatga bo'lgan intilishini yanada chuqurroq yoritadi.

Yetakchi ayol obrazining andisha bilan g'urur o'rtasida kechadigan psixologik kurashi zamonaviy psixologiya nuqtai nazaridan qaralganda, shaxsda mavjud bo'lgan ijtimoiy sezgirlik va o'zini himoya qilish mexanizmlari o'rtasidagi tabiiy psixologik dinamika sifatida baholanadi. Bu holat,

ayniqsa, patriarxal jamiyat sharoitida ayolning o‘z mavqeini saqlab qolishi va mustaqil qaror qabul qilishga bo‘lgan ehtiyoj bilan yanada keskinlashadi.

Romandagi ayolning o‘zini anglash jarayoni, o‘zini qadrlash hissining shakllanishi va irodaviy qarorlar qabul qilish jarayonlari psixodinamik yondashuv nuqtai nazaridan tahlil qilinganda, uning shaxs sifatida yetilishida hissiy barqarorlik, ichki kuch va intellektual mustaqillik muhim omillar sifatida ko‘zga tashlanadi. Tahlil jarayonida shuni ko‘rish mumkinki, ayol obrazining har bir psixologik reaksiyasi uning hayotiy tajribasi, ijtimoiy o‘rni va emosional ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liqdir.

Muhokamalarda yana bir muhim jihat - muallifning ayol obrazini yaratishda real psixologik jarayonlarni chuqur anglagani va ularni badiiy vositalar orqali nozik tarzda ifodalay olganidir. Bu esa obrazning nafaqat badiiy-estetik, balki ilmiy-psixologik ahamiyatini ham oshiradi. Romandagi ayolning ichki kurashi va tashqi munosabatlari bugungi davr ayolining psixologik holatlari bilan hamohang bo‘lib, bu obrazni universallashgan tip darajasiga ko‘taradi.

Umuman olganda, muhokama shuni ko‘rsatadiki, romandagi yetakchi ayol obrazi psixologik murakkablik, ijtimoiy mavqe uchun kurash, ichki mustaqillik va o‘zligini anglash jarayonlarini o‘zida mujassam etgan holda, zamonaviy psixologik tahlil uchun samarali ilmiy material vazifasini o‘taydi.

“Ma’rifat asri” yoki “Idrok asri” deb nom olgan Avgust davri liberal g‘oyalar, aql va mulohaza ustuvor bo‘lgan davr sifatida tanilgan. Bu davr roman janrining rivojlanishi, dramalarning melodramaga aylanishi va shahar hayoti mavzularining keng qamrovda tasvirlanishi bilan ajralib turadi. XIX - Romantik asr esa his-tuyg‘ular, tabiat go‘zalligi va ruhiy kechinmalarga urg‘u berilgan davr sifatida mashhurdir. Bu davrning yana bir muhim jihati - o‘rta sinfning kuchayishiga turtki bo‘lgan Fransiya inqilobi (1789–1791) bo‘lib, u J. Ostin tug‘ilgan yillarga to‘g‘ri keladi.

Asosiy qism. Jeyn Ostin ijodining davrlashtirilishi

Olimlar J. Ostin ijodini ikki bosqichda o‘rganadilar:

Ilk ijodiy davri asarlari:	Yuksak mahorat davri asarlari:
Aql va hissiyot”	“Mensfild Park”
“Andisha va g‘urur”	“Emma”
“Nortenger abbathligi”	“Idrok asoslari”

“Andisha va g‘urur” romani Longbourne’da yashovchi qishloq jentlmenining besh qizidan ikkinchisi - Elizabet Bennet va boy aristokrat Fitsvilyam Darsi o‘rtasidagi sevgi hikoyasiga bag‘ishlangan.

Ingliz tadqiqotchilari J. Ostin romanlarini quyidagicha tavsiflaydilar:

“Uning romanlari markazida turmushdagi munosabatlar va ularning avj nuqtasi aks etadi... U sevgi mavzusini juda yaxshi biladi.”

Charles Hinnant esa Ostin asarlarini “risoladagidek sevgi o‘yinlarini qidirish bilan to‘la” deb hisoblaydi.

Judith Newton uchun esa Jeynning romanlari realizm bilan tasavvuriy sarguzasht o‘rtasida shakllanadi.

XIX asr Angliyasida nikoh - ayolning iqtisodiy va ijtimoiy ta’minoti uchun asosiy vosita deb qaralgan. Roman mashhur quyidagi jumla bilan boshlanishi bejiz emas:

“Qo‘lida puli bor balog‘atga yetgan har bir yigit o‘ziga xotin topishi kerakligi hammaga ma’lum.”

Bu ibora kinoya bilan aytilgan bo‘lib, aslida yigit emas, balki qizlarning tezda boyroq oilaga turmushga chiqishi zarurligi nazarda tutiladi.

Bennetlar oilasining besh qizi o‘z fe’l-atvoriga ko‘ra bir-biridan keskin farqlanadi. Elizabet ulardan eng ziyrak, kuzatuvchan, mustaqil fikrlaydigan, sezgir, lekin hissiyotlarini darhol oshkor qilavermaydigan qiz sifatida tasvirlanadi.

Uning xarakteridagi qat’iyat va jur’at quyidagi epizodda yorqin ko‘rinadi:

“Elizabet bir daladan ikkinchisiga o‘tib, tez yurib ketdi... Neterfildga yetib kelganda kiyimlari loy bo‘lib, yuzi qizarib ketgan edi.”

Bu holat - uning tashqi ko‘rinish emas, balki singlisining ahvoli uchun qayg‘urishini ko‘rsatadi. Shuningdek, uning mustaqil qarashlari va tabiiy jasurligi tasvirlanadi.

Darsi bilan ilk muloqotlarida Elizabetning g‘ururi va mulohazali rad javoblari uning xarakteridagi mustaqillik belgilarini ochadi.

Tadqiqotchilarning talqinlari

Hudson fikricha, “sevgi tuyg‘usi” avval “yaqinlik” keyin esa “birodarlik muhabbati” orqali shakllanadi.

Tadqiqotchi L. Shihan Elizabetni “moliyaviy tomondan mustaqil bo‘lishni emas, balki ma’naviy-axloqiy erkinlikni ham qadrlaydigan ayol” deb baholaydi.

Valter Skot esa Ostinning insoniy munosabatlarni noziklik bilan tasvirlay olishini yuqori baholaydi.

Jeyn Ostin ko‘pincha muallif izohini bermaydi, balki hikoyani bosh qahramonning fikrlari, qarorlari va kechinmalari orqali ochadi. Elizabetning hazilkash, kinoyali, lekin mantiqli fikrlashi uni asarda boshqa ayollardan ajratib turadi.

Xulosa. Jeyn Ostinning “Andisha va g‘urur” romanidagi yetakchi ayol obrazining psixologik tadqiqi Elizabet Bennetning ichki dunyosi, ruhiy holati va ijtimoiy muhit bilan bog‘liqliklarini chuqur anglashga yordam beradi. Uning mustaqilligi, aql-idroki va hissiy intizomi birgalikda roman g‘oyalarini belgilaydi. Ushbu tahlil ayollar shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy rolining murakkabligi va gender munosabatlarining psixologik ko‘rinishlarini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

“Andisha va g‘urur” romanidagi yetakchi ayol obrazining psixologik tadqiqi shuni ko‘rsatadiki, asar markazida turgan ayol qiyofasi murakkab ruhiy kechinmalar, jamiyat talablari va shaxsiy maqsadlar o‘rtasidagi ichki kurash orqali shakllanadi. Uning xarakterida andisha - ya’ni ijtimoiy munosabatlarda ehtiyotkorlik, o‘zini tuta bilish, odob va tarbiyaning ustuvorligi; g‘urur esa - o‘z qadr-qimmati, mustaqil fikri va shaxsiy chegaralarini himoya qilish kabi psixologik omillar uyg‘unlashgan tarzda namoyon bo‘ladi.

Ayol obrazining psixologik tahlili uning qarorlarida hissiy barqarorlik, ijtimoiy rollarni ongli ravishda bajarish, shuningdek, o‘zini anglash jarayonida kechadigan psixodinamik ziddiyatlarni ochib beradi. Romanda ayolning irodasi, kechinmalari, munosabatlari va qadriyatlari real hayotdagi ayol psixologiyasining teran jihatlari bilan bog‘langan bo‘lib, muallif uning shaxs sifatida yetilishi va kuchli individual pozitsiyasini alohida ta’kidlaydi.

Tadqiqot asosida aytish mumkinki, asardagi yetakchi ayol obrazi nafaqat badiiy estetik ideal, balki psixologik jihatdan puxta yoritilgan, ichki mustaqillikka ega, o‘z qadrini anglaydigan zamonaviy ayol timsolining yorqin namunasidir. Ushbu obrazning o‘rganilishi ayol psixologiyasi, gender tadqiqotlari va badiiy psixologiyaning kesishgan nuqtalarida muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Ostin, J. Andisha va g‘urur. – Toshkent: Adabiyot va san’at, n.d.
2. Emsley, S. Jane Austen and the Idea of Moral Virtue. – New York: Palgrave Macmillan, 2005.
3. Hudson, N. Jane Austen and the Enlightenment. – Cambridge: Cambridge University Press, 2013.
4. Newton, J. Starting Over: Feminism and the Politics of Cultural Critique. – Ann Arbor: University of Michigan Press, 1994.
5. Goodwin, S. W. Gender and the Gothic in the Work of Jane Austen // Romanticism on the Net. – 1998.
6. Hinnant, C. H. Jane Austen and the Enlightenment // Studies in English Literature, 1500–1900. – 2004. – Vol. 44, № 4.
7. Sheehan, L. Feminist Readings of Jane Austen. – London: Macmillan, 1993.
8. Scott, W. Critical Essays on Jane Austen. – Boston: G.K. Hall, 1986.
9. Webster, S. Feminist Utopianism and the Realism of Jane Austen // Modern Language Studies. – 1999.
10. Lasheras, P. L. The Notion of Feminism in “Pride and Prejudice”. – Spain, 2020.

Qurbonova Feruza Maxamatjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: qurbonova594@gmail.com

MAKTAB O‘QUVCHILARIDA BULLING HOLATINING NAMOYON BO‘LISHI VA UNING O‘QUV JARAYONIGA BO‘LGAN TA’SIRI

Annotatsiya. *Ushbu maqola maktab o‘quvchilarda bulling holatining qanday namoyon bo‘lishi va uning bolalarning o‘quv jarayoniga qanday ta’sir qilishini o‘rganadi. Bullingning jismoniy, ruhiy, ijtimoiy va kiberbulling shakllari o‘quvchilar orasida qanday sodir bo‘lishi mumkinligi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada bullingning bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchiga, ijtimoiy malakalarga, do‘stlik munosabatlariga va maktabdagi faoliyatiga ta’siri yoritiladi. Maqolada, bullingni oldini olish va unga qarshi kurashish uchun maktab, o‘qituvchilar, ota-onalar va jamiyatning birgalikda olib borishi kerak bo‘lgan choralar haqida ham so‘z yuritiladi. Bu orqali bolalarga ijtimoiy va psixologik jihatdan sog‘lom rivojlanish uchun qanday sharoit yaratish mumkinligi ko‘rsatiladi. Maqola o‘quvchilarning ijtimoiy rivojlanishini q o‘llab-quvvatlash, bullingning oldini olish va unga qarshi kurashishning ahamiyatini tushuntiradi.*

Kalit so‘zlar: *bulling, kichik maktab yoshi, ijtimoiy rivojlanish, ruhiy bulling, jismoniy bulling, ijtimoiy bulling, kiberbulling, o‘ziga bo‘lgan ishonch, ijtimoiy malakalar, empatiya, o‘qish va ta’lim, maktabda bullingni oldini olish, psixologik salomatlik, ota-onalar va maktab hamkorligi, jamiyatdagi ro‘li.*

ПРОЯВЛЕНИЕ БУЛЛИНГА СРЕДИ ШКОЛЬНИКОВ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА УЧЕБНЫЙ ПРОЦЕСС

Аннотация. *В данной статье рассматриваются проявления травли среди школьников и то, как она влияет на обучение детей. Анализируются физические, психологические, социальные и кибербуллинговые формы травли среди учащихся. В статье также освещается влияние травли на уверенность детей в себе, социальные навыки, дружеские отношения и успеваемость в школе. В статье также обсуждаются меры, которые школы, учителя, родители и общество должны совместно принимать для предотвращения и борьбы с травлей. Это показывает, как дети могут развиваться социально и психологически. В статье объясняется важность поддержки социального развития учащихся, предотвращения и борьбы с травлей.*

Ключевые слова: *травля, раннее детство, социальное развитие, психологическая травля, физическая травля, социальная травля, кибербуллинг, уверенность в себе, социальные навыки, эмпатия, обучение и образование, профилактика травли в школе, психологическое здоровье, партнерство родителей и школы, роль в обществе.*

MANIFESTATION OF BULLYING AMONG SCHOOL STUDENTS AND ITS IMPACT ON THE LEARNING PROCESS

ta’lim - o‘quvchi shaxsini shakllantirishdagi eng muhim bosqichlardan biridir. Aynan shu davrda bola bilim olishga, o‘rganishga, kitob va badiiy so‘zga muhabbat uyg‘otishga yo‘naltiriladi. Shu sababli o‘qish darsi faqat savod o‘rgatish vositasi emas, balki o‘quvchining ma’naviy-axloqiy, estetik va madaniy kamoloti uchun asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. O‘qish madaniyati bolada to‘g‘ri, ifodali o‘qish, matn mazmunini tushunish, badiiy g‘oyani his etish va o‘z fikrini erkin bayon etish ko‘nikmalarini shakllantiradi. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Prezidentning “Ta’lim sifatini oshirish va ilm-fanni rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida ta’lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish zarurligi ta’kidlab o‘tilgan. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi oldiga yangi pedagogik vazifalarni qo‘yadi – o‘quvchini o‘qishga o‘rgatish emas, balki o‘qishni sevishga, undan zavq olishga o‘rgatish. Hozirgi davrda raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va tezkor axborot manbalari bolalarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada ayrim o‘quvchilar o‘qish jarayonini zerikarli yoki majburiy faoliyat deb bilishadi. Shu sababli o‘qish madaniyatini shakllantirishda o‘qituvchi metodik jihatdan puxta, psixologik jihatdan nozik va ijodiy yondashishi zarur. O‘quvchida kitobni sevish tuyg‘usini uyg‘otish - bu o‘qituvchining san’at darajasidagi mahoratini talab etadi. Badiiy matn bilan ishlash jarayonida o‘qituvchi o‘quvchini nafaqat so‘z va g‘oyalarni anglashga, balki ularning badiiy-estetik mohiyatini his qilishga o‘rgatadi. Chunki badiiy asarlar orqali o‘quvchi ezgulik, halollik, do‘stlik, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlarni anglaydi, hayotiy saboqlar oladi. Shu jihatdan badiiy o‘qish darslari nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyaviy, estetik va ma’naviy jihatdan shakllantiruvchi vosita hisoblanadi.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida badiiy matnni o‘qish madaniyatini shakllantirish - bu ko‘p qirrali pedagogik jarayon bo‘lib, u o‘qish texnikasini o‘rgatish, matnni tahlil qilish, obrazlarni tushunish, fikrni ifodali bayon etish va badiiy so‘z orqali estetik didni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Ushbu jarayonning samaradorligi o‘qituvchining metodik mahorati, darsdagi interfaol usullarni to‘g‘ri tanlashi hamda o‘quvchilarni faol subyekt sifatida darsga jalb etish darajasiga bog‘liqdir.O‘qish madaniyati – bu o‘quvchining badiiy matnga ongli, estetik va tanqidiy munosabatda bo‘lish qobiliyatidir. D. Yo‘ldosheva o‘zining asarlarida boshlang‘ich ta’limda o‘qish darslarining maqsadi faqat o‘qish texnikasini o‘rgatish emas, balki o‘quvchida so‘z, badiiy obraz va g‘oyani his etish qobiliyatini shakllantirishdan iborat ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ifodali o‘qish - bu o‘qish madaniyatining eng yuqori bosqichi, chunki o‘quvchi matnni nafaqat o‘qiydi, balki u bilan yashaydi, his qiladi. Yo‘ldosheva o‘qituvchining o‘quvchilarga namunali o‘qib berish, dramatizatsiya, intonatsiya, pauza va urg‘u bilan ishlash kabi mashqlar orqali badiiy o‘qish malakasini rivojlantirish usullarini ishlab chiqqan. Unga ko‘ra, o‘qish madaniyatining asosi - o‘qituvchining ifodali nutqi va o‘quvchining his-hayajon bilan idrok etishiga sharoit yaratishdir. J. Xolmuhamedov o‘qish jarayoniga metodik tizim sifatida yondashadi. U o‘qish darslarini tayyorlov, o‘qish, tahlil, ijodiy faoliyat va xulosa bosqichlariga ajratadi. Olim badiiy matnni o‘rganishda bolaning yosh xususiyatlari, psixologik holati va idrok imkoniyatlarini hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi. Asarda o‘qituvchining roli markaziy o‘rinda turadi: u bolani kitobga oshno qilish, o‘qishga muhabbat uyg‘otish, o‘qilgan matndan hayotiy saboq chiqarishga yo‘naltirish kerak. Xolmuhamedovning yondashuvi o‘qish darslarini axborot beruvchi emas, balki tarbiyaviy va ijodiy jarayon sifatida tashkil etishga urg‘u beradi.S. To‘xtaboeva asarlarida badiiy matnni o‘qish madaniyatini estetik tarbiya bilan uzviy bog‘laydi. Unga ko‘ra, o‘quvchi badiiy matndan zavq olishni o‘rganmasa, o‘qish jarayoni mexanik tus oladi. Shu bois, o‘qish darslarida tasviriy ifoda vositalari, obrazlar tahlili, muallif g‘oyasini his etish asosiy o‘rin tutadi. To‘xtaboeva o‘qituvchilarga badiiy asar ustida ishlashda she’r o‘qish, sahnalashtirish, musiqiy fon yoki vizual tasvirlardan foydalanish orqali bolalarda estetik hisni kuchaytirish tavsiyasini beradi.

O‘qish madaniyatiga quyidagi komponentlar kiradi:

Texnik komponent – to‘g‘ri, tez, ifodali o‘qish ko‘nikmasi;

Mazmuniy komponent – matn mazmunini tushunish, asosiy g‘oyani ajratish;

Estetik komponent – badiiy asardan zavq olish, obrazlarni his etish;

Aqliy va axloqiy komponent – o‘qilgan matn orqali hayotiy saboq olish, xulosa chiqarish.

Boshlang‘ich sinfda bu madaniyatni shakllantirish o‘quvchining butun keyingi ta’lim jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.Badiiy matnni o‘rganishda quyidagi metodik bosqichlarga amal qilish tavsiya etiladi:

Matnga tayyorlov bosqichi – o‘quvchilarda matn mavzusiga qiziqish uyg‘otish (savol-javob, suhbat, rasm, videolavha orqali).

Matnni o‘qish bosqichi – o‘qituvchi namunali o‘qiydi, so‘ng o‘quvchilar mustaqil o‘qiydi.

Mazmunni tahlil qilish bosqichi – syujet, qahramonlar, g‘oya va his-tuyg‘ular haqida suhbat.

Ijodiy ishlash bosqichi – dramatizatsiya, rolli o‘yin, rasm chizish, she’r tuzish, davom yozish kabi ijodiy topshiriqlar.

Xulosa bosqichi – matn orqali olinadigan hayotiy saboq va estetik zavqni umumlashtirish.

Bosqichlar	O‘qituvchi faoliyati	O‘quvchi faoliyati	Metodik maqsad va natija	Qo‘llanilgan metod / vosita
1. Tayyorlov bosqichi (motivatsiya)	Asar muallifi (Xudoyberdi To‘xtaboyev) haqida qisqa ma’lumot beradi. Rasm yoki video lavha orqali “Sariq devni minib” asarining mavzusiga kirish qiladi.	Savollarga javob beradi, asar haqida taxminlar bildiradi.	O‘quvchilarda matnga nisbatan qiziqish uyg‘otish, o‘qishdan oldingi motivatsiyani shakllantirish.	“Aqliy hujum”, “Suhbat”, multimediyali taqdimot.
2. Matnni o‘qish bosqichi	Asarning bir qismini ifodali tarzda o‘qib beradi, keyin o‘quvchilar navbatma-navbat o‘qiydilar.	Tinglaydi, matnni to‘g‘ri, ifodali o‘qishga harakat qiladi.	O‘qish texnikasini takomillashtirish: talaffuz, urg‘u, ohang, tezlikni boshqarish.	“Namunali o‘qish”, “Zanjirli o‘qish” usuli.
3. Tahlil bosqichi	Matn yuzasidan savollar beradi: “Hasanboy qanday bola edi?”, “Dev qanday obraz?”, “Muallif qanday fikrni yetkazmoqchi?”	O‘z fikrini erkin ifoda etadi, personajlarga baho beradi.	Matn mazmunini anglash, asosiy g‘oyani aniqlash, badiiy obrazlarni tahlil qilish.	“Insert” texnologiyasi, “Klaster” usuli, “Savol-javob”.
4. Ijodiy bosqich	“Agar siz yozuvchi bo‘lganingizda asarni qanday tugatgan bo‘lardingiz?” degan savol beradi.	Asarning davomini yozadi, ijodiy fikr bildiradi, rasm chizadi yoki sahna ko‘rinishi yaratadi.	O‘quvchilarda ijodkorlik, nutq madaniyati, mustaqil fikrlash va estetik idrokni rivojlantirish.	“Men yozuvchi bo‘lsam…”, “Rol o‘ynash”, “Sahnalashtirish”.
5. Xulosa bosqichi	Asardan olingan saboqni umumlashtirish	Asardan olgan hissiyotini aytadi, eng yoqqan joyini baham ko‘radi.	Badiiy asardan estetik va axloqiy xulosa chiqarish malakasini shakllantirish.	“Refleksiya”, “Men shuni angladim…” usuli.

Badiiy matnni o‘qish madaniyatini shakllantirishda quyidagi metodlar o‘zini oqlagan:

Klaster usuli – matn g‘oyasini vizual tarzda ifodalash;

“Aqliy hujum” – matn mazmuniga oid savollarga ijodiy javob topish;

Rol o‘ynash metodi – o‘quvchilarda obrazli fikrlashni rivojlantirish;

Insert texnologiyasi – o‘quvchi o‘qish jarayonida belgilar orqali tushunilgan va tushunilmagan joylarni ajratadi;

Ifodali o‘qish mashqlari – nutq madaniyati va talaffuzni shakllantiradi.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan – multimedia vositalari, audio kitoblar va raqamli o‘qish platformalari ham o‘quvchilarning matnga qiziqishini oshiradi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida badiiy matnni o‘qish madaniyatini shakllantirish – bu faqat o‘qish texnikasini o‘rgatish emas, balki o‘quvchida badiiy so‘zga muhabbat, estetik did, tafakkur, axloqiy qadriyatlar va ijodkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan murakkab pedagogik jarayondir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘qish madaniyatining tarkibiy qismlari - texnik, mazmuniy,

estetik hamda axloqiy komponentlar - o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ular o‘quvchining shaxsiy kamoloti va madaniy saviyasini belgilaydi. O‘qish madaniyatini shakllantirishda o‘qituvchining metodik mahorati va ijodiy yondashuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Dars jarayonida interfaol metodlardan (“Aqliy hujum”, “Klaster”, “Rol o‘ynash”, “Insert”) hamda multimedia texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarda kitobga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, matnni chuqur anglash va his qilishga yordam beradi. Badiiy o‘qish darslarining tarbiyaviy, estetik va ma’naviy jihatlari kuchli bo‘lishi uchun o‘qituvchi bolani o‘qishga majburlamasligi, balki unda kitobdan zavq olish hissini uyg‘otishi zarur. Ifodali o‘qish mashqlari, sahnalashtirish, musiqiy va vizual vositalar qo‘llash orqali bola o‘qilgan asarni chuqur his qiladi, badiiy obrazlar dunyosiga kiradi. Shunday qilib, boshlang‘ich ta’limda o‘qish madaniyatini shakllantirish - bu bolani nafaqat o‘qishga o‘rgatish, balki o‘qishni sevishga, fikrlashga, his etishga va hayotiy saboq olishga o‘rgatishdir. Bu jarayon ta’lim tizimining keyingi bosqichlarida ham o‘quvchining intellektual, ma’naviy va ijodiy rivojlanishiga mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Ta’lim sifatini oshirish va ilm-fanni rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarori. - Toshkent, 2019 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. - Toshkent: Adolat, 2020 y.
3. Yo‘ldosheva, D. Boshlang‘ich ta’limda badiiy o‘qish darslarini tashkil etish metodikasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 2018 y.
4. Xolmuhamedov, J. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarini o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari. - Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2020 y.
5. To‘xtaboeva, S. Badiiy matn bilan ishlashda estetik tarbiya elementlari. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2017 y.
6. Karimova, V., & Tursunova, M. Bola psixologiyasi va boshlang‘ich ta’lim metodikasi. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019 y.
7. Qodirova, F. Ifodali o‘qish nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent: O‘qituvchi, 2015 y.
8. Nishonova, Z. Boshlang‘ich ta’limda interfaol metodlar. - Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021 y.

Navruzova Nigina Khamidovna
Teacher of English Linguistics Department, Bukhara State University
E-mail: n.x.navruzova@buxdu.uz

MAIN APPROACHES TO STUDYING THE PROBLEM OF CONNOTATION

Annotation. *This article analyzes the main approaches to studying the problem of connotation. It examines the linguistic and communicative features of connotation, the additional meanings of words and expressions, and their context-dependency. The study highlights the effectiveness of semantic, pragmatic, and psycholinguistic approaches in the analysis of connotation.*

Key words: *connotation, main approaches, semantics, pragmatics, psycholinguistics, linguistics.*

ОСНОВНЫЕ ПОДХОДЫ К ИЗУЧЕНИЮ ПРОБЛЕМЫ КОННОТАЦИИ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются основные подходы к изучению проблемы коннотации. Анализируются лингвистические и коммуникативные особенности коннотации, дополнительные значения слов и выражений, а также их зависимость от контекста. Исследование демонстрирует эффективность семантических, прагматических и психолингвистических подходов к изучению коннотации.*

Ключевые слова*: коннотация, основные подходы, семантика, прагматика, психолингвистика, лингвистика.*

KONNOTATSIYA MUAMMOSINI O‘RGANISHNING ASOSIY YONDASHUVLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada konnotatsiya masalasini o‘rganishning asosiy yondashuvlari tahlil qilinadi. Konnotatsiyaning lingvistik va kommunikativ xususiyatlari, so‘z va ifodalarning qo‘shimcha ma’nolari hamda ularning kontekstga bog‘liqligi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot konnotatsiyani o‘rganishda semantik, pragmatik va psixolinguistik yondashuvlarning samaradorligini ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *konnotatsiya, asosiy yondashuvlar, semantika, pragmatika, psixolinguistika, lingvistika.*

The Latin word connotatio means "something together with something else," that is, an additional, accompanying meaning in relation to another, and therefore the term "consciousness" is used as an equivalent in the Russian language. The concept of "to notate" (connotate) associated with this word, which first appeared in scholastic logic, became widespread in logistic research of the 19th century. Thus, J. St. Mill, by connotation, meant the characteristics of the subject that fully constitute the meaning of the name. To have no connotation is equivalent to having no meaning, i.e., connotation is the true meaning of a word (see Mill, 1965: 104). As J. St. Mill believed, a non-connotative noun is a noun that denotes either only an object or only a characteristic. On the contrary, the connotative name directly indicates the object, and indirectly - the attribute of that object, and the object implies everything that has a attribute.

In lexicology and semantics connotation expands the understanding of a word's meaning by showing that it consists not only of denotation (objective meaning) but also of emotional, evaluative, and expressive components.

In linguistics, there are still debates about whether connotation is part of a word's lexical meaning or an independent phenomenon.

The concept of connotation arose in scholastic logic and entered linguistics in the 17th century through Port-Royal's grammar to denote properties in difference from substances. In linguistics since the late 19th century, the term "connotation" has been used all emotionally colored elements of the content of expressions began to be designated, related to the pragmatic aspect of speech (L. Bloomfield).

For example, the names London, John, England denote only objects; whiteness, length, virtue - only signs, therefore, none of these names will be connotative. However, white, long, virtuous names are connotative names. For example, the word white denotes all white objects: snow, paper, etc. - and indirectly connotes or indicates a sign of whiteness. The researcher speaks of important consequences arising from the division of all names into connotative and non-connotative: "Partial uncertainty in the consciousness of names can only be harmless if the strictest precautions are observed. Indeed, one of the main sources of frivolous thinking is the habit of using signifiers without establishing their consciousness and without forming a more precise concept about their content than is usually obtained when superficially reviewing the objects they signify...

People speak and, consequently, think unclearly, satisfied with the same degree of meaningfulness of their words as a three-year-old child possesses in the word "brother" and "sister".

Thus, according to J. St. Mill, to be connotative (to have meaning) means to convey information, or to imply an attribute, to predicate. According to his belief, connotative names appear when names are given based on the similarity of named objects with already known ones. Such an understanding of connotation, according to I.A. Sternin, corresponds to "modern concepts of essential features of a concept". From this point of view, connotation is not yet consciousness.

The idea of consciousness has firmly entered linguistics since the appearance of K.O. Erdmann's book "The Meaning of the Word". The scholar initially characterizes his theory of meaning with a programmatic statement: there are signs of concepts in a word, but at the same time, he encountered certain difficulties in matters of synonymy. To solve this problem, he conducts a tripartite division of word content: conceptual content, concomitant meaning, and sensual value. Later, the last two points became established in linguistics under the general name of connotation. K.O. Erdmann notes that concomitant meaning and sensory value arise in consciousness involuntarily and are firmly connected with linguistic usage.

L. Bloomfield was the first to identify purely semantic connotations directly related to the realm of consciousness. In its interpretation, connotation contains additional information to the designation, such elements of meaning that additionally carry information about the essential properties and characteristics of the. This includes connotations related to the use of words by different social strata ("the speech forms of vagrants... can be striking with vulgarity and crude wit, while the speech forms of village dwellers may seem unskilled but poetic to us"; in various local dialects (for example, Scottish or Irish phrases have their own color); in slang forms, connotations "have a joking and casual character: these forms are used by young people, athletes, gamblers...", etc. (for example, English guy, gink, bloke - for men). The connotations arising in borrowed words, according to the scholar, reflect our attitude towards foreigners, and the distinctive features of borrowed linguistic forms can be found in their sound characteristics or phonetic modeling (for example, rouge - to denote roses); the connotations of technical terms depend on the position and authority of the profession or craft from which they originate (for example, "sea terms sound to us like something accurate, honest, and carefree: abaft "behind the stern").

Thus, the varieties of connotations, according to L. Bloomfield, "are countless, indescribable, and generally, they are difficult to distinguish from direct denotative meanings. Ultimately, each linguistic form has its own emotional coloring, similar to the entire language community, but it, in turn, changes for each speaker or even disappears due to the connotation that this form acquires for them in connection with their individual experience".

This extralinguistic definition of connotation led some linguists to the conclusion that the study of connotation should be excluded from the field of linguistics and attributed to the competence of other sciences, such as pragmatics or semiotics.

The first person to subject the entire system of connotations to semiotic research was L. Yelmslev. He considered connotation as a sign by which the speaker makes a choice between different styles and dialects {different stylistic forms (poems, prose); different styles (creative, archaic); different evaluative styles (high, low (vulgar), neutral); different means (speech, writing, gestures); different emotional tones (angry, joyful); different dialects (professional jargon); different national languages;

different regional languages (dialects); different individual features (acoustic and articulatory features)). In this case, L. Yelmslev refers to "the individual members of each of these classes and the units arising from the combination of individual members" as connotators.

Studying linguistic units that express denotative and connotative meanings provides a foundation for conducting semasiological, psycholinguistic, linguocultural, and pragmatic research. Although connotation and connotative meaning have been explored to some extent in certain pairs of languages, a comparative analysis between English and Uzbek has not yet been systematically carried out. Nonetheless, this problem has been widely examined in world linguistics. Scholars such as I.R. Galperin and G.N. Leech have made notable contributions to English linguistics in this area.

According to O.S. Akhmanova, connotation expresses the additional meaning of a word-semantic or stylistic associations, expressive and emotional tones, or nuances of solemnity, playfulness, and ease. In European and Russian linguistics, the term *connotation* has been used by distinguished scholars such as A.K. Zholkovsky, K.L. Bühler, A.V. Isachenko, R. Tokarski, and E. Bartminski. Semasiologists tend to view connotation as an expressive or emotional coloring of meaning, while researchers from a psychological perspective regard it as a semantic association.

There are various interpretations of connotation within linguistics. Some linguists believe that connotative meaning is not part of a word's semantic structure, while others argue that it is an integral component of lexical semantics. Prominent scholars such as Yu.D. Apresyan, S.G. Barkhudarov, N.G. Komlev, T.V. Matveeva, I.A. Melchuk, and L.N. Iordanskaya assert that connotation is included within the semantic composition of a word. They define it as the semantic expression of emotion and subjective meaning. T.V. Matveeva describes connotation as an additional, optional element of lexical meaning connected with the pragmatic or expressive function of language.

Connotation, the additional, often emotional or cultural meaning of a word beyond its literal definition, plays a crucial role in communication, literature, and linguistic research. Scholars have explored connotation through various approaches, each shedding light on different aspects of meaning. Understanding these approaches helps in analyzing texts, interpreting language, and studying cross-cultural communication.

1. Semantic Approach

The semantic approach focuses on the relationship between a word's denotation (literal meaning) and its connotation (additional meaning). It studies how words carry extra meanings that convey emotion, evaluation, or attitude. For example, the word *"snake"* denotes a reptile but connotes treachery or danger in many cultures. Semantic analysis helps in mapping the layers of meaning in vocabulary and understanding how language expresses subtle nuances.

2. Pragmatic Approach

Pragmatics studies how context affects meaning. Words do not always carry fixed connotations; their interpretation can depend on the speaker's intention, the social situation, or cultural norms. For instance, calling someone a *"genius"* may be sincere or ironic depending on context. The pragmatic approach emphasizes the interaction between language, speaker, and listener, highlighting how connotation functions in real-life communication.

3. Stylistic (Literary) Approach

This approach examines connotation in literary texts, poetry, and rhetoric. Writers often use words for their emotive, expressive, and evaluative potential, creating richness and depth in literature. For example, Shakespeare frequently uses the word *"light"* to connote hope, purity, or divine guidance. The stylistic approach helps in interpreting literary imagery, symbolism, and tone, showing how connotation shapes readers' perception.

4. Cognitive Approach

The cognitive approach investigates how words are associated with mental concepts and human experience. Connotation is seen as part of the mental representation of language, reflecting cultural knowledge, personal experiences, and conceptual associations. For example, the word *"home"* connotes safety, warmth, and family in many societies. This approach bridges linguistics and psychology, providing insights into how humans process and store meaning.

5. Sociolinguistic Approach

Sociolinguistics examines how social, cultural, and historical factors influence connotation. Words may carry different connotations for different communities, age groups, or historical periods. For instance, *"freedom"* can have political connotations in one context and personal connotations in another. This approach highlights the dynamic and variable nature of connotation in society.

Conclusion.

Studying connotation requires a multidimensional approach. Semantic, pragmatic, stylistic, cognitive, and sociolinguistic methods each reveal unique insights into how words convey additional meaning. By combining these approaches, researchers can better understand how language communicates emotion, culture, and social values, and how it shapes human thought and interaction.

References.

1. Kilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. Toshkent: Fan. 1982.
2. Haydarov A. Fonostilistik vositalarda konnotativ ma'nolar. Buxoro: Durdona. 2017.
3. Mamadaliyeva M. O'zbek tilida nominativ birliklarning konnotativ aspekti. Toshkent. 1997.
4. Sodikova M. O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi. Toshkent. 2001.

Tojiboyeva Gulxumor Raxmonjonovna
Andijon davlat universiteti Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti
Psixologiya va pedagogika kafedrasi professori,
Nazirova Dilafruz Dilmurodjon qizi
Psixologiya va pedagogika kafedrasi magistranti
E-mail: nazirovadilafruz51@gmail.com

MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTI TARBIYACHILARINING PSIXOLOGIK SAVODXONLIGINI OSHIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining psixologik savodxonligini oshirishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda tarbiyachilarning kasbiy faoliyatida psixologik bilimlar, emotsional barqarorlik, kommunikativ kompetensiya hamda bolalarning yosh xususiyatlarini to'g'ri anglash darajasi muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi.*

Kalit so`zlar: *maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, psixologik savodxonlik, ijtimoiy-psixologik omillar, emotsional barqarorli.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОВЫШЕНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ ВОСПИТАТЕЛЕЙ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

Аннотация. *Данная статья посвящена изучению социально-психологических аспектов повышения психологической грамотности воспитателей дошкольных образовательных организаций. В исследовании рассматриваются такие важные факторы, как психологические знания в профессиональной деятельности воспитателей, эмоциональная устойчивость, коммуникативная компетентность, а также уровень правильного понимания возрастных особенностей детей.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, воспитатель, психологическая грамотность, социально-психологические факторы, эмоциональная устойчивость.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF ENHANCING THE PSYCHOLOGICAL LITERACY OF PRESCHOOL EDUCATION TEACHERS

Annotation*. This article is devoted to studying the socio-psychological aspects of improving the psychological literacy of preschool education teachers. The research examines key factors such as psychological knowledge in the professional activities of educators, emotional stability, communicative competence, and the ability to correctly understand children's developmental characteristics.*

Key words: *preschool education, educator, psychological literacy, socio-psychological factors, emotional stability.*

Jahon ta'lim va ilmiy markazlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama sog'lom rivojlanishining nazariy-metodologik va amaliy asoslari hamda zamonaviy modelini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'tkazilgan tadqiqotlar tahliliga ko'ra, bolalarning individual-psixologik xususiyatlari, oila va maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ijtimoiy muhit, kattalar bilan o'zaro munosabatlar, bolaning maktabgacha ta'lim jarayonida o'rganish va ta'limning keyingi bosqichiga hamda ijtimoiy hayotga psixologik moslashish samaradorligining pasayishida ulardagi psixologik jarayonlari rivojlanish xususiyatlari sabab sifatida keltirilmoqda. Jumladan, o'yin muhitida psixologning noto'g'ri munosabati ularning ijtimoiy moslashuvchanligining pasayishi va psixik rivojlanishining o'zgarishiga olib kelishi hamda kelajakda bu ta'limning keyingi bosqichida ham shaxsning shakllanishiga ta'sir ko'rsatish masalalari ilmiy tadqiq etilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda ta’lim sohasida ham o‘ziga xos islohotlar olib borilmoqda. Yangi O‘zbekistonning (2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan) taraqqiyot strategiyasi1 hamda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasining 38-maqsadi “Maktabgacha ta’limdagi qamrov darajasini bosqichma-bosqich oshirish”, 39-maqsadi “Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish”ga oid belgilangan vazifalar asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning har tomonlama intellektual salohiyati, emotsional holatlarining rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni tubda n yaxshilashga alohida e’tibor qaratilganligi, jamiyatimiz a’zolari bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalarga oid masalalarni ilmiy o‘rganishga zarur asos bo‘la oladi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti psixologi bu eng avvalo bolalarni chuqur tushunuvchi va biluvchi, psixik rivojlanishning umumiy qonuniyatlarini farqlay oluvchi, ularning individual va yoshiga xos xususiyatlarini biluvchi va o‘z faoliyatida sohadagi ilmiy asoslangan bilimlarga asoslanuvchi shaxsdir.

Yosh avlod tarbiyasining birinchi va muhim bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga ayni vaqtda ham alohida e’tibor qaratilmoqda. 2017 yil 16 avgust va 19 oktyabr kunlari xukumatimiz rahbari ishtirokida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda bu masala atroflicha muhokama qilingan edi. Ushbu tizimda uchraydigan kamchiliklarni bosqichma-bosqich bartaraf etish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini yaxshilash maqsadida davlatimiz tomonidan katta mablag‘ va resurslar yo‘naltirilmoqda. Bu esa shu soha vakillari faoliyatini yanada rivojlantirishni talab etadi.[13;11-b]. Tadqiqot ishimizning mazkur bobida maktabgacha yoshdagi bola shaxsini shakllantirishda o’yin faoliyatining masalalari, MTT amaliyotchi psixologi faoliyati, bu faoliyat yetakchi psixolog olimlar tadqiqotlarida qanday talqin qilinganligi masalalariga oid ayrim nazariy qarashlar ustida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Har qanday psixologik xizmat ko‘rsatuvchi mutaxassislar o‘z faoliyatining maqsadi va natijada mazmun va mohiyatini tushunishlari juda muhimdir. Mashhur faylasuf va pedagog G. Gurdjiyevning “Maqsad masalasi juda muhim masaladir. Inson o‘zi uchun maqsadini aniqlamaguncha, u hatto biror narsani “qilishni” boshlay olmaydi. Qanday qilib maqsadsiz biron bir narsani “qilish” mumkin?” - degan fikri so‘zimizga yaqqol misol bo‘ladi [62; 126 c].

Ushbu fikr, ayniqsa, psixologik xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun katta ahamiyatga ega. Chunki psixologning amaliy faoliyati bolalar va kattalarning psixologik muammolarini aniqlash, hal qilish va ularga mos yordam ko‘rsatishga qaratilgan bo‘lib, bunda maqsadning aniqligi jarayonni samarali tashkil etishda asosiy mezon hisoblanadi. Maqsadsiz faoliyat esa, Gurdjiyev ta’kidlaganidek, nafaqat samarasiz, balki chalkashliklarga olib kelishi ham mumkin. Shu bois psixologlar o‘z faoliyatini boshlashdan oldin har bir mijoz yoki muammo uchun aniq maqsad va strategiyalarni belgilab olishlari zarur. Bu nafaqat professional yondashuvni, balki yordamning sifatini ham oshiradi.

Ta’lim tizimida amaliy psixologiyaning rivojlanishi, tarbiyaviy ishlarning psixologik ta’minlanishi mamlakatimizda maktabgacha ta’lim muassasalarini insonparvarlashtirish zarurati bilan bog‘liq. Psixologik-pedagogik jarayon paradigmasining o‘zgarishi bilan, bolaning shaxsiga murojaat qilish, uning individualligi o‘sib borayotgan va rivojlanayotgan shaxsni psixologik qo‘llab-quvvatlashning professional usullarini ishlab chiqishni talab qiladi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida psixologik xizmatning yaratilishi bilan ularning kasbiy faoliyatida bolalarni o‘qitish va tarbiyalash bilan bog‘liq masalalarga yo‘naltirilgan malakali amaliyotchi psixologlarni tayyorlashga ehtiyojni orttiradi.

Biz maqolamiz doirasida maktabgacha talim tashkiloti tarbiyachilarini psixologik bilimlarini psixologik savodxonligi va uning ijtimoiy-psixologik omillari o‘rtasidagi korellyatsion tahlil o’rganib quyidagi tadqiqotlarni olib bordik. Biz olib borgan ilmiy tadqiqotimizning maqsadi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarning psixologik savodxonligi, emotsional barqarorligi, kommunikativ kompetensiyasi, bolalarning yosh xususiyatlarini anglash darajasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash, ular maktabgacha ta’lim jarayonining samaradoriga qanday ta’sir qilayotganini statistik asosda tadqiq qilish bo’ldi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni.

Tadqiqotimizning dastlabki qismida biz tomonimizdan eksperiment o'tkazilayotgan maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog – tarbiyachilarining o'zlari faoliyat olib borayotgan guruhdagi bolalar bilan munosabatlari qay darajada to'g'ri yo'lga qo'yilganligini tekshirish maqsadida E.E. Alekseyevaning "Tarbiyachining bolaga munosabati" so'rovnomasidan foydalandik va Kommunikativ kompetensiya testi (L. Mikkinaning kommunikativ diagnostikasi), va pearson korrelyatsion tahlilidan metodikalardan foydalandik. E.E. Alekseyevaning "Tarbiyachining bolaga munosabati" so'rovnomasida biz tarbiyachilarning bolaga bo'lgan munosabatini baholashda quyidagi asosiy savollarni qo'ydik:

1. Emotsional munosabat – Tarbiyachi bolaga iliqlik, mehr bilan yondashadimi yoki sovuqqonlik bilan muomala qiladimi?


2. Nazorat darajasi – Tarbiyachi bolaga mustaqil bo'lish imkonini beradimi yoki unga haddan tashqari nazorat o'rnatadimi?

3. Qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish – Tarbiyachi bolaning tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlaydimi yoki uning faolligini cheklaydimi? 4. Jazolash va tanbeh berish uslubi – Tarbiyachi bolaga qanday munosabatda bo'ladi: tushuntirish va qo'llab-quvvatlashga asoslanganmi yoki tanbeh va jazoga moyilmi?

5. Individuallikka yondashish – Tarbiyachi bolaga individual yondashadimi yoki guruhda barcha bolalar bilan bir xil ishlaydimi?

So'rovnoma natijalari bizga tarbiyachilarning bolalar bilan munosabatlarini yaxshilash uchun psixologik tavsiyalar ishlab chiqish imkonini hamda bolaning psixologik farovonligini oshirish uchun tarbiyachilar o'z yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishlariga yordam beradi deb hisobladik.

Emotsional yaqinlik tarbiyachining pedagogik samaradorligining asosiy komponenti bo'lib, bola shaxsining ijobiy shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, sovuqqonlik esa bolalarda xavotir, qo'rquv va past baholash hissini kuchaytiradi. Bola rivojida muvozanatlashgan nazorat eng sog'lom model bo'lib, mustaqillik va mas'uliyat hissini rivojlantiradi. Rag'batlantirilgan bola ijtimoiy faollik, motivatsiya, o'ziga ishonch, nutq va tafakkur rivojida oldinga intiladi. Psixologik xavfsizlik iqlimiga ega guruhlarda bolalar o'zlarini xotirjam his qiladi, xulq buzilishlari kamayadi, o'zini boshqarish ko'nikmalari tez shakllanadi. Quyida "Tarbiyachining bolaga munosabati" so'rovnoma natijalari berilgan.



1-rasm. So'rovnoma natijalari

So'rovnoma natijalari tahlili tarbiyachining bolaga bo'lgan munosabatida buzilishlar mavjudligini (yashirin yoki aniq), bu buzilishlarning joyi va sabablarini aniqlash imkonini berish bilan birga bu sabablarning bola shaxsi rivojlanishiga salbiy ta'sirlarini o'rganishni osonlashtirdi. Jumladan, biz tomonimizdan tadqiqot o'tkazilgan bog'chalardagi 26 ta 5-6 yoshli guruhlardagi 89 nafar tarbiyachi-pedagoglarning yuqori foizi (64,2%) o'z "guruhlarida qiz bolalarning ko'p bo'lishlarini" hohladilar. Buning sabablari bir nechta bo'lishi mumkin. Masalan, jamiyatda erkak va ayol rollari

bo'yicha shakllangan an'anaviy qarashlar va me'yorlar, ayniqsa yosh bolalar bilan ishlashda, qiz bolalar bilan bog'liq bo'lgan muayyan kutishlar yoki tasavvurlarni keltirib chiqarishi mumkin. Qizlar, ko'pincha, ko'proq ijtimoiy va emotsional jihatdan o'zaro bog'lanishadi, bu esa tarbiyachi-pedagoglarga qulayroq bo'lishi mumkin, chunki ularning o'rgatish usullari va rivojlanishlariga mos keladi. Bundan tashqari, ayollar (masalan, pedagoglar) o'zaro gender tajribasiga ko'ra qiz bolalari bilan ko'proq aloqada bo'lishi mumkin, bu esa tarbiyachi-pedagoglar tomonidan o'zgarishlarni kuzatishda yoki qo'llab-quvvatlashda osonlik yaratadi. Shuningdek, bu holat o'zgaruvchan ijtimoiy va madaniy kontekstga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Bu omil tarbiyachi-pedagogning o'z guruhida samarali mashg'ulotlarni tashkil etilishiga asosiy omil sifatida gavdalanishi mumkinligini kuzatdik. Quyinada tarbiyachilarni savodhonligini ijtimoiy-psixologik omillarini rorellatsion tahlili keltirilgan.

Maktabgacha talim tashkiloti tarbiyachilarini psixologik savodxonligi va uning ijtimoiy-psixologik omillari o‘rtasidagi korellyatsion tahlili

O‘zgaruvchilar	Psixologik savodxonlik	Emotsional barqarorlik	Kommunikativ kompetensiya	Yosh xususiyatlarini anglash
Psixologik savodxonlik	1	0,62	0,68	0,71
Emotsional barqarorlik	0,62	1	0,57	0,49
Kommunikativ kompetensiya	0,68	0,57	1	0,54
Yosh xususiyatlarini anglash	0,71	0,49	0,54	1

Biz olib borgan tadqiqotlarda birqancha bog’liqliklar kuzatildi, yani psixologik savodxonlik va yosh xususiyatlarini anglash (0,71) natija ko’ringan. Kuchli ijobiy bog‘liqlik sezilgan. Demak, psixologik savodxonligining yuqori bo‘lishi tarbiyachilarning bola yoshiga xos rivojlanish qonuniyatlarini aniq tushunishiga kuchli ta’sir qiladi. Psixologik savodxonlik ↔ kommunikativ kompetensiyada esa (0,68) natija chiqdi. Bu bog‘liqlik shuni ko‘rsatadiki: psixologik bilimga ega bo‘lgan tarbiyachi bolalar va ota-onalar bilan samarali muloqot o‘rnata oladi. Psixologik savodxonlik va emotsional barqarorlikda (0,62) natija chiqdi. Bu natija psixologik savodxonlik stressga bardoshlilik va hissiy o‘zini tutish qobiliyatini oshiradi degan ilmiy xulosani tasdiqlaydi. Emotsional barqarorlik va kommunikativ kompetensiyada (0,57) natija chiqib u tarbiyachining hissiy barqarorligi uning boshqalar bilan muloqotdagi muvaffaqiyatini ta’minlashini ko‘rsatadi. Emotsional barqarorlik va yosh xususiyatlarini anglash esa (0,49) ko’rsatkich chiqdi. O‘rtacha bog‘liqlik. Demak, tarbiyachi o‘z hissiyotlarini boshqara olganda bolalarning xulqiy nuanslarini ko‘proq tushuna oladi.

Xulosa qilib aytganda olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki psixologik savodxonlik barcha ijtimoiy-psixologik ko‘rsatkichlarning markazida turuvchi asosiy determinantdir. Psixologik savodx-onligi yuqori bo‘lgan tarbiyachilarda:

-emotsional barqarorlik kuchli,

-muloqot madaniyati rivojlangan,

-bola yosh xususiyatlarini aniq va to‘g‘ri tushunadi,

-ta’lim jarayoni samaradorligi yuqori bo‘ladi.

Korrelyatsiya natijalari psixologik savotxonligini oshirish dasturlarini maktabgacha talim tash-kiloti tarbiyalanuvchilarda joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Biz maqolamiz doirasida amaliy tavsiyalar ishlab chiqdik.Ular quyidagilar:

Tarbiyachilar uchun psixologik savodxonlik bo‘yicha o‘quv-modullar yaratish.

Emotsional barqarorlikni rivojlantiruvchi treninglar joriy etish.

Kommunikativ kompetensiya bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish.

Bola yosh xususiyatlarini anglash diagnostikasini MTTlarda muntazam o‘tkazish.
Psixolog–tarbiyachi–ota-ona uch tomonlama hamkorlik modelini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida : 2022-yil 21-fevraldagi 83-son qarori.O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent.: “O`zbekiston”. 2018. -80 b.

2. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz : O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. – Toshkent : O‘zbekiston NMIU, 2016. – 56 b.Акрамова Ф.А. Мактабгача таълим самарадорлигининг психологик жиҳатлари. //Замонавий таълим/Современное образование. 2015. № 2. – Б.53-58.

3. Битянова М. Р. Школьный психолог: идея психолого-педаго-гического сопровождения //Директор школы. – 1997. – № 3. – С. 4-12

4. Баратов Ш. Р. Психологик хизмат асослари. – Тошкент, 1999. -196 б.

5. Груздева О.В. Детская практическая психология: учебно-методическое пособие для обучающихся по направлению «Педагогика»

6. Nishanova Z.T, Alimova.G.K. A, Turg‘unboeva. G, Asranboeva M.X. –Bolalar psixologiyasi va psixodiognostikasi.:-T-2017.81-b

7. Низаева Р.Ф. Мактабгача ёшдаги болаларни ижтимоийлаштириш. /Ҳақиқий тадқиқотлар. 2020. – Б. 146-150.

8. Nuriddinovich, Sh. B. (2023). Yoshlarni individual-tipologik xususiyatlarida himoya mexanizmlari namoyon bo`lishining ijtimoiy–psixologik jihatlari. Современное образование (Узбекистан), (6 (127)).

Norimbetova Nilufar Turg‘un qizi
Ipak yo‘li va innovatsiyalar universiteti
“Pedagogika-psixologiya va umumta’lim fanlari” kafedrasi o‘qituvchisi

OILADA FARZANDLARDA MAS’ULIYAT HISSINING SHAKLLANISHIDA OTA-ONANING ROLI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oilada farzandlarda mas’uliyat hissining shakllanishida ota-onaning o‘rni va roli tahlil qilinadi. Bolaning shaxs sifatida kamol topishida oilaviy muhit, tarbiya uslublari, ota-onaning munosabati hamda muloqot madaniyatining ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda zamonaviy psixologik yondashuvlar, masalan, emotsional intellekt, ota-onalik kompetensiyasi va ijtimoiy o‘rganish nazariyalari asosida mas’uliyat hissini rivojlantirish mexanizmlari tahlil etilgan. Shuningdek, amaliy tavsiyalar orqali ota-onalarga farzandlarda javobgarlikni shakllantirishda samarali yondashuvlar taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *mas’uliyat hissi, ota-ona roli, oilaviy tarbiya, ijtimoiy o‘rganish, emotsional intellekt, farzand tarbiyasi.*

РОЛЬ РОДИТЕЛЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЧУВСТВА ОТВЕТСТВЕННОСТИ У ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ

Аннотация. *В статье рассматривается роль родителей в формировании чувства ответственности у детей в семье. Анализируется влияние семейной среды, стилей воспитания и эмоционального взаимодействия родителей на развитие личностной зрелости ребенка. На основе современных психологических подходов - эмоционального интеллекта, родительской компетентности и теории социального научения - раскрываются механизмы развития ответственности у детей. В работе представлены практические рекомендации для родителей по эффективному воспитанию ответственного поведения.*

Ключевые слова: *чувство ответственности, роль родителей, семейное воспитание, социальное научение, эмоциональный интеллект, развитие личности.*

THE ROLE OF PARENTS IN DEVELOPING A SENSE OF RESPONSIBILITY IN CHILDREN WITHIN THE FAMILY

Abstract. *This article explores the role of parents in developing a sense of responsibility among children within the family. It highlights the significance of family environment, parenting styles, and emotional communication in shaping a child’s personal and social maturity. Based on modern psychological frameworks-such as emotional intelligence, parental competence, and social learning theory-the mechanisms for fostering responsibility are examined. The article also provides practical recommendations for parents to promote responsible behavior and self-regulation in their children.*

Key words: *sense of responsibility, parental role, family upbringing, social learning, emotional intelligence, child development.*

Kirish. Mas’uliyat hissi har bir inson shaxsiy va ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutadi. Bolalikda shakllanadigan bu fazilat, nafaqat shaxsning kelajakdagi muvaffaqiyati va ijtimoiy moslashuvchanligi, balki jamiyatdagi faol qatnashuvi bilan ham bog‘liqdir. Ota-ona esa farzandning birinchi va eng muhim tarbiyachisi sifatida mas’uliyat hissining rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Ota-onaning tarbiyaviy faoliyati bolaning xulq-atvori, qaror qabul qilish qobiliyati, vazifalarni bajarishdagi qat’iyati va ijtimoiy munosabatlardagi javobgarligi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bois, oiladagi tarbiyaviy muhit, ota-onaning pedagogik yondashuvi va shaxsiy namunalari bolalarda mas’uliyat hissini shakllantirishda asosiy omillar sifatida qaraladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi - farzandlarda mas’uliyat hissining shakllanishida ota-onaning o‘rni va uning samarali tarbiyaviy metodlarini aniqlash, shuningdek, ota-ona tarbiyasining bolaning psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga ta’sirini o‘rganishdir. Tadqiqot doirasida ota-ona va bolalar

o‘rtasidagi munosabatlar, tarbiyaviy strategiyalar va mas’uliyatni rivojlantirishning samarali usullari tahlil qilinadi.

Mas’uliyat hissi shaxs kamolotining asosiy psixologik tarkibiy qismlaridan biridir. Bola o‘z harakatlari, qarorlari va ularning oqibatlari uchun javob bera olishni o‘rganishi uning ijtimoiy moslashuvchanligi va mustaqillik darajasini belgilaydi. Ushbu jarayonda eng muhim omil - bu oila va ota-onaning roli. Chunki bola dastlabki ijtimoiy tajribani aynan oila muhitida egallaydi, ota-onaning munosabati, qadriyati va xulq-atvori esa uning psixologik modeliga aylanadi. Zamonaviy psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, farzandlarda mas’uliyat hissi, o‘zini boshqarish va ijtimoiy javobgarlikni shakllantirishda ota-onaning tarbiyaviy uslubi, emosional qo‘llab-quvvatlashi va mustaqillikka imkon berishi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ota-onaning farzand bilan munosabatiga doir bir necha asosiy yondashuvlar mavjud. Diana Baumrind tomonidan ishlab chiqilgan demokratik, avtoritar va beparvo tarbiya uslublari hozirgi kungacha dolzarbligini yo‘qotmagan.

-Demokratik tarbiya uslubi bolaga tanlov imkonini beradi, shu bilan birga javobgarlikni his qilishga o‘rgatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu uslubda tarbiyalangan bolalarda mas’uliyat, intizom va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari yuqori bo‘ladi.

-Avtoritar uslub esa qo‘rquv orqali bo‘ysunishga olib keladi; natijada bola tashqi nazoratga tayanadi, lekin ichki javobgarlik hissi shakllanmaydi.

-Beparvo yoki liberal uslubda esa bolaning xatti-harakati uchun aniqlik yo‘q, bu esa mas’uliyatning zaif shakllanishiga olib keladi.

Ota-onaning ijobiy emotsional munosabati, izchilligi va bola shaxsiga hurmat bilan yondashuvi uning ichki mas’uliyat hissini mustahkamlaydi. Ota-onaning shaxsiy namunasi – mas’uliyat modelining asosiy manbai Farzand ko‘rgan, eshitgan, kuzatgan narsasidan o‘rganadi. Shuning uchun ota-onaning shaxsiy namunasi - bola uchun tabiiy psixologik modeldir. Ota-ona o‘z va’dasiga sodiq bo‘lsa, uy ishlarida izchil bo‘lsa, so‘zida va ishida barqarorlikni ko‘rsatsa, bola mas’uliyatni tabiiy jarayon sifatida o‘zlashtiradi.

Shuningdek, ota-ona o‘z xatolarini tan olib, ularni to‘g‘rilashga intilsa, bu ham bolaning o‘z javobgarligini anglashiga yordam beradi. J.Bay tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda ota-onalarning “javobgarlik haqida ochiq muloqot” uslubi farzandlarda ichki nazorat va axloqiy mas’uliyatni kuchaytirishi aniqlangan.

Mas’uliyat hissi shakllanishida oiladagi emotsional iqlim hal qiluvchi ahamiyatga ega. Issiq, qo‘llab-quvvatlovchi muhitda bola xatodan qo‘rqmaydi, o‘z xatti-harakati uchun javobgarlikni tan olishni o‘rganadi.

Ota-onalar farzandning kichik yutuqlarini e’tirof etib, ularni ijobiy rag‘batlantirishi zarur. Shu tarzda “javobgarlik = jazodan qo‘rquv emas, balki ishonchli bo‘lish” degan tushuncha shakllanadi.

Mas’uliyatni shakllantirishda bolaga mustaqil harakat qilish imkonini berish juda muhim. Bola kichik yoshdan o‘z imkoniyatiga yarasha ishni mustaqil bajarishni o‘rgansa (masalan, kiyimlarini joyiga qo‘yish, o‘yinchoqlarni yig‘ish, o‘simliklarni sug‘orish), bu uning o‘z kuchiga ishonchini oshiradi va javobgarlikni his etishga o‘rgatadi.

Amaliy tavsiyalar shundan иборатки, farzandlarda mas’uliyat hissini shakllantirish jarayonida ota-onalar bir necha muhim pedagogik va psixologik yondashuvlardan foydalanishlari zarur. Avvalo, bolaga aniq vazifalar berish muhim ahamiyatga ega, chunki bu orqali u “men o‘zim uchun javobgarman” degan ichki hissiyotga ega bo‘ladi. Har bir topshiriq bolaning yoshi, qobiliyati va qiziqishlariga mos bo‘lishi lozim. Shuningdek, izchillikni saqlash - ota-onaning qaror va xatti-harakatlarida barqarorlikni ta’minlash, bolada o‘z faoliyati uchun mas’uliyatli bo‘lish odatini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, ijobiy rag‘bat berish - kichik muvaffaqiyatlarni e’tirof etish, lekin haddan tashqari maqtovdan tiyilish orqali bolada mehnatning qadri va natijaning qiymatini anglashni kuchaytiradi. Ochiq muloqot yuritish, ya’ni “Nega buni bajarmoqchisan?”, “Natijasi qanday bo‘ladi?” kabi savollar orqali bolani mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishga o‘rgatish, mas’uliyat tuyg‘usini ongli shaklda rivojlantiradi. Nihoyat, birgalikdagi faoliyat - ota-ona va farzandning birgalikda maqsadli ishlarni bajarishi (masalan, ovqat tayyorlash, bog‘ni parvarish qilish, uyni tartibga keltirish) orqali bolada nafaqat javobgarlik, balki ijtimoiy hamkorlik va oilaviy birdamlik tuyg‘ulari ham mustahkamlanadi.

Xulosa Mas’uliyat hissining shakllanishida ota-onaning roli beqiyosdir. Bola uchun eng birinchi va eng kuchli ta’sir manbai - bu oila muhitidir. Ota-onaning tarbiyaviy uslubi, shaxsiy namunasi, izchilligi va mehrga asoslangan qo‘llab-quvvatlovi bolada ichki nazorat va javobgarlikni shakllantiradi.

Bizning fikrimizcha, zamonaviy tarbiya jarayonida ota-onalar nafaqat bolani nazorat qiluvchi, balki uni mustaqil fikrlashga, javobgarlikni his etishga undovchi psixologik hamroh sifatida ishtirok etishlari zarur. Ota-ona va farzand o‘rtasidagi ishonchli, iliq, lekin izchil muloqot – mas’uliyatli shaxs kamolotining eng muhim garovidir.

Oilada farzandlarda mas’uliyat hissining shakllanishida ota-onaning roli beqiyosdir. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ota-ona tarbiyasi bolalarning shaxsiy fazilatlari, qaror qabul qilish qobiliyati va ijtimoiy mas’uliyatni anglash darajasiga bevosita ta’sir qiladi. Ota-onaning me’yoriy talablar qo‘yishi, ijobiy rag‘batlantirish usullari, bolaga mas’uliyatli ishlarni bajarishga imkon berish va uning xatolarini tushunish orqali yetakchi pedagogik ta’sir amalga oshadi.

Mas’uliyat hissi shakllanayotgan bolalar ota-onaning qadriyatlari, tarbiya uslubi va hayotiy tajribasini o‘zlashtiradi. Shu tariqa, ota-ona tarbiyasi farzandning ijtimoiy moslashuvchanligi, mustaqilligi va ichki intizomini rivojlantirishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, oiladagi tarbiyaviy muhit va ota-onaning shaxsiy namunalari bolalarda mas’uliyat hissini mustahkamlash va ularni kelajakdagi hayotga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Aktaş Ö.İ., Sop A. (2022). The Relationship Between Preschool Children's Self-Regulation Skills and Their Mothers' Parental Attitudes. Theory and Practice in Child Development.

2. Bay N. (2023). The Relations between Preschool Children's Self-Regulation Skills and Play Skills. International Journal of Progressive Education, 19(1), 99-111.

3. Köyceğiz Gözeler M., Ergel A. (2024). Exploring The Correlation Between Motivation Levels And Responsibility-Taking Behaviors Among Preschool Children. Van Yüzüncü Yıl Üniversitesi Eğitim Fakültesi Dergisi, 21(2), 629-647.

4. Sjamsir H., Rozie F., Ayu Dewi S., Liana H. (2024). Parental Role: Internalization of the Development of Independent, Disciplined, and Responsible Character Values for Children Aged 5-6 Years. JPUD – Jurnal Pendidikan Usia Dini, 18(1), 18–29.

5. Baumrind D. (1966). Effects of Authoritative Parental Control on Child Behavior. Child Development, 37(4), 887-907.

Ohunova Nozima Alisher qizi
Farg'ona davlat universiteti
Chet tillari fakulteti Ingliz filologiyasi kafedrasi o'qituvchisi

JAHON TILSHUNOSLIGIDA KONSEPT VA ANTROPOTSENTRIZM TADQIQI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jahon tilshunosligida shakllanib kelayotgan antropotsentrik paradigma va konseptual tahlilning nazariy hamda metodologik asoslari tadqiq etilgan. Til nafaqat aloqa vositasi, balki inson tafakkuri, madaniy xotirasi va milliy mentalitetining ifodachisi sifatida talqin qilinadi. Konseptlar xalqning tarixiy tajribasi, axloqiy qadriyatlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi lingvomadaniy birliklar bo'lib, ularni o'rganish kognitiv lingvistika, lingvokulturologiya, pragmatika va diskurs tahlili doirasida amalga oshiriladi. Maqolada konseptlar milliy va universal xususiyatlari bo'yicha farqlanadi hamda ularning lingvistik verbalizatsiyasi turli tillar qiyosida tahlil qilinadi. Mazkur tadqiqot natijalari til tizimini anglashda inson faktorining muhimligini ko'rsatib, tilshunoslikda yangi metodologik yondashuvlar uchun asos yaratadi.*

Kalit so'zlar: *konsept, kognitiv lingvistika, antropotsentrizm, lingvistik dunyoqarash, lingvokulturologiya, mental model, madaniy kod, konseptual tahlil, inson omili, milliy mentalitet.*

ИССЛЕДОВАНИЕ КОНЦЕПТА И АНТРОПОЦЕНТРИЗМА В МИРОВОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация. *В данной статье исследованы теоретические и методологические основы антропоцентрической парадигмы и концептуального анализа, формирующихся в мировой лингвистике. Язык рассматривается не только как средство общения, но и как отражение человеческого мышления, культурной памяти и национального менталитета. Концепты представлены как лингвокультурные единицы, отражающие исторический опыт народа, его ценностные ориентиры и мировоззрение. Изучение концептов осуществляется в рамках когнитивной лингвистики, лингвокультурологии, прагматики и дискурс-анализа. В статье разграничиваются национальные и универсальные особенности концептов, а также анализируются способы их лингвистической вербализации в сопоставлении разных языков. Результаты исследования показывают важность человеческого фактора при изучении языковой системы и создают основу для новых методологических подходов в лингвистике.*

Ключевые слова*: концепт, когнитивная лингвистика, антропоцентризм, языковая картина мира, лингвокультурология, ментальная модель, культурный код, концептуальный анализ, человеческий фактор, национальный менталитет.*

STUDY OF CONCEPT AND ANTHROPOCENTRISM IN WORLD LINGUISTICS

Abstract. *This article examines the theoretical and methodological foundations of the anthropocentric paradigm and conceptual analysis that are emerging in modern linguistics. Language is interpreted not only as a means of communication, but also as a reflection of human cognition, cultural memory, and national mentality. Concepts are viewed as linguocultural units that represent the historical experience, value system, and worldview of a nation. The study of concepts is conducted within the frameworks of cognitive linguistics, linguoculturology, pragmatics, and discourse analysis. The article distinguishes between national and universal features of concepts and analyzes their linguistic verbalization through the comparison of different languages. The results of the research highlight the importance of the human factor in understanding the language system and provide a foundation for new methodological approaches in linguistics.*

Key words: *concept, cognitive linguistics, anthropocentrism, linguistic worldview, linguoculturology, mental model, cultural code, conceptual analysis, human factor, national mentality.*

Jahon tilshunosligida so‘nggi o‘n yilliklarda antropotsentrizm va konseptual tahlil tilshunoslikning eng dolzarb yo‘nalishlariga aylandi. Antropotsentrik paradigma tilni faqat lingvistik tizim sifatida emas, balki inson tafakkuri, madaniyati, tajribasi va ijtimoiy ongining aks ettiruvchisi sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, til – insonning dunyoni idrok etish, tushunish va tasniflash vositasi bo‘lib, uning ma’naviy-madaniy dunyosiga bevosita bog‘liqdir.

Shu bilan birga, konsept tushunchasi ham zamonaviy tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Konsept nafaqat so‘z yoki termin, balki xalqning tarixiy tajribasi, mentaliteti, qadriyatlari va milliy tafakkurining lingvomadaniy aks sadosi sifatida qaraladi. Masalan, “erkak”, “ayol”, “ozodlik”, “vatan”, “e’tiqod”, “vijdon” kabi konseptlar turli tillarda turlicha ma’nodoshlik va assotsiativ maydonga ega bo‘lib, ular antropotsentrik tahlil orqali yanada chuqur o‘rganiladi.

Konsept haqidagi ta’riflarni biz S.Askoldovdan keyin 1980-yillarda rus tilshunos olimlari ishlarida ko‘rishimiz mumkin. Ana shu yillarga kelib rus tilshunosligida ingliz tilini biluvchi olimlar orasida paydo bo‘lgan bo‘lib, ularning ilmiy ishlari, maqolalaridan konsept haqida ma’lumotlarni topishimiz mumkin. D.Lixachev, N.Arutyunova, E.Kubryakova, Y.Stepanov, A.Vejbitskaya, V.Teliya kabi rus tilshunoslari maqolalarida konsept haqida o‘z qarashlarini bildirgan.

V.Maslova o‘z kitobida yuqoridagi olimlarning qarashlarini birma-bir izohlab o‘tgan hamda konsept haqida quyidagi ta’riflarni o‘zi ham keltirib o‘tgan.

1.Inson mukammal tasavvuridagi tajribasining minimal yig‘indisi, o‘z maydon strukturasiga ega bo‘lgan, so‘z yordamida verballashadigan.

2.Qayta ishlash natijasida paydo bo‘lgan bilimni saqlovchi va yetkazuvchi asosiy birliklar.

3. Konsept aniq bir funksiyaga, harakatlanuvchi chegaraga ega.

4. Konsept ijtimoiydir va uning assotsiativ maydoni uning pragmatikasini belgilaydi.

5. Konsept madaniyatning asosiy hujayrasi.

Yuqorida berilgan V.Maslovaning konsept haqidagi ta’riflarini anglab, o‘z qarashlarimizni shakllantirishimiz mumkin.

Bundan tashqari, polshalik professor olima A.Vejbitskaya konseptni o‘z nomiga ega, xalqning madaniy tushunchasini aks ettiruvchi mukammal dunyodan olingan obyekt deb hisoblaydi. Konsept madaniyatning kundalik turmush tarzini ifodalaydi hamda lingvokulturologiya fanining predmeti sanaladi.

Rus tilshunosi I.Stepanov ta’biri bilan aytganda, konsept aqliy dunyodagi asosiy madaniy hujayra bo‘lib, u har bir individualning ma’lum yo‘nalishdagi bilimini ko‘rsatib beruvchi vosita sanaladi. Konsept muloqotning qismlari, jumlalarini tashkil etadi. Ular puxta so‘zlarki, miyamizda xuddi anchadan beri tanishdek tuyuladigan bir ajoyib mundarija yaratadi. U ma’lum millatga xos bo‘lgan shaxsning o‘z individual xarakterini ko‘rsatib beradi. Konsept turli davrlarning madaniy hayotidagi qatlamli tuzilishiga egadir. Olimning konsept strukturasini 3 asosiy qism (asos, qo‘shimcha va ichki tuzilish) yordamida yaralishi, ular asos vazifasini bajarishi va konseptning ichki tuzilishi qolgan ikki jihatlar uchun negiz sanalishini aytib o‘tgan.

Y.Kubryakovaning ta’biricha, “ichki leksikon ma’lum sharoitda zarur bo‘lgan birlikni izlab topish imkonini ta’minlovchi majmuaviy “ombor” bo‘lishdan ko‘ra, ko‘proq harakatdagi tizim bo‘lib, bu tizimda har bir birlikning faollashuv imkoniyatlari, ular qo‘llanishining pragmatik, semantik va rasmiy ko‘rsatkichlari qayd qilingan”.

Har bir konsept inson ongida o‘zining bir tizimini, sistemasini yaratadi. O‘z navbatida ushbu tizimning mazmunini ma’lum so‘zlar bilan kodlaydi. Ana shu so‘zlar talaffuz qilinganda yoki eshitilganda, har bir shaxs har xil talqinda tushunadi. Masalan, to‘y konsepti har bir millat vakillari uchun turlicha fikr bildiriladi. O‘zbeklar uchun to‘y bu inson hayotidagi bir marta bo‘ladigan muhim sanalgan ijtimoiy hodisa bo‘lib, unga bo‘lgan munosabat ham juda jiddiy o‘zgacha bo‘ladi.

Xalqimizni azaldan to‘y bilan bog‘liq marosimlarga qay darajada e’tiborli, unga ko‘p xarajat sarflash oddiy ekanligi hammamiz uchun tanish holat bo‘lsa, ingliz yoki ruslar uchun to‘y faqat kelin-kuyov baxti muhim sanalgan, to‘ydan keyingi marosimlarsiz kamxarj bo‘lgan jarayondir. Shundan tushunamizki, har bir shaxs, millatning ongida mavjud bo‘lgan bir xil konsept turli ma’no kasb etib, ma’lum omillarga ko‘ra farqlari katta bo‘lishi mumkin. Demak, har qanday konsept inson ongida bir xil belgida yozilsa, o‘qilsa-da, u haqidagi hosil bo‘ladigan bilim, ma’lumot sistemasi turlicha bo‘lishi mumkin va bu, albatta, har bir shaxsning o‘z tarbiyasi, ilmiy salohiyati, ijtimoiy holati, jinsi, ruhiy

vaziyati singari jihatlardan farqlanishi mumkin. Shuning uchun ham konsept atamasiga aniq bir ta'rif berish orqali uni chegaralash mushkul. Kognitiv lingvistika namoyondalari ta'kidlashlaricha, insonning konseptual tizimi dunyo tasvirini lingvistik shaklda namoyish qilishida uning shaxsiy hayotiy tajribalari negizida kechadi. Ma'lum millatning muloqot odobini yoki mentalitetini o'zgachaligini o'rganishimizda lingvomadaniy konseptlarni o'rganish muhim komponent hisoblanadi. Chunki xalqning urf-odati, madaniyati, e'tiqodi va boshidan kechirgan malakasi uning o'z ona tiliga ta'sirini ko'rsatadi.

Sh.Safarovning "Kognitiv lingvistika" kitobida XIX asr polshalik rus lingvist olim I. Kurtene tilshunoslikni psixologiya va sotsiologiya bilan bog'liqligini va bunga sabab tilda ruhiy hamda ijtimoiy omillar amaliyotda borligini aytib ketgan. Shuning uchun ham antropotsentrizmni psixologiya, antropologiya, sotsiologiya, neyrofiziologiya, falsafa va boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqasi borligini be'malol aytishimiz mumkin.

Lingvist Ch.Filmor ham ssenariyni tadqiq qilar ekan, masalani tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qiladi. U ssenariyning hosil bo'lishida shu voqeaga oid so'z (fe'l, so'z tartibi, prepozitsiya) orqali grammatik va semantik jihatlarini tahlil qiladi. Olimning fikricha, kompyuterda bajariladigan amallar xuddi inson miyasidagi jarayon kabi o'xshatish qilganlar. Insonning tabiiy ravishda til o'rganish jarayonidagi muvaffaqiyatli ishlay olish qobiliyati, kompyuterlashtirilgan ong bilan solishtiriladi. Kognitiv lingvistikadagi ssenariy olimlar uchun xuddi inson hayotida orttirgan tajriba bo'lib, insonning o'zi markaziy o'rinni egallaydi. Inson xohlagan turdagi matn, fikr, muloqotni tushunishida uning avvalgi bilimi shu mavzudagi tajribasiga bog'liq hisoblanadi. Xotiradagi ma'lum mavzuga mos tajribalarning elementlari yangi kelayotgan ssenariydagi voqealar rivojini anglashda va taxmin qilishda juda katta yordam beradi. Masalan, ikki qo'shni bir-biri bilan munajjimlar bashorati haqida suhbatlashishmoqda. A. qo'shni shu narsaga qiziqishini, har bitta odam bilan yaqindan tanishishdan avval uning qaysi burjga mansubligini bilish zarur deb gapiryotganda, B. qo'shni burjlar va ularga ishonish shirkligini, insoniyatning barchasini bir 12 talik belgili munajjimlarga sig'dirib qo'yish bir safsataligini, avval bilgan va shuning uchun, suhbatning shu yerida o'z fikrini berish orqali to'xtatadi. Suhbat ssenariysi qisqa holatda nihoyasiga yetdi, buning sababi esa B. qo'shning ushbu mavzu haqida avvalgi orttirgan tajribasi natijasida bo'ldi.

Diskurs tahlilshunoslari A.Sanford va S.Garrod ssenariy haqida to'xtalib, matnni tushunishda ssenariyning ahamiyati haqida tushuntirganlar. Olimlarning fikricha, inson ongida qo'shimcha bilim va tarjima ssenariyda jamlangan bo'ladi. Shu ssenariy asosida voqealar ketma-ketlikda sodir bo'ladi. Masalan, Sara to'satdan zinadan qoqilib tushib ketdi. So'ng, Adam tez yordamni chaqirishga urindi. Gapdan ma'lumki, Sara zinadan yiqilgani uchun shifokor chaqirildi. Gapning mazmuni o'quvchi xayoliga keladigan ssenariy u haqidagi bilimiga tegishlidir. Ssenariydan ma'lumki, avval Sara nimadandir xafa bo'lgan, ketish orqali jahl qilgan, ammo Adam uni tez to'xtatib, olib qolishga harakat qilgani ongdagi yana bir ssenariy edi. Ushbu misoldan bir qarashda ssenariyni pragmatikaga ham o'xshatish mumkin. Shuning uchun ham antropotsentrizm tarkibiga kognitiv lingvistikani u bilan teng ravishda pragmalingvistikani kiritiladi.

Demak, pragmatika va kognitiv lingvistika o'rtasida uyg'unlik mavjud, deb bemalol ayta olamiz.

Ammo skriptlar har doim ham algoritmik ketma-ketlikda bo'lishi shart hisoblanmaydi. Tilshunos Sh.Safarov o'zining kognitiv lingvistika kitobida skript shakllanishida voqea-hodisa xronologik jihatdan birikmagan holatdagisiga misol qilib "urush" so'zini armiya, hujum, g'alaba, mag'lubiyat kabi makroskriptlar bilan birlashgani ko'rsatgan. Demak, skript ham har bir inson ongida kechadigan kognitiv jarayon bo'lib, u har bir shaxsda uning shaxsiy bilim tajribasiga mos ravishda turlicha hosil bo'lar ekan.

Kognitiv lingvistikada o'rganiladigan mashhur atamalardan biri bo'lgan skript haqida Professor Sh.Safarov o'z kitobida yozishicha, skript xuddi ssenariyga juda o'xshash bo'lib, hatto uni to'g'riligicha takrorlaydi, hamda skriptlar har doim ham algoritmik ketma-ketlikda bo'lishi shart hisoblanmaydi, deb ta'kidlagan. Tilshunos skript shakllanishida voqea-hodisa xronologik jihatdan birikmagan holatdagisiga misol qilib "urush" so'zini armiya, hujum, g'alaba, mag'lubiyat kabi makroskriptlar bilan birlashgani ko'rsatgan. Demak, skript ham har bir inson ongida kechadigan kognitiv jarayon bo'lib, u har bir shaxsda uning shaxsiy bilim tajribasiga mos ravishda turlicha hosil bo'lar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Маслова В. А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – С. 28–30.
2. Nemickienė Ž. “Concept” in Modern Linguistics: the Component of the Concept “Good” // Academia.edu. – Kaunas, 2016. – URL: https://www.academia.edu (дата обращения: 06.10.2025).
3. Сафаров Ш. Когнитив лингвистика. – Джизак, 2006. – 9 с.
4. Perrig W. J., Zimmer H. D. Book reviews // Journal of Semantics. – 1985. – Т. 4, № 2. – P. 205. – DOI: https://doi.org/10.1093/jos/4.2.204.

Aytbayeva Roza Karimovna
Innovatsion texnologiyalar universiteti assistent o‘qituvchi

O‘ZBEK TILIDAGI ERGASHTIRUVCHI BOG‘LOVCHILAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek tilining grammatik tizimida muhim o‘rin tutuvchi ergashtiruvchi bog‘lovchilarning leksik-grammatik xususiyatlari, funksional-semantik tasnifi va qo‘llanish xususiyatlari ilmiy adabiyotlar tahlili asosida o‘rganilgan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ergashtiruvchi bog‘lovchilar o‘zbek tilining sintaktik qurilishida subordinatsiya munosabatlarini ifodalashning asosiy vositasi hisoblanadi va ularning qo‘llanishi ma’lum grammatik qoidalarga bo‘ysunadi.*

Kalit so‘zlar: *ergashtiruvchi bog‘lovchilar, subordinatsiya, qo‘shma gap, sabab bog‘lovchilari, shart bog‘lovchilari, aniqlov bog‘lovchisi, sintaktik munosabatlar*

СОЕДИНИТЕЛЬНЫЕ СОЮЗЫ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В статье на основе анализа научной литературы исследуются лексико-грамматические свойства, функционально-семантическая классификация и особенности употребления подчинительных союзов, играющих важную роль в грамматической системе узбекского языка. Результаты показывают, что подчинительные союзы являются основным средством выражения отношений подчинения в синтаксической конструкции узбекского языка и их употребление подчиняется определенным грамматическим правилам.*

Ключевые слова: *подчинительные союзы, подчинительная связь, союз, причинные союзы, условные союзы, определительные союзы, синтаксические отношения*

SUBORDINATING CONJUNCTIONS IN THE UZBEK LANGUAGE

Abstract. *This article studies the lexical-grammatical properties, functional-semantic classification and usage features of subordinate conjunctions, which play an important role in the grammatical system of the Uzbek language, based on the analysis of scientific literature. The results show that subordinate conjunctions are the main means of expressing subordination relations in the syntactic construction of the Uzbek language and their use is subject to certain grammatical rules.*

Key words: *subordinate conjunctions, subordination, conjunction, causal conjunctions, conditional conjunctions, defining conjunction, syntactic relations*

Kirish. O‘zbek tili grammatikasida bog‘lovchilar yordamchi so‘z turkumi sifatida alohida o‘rin tutadi va tilning sintaktik tuzilishini shakllantirish hamda nutqda mantiqiy munosabatlarni ifodalashda muhim vazifani bajaradi. N. Mahmudov va Z. Nurmonov o‘z tadqiqotlarida bog'lovchilar mustaqil ma'noga ega bo‘lmagan holda, so‘zlar, so‘z birikmalari va gaplar o‘rtasida turli semantik munosabatlarni o‘rnatish funksiyasini amalga oshirishini ta’kidlagan [1]. Ergashtiruvchi bog‘lovchilar subordinatsiya (tobelik) munosabatlarini ifodalovchi grammatik vositalar sifatida qo‘shma gap tuzilishida asosiy gap va ergash gapni bog'lash vazifasini bajaradi. A. G'ulomov o‘z tadqiqotida ushbu bog‘lovchilar orqali ifoda etiladigan semantik munosabatlar sabab, shart, zidlik, maqsad, vaqt va boshqa mantiqiy aloqalarni o‘z ichiga olishini ko‘rsatib o‘tgan [2]. O‘zbek tilida ergashtiruvchi bog‘lovchilarning mavjudligi tilning analitik xususiyatlarini kuchaytiradi va murakkab fikrlarni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi zamon tilshunosligida ergashtiruvchi bog'lovchilar to‘g‘risidagi tadqiqotlar turli yondashuvlar asosida amalga oshirilmoqda. Ba'zi olimlar ularni faqat sintaktik funksiyalar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqsalar, boshqalari semantik-funksional tahlilga e'tibor qaratmoqdalar. V.V. Vinogradov rus tilshunosligida xizmat so‘zlari kategoriyasida bog'lovchilarning morfologik va sintaktik xususiyatlarini fundamental darajada o‘rganib, ergashtiruvchi bog'lovchilarning subordinatsiya munosabatlarini ifodalashdagi rolini ko‘rsatgan [3].

Metodologiya va adabiyotlar tahlili

Ushbu tadqiqotda adabiyotlar tahlili va tavsifiy metodlar qo‘llanilgan bo‘lib, o‘zbek, rus va xorijiy tilshunoslardagi ergashtiruvchi bog‘lovchilar to‘g‘risidagi nazariy qarashlar sistemali ravishda o‘rganilgan. Mahmudov va Nurmonov o‘zbek tili grammatikasi bo‘yicha asosiy manbalarda bog‘lovchilar yordamchi so‘z turkumi sifatida to‘liq tahlil qilingan va ular teng bog‘lovchilar hamda ergashtiruvchi bog'lovchilarga ajratilganligini ta'kidlagan [1]. G‘ulomov o‘zbek tilida qo‘shma gaplar tuzilishini tadqiq etish jarayonida ergashtiruvchi bog‘lovchilarning ergash gap tuzilishidagi rolini chuqur tahlil qilgan, ayniqsa shart, sabab va maqsad ergash gaplarda qo‘llaniladigan bog'lovchilarning sintaktik-semantik xususiyatlarini batafsil ko‘rsatgan [2].

Rus tilshunosligida Vinogradov xizmat so‘zlari (sluzhebnyye slova) kategoriyasida bog‘lovchilarning morfologik va sintaktik xususiyatlarini fundamental darajada o‘rganilganligini va ergashtiruvchi bog‘lovchilarning subordinatsiya munosabatlarini ifodalashdagi rolini aniqlangan [3]. Peshkovskiy rus tilida bog‘lovchilarning tarixiy rivojlanishini tahlil qilgan va ko‘pchilik ergashtiruvchi bog'lovchilarning boshqa so‘z turkumlaridan grammatikalizatsiya jarayonida vujudga kelganligini isbotlagan [4].

Xorijiy tilshunoslikda bog‘lovchilar masalasi keng doirada o‘rganilgan. Pasch va boshqalar nemis tilida bog‘lovchilarning keng qamrovli tahlilini berib, ularni semantik va sintaktik funksiyalariga ko‘ra tasniflagan hamda ergashtiruvchi bog‘lovchilarning koheziya va koherensiya yaratishdagi rolini ta’kidlagan [5]. Amin turk tilshunosligida turk tillarida bog'lovchilar tizimini qiyosiy-tarixiy jihatdan tahlil qilgan va o‘zbek tilida qo‘llaniladigan ergashtiruvchi bog'lovchilarning ko‘pchiligi umumturkiy kelib chiqishga egaligini isbotlagan [6]. Haig va Schnell tipologik nuqtai nazardan subordinatsiya vositalarini tadqiq etgan va turli tillardagi ergashtiruvchi bog'lovchilarning universal va spesifik xususiyatlarini taqqoslagan [7].

Usmonov va Nurmurodov zamonaviy o‘zbek tilida “chunki” bog‘lovchisining “zero” bog‘lovchisiga nisbatan keng qo‘llanilishini va yozma nutqda afzalroq hisoblanishini ta’kidlagan [8]. Hojiyev ergashtiruvchi bog‘lovchilar yordamida hosil bo‘lgan qo‘shma gaplarda subordinatsiya munosabatlarining turli ko‘rinishlarini tahlil qilgan va ergash gapning asosiy gapga nisbatan pozitsiyasining semantik munosabatlarga ta'sirini ko‘rsatgan [9]. Xususan, sabab ergash gaplari ko‘pincha asosiy gapdan keyin kelsa, shart ergash gaplari asosan asosiy gapdan oldin joylashadi. Bu pozitsion farqlar semantik funksiyalar bilan bog'liq bo‘lib, shart oldindan ma’lum qilinishi kerak, sabab esa natijadan keyin tushuntiriladi [9]. Ergashtiruvchi bog‘lovchilarning grammatikalizatsiya jarayoni ham muhim tadqiqot yo‘nalishlari qatoriga kiradi. Heine va Kuteva grammatikalizatsiya nazariyasida ko‘pchilik bog‘lovchilarning mustaqil leksik birliklardan vujudga kelganligini ko‘rsatgan va bu jarayon universalligini ta‘kidlagan [10].

Natijalar va muhokama.

Adabiyotlar tahlili natijalariga ko‘ra, o‘zbek tilidagi ergashtiruvchi bog'lovchilar morfologik, sintaktik va semantik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi. Morfologik jihatdan ergashtiruvchi bog'lovchilarning aksariyati tarkibiy jihatdan sodda (agar, gar, garchi) yoki qo‘shma (chunki, negaki, basharti) tuzilishga ega ekanligi Mahmudov va Nurmonov tomonidan ta'kidlangan [1]. Qo‘shma tuzilishli bog'lovchilar grammatikalizatsiya jarayonida hosil bo‘lgan bo‘lib, ularda asl leksik ma'no kuchsizlangan va grammatik funksiya ustunlik qilgan, bu esa Heine va Kuteva tadqiqotlarida ko‘rsatilgan universal jarayonga mos keladi [10]. Masalan, "chunki" bog'lovchisida "chun" so‘zining vaqt ma'nosi yo‘qolgan va faqat sabab munosabatini ifodalash funksiyasi saqlanib qolgan, bu haqda Peshkovskiy o‘z tadqiqotlarida batafsil to‘xtalgan [4].

Semantik tasnif nuqtai nazaridan o‘zbek tilidagi ergashtiruvchi bog'lovchilar uchta asosiy guruhga bo‘linadi: sabab bog'lovchilari, shart bog'lovchilari va aniqlov bog'lovchisi, bu tasniflashni Usmonov va Nurmurodov zamonaviy o‘zbek tili grammatikasida qo‘llagan [8]. Sabab bog'lovchilari (chunki, negaki, zero) orasida "chunki" eng keng qo‘llaniladigan va stilistik jihatdan neytral hisoblanadi [8]. Zamonaviy o‘zbek tilida "chunki" yozma va rasmiy nutqda afzalroq qo‘llanilsa, "zero" og'zaki nutqda ko‘proq uchraydi. Bu farq stilistik tabaqalanish hodisasini ko‘rsatadi va tilning funksional differensiatsiyasini aks ettiradi, bu haqda Mahmudov va Nurmonov o‘z asarlarida alohida ta'kidlagan [1]. Shart bog'lovchilari (agar, gar, basharti, garchi) orasida "agar" eng universal va keng qo‘llaniladigan variant hisoblanadi [8]. "Gar" bog'lovchisi badiiy va yuqori stilistik bo‘yoqli matnlarda qo‘llanilsa,

"basharti" rasmiy va huquqiy matnlarda uchraydi, bu farqni G'ulomov qo‘shma gaplar tuzilishini tadqiq etishda ko‘rsatib o‘tgan [2]. "Garchi" bog'lovchisi esa shart va zidlik semantikasini birlashtiradi hamda konsessiv munosabatlarni ifodalaydi, bu xususiyat Hojiyev tomonidan sintaktik tahlilda batafsil yoritilgan [9].

Sintaktik funksiyalar jihatidan ergashtiruvchi bog'lovchilar qo‘shma gap tarkibida ergash gapni asosiy gapga bog'lab, subordinatsiya munosabatlarini o‘rnatadi, bu fikr G'ulomov tadqiqotida asosiy yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqilgan [2]. Muhim sintaktik xususiyat shundaki, turli semantik guruhlarga mansub ergashtiruvchi bog'lovchilar ergash gapning turli pozitsiyalarida joylashadi, bu haqda Hojiyev chuqur tahlil bergan [9]. Sabab ergash gaplari odatda asosiy gapdan keyin keladi va yozuvda sabab bog'lovchisidan oldin vergul qo‘yiladi: "Uy o‘sha yerda qoldi, chunki uni ko‘chirishga imkon yo‘q edi" [8]. Shart ergash gaplari esa asosan asosiy gapdan oldin joylashadi va "-sa" shart mayli qo‘shimchasi bilan birgalikda qo‘llaniladi: "Agar havo yaxshi bo‘lsa, sayrga chiqamiz" [8]. Bu pozitsion farqlar informatsion tuzilish tamoyillari bilan bog'liq bo‘lib, shart oldindan berilishi kerak, natija esa undan keyin keladi, bu prinsipni Vinogradov rus tilida bog'lovchilar tizimini tahlil qilishda ham ko‘rsatib o‘tgan [3].

Aniqlov bog'lovchisi "ya'ni" esa universal xususiyatga ega bo‘lib, ham so‘zlar, ham gaplar o‘rtasida qo‘llanilishi mumkin va har doim yozuvda undan oldin vergul qo‘yiladi [8]. Ergashtiruvchi bog'lovchilarning funksional-semantik xususiyatlarini tahlil qilganda, ularning nafaqat grammatik, balki pragmatik funksiyalari ham e'tiborga loyiqdir. Sabab bog'lovchilari orqali nutq egasi voqea yoki holatning sababini tushuntirish, asoslash yoki oqlab qolish maqsadida foydalanadi, bu pragmatik funksiya Pasch va boshqalar tomonidan nemis tilida bog'lovchilarning koheziya yaratish jarayonida ko‘rsatilgan [5]. Shart bog'lovchilari orqali gipoteza, taxmin yoki shartli vaziyatlar ifodalanadi, bu semantik xususiyat G'ulomov tadqiqotida batafsil yoritilgan [2].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilidagi ergashtiruvchi bog'lovchilar tizimli va funksional jihatdan yaxshi rivojlangan grammatik kategoriya hisoblanadi. Ular tilning sintaktik qurilishida subordinatsiya munosabatlarini ifodalashning asosiy vositasi bo‘lib, murakkab fikrlarni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Ergashtiruvchi bog'lovchilarning semantik tasnifi, sintaktik xususiyatlari va stilistik differensiatsiyasi tilning funksional boy ekanligini va turli kommunikativ vaziyatlarga moslashish qobiliyatini aks ettiradi. Turk tillari kontekstida o‘zbek tilidagi ergashtiruvchi bog'lovchilarning ko‘pchiligi umumturkiy kelib chiqishga ega bo‘lib, bu tillararo tipologik umumiylikni ko‘rsatadi. Grammatikalizatsiya jarayoni ergashtiruvchi bog'lovchilarning tarixiy rivojlanishida muhim rol o‘ynagan va bu jarayon universal xususiyatga ega.

Xulosa. O‘zbek tilidagi ergashtiruvchi bog'lovchilar to‘g'risida olib borilgan adabiyotlar tahlili asosida quyidagi xulosa va umumlashmalarga kelish mumkin. Ergashtiruvchi bog'lovchilar o‘zbek tili grammatikasida yordamchi so‘z turkumining muhim qismi sifatida subordinatsiya munosabatlarini ifodalash funksiyasini bajaradi. Ular morfologik jihatdan sodda va qo‘shma tuzilishga ega bo‘lib, ko‘pchilik grammatikalizatsiya jarayonidan o‘tgan. Semantik tasnif bo‘yicha ergashtiruvchi bog'lovchilar sabab, shart va aniqlov guruhlariga bo‘linadi va har bir guruh o‘ziga xos sintaktik va pragmatik xususiyatlarga ega. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ergashtiruvchi bog'lovchilarning eng muhim xususiyatlari quyidagilar: ular qo‘shma gap tarkibida ergash va asosiy gapni bog'lash funksiyasini bajaradi; semantik jihatdan sabab, shart, aniqlov va boshqa mantiqiy munosabatlarni ifodalaydi; sintaktik jihatdan ergash gapning pozitsiyasini belgilaydi; stilistik jihatdan turli nutq uslublarida differentsiatsiyalangan qo‘llanishga ega. Sabab bog'lovchilari (chunki, negaki, zero) orasida "chunki" eng neytral va keng qo‘llaniladigan variant hisoblanadi. Shart bog'lovchilari (agar, gar, basharti, garchi) orasida "agar" universal xususiyatga ega. Aniqlov bog'lovchisi "ya'ni" esa so‘zlar va gaplar o‘rtasida teng darajada qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Mahmudov N., Nurmonov Z. O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 320 b.
2. G'ulomov A. O'zbek tilida qo'shma gaplar. – Toshkent: Fan, 1987. – 156 b.

3. Vinogradov V. V. Russkiy yazyk: Grammaticheskoye ucheniye o slove. – Moskva: Vysshaya shkola, 1972. – 614 s.
4. Peshkovskiy A. M. Russkiy sintaksis v nauchnom osveshchenii. – Moskva: Uchpedgiz, 1956. – 511 s.
5. Pasch R., Brauße U., Breindl E., Waßner U. H. Handbuch der deutschen Konnektoren. – Berlin: Walter de Gruyter, 2003. – 794 S.
6. Amin J. Turkic subordinate clauses. – Wiesbaden: Harrassowitz Verlag, 1984. – 168 p.
7. Haig G., Schnell S. Multi-CAST: Multilingual corpus of annotated spoken texts // Approaches to the typology of word classes / G. Haig, S. Schnell (eds.). – Berlin: De Gruyter, 2016. – P. 369-399.
8. Usmonov J., Nurmurodov O. Muxtasar grammatika. – Toshkent: Hodiyev education, 2022. – 248 b.
9. Hojiyev A. O'zbek tilida sintaktik tahlil. – Toshkent: O'qituvchi, 2002. – 168 b.
10. Heine B., Kuteva T. World lexicon of grammaticalization. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002. – 387 p.

Qarshiyeva Iroda Baxtiyarovna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
"Maktabgacha va boshlang‘ich ta'lim" kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: irodaqarshieva@gmail.com

TALABALARGA JADIDCHILAR ASARLARIDAGI MA’RIFIY (TA’LIMIY) QADRIYATLARNI O‘RGATISH METODIKASINING BUGUNGI KUNDA MAVJUD HOLATI

Annotatsiya. *Maqolada talabalarga jadidchilar asarlaridagi ma’rifiy va ta’limiy qadriyatlarni o‘rgatish metodikasining bugungi kunda mavjud holati tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida o‘quv jarayonida qo‘llanilayotgan pedagogik yondashuvlar, darsliklar, o‘quv materiallari va innovatsion metodlar o‘rganilgan. Shuningdek, talabalarning ushbu qadriyatlarni qabul qilish, amaliy hayotga tatbiq etish darajasi va interaktiv ta’lim vositalaridan foydalanish darajasi tahlil qilingan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, jadidchilar merosi ta’lim jarayonida ko‘proq nazariy darajada yoritilmoqda va amaliy qo‘llanilishi yetarli emas. Shu sababli zamonaviy pedagogik metodlarni, interaktiv va innovatsion usullarni joriy etish talab etiladi. Maqola, shuningdek, talabalarda tarixiy ma’rifiy qadriyatlarni shakllantirish va ularni mustahkamlash bo‘yicha tavsiyalarni ham o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *Jadidchilik, ma’rifiy qadriyatlar, ta’lim, metodika, talaba, pedagogik yondashuv, interaktiv metodlar, innovatsiya.*

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ СТУДЕНТАМ ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИХ (ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ) ЦЕННОСТЕЙ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ДЖАДИДИСТОВ

Аннотация: *В статье систематически анализируется современное состояние методики преподавания студентам просветительских и образовательных ценностей произведений джадидистов. В исследовании рассматриваются применяемые педагогические подходы, учебники, учебные материалы и инновационные методы. Также анализируется уровень восприятия студентами этих ценностей, их практическое применение и использование интерактивных образовательных инструментов. Результаты показывают, что наследие джадидизма в образовательном процессе освещается преимущественно теоретически, а практическое применение недостаточно эффективно. В связи с этим необходимо внедрение современных педагогических методов, интерактивных и инновационных подходов. Статья также включает рекомендации по формированию у студентов исторических и просветительских ценностей.*

Ключевые слова: *Джадидизм, просветительские ценности, образование, методика, студент, педагогический подход, интерактивные методы, инновации.*

CURRENT STATE OF THE METHODOLOGY FOR TEACHING STUDENTS THE EDUCATIONAL (INSTRUCTIVE) VALUES OF JADIDIST WORKS

Abstract. *The article provides a systematic analysis of the current state of teaching students the educational and enlightening values of Jadidist works. The study examines the pedagogical approaches, textbooks, teaching materials, and innovative methods used in the educational process. It also analyzes students’ perception of these values, their practical application, and the use of interactive teaching tools. The results indicate that the Jadidist heritage is primarily presented theoretically, while practical implementation remains insufficient. Therefore, the introduction of modern pedagogical methods, interactive techniques, and innovative approaches is necessary. The article also provides recommendations for developing and reinforcing students’ understanding of historical and educational values.*

Key words: *Jadidism, educational values, teaching, methodology, student, pedagogical approach, interactive methods, innovation.*

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimi rivojlanishi, yosh avlodning dunyoqarashi, axloqiy va ma'naviy shakllanishi masalalari jamiyatning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, tarixiy ma'rifiy merosni o'rganish va undan ta'lim jarayonida foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Maxmudxo'ja Behbudiy, Fitrat, Abdulla Avloniy kabi jadidchilar asarlarida ilgari surilgan ma'rifiy va ta'limiy qadriyatlar bugungi kun talabalari uchun ham katta pedagogik ahamiyatga ega. Ularning ijodi nafaqat o'z davrining milliy va ijtimoiy hayotini aks ettiradi, balki yoshlar ongini shakllantirish, milliy o'zlikni anglash, ilmga muhabbat va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish yo'lida amaliy ko'rsatmalar beradi.

Jadidchilar asarlarida ta'limiy qadriyatlar bir necha asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi: ilm va ma'rifatga intilish, axloqiy va ma'naviy tarbiya, jamiyatda mas'uliyat va vatanparvarlikni shakllantirish. Ularning pedagogik g'oyalari va uslubiy yondashuvlari o'quv jarayonida integrativ va tizimli tarzda tatbiq etilganda, talabalarning fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, madaniy va ma'naviy kamolotga erishish salohiyati oshadi.

Bugungi kunda esa, talabalar bilan ishlashda jadidchilar merosini o'rgatish metodikasi yetarlicha tizimlashtirilmagan, o'quv dasturlari va darsliklarda bu qadriyatlar asosan nazariy jihatdan yoritiladi. Interaktiv metodlar, amaliy mashg'ulotlar va innovatsion pedagogik yondashuvlardan keng foydalanilmaydi. Shu sababli, talabalarga jadidchilar asarlaridagi ma'rifiy qadriyatlarni samarali o'rgatish uchun metodik yondashuvlarni takomillashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va dars jarayonini qiziqarli va interaktiv shaklda tashkil etish zarurati mavjud.

Shu bilan birga, jadidchilar merosini o'rganish talabalarda tarixiy tafakkur va madaniy ongni shakllantirishda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – talabalarga jadidchilar asarlaridagi ma'rifiy va ta'limiy qadriyatlarni o'rgatish metodikasining bugungi kunda mavjud holatini aniqlash, uning samaradorligini tahlil qilish va takomillashtirish yo'llarini belgilashdir.

Adabiyotlar tahlili. Talabalarga jadidchilar asarlaridagi ma'rifiy (ta'limiy) qadriyatlarni o'rgatish metodikasini chuqur o'rganish uchun bir qator ilmiy manbalar tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida asosiy e'tibor jadidchilik harakati, ularning pedagogik yondashuvlari va o'quv jarayonida qo'llash imkoniyatlariga qaratildi.

Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi jadidchilar asarlari ma'rifiy qadriyatlarning sistematik yoritilishi bilan ajralib turadi. Masalan, Behbudiy asarlarida ilm va ma'rifat jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ta'kidlanadi. Uning darsliklari va dramalarida ilmga muhabbat, axloqiy poklik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi qadriyatlar yosh avlodga yetkaziladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu qadriyatlar faqat nazariy darajada emas, balki amaliy mashg'ulotlar va o'quv materiallarida ham tizimli ravishda berilgan.

Fitrat asarlarida esa ma'rifiy qadriyatlar milliy ong, madaniy merosni anglash va zamonaviylik bilan uyg'unlashish konsepsiyasi orqali yoritilgan. U o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish, tanqidiy tafakkur va ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishga katta e'tibor bergan. Shu bilan birga, Fitrat asarlarida interaktiv metodlar va muhokama shaklidagi o'quv mashg'ulotlariga asos soluvchi pedagogik tamoyillar mavjudligi tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan.

Abdulla Avloniy ijodida esa ma'rifiy qadriyatlar axloqiy tarbiya, ijtimoiy mas'uliyat va milliy qadriyatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan. Tadqiqotlarda Avloniyning darslik va maqolalari pedagogik g'oyalarning amaliy qo'llanishi uchun asos bo'lgani, shuningdek, talabalarda tarixiy va madaniy ongni rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qilgani qayd etilgan.

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlar (Komilov, Rasulov, Qarshiyeva va boshq.) jadidchilar merosini bugungi ta'lim jarayonida qo'llash metodikasini o'rganishga qaratilgan. Ular jadidchilar asarlarini interaktiv darslar, seminar va guruh ishlari, loyiha metodlari orqali talabalarga yetkazishning samarali yo'llarini ko'rsatadi. Ammo amaliyotda bu metodlarning yetarli darajada qo'llanilmayotgani va o'quv jarayoni ko'proq nazariy asosga tayanganligi qayd etilgan.

Tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, jadidchilar asarlaridagi ma'rifiy qadriyatlarni talabalarga o'rgatish metodikasi hozirgi kunda nazariy jihatdan o'rganilgan, lekin amaliy qo'llanilishi va innovatsion pedagogik yondashuvlar tatbiqi yetarli darajada emas. Shu sababli, metodikani takomillashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni kengroq joriy etish zarurati mavjud.

Tahlil va natijalar. Talabalarga jadidchilar asarlaridagi ma'rifiy (ta'limiy) qadriyatlarni o'rgatish metodikasi masalasini tahlil qilish jarayonida bir qator asosiy xulosalarga erishildi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jadidchilik merosi o'z davrida nafaqat milliy va ijtimoiy uyg'onish, balki yosh avlodni axloqiy va ma'naviy jihatdan tarbiyalash vositasi sifatida xizmat qilgan. Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat va Abdulla Avloniy asarlarida ta'lim va ma'rifat bir-biridan ajralmas tushunchalar sifatida ko'riladi. Ularning pedagogik yondashuvlari talabalarda mustaqil fikrlash, axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish hamda jamiyatga foydali shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda talabalar bilan ishlashda jadidchilar merosini o'rgatish asosan nazariy jihatdan amalga oshirilmoqda. O'quv dasturlari va darsliklarda bu qadriyatlar yoritilgan bo'lsa-da, ularning amaliy qo'llanilishi, interaktiv mashg'ulotlar va innovatsion metodlardan foydalanish yetarli darajada emas. Masalan, Behbudiy asarlaridagi ilmga muhabbat, axloqiy poklik, vatanparvarlik kabi qadriyatlarni talabalarga yetkazishda amaliy mashg'ulotlar va guruh ishlari yetarli darajada tatbiq etilmayapti. Shu sababli, ta'lim jarayoni ko'proq nazariy asosga tayangan va interaktiv pedagogik yondashuvlar yetarli emasligi kuzatiladi.

Shuningdek, tahlil davomida jadidchilar asarlaridagi ma'rifiy qadriyatlarni o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari ham o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, interaktiv metodlar, loyiha asosida ishlash, seminar va muhokama shaklidagi mashg'ulotlar talabalarda nazariy bilimni amaliyot bilan uyg'unlashtirish, mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa talabalarning ma'rifiy qadriyatlarni nafaqat tushunishi, balki hayotga tatbiq etish salohiyatini oshiradi.

Tahlil jarayonida shuningdek, pedagoglarning tajribasi va zamonaviy ta'lim texnologiyalari o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, metodik jarayonni takomillashtirish uchun darslarni interaktiv va integrativ usullar bilan tashkil etish, talabalarning faol ishtirokini ta'minlash, turli multimedia vositalarini qo'llash zarur. Shu yo'l bilan talabalarda jadidchilar merosini qabul qilish va qadrlash darajasi oshadi, ularning ijtimoiy va axloqiy mas'uliyati mustahkamlanadi.

Umuman olganda, tahlil va natijalar shuni ko'rsatadiki:

Jadidchilar asarlaridagi ma'rifiy qadriyatlar bugungi ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega;

Hozirgi metodikada bu qadriyatlar asosan nazariy darajada yoritilgan;

Amaliy mashg'ulotlar, interaktiv va innovatsion metodlar yetarli darajada qo'llanilmayapti;

Metodikani takomillashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali talabalarda ma'rifiy qadriyatlarni mustahkamlash mumkin.

Muhokama. Talabalarga jadidchilar asarlaridagi ma'rifiy (ta'limiy) qadriyatlarni o'rgatish metodikasini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, jadidchilik merosi bugungi kun pedagogik jarayoni uchun dolzarb ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Behbudiy, Fitrat va Avloniy asarlarida ilm, axloq, ma'naviyat va vatanparvarlik kabi qadriyatlar tizimli tarzda yoritilgan bo'lib, ular talabalarda shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Muhokama davomida shuningdek, hozirgi ta'lim jarayonidagi metodik yondashuvlarning ba'zi cheklovlari aniqlanadi. Xususan, darsliklar va o'quv dasturlari talabalarga jadidchilar merosini ko'proq nazariy asosda yetkazadi, interaktiv metodlar va amaliy mashg'ulotlar yetarli darajada qo'llanilmaydi. Bu esa talabalarning ma'rifiy qadriyatlarni hayotga tatbiq etish, mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish salohiyatini kamaytiradi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, loyiha va muhokama shaklidagi mashg'ulotlarni joriy etish talabalarning faol ishtirokini ta'minlash va ularni o'qituvchi bilan birgalikda ma'rifiy qadriyatlarni o'zlashtirishga yordam beradi.

Muhokama jarayonida shuningdek, jadidchilar asarlarida ta'limiy qadriyatlarning nafaqat nazariy, balki amaliy jihatlari muhim ekanligi ta'kidlanadi. Masalan, Behbudiy dramalari, Fitrat risolalari va Avloniy darsliklari talabalarda tarixiy voqealarni tahlil qilish, ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni yechish bo'yicha qobiliyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, jadidchilik merosini o'rgatish talabalarda milliy ong, madaniy identifikatsiya va vatanparvarlikni mustahkamlash imkonini beradi.

Muhokama natijasida yana bir muhim xulosa shuki, talabalarga jadidchilar asarlaridagi ma'rifiy qadriyatlarni o'rgatishda integrativ yondashuv qo'llanishi lozim. Bu yondashuv nazariy bilimni amaliy mashg'ulotlar, interaktiv metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishni

nazarda tutadi. Shu yo‘l bilan talabalarda ma’rifiy qadriyatlarni qabul qilish, ularga amal qilish va hayotga tatbiq etish qobiliyati oshadi.

Umuman olganda, muhokama shuni ko‘rsatadiki, talabalarga jadidchilar merosini o‘rgatish metodikasi bugungi kunda amaliyot va nazariya o‘rtasida muvozanatni yo‘qotgan bo‘lsa-da, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion metodlarni joriy etish orqali bu muammo bartaraf etilishi mumkin. Shu bilan birga, bu jarayon talabalarda ma’naviy va axloqiy kamolot, ijtimoiy mas’uliyat va milliy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Talabalarga jadidchilar asarlaridagi ma’rifiy (ta’limiy) qadriyatlarni o‘rgatish metodikasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, jadidchilik merosi bugungi ta’lim jarayoni uchun katta pedagogik va ma’naviy ahamiyatga ega. Maxmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi jadidchilar asarlarida ilgari surilgan ma’rifiy qadriyatlar – ilmga muhabbat, axloqiy poklik, vatanparvarlik, jamiyatga foydali shaxs sifatida tarbiyalanish – bugungi kunda ham yosh avlodning kamoloti va shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu qadriyatlar nafaqat nazariy darajada yoritilgan, balki amaliy pedagogik jarayonda ham qo‘llanilishi talab etiladi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunda talabalar bilan ishlashda jadidchilar merosini o‘rgatish metodikasi ko‘proq nazariy asosga tayangan va interaktiv metodlar, loyiha ishlari, seminar va muhokama shaklidagi mashg‘ulotlar yetarlicha tatbiq etilmayapti. Shu sababli metodikani takomillashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, talabalarning faol ishtirokini ta’minlash, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muhim vazifa sifatida ajralib turadi.

Maqolada shuningdek, talabalarga jadidchilar asarlaridagi ma’rifiy qadriyatlarni o‘rgatishda integrativ yondashuvning ahamiyati ta’kidlandi. Bu yondashuv nazariy bilimni amaliy mashg‘ulotlar, interaktiv metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi. Shu yo‘l bilan talabalarda ma’rifiy qadriyatlarni qabul qilish, ularga amal qilish va hayotga tatbiq etish qobiliyati oshadi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, jadidchilar merosini o‘rgatish metodikasi nafaqat ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish, balki talabalarda ma’naviy va axloqiy kamolot, milliy va madaniy ongni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu jarayon yoshlarni jamiyatga foydali shaxs sifatida tarbiyalashga yordam beradi va ularni o‘z tarixini, madaniy merosini qadrlashga, ilmga intilishga rag‘batlantiradi.

Umuman olganda, tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, talabalarga jadidchilar asarlaridagi ma’rifiy qadriyatlarni o‘rgatish metodikasini takomillashtirish zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu nafaqat tarixiy merosni saqlash, balki bugungi kun talabalarini barkamol, bilimli, ma’naviy kamolotga ega va mas’uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 1991. – 432 b.
2. Behbudiy M. Padarkush. – Toshkent: Sharq, 1989. – 128 b.
3. Behbudiy M. Kitobat-ul atfol. – Toshkent: O‘qituvchi, 1920. – 76 b.
4. Behbudiy M. Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy. – Toshkent: Fan, 1918. – 64 b.
5. Fitrat A. Ma’rifat va millat. – Toshkent: Sharq, 1990. – 210 b.
6. Avloniy A. Pedagogik risolalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1988. – 144 b.
7. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Sharq, 1987. – 512 b.
8. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998. – 256 p.
9. Bregel Y. The Formation of Jadidism in Central Asia. – London: Routledge, 2003. – 180 p.
10. Sa’dullaev A. Turkiston jadidchilik harakati tarixi. – Toshkent: Fan, 1975. – 312 b.

Razzoqova Shahlo Baxtiyor qizi
Samarkand State Institute of Foreign languages
Department of Second Foreign languages Independent researcher

SYNTACTIC ANALYSIS OF SLANGS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation. *This article examines the syntactic features of slang units in English and Uzbek languages. The study explores the structural organization of slang expressions, their grammatical behavior in sentence formation, and the influence of cultural and social contexts on their syntactic usage. By comparing slang patterns across both languages, the research highlights similarities in colloquial reduction, metaphorization, and compounding, while also identifying differences shaped by typological characteristics.*

Key words: *slang, syntax, colloquial speech, compounding, metaphorization, sociolinguistics.*

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI “SLAENG” SO‘ZLARNING SINTAKSIK TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi slang birliklarning sintaktik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda slang iboralarning tuzilishi, gapda grammatik vazifasi hamda ularning qo‘llanishiga ijtimoiy-madaniy omillarning ta’siri yoritilgan. Slangning ikkala tildagi o‘xshash jihatlari sifatida og‘zaki nutqqa xos soddalashtirish, metaforalash va so‘z birikmalarining yangi ma’noda qo‘llanishi ko‘rsatiladi. Farqli jihatlar esa tillarning tipologik tabiati bilan izohlanadi.*

Kalit so‘zlar: *slang, sintaksis, og‘zaki nutq, so‘z yasash, metaforalash, sotsiolingvistika.*

СИНТАКСИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СЛЕНГА В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *Статья посвящена анализу синтаксических особенностей сленговых единиц английского и узбекского языков. Рассматриваются структурные модели сленговых выражений, их грамматические функции в составе предложения и влияние социально-культурных факторов на их употребление. В ходе сопоставления выявлены общие черты, такие как разговорная редукция, метафоризация и образование новых словосочетаний, а также различия, обусловленные типологией языков.*

Ключевые слова: *сленг, синтаксис, разговорная речь, словообразование, метафоризация, социолингвистика.*

Introduction. Language is a dynamic and constantly developing system, and one of its most vivid sociolinguistic layers is slang, which reflects cultural identity, informal communication norms, and group belonging. Slang differs from standard lexical units not only semantically, but also syntactically, demonstrating a high level of creativity and flexibility in sentence construction. The syntactic analysis of slang is significant because slang units often violate or modify conventional grammatical rules, leading to the emergence of novel patterns of expression. Comparing such patterns in English and Uzbek allows observing how typological differences shape colloquial linguistic innovation.

One of the principal syntactic features of English slang is the process of functional shift, where a lexical item changes its part of speech without morphological modification. For example, ghost (noun) → to ghost (verb, meaning to ignore someone), adult (adjective) → adulting (verb meaning managing responsibilities), savage (noun) → savage (adjective expressing boldness). This demonstrates the high degree of syntactic fluidity in English slang. Sentence patterns often undergo compression: auxiliary verbs, pronouns, or connectors may be omitted when context allows meaning to remain clear (You good?, He acting wild, Kinda tired today). These structures are characteristic of online communication where speed influences grammar.

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqolada ayollarning ijtimoiy faolligini cheklovchi psixologik to'siqlar tahlil qilinadi. Xususan, ichkilashtirilgan ijtimoiy normalar, hissiy cheklovlar va madaniy kutishlar ayollarning jamoat hayotida faol ishtirok etishga bo'lgan tayyorligiga qanday ta'sir ko'rsatishi o'rganiladi. Tadqiqotda ushbu to'siqlarni bartaraf etish imkonini beruvchi mexanizmlar - kognitiv qayta qurish, hissiy barqarorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhit yaratishning ahamiyati yoritiladi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ayollarning barqaror va izchil ravishda kuchaytirilishi (empowerment) ularning shaxsiy psixologik rivojlanishini kengroq institutsional va madaniy islohotlar bilan uyg'unlashtirishni talab qiladi. Bunday yondashuv ayollarning ijtimoiy hayotdagi faol ishtirokini tan olish va qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *ayollar ijtimoiy faolligi, psixologik to'siqlar, o'z-o'ziga ishonch, hissiy barqarorlik, kognitiv qayta qurish, kuchaytirish mexanizmlari, sotsio-madaniy cheklovlar.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ БАРЬЕРЫ, ОГРАНИЧИВАЮЩИЕ СОЦИАЛЬНУЮ АКТИВНОСТЬ ЖЕНЩИН, И МЕХАНИЗМЫ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ

Аннотация. *В данной научной статье рассматриваются психологические барьеры, ограничивающие социальную активность женщин, и анализируется влияние интериоризированных норм, эмоциональных затруднений и культурных ожиданий на их участие в общественной жизни. В исследовании выявляются механизмы преодоления этих барьеров, подчеркивая значимость когнитивной перестройки, эмоциональной устойчивости и поддерживающей социальной среды. Полученные результаты показывают, что устойчивое расширение социальных возможностей женщин возможно лишь при сочетании личностного психологического развития с более широкими институциональными и культурными реформами, подтверждающими ценность женской общественной активности.*

Ключевые слова: *социальная активность женщин, психологические барьеры, самоэффективность, эмоциональная устойчивость, когнитивная перестройка, механизмы преодоления, социокультурные ограничения.*

Introduction. The phenomenon of psychological barriers limiting women's social activity remains one of the most complex and multilayered issues in contemporary social psychology, as these barriers emerge not only from external societal pressures but also from deeply rooted internal experiences shaped across generations. In many socio-cultural contexts, women's self-perception, emotional stability, and ability to assert their identity in public spheres are influenced by implicit norms that subtly dictate acceptable behavior and expectations. These psychological constraints often manifest

through self-doubt, fear of social judgment, and reduced confidence, which collectively weaken women's motivation to participate fully in social, professional, and community activities. The persistent tension between traditional role expectations and modern demands creates an inner conflict that affects women's decision-making processes and long-term aspirations.

When women are exposed to environments that undervalue their contributions, these internalized limitations further solidify, making social engagement appear risky rather than empowering. As a result, many women struggle to articulate their potential, which prevents them from leveraging their intellectual, emotional, and interpersonal capacities in broader societal contexts. The interplay between emotional vulnerability and limited social support intensifies the sense of constraint, reinforcing withdrawal rather than participation. These dynamics ultimately lead to restricted opportunities for leadership, advocacy, and active citizenship for women in evolving societies. Understanding these patterns requires examining how cultural narratives and psychological conditioning intertwine to shape women's behavior in subtle yet influential ways. Therefore, addressing the psychological roots of these barriers is essential for strengthening women's ability to navigate complex social landscapes with confidence and autonomy.

The psychological obstacles that restrict women's social involvement are often embedded within early socialization processes, where attitudes toward gender roles are formed through direct interactions with family, school, and community structures. These foundational experiences influence cognitive patterns that later determine how women interpret challenges, evaluate risks, and relate to societal expectations concerning activity and initiative. When social environments repeatedly communicate messages that prioritize conformity and modesty over independence and expression, women may internalize these constraints as personal limitations rather than socially constructed boundaries. Such internalization creates emotional tensions that disrupt goal-setting mechanisms, reducing the likelihood of exploring new roles or taking part in collective decision-making.

Furthermore, uncertainty about societal acceptance generates anxiety, inhibiting the development of critical thinking, assertiveness, and adaptive social behaviors. Women exposed to contradictory messages about their value and capabilities frequently experience emotional exhaustion, making active participation feel overwhelming rather than rewarding. Limited access to supportive networks deepens this psychological strain, as women may lack mentors or social models who demonstrate alternative pathways of engagement. Over time, these patterns contribute to a cycle of passive behavior, where social withdrawal is normalized and opportunities for influence become increasingly scarce. Such dynamics reveal how psychological barriers operate not merely as individual traits but as consequences of broader cultural and institutional forces. Therefore, exploring the structural origins of these internal constraints is crucial to understanding how they shape women's long-term social trajectories.

Overcoming psychological barriers to women's social activity requires developing comprehensive mechanisms that target both individual and systemic factors in a balanced and sustainable manner. Effective intervention begins with enhancing women's emotional awareness, helping them identify the origins of self-limiting beliefs and understand how these beliefs influence everyday decisions and behaviors. Strengthening self-efficacy through structured educational programs, supportive dialogue, and experiential learning helps women redefine their self-perception and rebuild trust in their own abilities.

Developing communication skills and assertiveness training is essential, as these tools enable women to express ideas confidently and maintain stability in challenging social environments. Encouraging participation in community groups and mentorship networks fosters social resilience, allowing women to learn adaptive behaviors from peers who have successfully navigated similar constraints. Removing institutional barriers through inclusive policies and gender-sensitive initiatives expands the opportunities for women to engage fully in public life. Promoting positive cultural narratives that highlight women's achievements contributes to a shift in collective consciousness, reducing stigma and creating a more supportive environment for active involvement. Creating safe spaces for dialogue empowers women to articulate concerns, address emotional conflicts, and develop strategies that reinforce their autonomy. These combined mechanisms challenge both psychological and structural limitations, enabling women to move toward confident and sustained social participation. Ultimately, strengthening women's agency ensures a more equitable and dynamic social environment, benefiting not only individuals but the larger community.

Literature analysis and methodology. Scholars in the fields of social psychology and gender studies have long emphasized that the psychological barriers limiting women's social participation emerge from deeply rooted cultural expectations that shape women's self-perception from early childhood onward. Authors examining gendered socialization processes explain that subtle societal messages about modesty, obedience, and emotional restraint create internal patterns of caution that influence how women interpret opportunities for leadership or public engagement. The literature frequently highlights that women internalize limiting norms not because they lack ability but because they repeatedly encounter environments where their contributions are undervalued or perceived as secondary to traditional responsibilities.

Studies analyzing emotional development show that self-doubt often results from intergenerational narratives that frame public activity as inconsistent with femininity, resulting in ambivalent attitudes toward visibility and influence. Research on identity formation suggests that these internalized messages contribute to fragmented self-concepts, making women question the legitimacy of their goals and the appropriateness of their ambitions in social contexts. Scholars also discuss how early experiences with social criticism shape emotional vulnerability, reinforcing patterns of withdrawal when women anticipate judgment. Across various theoretical frameworks, these mechanisms combine to illustrate the psychological weight that cultural narratives impose on women's decision-making. Authors dealing with cognitive-behavioral perspectives argue that such barriers are not inherent traits but constructed mindsets shaped by repeated exposure to restrictive norms. Therefore, the literature consistently indicates that psychological limitations must be understood as contextual rather than personal shortcomings. This foundational understanding provides a basis for analyzing how cultural environments shape women's social roles.

A second strand of literature examines emotional regulation and its role in enabling or restricting women's participation in social life, emphasizing that emotional stability is a decisive factor in navigating the pressures of public engagement. Authors focusing on emotional resilience argue that women who experience chronic self-criticism or fear of disapproval often avoid situations where their performance might be evaluated, resulting in lower levels of social activity. Studies inspired by feminist theory explain that emotional fragility arises not from biological predispositions but from unequal power dynamics that reward compliance while discouraging assertiveness. Research further notes that emotional overresponsiveness to social cues, shaped by years of cultural conditioning, reduces women's willingness to take risks or initiate new activities. Scholars of psychosocial development point out that anxiety related to visibility is intensified when women do not receive adequate emotional support from families or communities.

Findings from identity research show that internal conflict between personal aspirations and social expectations generates emotional fatigue, which weakens motivation to engage in broader societal processes. Several authors emphasize that emotional barriers become self-reinforcing when women perceive their environment as judgmental or unpredictable. Literature in personality psychology reveals that women often suppress their needs for expression to maintain relational harmony, inadvertently limiting their own agency. According to recent studies, emotional constraints are most strongly expressed in environments where traditional norms remain dominant, making them a critical target for intervention. Thus, the emotional dimension appears as a central theme across numerous scholarly contributions on women's social participation.

Another group of scholars approaches the issue from a sociocultural perspective, arguing that psychological barriers cannot be separated from the structural and symbolic power relations embedded within society. Literature from cultural psychology shows that women's sense of capability is shaped by the cultural narratives that define what is considered desirable, acceptable, or appropriate behavior for women. Researchers note that societal expectations regarding modesty, motherhood, and domestic responsibility create a framework in which public participation may appear incompatible with women's perceived identities. Studies in social anthropology highlight that women internalize communal norms not simply as rules but as moral expectations that determine their social acceptance. The literature also discusses how symbolic representations of womanhood in media and discourse reinforce narrow definitions of femininity, increasing pressure to adhere to predetermined roles. Scholars focus-

ing on social structure argue that institutional arrangements, such as workplace hierarchies and community organizations, often replicate patterns of male dominance, making it psychologically difficult for women to imagine themselves as active contributors.

Research in communication studies notes that gendered stereotypes shape interactions in subtle ways that influence how women's opinions are received and valued. Some studies reveal that even when structural restrictions are reduced, symbolic norms continue to influence internal beliefs, creating a psychological barrier long after formal obstacles are removed. Across these perspectives, researchers agree that sociocultural narratives are a significant source of psychological limitation. This body of literature underscores that psychological barriers are sustained by a system of cultural meanings that must be critically examined in any attempt to promote women's social participation. Therefore, understanding cultural influences is vital for identifying effective mechanisms of change.

The literature addressing mechanisms for overcoming psychological barriers emphasizes that empowerment requires interventions targeting both personal development and broader social environments. Scholars who study cognitive restructuring propose that developing self-awareness and revising internalized beliefs allows women to challenge self-limiting assumptions imposed by cultural conditioning. Authors working in the field of behavioral psychology highlight that incremental exposure to new roles and responsibilities builds confidence and reduces anxiety associated with public visibility. Literature on emotional intelligence suggests that strengthening skills related to emotional regulation, self-advocacy, and assertive communication helps women navigate complex interactions without internalizing negative judgments. Researchers focusing on mentorship models show that supportive relationships with experienced women provide guidance, encouragement, and alternative identity models that help break cycles of doubt. In addition, studies on community psychology emphasize that collective spaces where women share experiences foster solidarity and reduce feelings of isolation.

Authors examining policy interventions argue that institutional reforms, such as gender-inclusive leadership programs, create environments that actively counteract psychological constraints. Findings from social learning theory suggest that observing other women succeed in public roles reshapes expectations about what is possible. Scholars also note that public recognition of women's achievements plays a symbolic role in shifting cultural narratives. According to numerous studies, sustainable empowerment requires aligning psychological development with structural opportunities. Thus, the literature consistently supports a holistic approach that integrates personal and societal strategies.

A final body of literature focuses on long-term transformation and emphasizes that eliminating psychological barriers requires coordinated cultural, educational, and institutional efforts that reshape how society conceptualizes women's social roles. Researchers argue that education plays a crucial role in redefining gender expectations by encouraging critical thinking and promoting diversity in identity formation. Studies in transformative learning theory highlight that reflective dialogue enables women to question inherited beliefs and construct new perspectives aligned with personal aspirations. Literature on cultural change emphasizes that collective redefinition of femininity is essential for weakening the symbolic roots of psychological constraints. Scholars examining media representations propose that portraying women in varied, competent, and influential roles challenges stereotypes and expands the imagination of what women can achieve.

Research on social policy indicates that sustained support from institutions reinforces a sense of legitimacy for women's active participation, reducing the influence of internalized doubt. Authors focusing on intergenerational psychology suggest that empowering one generation of women creates ripple effects that alter the developmental experiences of future generations. Several studies argue that the most effective change occurs when individual and societal reforms operate simultaneously, reinforcing each other in meaningful ways. Findings across disciplines show that psychological liberation is inseparable from broader cultural shifts that validate women's autonomy. Scholars conclude that genuine transformation requires time, commitment, and consistent reinforcement of inclusive values across all levels of society. Therefore, long-term strategies must combine psychological insight with cultural reformation to dismantle the deep-rooted barriers that restrict women's social activity.

Analysis and results. The analysis reveals that psychological barriers limiting women's social activity arise from a combination of internalized beliefs, emotional vulnerability, and persistent social expectations that shape women's sense of agency in subtle yet powerful ways. Findings indicate that

women who have been exposed to restrictive cultural norms often evaluate their capabilities through externally imposed standards rather than personal aspirations, resulting in diminished confidence and hesitation in public settings.

The data also show that the fear of criticism continues to influence decision-making processes, making many women prioritize social approval over self-expression and initiative. In several cases, emotional tension caused by conflicting social roles contributes to indecisiveness, slowing the development of stable self-concepts essential for sustained participation. Women who experience a lack of supportive networks demonstrate greater susceptibility to withdrawal, as they often struggle to interpret challenges as opportunities rather than threats. The findings further suggest that deep-rooted expectations regarding femininity continue to act as invisible boundaries, shaping women's behavior even in environments that formally promote equality. These barriers strongly correlate with experiences from early socialization, where obedience and modesty were emphasized more than independence and leadership. The analysis highlights that these psychological patterns persist despite societal modernization, revealing the durable nature of internalized norms.

Women who navigate environments characterized by unpredictable social feedback display heightened emotional exhaustion, which reduces motivation to engage with community or professional spheres. Overall, the findings suggest that psychological constraints operate not as isolated factors but as interdependent mechanisms shaped by cultural, emotional, and relational dynamics.

The study also identifies that overcoming these barriers requires a multilayered approach that addresses both individual psychological development and the broader structural context in which women operate. Findings demonstrate that interventions focusing on self-awareness enable women to recognize internalized narratives, helping them reframe limiting beliefs and understand the origins of self-restrictive thinking. Women who participated in communication and assertiveness training reported greater confidence in expressing opinions, suggesting that emotional competence is essential for resisting social pressure. The analysis shows that mentorship models play a crucial role in fostering resilience, as women benefit from observing alternative behavioral models that challenge culturally embedded stereotypes.

Supportive community environments also appear to reduce emotional strain by offering women a safe space to share experiences and build collective strategies for social engagement. Institutional efforts to promote inclusive leadership opportunities strengthen women's sense of legitimacy and reduce the psychological weight of traditional expectations. The findings indicate that culturally sensitive policies that acknowledge emotional and cognitive barriers create more sustainable pathways for empowerment. The study further demonstrates that exposure to positive representations of women in public life shifts internal perceptions of what is achievable, contributing to long-term identity reconstruction. Women engaged in reflective dialogue about their experiences displayed increased autonomy and clarity in goal-setting behaviors. Collectively, these findings confirm that psychological transformation is most effective when personal empowerment strategies are synchronized with social and institutional support systems that validate women's active participation.

Conclusion. The findings of this study demonstrate that the psychological barriers restricting women's social activity are not isolated emotional reactions but deeply embedded cognitive and cultural constructs that influence how women interpret their potential and navigate public life. These internal constraints are reinforced by years of social conditioning, where expectations surrounding modesty, conformity, and emotional restraint shape women's perception of what is considered acceptable behavior. As a result, many women develop cautious decision-making patterns that limit their willingness to participate actively in community, professional, or leadership roles.

The persistence of these barriers reflects the powerful influence of early socialization, which continues to shape attitudes and identity even in environments that claim to promote gender equality. Women who internalize restrictive norms often struggle to recognize their own capabilities, interpreting opportunities through the lens of anticipated judgment rather than personal aspiration. This leads to emotional fatigue that diminishes their motivation to express themselves or challenge traditional boundaries. The conclusion suggests that psychological barriers cannot be viewed solely as personal shortcomings but must be understood as the outcome of broader sociocultural narratives that regulate

women's behavior. Therefore, any attempt to increase women's social activity must begin with acknowledging the deep-rooted nature of these internalized limitations. Only by understanding how these patterns form and persist can effective strategies be developed to address them. The overall conclusion emphasizes that without dismantling these internal psychological structures, efforts toward social empowerment remain incomplete.

The study further concludes that overcoming these psychological barriers requires a comprehensive approach that integrates individual transformation with supportive social and institutional environments. Empowerment begins with the development of self-awareness, enabling women to identify and challenge internalized beliefs that limit their autonomy and restrict their participation in public life. Strengthening emotional resilience and assertive communication skills provides women with the tools needed to navigate criticism and uncertainty without compromising their sense of identity. Creating mentorship networks and community support systems allows women to witness alternative pathways of engagement, offering new behavioral models that challenge culturally embedded stereotypes. Institutional reforms that promote inclusive participation contribute to psychological legitimacy, reducing the weight of internalized doubt and expanding women's opportunities for meaningful involvement.

Additionally, positive representations of women in media and public discourse help reshape cultural narratives, signaling that active participation is both acceptable and valuable. Women who engage in reflective dialogue about their experiences demonstrate increased agency and clarity in defining their social roles. These findings confirm that psychological empowerment becomes sustainable only when combined with consistent societal reinforcement. Ultimately, the conclusion asserts that dismantling psychological barriers is not merely a personal journey but a collective responsibility requiring cultural, educational, and structural transformation. Such an integrated approach ensures that women can participate fully and confidently in the social life of an evolving society.

List of used literature.

1. Sullivan K., Mahalik J. Increasing career self-efficacy for women: Evaluating a group intervention // Journal of Counseling & Development. — 2000. — Vol. 78, № 1. — P. 54–62. — DOI: 10.1002/j.1556-6676.2000.tb02560.x.

2. Taylor K. M., Betz N. Applications of self-efficacy theory to the understanding and treatment of career indecision // Journal of Vocational Behavior. — 1983. — Vol. 22, № 1. — P. 63–81. — DOI: 10.1016/0001-8791(83)90006-4.

3. Toback S., Halling S., Halverson J. D., Loerch D. M., McNabb M., Reisberg J. Executives' experiences of envy in the workplace: A collaborative phenomenological study // The Humanistic Psychologist. — 2018. — Vol. 46, № 4. — P. 361–389. — DOI: 10.1037/hum0000094.

4. Velasco M., Sansone C. Resistance to diversity and inclusion change initiatives: Strategies for transformational leaders // Organizational Development Journal. — 2019. — Vol. 37, № 3. — P. 9–20.

Sobirov Zuhriddin Najmiddin o‘g‘li
Oriental universiteti, “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: sobirovzuhridddin@gmail.com

XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY SHAROIT VA ADABIY JARAYON

Annotatsiya. *Maqola XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy sharoit va adabiy jarayon o‘rtasidagi uzviy bog‘lanishni tahlil qiladi. Temuriylar davridan boshlab shayboniylar, ashtarxoniylar hukmronligi, keyinchalik Xiva, Buxoro va Qo‘qon xonliklari tashkil topishi bilan adabiy hayotda chegaralanish va an’anaviylik kuchaygani ko‘rsatiladi. XIX asrga kelib milliy uyg‘onish jarayoni boshlanib, jadidchilik harakati shakllandi. Ushbu davrda adabiyot ijtimoiy-siyosiy vaziyatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanib, ma’rifatparvarlik, vatanparvarlik, zulmga qarshi kurash g‘oyalari yetakchi o‘ringa chiqdi. Maqolada jadid she’riyatining aruzdan barmoq vazniga o‘tishi, mavzuning umumiylashishi, badiiylikning ma’rifiy da’vat oldida ikkinchi darajaga tushishi kabi jarayonlar atroflicha tahlil etiladi. Jadid adabiyotining 1905–1917 yillardagi “tajriba bosqichi” sifatida xarakterlanishi, she’riyat va nasr o‘rtasidagi yetakchilik masalasi, matbuotning adabiy jarayondagi hal qiluvchi roli, Yevropa va Sharq an’analarining sintezi kabi muhim masalalar yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *jadid adabiyoti, milliy uyg‘onish, Turkiston, XX asr boshlari, ijtimoiy-siyosiy sharoit, ma’rifatparvarlik, she’riyat, nasr, matbuot, realizm.*

SOCIO-POLITICAL CONDITIONS AND LITERARY PROCESS IN TURKESTAN IN THE EARLY 20TH CENTURY

Annotation. *The article examines the close relationship between the socio-political situation in Turkestan at the beginning of the 20th century and literary processes. It traces how, following the decline of the Temurid state and the rule of the Shaybanids and Ashtarkhanids, and later the establishment of the Khiva, Bukhara, and Kokand khanates, literary life became regionally fragmented and highly traditional. From the 19th century onward, the national awakening movement emerged, manifesting itself as Jadidism. During this period, literature became directly linked to socio-political conditions, with enlightenment, patriotism, and the struggle against oppression taking center stage. The study analyzes the transition of Jadid poetry from the aruz meter to the finger-meter, the generalization of themes, and the subordination of artistic quality to didactic purposes. It characterizes the years 1905–1917 as an “experimental stage” of Jadid literature, discusses the debate over the leading role of poetry versus prose, the decisive influence of the press, and the synthesis of Eastern and Western literary traditions. The author proposes viewing Jadid literature not as a separate trend but as a full-fledged literary period of national awakening.*

Key words: *Jadid literature, national awakening, Turkestan, early 20th century, socio-political conditions, enlightenment, poetry, prose, press, realism.*

СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ И ЛИТЕРАТУРНЫЙ ПРОЦЕСС В ТУРКЕСТАНЕ В НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Аннотация. *Статья посвящена анализу тесной взаимосвязи социально-политической обстановки в Туркестане начала XX века и литературного процесса. Прослеживается, как после упадка государства Тимуридов, при правлении Шейбанидов и Аштарханидов, а затем с образованием Хивинского, Бухарского и Кокандского ханств литературная жизнь приобрела региональную разобщённость и ярко выраженный традиционный характер. С XIX века начинается период национального пробуждения, принявший форму джадидизма. В этот период литература напрямую связывается с общественно-политической ситуацией: ведущими становятся идеи просветительства, патриотизма и борьбы с угнетением. В статье подробно*

рассматривается переход джадидской поэзии от аруза к пальцевому стихосложению, обобщение тематики, подчинение художественности дидактической цели. Период 1905–1917 гг. характеризуется как «экспериментальный этап» джадидской литературы; обсуждается вопрос о главенстве поэзии или прозы, решающая роль прессы, синтез восточных и западных традиций. Автор предлагает рассматривать джадидскую литературу не как отдельное течение, а как полноценный литературный этап эпохи национального пробуждения.

Ключевые слова: *джадидская литература, национальное пробуждение, Туркестан, начало XX века, социально-политическая обстановка, просветительство, поэзия, проза, пресса, реализм.*

O‘zbek adabiyoti bugungi kunga qadar juda ko‘p tarixiy-siyosiy jarayonlarga guvoh bo‘ldi. Har bir davrning ijtimoiy-siyosiy sharoitiga muvofiq tarzda adabiy taraqqiyot darajasi ham turlicha kechdi. Temuriylar davlati tanazzulga yuz tutgach, dastlab shayboniylar, keyin ashtarxoniylar hukmronligi davrida boshlangan ma’muriy bo‘linishlar madaniy hayotga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. Xiva (XVI asr), Buxoro (XVI asr), Qo‘qon (XVIII asr) xonliklari tashkil topishi bilan adabiy jarayonda ham chegaralar yuzaga keldi. Bu xonliklardagi adabiy jarayon ham uch adabiy muhit doirasida kechdi. Bu vaqt oralig‘ida madaniy-adabiy hayot goh yuksalib, goh pasayib turdi. XIX asr boshlariga kelib o‘zbeklar orasida yuz bergan uyg‘onish adabiy hayotda ham kuzatildi. An’anaviy nazm, tarixiy asarlar adabiyoti, tazkirachilik, tarjimonlik, lug‘atchilik, qo‘g‘irchoq teatri sohalari sezilarli ravishda faoliyat olib bordi. Agar Xorazmda Munis, Ogahiy, Feruz faoliyati tufayli adabiyot, tarix, tarjimachilikda jonlanish sezilgan bo‘lsa, Qo‘qonda kuchli adabiy markaz vakillari tufayli badiiy ijod yuksaldi, ikki tilda ijod qiluvchi o‘zbek shoiralari ko‘plab yetishib chiqdi. Buxoro forsiy jihatdan kuchliroq ta’sir ostida bo‘lgan va diniy mavzulardagi fors adabiyoti manbalaridan bir qancha tarjimalar qilingan. Shuni ham aytish kerakki, ushbu amirlikdagi mutaassiblik ma’rifat darajasini pasaytirish bilan bir qatorda muqarrar ravishda adabiyotning sifat va miqdorini ham pasaytirdi. Maktab va madrasalarda asosan diniy fanlar, qisman adabiyot (Navoiy, Fuzuliy, Hofiz, Bedil va boshqalar) o‘qitildi.

Ushbu davr adabiyotining umumiy belgilaridan biri an’anaviylik va vorislikning kuchayishi bo‘ldi. Navoiy, Bobur, Fuzuliy, Hofiz ijodiga ergashish tamoyilini deyarli har bir adabiy manbada, har bir ijodkorda uchratish mumkin edi. Shu bilan birga, zamondosh qardosh ijodkorlardan ta’sirlanish kuchaydi. Bu hodisa oqibatida uslubi bir-biriga o‘xshash ijodkorlar yetishib chiqa boshladi. Naziralar bog‘lash, tazmin, muxammaslar bitishni, asosan, Nodira, Uvaysiy, Munis, Maxmur, Amiriy, Turdi ijodida ko‘p uchratish mumkin. XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Fuzuliyning ta’siri o‘laroq “g‘arb turkchasining ta’siri kuchaydi va ikki lahcha bilan yozatirg‘on shoirlar ko‘runa boshladi. Hatto aytish mumkinki Fuzuliy bilan birga bizda ikkinchi bir lahcha ham tug‘di”[1]. Ushbu fikrga qo‘shimcha qilib aytganda, o‘g‘uz lahchasining ta’siri keyinchalik jadid ijodkorlari uslubida ham saqlanib qoldi.

Bu davrga kelib xalq kitoblariga murojaat ko‘paydi. “To‘tinoma”, “Chor darvesh”, “Yusuf va Zulayho”, “Tohir va Zuhra”, “Bo‘z o‘g‘lon”, “Yusuf va Ahmad”, “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlar ta’siri ijodkorlar orasida keng tarqaldi. Xalq adabiyotining ta’siri XIX asr o‘ratalarigacha va undan keyin ham saqlanib qoldi. Vadud Mahmudning “Turkistonning so‘ng shoirlaridan Muqimiy, Furqat, Haziniy parchalaridan shundaylari borki, agar allaqaysi qorong‘u tokchalardan, churub, qorarib ketgan bayozlardan ko‘rub egalarini bilgan bo‘lmasaq, ularni el adabiyotidan hech vaqt ajrata olmas edik”, degan fikrlari buning isbotidir.

Adabiyotda diniy-tasavvufiy elementlarning keng o‘rin egallashi, yassaviyona hikmatlar va shu yo‘lda yozilgan she’rlar davr diniy-ma’rifiy adabiyotini yuzaga keltirdi. Ahmad Yassaviy, Ubaydiy, Sulaymon Boqirg‘oniy, So‘fi Olloyor an’analariga rag‘bat va mayl ko‘rsatgan ijodkorlar adabiyotga tarkidunyochilik elementlarini olib kirdi. Fitratning so‘zlariga ko‘ra, bu adabiy jarayon hech bir yangilik ko‘rsatmasdan to jadidchilik davrigacha davom qildi va bir-biriga quruq taqlid qiluvchi son-sanoqsiz shoirlar yetishtirdi18. Bizningcha, bu qarash ko‘proq she’riyatga taalluqli. Sababi, shu davrda saroy adabiyoti unsurlari, madhiyabozlik va tazminchilik kuchaygan edi. Shu boisdan ham badiiy adabiyotning – nazmning darajasi “Navoiy asri”ga nisbatan olib qaralganda “tuban tushish”

[1] Mahmud, Vadud. Tanlargan asarlar. – T.: Ma’naviyat, 2007. – B.45.

sifatida baholangan, deb aytish mumkin.

XIX asrning o‘rtalariga kelib, tarqoq adabiy jarayon birlashdi. Va milliy uyg‘onish davri adabiyotiga qadam qo‘yildi. XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi 50-60 yilni qamrab oluvchi milliy uyg‘onish mintaqamizda jadidchilik shaklida namoyon bo‘ldi va u 20-yillarning o‘rtalarigacha davom etdi. Bir qator tadqiqotlarda jadid adabiyotiga adabiy yo‘nalish yoki oqim sifatida qarash mavjud. Jumladan, S.Mirzayev 1905 – 1917 yillar oralig‘ida mavjud bo‘lgan adabiy yo‘nalish va ijodiy to‘dalardan ijtimoiy hayotga eng yaqini sifatida jadid adabiyoti va ijodkorlarini ko‘rsatadi: “1905 – 1917 yillar jamiyatida turli pozitsiyada turgan ijtimoiy guruhlar bo‘lganidek, xilma-xil adabiy yo‘nalish va ijodiy to‘dalar ham bo‘lgan. Lekin ular orasida ijtimoiy hayotga, mehnatkashlarning istaklariga eng yaqini va o‘sha davr muammolarini yechish yo‘llarini izchillik bilan qidirgani, hayotiy muammolarni baralla kuylagani, shubhasiz, jadid adabiyoti va jadid yozuvchilaridir” Muallif nazaricha, XX asr boshlarida jadid adabiyotiga o‘xshash bir qancha adabiy yo‘nalishlar bo‘lgan va jadid adabiyotini shularning eng muvaffaqiyatlisi sifatida baholamoqda. Ushbu fikrga yaqin keluvchi qarashni D.Quronovda ham kuzatish mumkin: “...yangi adabiyotning ijodiy tamoyillarini mukammal adabiy-estetik dastur tarzida shakllantirib ulgurmadilar. ...shunga ko‘ra, bizningcha, jadid adabiyotini milliy adabiyotimiz tarixidagi g‘oyaviy-adabiy oqim sifatida tushunilgani ma’qulroq ko‘rinadi”23. Aslini olganda, jadid adabiyotiga bir oqim, yo‘nalish, soha sifatida qarashlar xilma-xilligi doim mavjud bo‘lib kelgan. Biroq bu davr adabiyotiga adabiyot tarixidagi bir davr sifatida, tom ma’nodagi adabiyot sifatida qarash to‘g‘riroq bo‘ladi.

O‘zbek adabiyotining biror bosqichi milliy uyg‘onish davri adabiyotichalik siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga yaqin kelmagan, birlashib ketmagan. Adabiyotning ijtimoiy sharoitdan kelib chiqib ish tutishi, o‘z yo‘nalishini belgilashi ayni shu davr adabiyoti misolida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xususan, o‘zbek she’riyatining shu kungacha bosib o‘tgan mavzu yo‘nalishlariga e’tibor beriladigan bo‘lsa, ularda o‘z davri muammolaridan kelib chiqqan turlicha tendensiyalarni kuzatish mumkin: Navoiydan avval va undan keyingi mumtoz she’riyatda tasavvufiy ohanglar, ilohiy ishq tasvirlariga keng o‘rin berilgan. XIX asrga kelib nazm ilohiylikdan bir pog‘ona pastga tushdi. Bu davrning lirik qahramoni ijtimoiylashdi, zulmga qarshi kurashuvchi, xon va boylarni qoralovchi inson sifatida gavdalandi. Turkiston o‘lkasi mustamlaka zulmi asoratiga tushib qolgan XIX asr oxirlaridan boshlangan milliy uyg‘onish davri bosqichiga kelib endi she’riyatdagi mavzu ham, uslub ham keskin o‘zgardi. Jadid she’riyati vakillari muhabbatni kuylashga moslashgan aruz vaznida bu davrga kelib ilm-ma’rifatga, vatanni sevishga chorlovchi she’rlar yoza boshladilar. Adabiyotga kirib kelgan shiddatkor ruh, davrning suronli nafasini yetkazib berishda aruz vazni qo‘l kelmay qoldi. Juda ko‘plab ijtimoiy-ma’rifiy mazmundagi she’rlar barmoq vaznida, xalq qo‘shiqlari ohangiga mos tarzda yozila boshlandi. An’anaviy nazmning faqat shakligina saqlanib qoldi. She’riyatda har xillik yo‘qolib, mavzu umumiylashib yaxlitlanib ketdi, bitta maqsad atrofida birlashdi. Bu davr she’riyatidan nafosat, jimjimalik emas, balki g‘oyaviy harakatdan kelib chiquvchi adabiyot qidirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Xususiylikdan umumiylikka o‘tish, ya’ni o‘z orzusidagi shaxs yoki oxiri noma’lum natija orqasidan yugurish emas, balki xalqqa muhabbat, uning kulfatini aritishga harakat birinchi o‘ringa chiqdi. Agar jadid she’riyatining birinchi bosqichi 1905 – 1917 yillar oralig‘i deb belgilansa, shu qisqa vaqt ichida yuz bergan jarayon ko‘p asrlik an’ana qolipini parchalab yubordi. Bu bosqich she’riyatda “tajriba bosqichi” bo‘ldi va u ifodaning to‘porilikdan jozibadorlikka o‘tishiga zamin hozirladi.

“Kuydan da’vatga” aylangan bu davr she’riyatini ma’rifiy ruhdagi she’rlar bayozi, deyish mumkin. Unda “erkinlik”, “taraqqiyot”, “ma’rifat” mavzulari qizil chiziq bo‘lib o‘tganini ko‘ramiz. Mutaxassislar XX asr boshlaridagi jadid adabiyotini “badiiyatiga ko‘ra u qadar yuksak emas” deb baholashadi. Bu xususiyat, ayniqsa, she’riyatda ko‘proq sezilib turadi. Buning bir qancha sabablari mavjud:

1. Hissiyotni badiiy tarzda yetkazish Sharq xalqlari uchun an’ana. Lekin fikrni shu yo‘l bilan yetkazilganda badiiylikka putur yetishi turgan gap.

2. Tanlangan mavzu yo‘nalishiga qarab (ilmga chaqirish, illatlarni tanqid qilish, ijtimoiy fikrni singdirish) shoirdan keskin va oddiy ifodalarni qo‘llash talab qilinadi. Shu bois jadid she’riyatida poetik hashamdorlikdan qochish va maqsadga yaqin yo‘l bilan yetishga urinish yetakchilik qiladi.

3. XX asrga kelib badiiy shakldan ko‘ra badiiy mazmun birlamchi kuchga aylandi: qanday

yozish emas, nimani yozish muhim bo‘lib qoldi. Shu bois “yalang‘och da’vat va chaqiriqlar” badiiylikni “shiorbozlikka almashdi”.

4. Jadid adabiyotining dastlabki namunalari “o‘tish davri” (1905– 1917 yy.) mahsuli hisoblanib, yangi janr, yangi uslubga ishlov berish davomida sayqallandi. XX asrning 20-yillariga kelibgina u “har jihatdan to‘laqonli adabiyotga aylandi” 28 . Bu bosqichda (1905 – 1917 yy.) “adabiyotimizning dunyoviy mazmun tomon burilishi, ma’rifatparvarlik ruhining yetakchiligi, jadidchilik qarashlarining mo‘lligi, g‘oyaviy pafosning kuchliligi, badiiylikning zaifligi va an’anaviy she’riyat turlari ila bir qatorda drama, roman singari janrlarning embrional shakllari maydonga kelishi kabi belgilar bilan xarakterlanadi” 29 . Adabiyotdagi yangilanishlar, g‘oyaviy kurashlar, bahs-munozaralar bu davr adabiyotiga xos bosh xususiyat bo‘ldi. O‘zbek adabiyoti realistik xarakterga ega bo‘la boshladi. Bu bosqichda jadid adabiyotining Qodiriy, Cho‘lpon, Avloniy, Fitrat kabi buyuk qalam sohiblarini yetishtirgan adabiyot janrlar qorishiqligi, tajribalar silsilasini boshidan kechirayotgan edi. Shu bois bu davrda yaratilgan asarlarga odatiy qoliplardan biroz chetga chiqqan holda baho berish adolatdan bo‘ladi. Har qanday badiiy tasvirda o‘sish bo‘ladi. Bu o‘sish jarayoni badiiy tahlilga mutanosib kechadi. Badiiy tasvir yuksak bo‘lishi uchun asarni o‘qiydigan o‘quvchining va adabiyotshunoslikning saviyasi ham shunga monand ravishda o‘sishi kerak. Kitobxonning tafakkuri, badiiy asarni qabul qilish saviyasi badiiy adabiyot kuchini belgilab berishda bir omil bo‘ladi. Hozirgi adabiy jarayondagi estetik talab bilan XX asrdagi talabni solishtirib bo‘lmaydi. Badiiy jarayonni bugungi kun nazariyasi va tanqidi nuqtayi nazaridan tekshirib bo‘lmaydi. Aslida biz badiiy yaydoq fikrlar, to‘laqonli bo‘lmagan adabiyot deb aytadigan baholarimiz nisbiy, biryoqlama yondashishdan boshqa narsa emas. Kuchli kitobxon bo‘lmagan joyda kuchli adabiyot bo‘lishi mumkin emas. Adabiyotning yuksalishi adabiyotshunoslikning yuksalishi bilan bog‘liq.

Bu davrda qarashlar, ifoda yo‘llari, maqsad o‘zgardi, keskinlashdi. Badiiy tafakkur va estetika yangilana boshladi. G‘arb adabiyoti va publitsistikasining ta’sirida hikoya, roman, drama janrlari va tanqidiy maqola va esse, taqriz, obzor, feleton kabi adabiy tanqid janrlari o‘zlashdi. Mumtoz adabiyotda “Navoiy asri” qanchalik keskin burilish yasagan bo‘lsa, yangi o‘zbek adabiyotidagi jadidchilikning o‘rni va salmog‘i ham undan kam emas. Jadid adabiyotining haqiqiy bahosini berish shu davrga mansub adabiy merosni chuqur o‘rganish bilangina amalga oshadi. Bu davr adabiy muhitida nazmdan ko‘ra ko‘proq nasrda muhim yangilanishlar, badiiy kashfiyotlar ro‘y berayotgandi. Shu sababli, jadid adabiyotining ko‘pgina o‘ziga xosliklari undagi nasriy namunalarida ko‘zga tashlanadi. Buni adabiyotga kirib kela boshlagan yangi janrlar misolida ham ko‘rish mumkin. Shu o‘rinda bir mulohazaga ehtiyoj seziladi. Jadid adabiyotini tadqiq qilgan bir guruh olimlar XX asr boshlarida she’riyatni yetakchi mavqe egallaganligini e’tirof etishsa, yana bir guruh mutaxassislar bu masalada nasrni ko‘rsatishadi. XX asr boshlari yangi o‘zbek adabiyotida she’riyatning asosiy o‘rin egallashini yoqlovchi olimlar garchi bir xil qarashni ilgari surayotgan bo‘lsa ham, lekin o‘z fikrlarini izohlash nuqtasida bir-biriga zid pozitsiyada turganliklarini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, tadqiqotchi S.Mirzayev shunday yozadi: “Yangi o‘zbek adabiyoti tarixining bu bosqichida she’riyat yetakchi o‘rinni egallab keldi. Bu hol she’riyatning mumtoz adabiyotda yetakchi bo‘lganligi an’anasining yangi o‘zbek adabiyotida ham davom etishi natijasida sodir bo‘ldi”. Demak, muallifning fikriga ko‘ra, jadid she’riyati mumtoz she’riyat an’analarini to‘lig‘icha davom ettirgan. Endi aynan shu xususda fikr bildirilgan boshqa bir tadqiqotda o‘qiymiz: “Jadid adabiyotining yetakchi sohasi she’riyatdir. O‘zbek mumtoz she’riyatidan ham vazn, ham til va uslub, ham g‘oyaviy jihatdan keskin farq qilgan jadid she’riyati XX asr o‘zbek adabiyotining yangi yo‘nalishda ravnaq topishiga tamal toshini qo‘ydi”. Anglashilganidek, yuqoridagi fikrlar ayni paytda bir asosda to‘xtalib, fikrni izohlash yo‘lida turli taraflarga qarab yuradi. Jadid she’riyati bilan maxsus shug‘ullangan olima N.Afoqovaning: “Ammo eskilik va yangilik aynan jadid adiblari ijodida – she’riyatda ro‘baro‘ keldi”, degan xulosasini esa yuqoridagi ikki qarashning umumlashmasi sifatida qabul qilish mumkin. Bu davr adabiyotida nasrning mavqeyini oldingi planga olib chiquvchi bir guruh adabiyotshunoslar 35 ham borki, jumladan, D.Quronov o‘zining bu boradagi qarashlarini “epik turda badiiy-konseptual funksiyani bajarish, dunyoni anglash va anglatish imkoniyatlarining kengligi va buning XX asr boshlarida dolzarblik kasb etgan”ligi bilan izohlaydi.

Umuman olganda, asr boshlarida jadidlar adabiyotni keng ma'noda tushunganlar. Adabiy janr hamda adabiyotshunoslik janrlari o'zining aniq chegarasiga ega bo'lmagan. Matbuot, adabiyotshunoslik, teatr, badiiy asarlarni adabiyot sifatida qarashgan. XX asrga kelib o'zbek adabiyotida ko'pgina janrlarga sinov sifatida qo'l urila boshladi. Adabiyotning estetik jihatlaridan ko'ra g'oyaviy masalalariga e'tibor ko'proq bo'ldi. Adabiyotning publitsistika bilan uzviyligi kuchaydi. Shu bois bu davr adabiyotida publitsistik va badiiy janrlar o'rtasida chegara yo'qoldi, bir-biriga o'tib turdi. Buni feleton misolida ko'rish mumkin. Matbuot sahifalarida "Feleton", "Kichik feleton" kabi alohida ruknlar ko'rina boshladi. Ta'kidlash kerakki, jadidlar ko'pincha o'z yozganlariga aniq bir janr belgilab o'tmagan. Matbuotda ham feleton ruknida bir nechta janrdagi (hikoya, roman, tanqidiy maqola, sayohatnomalar, she'r) asarlar e'lon qilinavergan. Holbuki, vaziyat shunday ekan, ularga aniq bir janrni tirkab qo'yish ham tadqiqotchiga mushkullik tug'diradi. Ko'pchilik gazetalarda adabiyotga oid rukn feleton deb nomlangan. Lekin ularning orasiga chegara qo'yib bo'lmaydi. "Feleton" ruknida keltirilgan maqolalar ham sof adabiy janrlarda bo'lmay, asosan, ta'lim-tarbiya, matbuot, ijtimoiy-madaniy hayotga doir tanqidiy fikrlar keltirilgan. Jadid muharrirlari gazetalardagi feleton qismiga xabarlar rukni sifatida qarashgan. Bu davrda feleton tanqidiy janr sifatida shakllanmagan edi. Faqat 1926– 1927 yillarga kelibgina fel'etonga tanqidiy janr sifatida qarala boshlangan.

XX asr adabiy manzarasi jadid matbuotida to'la-to'kis aks etgan deyishimiz mumkin. Bu adabiyotning birinchi bosqichi – 1905 – 1917 yillar adabiyoti Turkistonda milliy matbuotning ilk kurtak yozishi, rivoj olishi davriga to'g'ri keldi. Shu qisqa vaqt jadid matbuoti bilan birgalikda jadid adabiyotini ham sinovdan o'tkazdi. Matbuot bilan adabiyotning uyg'unlashuvi hodisasi ro'y berdi. Adabiyotni ommaga yetkazish uchun keng tarqalish imkoniyatiga ega bo'lgan gazeta yo jurnallarda nashr etish yo'li tanlandi. Sahna asarlarini teatrda namoyon etish bilan esa katta ta'sir kuchiga erishilgan. Jadid adabiyoti, shubhasiz, jadid matbuoti vositasida keng yoyildi, tomir otdi. Publitsistik hamda adabiy tamoyillar birlashdi. Shu bilan bir qatorda, davr adabiyotiga mos tarzda tanqid yoki boshqacha aytganda jadid adabiyotshunosligi ham shakllanib, yangilanib bordi.

Matbuot jadid adabiyotini g'arb hamda qardosh maslakdoshlari bilan bog'lab turuvchi ko'prik bo'ldi. Juda ko'p tadqiqotchilar yakdillik bilan jadid adabiyotini jahon adabiyoti, xususan, Yevropa adabiyotidan ta'sir olganini ta'kidlaydilar. Shu ma'noda o'zbek adabiyotining bu davrini yangilanish jarayoni sifatida qarashgan, ilk drama, roman, hikoya, yangi she'riy shakllarning paydo bo'lishini davr adabiy muhiti jihatidan hayratomuz hodisa deb baholashgan. Jadidchilik g'oyalari Renessans davridan tortib to XX asrning boshlarigacha bo'lgan Yevropa tafakkuridan quvvat olgan degan qarashlarni ilgari surishgan. Aslida, ularning tanlagan yo'li Yevropa tajribasigagina suyanib qolmay, barcha jabhalarda sharq va g'arb an'analarini uyg'unlashtirish bo'lgan. Prof. B.Qosimov jadidchilik harakatini mohiyatiga ko'ra Yevropa Renessansi bilan qiyoslaydi. Faqat uning Renessansdan birgina farqi jadidchilik to'laligicha milliy o'zlikni anglash hodisasi ekanligidadir. Bu davrda badiiy adabiyot, xususan, she'riyat milliy g'oya targ'ibotida juda katta rol o'ynadi. Jadid shoirlari, birinchi navbatda, yangi ilm-fanni ulug'ladi va xalqni ushbu ilm va fanlarni o'rganishga targ'ib qildilar. Jadid adabiyotiga kelib qahramonlarni boy kambag'alga ajratish emas, balki yurt taqdiriga befarq bo'lmagan yoki loqayd inson xarakterlariga tamoyillariga ko'ra ajratila boshladi. Adabiyotning qiymati ijtimoiy hayot bilan ijtimoiy faollik bilan belgilanadigan bo'ldi. Ijodkorlar senzura, bosim, ta'qiq sabab tanqidiy qarashlarini, milliy o'zlikka daxldor fikrlarini niqoblash, zamon va makonni ko'chirish vositasida ifodalash usuliga o'tdilar. Bir so'z bilan aytganda, jadidchilik to'laligicha milliy o'zlikni anglash hodisasi edi. Jadidlar aynan matbuot va adabiyot orqali o'z g'oyalarini targ'ib etish uchun yo'l topdi, oz bo'lsa ham xalq ongida o'zgarish yasashga erisha oldi. Musulmonlari jamiyat ishlarida faol bo'lishga, zamonaviy bilimlarni o'rganishga da'vat eta oldi. Matbuotning yuzaga kelishi, jonlanishi adabiy jarayon uchun asosiy minbar vazifasini o'tadi. Jadidlar o'z dasturlarini matbuot sahifalari yordamida keng yoya oldi. Usmonli turk, tatar, Misr matbuotining tajribalari o'zlashtirildi. Yevropa adabiyotining bir qancha adabiy janrlari o'zbek adabiyotiga olib kirildi. Jadid ijodkorlari yangi o'zbek adabiyotini yangi janrlar bilan boyitdilar. Jadid adabiyotining birinchi bosqichi 1905 – 1917 yillarda kechdi. Bu davrda o'zbek adabiyoti o'z yo'nalishini keskin o'zgartirdi, yangi qiyofa kasb etdi. Adabiyotda realizm unsurlari mustahkamlana bordi. O'zbek adabiyotining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishi esa xalq

ijtimoiy ongining o‘zgarishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ldi. Adabiy tanqid shakllandi. Adabiyotshunoslik sohasi o‘zining yangi bosqichiga ko‘tarildi. Adabiyot katta-katta maqsadlar bilan yashay boshladi. 1905 – 1917 yillar oralig‘ida kechgan adabiy jarayon, janriy izlanishlar, tajribalar keyingi davr adabiyoti uchun muhim manba, tagzamin bo‘lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Avloniy A. Tanlangan asarlar. 2 jild. // Ma’naviyat. – 2006. – T. – B. 304.
Pedagogik platformalarning afzalliklari: Tadqiqot natijalari pedagogik platformalarning quyidagi afzalliklarini aniqladi; Individuallashuv: Har bir talaba o'z qobiliyati va sur'ati bilan o'qish imkoniyatiga ega. Interaktivlik: Multimedia vositalar, virtual laboratoriyalar va simulyatorlar orqali

amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish. Ochiqlik va kirish imkoniyati: Ta'lim resurlariga istalgan vaqtda va joydan kirish. Monitoring va baholash: Talabaning o'zlashtirish jarayonini doimiy kuzatish va ob'ektiv baholash. Hamkorlik: Guruhlarda ishlash, loyihalar ustida birgalikda mehnat qilish imkoniyati. Iqtisodiy samaradorlik: Moddiy resurslarni tejash, ta'lim xarajatlarini kamaytirish.

Pedagogik platformalardan foydalanishda muammolar:Tadqiqot davomida quyidagi muammolar aniqlandi; Texnik ta'minot yetishmasligi: Barcha talabalar va o'qituvchilar zamonaviy texnik vositalarga ega emaslar (25% respondentlar).

Raqamli savodxonlik darajasi: O'qituvchilarning 32% va talabalarning 18% raqamli kompetensiyalari yetarli emas. Metodologik tayyorgarlik: Pedagogik platformalar uchun sifatli elektron ta'lim resurslari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Motivatsiya muammolari: Ba'zi talabalar (15%) mustaqil onlayn ta'limga o'rgana olmaydilar. Ijtimoiy muloqot kamayishi: Bevosita muloqotning kamayishi ba'zi kasbiy ko'nikmalarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tavsiyalar va xulosalar Pedagogik platformalarning samaradorligini oshirish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: Ta'lim muassasalari darajasida:

Pedagogik platformalarni tanlash va joriy etishning ilmiy asoslangan strategiyasini ishlab chiqish; Professor-o'qituvchilarni tizimli qayta tayyorlash va malakasini oshirish; Sifatli elektron ta'lim resurslarini yaratish va joylashtirish; Texnik ta'minotni zamonaviy darajada ta'minlash. O'qituvchilar uchun: Aralash ta'lim (blended learning) modelini qo'llash; Pedagogik platformalar imkoniyatlaridan to'liq foydalanish; Talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish; Doimiy monitoring va teskari aloqa tizimini joriy etish. Talabalar uchun: Raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish; Mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish; Vaqtni samarali boshqarish qobiliyatini oshirish; Onlayn hamkorlik ko'nikmalarini egallash.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, pedagogik platformalar zamonaviy kasbiy tayyorgarlik tizimining ajralmas qismi bo'lib, talabalarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Ularning to'g'ri va maqsadga muvofiq qo'llanilishi ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi, talabalarning mustaqil ta'lim olish qobiliyatini rivojlantiradi va kasbiy faoliyatga tayyorgarliklarini mustahkamlaydi.

Biroq, pedagogik platformalarni joriy etish murakkab jarayon bo'lib, u yaxshi texnik ta'minot, o'qituvchilarning yuqori malakasi, sifatli elektron resurslar va ta'lim jarayonini tashkil etishning yangi metodlarini talab qiladi. Shu bois, pedagogik platformalardan foydalanishning an'anaviy ta'lim usullari bilan maqsadga muvofiq uyg'unlashtirilishi zarur.

Kelajakda sun'iy intellekt, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalarining pedagogik platformalarga integratsiyalanishi ta'lim jarayonini yanada takomillashtirishga imkon beradi. Bu esa zamonaviy bozor talablariga javob beradigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni, 2020.
3. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. 2005. Vol. 2.
4. Toxtaxodjaeva M.X. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. Toshkent: Fan, 2019.
5. Sharipov Sh.S. Pedagogika asoslari. Toshkent: Universitet, 2020.
6. Novikov A.M. Metodologiya professional'nogo obrazovaniya. Moskva: Egves, 2018.
7. Slastenin V.A. Pedagogika. Moskva: Akademiya, 2019.
8. Clark R.C., Mayer R.E. E-Learning and the Science of Instruction. New Jersey: Wiley, 2016.

Xaqnazarova Sayyora Abduraxmonovna
Farg‘ona davlat universiteti, katta o‘qituvchi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: sayora1970@mail.ru

ABDULLA SHE’R IJODIDA OBRAZLAR TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyati namoyondalaridan biri - Abdulla She’r ijodining badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilinadi. U. Normatov, A. Haymetov, V.Zohidov kabi adabiyotshunos olimlarimizning shoir ijodi xususidagi fikrlariga ilmiy munosabat beriladi. Abdulla She’r ijodida Oybek va Mirtemir an’analarining izchil davom etishi ta’kidlanadi. Shoirning realizmga yo‘g‘rilgan she’rlari, hayotiy voqealarga yaqinligi, xalqona ruh, zamonga munosabat bildiruvchi lirik obrazlar orqali ifodalanadi. Undagi she’riy mahorat inson obrazining, uning ichki va tashqi borlig‘ini atroflicha chuqur, badiiy gavdalantira bilishida namoyon bo‘ladi. Shoir yaratgan lirik qahramonlar uning she’rlari misolida ifoda etiladi va shoirning badiiy obraz yaratish mahorati ilmiy tarzda tahlilga tortiladi.*

Kalit so‘zlar: *realizm, lirik obraz, tiplar an’anasi, obraz yaratish, badiiy-estetik xususiyat, xalqona ruh,Vatanga sadoqat, zamonga munosabat, adabiy an’ana, she’rning g‘oyasi, ichki va tashqi borliq, falsafiy mushohada.*

АНАЛИЗ ОБРАЗОВ В ТВОРЧЕСТВЕ АБДУЛЛЫ ШЕРА

Аннотация. *В данной статье анализируются художественно-эстетические особенности творчества Абдуллы Шера - одного из представителей современной узбекской поэзии. Дается научная оценка взглядам таких литературоведов, как У. Норматов, А. Хайметов и В. Захидов, относительно творчества поэта. Подчеркивается последовательное продолжение традиций Айбека и Миртемира в поэзии Абдуллы Шера. Реалистически окрашенные стихи поэта, его близость к жизненным событиям, народный дух и отношение к эпохе выражаются через лирические образы. Поэтическое мастерство автора проявляется в глубоком и всестороннем художественном воплощении человеческого образа - его внутренней и внешней сущности. Созданные поэтом лирические герои раскрываются на примере его стихотворений, а его мастерство в создании художественного образа подвергается научному анализу.*

Ключевые слова: *реализм, лирический образ, традиция типов, создание образа, художественно-эстетическая особенность, народный дух, преданность Родине, отношение к эпохе, литературная традиция, идея стихотворения, внутренняя и внешняя сущность, философское размышление.*

ANALYSIS OF IMAGERY IN ABDULLA SHE`S WORKS

Annotation. *This article analyzes the artistic and aesthetic features of the works of Abdulla Sher, one of the representatives of modern Uzbek poetry. It provides a scholarly evaluation of the views expressed by literary scholars such as U. Normatov, A. Haymetov, and V. Zohidov regarding the poet’s creative output. The article emphasizes the consistent continuation of the traditions of Oybek and Mirtemir in Abdulla Sher’s works. The poet’s poems, imbued with realism, are expressed through lyrical images that reflect real-life events, a folk spirit, and an attitude toward the times. His poetic mastery is manifested in the profound and artistic depiction of the human image-its inner and outer essence. The lyrical characters created by the poet are illustrated through his poems, and his skill in creating artistic imagery is examined from a scholarly perspective.*

Key words: *realism, lyrical image, tradition of types, image creation, artistic-aesthetic feature, folk spirit, devotion to the homeland, attitude toward the times, literary tradition, idea of the poem, inner and outer reality, philosophical reflection.*

Kirish. Abdulla Sher ijodida tiplar an'anasiga sodiq qolib, obraz yaratish tamoyilining o'ziga xos usulda va ko'rinishda rivojlantirdi. Shoirning badiiy mahorati inson obrazining, uning ichki va tashqi borlig'ini atroflicha chuqur, badiiy gavdalantira bilishida namoyon bo'ladi. Uning lirik qahramonlari, oddiy, kamtar o'zbek xalqi va ularning uning pok, beg'ubor kechinmalaridir. Lirik qahramonlari insoniyat va yer kurrasining taqdiri, Vatanining buguni va kelajagi to'g'risida kuyib-pishayotgan, qayg'urayotgan, behalovatlik, bezovtalik bilan yashayotgan o'zbek xalqining timsolidir. Ijodkor lirikasida yangicha qarashlarni, yangicha fikrlarni shakllantiradi. U yaratgan lirik obrazlarning xarakter chizgilari she'riyat muxlislarining ongi va shuuriga oson yetib boradi va tez esda qoladi. Xususan, she'riyatda keng tarqalgan badiiy san'atning ohorli jihatlarini topib qo'llash, fikr-mushohada hamda kechinmalarni "tesha tegmagan" iboralar orqali lirik bayon etish shoir uslubiga xos asosiy qirralardan biridir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Abdulla Sher ijodi haqida adabiyotshunos Umarali Normatov ham shunday fikr bildiradi: "Abdulla Sher she'rlari o'zining izchil realizmi, konkret zaminga, kundalik hayotga yaqinligi, voqeabandligi bilan qisman Oybek, qisman, Mirtemir an'analarini eslatadi. U qishloq manzaralarini dehqonlar mehnatini qalamga olganda, yumoristik lavhalar chizganda ko'proq Mirtemirga, lirik kayfiyatlar tasviri, hayot falsafasi tahlili paytida esa Oybekka ergashayotganday bo'ladi. Biroq shu an'analar doirasida yosh shoirning shakllanib kelayotgan poetik nigohini, o'ziga xos ovozini payqab olish mumkin". [1.№ 56 сон].

Darhaqiqat, an'analar doirasidan chiqmagan shoirning g'oyaviy va badiiy dunyosini uning davr, Vatan, zamondoshlar haqidagi samimiy va ehtirosli she'rlari misolida ko'ramiz. Bu she'rlar uning hayotiy poeziyasini belgilab beradi. Shoir Vatanini jondan aziz hisoblaydi, Vatanining erkinligini, gullab-yashnashini hayotini bir bo'lagiday tasavvur qiladi:

Mustabid tuzumning, bas, nomi o'chsin,
Yuz burdik "Yo, Erk!" deb eski dunyodan,
Bugun "Vatan" desam, yuksalar ko'ksim
O'pkamni to'ldirgan erkin havodan. [2.129]

Vatanning chin yurakdan sevgan shoir yurtining ozod, erkin ekanligidan iftixor tuyg'usini tuyadi. She'rdagi obrazlar, hodisalar, situatsiyalar o'zaro aloqaga kirishib she'rning g'oyaviy mazmunini ifodalashga xizmat qiladi. Ijodkor qalbi va shuuriga ta'sir etgan hodisalar tufayli Vatanni erkin va hurligini his qiladi, epkin shabodalar uning jismiga va ruhiga huzur bahsh etishini ta'svirlaydi. Shoir ijodining qimmati uning sof shaxsiy kechinmalari, tasviri bilan emas, balki zamonasining ijtimoiy jihatdan muhim hodisalarini o'zining shaxsiy tarjimayi holi faktiga aylantira olishi bilan baholanadi.

"Adabiyotda ma'lum bo'lgan, boshqalar tomonidan kuylangan g'oya va mavzularni kuylash, ular tomonidan qo'llangan tasviriy vosita va obrazlardan foydalanish, adabiy hayotda butun O'rta asr davomida ko'pgina Sharq mamlakatlarida tabiiy hol bo'lgan masalani o'rganish, birinchi navbatda an'ana bilan bog'liqdir. Sharq klassiklarining ijodida shartli, an'anaviy holatlar juda ham katta o'rin tutadi. Bu hol ular ijodining asosiy g'oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan bog'langan" – deydi tadqiqotchi olim Hayitmetov. [3.129]

Ushbu fikrning isbotini bevosita Abdulla Sher ijodini tadqiq qilish jarayonida kuzatdik. Shoir ijodida g'oyalar an'anasi qator she'rlarida ifodalangan bo'lib, bu g'oyalar hayotni bevosita mushohada qilishga, uni sinchiklab tadqiq qilishga, fikrlashga, ijodkorni maqsadini yoritib berishga xizmat qilgan.

Shoir inson xarakteri, ona yurtga munosabat, emotsionallikni ifodalovchi ko'plab she'rlar yaratgan. Chin iste'dod sohibi bo'lgan ijodkor o'z qalbi va ruhiyatini lirik tadqiq qilish natijasida ruhiy-ma'naviy iqlimlarni zabt eta boradi va betakror uslubi bilan she'riyatda o'z o'rnini topadi.

Shoir "Odam" she'rida bir inson obrazi orqali butun insoniyat turmush tarzini, uning ruhiyatini aks ettiradi. Ushbu lirik qahramon timsolida faqat mehnat qilib, o'zining huzur- halovatini unutgan o'zbek mehnatkashining tipik obrazini yaratadi. Demak, lirik qahramon misolida ijtimoiy hayot qonuniyatlarini anglaymiz va bu obraz turmushdagi real, ijtimoiy, psixologik tip sifatida butun insonlarning ruhiyatini, o'y-fikrini ifodalaydi. Bu obrazda favqulodda ahamiyatga ega bo'lgan, lekin inson mohiyatining asosiy, muayyan, tarixiy xususiyatlarini umumlashtiriladi. Bu obraz inson

umumlashma darajasining topos ko‘rinishiga xosdir, chunki inson obrazi she’riyatda ko‘p marotaba takrorlanuvchi obrazlar sarasiga kiradi.

Sen – zehnini Ulug‘bekning “Ziji”ga jolab,
Osmonlarda yangi osmon ochgan o‘zbeksan;
Sayyoralar yog‘dusida idrokin toblab,
Qalb qo‘rini bor jahonga sochgan o‘zbeksan. [4.173].

Abdulla Sherning ushbu she’ri tipik an’ananing umumlashma turiga misol bo‘ladi. Chunki shoir Ulug‘bek obrazi orqali minglab o‘zbeklarni beqiyos idroki va qobiliyatini namoyon etadi. Shoir ijodida bunday she’rlar ko‘p uchraydi. Jumladan, “Abdullohlar” nomli she’rida Abdulloh poetik obrazi orqali butun bir o‘zbek qahramon yigitlarining yurt himoyasi uchun o‘z jonlarini fido qilganliklarini bayon etadi:

Ular tutdi buyuk ko‘ksini
Yurt-u iymon himoyasiga.
Hatto tarix boqar o‘ksinib
Kechmishlarning hikoyasiga. [5.436].

Ijodkor ko‘z o‘ngimizda goh donishmand qiyofasida gavdalanib, hayot, umr mazmuni haqida falsafiy mushohadalar yuritadi. Ammo uning dil rozlari oddiy pand-nasihatlar emas, balki turmush qiyinchiliklarini boshidan kechirgan, umr saboqlaridan xulosa chiqargan insonning mulohazalaridir. Tiplarning o‘ziga xosligi bevosita shoirning badiiy – estetik ideali natijasida yaratiladi. Shuning uchun ham shoir *“Osmonga bosh urgan narvondaman men”,* – deb o‘ziga xos badiiy obrazni, ya’ni individual qahramonini yaratishga muvaffaq bo‘ladi. Har qanday shoir ham bunday haqiqatni Abdulla Sher kabi aytmaydi.

Kirib kelayotgan karvonda emas,
Ketib borayotgan karvondaman men,
Pastda qolib ketdi yerdagi havas,
Osmonga bosh urgan narvondaman men [6.460].

Natija va muhokama. Abdulla Sher ijodining o‘ziga xos jihati va undagi qahramonlar obrazi haqida adabiyotshunos Vohid Zohidov shunday e’tirof etadi: “Abdulla Sher cho‘ng sharafli ishni quruq deklaratsiya, baqirish-qichqirish yo‘li va vositalar bilan qilmaydi, aksincha, aksaran masalaning nihoyat darajada jiddiy hamda muhim ekanligini ko‘zda tutgan holda, konkret faktlarga asoslangan va hayotiy situatsiyalar yaratgan holda amalga oshirishga harakat qiladi, ham o‘quvchining nozik didini, emotsiyasini, murakkab hissiyotini hisobga olishga, ham hayot mavjud bo‘lgan va she’r bilan tasvirlangan, tipiklashtirilgan qahramonning ichki olamini bosiqlik bilan ochishga intilgan holda bajaradi”. [7.425].

Ushbu fikrini ta’kidlagan holda, Abdulla Sher lirikasini chuqurroq tahlil qilamiz. Shoir o‘z ijodida lirikaning nozik tomonlarini his qilgan holda, insonlarning yashash tarzini ifodalaydi va hayot to‘g‘risidagi falsafiy qarashlarini satrlarda aks ettiradi:

Lekin inson “Olam sarvari
Menman!“, – deya umrin boshlaydi
Va “But bo‘lsin dunyoda bari!”
Deb, bir umr chala yashaydi.[8.23].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda shoir bir inson obrazi orqali butun insoniyat turmush tarzini, uning ruhiyatini aks ettiradi. Ushbu lirik qahramon timsolida faqat mehnat qilib, o‘zining huzur-halovatini unutgan o‘zbek mehnatkashining tipik obrazini yaratadi. Demak, lirik qahramon misolida ijtimoiy hayot qonuniyatlarini anglaymiz va bu obraz turmushdagi real, ijtimoiy, psixologik tip sifatida butun insonlarning ruhiyatini, o‘y-fikrini ifodalaydi. Bu obrazda favqulodda ahamiyatga ega bo‘lgan, lekin inson mohiyatining asosiy, muayyan, tarixiy xususiyatlarini umumlashtiriladi. Bu obraz inson umumlashma darajasining topos ko‘rinishiga xosdir, chunki inson obrazi she’riyatda ko‘p marotaba takrorlanuvchi obrazlar sarasiga kiradi.

Ijodkor qaysi davrdan yashashidan qat’iy nazar, o‘z ijodida davr va zamonga xos qahramonlar obrazini gavdalantiradi. Abdulla Sher hayot haqidagi fikrlarini, undan olgan taassurotlarini o‘zi yaratgan obrazlar yashash tarzi, xulq-atvori, o‘y-fikrlari, kechinmalari va ruhiyatlariga singdiradi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Норматов У. Ёшлар ҳақида ўйлар. – Ўзбекистон маданияти, 1975 йил 12 июль – № 56 сон.
2. Абдулла Шер. Куртакларга беркинган баҳор: Шеърлар.“Шукрона” – Тошкент: O‘zbekiston, 2016. Б.8 ABDULLA %20SHER %20IJODI/ Абдулла% 20Шер%20АСАРЛАРИ/Kurtaklarga%20berkingan%20bahor.pdf
3. Ҳайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. – Тошкент: Ўқитувчи,
1993. – Б.129.
4. Абдулла Шер. Танланган асарлар. Ўзбек. Шеърлар, достонлар. – Тошкент: Sharq, 2021. – Б.173
5. Абдулла Шер.Танланган асарлар. Абдуллоҳлар. Шеърлар, достонлар. – Тошкент: Sharq, 2021. – Б.436
6. Абдулла Шер. Танланган асарлар. Кириб келаётган. Шеърлар, достонлар.–Тошкент: Sharq, 2021.–Б.460.
7. Зоҳидов В.Жаҳон адабиёти зарварақлари.–Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат,1980.–Б. 425.
8. Абдулла Шер. Танланган асарлар: “Одам”. Шеърлар, достонлар. – Тошкент: Sharq, 2021. – Б.23

Aribjanova Umida Abdurashitovna
Andijon davlat universiteti Psixologiya va pedagogika kafedrasi
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'SMIRLARDA DAXLDORLIK FAZILATINING NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'smirlar davrida daxldorlik fazilatining psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Daxldorlik - shaxsning o'zini muayyan guruh, jamoa yoki ijtimoiy tizimning muhim qismi sifatida his qilishi bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixologik jarayondir. Tadqiqotda o'smirlik davrida mazkur fazilatning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar - oila muhitining roli, tengdoshlar bilan munosabatlar, maktab muhitining psixologik iqlimi va shaxsning emotsional barqarorligi kabi aspektlar yalpi o'rganilgan. Maqola o'smirlarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi va identitet shakllanishida daxldorlik hissining ahamiyatini yoritib beradi.*

Kalit so'zlar: *o'smirlik, daxldorlik hissi, ijtimoiy identitet, psixologik rivojlanish, tengdoshlar guruhi, emotsional barqarorlik.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ЧУВСТВА ПРИНАДЛЕЖНОСТИ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В данной статье анализируются психологические особенности проявления чувства принадлежности у подростков. Принадлежность рассматривается как сложный психологический процесс, связанный с ощущением себя важной частью определённой группы, сообщества или социальной структуры. В исследовании изучены факторы, влияющие на формирование данного качества в подростковом возрасте: роль семейной среды, отношения со сверстниками, психологический климат школы и эмоциональная устойчивость личности. Статья подчёркивает значимость чувства принадлежности для социальной адаптации подростков и формирования их идентичности.*

Ключевые слова: *подростковый возраст, чувство принадлежности, социальная идентичность, психологическое развитие, группа сверстников, эмоциональная устойчивость.*

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE MANIFESTATION OF ADOLESCENTS' SENSE OF BELONGING

Annotatsion. *This article examines the psychological characteristics of adolescents' sense of belonging. Belongingness is understood as a complex psychological process associated with an individual's perception of being an important part of a group, community, or social structure. The study explores key factors influencing the development of belongingness during adolescence, including the role of family environment, peer relationships, school psychological climate, and emotional stability. The article highlights the importance of belongingness for adolescents' social adaptation and identity formation.*

Key words*: adolescence, sense of belonging, social identity, psychological development, peer group, emotional stability.*

Adolesentsiya - inson hayotidagi muhim va murakkab bosqich bo'lib, jismoniy, hissiy, kognitiv va ijtimoiy o'zgarishlar bilan kechadi. Ushbu davrda shaxsiyatning asosiy elementlari - o'zini anglash, o'ziga nisbatan munosabatlar va ijtimoiy identifikatsiya - faollashadi va qayta shakllanadi. Ayniqsa, daxldorlik (belongingness) hissi adolesentning psixologik salomatligi, ijtimoiy moslashuvi va identitet shakllanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Daxldorlik - bu insonning ma'lum bir guruh, oilaviy yoki ijtimoiy muhit tarkibiy qismi ekanligini his etishi, qabul qilinishi va muhim hisoblanishi tajribasidir.

So'nggi o'n yilliklarda psixologiya va pedagogika fanlarida daxldorlik mavzusi atrofida faol ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tadqiqotlar daxldorlik hissi yuqori bo'lgan o'smirlar o'zaro

munosabatlarda ishonchli, yuqori emotsional barqarorlikka ega va maktab muvaffaqiyati ham yuqoriroq ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, daxldorlik hissining zaifligi ijtimoiy chetlatilish, depressiv holatlar, xavotir va antisotsial xulqlarga olib kelishi mumkinligi ta’kidlanadi. Shuning uchun mazkur mavzuni o‘rganish nafaqat nazariy ahamiyatga, balki amaliy ta’sirga ham ega - oilaviy, maktab va psixologik-ma’naviy qo‘llab-quvvatlash dasturlarini shakllantirishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek jamiyatida va milliy ta’lim tizimida adolesentlarning ijtimoiy identiteti va daxldorlik tuyg‘usini shakllantirishga oid o‘ziga xos omillar mavjud. Oilaviy strukturadagi o‘zgarishlar, urbanizatsiya, ta’lim standartlari hamda raqamli muloqot vositalarining keng tarqalishi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni va o‘smirlarning guruhga qo‘shilish tajribasini o‘zgartirmoqda. Shu sababli, mazkur tadqiqot o‘smirlarning daxldorlik fazilatining psixologik xususiyatlarini milliy va madaniy kontekstni inobatga olgan holda tahlil etishni maqsad qilgan.

Ushbu maqolaning maqsadi - adolesentsiya davrida daxldorlik hissining psixologik tarkibi va unga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash, shuningdek, uning ijtimoiy-psixologik natijalari va amaliy tavsiyalarni taqdim etishdir. Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilar:

Daxldorlik tushunchasining nazariy asoslarini tahlil qilish va adolesentlar kontekstida uning komponentlarini aniqlash.

Oila, tengdoshlar guruhi va maktab muhitining daxldorlik hissiga ta’sirini o‘rganish.

Emotsional barqarorlik, o‘z-o‘zini qadrlash va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash kabi psixologik omillar bilan daxldorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni empirik jihatdan aniqlash.

Milliy va madaniy omillarni hisobga olgan holda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotda quyidagi tadqiqiy savollarga javob izlanadi:

- Qaysi psixologik komponentlar o‘smirlarning daxldorlik hissini eng ko‘p aniqlaydi?

- Oila va tengdoshlar munosabatlarining qanday xususiyatlari daxldorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi?

- Daxldorlik hissining yuqoriligi adolesentlarning maktabdagi ijtimoiy moslashuvi va emotsional barqarorligiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

Nazariy-asos sifatida maqolada ijtimoiy identiklik nazariyasi, ijtimoiy almashinuv nazariyasi va rivojlanish psixologiyasining asosiy tamoyillari qo‘llanadi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida kvantitativ va sifatli usullar - so‘rovnomalar, psixometrik testlar va fokus-guruh intervyulari kombinatsiyasi ishlatilishi rejalashtirilgan.

O‘smirlik davri shaxs rivojlanishining eng dinamik bosqichlaridan biri bo‘lib, unda ijtimoiy identifikatsiya va o‘zini jamiyatning muhim a’zosi sifatida his etish jarayoni jadallashadi. So‘nggi yillarda jamiyatda ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, oilaviy muhitning transformatsiyasi, axborot texnologiyalari ta’sirining kuchayishi, o‘smirlarning muloqot uslublari va ijtimoiy munosabatlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, raqamli muloqotning kengayishi o‘smirlarning real guruhlarga tegishli ekanlik hissini zaiflashtirishi yoki aksincha, virtual guruhlar orqali kuchaytirishi mumkin. Bu esa daxldorlik fazilatining mazmunini qayta ko‘rib chiqishni va uning psixologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilishni talab etadi.

O‘zbekiston jamiyatida oila - o‘smirning birlamchi ijtimoiylashuv instituti sifatida eng muhim omil bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, maktabdagi psixologik muhit, tengdoshlar guruhi bilan o‘zaro munosabatlar, o‘qituvchining qo‘llab-quvvatlovchi yondashuvi o‘smirlarning daxldorlik hissi shakllanishiga bevosita ta’sir qiladi. Bu jarayonning buzilishi hissiy beqarorlik, ijtimoiy chetlanish, tajovuzkorlik va boshqa deviant xulq-atvorlar ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin. Shuning uchun o‘smirlarning daxldorlik hissini aniqlash, uni shakllantiruvchi omillarni o‘rganish va psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish hozirgi davrning dolzarb ilmiy-amaliy vazifasidir.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, o‘smirlarning daxldorlik hissi ularning psixologik farovonligi, ijtimoiy moslashuvi, shaxs sifatida barqaror o‘sishi va ijtimoiy integratsiyasida markaziy o‘rin tutadi. Ayniqsa, ta'lim tizimida sog‘lom psixologik iqlim yaratish, o‘quvchilarda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish va ijobiy muloqotni rag‘batlantirish uchun mazkur sifatni chuqur o‘rganish zarur.

H. Tajfel, J. Turnerlarning shaxs nazariyasida shaxsning o‘zini ma’lum bir ijtimoiy guruhga tegishli deb bilishi va shu tegishlilik orqali o‘zini anglash jarayonlarini tushuntiradi. Ushbu nazariyaga

ko‘ra, o‘smirlar o‘z guruhlari - sinf, do‘stlar davrasi, oilaviy muhit yoki onlayn jamoalar orqali o‘zlarining “men kimman?” degan savoliga javob topadilar[1]. Daxldorlik hissi aynan shu guruhga mansublik orqali shakllanadi. Guruh tomonidan qabul qilinish, hurmat va qo‘llab-quvvatlanish shaxsning o‘zini qadrlash, ijtimoiy ishonch va emotsional barqarorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Gumanistik psixologiya insonning o‘zini namoyon qilishi, shaxs sifatida o‘sishi va psixologik farovonligini tushuntiruvchi yondashuvdir. Maslou tomonidan ishlab chiqilgan ehtiyojlar ierarxiyasi modelida “tegishlilik va muhabbat” ehtiyoji insonning asosiy psixologik ehtiyojlaridan biri sifatida ko‘rsatiladi. A. Maslowning fikricha, inson o‘zini guruhning muhim a’zosi sifatida his qilmasa, yuqori darajadagi ehtiyojlar - o‘zini hurmat qilish va o‘z-o‘zini amalga oshirish - to‘liq shakllanmaydi[2].

C. Rogersning gumanistik yondashuvi esa shaxsning rivojlanishida qabul qilinish (unconditional positive regard) va haqiqiy ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning roliga urg‘u beradi. O‘smirlar agar atrofdagilar tomonidan qabul qilinganini his qilsa, o‘zini erkin ifodalashga, ijobiy o‘sishga va ijtimoiy barqarorlikka ega bo‘ladi[3].

Rivojlanish psixologiyasi o‘smirlik davrida sodir bo‘ladigan kognitiv, emotsional va ijtimoiy o‘zgarishlarni o‘rganadi. Ushbu davrda shaxs o‘zini anglash, mustaqillik, identitet va ijtimoiy moslashuv kabi muhim jarayonlardan o‘tadi. Eriksonning psixososial rivojlanish modeliga ko‘ra, o‘smirlikda “shaxsning o‘zini anglash” bosqichidir[4]. Shu jarayonda o‘smirning tengdoshlar guruhi bilan bo‘lgan munosabati, ularga moslashuvi, ular tomonidan qabul qilinishi yoki rad etilishi daxldorlik hissining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

U.Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi shaxs rivojlanishini bir necha ijtimoiy tizimlar o‘zaro ta’siri orqali tahlil qiladi. Ushbu tizimlar mikro (oila, maktab, do‘stlar), mezo (oila–maktab aloqalari), ekzosoha (ota-onaning ish muhiti, mahalla), makrosoha (milliy qadriyatlar, madaniyat) va xronosohani o‘z ichiga oladi[5]. O‘smirning daxldorlik hissi aynan shu tizimlarning har birida shakllanadi: oilada qo‘llab-quvvatlash bo‘lsa, maktabda psixologik iqlim qulay bo‘lsa va tengdoshlar guruhi uni qabul qilsa, o‘smirda ijobiy ijtimoiy identitet vujudga keladi.

Daxldorlik hissi yoshlarning ruhiy farovonligi uchun asosiy omillardan biridir. O‘zini qabul qilingan, qo‘llab-quvvatlangan his qiluvchi o‘smirlar:

- kamroq ijtimoiy izolyatsiya va yolg‘izlik tajribasini boshdan kechiradi;
- xavotir, depressiya va stress belgilariga chidamliligi yuqori bo‘ladi;
- o‘z-o‘zini qadrlash va emotsional barqarorlik darajasi baland bo‘ladi.

Aksincha, daxldorlikning zaifligi ijtimoiy chetlanish, ruhi tushkunlik, past baholash va hatto deviant xulqiyatga (guruh bosimi ostida salbiy xulq) olib kelishi mumkin. Shu bois, ruhiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlash dasturlarida daxldorlikni mustahkamlovchi chora-tadbirlar muhim o‘rin egallaydi va psixologik barqarorlik va ruhiy salomatlik keltiradi.

Ijtimoiy integratsiya va sotsializatsiya jarayonida daxldorlik hissi o‘smirning jamiyatga moslashuvi va sotsial rolini qabul qilishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. U shaxsga:

- ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlarni o‘zlashtirish imkonini beradi;
- o‘z-o‘rnini aniqlash va mas’uliyatni qabul qilishga turtki beradi;
- guruh ichida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tarmog‘ini shakllantiradi.

Natijada, ijtimoiy integratsiya kuchli bo‘lgan o‘smirlar fuqarolik faoliga, akademik muvaffaqiyatga va ijobiy ijtimoiy xulqqa ko‘proq yo‘naltiriladi.

Ta’lim va akademik muvaffaqiyatda maktab muhitida daxldorlik tuyg‘usi o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini va maktabda qolish istagini oshiradi. O‘quvchilar o‘zlarini sinf va maktab jamiyatining qabul qilingan a’zosi sifatida his qilsa, ular:

darslarda faol ishtirok etishga moyil bo‘ladi;

o‘zaro hamkorlik va guruh ishlari samaradorligi oshadi;

akademik muvaffaqiyat va sinfdan tashqari ijtimoiy faoliyatlarda qatnashish ko‘proq kuzatiladi.

Shuning uchun ta’lim siyosatida inklyuziv, do‘stona va xavfsiz maktab muhitini yaratish daxldorlikni oshirish uchun strategik vazifa hisoblanadi.

Oilaning roli va oila-kontekstida oila - o‘smirlarning birlamchi ijtimoiy muhitidir va daxldorlik hissining shakllanishida asosiy omil hisoblanadi. Ota-ona bilan iliq, ishonchli va qo‘llab-quvvatlovchi munosabatlar:

- o‘smirga o‘zini qabul qilingan deb his qilish imkonini beradi;
- tengdosh guruhlar bilan sog‘lom munosabatlarni o‘rnatishda asos bo‘ladi;

- konfliktlarni hal qilish va emotsional stressni yengishda resurs vazifasini o‘taydi.

Shuning uchun oilada e’tibor, qat’iy lekin adolatli cheklovlar va erkin muloqot daxldorlik tuyg‘usini mustahkamlaydi.

Tengdoshlar bilan munosabatlar o‘smirlar uchun identitet shakllanishida markaziy ahamiyatga ega. Tengdoshlarning qabul qilishi yoki rad etishi daxldorlik hissini bevosita belgilaydi. Shu bilan birgalikda, onlayn jamoalar va ijtimoiy tarmoqlar quyidagi ikki tomonlama ta’sirni ko‘rsatadi. Ijobiy tomon: qiziqishlarga asoslangan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, identifikatsiya imkoniyatlari va yangi do‘stliklar. Salbiy tomonidan esa kiberbullying, haqiqiy hayotdagi ijtimoiy aloqalarni zaiflashtirish va noto‘g‘ri o‘z-o‘zini solishtirish (social comparison) natijasida daxldorlikning zaiflashuvi yuzaga keladi. Shuning uchun ta’lim va oilaviy tarbiyada onlayn muhitni xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi tarzda boshqarish muhim.

Madaniy va ijtimoiy-kontekstning roli orqali milliy an’analar, madaniy qadriyatlar va jamiyatning ijtimoiy tuzilishi o‘smirlarning daxldorlik tuyg‘usini shakllantiradi. Masalan, kollektivizm kuchli ijtimoiy bog‘lanishni rag‘batlantirsa, individualistik jamiyatlarda shaxsiy erkinlik va mustaqillik qadrlanishi o‘smirlarning guruhga qo‘shilish uslubini o‘zgartiradi. Shu sababli, mamlakatimiz kontekstida oilaviy qadriyatlar, mahalliy hamjamiyatlar va maktab an’analari daxldorlikni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Davlat siyosati va jamiyatdagi mexanizmlar orqali daxldorlik hissini qo‘llab-quvvatlash - nafaqat pedagogik yoki oilaviy vazifa, balki davlat va jamiyat siyosatining ham obyekti bo‘lishi lozim. Bunga ta’lim siyosatida inkluzivlik va psixologik xizmatlarni rivojlantirish, mahalla va jamoat tashkilotlari orqali yoshlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ruhiy salomatlik xizmatlari va psixologik yordam dasturlarini kengaytirish, onlayn xavfsizlik va kiberbullyingga qarshi chora-tadbirlarni joriy etish sifatida qaraladi. Bunday tizimli yondashuv o‘smirlarning sog‘lom ijtimoiy integratsiyasini ta’minlaydi.

Ijtimoiy rivojlanish va kelajak liderlari daxldorlik hissi kuchli bo‘lgan yoshlar ijtimoiy mas’uliyatni o‘z zimmalariga olishga, jamoat faoliyatlarida ishtirok etishga va yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga moyil bo‘ladi. Shu bois, jamiyat uchun bu yosh avlodning integratsiyalashuvi ijtimoiy barqarorlik, fuqarolik faolligi va ijtimoiy sarmoyaga aylanishi mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugungi kunda o‘smirlarda daxldorlik hissi nafaqat individual psixologik holatni belgilovchi omil, balki jamiyatning barqarorligi, ijtimoiy integratsiyasi va kelajakdagi ijtimoiy yetakchilik resursi hisoblanadi. Uning mustahkamligi oilaviy, maktab va keng ijtimoiy tizimlarning o‘zaro uyg‘un siyosati orqali ta’minlanadi. Shu bois, tadqiqot va amaliy ishlar daxldorlikni shakllantirish va qo‘llab-quvvatlashning kontekstga mos, ilmiy asoslangan mexanizmlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilishi zarur.

Tavsiya sifatida shuni aytish mumkinki, maktablarda inklyuziv ta’lim va ijtimoiy-emotsional o‘qitish dasturlarini joriy etish, ota-onalar uchun oilaviy kommunikatsiya va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha treninglar tashkil etish, mahalla va jamoat markazlarida yoshlar uchun ijtimoiy loyihalar va guruh faoliyatlarini rag‘batlantirish, onlayn xavfsizlik, kiberbullyingga qarshi profilaktika va raqamli madaniyatni oshirish va psixologik xizmatlar va maslahat markazlarini maktab va qishloq joylarda kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Tajfel H., Turner J. C. An integrative theory of intergroup conflict // The Social Psychology of Intergroup Relations. – Monterey : Brooks/Cole, 1979. – P. 33–47.
2. Maslow A. H. A theory of human motivation // Psychological Review. – 1943. – Vol. 50, № 4. – P. 370–396.
3. Rogers C. R. A Way of Being. – Boston : Houghton Mifflin, 1980. – 395 p.
4. Erikson E. H. Identity: Youth and Crisis. – New York : Norton, 1968. – 336 p.
5. Bronfenbrenner U. Making Human Beings Human: Bioecological Perspectives on Human Development. – Thousand Oaks : Sage, 2005. – 300 p.

Djalilova Sarvaroy Mexrojovna
Samarqand davlat chet tillar instituti, ispan tili o‘qituvchisi PhD

СОМАТИЗМЫ ИСПАНСКОГО ЯЗЫКА КАК ОТРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. *В статье рассматриваются соматизмы испанского языка - фразеологические единицы, основанные на названиях частей человеческого тела. Автор исследует их лингвокультурную природу, семантическую специфику и роль в отражении испанского мировоззрения. Анализируется, как телесные метафоры формируют культурный код, передавая моральные, эмоциональные и поведенческие особенности испанской нации.*

Ключевые слова: *соматизм, фразеологизм, испанский язык, культура, метафора, национальный менталитет.*

ISPAN TILIDAGI SOMATIZMLAR: MILLIY MADANIYATNI AKS ETTIRUVCHI TIL BIRLIGI

Annotatsiya. *Maqolada ispan tilidagi somatizmlar - inson tanasining qismlari bilan bog‘liq frazeologik birliklar lisoniy va madaniy jihatdan tahlil qilinadi. Somatizmlar orqali ispan xalqi tafakkuri, qadriyatlari va mentaliteti namoyon bo‘lishi ko‘rsatiladi. Tanaga oid obrazlar ispan madaniyatida nafaqat jismoniy, balki ruhiy, axloqiy holatlarni ifodalovchi madaniy kod sifatida izohlanadi.*

Kalit so‘zlar: *somatizm, frazeologizm, ispan tili, milliy madaniyat, metafora, madaniy kod.*

SPANISH SOMATISMS AS A REFLECTION OF NATIONAL CULTURE

Annotation. *The article explores Spanish somatisms - idiomatic expressions based on human body parts. The author analyzes their linguistic and cultural aspects, showing how they reflect the Spanish worldview, mentality, and system of values. Somatic metaphors are viewed as a means of encoding cultural meanings and emotional experiences in the Spanish language.*

Key words: *somatism, idiom, Spanish language, culture, metaphor, national identity.*

Изучение соматизмов как лингвокультурных единиц представляет собой одно из наиболее перспективных направлений современной лингвистики. Соматизмы, то есть слова и выражения, основанные на наименованиях частей тела, занимают особое место в языковой системе, поскольку они отражают не только физиологическое восприятие человека, но и его культурные, ментальные и исторические особенности. В испанском языке соматизмы формируют богатый пласт лексики, в котором проявляется своеобразие национального мировидения, характер испанцев, их традиции, ценности и социальные стереотипы.

Испанская культура, отличающаяся экспрессивностью, эмоциональностью и развитой коммуникативной традицией, широко использует соматические метафоры для выражения чувств, оценок, социальных ролей и поведения. Такие языковые единицы служат не только средством номинации, но и важным инструментом формирования культурного кода, передаваемого из поколения в поколение. Через соматизмы раскрываются особенности восприятия мира испаноязычными народами, их национальная психология, этнокультурные нормы и символические представления.

Актуальность исследования соматизмов испанского языка обусловлена необходимостью глубокого понимания языковой картины мира, межкультурной коммуникации и особенностей национальной идентичности. Анализ данных лексических единиц позволяет выявить специфику испанского менталитета, установить связь между языком и культурой, а также расширить представления о механизмах формирования метафорических моделей в романских языках. Таким образом, изучение соматизмов способствует не только более точному пониманию семан-

тики испанского языка, но и формированию более широкого лингвокультурного контекста, необходимого для переводческой практики, обучения иностранным языкам и межкультурного взаимодействия.

В современном языкознании растёт интерес к исследованию соматизмов - фразеологических единиц, в которых присутствуют названия частей человеческого тела. Эти выражения не только отражают особенности языка, но и демонстрируют национально-культурное восприятие человека и мира. В испанском языке соматизмы являются ярким примером того, как телесные образы становятся носителями моральных, социальных и эмоциональных смыслов [García, 2015, с. 42].

Соматизмы можно рассматривать как «зеркало культуры», поскольку через тело человек осмысливает себя и окружающий мир [López, 2018, с. 133]. Испанская фразеология богата подобными выражениями, и каждое из них несёт отпечаток народной психологии, религии и повседневной жизни.

Термин «соматизм» происходит от греческого soma - «тело». В лингвистике он обозначает слова или выражения, в состав которых входят наименования частей тела (mano, ojo, corazón, cabeza и др.) [Salazar, 2017, с. 45]. Такие единицы обычно имеют переносное значение, формирующееся на основе метафоры. Например, в выражении tener buen ojo («иметь хороший глаз») слово ojo символизирует проницательность, а не орган зрения.

Соматизмы тесно связаны с когнитивной картиной мира, так как через телесный опыт человек воспринимает окружающую действительность. Согласно А. Б. Каримову, «тело - это универсальная метафора, посредством которой культура описывает чувства, мысли и моральные нормы» [Каримов, 2020, с. 112]. В испанской лингвокультуре тело выполняет функцию посредника между внутренним и внешним миром, между духовным и материальным.

В испанском языке существует более 500 устойчивых выражений, связанных с частями тела [Fernández, 2020, с. 211]. Они используются в самых разных контекстах: в быту, в литературе, в политической и религиозной речи. Соматизмы отражают не только языковое творчество, но и культурную философию испанцев - открытость, эмоциональность и уважение к человеческому опыту.

Испанская культура, обладая богатой историей и сильным влиянием католицизма, создала особую систему символов, где тело рассматривается как «храм души». Например, выражение abrir el corazón («открыть сердце») означает искренность и доверие, тогда как cerrar el corazón («закрыть сердце») - эмоциональную холодность [Salazar, 2017, с. 89].

Эти метафоры основаны на традиционных христианских представлениях о сердце как об источнике добродетели и чувств.

В других случаях тело выступает в роли инструмента социального поведения. Так, выражение tener mano izquierda («иметь левую руку») означает умение дипломатично решать конфликты. Здесь тело используется как культурный код: левая сторона ассоциируется с тонкостью, гибкостью и умением избегать прямых столкновений [García, 2015, с. 58].

Интересно, что многие испанские соматизмы имеют эмоционально-оценочную направленность. Например, perder la cabeza («потерять голову») символизирует потерю контроля над собой, а meter la pata («сунуть ногу») - совершить ошибку или бестактность. Эти выражения демонстрируют эмоциональную экспрессию испанской речи, характерную для нации с ярко выраженной чувственностью [López, 2018, с. 137].

Исследования испанских фразеологов подтверждают, что соматизмы не случайны: каждый элемент тела имеет определённую культурную нагрузку. Глаза (ojos) связаны с восприятием истины, руки (manos) - с действием и властью, сердце (corazón) - с чувствами, а голова (cabeza) - с разумом и лидерством [Fernández, 2020, с. 214].

Соматизмы можно рассматривать как проявление испанского менталитета, в котором доминируют экспрессия, эмоциональность и непосредственность. В отличие от североевропейских культур, где тело чаще воспринимается как граница, в испанской традиции оно - посредник между личностью и обществом [Moreno, 2016, с. 74].

Например, выражение sacar pecho («выпятить грудь») в испанском языке означает гордость и самоуважение. Это образ типичного испанца, открыто демонстрирующего уверенность.

Фраза no tener pelos en la lengua («не иметь волос на языке») выражает прямоту и честность - качества, ценимые в испанском обществе [Salazar, 2017, с. 90].

Кроме того, соматизмы тесно связаны с гендерными и социальными аспектами культуры. Женские образы часто ассоциируются с сердцем и глазами (чувства, интуиция), тогда как мужские - с руками и головой (сила, власть, разум). Эта символика находит отражение и в испанской литературе, например, в произведениях Г. Гарсиа Маркеса и Ф. Лорки, где тело становится носителем духовной борьбы [García Márquez, 1982, с. 117].

С точки зрения когнитивной лингвистики, соматизмы представляют собой устойчивые концептуальные метафоры, основанные на универсальном опыте человеческого тела, но окрашенные национальной культурой. Как отмечает М. Сафарова, «через телесные образы человек конструирует язык чувств, а язык - кодирует эмоции культуры» [Сафарова, 2019, с. 57].

Таким образом, телесные метафоры испанского языка - это не просто фигуры речи, а способ осмысления мира через человеческий опыт. Они выражают то, как испанцы воспринимают жизнь: через эмоции, сердце, движение и взаимодействие с другими.

Соматизмы испанского языка являются важнейшим элементом национальной лингвокультуры. Они формируют образ человека в испанском мировосприятии - эмоционального, открытого, духовно богатого. Через телесные метафоры испанцы выражают не только внутренние состояния, но и социальные нормы, этические принципы и культурные ценности.

Изучение соматизмов позволяет глубже понять национальный менталитет и особенности испанской языковой картины мира. Эти выражения служат своеобразным «культурным зеркалом», отражающим как универсальные человеческие чувства, так и специфически испанские черты - страстность, искренность и живость восприятия.

Список использованной литературы.

1. García F. S. La metáfora corporal en el idioma español. – Madrid: Ediciones Lingüísticas, 2015. – 124 p.
2. Salazar P. M. Cultura y cuerpo en la fraseología española. – Sevilla: Universidad de Sevilla Press, 2017. – 176 p.
3. López M. G. El cuerpo como símbolo en el lenguaje español. – Barcelona: Ariel Lingüística, 2018. – 204 p.
4. Fernández V. I. Aspectos cognitivos de las expresiones somáticas. – Madrid: Universidad Complutense, 2020. – 223 p.
5. Moreno J. L. Lengua y mente en la cultura española. – Madrid: Espasa, 2016. – 198 p.
6. García Márquez G. Cien años de soledad. – Buenos Aires: Sudamericana, 1982. – 471 p.
7. Каримов А. Б. Язык и культура: когнитивные аспекты взаимодействия. – Ташкент: Fan va texnologiya, 2020. – 216 с.
8. Сафарова М. Лингвокультурные аспекты телесной метафоры в современном языке. – Самарканд: SamDCHTI, 2019. – 142 с.

Abdiholiqov Beknurjon Alisher o‘g‘li
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: beknurnasaf94@gmail.com

JAMOAVIY O’ZIGA ISHONCH FENOMENI PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR PREDMETI SIFATIDA

Annotatsiya*. Mazkur maqolada jamoaviy o‘ziga ishonch fenomeni psixologik tadqiqotlarning alohida predmetidir. Jamoaviy o‘ziga ishonch – bu nafaqat alohida individning o‘z qobiliyatlariga bo‘lgan ishonchi, balki butun jamoaning umumiy psixologik iqlimini belgilovchi, jamoaviy faoliyat samaradorligini oshiruvchi muhim ijtimoiy-psixologik hodisadir. Ushbu mavzuda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jamoaviy ishonch o‘zaro muloqotning ochiqligi, maqsadlarning umumiyligi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va emotsional uyg‘unlik orqali shakllanishi bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *jamoaviy o‘ziga ishonch, psixologik fenomen, ijtimoiy psixologiya, motivatsiya, kommunikatsiya, emotsional uyg‘unlik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy iqlim.*

ФЕНОМЕН ГРУППОВОЙ САМОУВЕРЕННОСТИ КАК ПРЕДМЕТ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация. *В данной статье рассматривается феномен коллективной уверенности в себе как отдельный предмет психологического исследования. Коллективная уверенность в себе – это не только уверенность индивида в своих силах, но и важный социально-психологический феномен, определяющий общий психологический климат всего коллектива, повышая эффективность коллективной деятельности. Исследования по данной теме показывают, что коллективное доверие формируется посредством открытости общения, общности целей, социальной поддержки и эмоциональной гармонии.*

Ключевые слова: *коллективная уверенность в себе, психологический феномен, социальная психология, мотивация, общение, эмоциональная гармония, социальная поддержка, социальный климат.*

THE PHENOMENON OF GROUP SELF-CONFIDENCE AS A SUBJECT OF PSYCHOLOGICAL RESEARCH

Abstract. *In this article, the phenomenon of collective self-confidence is a separate subject of psychological research. Collective self-confidence is not only the confidence of an individual in his own abilities, but also an important socio-psychological phenomenon that determines the general psychological climate of the entire team, increasing the effectiveness of collective activity. Research on this topic shows that collective trust is formed through openness of communication, common goals, social support and emotional harmony.*

Key words: *collective self-confidence, psychological phenomenon, social psychology, motivation, communication, emotional harmony, social support, social climate.*

Jamoaviy o‘ziga ishonch fenomeni psixologiyada murakkab va ko‘p qirrali hodisa sifatida qaraladi. U shaxslarning individual o‘ziga ishonchi bilan jamoaning ijtimoiy-psixologik dinamikasi o‘rtasidagi o‘zaro aloqada shakllanadi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jamoaviy o‘ziga ishonch nafaqat individual subyektlarning psixologik tayyorgarligini oshiradi, balki jamoaning umumiy maqsadlarga erishish motivatsiyasini ham kuchaytiradi. Bunday ishonch mavjud bo‘lgan jamoalarda ijtimoiy moslashuv yuqori, stressga bardoshlilik kuchli va muammolarni hal etish jarayoni tezroq kechadi. Jamoaviy o‘ziga ishonchning psixologik mexanizmlari ichki motivatsiya, qo‘llab-quvvatlovchi kommunikatsiya, o‘zaro ishonch va psixologik xavfsizlik muhitining mavjudligi bilan belgilanadi.

Shu bilan birga, jamoaviy o‘ziga ishonch fenomeni guruh rivojlanishining turli bosqichlarida turlicha namoyon bo‘ladi. Boshlang‘ich bosqichlarda u ko‘proq yetakchi shaxslar ta’siri va tashqi rag‘batlantiruvchi omillar orqali shakllansa, rivojlangan bosqichlarda jamoaning o‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyati, a’zolar o‘rtasidagi o‘zaro mas’uliyat va mustaqil qaror qabul qilish jarayonlari asosiy rol o‘ynaydi. Psixologik tadqiqotlarda shuningdek, jamoaviy o‘ziga ishonchning individual psixologik ko‘rsatkichlar bilan – emotsional barqarorlik, ijtimoiy ekstroversiya, altruistik xulq va empatiya bilan ijobiy bog‘liqligi qayd etilgan.

Amaliy jihatdan qaralganda, jamoaviy o‘ziga ishonchni oshirish bo‘yicha psixologik treninglar, teambuilding mashg‘ulotlari, rolli o‘yinlar va refleksiya sessiyalari samarali hisoblanadi. Bunday tadbirlar natijasida jamoa a’zolari bir-birini chuqurroq tushunishga, umumiy maqsadlarga mas’uliyatliroq qarashga va birgalikda qaror qabul qilishga o‘rganadi. Bu esa jamoaviy faoliyat samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jamoaviy o‘ziga ishonchning mavjudligi innovatsion faollik, ijodiy tashabbus va ijtimoiy barqarorlikni rivojlantirishda ham muhim omil sifatida qaralishi mumkin. Shu bois, ushbu fenomen zamonaviy psixologik tadqiqotlarning muhim predmetlaridan biri bo‘lib, u nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Mazkur mavzuni o‘rganish orqali o‘quvchilar nafaqat algebraik masalalarni yechishga, balki amaliyotda uchraydigan turli muammolarni matematik modellashtirish va hal qilishga ham tayyorlanadilar. Shuning uchun bu mavzu o‘quv jarayonida katta ahamiyatga ega.

Tadqiqot materiallari va usullari. Ikkinchi darajali tenglamalar sistemasini yechishning quyidagi usullari mavjud:

1. Tenglamalar sistemasini yechishning algebraik qo‘shish va almashtirish usuli.
2. Tenglamalar sistemasini yechishning yordamchi o‘zgaruvchi kiritish usuli.
3. Tenglamalar sistemasini yechishning "sun’iy" usuli.

1-misol.Tenglamalar sistemasini yeching.

$$\begin{cases} 2x^2-3xy+2y^2=16 \\ x^2+xy-y^2=20 \end{cases}$$

Yechish.

$$\begin{cases} 2x^2-3xy+2y^2=16 \mid \cdot 1 \\ x^2+xy-y^2=20 \mid \cdot 2 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} 2x^2-3xy+2y^2=16 \\ 2x^2+2xy-2y^2=40 \end{cases}$$

Bu sistemadagi ikki tenglamani qo‘shamiz, shunda $4x^2-xy=56$ tenglamasi hosil bo‘ladi.

$$4x^2-xy=56 \Leftrightarrow xy=4x^2-56 \Leftrightarrow y=\frac{4x^2-56}{x}.$$

Bu topilgan y ning qiymatini sistemaning ikkinchi tenglamasiga qo‘yamiz:

$$x^2+x\cdot\frac{4x^2-56}{x}-\left(\frac{4x^2-56}{x}\right)^2=20 \Leftrightarrow x^2+4x^2-56-$$

$$-\frac{16x^4-448x^2+56^2}{x^2}=20 \Leftrightarrow \begin{cases} 5x^4-56x^2-16x^4+448x^2-56^2=20x^2 \\ x\neq 0 \end{cases} \Leftrightarrow$$

$$\Leftrightarrow -11x^4+372x^2-3136=0 \mid \cdot(-1) \Leftrightarrow 11x^4-372x^2+3136=0 \Leftrightarrow \left[\begin{array}{l} x^2=\frac{196}{11} \\ x^2=16 \end{array}\right. \Leftrightarrow$$

$$\Leftrightarrow \left[\begin{array}{l} x_{1,2}=\pm\frac{14}{\sqrt{11}} \\ x_{3,4}=\pm 4 \end{array}\right.$$

$$y_{1,2}=\frac{4\cdot\frac{196}{11}-56}{\pm\frac{14}{\sqrt{11}}}=\frac{\frac{784-616}{11}}{\pm\frac{14}{\sqrt{11}}}=\frac{\frac{168}{11}}{\pm\frac{14}{\sqrt{11}}}=\pm\frac{12}{\sqrt{11}};$$

$$y_{3,4}=\frac{4\cdot 16-56}{\pm 4}=\frac{8}{\pm 4}=\pm 2;$$

Javobi. $\left\{\left(-\frac{14}{\sqrt{11}};-\frac{12}{\sqrt{11}}\right),\left(\frac{14}{\sqrt{11}};\frac{12}{\sqrt{11}}\right),(-4;-2),(4;2)\right\}.$

2-mısol. Tenglamalar sistemasin yeching.

$$\begin{cases} x^2+y^2=80 \\ xy=32 \end{cases}$$

Yechish.

$$\begin{cases} x^2+y^2=80 \\ xy=32 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x^2+y^2=80 \\ xy=32 \mid \cdot 2 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x^2+y^2=80 \\ 2xy=64 \end{cases}$$

Keyingi sistemaning tenglamalarini hadma-had qo‘shamiz, shunda $x^2+2xy+y^2=144$ tenglama hosil bo‘ladi.

Keyingi sistemaning tenglamalarini hadma-had olamiz, shunda $x^2-2xy+y^2=16$ tenglama hosil bo‘ladi.

Bu topilgan tenglamalarni sistema qilib yechamiz:

$$\begin{cases} x^2+2xy+y^2=144 \\ x^2-2xy+y^2=16 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} (x+y)^2=144 \\ (x-y)^2=16 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} |x+y|=12 \\ |x-y|=4 \end{cases}$$

1). $\begin{cases} x+y=-12 \\ x-y=-4 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} 2x=-16 \\ x-y=-4 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x=-8 \\ -8-y=-4 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x=-8 \\ y=-4 \end{cases}$

2). $\begin{cases} x+y=-12 \\ x-y=4 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} 2x=-8 \\ x-y=4 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x=-4 \\ -4-y=4 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x=-4 \\ y=-8 \end{cases}$

3). $\begin{cases} x+y=12 \\ x-y=-4 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} 2x=8 \\ x-y=-4 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x=4 \\ 4-y=-4 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x=4 \\ y=8 \end{cases}$

4). $\begin{cases} x+y=12 \\ x-y=4 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} 2x=16 \\ x-y=4 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x=8 \\ 8-y=4 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x=8 \\ y=4 \end{cases}$

Javobi. $\{(-8;-4),(-4;-8),(4;8),(8;4)\}$.

3-mısal. Tenglamalar sistemasini yeching.

$$\begin{cases} x^2+2xy-8y^2-6x+18y-7=0 \\ 2x^2-5xy-10y^2-3x+9y+7=0 \end{cases}$$

Yechish. Berilgan tenglamalar sistemasini hadma-had qo‘shamiz, shunda

$$3x^2-3xy-18y^2-9x+27y=0 \,|:3 \Leftrightarrow x^2-xy-6y^2-3x+9y=0 \Leftrightarrow$$

$$\Leftrightarrow x^2-3xy+2xy-6y^2-3x+9y=0 \Leftrightarrow x(x-3y)+2y(x-3y)-3(x-3y)=0 \Leftrightarrow$$

$$\Leftrightarrow (x-3y)(x+2y-3)=0 \Leftrightarrow \left[\begin{array}{l} x-3y=0 \\ x+2y-3=0 \end{array}\right.$$

Demak, berilgan sistema quyidagi ikki sistemaga teng kuchli bo‘ladi:

1.

$$\begin{cases} x^2+2xy-8y^2-6x+18y-7=0 \\ x-3y=0 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x^2+2xy-8y^2-6x+18y-7=0 \\ x=3y \end{cases} \Leftrightarrow$$

$$\Leftrightarrow \begin{cases} (3y)^2+2y\cdot(3y)-8y^2-6\cdot 3y+18y-7=0 \\ x=3y \end{cases} \Leftrightarrow$$

$$\Leftrightarrow \begin{cases} 9y^2+6y^2-8y^2-18y+18y-7=0 \\ x=3y \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} 7y^2-7=0 \\ x=3y \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} y^2=1 \\ x=3y \end{cases} \Leftrightarrow$$

$$\Leftrightarrow \begin{cases} y_{1,2} = \pm 1 \\ x = 3y \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} \left[\begin{array}{l} x_1 = 3 \\ y_1 = 1 \end{array}\right. \\ \left[\begin{array}{l} x_2 = -3 \\ y_2 = -1 \end{array}\right. \end{cases}$$

2.

$$\begin{cases} x^2 + 2xy - 8y^2 - 6x + 18y - 7 = 0 \\ x + 2y - 3 = 0 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x^2 + 2xy - 8y^2 - 6x + 18y - 7 = 0 \\ x = 3 - 2y \end{cases} \Leftrightarrow$$

$$\Leftrightarrow \begin{cases} (3-2y)^2 + 2y \cdot (3-2y) - 8y^2 - 6 \cdot (3-2y) + 18y - 7 = 0 \\ x = 3 - 2y \end{cases} \Leftrightarrow$$

$$\Leftrightarrow \begin{cases} 9 - 6y + 4y^2 + 6y - 4y^2 - 8y^2 - 18 + 6y + 18y - 7 = 0 \\ x = 3 - 2y \end{cases} \Leftrightarrow$$

$$\Leftrightarrow \begin{cases} 9 - 6y + 4y^2 + 6y - 4y^2 - 8y^2 - 18 + 6y + 18y - 7 = 0 \\ x = 3 - 2y \end{cases} \Leftrightarrow$$

$$\Leftrightarrow \begin{cases} y^2 - 3y + 2 = 0 \\ x = 3 - 2y \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} \left[\begin{array}{l} y_3 = 1 \\ y_4 = 2 \end{array}\right. \\ x = 3 - 2y \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} \left[\begin{array}{l} y_3 = 1 \\ y_4 = 2 \end{array}\right. \\ \left[\begin{array}{l} x_3 = 1 \\ x_4 = -1 \end{array}\right. \end{cases}$$

Javobi. $\{(3;1),(-3;-1),(1;1),(-1;2)\}$.

4-misal. Tenglamalar sistemasini yeching. $\begin{cases} 3x^2 + 2xy + y^2 = 11 \\ x^2 + 2xy + 3y^2 = 17 \end{cases}$

Yechish. $x = ty$ belgisini kiritamiz.

U holda berilgan tenglamalar sistemasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\begin{cases} 3x^2 + 2xy + y^2 = 11 \\ x^2 + 2xy + 3y^2 = 17 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} 3t^2y^2 + 2ty^2 + y^2 = 11 \\ t^2y^2 + 2ty^2 + 3y^2 = 17 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} y^2(3t^2 + 2t + 1) = 11 \\ y^2(t^2 + 2t + 3) = 17 \end{cases} \Leftrightarrow$$

$$\Leftrightarrow \begin{cases} \dfrac{y^2(3t^2 + 2t + 1)}{y^2(t^2 + 2t + 3)} = \dfrac{11}{17} \\ y \neq 0 \end{cases} \Leftrightarrow \frac{3t^2 + 2t + 1}{t^2 + 2t + 3} = \frac{11}{17} \Leftrightarrow \frac{3t^2 + 2t + 1}{t^2 + 2t + 3} - \frac{11}{17} = 0 \Leftrightarrow$$

$$\Leftrightarrow \frac{51t^2+34t+17-11t^2-22t-33}{17\left(t^2+2t+3\right)}=0 \Leftrightarrow \frac{40t^2+12t-16}{17\left(t^2+2t+3\right)}=0 \Leftrightarrow$$

$$\Leftrightarrow 40t^2+12t-16=0 \,|\,;4 \Leftrightarrow 10t^2+3t-4=0 \Leftrightarrow \left[\begin{array}{l} t_1=-\frac{4}{5} \\ t_2=\frac{1}{2} \end{array}\right.$$

1.

$t_1=-\frac{4}{5}$ *bo`lsa,*

$$y^2\left(t^2+2t+3\right)=17 \Leftrightarrow y^2\left(\frac{16}{25}-\frac{8}{5}+3\right)=17 \Leftrightarrow y^2=\frac{25}{3} \Leftrightarrow \left[\begin{array}{l} y_1=-\frac{5\sqrt{3}}{3}; \\ y_2=\frac{5\sqrt{3}}{3}; \end{array}\right.$$

$$x_1=-\frac{4}{5}\left(-\frac{5\sqrt{3}}{3}\right)=\frac{4\sqrt{3}}{3};\ \ x_2=-\frac{4\sqrt{3}}{3}$$

2.

$t_1=\frac{1}{2}$ *bo`lsa*

$$y^2\left(t^2+2t+3\right)=17 \Leftrightarrow y^2\left(\frac{1}{4}+1+3\right)=17 \Leftrightarrow y^2=4 \Leftrightarrow \left[\begin{array}{l} y_3=-2; \\ y_4=2; \end{array}\right.$$

$$x_3=\frac{1}{2}(-2)=-1;\ \ x_4=1.$$

Javobi. $\left\{\left(\frac{4\sqrt{3}}{3};-\frac{5\sqrt{3}}{3}\right),\left(-\frac{4\sqrt{3}}{3};\ \frac{5\sqrt{3}}{3}\right),(-1;-2),(1;\ 2)\right\}.$

Xulosa. Ikkinchi darajali tenglamalar sistemasi matematikaning muhim bo‘limlaridan biri bo‘lib, uni o‘rganish nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham shakllantiradi. Bunday sistemalarni yechishda almashtirish usuli, qo‘shish-ayirish usuli va grafik usul asosiy usullar sifatida qo‘llanilib, har birining afzalliklari va qo‘llash sohasi mavjud.

Ikkinchi darajali tenglamalar sistemasini yechish - algebraik fikrlashni rivojlantiruvchi, funksional bog‘lanishlarni tahlil qilishga o‘rgatuvchi va murakkab matematik modellarni soddalashtirish ko‘nikmasini shakllantiruvchi muhim mavzulardan biridir. Bunday sistemalarni yechishda qo‘llaniladigan almashtirish, ayirish (yo‘qotish), grafik, kvadratni to‘ldirish, diskriminantdan foydalanish hamda geometrik–analitik tahlil usullari mazmunan turlicha bo‘lsada, ularning barchasi umumiy maqsad - sistemaning barcha real yoki kompleks yechimlarini topish -ga qaratilgan.

Almashtirish va ayirish usullari ko‘proq algebraik manipulyatsiyalarni talab qiladi; ular ikkinchi darajali tenglamani bir o‘zgaruvchili ko‘rinishga keltirib, yechimlar to‘plamini aniqlashga imkon beradi. Grafik usul esa funksiyalar kesishish nuqtalari orqali yechimlarning mazmuniy talqinini ko‘rsatib, o‘quvchilarga vizual tushuncha beradi. Kvadratni to‘ldirish va diskriminantdan foydalanish usullari esa tenglamaning tuzilishiga chuqur kirib borishga, uning mavjud yechimlari sonini, xususiyatini va geometrik ma’nosini aniqlashga yordam beradi.

Ikkinchi darajali tenglamalar sistemasini yechish jarayonida o‘quvchilarda tahlil qilish, taqqoslash, mantiqiy ketma-ketlikni shakllantirish, model qurish va natijani tekshirish kabi fundamental matematik kompetensiyalar rivojlanadi. Ayniqsa, sistemalarning real yechimlari sonini topish, diskriminant orqali holatlarni taqqoslash, chiziqli va kvadratik funksiyalarning o‘zaro joylashuvini baholash o‘quvchilarning funksional savodxonligini oshiradi.

Shu bois ikkinchi darajali tenglamalar sistemasini yechish usullarini puxta o‘zlashtirish nafaqat algebra bo‘yicha chuqur bilim beradi, balki murakkab masalalarni tahliliy yondashuv orqali yechish, matematik modellashtirish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Bu esa o‘quvchining umumiy matematik madaniyatini yuksaltirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Bliaxer, L. E. Osnovy vysshey matematiki: uravneniya, sistemy, funktsii. – M.: Infra-M, 2018. – 352 s.
2. Halipin, D. V. Algebraicheskie metody i resheniya sistem uravneniy. – Ekaterinburg: UrFU, 2022. – 190 s.
3. Kolyamogorov, A. N., Fomin, S. V. Elementy teorii funktsiy i funktsionalnogo analiza. – M.: Nauka, 2016. – 544 s.
4. Kramor, A. A. Kurs elementarnoy algebry. – M.: URSS, 2020. – 298 s.
5. Kudinov, V. A. Algebra i nachala analiza: uchebnik dlya vuzov. – M.: Prosveshchenie, 2018. – 412 s.
6. Makarychev, Yu. N., Mindyuk, N. G., Neshkov, K. I. Algebra i nachala analiza. – M.: Mnemozina, 2017. – 368 s.
7. Polaykov, V. V. Reshenie kvadratnyh uravneniy i sistem: uchebnoe posobie. – Novosibirsk: NGU, 2019. – 110 s.
8. Samoylenko, A. M. Metody resheniya algebraicheskih uravneniy. – Kiev: Libra, 2015. – 280 s.
9. Shabunin, M. I. Algebra: kvadratichnye uravneniya i sistemy. – SPb.: Lan, 2020. – 256 s.
10. Zubarev, A. I. Spravochnik po algebre: uravneniya i neravenstva. – M.: AST, 2021. – 304 s.

Jumayev Azamat Qurbonali o‘g‘li
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Axborot texnologiyalari va aniq fanlar kafedrasi o’qituvchisi.
E-mail: azamatjumayev20.06.1993@gmail.com

RAQAMLI TA’LIMDA INTERAKTIV O‘ZARO HAMKORLIKNI JORIY ETISH: ZARURATI VA ASOSIY OMILLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola zamonaviy raqamli ta’lim muhitining imkoniyatlari, uning ta’lim jarayoniga ta’siri va kelajakdagi rivoji haqida tahliliy ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli ta’lim texnologiyalarining qo‘llanilishi talabalarning bilim olish samaradorligini oshirish, o‘quv jarayonini individuallashtirish va ta’limning umumiy sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Maqolada raqamli ta’limning asosiy vositalari, ularning afzalliklari va cheklovlari, shuningdek raqamli ta’limni O‘zbekistonda joriy etish strategiyalari ko‘rib chiqilgan. Tahlillar natijasida, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish zarurligi aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *Raqamli ta’lim muhiti, masofaviy o‘qitish, elektron ta’lim resurslari, raqamli kompetensiyalar, innovatsion pedagogik texnologiyalar, individuallashtirish, samaradorlik, rivojlantirish, yondashuv, hamkorlik, platforma, natija.*

ВНЕДРЕНИЕ ИНТЕРАКТИВНОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ В ЦИФРОВОМ ОБУЧЕНИИ: НЕОБХОДИМОСТЬ И ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ

Аннотация. *В данной статье представлены аналитические данные о возможностях современного цифрового образовательного пространства, его влиянии на учебный процесс и перспективах дальнейшего развития. Согласно результатам исследования, использование цифровых образовательных технологий способствует повышению эффективности усвоения знаний, индивидуализации учебного процесса и улучшению общего качества образования. В статье рассматриваются основные инструменты цифрового обучения, их преимущества и ограничения, а также стратегические подходы к внедрению цифрового образования в Узбекистане. В ходе анализа выявлена необходимость развития цифровых компетенций и внедрения инновационных педагогических подходов для обеспечения устойчивого и качественного образовательного процесса.*

Ключевые слова: *цифровая образовательная среда, дистанционное обучение, электронные образовательные ресурсы, цифровые компетенции, инновационные педагогические технологии, индивидуализация, эффективность, развитие, подход, сотрудничество, платформа, результат.*

THE NEED AND KEY FACTORS FOR IMPLEMENTING INTERACTIVE COMMUNICATION IN DIGITAL EDUCATION

Annotation. *This article presents analytical information about the capabilities of the modern digital learning environment, its impact on the educational process, and prospects for future development. According to the research findings, the use of digital learning technologies increases the efficiency of knowledge acquisition, supports the individualization of the learning process, and improves the overall quality of education. The article examines the main tools of digital education, their advantages and limitations, as well as strategies for implementing digital learning in Uzbekistan. The analysis identifies the necessity of developing digital competencies and introducing innovative pedagogical approaches to ensure a sustainable and high-quality educational process.*

Key words: *digital learning environment, distance education, electronic learning resources, digital competencies, innovative pedagogical technologies, individualization, efficiency, development, approach, collaboration, platform, outcome.*

Kirish. Zamonaviy dunyoda ta'lim tizimi tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) hayotimizning deyarli barcha sohalariga kirib kelganidek, ta'lim jarayoniga ham tub burilishlar olib keldi. An'anaviy, darslik va daftar orqali o'tiladigan ta'limning o'rnini asta-sekin raqamli resurslar egallamoqda. Shu bilan birga, talabalar va o'quvchilar bilim olish jarayonida faollik, mustaqillik va ijodiy yondashuvni talab qiladigan yangi o'quv metodlarini kutmoqda. Raqamli ta'lim, ya'ni internet va kompyuter texnologiyalari orqali tashkil etiladigan ta'lim, aynan shunday ehtiyojlarni qondirish imkonini beradi.

Raqamli ta'limning samaradorligi nafaqat texnologiyalarning mavjudligiga, balki ular yordamida o'quv jarayonida interaktiv aloqani tashkil etishga bog'liq. Interaktiv aloqa - bu o'quvchi va o'qituvchi, shuningdek o'quvchilar o'rtasida bilim almashish jarayonini jonli va faol qiladigan vositalar majmuasidir. An'anaviy ta'limda o'qituvchi ko'proq ma'lumotni yetkazuvchi sifatida qatnashadi va o'quvchi passiv qabul qiluvchi rolini bajaradi. Bunday yondashuvda o'quvchilarning bilimni chuqur o'zlashtirish darajasi, tanqidiy fikrlash va muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyati cheklangan bo'lishi mumkin.

Interaktiv ta'lim esa bunday cheklovlarni bartaraf etadi. U o'quvchilarning faol ishtirokini rag'batlantiradi, ularning fikr almashish, savol berish, muammolarni hal qilish va jamoaviy ishlarda qatnashish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu tariqa, interaktiv aloqa nafaqat bilimni yetkazish, balki o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonida shaxsiy tajribani hosil qilishlariga imkon yaratadi.

Bugungi kunda raqamli ta'limning samaradorligini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilashda interaktiv aloqa muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ta'lim jarayonida interaktiv usullarni joriy etishning zaruriyati va ularni amalga oshirish omillarini o'rganish dolzarb masala hisoblanadi. Bu maqola shunday mavzularni yoritishga qaratilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi – raqamli ta'limda interaktiv aloqaning ahamiyati, uni joriy etishning asosiy omillari va samarali foydalanish yo'llarini tahlil qilishdan iborat.

Maqolada interaktiv ta'limning texnologik, pedagogik, psixologik va ijtimoiy omillari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy raqamli platformalar va vositalar yordamida interaktiv aloqani amalga oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi. Shu tariqa, maqola nafaqat nazariy asosni, balki amaliy jihatlarni ham qamrab oladi va ta'lim sohasidagi mutaxassislar, o'qituvchilar hamda tadqiqotchilar uchun foydali manba bo'lishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda ham raqamli ta'lim va interaktiv aloqaga oid ilmiy izlanishlar boshlangan va kengayib bormoqda. Xususan "Raqamli pedagogik imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar" nomli maqolada raqamli pedagogikaning nazariy - asosiy jihatlari, shu jumladan interaktivlik, sun'iy intellekt (AI), o'rganish tahlili, virtual haqiqat (VR), va gamifikatsiyasi batavsil bayon qilingan. Mualliflar mamlakatimiz misolida raqamli pedagogikaning imkoniyatlarini va raqamli ta'limning rivojlanish istiqbollarini chuqur tahlil qilgan. Shuningdek, maqolada raqamli tajribadagi asosiy to'siqlar: raqamli tafovut (digital divide), o'qituvchilarning raqamli savodxonligi, metodik tanlashdagi xatoliklar va axborot xavfsizligi muammolari ham metodik jihatdan ko'rib chiqilgan.

Yana bir maqolada "Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning didaktik asoslari" olib borilgan tadqiqotda oliy ta'lim muassasalarida interaktiv metodlar va raqamli platformalarning didaktik roli tahlil qilingan. Ular raqamli vositalar (virtual laboratoriyalar, interaktiv platformalar, sun'iy intellektga asoslangan ilovalar) orqali o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni oshirish yo'llarini ko'rsatadi. Ishda didaktik jihatdan raqamli texnologiyalarni amalda qo'llash yo'llari va ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri yoritilgan.

Interaktiv aloqaning zarurati aslida raqamli ta'lim tizimining samarali ishlashi va uning sifatini oshirishda interaktiv aloqa muhim omil hisoblanadi. An'anaviy ta'lim jarayonida o'qituvchi ma'lumotni yetkazuvchi sifatida faol bo'lsa, o'quvchi passiv qabul qiluvchi sifatida ishtirok etadi. Shu tufayli, bilimning chuqur o'zlashtirilishi va o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatining rivojlanishi cheklangan bo'lishi mumkin. Raqamli ta'lim esa interaktiv metodlar yordamida o'quvchilarning faolligini oshiradi va ularning shaxsiy o'sishini rag'batlantiradi.

Interaktiv aloqa - bu o'quvchi va o'qituvchi, shuningdek, o'quvchilar o'rtasida bilim almashish jarayonini jonli va samarali qiladigan vositalar majmuasidir. U faqat bilim berish bilan cheklanmay, o'quvchilarning muloqot qobiliyatini, muammolarni hal qilish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini

shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, interaktiv metodlar o‘quvchilarda o‘rganishga motivatsiya uyg‘otadi, ular o‘zlashtirish jarayonida faol ishtirok etadi va darsni qiziqarli qiladi.

Interaktiv aloqaning ta’lim sifatini oshirishdagi roli interaktiv aloqa ta’lim jarayonida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. ***Masalan***, o‘quvchilar onlayn testlar, viktorinalar, forumlar yoki chatlar orqali mavzuni tushunmaganda darhol savol berishi mumkin. Bu esa bilimning chuqur va tizimli o‘zlashtirilishiga yordam beradi.

Tatqiqotchilar tomonidan 2015 - yilda olib borgan ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, e-yo‘llanma (e-learning) muhitida o‘quvchilarning yolg‘izlik hissi ularning bilim olish samaradorligiga salbiy ta’sir qiladi. Ular asinxron va sinxron muloqot vositalarini, masalan, chat, video konferensiya va interaktiv oq taxtalarni qo‘llash orqali “onlayn yuzma - yuzlik” yaratishni taklif qilgan. Natijada, o‘quvchilarning motivatsiyasi oshgan va bilim o‘zlashtirish samaradorligi yaxshilangan.

Shuningdek, (2022) COVID-19 davridagi virtual ta’lim tajribasini o‘rganib, talabalar orasida interaktiv aloqaning yetishmasligi faollik va motivatsiya pasayishiga olib kelishini aniqlashgan. Shu sababli, interaktiv metodlar nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki o‘quvchilarning hissiy holatini qo‘llab-quvvatlashda ham zarurdir.

Tahlil va natijalar. Interaktiv aloqa o‘quvchilarni faollikka jalb qiladi. O‘yinlashtirilgan darslar (gamifikatsiya), jamoaviy loyihalar, onlayn viktorinalar va muammoli topshiriqlar orqali o‘quvchilar darsga faol ishtirok etadi. Gamifikatsiya elementlari, masalan, ball tizimi, sertifikatlar va leaderbordlar, o‘quvchilarda raqobat va qiziqish uyg‘otadi, bu esa bilimni mustahkamlashga yordam beradi.

Bousaaid va Mourad (2015) tadqiqotida interaktiv aloqaning motivatsiyani oshirishdagi ahamiyati batafsil tahlil qilingan. Ular ta’kidlaydiki, o‘quvchilar o‘z bilimini sinab ko‘rish imkoniga ega bo‘lsa va darhol fikr-mulohaza olsa, o‘rganishga qiziqish ortadi. Shu nuqtai nazardan, interaktiv metodlar motivatsiyani oshiruvchi, shuningdek, o‘quv jarayonini qiziqarli qiluvchi vosita hisoblanadi.

Raqamli ta’lim platformalari va interaktiv vositalar yordamida o‘quv jarayoni istalgan vaqtda va istalgan joyda amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, har bir o‘quvchining qobiliyati va ehtiyojlariga moslashgan shaxsiylashtirilgan o‘quv yo‘llarini yaratish imkoniyati mavjud. Misol uchun, video darslar yoki interaktiv testlar o‘quvchilarga mavzuni qayta ko‘rib chiqish imkoniyatini beradi va ularga o‘z sur’atida bilim olishga imkon yaratadi.

Shuningdek, interaktiv aloqa yordamida o‘quvchilar o‘z fikrini bildirish, guruh ishlari orqali bir-biri bilan tajriba almashish, va individual yordam olish imkoniga ega bo‘ladi. Michael Holly va boshqalar (2024) kompyuter fanlari bo‘yicha olib borgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, interaktiv vizualizatsiyalar va hamkorlikka asoslangan o‘quv muhitida talabalarning motivatsiyasi va bilim olish samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Interaktiv aloqa o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Onlayn forumlar, guruh loyihalari va chatlar orqali talabalar bir-biri bilan fikr almashadi, turli fikrlarni tahlil qiladi va hamkorlikda muammolarni hal qiladi. Shu bilan birga, interaktiv metodlar talabalarning yolg‘izlik hissi va o‘rganish jarayonidagi stressini kamaytiradi.

Interaktiv aloqa raqamli ta’lim tizimida samarali bilim olish, motivatsiyani oshirish, individual yondashuvni ta’minlash va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun zarurdir. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv metodlar yordamida o‘quvchilarning faolligi oshadi, bilimni mustahkamlash va tanqidiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Ta’lim jarayonida interaktiv metodlarni qo‘llash nafaqat nazariy, balki psixologik va ijtimoiy jihatdan ham ahamiyatlidir.

Muhokama. Raqamli ta’lim jarayonida interaktiv aloqani samarali tashkil etish bir nechta omillarga bog‘liq. Bu omillar texnologik, pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatlardan iborat bo‘lib, ularning har biri o‘zaro uyg‘unlikda ishlaganda ta’lim jarayonining sifatini sezilarli darajada oshiradi.

- Texnologik omillar: Raqamli ta’limning interaktivligi asosan texnologiyalarga tayanadi. Zamonaviy ta’lim platformalari va ilovalar o‘quvchilarga turli interaktiv imkoniyatlarni taqdim etadi. ***Misol uchun***. Video darslar va webinarlar: Sinxron va asinxron video platformalar orqali o‘quvchilar real vaqt rejimida darsga qatnashadi yoki darsni qayta ko‘rib chiqadi. Bu usul o‘quvchilarga mavzuni qayta ko‘rish va o‘z sur’atida o‘rganish imkonini beradi.

Onlayn testlar va viktorinalar: Talabalar darhol fikr-mulohaza olib, bilimlarini baholashadi. Bu ularning faol ishtirokini rag‘batlantiradi.

Gamifikatsiya va simulyatsiyalar: Darsni o‘yin elementlari bilan boyitish, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar yordamida o‘quvchilarning motivatsiyasi oshadi va mavzuni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

Forumlar va chatlar: O‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasida muloqot tashkil etadi, turli fikrlar almashiladi va jamoaviy ishlarda hamkorlik kuchayadi.

Michael Holly va boshqalar (2024) kompyuter fanlari bo‘yicha olib borgan tadqiqotda texnologik vositalarning interaktiv aloqani kuchaytirishda muhim rol o‘ynashi aniqlandi. Interaktiv vizualizatsiyalar va virtual laboratoriyalar o‘quvchilarning bilim olish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

- Pedagogik omillar: Texnologiya yetarli emas; uni samarali ishlatish uchun pedagogik yondashuv muhimdir. Pedagogik omillarga quyidagilar kiradi:

Darsning metodik tuzilishi: O‘quv jarayoni faol va qiziqarli bo‘lishi uchun dars qismlarga bo‘linadi, har bir bo‘limda interaktiv vazifalar kiritiladi.

O‘qituvchining roli: O‘qituvchi faqat ma’lumot yetkazuvchi emas, balki o‘quvchilarga qo‘llanma sifatida, murabbiy va motivator sifatida qatnashadi.

Baholash tizimi: Talabalar bilimini baholash nafaqat yakuniy imtihon bilan, balki interaktiv testlar, guruh ishlari va o‘zaro baholash orqali amalga oshiriladi.

Moslashuvchanlik: Pedagogik yondashuv individual talabalar ehtiyojiga moslashgan bo‘lishi kerak, bu esa interaktiv metodlarning samaradorligini oshiradi.

Hakimova va Bozarova (2025) tadqiqotida pedagogik yondashuvlar va metodikalarni raqamli ta’lim kontekstida o‘rganib, interaktiv aloqaning o‘quvchilarning bilim olish samaradorligiga bevosita ta’sir qilishi ko‘rsatildi.

- Psixologik omillar: O‘quvchilarning motivatsiyasi, hissiy holati va o‘quv jarayonidagi ishtirok darajasi interaktiv aloqaning samaradorligiga ta’sir qiladi. Psixologik omillar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Motivatsiya: Interaktiv darslar, gamifikatsiya va tezkor fikr-mulohaza o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash: Forumlar, guruh ishlari va chatlar o‘quvchilarda o‘zaro muloqot va hamkorlik hissini rivojlantiradi.

Stress va yolg‘izlikni kamaytirish: Interaktiv metodlar, ayniqsa onlayn darslarda, talabalarning yolg‘izlik hissini kamaytiradi va ularni faollikka jalb qiladi.

Subaveerapandiyan va Ammaji (2022) tadqiqotida COVID-19 davridagi interaktiv metodlarning yetishmasligi talabalarda stress va motivatsiya pasayishiga olib kelishi mumkinligi aniqlangan. Shu sababli, psixologik jihat interaktiv aloqaning muvaffaqiyatli joriy etilishi uchun muhim omil hisoblanadi.

- Ijtimoiy omillar: Ijtimoiy omillar o‘quv jarayonining samarali bo‘lishi uchun zarur:

Guruh ishlari va hamkorlik: Talabalar birgalikda loyiha va topshiriqlarni bajarish orqali bilimni mustahkamlaydi.

Axborot almashish: Interaktiv vositalar orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini va tajribalarini bo‘lishadi, bu esa o‘rganish jarayonini boyitadi.

Ijtimoiy integratsiya: Onlayn muhitda interaktiv metodlar o‘quvchilarni o‘zaro muloqotga jalb qiladi, hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Raqamli ta’limda interaktiv aloqani joriy etish muvaffaqiyati bir necha omillarga bog‘liq: texnologik (platforma va vositalar), pedagogik (metodik yondashuv va baholash), psixologik (motivatsiya, hissiy holat) va ijtimoiy (hamkorlik va muloqot) jihatlar. Ushbu omillar o‘zaro uyg‘un ishlaganda interaktiv aloqa nafaqat bilimni samarali o‘zlashtirish, balki talabalarning shaxsiy, ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar ko‘rsatadiki, interaktiv metodlar ta’lim sifatini oshirish, faollikni rag‘batlantirish va o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Raqamli ta’lim jarayonida interaktivlikni ta’minlash uchun zamonaviy texnologiyalar va vositalar muhim rol o‘ynaydi. Ushbu vositalar o‘quvchilarning bilim olish faoliyatini rag‘batlantiradi, ularni o‘zaro muloqotga jalb qiladi va o‘rganish jarayonini qiziqarli qiladi. Interaktiv vositalar pedagogik, texnologik va psixologik ehtiyojlarni birlashtirgan holda ta’lim sifatini oshiradi.

Raqamli ta’limda interaktiv aloqani samarali tashkil etish uchun texnologik vositalar, platformalar, virtual laboratoriyalar, sun’iy intellekt tizimlari va gamifikatsiya elementlari keng qo‘llaniladi. Ushbu vositalar o‘quvchilarning faolligini oshiradi, bilimni mustahkamlaydi, motivatsiyani kuchaytiradi va o‘quv jarayonini qiziqarli qiladi. Shu bilan birga, interaktiv vositalar pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatlarga mos keladigan tarzda ishlatilganda ta’lim jarayoni yanada samarali bo‘ladi.

Raqamli ta’limda interaktiv aloqani joriy etish zamonaviy ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning bilim olish jarayonidagi faolligini rag‘batlantirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv metodlar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, tanqidiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi, shuningdek, ijtimoiy va psixologik ko‘nikmalarni mustahkamlaydi.

An’anaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilar ko‘pincha passiv ishtirok etadi. Raqamli ta’lim esa interaktiv metodlar orqali o‘quvchilarni faol ishtirokchi qilish imkonini beradi, bu esa bilimning chuqur o‘zlashtirilishi va faollikni oshiradi.

Interaktiv aloqani muvaffaqiyatli joriy etish uchun texnologik, pedagogik, psixologik va ijtimoiy omillar muhimdir. Texnologik omillar – platforma va vositalar; pedagogik omillar - metodik yondashuv va baholash tizimi; psixologik omillar - motivatsiya va hissiy qo‘llab-quvvatlash; ijtimoiy omillar - hamkorlik va muloqot. Ushbu omillar uyg‘un ishlaganda interaktiv aloqa samarali bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Bousaaid, F., & Mourad, R. (2015). Interactive e-learning environments and student engagement. Journal of Educational Technology, 12(3), 45–59.
2. Subaveerapandiyan, K., & Ammaji, P. (2022). Online learning challenges and interactive methods during COVID-19. International Journal of Distance Education, 18(2), 78–92.
3. Michael Holly, J., et al. (2024). Computer science education and the role of interactive technologies. Computers & Education, 175, 104–118.
4. Hakimova, N., & Bozarova, D. (2025). Pedagogical strategies in digital learning: Interactive methods. Tashkent: Science Press.
5. Holikulova, L. (2024). Social constructivism and interactive learning in digital education. Central Asian Journal of Education, 10(1), 33–50.
6. Moodle.org. (2023). Using Moodle for interactive learning. Retrieved from https://moodle.org
7. Kahoot!. (2023). Gamified learning in education. Retrieved from https://kahoot.com

Nomozova Marguba
Lecturer Foreign languages faculty, Karshi state university

O'ZBEK TILIDAGI INGLIZCHA O'ZLASHMALARNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek tilida inglizcha o'zlashmalarlarning qo'llanilish jarayoni, ularning tarkibiy xususiyatlari hamda morfologik integratsiyasi ilmiy-lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Ayniqsa, yuqori ta'lim, ilm-fan va akademik muhitda faol qo'llanilayotgan inglizcha termin va atamalar misolida o'zlashmalarning shakllanish bosqichlari, fonetik-grafik moslashuv jarayonlari, shuningdek, o'zbek tilining agglutinativ tizimi bilan uyg'unlashuv mexanizmlari chuqur o'rganilgan. Tadqiqot davomida inglizcha terminlarning o'zbek tili leksik tarkibiga kirib borishi, ularga qo'shimcha qo'shilib yangi so'zlar yasalishi, ilmiy uslubda gibrid birliklarning shakllanishi hamda bu jarayonning til taraqqiyotiga ta'siri ilmiy asosda yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *inglizcha o'zlashmalar, morfologik integratsiya, akademik terminalogiya, fonetik va grafik moslashuv, leksik tizim*

THE MAIN FEATURES OF ENGLISH LOANWORDS IN THE UZBEK LANGUAGE

Abstract. *This article provides a linguistic analysis of English loanwords in the Uzbek language, focusing on their structural features and morphological integration. Particular attention is given to the adoption and adaptation of English terminology within higher education and academic discourse. The study examines the stages of borrowing, phonetic and graphic assimilation processes, and mechanisms of integration with the agglutinative system of the Uzbek language. It highlights the incorporation of English academic terms into the Uzbek lexical system, the formation of new derivatives through affixation, the emergence of hybrid lexical units in scholarly style, and the impact of this process on the development of the Uzbek language.*

Key words: *English loanwords, morphological integration, academic terminology, phonetic and graphic adaptation, lexical system*

ОСНОВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ АНГЛИЙСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В данной статье проводится лингвистический анализ английских заимствований в узбекском языке, с акцентом на их структурные особенности и морфологическую интеграцию. Особое внимание уделено функционированию английской терминологии в сфере высшего образования и научной коммуникации. В исследовании рассматриваются этапы заимствования, процессы фонетико-графической адаптации, а также механизмы взаимодействия английских терминов с агглютинативной системой узбекского языка. Освещены процессы вхождения английских академических терминов в лексическую систему узбекского языка, словообразование посредством аффиксации, формирование гибридных единиц научного стиля и влияние данных явлений на развитие языка.*

Ключевые слова: *английские заимствования, морфологическая интеграция, академическая терминология, фонетико-графическая адаптация, лексическая система*

Globalizatsiya jarayonlari natijasida dunyo tillari o'rtasidagi lingvistik aloqalar keskin faollashib, xalqaro ilm-fan, texnologiya va ta'lim sohalarida ingliz tilining nufuzi sezilarli darajada ortdi. Mazkur holat o'z navbatida ingliz tiliga mansub atama va leksik birliklarning ko'plab tillar, jumladan, o'zbek tiliga ham faol kirib kelishiga sabab bo'ldi. Xususan, mustaqillikdan so'ng O'zbekistonning xalqaro ilmiy maydonga integratsiyalashuvi, xorijiy oliy ta'lim tizimlari bilan hamkorlikning kuchayishi, o'quv dasturlarining modernizatsiyasi hamda zamonaviy ilmiy adabiyotlar va o'quv qo'llanmalariga murojaatning kengayishi natijasida inglizcha terminlar o'zbek tilidagi ilmiy-uslubiy nutqning ajralmas qismiga aylandi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari, ilmiy jurnallar, xalqaro reyting tizimlari, kredit-modul talablari, ilmiy tadqiqot metodologiyasi va akademik yozuv amaliyotida syllabus, credit, plagiarism, dissertation, defense, online course, scientific journal, rating kabi inglizcha terminlar faol qo'llanilmoqda. Ushbu jarayon bir tomondan, ilmiy nutqning zamonaviylashuvi va terminologik boyishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, o'zbek tilining ichki tizimi, xususan, fonetik, grafik va morfologik me'yorlar bilan muvofiqlashuv masalasini dolzarb muammoga aylantirmoqda.

Tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan o'zlashmalar nazariyasiga ko'ra, chet tillaridan kirib kelgan leksik birliklar ma'lum moslashuv jarayonlaridan o'tadi. Inglizcha o'zlashmalar o'zbek tilida fonetik talaffuz, imlo, grammatik moslashuv, qo'shimchalar qo'shilishi orqali milliy til tizimiga integratsiyalanadi. Natijada grantlar, reytingni oshirish, onlayn platformalarda o'qitish, akademik yozuv bo'yicha treninglar, plagiarismga yo'l qo'ymaslik kabi gibrid shakldagi birliklar paydo bo'layotgani kuzatilmoqda. Ushbu holat o'zbek tilining agglutinativ tabiatiga xos bo'lgan so'z yasash imkoniyatlarining kengligidan dalolat beradi.

O'zbek tiliga inglizcha o'zlashmalar kirib kelish jarayoni izchil va bosqichma-bosqich kechgan bo'lib, u turli davrlarda turlicha ko'rinishga ega bo'lgan. Sovet davrida ingliz tili xalqaro ilm-fan va diplomatiya tili sifatida tan olingan bo'lsada, o'zbek tilidagi inglizcha o'zlashmalar soni cheklangan edi. Bu davrda asosan texnika, aviatsiya, sport va ilmiy terminlar orqali kirib kelgan traktor, futbol, radio, telefon, biznes kabi o'zlashmalar ko'proq rus tili vositasida tilga singgan. Ushbu jarayonda terminlarning bevosita ingliz tilidan emas, balki rus tili orqali kirib kelgani sababli fonetik va grafik shakllar rus imlo qoidalariga moslashgan holda qo'llanilgan.

Mustaqillik yillaridan boshlab O'zbekistonning xalqaro maydonga faol integratsiyalashuvi, xorijiy davlatlar, xususan, ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar bilan hamkorlikning kuchayishi natijasida inglizcha o'zlashmalar oqimi sezilarli darajada ortdi. Ingliz tili davlat ta'lim siyosatida ustuvor o'rin egallab, maktab, litsey, kollej va oliy ta'lim muassasalarida asosiy xorijiy til sifatida o'qitilishi til tizimiga inglizcha atamalarning kirib kelishini tezlashtirdi. Bu davr o'zlashmalarning bevosita ingliz tilidan kirib kelishi va ularning o'zbek tili tizimida milliy me'yorlarga moslashuvi bilan xarakterlanadi.

Globallashuv va raqamli kommunikatsiya asrida ingliz tili xalqaro ilm-fan, texnologiya, ta'lim va innovatsiyalar sohalarida asosiy axborot tili sifatida qaralmoqda. Internet, elektron ta'lim tizimlari, ilmiy ma'lumotlar bazalari hamda onlayn o'quv platformalarining keng qo'llanilishi natijasida online course, syllabus, credit, plagiarism, dissertation kabi atamalar o'zbek ilmiy nutqiga faol kirib keldi. Mazkur davr o'zlashmalarning ko'lami kengayishi, ularning faol qo'llanish chastotasi ortishi va o'zbek tili leksik tizimida mustahkam o'rin egallashi bilan izohlanadi.

Inglizcha o'zlashmalar, ayniqsa, yuqori ta'lim, akademik muhit va ilmiy tadqiqot sohalari orqali eng faol kirib kelmoqda. Buning birlamchi omillaridan biri O'zbekiston oliy ta'lim tizimining xalqaro standartlarga moslashtirilishi, xususan, kredit-modul tizimiga o'tishi bilan bog'liqdir. Bu esa syllabus, credit, academic mobility, independent study, assessment kabi atamalarning to'g'ridan-to'g'ri ingliz tilidan o'zbek tiliga kirib kelishini taqozo etdi.

Shuningdek, xalqaro ilmiy hamkorlik dasturlari - Erasmus+, Fulbright, DAAD, British Council, Mevlana kabi loyihalar orqali xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan akademik almashinuvning kuchayishi inglizcha ilmiy terminlarning qo'llanishini faol rag'batlantirdi. Chet elda ta'lim olayotgan o'zbekistonlik talabalar va tadqiqotchilar, xalqaro ilmiy konferensiya, seminar va treninglarda qatnashish jarayonida ingliz tilidagi ilmiy lexicon bilan bevosita ishlaydilar va ularni o'zbek nutqiga ko'chiradilar. Natijada scientific article, peer-review, impact factor, research methodology, abstract, reference, defense, supervisor kabi birliklar o'quv va ilmiy nutqda tez-tez uchraydigan atamalarga aylandi.

Ilmiy maqolalar yozish, dissertatsiya tayyorlash, ilmiy jurnallarda chop etilish talablari ham ingliz tilidagi terminlarning qo'llanishini kuchaytirdi. Xalqaro reyting va indekslash tizimlari - Scopus, Web of Science, Google Scholar - bilan bog'liq atamalar o'zbek ilmiy muhitida asosiy termin sifatida mustahkamlandi. Natijada inglizcha o'zlashmalar nafaqat tarjima qilinmay, balki original shaklda qo'llanish holatlari ham ortib bormoqda.

Tilshunoslikda o'zlashmalar turli mezonlar asosida guruhlanadi. Inglizcha o'zlashmalar o'zbek tilida bir necha turga ajraladi:

To‘liq o‘zlashmalar – o‘zbek tiliga shakl va ma’no jihatidan deyarli o‘zgarishsiz kirib kelgan birliklar: grant, module, credit, rating, online, plagiarism.

Qisman o‘zlashmalar – ma’lum fonetik yoki grafik moslashuv bilan qabul qilingan so‘zlar: onlayn (online), reyting (rating), fakultativ (faculty → через rus.), dissertatsiya (dissertation → через rus.).

Semantik o‘zlashmalar – mavjud o‘zbekcha so‘zga ingliz tilidagi ma’no ko‘chishi bilan kirgan birliklar: platforma (ilmiy/ta’limiy ma’noda), resurs (axborot manbai ma’nosida).

Gibrid birliklar – inglizcha negizli so‘zga o‘zbekcha grammatik qo‘shimcha qo‘shilishi orqali hosil bo‘lgan birliklar: grantlar, reytingni oshirish, online kurslarga yozilish, plagiarismni oldini olish.

Mazkur tasnif inglizcha o‘zlashmalar o‘zbek tilida turli darajadagi moslashuv jarayonlarini boshdan kechirayotganini ko‘rsatadi. To‘liq o‘zlashmalar ilmiy termin sifatida faol qo‘llanilsa, gibrid birliklar o‘zbek tilining agglutinativ tabiati bilan uyg‘unlashgan holda so‘z yasash imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qilmoqda.

Leksik tarkib va qisqartmalar. Inglizcha o‘zlashmalar o‘zbek tilida turli leksik shakllarda uchraydi. Ular asosan uch turga bo‘linadi: oddiy so‘zlar, murakkab so‘zlar va qisqartmalar. Oddiy so‘zlar - bu ilmiy faoliyatda mustaqil ishlatiladigan birliklar bo‘lib, ular fonetik va grafik jihatdan minimal o‘zgarish bilan kiradi. Masalan: credit, module, syllabus, dissertation, abstract. Ushbu so‘zlar o‘zbek ilmiy nutqida o‘ziga xos atama sifatida qabul qilingan va odatda tarjima qilinmay, original inglizcha shaklida ishlatiladi.

Murakkab so‘zlar - ikki yoki undan ortiq leksik birlikdan tashkil topgan terminlar bo‘lib, ular ma’no jihatdan birlashib, yangi atama hosil qiladi. Masalan: peer-review, research methodology, learning outcomes, academic mobility. Murakkab birliklar o‘zbek tiliga kirib kelganda, ularning tarkibiy elementlari ko‘pincha fonetik va grafika jihatidan o‘zgaradi, lekin asosiy inglizcha so‘z saqlanadi.

Qisqartmalar (akronimlar) - ingliz tilidagi uzun atamalarning qisqartirilgan shakllari bo‘lib, akademik sohada juda faol qo‘llaniladi: PhD (Doctor of Philosophy), GPA (Grade Point Average), MOOC (Massive Open Online Course), AI (Artificial Intelligence). Bu qisqartmalar o‘zbek ilmiy nutqida keng tarqalgan va talaffuz jihatdan o‘zbekcha fonetika qoidalariga moslashadi.

Fonetik va grafika moslashuvi. Inglizcha o‘zlashmalar o‘zbek tilida talaffuz va yozuv qoidalariga moslashadi. Fonetik moslashuvda inglizcha talaffuz o‘zbek tilining unli va undosh tizimiga muvofiqlashtiriladi: online → onlayn, module → modul, syllabus → silyabus. Shuningdek, inglizcha grafika o‘zbek alifbosiga moslashtiriladi, bu esa ayniqsa akademik terminlarda aniqlik va tushunarlilikni ta’minlaydi.

Fonetik-grafik moslashuv quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

Inglizcha c harfi k yoki s bilan, ph → f, y → i kabi yozuv qoidalariga moslashadi.

So‘zning oxiriga qo‘shimchalar qo‘shilganda talaffuzga mos shakl hosil qilinadi: research researchni, abstract abstractni.

Morfologik moslashuv. O‘zbek tilining agglutinativ tabiati inglizcha o‘zlashmalar bilan birlashib, gibrid morfologik birliklarni hosil qiladi. Masalan:

Ot yasovchi qo‘shimchalar: bloggerlik, researcherlik, supervisorlik

Sifat yasovchi qo‘shimchalar: academiclik, scientificlik

Fe’l yasovchi qo‘shimchalar: submit qilmoq, defend qilmoq, review qilmoq

Bu shakllar inglizcha asosni saqlagan holda, o‘zbek tilining qo‘shimcha yasovchi elementlari orqali ishlatiladi va nutqda tabiiy ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Quyidagi jadvalda oliy ta’lim va ilmiy faoliyatdagi eng ko‘p ishlatiladigan inglizcha o‘zlashmalar keltirilgan:

Inglizcha termin	O‘zbekcha talaffuz / moslashuv	Tur	Izoh / qo‘llanish sohasi
Credit	kredit	oddiy so‘z	Akademik baholash tizimi
Module	modul	oddiy so‘z	Kurs bo‘limi, dars materiali
Syllabus	silyabus	oddiy so‘z	O‘quv reja, dars dasturi
Dissertation	dissertatsiya	oddiy so‘z	Ilmiy ish, ilmiy daraja

Abstract	abstrakt	oddiy so‘z	Ilmiy maqola xulosasi
Academic mobility	academic mobility	murakkab so‘z	Talabalar va professorlar almashuvi
PhD	PhD	qisqartma	Doktorlik darajasi
GPA	GPA	qisqartma	Baholar o‘rtacha ko‘rsatkichi
MOOC	MOOC	qisqartma	Masofaviy onlayn kurs
AI	AI	qisqartma	Sun’iy intellekt tadqiqoti
Submit	submit qilmoq	fe’l	Ilmiy ish topshirish

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘zbek tiliga inglizcha o‘zlashmalar kirib kelish jarayoni tarixiy va kontekstual jihatdan bosqichma-bosqich amalga oshganligi aniqlanadi. Sovet davrida inglizcha atamalar ko‘proq rus tili orqali kirgan bo‘lsa, mustaqillikdan so‘ng va globallashuv davrida ular bevosita ingliz tilidan o‘zbek tiliga kirib kelgan. Yuqori ta’lim va ilm-fan sohasi bu jarayonda eng faol kanal sifatida namoyon bo‘lib, xalqaro akademik hamkorlik, kredit-modul tizimi, dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar va onlayn ta’lim platformalari orqali inglizcha atamalar o‘zbek ilmiy nutqiga mustahkam integratsiyalangan.

Leksik tarkib nuqtai nazaridan, inglizcha o‘zlashmalar oddiy so‘zlar, murakkab so‘zlar va qisqartmalar shaklida uchraydi. Fonetik va grafika moslashuvi, shuningdek, morfologik qo‘shimchalar yordamida gibrid birliklar hosil qilinadi. Bu jarayon o‘zbek tilining agglutinativ tabiati bilan uyg‘unlashadi va ilmiy nutqning aniqligi hamda samaradorligini oshiradi. Natijada o‘zbek tilidagi inglizcha o‘zlashmalar nafaqat terminologik boyish manbai, balki tilning rivojlanishi va modernizatsiyasida muhim vosita sifatida faol ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1 V. Vinogradov, Leksikologiya i zaimstvovanie terminov v yazyke SSSR (Moskva: Nauka, 1987), 78.

2 A. Rasulov, “O‘zbek tilidagi inglizcha o‘zlashmalar: terminologik tahlil,” Filologiya masalalari 4, no. 1 (2016): 35.

3 Sh. Qo‘ng‘irov, “Akademik atamalarning o‘zbek tiliga moslashuvi,” O‘zbek tili va adabiyoti 5 (2021): 21.

4 N. Xo‘jayev, Fonetik va grafik integratsiya, Toshkent: Fan, 2019, 46.

5 M. Karimov, “Morfologik gibrid birliklar va ularning shakllanishi,” Lingvistika jurnali 2 (2020): 58.

Kuchkarov Iskandarbek Alisher o'g'li
Andijon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
E-mail: ula20061985@gmail.com

O'ZBEK TILIDA LEKSIK O'ZLASHTIRISHLARNING TARIXIY-NAZARIY ASOSLARI VA ZAMONAVIY JARAYONLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek tilidagi leksik o'zlashish jarayonining tarixiy-nazariy asoslari hamda zamonaviy bosqichlari tahlil qilingan. Avvalo arab, fors-tojik va rus tillaridan kirgan o'zlashma so'zlarning shakllanishi, ularning fonetik, morfologik va semantik moslashuvi ko'rib chiqiladi. Keyingi qismda ingliz tilidan o'zbek tiliga so'zlarning kirib kelish bosqichlari ya'ni sovet davrida rus tili vositachiligida, mustaqillik davrida esa bevosita o'zlashish jarayonlari qiyosiy o'rganiladi. Maqolada siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va ommaviy axborot vositalari sohalarida faol qo'llanayotgan inglizcha atamalar misolida neologizmlarning umumtilga singish mexanizmlari, imlo va ma'no jihatidan yuz berayotgan o'zgarishlar yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *o'zlashma so'zlar, leksik o'zlashuv, inglizcha atamalar, rus tili vositachiligi, fonetik moslashuv, semantik torlashuv, neologizm.*

ИСТОРИКО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И СОВРЕМЕННЫЕ ПРОЦЕССЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В данной статье анализируются историко-теоретические основы и современные этапы процесса лексического заимствования в узбекском языке. Прежде всего рассматривается формирование заимствованных слов из арабского, персидско-таджикского и русского языков, а также их фонетическая, морфологическая и семантическая адаптация. В последующей части исследуются этапы проникновения английских слов в узбекский язык: косвенное заимствование через русский язык в советский период и прямые заимствования в годы независимости. В статье, на примере английских терминов, активно используемых в политико-правовой, социально-экономической, технологической сферах и сфере средств массовой информации, освещаются механизмы интеграции неологизмов в общий язык, а также изменения в орфографии и значении.*

Ключевые слова: *заимствованные слова, лексическое заимствование, английские термины, посредничество русского языка, фонетическая адаптация, семантическое сужение, неологизм.*

HISTORICAL-THEORETICAL FOUNDATIONS AND MODERN PROCESSES OF LEXICAL BORROWINGS IN THE UZBEK LANGUAGE

Abstract. *This article examines the historical-theoretical foundations and modern stages of the lexical borrowing process in the Uzbek language. It first discusses the formation of loanwords from Arabic, Persian-Tajik, and Russian, as well as their phonetic, morphological, and semantic adaptation. The next part analyzes the stages of English words entering Uzbek: indirect borrowing through Russian during the Soviet period and direct borrowing during the years of independence. Using English terms actively employed in political-legal, socio-economic, technological and media spheres, the article highlights the mechanisms by which neologisms integrate into the general language, as well as changes occurring in spelling and meaning.*

Key words: *loanwords, lexical borrowing, English-derived terms, Russian mediation, phonetic adaptation, semantic narrowing, neologisms.*

Kirish. Til bu jamiyatning ijtimoiy-madaniy tajribasini mujassam etuvchi murakkab tizimdir. U doimo rivojlanadi, boyiydi va tashqi omillar ta'siri ostida o'zgarib boradi. Har qanday tabiiy tilning rivojidagi eng faol jarayonlardan biri bu leksik o'zlashuvdir ya'ni boshqa tillardan yangi so'zlarning

kirib kelishi, moslashishi va umumtil doirasida o‘z o‘rnini topishi. Tilshunoslikda bunday tushunchalar o‘zlashma so‘zlar yoki kalkalar deb ataladi.

O‘zbek tili ham ming yillar davomida arab, fors, rus, mo‘g‘ul, turkiy tillar, hamda so‘nggi o‘ttiz yilda ingliz tilidan sezilarli darajada so‘zlar o‘zlashtirib kelgan. O‘zlashmalar nafaqat lug‘at boyligini kengaytiradi, balki jamiyatdagi yangi tushunchalarni nomlash imkoniyatini yaratadi, ilmiy va texnik taraqqiyot bilan bog‘liq yangiliklarni til tizimiga olib kiradi.

Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi o‘zlashma so‘zlarning tarixiy jarayoni, fonetik-morfologik moslashuvi, neologizm sifatidagi ilk bosqichi, mustaqillikdan keyingi inglizcha o‘zlashmalar oqimi va ularning lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili.

O‘zbek tilida o‘zlashma so‘zlarning o‘rganilishi XX asr o‘rtalaridan boshlab faol rivojlandi. A. Madvaliev, Sh. Jo‘rayev, A. Hojiyev, S. Ibrohimov kabi tilshunoslar turli tarixiy davrlarda shakllangan leksik qatlamlarning manbalarini ilmiy asosda tahlil qilganlar. Ularning tadqiqotlarida o‘zlashma so‘zlarning til tizimiga darhol singib ketmasligi, dastlab neologizm sifatida qo‘llanishi, vaqt o‘tishi bilan esa fonetik, grafemik, morfologik va sintaktik jihatdan moslashuvi alohida ta’kidlanadi [1]. Tilshunoslik nazariyasida o‘zlashmalarni baholashda uch omil – kelib chiqish manbai, til tizimiga moslashuv darajasi hamda jamiyat ehtiyoji bilan bog‘liqligi – muhim mezon sifatida qo‘llanadi. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlarda globalizatsiya jarayonining tilga bosimi kuchaygani, xususan, ingliz tilidan kirayotgan termin va texnologik atamalar til tizimini qayta shakllantirayotgan omil sifatida ko‘rsatiladi [2].

Tarixiy manbalarga murojaat qilganda, VIII–XII asrlarda islom sivilizatsiyasining yuksalishi Markaziy Osiyo xalqlari tiliga arabcha leksikaning katta oqimda kirib kelishiga sabab bo‘lgan. Diniy, ilmiy va maishiy mazmundagi ibodat, masjid, taqvo, mantiq, adab, daftar kabi birliklar nafaqat lug‘aviy ma’noda, balki uslubiy qatlam sifatida ham til tizimida mustahkam o‘rnashdi. Ularning aksariyati o‘zbek tili fonetik va morfologik qoidalariga to‘liq moslashgan: daftarcha, adabiy, ma’noli kabi yangi shakllar buning yaqqol misolidir.

Fors-tojik tilining ta’siri esa ming yillik jarayon davomida shakllangan bo‘lib, bu til orqali o‘zbek tiliga kirgan dasturxon, sabzi, mo‘tabar, she’r, bahor kabi so‘zlar kundalik nutqdan tortib, adabiy uslubgacha keng qo‘llanadi. Ular sintaktik moslashuvdan o‘tib, o‘zbekcha grammatik shakllarni hosil qilgan: dasturxonimiz, gullamoq va boshqalar.

XX asrda rus tili o‘zbek tilining eng yirik leksik manbalaridan biriga aylandi. Sovet davri ijtimoiy-siyosiy tuzumi, sanoat, texnika va ilm-fanning rivoji bilan bog‘liq ko‘plab so‘zlar – avtomobil, traktor, televizor, stul, deputat kabi birliklar – umumxalq tiliga chuqur singdi. Bu o‘zlashmalar fonetik jihatdan ham o‘zbek talaffuziga moslashgan: mashina, avtobus va hokazo. Sport, gazeta, jurnal kabi ayrim so‘zlar aslida ingliz, fransuz yoki nemis tillariga mansub bo‘lsa-da, ular o‘zbek tiliga rus tili vositasida kirgani sababli ruscha grafik shaklni saqlab qolgan.

Har qanday o‘zlashma dastlab begona birlik sifatida rasmiy matnlarda yoki tarjima asarlarida uchraydi, keng qo‘llanila boshlagach esa umumxalq tiliga o‘tadi. Masalan, monitoring, brending, marketing so‘zlari so‘nggi yigirma yil ichida ommalashib, faol ishlatiladigan birliklarga aylandi. Bunday so‘zlar o‘zbek tilining fonetik tizimiga ham moslashadi: stakan, mashina, status kabi shakllar shu jarayon natijasidir. O‘zbekcha affikslarning qo‘shilishi – trendlar, post qildi, blogerlik kabi misollar – o‘zlashmaning to‘liq singib ketganidan dalolat beradi.

Ma’no kengayishi yoki torayishi ham o‘zlashmalarga xos xususiyatdir. Masalan, status dastlab ijtimoiy mavqe ma’nosini anglatgan bo‘lsa, hozir internetdagi profil holati degan yangi ma’no qatlamini ham o‘z ichiga oladi. Trend esa iqtisodiy tendensiya ma’nosidan tashqari, virtual makondagi mashhurlik yo‘nalishini bildirishda qo‘llanishi bilan ma’no kengayishiga ega bo‘lgan.

1991 yildan keyingi davrda ingliz tilidan kiruvchi so‘zlar soni keskin oshdi. Buni global integratsiya kuchayishi, axborot texnologiyalarining jadal taraqqiyoti, xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarning kengayishi, shuningdek biznes va iqtisodiy sohalarning modernizatsiyasi bilan izohlash mumkin. Bugungi kunda IT, marketing, biznes boshqaruvi, media va boshqa sohalar bilan bog‘liq ko‘plab atamalar o‘zbek tilining faol qatlamiga kirib bormoqda.

Mustaqillik davrida ingliz tilidan kirib kelgan siyosiy atamalar o‘zbek tilida juda tez ommalashdi. Xususan, referendum, demokratiya, monitoring, status kabi so‘zlar rasmiy huquqiy hujjatlar,

hukumat bayonotlari va ommaviy axborot vositalarida muntazam qo‘llanib, qisqa vaqt ichida umumtilga singib ketdi. Ushbu terminlar yangi siyosiy-huquqiy tizimning shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lib, mazkur jarayon tilning funksional imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi.

Global iqtisodiy aloqalarning kengayishi, bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikning kuchayishi natijasida inglizcha iqtisodiy terminlar bevosita o‘zbek tiliga o‘ta boshladi. Investitsiya, dividend, brend, marketing kabi atamalar rus tili orqali emas, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri ingliz tilidan kirib kelgani bilan ajralib turadi. Bu so‘zlar iqtisodiy jarayonlarni aniq va sodda ifodalashda tilning zamonaviy imkoniyatlarini boyitdi.[5]

So‘nggi o‘n yilliklarda internet va raqamli texnologiyalar hayotning ajralmas qismiga aylangani tufayli inglizcha texnologik terminlar o‘zbek tiliga eng tez kirib kelayotgan qatlamlardan biriga aylandi. Blog, blogger, post, kontakt, onlayn, oflayn, server, sajt, domen, mobil, chatbot kabi so‘zlar til tizimida juda tez moslashdi va faol qo‘llanila boshladi. Bu terminlar hatto morfologik jihatdan ham tez integratsiyalandi: post qildi, blogerlik, kontaktsiz to‘lov kabi birikmalar bunga aniq misoldir.[4]

Bugungi kunda ingliz tilidan kirib kelgan ba’zi so‘zlar odamlarning kundalik suhbatida shu qadar tez-tez qo‘llanadiki, ular aslida o‘zlashma ekanini ham sezish qiyin. Masalan, trend, like qilish, story qo‘yish, kontent yaratish kabi birliklar yoshlar tilida ayniqsa faol ishlatiladi. Bu jarayon tilning ochiqligi, moslashuvchanligi va dinamik xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi.

Ingliz tilidan kirib kelayotgan yangi leksik birliklar o‘zbek tili imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Bunday so‘zlar:

nutqning funksional doirasini boyitadi,

ijtimoiy-siyosiy va ilmiy-texnik yangiliklarni tez va aniq ifodalash imkonini beradi,

global kommunikatsiya jarayonlariga moslashishni osonlashtiradi.

Biroq o‘zlashmalarning nazoratsiz va me’yorsiz ravishda haddan tashqari ko‘payishi tilning ichki tizimini izdan chiqarishi va milliy til me’yorlarining zaiflashishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois o‘zlashmalar jarayonini ilmiy asoslangan til siyosati, normativ lug‘atlar va til madaniyatini rivojlantirish bilan muvozanatlashtirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.[3].

Xulosa. O‘zbek tilidagi leksik o‘zlashuv jarayoni ko‘p asrlik tarixga ega. Arab, fors, rus va ingliz tillari o‘zbek tili lug‘ati shakllanishida muhim rol o‘ynadi. Mustaqillikdan keyingi davr inglizcha o‘zlashmalar oqimi bilan ajralib turadi. O‘zlashmalar tilning boyib borishiga xizmat qiladi, ammo ular fonetik va grammatik jihatdan o‘zbek tiliga to‘liq moslashgandagina umumtil doirasiga singadi. Globalizatsiya davrida bu jarayon yanada faollashmoqda va o‘zbek tilining rivojida muhim o‘rin egallamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Hojiyev A. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. - Toshkent: O‘qituvchi, 2006. - 560 b.
2. Madvaliev A. O‘zbek tili leksikologiyasi. - Toshkent: Fan nashriyoti, 1999.
3. Jo‘rayev Sh. Til va jamiyat: globalizatsiya sharoitida til taraqqiyoti. - Toshkent: Ma’naviyat, 2015.
4. Crystal D. Language and the Internet. Cambridge University Press, 2006.
5. Oxford English Dictionary (OED). Electronic Edition.

Nishonboyev Muxiddin Xomidovich
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy Xavsizlik va Mudofaa universiteti,
umumiy taktika kafedrasi katta o‘qituvchisi, dotsent

INTERFAOL TA’LIMNI SAMARALI QO‘LLASHDA O‘QITUVCHI KOMPETENSIYASI: METODIK, KOMMUNIKATIV VA TEXNOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada interfaol ta’limni samarali qo‘llashda o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi asosiy omil sifatida tadqiq etiladi. Interfaol metodlarning muvaffaqiyatli joriy etilishi, avvalo, o‘qituvchining metodik tayyorgarligi, samarali kommunikativ ko‘nikmalari hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish salohiyatiga bog‘liq ekanligi ilmiy asosda yoritiladi. Maqolada o‘qituvchilarning dars jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish, o‘quvchilarni faollikka undash, muloqot madaniyatini shakllantirish va raqamli vositalarni integratsiya qilish bo‘yicha kompetensiyalari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlari: *metodik ko‘nikmalar, kommunikativ kompetensiya, texnologik savodxonlik, raqamli ta’lim, interfaol metodlar, samaradorlik omillari.*

КОМПЕТЕНТНОСТЬ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ В ЭФФЕКТИВНОМ ПРИМЕНЕНИИ ИНТЕРАКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ: МЕТОДИЧЕСКИЕ, КОММУНИКАТИВНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ

Аннотация. *В данной статье профессиональная компетентность преподавателя рассматривается как ключевой фактор в эффективном применении интерактивного обучения. Научно обосновано, что успешное внедрение интерактивных методов в первую очередь зависит от методической подготовки преподавателя, его коммуникативных навыков и способности использовать современные технологии. В статье анализируются компетенции педагогов в создании проблемных ситуаций на занятиях, стимулировании активности обучающихся, формировании культуры общения и интеграции цифровых инструментов в учебный процесс.*

Ключевые слова: *методические навыки, коммуникативная компетентность, технологическая грамотность, цифровое обучение, интерактивные методы, факторы эффективности.*

TEACHER COMPETENCE IN EFFECTIVE IMPLEMENTATION OF INTERACTIVE LEARNING: METHODOLOGICAL, COMMUNICATIVE AND TECHNOLOGICAL FACTORS

Annotation. *This article examines teacher professional competence as a key factor in the effective application of interactive learning. It provides a scientific justification that the successful implementation of interactive methods primarily depends on the teacher’s methodological preparedness, effective communication skills, and ability to use modern technologies. The article analyzes teachers’ competencies in creating problem-based situations during lessons, encouraging learner activity, fostering communication culture, and integrating digital tools into the educational process.*

Key words: *methodological skills, communicative competence, technological literacy, digital education, interactive methods, effectiveness factors.*

Mamlakatimizda ta’lim jarayonida o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undash, ularning mustaqil fikrlash, muloqot qilish va ijodiy yondashish qobiliyatlarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. An’anaviy ta’lim usullari o‘quvchilarning faqat tayyor bilimlarni qabul qilishiga yo‘naltirilgan bo‘lsa, interfaol ta’lim metodlari esa ularni bilim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Shu bois interfaol ta’lim bugungi pedagogik tadqiqotlarda keng o‘rganilmoqda va amaliyotga joriy etilmoqda.

Interfaol ta’lim – bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro muloqotga asoslangan, ta’lim jarayonida barcha ishtirokchilarning faol qatnashishini ta’minlaydigan metodlar majmuasidir. Ushbu

yondashuv o‘quvchilarning faqatgina bilim olish bilan cheklanmay, balki uni amalda qo‘llash, tahlil qilish va mustaqil ravishda yechim topish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan [1].

Mazkur maqolada interfaol ta’lim tushunchasi, uning nazariy va pedagogik asoslari, hamda ushbu metodlarning ta’lim jarayonidagi o‘rni va samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, interfaol yondashuvning ilmiy asosi sifatida dunyo va milliy pedagogik tajribalar o‘rganiladi. Interfaol metodlarning o‘quvchilarning bilish jarayoniga ta’siri, ularni qo‘llashning afzalliklari va istiqbollari haqida ilmiy-nazariy asoslar yoritiladi.

Interfaol metodlar pedagogik jarayonda o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydigan, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida doimiy muloqot, hamkorlik va fikr almashuvga asoslangan yondashuv hisoblanadi. Bu metodlar ta’lim jarayonida bilimning tayyor shaklda berilishidan ko‘ra, uni o‘quvchi tomonidan mustaqil ravishda izlab topish, tushunish va qo‘llashni rag‘batlantiradi. Interfaol ta’limning asosiy mohiyati bilimning o‘zlashtirilishidan tashqari, uni o‘zaro hamkorlikda yaratish, baholash va amaliyotga tatbiq qilishdir.

Interfaol metodlarning keng tarqalgan shakllaridan biri - munozara va bahs-munozaralardir. Bu jarayonda o‘quvchilar mavzu bo‘yicha o‘z qarashlarini asoslaydi, fikr almashadi va mantiqiy dalillar orqali o‘z nuqtai nazarlarini himoya qiladi. Kichik guruhlarda olib boriladigan jamoaviy ishlar esa o‘quvchilarni birgalikda faoliyat yuritishga, mas’uliyatni bo‘lishishga va umumiy xulosaga kelishga o‘rgatadi. Rol o‘ynash metodlari (rolik o‘yinlari) real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish orqali talabalarning kommunikativ ko‘nikmalarini, muammoni hal qilish qobiliyatini va vaziyatga mos qaror qabul qilish malakalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, kase-stadi (holat tahlili) aniq vaziyatlar ustida mulohaza yuritishga, muammoli sharoitlarda mustaqil yechim topishga o‘rgatadi. Aqliy hujum (brainstorming) esa qisqa vaqt ichida ko‘plab g‘oyalarni ilgari surish orqali ijodkorlikni rag‘batlantiruvchi samarali usul sifatida qo‘llaniladi [2].

Interfaol o‘qitish metodlari talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Bu jarayonda avvalo ma’lumotlarni tahlil qilish, tezkor va mantiqiy qarorlar qabul qilish, yangicha yondashuvlarni ilgari surish kabi ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi treninglar tashkil etilishi lozim. Shuningdek, tasavvur va obrazli fikrlashni kuchaytirishga yo‘naltirilgan ijodiy mashqlar, topshiriqlar bajarilishi, turli keyslar ustida ishlash jarayonlari ham talabalarda kreativ kompetensiyani shakllantiradi. Guruhiy ish shakllari, debatlar, o‘quv loyihalari, portfoliolar bilan ishlash va to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish kabi ta’limiy faoliyatlar ham ijodiy yondashuvni mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, ijodiy topshiriqlarni bajarish, kichik guruhlarda ishlash, trening va videotreninglar, taqdimotlar, viktorinalar, ijodiy loyihalash mashg‘ulotlari, interfaol ekskursiyalar, interfaol ma’ruzalar, vebinarlar va davra suhbatlari talabalarning bilim olish jarayonini jonlantirib, ularni faol, mustaqil fikrlovchi, tashabbuskor shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodlar ta’lim jarayonini faollashtiradi, kommunikativ ko‘nikmalarni boyitadi va ijodiy tafakkurni rivojlantiradi.Interfaol vositalar va ularning o‘rni Ta’lim jarayonida interfaol metodlarni qo‘llash samaradorligini oshirish uchun turli texnologik vositalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bularga quyidagilar kiradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) – kompyuter, proyektor, interfaol doskalar orqali darslarni vizuallashtirish.

Elektron ta’lim platformalari – Moodle, Google Classroom, Coursera kabi tizimlar orqali masofaviy ta’limni tashkil etish. Simulyatsiya va virtual laboratoriyalar – tabiiy fanlar va muhandislik yo‘nalishlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish. Mobil ilovalar va onlayn test tizimlari – Quizizz, Kahoot, Mentimeter kabi vositalar orqali bilimlarni baholash va interaktiv mashg‘ulotlar o‘tkazish.

Interfaol metodlarni tanlashning navbatdagi mezoni ularning ta’lim mazmuni xususiyatiga mos kelishdir. Metod mazmuni harakatlanish qismi sifatida ham aniqlanadi. Shu boisdan bu mezonning hisobga olinishi shubhasiz. Bir metod yordamida mavzu mazmuni to‘laroq ochib berilsa, boshqasi uni ijobiy o‘zlashtirishga imkon tug‘diradi.

Interfaol metodlarning tanlashning yana bir mezoni ularning talabalar o‘quv imkoniyatlariga to‘liq mos kelishi, ya’ni samarali o‘quv faoliyati uchun ichki va tashqi shart- sharoitlarining birligini ta’minlashdir. Interfaol o‘qitish metodlaridan foydalanishda pedagogning xususiy imkoniyatlariga mos kelishi lozim. Bu pedagogning o‘qitish metodlari nazariyasi va amaliyoti bilan o‘qitsh jarayoning

qonuniyatlari bilan bilish nazariyalari ta’lim mazmuni nazariyasi va boshqa mavjud qonunlar bilan qurollanganllik darajasini hisobga oladi.

Interfaol metodlarni tanlash mezonlaridan keyingisi-ularning o‘quv jarayonini tashkil etish shakllari bilan mos kelishidir. O‘qitishning yalpi, guruhli va individual shakllari turlicha metodlarni talab etadi. Misol uchun debat metodi ikki talaba o‘rtasidagi bahs hisoblansa, “aqliy hujumda” guruhdagi barcha talabalarning ishtiroki zarur bo‘ladi. Interfaol metodlarning pedagogik texnologik prinsiplariga mos kelishi umumlashtiruvchi mezon hisoblanadi [3].

Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
ilgari orttirilgan bilimlarning ham e’tiborga olinishi;
ta’lim jarayoni ta’lim oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o‘rganish va amalda qo‘llash o‘quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to‘g‘ri yechimini topishlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o‘quvchi-talabalarning bilim, ko‘nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

Yuqorida aytilganlardan interfaol ta’lim metodlarini tegishlicha tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma’lum bo‘ladi. Quyida ushbu masala yuzasidan umumiy mulohazalarni keltirib o‘tamiz. Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta’lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin.[4]

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta’lim metodlari quyidagilar sanaladi: Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O‘quv keyslari”), “Blist-so‘rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta’lim” va Interfaol ta’lim strategiyalari: “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor” va boshqalar.

Interfaol ta’lim metodlari tarkibidan interfaol ta’lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma’lum ma’noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko‘proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo‘lib, ularning orasida boshqa farqlar yo‘q.

Interfaol metodlardan foydalanish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi. O‘quvchilarning faolligi oshadi – ular bilim olish jarayonida passiv emas, balki faol ishtirokchiga aylanadi.

Mustaqil fikrlash rivojlanadi – muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini shakllantirish va asoslash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Jamoada ishlash qobiliyati kuchayadi – guruh ishlarida ishtirok etish orqali o‘quvchilar hamkorlik qilishni o‘rganadilar.

Yangi bilimlarni eslab qolish samaradorligi oshadi – interfaol metodlar orqali olinadigan bilimlar uzoq muddatga yodda qoladi.

Texnologik savodxonlik rivojlanadi – zamonaviy ta’lim vositalari bilan ishlash malakalari shakllanadi [5].

Tinglovchilarni hozirgi zamon talablari darajasida tayyorlash sifatiga ta’sir etuvchi omillardan biri kasbiy kompetentlik va kreativligidir. Bunda kasbga nisbatan yaxlit kontseptual yondashuvni (qanday va nimani o‘qitishni aniq tasavvur qilish), mehnatni qadrlay olish (o‘qitish motivatsiyasi), ta’lim jarayonini optimallashtirish, o‘zini-o‘zi boshqarish, o‘zini-o‘zi rivojlantirish, o‘z ustida ishlash kabi xususiyatlarni tarbiyalashni taqozo etadi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi. Ko‘rinib turibdiki, kreativlik bevosita shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan

bog‘liq jarayon hisoblanadi. Uning rivojlanishi esa intellektintuitsiya-mantiqiy fikrlash jarayoni ta’sirida kechadi.

Tinglovchilarda kreativlikni rivojlantirish ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi.

Bunda pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

tinglovchilarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta’lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta’minlash;

tinglovchilarda ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish, talabalar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g‘oyalarni bag‘rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minlash, har bir talabada uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag‘batlantirish;

o‘quv jarayonini talaba shaxsining xususiyatlari, ehtiyojlari va intelektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish;

tinglovchilarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undash;

kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo‘lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg‘ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq etish.

Pedagogik kreativlik – pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

1) o‘qituvchilar tomonidan o‘quv fanlarini past o‘zlashtirayotgan va ularini o‘rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e’tiborlarini fan asoslarini o‘zlashtirishga jalb etish;

2) o‘qituvchilarga tinglovchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag‘batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish [6].

Tinglovchilarda ushbu bilim va malakalarni hosil qilishda innovasion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdi. S.M. Godninning ishlarida talabaning shaxsiy hislatlari pedagogik jarayonning subyekti sifatida yoritiladi.

Unga quyidagilarni kiritadi:

o‘qitishning hozirgi va kelgusi bosqichlari uchun qabul qilingan o‘quv - tarbiya jarayonining maqsadi, vazifasi va ko‘rsatmalarini anglay bilish;

intellektual mehnatning yangi tadbirlarini egallash;

maqsadga muvofiq kasbiy o‘z-o‘zini tarbiyalash va mustaqil tahsil olish, qiyinchiliklarni a’lo darajada yenga bilish, o‘sish va mustahkam o‘rin egallashning kengayayotgan intellektual va kasbiy imkoniyatlari, istiqbollari bilan qoniqish, o‘zining sotsial roli, funksiyasini bajarishida faol munosabatda bo‘lish va hokazo.

Innovasion pedagogik jarayonning muhim unsurlari shaxsning o‘z-o‘zini boshqarishi va o‘zini-o‘zi safarbar qila olishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo‘nalishlaridan biri talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish.

Interfaol ta’lim metodlari va texnologiyalari talabalarda kreativlik qobiliyatlarining shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sabali ularlarda kreativlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan interfaol o‘qitish jarayonining muayyan mazmuni, vositalari, pedagogik shart-sharoitlari, xususiyatlari va usullarini aniqlash zaruriyati yuzaga keldi.

Interfaol ta’limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma’ro‘zalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko‘pligi, talabalar tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo‘lib, ular ta’lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Hozirda ta’lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo‘nalishlardan biri interfaol ta’lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o‘qituvchilari dars mashg‘ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qo‘llash natijasida talabalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog‘lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko‘nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi [7].

Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B.Blum bilish va emosional sohalardagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni Blum taksonomiyasi deb nomlanadi. (Taksonomiya-borliqning murakkab to‘zilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). U tafakkurni bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajaga ajratdi. Unga ko‘ra tafakkurning rivojlanishi bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo‘ladi.

Shu har bir daraja quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe’llar namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan:

Bilish-dastlabki tafakkur darajasi bo‘lib, bunda talaba atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni etkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash.

Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo‘lganda esa, talaba faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mavjud ma’lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta to‘zish, yoritib berish, sharhlash, oydinlashtirish.

Qo‘llash darajasidagi tafakkurda talaba olgan bilimlaridan faqat an’anaviy emas, noa’nanaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to‘g‘ri qo‘llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o‘rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etish [8].

Tahlil darajasidagi tafakkurda talaba yaxlitning qismlarini va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko‘radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma’lumotlarning ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: keltirib chiqarish, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash.

Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda talaba ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o‘tkazish rejasini to‘zadi, birnechta sohalardagi bilimlardan foydalanadi. Ma’lumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: yangilik yaratish, umumlashtirish, birlashtirish, rejalashtirish, ishlab chiqish, tizimlashtirish, kombinastiyalashtirish, yaratish, to‘zish, loyihalash.

Baholash darajasidagi tafakkurda talaba mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko‘radi, xulosalarning mavjud ma’lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: tashhislash, isbotlash, o‘lchash, nazorat qilish, asoslash, ma’qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash.

Interfaol usullar ko‘p turli bo‘lib, ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, o‘qituvchidan mashg‘ulot oldidan katta tayyorgarlik ko‘rishni talab qiladi. Shu mashg‘ulotlarni tashkil qilishda interfaol darsning asosiy xususiyatlarini uning an’anaviy darsga nisbatan ayrim farqlarini ko‘rib chiqish orqali yaqqolroq idrok etish mumkin [9].

Xulosa qilib shuni ta’kidlaymizki, metodik, kommunikativ va texnologik omillar o‘zaro uyg‘unlashgan taqdirda interfaol ta’lim samarali natija beradi. Ushbu omillar asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy faolligi va bilimlarni chuqur o‘zlashtirishiga zamin yaratadi. Shuningdek, o‘quvchi o‘rtasida samarali muloqot shakllanib, bilim olish jarayoni yanada qiziqarli va samarali kechadi. Bu esa o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish bilan birga, ularning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shu sababli, ta’lim jarayonida interfaol usullardan foydalanish zarurati kun sayin ortib bormoqda va bu kelajak ta’lim tizimining rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Hasanovich O. T. (2024). Ilmiy tadqiqot ishi bilan shug‘ullanuvchilarda ilmfanda shakllangan metodlarga tayangan holda ijodiy kreativ pozitsiyada turish ko‘nikmalarini shakllantirish. Pedagog, 7(4), 291-297

2. Avlayev O.U., Jo‘rayeva S.N., Mirzayeva S.P. “Ta’lim metodlari” o‘quv-uslubiy qo‘llanma, “Navro‘z” nashriyoti, Toshkent – 2017.

3. Amanova A.N. O‘zbekistondagi gen muhandisligi sohasining istiqbollari va mavzuni o‘qit-ishda interfaol metodlardan foydalanish. “Journal of Natural Science” №2(7) 2022 y

4. Azizxujaeva N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. 2002. 26-28.

5. Rozikov O., Ogaev S., Maxmudov A., Adizov B. Ta’lim texnologiyasi. –2012. 103-105.

6. Назарова Б.А. Бўлажак ўқитувчиларда креатив ёндашув асосида тадқиқотчилик ла-ёқатини тарбиялаш: Дис. /пед. фан. док. – Т., 2018. – 225 б.

7. Махмутов М.И. и другие. Педагогические технологии развития мышления учащихся. – Казан: ТГЛ, 1993. С.88.

8. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии в подготовке учителя. – Т.: ТГПУ, 2000. С.80.

9. Karimova M. O., Saidullaeva A. R. Pedagogical basis of the use of universal and national values in the spiritual and moral education of children in the family //PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology. – 2020. – Т. 17. – №. 7. – С. 8547-8555.

Muxamedov To‘lqinjon Djurayevich
Buxoro xalqaro universiteti dotsenti

O‘SMIRLARNING EMOTSIONAL RIVOJLANISHIGA MUSIQA JANRLARINING TA’SIRI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘smirlarning emotsional rivojlanish jarayoniga turli musiqa janrlarining psixologik, kognitiv va ijtimoiy ta’siri ilmiy asosda tahlil qilinadi. Maqolada musiqaning emotsional barqarorlik, o‘zini ifoda qilish, stressni kamaytirish va shaxsiy identifikatsiya shakllanishiga qo‘shgan hissasi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Musiqa, musiqiy janr, psixologiya, emotsional ta’sir, o‘smir yoshlar.*

ВЛИЯНИЕ ЖАНРОВ МУЗЫКИ НА ЭМОЦИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В статье анализируется влияние различных музыкальных жанров на эмоциональное развитие подростков с учётом психологических, когнитивных и социальных механизмов. В исследовании обоснована роль музыки в формировании эмоциональной стабильности, самовыражения, снижении стресса и развитии личностной идентичности.*

Ключевые слова: *музыка, музыкальный жанр, психология, эмоциональное воздействие, подростковый возраст.*

THE INFLUENCE OF MUSIC GENRES ON ADOLESCENTS’ EMOTIONAL DEVELOPMENT

Annotation: *This article examines the influence of various music genres on adolescents’ emotional development, analyzing psychological, cognitive, and social mechanisms. The study highlights how music contributes to emotional stability, self-expression, stress regulation, and the formation of personal identity.*

Key words: *music, musical genre, psychology, emotional impact, adolescence.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda musiqaning inson hayotidagi o‘rni tobora ortib borayotgani, ayniqsa o‘smir yoshidagi shaxslar uchun uning psixologik ahamiyati nihoyatda yuqori ekanligi bilan izohlanadi. O‘smirlik davri biologik, psixologik va ijtimoiy jihatlardan eng murakkab, o‘zgaruvchan va qarama-qarshiliklarga boy bosqichlardan biri bo‘lib, bu jarayonda emotsional barqarorlikning shakllanishi, o‘z-o‘zini anglash, mustaqil fikrlash, ijtimoiy rol va o‘rinni belgilash kabi muhim psixologik jarayonlar faol kechadi. Mazkur o‘zgarishlarga tashqi muhit omillari, jumladan, san’atning muhim tarmog‘i hisoblangan musiqaning ta’siri nihoyatda kuchli bo‘ladi.

Musiqa o‘smirning ichki kechinmalarini aks ettiradi, uning ruhiy holatini boshqaradi, kayfiyatini o‘zgartiradi va emotsional tajribalarini boyitadi. Neuropsixologik tadqiqotlarga ko‘ra, turli musiqa janrlari miyada turlicha neyron faollikni keltirib chiqaradi, dopamin, serotonin, oksitosin kabi neyrotransmitterlarning ajralishiga ta’sir etadi, stress darajasini kamaytiradi yoki aksincha, keskinlikni kuchaytirishi mumkin. Shu bois, musiqaning o‘smir psixikasiga ta’sirini ilmiy asosda o‘rganish, ayniqsa musiqaning janrlar bo‘yicha farqlanishi va har birining emotsional rivojlanishga bo‘lgan individual ta’sirini aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy masaladir.

O‘smir yoshdagi shaxsning musiqaga bo‘lgan qiziqishi faqat estetik did bilan belgilanmaydi, balki uning ichki dunyosi, psixologik ehtiyojlari, shaxsiy inqirozlari, do‘stlari bilan muloqot uslubi va hatto o‘zini identifikatsiya qilish jarayoni bilan chambarchas bog‘liqdir. Masalan, lirik musiqa introspektiv o‘ylarni kuchaytirishi, klassik musiqa diqqatni jamlash va emotsional muvozanatni mustahkamlashi, rok yoki rep kabi janrlar esa o‘smirning ichki norozilik, mustaqillik yoki energiyani tashqi ifoda qilish ehtiyojlarini qondirishi mumkin. Shu bilan birga, ayrim musiqalar agressiv kayfiyatni kuchaytirishi, melankolik janrlar esa emotsional tushkunlikni davom ettirishi ehtimoli mavjud.

Bu jarayonlarning har biri o‘smirning psixologik rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va ruhiy salomatligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda musiqaning psixologik ta’sirini o‘rganuvchi fanlar - musiqiy psixologiya, neyromusiqashunoslik va yosh davrlar psixologiyasi - o‘smirlarning emotsional rivojlanishi bilan musiqiy tajribalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur ilmiy nuqtai nazardan izohlashga harakat qilmoqda. Global axborot makoni kengaygan sari o‘smirlar tomonidan iste’mol qilinadigan musiqa janrlarining xilma-xilligi ortmoqda, bu esa ularning emotsional jarayonlariga bo‘lgan ta’sirni yanada murakkablashtirmoqda. Shuningdek, internet-platformalar orqali tarqaladigan musiqiy kontentning tezkorligi, vizual tasvirlar bilan uyg‘unlashgan holda taqdim etilishi emotsional qabul qilish jarayonlarini yanada kuchaytiradi.

O‘zbekiston sharoitida ham turli musiqa janrlarining ommalashuvi, yoshlarning musiqiy didi, ularning milliy va zamonaviy musiqa o‘rtasida tanlov qilishi kabi jarayonlar o‘smirlar psixologiyasiga bevosita ta’sir qilayotgan omillar sifatida o‘rganilmoqda. Chunki musiqa nafaqat emotsional tajribalar manbai, balki shaxsning madaniy identifikatsiyasi, estetik qarashlari va ma’naviy-axloqiy rivojiga ta’sir qiluvchi kuchli ijtimoiy-psixologik hodisadir.

Shu nuqtayi nazardan, o‘smirlarning emotsional rivojlanishiga musiqa janrlarining ta’sirini o‘rganish ilmiy jihatdan muhim bo‘lib, u yoshlarning ruhiy salomatligini mustahkamlash, salbiy ta’sirlarni oldini olish, musiqaning tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish va o‘smirlar uchun psixologik profilaktika dasturlarini ishlab chiqishda katta amaliy ahamiyatga ega. Mazkur mavzu o‘smir psixologiyasi, musiqiy madaniyat, emotsional intellekt va yoshlar ijtimoiylashuvi kabi bir qator ilmiy yo‘nalishlar kesishgan nuqtada joylashgani bilan ham dolzarbdir.

O‘smirlik - inson hayotidagi eng murakkab va dinamik davrlardan biri bo‘lib, bu bosqichda shaxsning psixologik, emotsional va ijtimoiy shakllanishi jadallashadi. O‘smirning ichki dunyosi keskin o‘zgaruvchan bo‘ladi, hissiy tajribalar kengayadi, o‘zini anglash va jamiyatda o‘z o‘rnini topish jarayoni faollashadi. Ushbu jarayonda musiqa o‘ziga xos ruhiy regulyator sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa ritm, tembr, garmoniya, mazmun va emotsional boyligi orqali o‘smirning psixik holati, kayfiyati, xulqi va dunyoqarashiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy neyropsixologiya musiqaning inson miyasiga kuchli fiziologik ta’sirini tasdiqlagan. Xususan, musiqa limbik tizim faoliyatini faollashtiradi, stress gormonlari darajasiga ta’sir qiladi, dopamin, oksitotsin kabi moddalarning ajralishini rag‘batlantiradi. Shu bois musiqa o‘smirlar uchun nafaqat estetik zavq manbai, balki psixologik himoya, hissiy tarbiya, o‘zini ifoda qilish va ijtimoiy identifikatsiya vositasidir.

Ushbu ishda musiqa janrlarining o‘smirlar emotsional rivojlanishiga ta’siri keng va tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Musiqa va o‘smir psixikasining o‘zaro bog‘liqligi

Musiqa o‘smirning ruhiy holatiga uch yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatadi: fiziologik, psixologik va ijtimoiy. Fiziologik ta’sir ritm va tembrning vegetativ tizimga ta’sir etishi orqali yuzaga chiqadi. Psixologik ta’sir his-tuyg‘ularni boshqarish, kayfiyatni tartibga solish va o‘zini anglash jarayonida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy ta’sir esa musiqa orqali guruhga mansublik, madaniy identitet va shaxslararo muloqotning shakllanishi bilan bog‘liq.

O‘smirlik davrida emotsional barqarorlikning pastligi, affektiv reaktivlikning yuqoriligi sababli musiqaning tinchlantiruvchi, rag‘batlantiruvchi va modulyatsiya qiluvchi funksiyasi ayniqsa kuchli namoyon bo‘ladi.

Klassik musiqaning emotsional rivojlanishdagi o‘rni

Klassik musiqaning garmonik uyg‘unligi, barqaror ritmi va musiqiy shaklining mantiqiy tuzilishi o‘smirning emotsional barqarorligini mustahkamlaydi. Dunyo neyromusiqa markazlari olib borgan tadqiqotlar klassik musiqa tinglash serotonin ishlab chiqarilishini kuchaytirishi, asab tizimini muvozanatlashtirishi va stress darajasini kamaytirishini ko‘rsatgan.

Klassik musiqaning emotsional diapazoni keng bo‘lgani sababli o‘smir murakkab hissiyotlarni anglash, tahlil qilish va ularni boshqarishni o‘rganadi. Bethovenning dramatik simfoniyalari, Vivaldining mavsumlar tasvirini beradi-gan konsertlari yoki Shubertning lirizmi o‘smirga turli kayfiyatlarni tanib olish imkonini yaratadi.

Milliy musiqa va folklorning hissiy ta’siri

Milliy musiqa o‘smirning ijtimoiy-madaniy identitetini shakllantirishda asosiy vositalardan biridir. Folklor kuylaridagi tabiiy tembrlar, modal ohanglar va milliy ritmlar ruhiy sokinlik, iliqlik, mehr, qadriyatlar va an’analarni anglashga yordam beradi.

O‘zbekistonning dutor, nay va doira kabi cholg‘ulari tovushining tabiiyligi o‘smirning vegetativ tizimiga tinchlantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi. Milliy qo‘shiqlardagi mazmuniy obrazlar esa o‘smirning ijtimoiy xotirasini, tarixiy ongini va madaniy g‘ururini shakllantiradi.

Estrada va pop musiqaning ta’siri

Estrada va pop musiqa o‘smirlar tomonidan eng ko‘p tinglanadigan janr hisoblanadi. Ushbu janrning tezkor ritmlari, emotsional yengilligi, yorqin ifodasi o‘smir kayfiyatini tezda ko‘taradi, ijobiy emotsiyalarni uyg‘otadi va energiya beradi.

Pop musiqa o‘smirlarga muloqotga kirishish, jamoadan o‘rin olish va o‘ziga ishonchni shakllantirishda yordam beradi. Biroq ortiqcha shovqinli kompozitsiyalar o‘smirda charchoq, diqqatning tarqoqligi yoki hissiy beqarorlikni kuchaytirishi mumkin.

Rok va alternativ yo‘nalishlarning psixologik ta’siri

Rok musiqasi o‘smirning energiya, mustaqillik, ichki qarama-qarshiliklar va protest holatlarini ifoda etish ehtiyojiga mos keladi. Kuchli ritm va tembrning keskinligi orqali o‘smir ruhidagi ichki zo‘riqishlar konstruktiv tarzda chiqariladi.

Psixologlar rok musiqaning katarsis funksiyasini ta’kidlab, uning o‘smirlar stressini kamaytirish, ichki bosimni yengillashtirish va o‘zini erkin ifoda etishga yordam berishini e’tirof etadilar. Shunga qaramay, og‘ir metal singari subjanrlar mazmun va ritmning keskinligi sababli ayrim o‘smirlar psixikasida salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Rep va hip-hopning ijtimoiy-emotsional ta’siri

Rep musiqasi o‘smirlar orasida ijtimoiy faollik, o‘zini anglash, ichki kechinmalarni ifoda etish vositasi sifatida keng tarqalgan. Rep matnlari ko‘pincha hayotiy, tanqidiy, real voqeliklarni o‘z ichiga oladi. Bu o‘smirga o‘z kechinmalari bilan identifikatsiya qilish imkonini beradi.

Hip-hop madaniyati o‘smirning o‘ziga ishonchini oshiradi, jamiyatdagi mavqeini his qilishga yordam beradi, kreativlikni rivojlantiradi. Biroq zo‘ravonlik yoki radikal mazmundagi rep psixik barqarorligi past o‘smirlar uchun xavf tug‘dirishi ehtimoli bor.

Elektron musiqa va uning fiziologik ta’siri

Elektron musiqaning ritmik takrorlanuvchanligi va energiyasi o‘smirning jismoniy faolligini kuchaytiradi. Ushbu musiqa sport mashg‘ulotlari, raqs va harakat faoliyatlari uchun mos psixologik zamin yaratadi.

Elektron musiqa qisqa muddatli kayfiyat ko‘tarilishi va dopamin ishlab chiqarilishi bilan bog‘liq. Biroq haddan tashqari baland bas tovushlar miyaning charchashiga, vegetativ tizimning zo‘riqishiga olib kelishi mumkin.

Tahliliy xulosa. O‘smirlik - emotsional in’ikoslarning kuchli, o‘zgaruvchan, tartibga muhtoj davri bo‘lib, musiqa mazkur jarayonda bosh regulyatorlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Har bir musiqa janri o‘smir shaxsining ruhiy, ijtimoiy va estetik rivojlanishiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi.

Klassik musiqa emotsional barqarorlikni mustahkamlasa, milliy musiqa madaniy identitetni shakllantiradi. Pop musiqa yoshlar kayfiyatini ko‘taradi, rok energiya chiqarishga xizmat qiladi, rep esa o‘zini anglash va ijtimoiy fikrlashni kuchaytiradi. Elektron musiqa esa jismoniy faollik va qisqa muddatli psixologik ko‘tarinkilikni ta’minlaydi.

O‘smirning emotsional rivojlanishida musiqa nafaqat kayfiyat manbai, balki ongni shakllantiruvchi, psixologik xavfsizlik yaratadigan, shaxsning o‘zini anglashini rag‘batlantiruvchi universal vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Janata P. Neural architecture of music-evoked autobiographical memories // Cerebral Cortex. — 2018. — Vol. 28, № 1. — P. 1–15.

2. Juslin P. N., Sloboda J. A. Handbook of Music and Emotion: Theory, Research, Applications. — Oxford : Oxford University Press, 2010. — 976 p.

3. Levitin D. This Is Your Brain on Music: The Science of a Human Obsession. — New York : Plume, 2020. — 368 p.

4. Rice T. Ethnomusicology: A Contemporary Reader. — London : Routledge, 2017. — 412 p.

5. Norova Sh. U., Muxamedov T. D. Educational process legislation and principles and their use in student practice // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. — 2020. — Vol. 24, № 4. — P. 1120–1126. — ISSN 1475-7192.

6. Атамурадов Р. Э., Мухамедов Т. Д. Развитие личности преподавателя в процессе самовоспитания // Психология XXI столетия : сб. науч. ст. междунар. конф. (Бухара, 18–20 марта 2020 г.). — Ярославль ; Бухара, 2020. — С. 214–219.

7. Мухамедов Б. Т., Мухамедов Т. Д. Психология музыкальных дидактических игр // Психология XXI столетия : сб. науч. ст. междунар. конф. (Бухара, 18–20 марта 2020 г.). — Ярославль ; Бухара, 2020. — С. 301–306.

8. Мухамедов Т. Д. Способы направления студентов на информационные технологии // Вестник науки образования. — 2020. — № 21 (99), ч. 2. — С. 87–92. — ISSN 2541-7851.

9. Мухамедов Т. Д. Способы и средства развития музыкальных способностей учащихся на уроках музыки // Проблемы науки. — 2021. — № 1 (60). — С. 54–58.

10. Мухамедов Т. Д. Umumta’lim maktablarining musiqa to‘garaklarida qo‘shiq o‘rgatish usullari // Pedagogik mahorat. — 2021. — Maxsus son. — Buxoro. — B. 45–49. — ISSN 2181-6883.

11. Мухамедов Т. Д. Факторы нравственно-эстетического воспитания учащихся на уроках хорового искусства // Наука, техника и образование. — 2021. — № 2 (77), ч. 1. — С. 66–71. — ISSN 2312-8267.

12. Мухамедов Т. Д. Sharq xalqlari san’ati tarixi, musiqa merosi va maqom ijrochiligi haqida // Scientific Progress. — 2021. — Vol. 1, № 6. — P. 233–238. — ISSN 2181-1601.

13. Мухамедов Т. Д. Issues of theory and methods of the conductor executive arts // European Scholar Journal. — 2021. — Vol. 2, № 9. — P. 45–50. — ISSN 2660-5562.

14. Muxamedov T. D. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy madaniyatni tanishtirish orqali fuqarolik shaxsini shakllantirish // Pedagogic Mahorat. — 2022. — Maxsus son. — Buxoro. — ISSN 2181-6833.

15. Muxamedov T. D. Oliy ta’lim sohasida xor-dirijorligi mahoratini oshirish texnologiyalari // Analytical Journal of Education and Development. — 2022. — ISSN 2181-2624.

16. Muxamedov T. D. Factors of social activity of students of higher educational institutions // European Journal of Innovation in Nonformal Education. — 2022. — Vol. 2, № 6. — ISSN 2795-8612.

17. Muxamedov T. D. Badiiy havaskorlik yo‘nalishida “Buxorcha” va “Mavrigi” turkumlarining rivojlanishi // Research Identity, Value and Ethics : xalqaro konf. materiallari (USA, 30 April 2022). — 2022. — P. 88–92.

18. Muxamedov T. D. Проблемы международных культурных связей и роль национального искусства в их решении // Miasto Przyszłości. — 2023. — Kielce. — ISSN-L 2544-980X.

19. Muxamedov T. D. Boshlang‘ich maktab yoshi o‘quvchilarida musiqiy intellektni rivojlantirish usullari // Innovative Development in Educational Activities. — 2024. — Vol. 3, № 11. — ISSN 2181-3523.

20. Muxamedov T. D. Формирование готовности специалиста в области музыки к осуществлению профессиональной деятельности // Вестник интегративной психологии. — 2024. — Вып. 31, ч. 1. — С. 102–108.

Tadjibayev Akramjon Abdukaxarovich
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy Xavsizlik va Mudofaa universiteti,
umumiy taktika kafedrasi o‘qituvchisi, podpolkovnik

INTERFAOL TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHDA RAQAMLI INFRATUZILMANING ROLI VA SAMARADORLIKKA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada interfaol ta’lim texnologiyalaridan foydalanishda raqamli infratuzilmaning o‘rni, uning sifatli ta’lim jarayonini ta’minlashdagi ahamiyati hamda samaradorlikka ta’sir etuvchi asosiy omillar tahlil etiladi. Raqamli infratuzilmaning texnik ta’minoti, internet tezligi, platformalarning funksionalligi, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi va talabalarning texnologiyaga kirish imkoniyati interfaol ta’limning muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi yoritiladi. Shuningdek, raqamli muhitda interfaol metodlarni joriy etishning psixologik, tashkiliy va metodik jihatlari o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlari: *Interfaol ta’lim, raqamli infratuzilma, ta’lim texnologiyalari, raqamli kompetensiya, pedagogik samaradorlik, innovatsion ta’lim, onlayn ta’lim platformalari.*

РОЛЬ ЦИФРОВОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В ИСПОЛЬЗОВАНИИ ИНТЕРАКТИВНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ЕЕ ЭФФЕКТИВНОСТЬ

Аннотация. *В статье анализируется роль цифровой инфраструктуры в использовании интерактивных образовательных технологий, ее значимость в обеспечении качественного учебного процесса, а также ключевые факторы, влияющие на эффективность. Освещается влияние таких компонентов, как техническое обеспечение цифровой среды, скорость интернета, функциональность образовательных платформ, цифровая компетентность педагогов и доступ обучающихся к технологиям на успешность интерактивного обучения. Кроме того, изучаются психологические, организационные и методические аспекты внедрения интерактивных методов в цифровой среде.*

Ключевые слова: *интерактивное обучение, цифровая инфраструктура, образовательные технологии, цифровая компетентность, педагогическая эффективность, инновационное образование, онлайн-платформы.*

THE ROLE OF DIGITAL INFRASTRUCTURE IN THE USE OF INTERACTIVE LEARNING TECHNOLOGIES AND FACTORS AFFECTING THEIR EFFECTIVENESS

Annotation. *This article analyzes the role of digital infrastructure in the use of interactive learning technologies, its importance in ensuring a high-quality educational process, and the key factors influencing effectiveness. It highlights how technical support, internet speed, platform functionality, teachers’ digital competence, and students’ access to technology directly affect the success of interactive learning. The study also examines the psychological, organizational, and methodological aspects of implementing interactive methods in a digital environment.*

Key words: *interactive learning, digital infrastructure, educational technologies, digital competence, pedagogical effectiveness, innovative education, online learning platforms.*

Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o‘quv jarayonida o‘quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Raqamli infratuzilma – bu kompyuterlar, planshetlar, smart doskalar, internet tarmog‘i, videokonferensiya platformalari, o‘quv platformalari va dasturiy ta’minotlardan iborat kompleks tizimdir.

Ushbu tizim interfaol ta'lim jarayonida quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: o'quvchilarning darsda faolligini oshirish; real vaqt rejimida muloqot va fikr almashish; multimedia vositalaridan foydalanish orqali mavzuni yanada tushunarli qilish; masofaviy ta'lim sharoitida sifatli aloqa o'rnatish; o'quv materiallarini elektron ko'rinishda saqlash va ulashish imkoniyati. Sifatli raqamli infratuzilmasiz interfaol texnologiyalar to'laqonli ishlamaydi yoki o'z funksional samaradorligini yo'qotadi.

Olim va amaliyotchilarni o'quv jarayonini texnologiyalashtirishga, ya'ni o'qitishni ishlab-chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga urinib ko'rish mumkin, degan fikrga olib keldi. Bunday fikrning tug'ilishi pedagogika fanida yangi pedagogik texnologiya yo'nalishini yuzaga keltirdi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, pedagogik texnologiya o'qituvchini ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi [1].

Interfaol ta'lim jarayonida mashg'ulotlar bolalarning o'zaro muloqotlari asosida amalga oshiriladi. Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati, ta'siri ostida bilimlarni o'zlashtirishni kafoiatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Jumladan asosiy mezonlar - norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o'qish, o'rganish, seminarlar o'tkazish, o'quvchilarni tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalardan iborat. Interfaollik, bu - o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni, bunda o'quvbiluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida, dialog shaklda (kompyuter aloqasi) yoki o'qituvchi-o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida kechadi.

Interfaol ta'lim o'z xususiyatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali, evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat-dars jarayonini loyihalash orqali, muamoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali, kreativ-ijodkorlik asosida, axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o'z ichiga oladi. Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta'lim o'z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o'qitish, masofadan o'qitish, internet tarmoqlari asosida o'qitish, media-ta'lim metodlaridan iborat [2].

Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchaniik va boshqa yo'nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular boalarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, nutq o'stirish, til o'rgatish, yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi.

Didaktik o'yinli metodlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular bola shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Bu metod o'quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiga, o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof-muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to'siqlarni, qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

O'qituvchi interfaol ta'lim, mustaqillik, o'zini o'zi boshqarish, samarali muloqot, tengdoshlari bilan ishlash, ularning g'oyalarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, muqobil g'oyalarni targ'ib qilish orqali o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantiradi. Erkin ifoda etish, o'z nuqtai nazarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga harakat qilish va yengish qobiliyati qiyin vaziyatlar bilan bog'liqdir. Eng muhimi, interfaol ta'limdan foydalangan holda o'qituvchi ma'lum bir ta'lim maqsadiga erishish uchun talabalarga yo'naltirilgan birgalikdagi sa'y-harakatlarni tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish, nazorat qilish va tahlil qilish orqali ob'ektiv baholash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu munosabat bilan amerikalik psixolog va o‘qituvchi B. Bloom kognitiv va hissiy sohalarda pedagogik maqsadlar taksonomiyasini yaratdi. Bu Blum taksonomiyasi deb ataladi. (Taksonomiya tasniflash va tizimlashtirish nazariyasi mavjudlikning murakkab tuzilgan sohalari). Unga ko‘ra, tafakkurning rivojlanishi bilim, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, umumlashtirish, baholash darajalarida sodir bo‘ladi [3].

Ta’lim jarayonida o‘quvchilar va talabalar asosiy predmentlarga aylanadi. Shuning uchun ham oliy o‘quv yurtlari fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o‘qitish metodlari - interaktiv metodlar, zamonaviy pedagogik va psixologik metodlarni tayyorlashda innovatsion texnologiyalarning o‘rni va roli kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o‘quvchilar va talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lib shakllanishini ta ’minlaydi.

Innovatsion texnologiyalarga asoslangan pedagogik va psixologik metodlardan foydalanish jarayonlarida o‘qituvchilar va talabalar faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to‘liq foydalaniladi.

Interaktiv metodlar bu - jamoa bo‘lib fikrlash deb yuritiladi, ya’ni pedagogik va psixologik ta’sir etish usullari ta’limning asosiy mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Odatda interfaol o‘quv faoliyati quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

shaxsiy;

juftlik;

guruh;

jamoaviy ish.

Bu mezon turli xil metodlarni u yoki bu doiradagi vazifalarni yechish imkoniyatlarini baholash yo‘li bilan joriy etiladi, chunki ijtimoiy tajriba elementlarini o‘zlashtirishda ularning imkoniyatlari turlichadir .Interfaol metodlarni tanlashning navbatdagi mezoni ularning ta’lim mazmuni xususiyatiga mos kelishdir. Bir metod yordamida mavzu mazmuni to‘laroq ochib berilsa, boshqasi uni ijobiy o‘zlashtirishga imkon tug‘diradi. Interfaol metodlarning tanlashning yana bir mezoni ularning talabalar o‘quv imkoniyatlariga to‘liq mos kelishi ya’ni samarali o‘quv faoliyati uchun ichki va tashqi shart-sharoitlarining birligini ta’minlashdir.

Interfaol o‘qitish metodlaridan foydalanishda pedagogning xususiy imkoniyatlariga mos kelishi lozim. Bu pedagogning o‘qitish metodlari nazariyasi va amaliyoti bilan o‘qitsh jarayoning qonuniyatlari bilan bilish nazariyalari ta’lim mazmuni nazariyasi va boshqa mavjud qonunlar bilan tayyorlanganllik darajasini hisobga oladi. Interfaol metodlarni tanlash mezonlaridan o‘quv jarayonini tashkil etish shakllari bilan mos kelishidir. O‘qitishning yalpi, guruhli va individual shakllari turlicha metodlarni talab etadi [4].

Interfaol usullar ko‘p turli bo‘lib, ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, o‘qituvchidan mashg‘ulot oldidan katta tayyorgarlik ko‘rishni talab qiladi. Shu mashg‘ulotlarni tashkil qilishda interfaol darsning asosiy xususiyatlarini uning an’anaviy darsga nisbatan ayrim farqlarini ko‘rib chiqish orqali yaqqolroq idrok etish mumkin.

O‘quv rejadagi fanlarni o‘qitishda qaysi mavzular bo‘yicha interfaol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Bunda hap bir mavzu bo‘yicha mashg‘ulotning maqsadiga to‘liq erishishni ta’minlaydigan interfaol yoki an’anaviy mashg‘ulot turlaridan foydalanish ko‘zda tutiladi.

Interfaol mashg‘ulotning samarali bo‘lishi uchun talabalar yangi mashg‘ulotdan oldin uning mavzusi bo‘yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma’lumotlarni bilishlarini ta’minlash zarur.

Interfaol mashg‘ulotda talabalarning mustaqil ishlashlari uchun an’anaviy mashg‘ulotga nisbatan ko‘p vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.

Interfaol ta’lim usullari O‘zbekistonda qadim zamonlardan beri ta’lim-tarbiya jarayonida muallim bilan talabalar hamda talabalar bilan talabalar o‘rtasidagi muloqotlarda muhokama, munozara, mo‘zoqara, mushohada, tahlil, mashvarat, mushoira, mutolaa kabi shakllarda qo‘llab kelingan.

Bu usullar talabalarning nutq, tafakkur, mulohaza, zehn, iste’dod, zakovatlarini o‘stirish orqali ularning mustaqil fikrlaydigan, komil insonlar bo‘lib etishishlariga xizmat qilgan.

Hozir interfaol mashg‘ulotlarni olib borishda ma’lumki, asosan interfaol usullar qo‘llanilmoqda. Kelgusida esa bu usullar ma’lum darajada interfaol texnologiyaga o‘sib o‘tishi maqsadga muvofiq. Bu interfaol usul hamda texnologiya tushunchalarining o‘zaro farqini bizningcha, shunday ta’riflash mumkin. Interfaol ta’lim usuli – har bir o‘qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o‘z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir talaba o‘z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o‘zlashtiradi.

Interfaol ta’lim texnologiyasi - har bir o‘qituvchi barcha talabalar ko‘zda tutilgandek o‘zlashtiradigan mashg‘ulot olib borishini ta’minlaydi. Bunda har bir talaba o‘z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg‘ulotni oldindan ko‘zda tutilgan darajada o‘zlashtiradi.

Interfaol mashg‘ulotlar o‘ziga xos tashkiliy to‘zilishga ega bo‘lib, uni tashkil qilish va olib borish bo‘yicha faoliyat turlari alohida ajratilgan va har biri bo‘yicha alohida vazifalar shaklida nomlar berilgan. Bunda bir mashg‘ulot jarayonida shu mashg‘ulotni olib boruvchi bir vaqtda ushbu turli vazifalarni bajarishi ko‘zda tutiladi. Shu bilan birga bir mashg‘ulotni ikki yoki uch pedagog yoki yordamchilar birgalikda olib borishi ham qo‘llaniladi.

Interfaol metodlarni mashg‘ulot maqsadiga muvofiq tanlash. Interfaol mashg‘ulot turlari ko‘p bo‘lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko‘zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishlicha tayyorgarlik ko‘riladi.

Interfaol mashg‘ulotda ishtirok etish uchun talabalarning tayyorliklariga o‘ziga xos talablar qo‘yiladi, bo‘lar mashg‘ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o‘zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o‘zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o‘z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko‘nikmalari va boshqalardan iborat.

Mashg‘ulotda vaqtdan unumli foydalanish zarur shart hisoblanadi. Buning uchun zarur vositalarni to‘g‘ri tanlash, tayyorlash hamda mashg‘ulot o‘tkazuvchilar va ularning vazifalari aniq belgilangan bo‘lishi lozim.

Interfaol metodlar bilan an’anaviy ta’lim usullari orasida o‘ziga xos farqlar mavjud bo‘lib, har bir o‘qituvchi bu farqlarni qiyoslashi, ularning bir-biriga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini darsni rejalashtirish va uni o‘tkazish usullarini tanlashda to‘g‘ri hisobga olishi zarur.

Bunda yangi bilimlarni berish, ko‘nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarni takrorlash, amalda qo‘llash mashg‘ulotlarida hamda o‘quv fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir mavzu bo‘yicha mashg‘ulot uchun eng maqsadga muvofiq bo‘lgan interfaol yoki boshqa metodlarni to‘g‘ri tanlash nazarda tutiladi. To‘g‘ri tanlangan metodlarni qo‘llash mashg‘ulotning qiziqarli va samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Interfaol metodlar konstruktivizm nazariyasi bilan bog‘liq bo‘lib, bu metodlardan amalda foydalanishda konstruktivizmning quyidagi asosiy xulosalarini hisobga olish lozim:

Tinglovchi o‘zi o‘rganishi kerak, aks holda unga hech kim hech narsani o‘rgata olmaydi;

O‘qituvchi talabalarga bilimlarni “kashf qilishga” yordam beradigan jarayonni tashkil qiladi;

Bilim borliqdan ko‘chirilgan nusxa emas, uni odam shakllantiradi.

Interfaol metodlarni tanlash mezonlaridan keyingisi-ularning o‘quv jarayonini tashkil etish shakllari bilan mos kelishidir. O‘qitishning yalpi, guruhli va individual shakllari turlicha metodlarni talab etadi. Misol uchun debat metodi ikki talaba o‘rtasidagi bahs hisoblansa, “aqliy hujumda” guruhdagi barcha talabalarning ishtiroki zarur bo‘ladi. Interfaol metodlarning pedagogik texnologik prinsiplariga mos kelishi umumlashtiruvchi mezon hisoblanadi [4].

Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;

ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;

ilgari orttirilgan bilimlarning ham e’tiborga olinishi;

ta’lim jarayoni ta’lim oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi;

ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;

amalda bajarish orqali o‘rganilishi;

ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o‘rganish va amalda qo‘llash o‘quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to‘g‘ri yechimini

topishlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o‘quvchi-talabalarning bilim, ko‘nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

Interfaol metodlar deganda – ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi.

Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
ilgari orttirilgan bilimlarning ham e’tiborga olinishi;
ta’lim jarayoni ta’lim oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
amalda bajarish orqali o‘rganilishi; ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Shunday qilib, fanlarni o‘qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o‘ziga xos xususiyatga ega. Ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o‘rganish va amalda qo‘llash o‘quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to‘g‘ri yechimini topishlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o‘quvchi-talabalarning bilim, ko‘nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

Yuqorida aytilganlardan interfaol ta’lim metodlarini tegishlicha tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma’lum bo‘ladi. Quyida ushbu masala yuzasidan umumiy mulohazalarni keltiramiz. Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta’lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin.

Yuqorida aytilganlardan interfaol ta’lim metodlarini tegishlicha tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma’lum bo‘ladi. Quyida ushbu masala yuzasidan umumiy mulohazalarni keltirib o‘tamiz. Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta’lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin [5].

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta’lim metodlari quyidagilar sanaladi: Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O‘quv keyslari”), “Blist-so‘rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta’lim” va Interfaol ta’lim strategiyalari: “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor” va boshqalar.

Interfaol ta’lim metodlari tarkibidan interfaol ta’lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma’lum ma’noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko‘proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo‘lib, ularning orasida boshqa farqlar yo‘q.

Interfaol metodlardan foydalanish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi. O‘quvchilarning faolligi oshadi – ular bilim olish jarayonida passiv emas, balki faol ishtirokchiga aylanadi.

Mustaqil fikrlash rivojlanadi – muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini shakllantirish va asoslash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Jamoada ishlash qobiliyati kuchayadi – guruh ishlarida ishtirok etish orqali o‘quvchilar hamkorlik qilishni o‘rganadilar.

Yangi bilimlarni eslab qolish samaradorligi oshadi – interfaol metodlar orqali olinadigan bilimlar uzoq muddatga yodda qoladi.

Texnologik savodxonlik rivojlanadi – zamonaviy ta’lim vositalari bilan ishlash malakalari shakllanadi [6].

Xulosa qilib aytganda, interfaol ta’lim usullaridan tobora ko‘proq foydalanish ushbu soha uchun ijobiy evolyutsiyani anglatadi. Passiv ma’ruzalar bilan taqqoslaganda, o‘zaro ta’sirlar talabalarning faolligini oshiradi, bilimlarni saqlaydi va yuqoridarajadagi fikrlash va hamkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, ular o‘qituvchilarga moslashtirilgan darslarni loyihalash uchun

moslashuvchanlik va ijodkorlikni taklif etadi. Amalga oshirish ba'zi logistika qiyinchiliklarini keltirib chiqarsada, ularni yetarli tayyorgarlik va resurslar bilan yengib o'tish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Argail M., 2003. Baxt psixologiyasi. Sankt-Peterburg: Piter, 272-bet.
2. Bogdanova S.V., Bratchikova V.S. 2011. Magistratura talabalarini tayyorlashda innovatsion o'qitish usullaridan kompleks foydalanish modelini amalga oshirish. Stavropol AIK axborotnomasi (Iqtisodiyot). 3(3): 59-63.
3. Valeeva M.A. 2009. O'qitishning interfaol usullaridan foydalanish talabaning ijtimoiy kasbiy tajribasini shakllantirish sharti sifatida. Sibir pedagogika jurnali, 4: 88-98.
4. Jumamuratov R.E. "Oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirishda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar o'rni". Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali 3.12 (2023): 385-389.
4. Azizxujaeva N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. 2002. 26-28.
5. Rozikov O., Ogaev S., Maxmudov A., Adizov B. Ta'lim texnologiyasi. –2012. 103-105.

Turdimurodov Baxtiyor Qurbonovich
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi oqituvchisi
E-mail: baxtiyor.turdimurodov6668@gmail.com

BO‘LAJAK PROFESSIONAL TA’LIM O‘QITUVCHILARINING LABORATORIYA TAJRIBALARINI O‘RGANISHDA KREATIVLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchilarining laboratoriya tajribalarini o‘rganishda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llarini va shu bilan birga kreativlik qobiliyatlarini oshirishga alohida to‘xtalgan. Bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri sanaladi. Shu sababli maqolamizda talabalarning laboratoriya tajribalarini o‘rganishda kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish e‘tiborga olingan.*

Kalit so‘zlar: *Kreativlik, qobiliyat, kreativ qobiliyat, innovatsion uslub va yondashuvlar, laboratoriya tajribasi, innovatsion pedagogik texnologiyalar, ijodiy fikrlash.*

РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ЛАБОРАТОРНЫХ ОПЫТОВ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются эффективные способы развития креативных качеств будущих преподавателей профессионального образования в процессе изучения лабораторных опытов. Особое внимание уделено вопросам повышения уровня креативных способностей студентов, так как развитие творческого потенциала будущих педагогов является одним из актуальных направлений современной педагогики. В статье анализируются пути совершенствования креативного мышления при выполнении лабораторных работ, а также подчёркивается необходимость применения инновационных педагогических технологий.*

Ключевые слова: *креативность, способность, креативные способности, инновационные методы и подходы, лабораторный опыт, инновационные педагогические технологии, творческое мышление.*

DEVELOPING THE CREATIVE ABILITIES OF FUTURE VOCATIONAL EDUCATION TEACHERS IN STUDYING LABORATORY EXPERIMENTS

Annotation. *This article explores effective methods for developing the creative qualities of future vocational education teachers during the study of laboratory experiments. Special attention is given to enhancing students’ creative abilities, as fostering creativity has become one of the most urgent issues in modern pedagogy. The paper analyzes ways to improve creative thinking through laboratory work and highlights the importance of applying innovative pedagogical technologies to strengthen students’ creative potential.*

Key words: *creativity, ability, creative abilities, innovative methods and approaches, laboratory experiment, innovative pedagogical technologies, creative thinking.*

Kirish. Mamlakatimizda ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tirof etilmoqda. Bu maqsadni amalga oshirishda ta’limning yangi-yangi modellari yaratilmoqdaki, uning nazariy-metodik asoslari yetakchi mutaxassis-olimlar tomonidan ilmiy-amaliy tarzda isbotlab berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev: “Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha murakkab vazifalar turibdi. Yana bir muammoni hal etish muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta’lim olish,

ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur.." deb ta'kidlab o'tganlar.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetentsiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy qilish borasida chora-tadbirlar belgilab berildi[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi axborot-komunikatsiya texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan, globallashuv va dunyo bozorida raqobat tobora kuchayib borayotgan bir davrda, demokratik taraqqiyot, moderinizatsiya va yangilanish borasida ko'zlangan natijalarga erishishda hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash bosh maqsadimizdir. Chunki mamlakat iqtisodiyotini rivojlantiradigan kadrlar ta'lim muassasaslarida o'qib-ulg'ayadi. Demak, sifatli ta'lim tizimi sifatli kadrlarni, sifatli kadrlar esa rivojlangan, boy jamiyatni quradi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining (YuNESKO, NENISEF) Xalqaro forumida qabul qilingan 2030 yilgacha ta'lim deklaratsiyasida "... ta'lim sifatini oshirish va shaxsning butun umri davomida ta'lim olishini muvofiqlashtirish va monitoringini o'tkazish" e'tirof etilgan bo'lib unda, malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonida zamonaviy bilim – tajribalar, ta'lim texnologiyasi, innovatsion va interfaol metodlar, ta'limning didaktik vositalari, axborot texnologiyalaridan foydalanishning sifat va samaradorligini oshirish zarurati yuzaga kelganligi aytilgan.

Jahon miqyosidagi ta'limda laboratoriya tajribalarini interfaol dasturiy vositalar hamda ularning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlar yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida qator, ilmiy natijalar olingan, jumladan muammoli o'qitishning interfaol ta'lim texnologiyalari ishlab chiqilgan (Leiden University), laboratoriya tajribalarini axborot texnologiyalari asosida bajarishda talabalarning fikrlash tafakkurini rivojlantirishning interfaol dasturiy vositalari yaratilgan (Polish Society For Himan Evolution Studics), o'quv-metodik, ilmiy tadqiqot jarayonlarining integratsiya va differensiatsiya ustuvorligi asosida modulli ta'lim tizimi ishlab chiqilgan (Center for Celiutar and Molceular Biology); tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirishda xalqaro baholash dasturlari PISA (Programma for International Student Assessment) dan foydalanish metodikasi ishlab chiqilgan (Rossiya ta'limni rivojlantirish strategiyalari instituti)[2].

Kreativlik talabalarning dunyoqarashi, birinchidan, kreativ faoliyat strategiyasini ko'rsatib beradi; ikkinchidan, natijalariga baho berishda ishonchli, tartibga soluvchi ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. Va, albatta, M.Plank bu borada haq bo'lgan, u shunday deb ta'kidlaydi, tadqiqotchining dunyoqarashi har doim uning kreativ yo'nalishini belgilaydi. Qobiliyat tarkibida Talabalarning axloqiy sifatlari va xususiyatlari o'ziga xos funksiyalarni bajaradi. Ular Talabalarning axloqiy qoidasi va yuksak maqsadlari, axloqiy odobi va talablarini ifoda etadi. Kreativ qobiliyat rivojlanishi jarayonida juda muhim vazifalarni bajaradi.

Ta'kidlash joizki, dunyoqarash bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilari kreativ imkoniyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. B.S.Shayginaning "Ijodkorning dunyoqarashi tajribada asosiy omil, uning yetarli ekanligi Talabalarning butun kreativlik xususiyatini yo'qqa chiqarishi mumkin" – degan fikriga to'la qo'shilish mumkin.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

Kreativlik (lot., ing. "sreate" – yaratish, "sreative" yaratuvshi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovshi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvshi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi.

P.Torrens fikrisha, "kreativlik" tushunchasi negizida quyidagi yoritiladi: muammoga yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirshanlik.

Modomiki, kreativlik – aqliy jarayon ekan, odam aqlini yuksaltirishning, rivojlantirishning, uning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanishning bitmas-tuganmas yo‘llari va usullari, albatta, topiladi.

Bu borada mutaffakir Abu Ali ibn Sino qarashlarida ham kretavlikni talqin etishmiz mumkin. Uning qarashlarida o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining mayl, intilish, faolligi, qobliyati, iste’dodi va layoqatini aniqlamasdan turib, uni ijodiy fikrlashga yo‘naltira olmaydi degan.

Mutaffakir Jalolidin Davoniy “Axloqi Jaloliy” nomli asarida insoniy fazilatlarda aqliy qobiliyat va aqliy iste’dodni tarbiyalash uchun zukko, zehnli, fahm-farosatli, ijodkor bo‘lishi va bilimlarni tez eslab qolishi, ularni anglab yetish lozimligini ta’kidlagan.

Mutafakkir Zahiriddin Muhammad Bobur qarashlarida ham kreativlikni ko‘rishmiz mumkin: U inson shaxsining taraqqiy ettirishning asosiy yo‘llaridan biri deb muammoli vaziyatni, ijodkorlikni tushunadi va undan o‘z faoliyatida unumli foydalangan.[3]

Tahlil va natijalar. Kreativlik (ijodiylik) – qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, yangicha fikrlash, original g‘oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon. Tushunchaga berilgan ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, kreativlik ham xuddi tashabbuskorlik, ishga ijodiy yondashuv xislatlari singari albatta tug‘ma, ilohiy tuhfa bo‘lishi aslo shart emas.

Kreativlikni rivojlantirish ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda ta’lim oluvshilarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi.

Bunda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi: ta’lim oluvshilarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta’lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta’minlash; “ta’lim oluvshilar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g‘oyalarni bag‘rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minlash, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag‘batlantirish; ta’lim oluvshilarda individual, kichik” guruhlar va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undash; kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo‘lgan bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg‘ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq etish va hokazo[4].

Laboratoriya tajribalarini axborot texnologiyalari asosida bajarishda yuqori baho olishga intilish, kreativ faoliyatda muvaffaqiyatga erishish Talabalarning uchun natijaga baho berish ahamiyati bilan ifoda etiladi.

Baho berish uchun bo‘lajak professional ta’lim o’qituvcilarining laboratoriya tajribalarini axborot texnologiyalari asosida bajarishda muvaffaqiyatsizlikdan umidsizlanishi, rag‘batlantirishga munosabati, o‘z natijalariga baho va maqtovlardan ta’sirlanishi asos qilib olindi.

Kreativ vaziyat-bu bo‘lajak professional ta’lim o’qituvcilarining dunyoqarashidagi ba’zi dialektik qarama-qarshilikni hal qilish taqozo qilib bu bir vaqtning o‘zida shaxsning saloxiyatini rivojlantirishni rag‘batlantiradigan yangi usul, texnika, faoliyat vositalarini izlashga undaydi. Kreativ vaziyatlar quyidagilardan iborat:

munozarali vaziyat;

tanqidiy fikrlash, baholashni talab etuvchi vaziyat;

o‘xshashlarni qo‘llashni talab etuvchi vaziyat;

taxmin qilish, farazlarni ilgari surish vaziyatlari va boshqalar.

Bo‘lajak professional ta’lim o’qituvcilarinig shaxs kreativligi uning tafakkurida xis tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namayon bo‘ladi. Masalan muamoli tajribalarni bajarishda ular uzviy birlikda va yuqori darajadagi kreativ qobiliyatda namoyon bo‘lib, bular ilg‘or ijtimoiy, shaxsiy va kreativ natijalarga erishishga imkon beradi. Ko‘pincha kreativ talabalarning bir turdagi faoliyatda muvaffaqiyatlarga erishadi. Har tomonlama rivojlangan bo‘lajak professional ta’lim o’qituvcilari-bu shunday toifadagi kreativ bo‘lajak professional ta’lim o’qituvcilariki, unga kreativ tarzdagi faoliyat xos, ya’ni bunday talabalarning uchun yuqori darajadagi talab, maqsad, qadr-qimmat, ishtiyoq, kreativ qobiliyat, xulq-atvor sifatlari xosdirki, ular talabalarning hayoti, faoliyatining asosiy yo‘nalishlarida yuqori darajadagi kreativ natijalarga erishishga olib keladi.

Professional ta’lim o‘qituvchilaridan muammoli tajribalar bajarishga doir o‘quv materiali turli shakllarda ifodalanadi. Masalan, muammoli tajribalar bajarishga oid o‘quv materialining asosiy

g‘oyasini matn ko‘rinishida, ko‘nikma yoki malaka darajasida shakllantirish rejalashtirilgan faoliyatni dasturlar ko‘rinishida, o‘zlashtirilganligi darajasi aniqlanayotgan bilimlarni test topshirig‘i shaklida, muammoli tajribalar bajarish shaklida, bo‘lajak professional ta’lim o’qituvcilarilarda bilishga rag‘batni oshirish uchun muammo shaklida, ularni kreativ faoliyatga undash maqsadida topshiriq shaklida, faollikni rivojlantirish uchun o‘yin va h.k. ko‘rinishda ifodalash mumkin. Ularning barchasi ta’lim jarayonida bo‘lajak professional ta’lim o’qituvcilarining bilimlarni o‘zlashtirishlari uchun vosita vazifasini bajaradi, xolos.

Bunday vositalarning har biri xususida quyida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz[5].

Kompyuterli ta’limda professional ta’lim o‘qituvchilaridan laboratoriya tajribalarini bajarishga doir o‘quv materiallarining mazmuni matn va jadvallar ko‘rinishida kompyuter ekranida namoyish qilinadi. Bunday laboratoriya tajribalarini bajarishga oid o‘quv materiallari matnlari mazmunan chuqur ilmiy-g‘oyaviy va mantiqiy ketma-ketlikda bo‘lishi hamda talabalar uchun tushunarli, hissiyotga boy va sodda tilda yoritilishi lozim.

Muhokama. Bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchilarining laboratoriya tajribalarini o‘rganish jarayonida kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi ta’lim tizimida eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zero, laboratoriya ishlari nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki talabaning mustaqil fikrlashi, muammoni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish, noodatiy yondashuvlarni tatbiq etish va ijodiy qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, laboratoriya mashg‘ulotlari talabalarda kreativlikning rivojlanishi uchun qudratli pedagogik mexanizm vazifasini bajaradi.

Kreativlikni rivojlantirish, avvalo, laboratoriya jarayonining mazmuni va metodikasiga bevosita bog‘liq. Agar tajriba jarayoni faqat ko‘rsatma asosida bajarilsa, talabada mustaqil izlanish, yangi g‘oya taklif qilish yoki tajribani o‘zgaruvchan sharoitlarda qayta yaratish uchun zarur bo‘lgan ijodiy yondashuv shakllanmaydi. Shu sababli laboratoriya mashg‘ulotlari loyihaviy faoliyat, muammoli vaziyatlar yaratish, qiyosiy tahlil qilish, tajribalarni takomillashtirish va natijalarni o‘ziga xos tarzda talqin qilish kabi o‘quv texnologiyalari bilan boyitilishi maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, kreativlikning shakllanishida o‘qituvchining pedagogik pozitsiyasi muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchi talabaga tayyor bilimni berish emas, balki uni izlanishga yo‘naltirishi, savollar orqali fikrlashga undashi, erkin tajriba qilish imkonini berishi lozim. O‘qituvchining qo‘llab-quvvatlovchi, rag‘batlantiruvchi va o‘zlashtiruvchi munosabati talabaning ijodiy faolligini oshiradi, laboratoriya jarayonida o‘z g‘oyalari va qarashlarini qo‘rquvsiz ifoda eta olishiga yordam beradi.

Laboratoriya tajribalarining yana bir muhim jihati – STEAM yondashuvini qo‘llashdir. Fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika integratsiyasi talabalarga murakkab jarayonlarni turli nuqtai nazardan baholash, tajribalarni yangi model asosida qayta tashkil etish, texnik va ijodiy tafakkurni uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Bu esa kreativlikning asosiy komponentlari bo‘lgan tasavvur, tahliliy fikrlash va original g‘oya yaratish jarayoniga bevosita xizmat qiladi.

Kreativlik qobiliyatlarining rivojlanishida motivatsiya ham muhim omillardan biridir. Talaba laboratoriya tajribalarining mazmunini o‘z kasbiy faoliyatiga nechog‘lik bog‘lay olsa, uning o‘quv jarayonidagi faolligi, yangilik yaratishga bo‘lgan intilishi kuchayadi. Shuningdek, o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va kelgusi tajribalarni takomillashtirishga qaratilgan refleksiv yondashuv kreativlikning mustahkamlanishida samarali natijalar beradi.

Umuman olganda, laboratoriya tajribalarini o‘rganish jarayonida kreativlikni rivojlantirish talabalarning fan asoslarini puxta egallashi bilan bir qatorda, ularda mustaqillik, tashabbuskorlik, amaliy fikrlash va texnik tafakkurni shakllantiradi. Bu esa kelajakdagi professional faoliyatda innovatsion yondashuvlarni qo‘llay oladigan, yangilik yaratishga qodir, kreativ fikrlaydigan o‘qituvchilarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Olingan xulosa va bildirilgan tavsiyalardan o‘quv jarayoni sifatini ta’minlashda, professional ta’lim o‘qituvchilarining laboratoriya tajribalarini o‘rganishda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llari ochib berish, ta’lim muassasalari faoliyatida kreativ yondashuv asosida o‘qitishni takomillashtirish jarayoniga xizmat qiladi.

Xulosa shundan iboratki, laboratoriya tajribalarini texnik qurilmalar yordamida ishlatishda kompyuter dasturlari yordamida tahlil qilish imkoni mavjud. Bu laboratoriya tajribalarini bo‘lajak

professional ta'limi oqituvchilarining kreativ fikrlash ko'nikmasini takomillashtiirsh zarur va kompyuter dasturlarini mustaqil va amaliy ishlata olishligi muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagi PF-89-son Farmoni tahririda - Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son).

2. Incheon declaration /Education 2030: Towards inclusive and editable quality education end lifelong learning jor ail (Worid Education Forum. 19-22 may, 2015 y. Incheon. Republic of Korea).

3. Turdimurodov B. K. Professional ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish metodologiyasi.Ta'lim, fan va innovatsiya. Ma'naviy-ma'rifiy,ilmiy-uslubiy jurnal. ISSN 2181-8274,2023yil 4-son – C. 338-342.

4. Turdimurodov B. Professional ta'lim axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini tayyorlashda kreativlik ko'nikmasini shakllantirish. electronic education.Scientific journal.September,2023,No4,Vol.3 ISSN 2181-1199 – C. 83-97.

5. Turdimurodov B. et al. Tibbiyotda kompyuter texnologiyalari: aloqa tarixi, ahamiyati va istiqbollari //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2023. – T. 2. – №. 7. – C. 140-146.

6. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). –Alexandria –Virginia, USA: ASCD, 2014. –p. 4.

7. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: ped.f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtoreferati. - T.: 2017,39 b

Xudayberdiyev Inom Xasanovich
O‘zbekiston Respublikasi harbiy xavsizlik va mudofaa universiteti
umumiy taktika kafedrasi o‘qituvchisi, iste’fodagi podpolkovnik

INTERFAOL TA’LIM TEXNOLOGIYALARI SAMARADORLIGIGA TA’SIR QILUVCHI DIDAKTIK OMILLAR: DARS JARAYONINI LOYIHALASH VA BOSHQARISH MODELI

Annotatsiya. *Maqolada interfaol ta’lim texnologiyalari samaradorligiga ta’sir qiluvchi didaktik omillar tizimli tarzda yoritiladi. Tadqiqot dars jarayonini loyihalash va boshqarishning zamonaviy modelini ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, unda maqsadni aniqlash, o‘quv faoliyatini tashkil etish, mazmunni didaktik modullarga ajratish, baholash strategiyalarini uyg‘unlashtirish kabi jarayonlar ketma-ketlikda tahlil qilinadi. Model o‘qituvchi boshqaruvchisi, o‘quvchi faol sub’ekti va ta’lim muhiti o‘zaro ta’sirining dinamik tuzilmasiga tayangan holda ishlab chiqilgan. Shuningdek, darsning bosqichma-bosqich konstruksiyasi, interfaol usullarning tanlanish mezonlari, kommunikativ va refleksiv jarayonlarning uyg‘unlashuvi ham o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlari: *didaktik omillar, darsni loyihalash, dars jarayonini boshqarish, ta’lim texnologiyasi, interfaol metodlar, o‘quv faoliyati, uyg‘unlashtirilgan model, baholash strategiyalari, kognitiv faollik.*

ИНТЕРАКТИВНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ДИДАКТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ИХ ЭФФЕКТИВНОСТЬ: МОДЕЛЬ ПРОЕКТИРОВАНИЯ И УПРАВЛЕНИЯ УЧЕБНЫМ ЗАНЯТИЕМ

Аннотация. *В статье системно раскрываются дидактические факторы, влияющие на эффективность интерактивных образовательных технологий. Исследование направлено на разработку современной модели проектирования и управления учебным занятием, в рамках которой последовательно анализируются процессы определения цели, организации учебной деятельности, распределения содержания на дидактические модули и согласования стратегий оценивания. Модель основана на динамической структуре взаимодействия преподавателя-менеджера, активного обучающегося как субъекта и образовательной среды. Кроме того, рассматриваются поэтапная конструкция занятия, критерии выбора интерактивных методов, интеграция коммуникативных и рефлексивных процессов.*

Ключевые слова: *дидактические факторы, проектирование урока, управление учебным процессом, образовательная технология, интерактивные методы, учебная деятельность, интегрированная модель, стратегии оценивания, когнитивная активность.*

DIDACTIC FACTORS AFFECTING THE EFFECTIVENESS OF INTERACTIVE LEARNING TECHNOLOGIES: A MODEL FOR LESSON DESIGN AND MANAGEMENT

Annotation. *The article provides a systematic analysis of the didactic factors influencing the effectiveness of interactive learning technologies. The research focuses on developing a modern model for lesson design and management, in which the processes of goal setting, organization of learning activities, structuring content into didactic modules, and aligning assessment strategies are examined step by step. The model is based on a dynamic structure of interaction between the instructor as a manager, the learner as an active subject, and the learning environment. The study also explores the step-by-step construction of the lesson, criteria for selecting interactive methods, and the integration of communicative and reflective processes.*

Key words: *didactic factors, lesson design, lesson management, educational technology, interactive methods, learning activity, integrated model, assessment strategies, cognitive engagement.*

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori

malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi.

Bu Proceedings of MMIT’23 International Conference 25 May 2023y. 177 esa o‘z navbatida pedagog kasbining yanada murakkablashuvi, mas’uliyati va vazifalarining ortishiga olib keladi. Chunki ommaviy ta’limning bugungi sharoitida yangi raqamli avlod bilan ishlash, ularni rivojlantirish, jahon talablariga mos qilib kasbga tayyorlash zamonaviy o‘qituvchidan yuksak texnologik bilim, salohiyat va mehnatni talab qiladi [1].

Ta’lim taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuch – bu o‘zida didaktik masalalar va ta’lim texnologiyalarini mujassamlashtirgan pedagogik tizim hisoblanadi. Ta’lim texnologiyasining muvaffaqiyatli loyihalanishi va yakuniy natijaning kafolatlanishi o‘qituvchining didaktik masalalar mohiyatini anglab yetish darajasiga, ularni to‘g‘ri belgilash, tanlash va samarali qo‘llay olishga bog‘liqdir. Barchaga ma’lumki, zamonaviy ta’lim o‘quvchilar uchun informativ, qiziqarli va maroqli bo‘lsa, kutilayotgan o‘qitish maqsadlariga erishish mumkin.

Didaktika pedagogika va ma’rifiy nazariyaning nisbatan mustaqil qismi bo‘lib, o‘qitish va o‘qish jarayonlari, ya’ni bilim, ko‘nikma va malakalar o‘zlashtirilishi hamda e’tiqodlar shakllanishining umumiy qonuniyatlarini ochib beradi, ma’rifat (ta’lim-tarbiya) mazmunining hajmi va tuzilmasini belgilaydi. “Didaktika” so‘zi yunoncha “o‘qitish”, “o‘rgatish” ma’nosini anglatadi.

Didaktika - ta’lim jarayoni, uning mazmuni, qonuniyatlari va tamoyillari, shuningdek shakllari, metodlari va vositalarini ilmiy asoslab beruvchi ta’lim nazariyasi, pedagogikaning alohida sohasidir. Bu termin nemis pedagogi V. Ratke (1571-1635) tomonidan uning “Di-daktika yoki ta’lim san’ati» deb nomlangan ma’ruzasida (1613) fanning nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qiluvchi ilmiy yo‘nalish sifatida qo‘llanilgan.

Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari Ya.A. Komenskiy tomonidan ishlab chiqilgan. Bizga ma’lumki u 1657-yilda chex tilida “Buyuk didaktika” asarini yozadi. Ya.A. Komenskiy didaktikani «Hammani hamma narsaga o‘rgatuvchi san’at» sifatida talqin etadi. Shu bois didaktika pedagogikaning “Nima uchun o‘qitish kerak?”, “Nimani o‘qitish kerak?”, “Qanday o‘qitish kerak?”, “Qanday hajmda o‘qitish kerak?”, “Kimlarni o‘qitish kerak?”, “Qaerda o‘qitish kerak?”, “Nimadan foydalanib o‘qitish kerak?” kabi savollariga javob izlaydi [2].

Didaktika o‘z oldiga o‘qitishning o‘quvchilarni har tomonlama tarbiyalash maqsadlariga javob beruvchi umumiy qonuniyatlarni bilib olish vazifasini qo‘yadi. O‘qitish jarayoni pedagogning o‘rgatuvchilik faoliyatini va ta’lim oluvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o‘z ichiga oladi. Shu o‘rinda bu jarayonlarning tahliliga e’tibor qarataylik.

Ta’limda o‘qituvchining boshqaruvchilik roli o‘z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo‘lga kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib qo‘yadi.

Didaktika va metodika mustahkam aloqa hamda o‘zaro bog’liqliklikda amalga oshiriladigan jarayonlardir. Didaktika o‘qitishning umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi. Aniq bir predmetni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari xususiy metodikalarda ishlab chiqiladi.

Ta’lim metodlari ta’lim vositalari bilan birgalikda qo‘1laniladi. Ta’lim vositalari - bu yangi bilimlarni o‘zlashtirishi uchun o‘qituvchi va o‘quvchilar tomonidan foydalaniladigan obyekt. Ta’1im vositalari pedagogikada katta ahamiyatga ega.

Ta’limning barcha vositalari ta’lim maqsadlarini muvafaqqiyatli amalga oshiradi. Ta’lim vositalari o‘zida o‘quv-tarbiyaviy maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan moddiy yoki ma’naviy qadrıyatlarni aks ettiradi. Odatda ular ta’1im metodlariga mos holatda foydalaniladi. Biroq agar metodlar “qanday o‘qitish?” savoliga javob bersa, vositalar esa “uning yordamida nimani o‘qitish?” savoliga javob beradi.

Ta’lim oluvchilarni faqatgina davr talabiga javob bera oladigan faol o‘qitish usullari, shakllari, vositalarini qo‘llash, innovatsion yondashuv va hamkorlik orqali motivlashtirish mumkin. Shu sababli

ham, ilg‘or pedagog olimlar, novator professor-o‘qituvchilar va amaliyotchilar ilmiy asoslangan ta’lim texnologiyalarini o‘z faoliyatlarida keng qo‘llashga intilmoqdalar.

Ta’lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo‘llanilayotgan metodlar va vositalar samaradorligiga bog‘liq bo‘lib, u ta’lim nazariyasida asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. “Metod” - yunoncha “metodos” – “yo‘l” degan so‘zdan paydo bo‘lib, u, tadqiq qilish ma’nosini anglatadi. Ta’lim metodi ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatdir.

Ta’lim metodlari - o‘qitishning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o‘quv materialini nazariy va amaliy yo‘naltirish yo‘llarini anglatadi. O‘qitish metodlari ta’lim jarayonida ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyatining qanday bo‘lishi, o‘qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda ta’lim oluvchilar qanday ish-harakatlarini bajarishlari kerakligini belgilab beradi. Shuningdek, ta’lim metodi o‘qituvchi va ta’lim oluvchilarning o‘qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yo‘lidir [3].

Ta’lim metodlari tevarak-atrofdagi dunyoni bilishning umumiy qonuniyatlarini tushunishga bog‘liqdir, ya’ni ular falsafiy metodologik asosga ega va ta’lim jarayonidagi qarama-qarshiliklarni, ta’lim jarayonining mohiyatini va tamoyillarini to‘g‘ri anglash natijasidir.

Ta’lim materiali ta’lim mazmunida ifodalangan ilmiy fikr mantig‘iga bog‘liq. Pedagogik qarashlarda nazariya qancha kam ifodalangan bo‘lsa, ta’lim metodlari bu nazariyaga shuncha kam bog‘liq bo‘ladi. Pedagogika fani maktablar va ta’lim beruvchilarning ilg‘or ish tajribalarini umumlashtiradi, an'anaviy ta’limning ilmiy asoslarini ko‘rsatib beradi, o‘qitishning zamonaviy, samarali metodlarini ijodiy ravishda izlab topishga yordam beradi.

Shu sababli ham ta’lim metodlari oldiga quyidagi asosiy talablar qo‘yiladi:

1. O‘quv materialini o‘rganish yo‘li fikr yuritishning didaktik-materialistik usullarini, milliy mafkuraga hamda milliy qadriyatlarga asoslangan axloq, xulqatvorning irodaviy sifatlarini shakllantirishga olib kelishi kerak.

2. Ta’lim metodi ilmiy dalillar bilan aniq va ravshan asoslangan bo‘lishi lozim.

3. Ta’lim metodlarining tizimliligi ularning samaradorlik darajasini belgilaydi.

4. Ta’lim metodlari oldiga muqarrar sur'atda qo‘yiladigan yana bir talab – ularning tushunarli bo‘lishi.

Didaktik vositalar metodlar singari ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarni bajaradi. Bundan tashqari o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini hosil qilish, boshqarish va nazorat qilish vazifalarini bajaradi. Didaktik vositalar audivizuallik tafsilotida motivatsion, axborot, ta’lim jarayonini boshqarish, optimallashtirish funksiyalarini bajaradi.

Ta’lim vositasi fanni o‘qitish bilan bog‘liq holda tanlanadi. O‘qituvchi o‘zining ixtiyori bo‘yicha ko‘rgazmali material, o‘quv qo‘llanmadan foydalanishi mumkin. Ta’lim vositasini qo‘llanilishining yana bir jihati, albatta, ta’lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida aks ettirishidir. Ta’lim vositasini tanlab olish ta’lim metodini tanlash bilan bog‘liq [4].

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq.

An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasi o‘sishiga olib keladi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Interfaol ta’lim metodlari hozirda eng ko‘p tarqalgan va barcha turdagi ta’lim muassasalarida keng qo‘llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta’lim metodlarining turlari ko‘p bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonining deyarli hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo‘llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta’lim metodlarini ma’lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to‘g‘ri tanlash muammosini keltirib chiqargan [5].

Interfaol metodlar deganda – ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar

qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi.

Didaktik vositalar metodlar singari ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarni bajaradi. Bundan tashqari o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini hosil qilish, boshqarish va nazorat qilish vazifalarini bajaradi. Didaktik vositalar audivizuallik tafsilotida motivatsion, axborot, ta’lim jarayonini boshqarish, optimallashtirish funksiyalarini bajaradi. Ta’lim vositasi fanni o‘qitish bilan bog‘liq holda tanlanadi.

O‘qituvchi o‘zining ixtiyori bo‘yicha ko‘rgazmali material, o‘quv qo‘llanmadan foydalanishi mumkin. Ta’lim vositasini qo‘llanilishining yana bir jihati, albatta, ta’lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida aks ettirishidir. Ta’lim vositasini tanlab olish ta’lim metodini tanlash bilan bog‘liq.

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq.

An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasi o‘sishiga olib keladi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Interfaol ta’lim metodlari hozirda eng ko‘p tarqalgan va barcha turdagi ta’lim muassasalarida keng qo‘llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta’lim metodlarining turlari ko‘p bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonining deyarli hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud.

Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo‘llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta’lim metodlarini ma’lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to‘g‘ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, obrazli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o‘zaro muloqotda, o‘zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir.

Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o‘quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o‘rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. O‘qitishning interfaol usullarini tanlashda ta’lim maqsadi, ta’lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o‘quv muassasasining o‘quv-moddiy sharoiti, ta’limning davomiyligi, o‘qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e’tiborga olinadi.

Didaktik vositalar deganda, o‘quv va ko‘rgazmali qo‘llanmalar, namoyishli qurilmalar, texnik vositalar tushuniladi. Didaktik vositalar metodlar singari ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalani bajaradi. Bundan tashqari o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini hosil qilish, boshqarish va nazorat qilish vazifalarini bajaradi. Didaktik vositalar audiovizuallik tafsilotida motivatsion, axborot, ta’lim jarayonini boshqarish, optimallashtirish funksiyalarini bajaradi.

Ta’lim vositasini tanlab olish ta’lim metodini tanlash bilan bog‘liq. Agar ta’limning faol metodi(kitob bilan ishlash, mashqlar) foydalanilsa, u holda o‘quv qo‘llanmalari, darsliklar va ta’limning texnik vositalaridan foydalaniladi. Aynan ta’limning aktiv-texnik vositalari amaliy metodlarda foydalaniladi.

Ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o‘rganish va amalda qo‘llash o‘quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to‘g‘ri yechimini topishlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o‘quvchi-talabalarning bilim, ko‘nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

Eng jiddiy didaktik muammolardan biri ta’lim metodlarini tanlash nimalarga bog‘liq, degan masaladir.

Didaktikaga oid adabiyotlarda ta’lim metodlarini to‘g‘ri tanlash va ularni qo‘llash samaradorligining turli omillar bilan bog‘liqliklari quyidagicha qayd qilinadi:

birinchidan, o‘quv mashg‘ulotlarining didaktik maqsadlari va vazifalariga bog‘liq; ikkinchidan, bayon qilinadigan materialning harakteriga bog‘liq;

uchinchidan, ta’lim oluvchilarning bilimi va rivojlanish darajasiga bog‘liq;

to‘rtinchidan, o‘quv jarayonida o‘rganilayotgan fan asoslarining muayyan (hozirgi) davrdagi metodlariga bog‘liq;

beshinchidan, o‘quv jarayonining moddiy-texnik ta’minoti bilan bog‘liq;

oltinchidan, o‘qituvchining pedagogik mahorati, uning tayyorgarligi va o‘quv jarayonini tashkil etish darajasi hamda o‘qituvchining hozirgi zamon metodlari bo‘yicha bilimlariga bog‘liq.

Bunda har bir shakl o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni bajaradi, lekin shakl va metodlar to‘plami yagona didaktik majmuani hosil qiladi. Bu didaktik majmuaning amalga oshirilishi esa, o‘quv jarayonining psixologik-pedagogik qonuniyatlari bilan belgilanadi.

Dars jarayonini loyihalash modeli interfaol texnologiyalardan foydalanishni tizimli ravishda amalga oshirish, maqsad va natijalarning aniq belgilanishi, o‘quvchilar faoliyatini samarali tashkil etish, ularda mustaqil fikrlash, munozara olib borish va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Bunday yondashuv ta’lim jarayonining mazmunini chuqur o‘zlashtirish, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish va ular tomonidan bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi [6].

Xulosa o‘rnida shularni ta’kidlashmiz lozimki, interfaol ta’lim texnologiyalarini kompetent yondashuv asosida qo‘llash o‘quv sifatini oshiradi, o‘quv jarayonining samaradorligini ta’minlaydi hamda zamonaviy ta’lim talablariga mos natijalarga erishishga imkon yaratadi.Shuningdek, darsni boshqarish modeli interfaol metodlar samaradorligini yanada kuchaytirib, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi kommunikatsiyani takomillashtiradi, o‘quv jarayonida o‘zaro fikr almashinuvi, tashabbuskorlik va ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlaydi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5847-sonli farmoni.

2. Zunnunov, M. Xayrullayev, B. To‘xliyev, Sh. Qurbonov, X. Masudov, M. Qurbonov Pedagogika tarixi. 2004 yil.

3. Muxamedov O‘., Usmanboev M., Rustamov S. Ta’limni tashkil etishda interfaol metodlar: O‘quvuslubiy tavsiyalar – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016.

4. M.To‘xtaxo‘jayeva. “Pedagogika”. T., “O‘qituvchi” 2010 y

5. Avlayev O.U., Jo‘rayeva S.N., Mirzayeva S.P. “Ta’lim metodlari”. O‘quv-uslubiy qo‘llanma, “Navro‘z” nashriyoti, Toshkent – 2017.

6. Hasanovich O.T. (2024). Ilmiy tadqiqot ishi bilan shug‘ullanuvchilarda ilmfanda shakllangan metodlarga tayangan holda ijodiy kreativ pozitsiyada turish ko ‘nikmalarini shakllantirish. pedagog, 7(4), 291-297.

Xudaykulova Saida Zakirovna
Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti
Boshlang‘ich ta’limda matematika va ona tili kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: hudaykulova.sz@gmail.com

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING TEXNIK IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHAROITLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining texnik ijodkorligini shakllantirishning pedagogik sharoitlari tahlil qilingan. Tadqiqotda texnik ijodkorlik tushunchasining mohiyati, uning o‘qituvchi kasbiy faoliyatidagi o‘rni, hamda texnik tafakkur va ijodiy yondashuvni rivojlantiruvchi omillar yoritilgan. Shuningdek, texnik ijodkorlikni shakllantirishning samarali pedagogik sharoitlari – faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, muammoli vaziyatlardan foydalanish, STEAM yondashuvi va innovatsion o‘quv texnologiyalarini qo‘llash natijalari ilmiy asosda bayon etilgan. Maqola yakunida bo‘lajak o‘qituvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishda pedagogik muhit, motivatsiya va refleksiv faoliyatning ahamiyati asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *texnik ijodkorlik, pedagogik sharoitlar, ijodiy fikrlash, loyiha asosida o‘qitish, STEAM yondashuvi, kompetensiyaviy yondashuv.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ТЕХНИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСТВА У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *В статье рассмотрены педагогические условия формирования технического творчества у будущих учителей начальных классов. Раскрыта сущность понятия «техническое творчество» и его роль в профессиональной деятельности педагога. Особое внимание уделено методам и условиям, способствующим развитию технического мышления и креативности студентов педагогических вузов. Автор выделяет эффективные педагогические условия: деятельностный подход, обучение на основе проектов, использование проблемных ситуаций, внедрение STEAM-подхода и инновационных образовательных технологий. В заключении подчеркивается значение мотивации и рефлексивной деятельности для устойчивого развития технического творчества будущих учителей.*

Ключевые слова: *техническое творчество, педагогические условия, креативное мышление, проектное обучение, STEAM-подход, компетентностный подход.*

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR DEVELOPING TECHNICAL CREATIVITY IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Abstract. *This article analyzes the pedagogical conditions for developing technical creativity among prospective primary school teachers. The essence of “technical creativity” and its importance in the professional activity of a teacher are explored. The research emphasizes the factors and methods that foster technical thinking and creative approaches in teacher education. The author identifies effective pedagogical conditions such as activity-based learning, project-based teaching, the use of problem situations, the STEAM approach, and the application of innovative educational technologies. The study concludes that motivation, a creative learning environment, and reflective practices play a crucial role in the sustainable development of technical creativity among future teachers.*

Key words: *technical creativity, pedagogical conditions, creative thinking, project-based learning, STEAM approach, competence-based approach.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchi shaxsining ijodkorligi va texnik tafakkuri ta’lim sifatining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarda texnik tafakkur, amaliy fikrlash va ijodiy faoliyatni shakllantiruvchi shaxs bo‘lishi zarur. Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining texnik ijodkorligini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF–5712-sonli farmoni bilan tasdiqlangan “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da ijodiy fikrlovchi, innovatsion g‘oyalarni ilgari suruvchi pedagoglarni tayyorlash ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shu nuqtayi nazardan, texnik ijodkorlikni shakllantirish uchun zarur pedagogik sharoitlarni aniqlash va amaliyotga tatbiq etish ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining texnik ijodkorligini shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda alohida e’tibor qaratilayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonning nazariy asoslari, metodik yondashuvlari hamda amaliy mexanizmlari ko‘plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ilmiy asosda o‘rganib kelinmoqda.

Avvalo, texnik ijodkorlik tushunchasi bo‘yicha D. Poyya, J. Gilford, E. Torrens kabi xorijiy olimlarning tadqiqotlari ijodiy tafakkur, muammoli vaziyatlarni hal etish va yangi g‘oyalarni shakllantirish jarayonining psixologik mexanizmlarini yoritib beradi. Ularning ilmiy qarashlariga ko‘ra, texnik ijodkorlik insonning amaliy vazifalarni original, noodatiy va innovatsion yo‘llar bilan bajarish qobiliyatini anglatadi. A. Osborn, E. Bono kabi mualliflar esa kreativ fikrlashni rivojlantirish metodlari (brainstorming, lateral thinking) orqali texnik ijodkorlikni faollashtirish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Pedagogik nazariya nuqtayi nazaridan texnik ijodkorlikni shakllantirishda faoliyat yondashuvi (A. Leontyev, L. Vygotskiy) muhim ilmiy asos vazifasini bajaradi. Ularning ta’lim jarayonidagi faoliyat, motivatsiya, muammoli vaziyatlar va ijodiy muhitning o‘rnini ta’kidlashi texnik ijodkorlikning rivojlanish mexanizmlarini chuqur tushunishga yordam beradi.

Mahalliy tadqiqotchilardan M. Ochilov, U. Nishonov, A. Jo‘rayevlarning texnik tafakkur, texnologik ta’lim va kasbiy kompetensiyalar bo‘yicha ilmiy izlanishlari bo‘lajak o‘qituvchilarni texnik jihatdan tayyorlash bo‘yicha metodik asoslarni ishlab chiqishda ahamiyatlidir. Ularning ishlari boshlang‘ich ta’limda konstruksiya, modellashtirish va oddiy mexanizmlar bilan ishlash orqali texnik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini ochib beradi.

STEAM yondashuviga oid adabiyotlarda (J. Wells, Y. Yakman) texnik ijodkorlikni rivojlantirishda fanlararo integratsiyaning samaradorligi asoslab berilgan. Ularning fikricha, fan – texnologiya – muhandislik – san’at – matematika integratsiyasi talabalarda murakkab jarayonlarni tushunish, loyiha yaratish, texnik qarorlarni ishlab chiqish va ijodiy tafakkur elementlarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Loyiha asosida o‘qitish bo‘yicha J. Dewey, V. Kilpatricklarning ishlari texnik ijodkorlikni shakllantirishda loyiha metodining yetakchi pedagogik vosita ekanini ko‘rsatadi. Bu yondashuv talabalarni mustaqil izlanishga, materiallar bilan ishlashga, tajribalar o‘tkazishga, loyihaviy mahsulot yaratishga yo‘naltiradi.

Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalar bo‘yicha Ye. Polat, V. Frolovalar tomonidan taklif qilingan elektron resurslardan foydalanish, muammoli o‘qitish, ijodiy topshiriqlarni tashkil etish kabi usullar bo‘lajak o‘qituvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirishda samarali deb topilgan.

O‘zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda (D. Toshmurodova, O. Qodirova, Sh. Jo‘raqulova) boshlang‘ich ta’limda texnik ijodiy faoliyatni tashkil etish, konstruktorlik ishlarini o‘rgatish, texnologik yo‘nalishdagi ijodiy topshiriqlarni ishlab chiqish bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan. Bu tadqiqotlar texnik ijodkorlikni milliy ta’lim tizimi sharoitida shakllantirishning amaliy jihatlarini yoritadi.

Tahlil va natijalar. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining texnik ijodkorligini shakllantirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy adabiyotlar, tajribaviy ishlar va amaliyotlar tahlili ushbu jarayonning mazmuni, mexanizmlari va samaradorligi ko‘p jihatdan pedagogik sharoitlarning to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Avvalo, texnik ijodkorlikning rivojlanishi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy motivatsiyasi, texnik faoliyatga qiziqishi hamda ijodiy fikrlashga bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqadi. Tadqiqotlarda qayd etilganidek (A. Maslou, J. Gilyford, E. Torrens, V. Davыdov), ijodkorlikning shakllanishi shaxsning ichki intilishi, muammoli vaziyatlarni hal qilishga tayyorligi va mustaqil fikrlash jarayoni bilan chambarchas bog‘liq. Universitet tizimida amalga oshirilayotgan amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari, texnik konstruktsiya va modellashtirishga asoslangan darslar, shuningdek, STEAM yondashuvi asosidagi loyihaviy topshiriqlar texnik tafakkurni shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Biroq mavjud tajriba shundan dalolat beradiki, ayrim ta’lim

muassasalarida texnik ijodkorlikni rivojlantirish bo‘yicha jarayon yetarli darajada tizimlashtirilmagan, laboratoriya mashg‘ulotlarining ulushi past, mavjud texnik vositalardan foydalanish samaradorligi yetarli emas. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarning texnik tafakkur va amaliy ko‘nikmalarining to‘liq shakllanishiga to‘sqinlik qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, texnik konstruksiya, modellash, robototexnika va dasturlash elementlarini o‘quv jarayoniga integratsiyalash ijodiy tafakkur, muammoli vaziyatni hal qilish, tajriba o‘tkazish, tahliliy fikrlash kabi kompetensiyalarni rivojlantirishga sezilarli hissa qo‘shadi. Xususan, tajriba-sinov ishlarida 3D modellash, simulyatorlar, raqamli laboratoriyalardan foydalanish texnik ijodkorlik dinamikasining o‘sishiga xizmat qilgani aniqlangan.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, mazkur sharoitlarni kompleks amalga oshirish o‘quvchilarning texnik ijodkorlik darajasini sezilarli oshiradi. Tajriba-sinov guruhlarida ishtirokchilar tomonidan yangi texnik g‘oyalar ishlab chiqish, konstruktsiyalar yaratish, muammoli texnik topshiriqlarni ijodiy hal etish ko‘nikmalari barqaror ravishda rivojlangan. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning mantiqiy-texnik tafakkuri, mustaqil ishlash malakalari va kasbiy tayyorgarligi kuchaygani kuzatildi.

Muhokama. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida texnik ijodkorlikni shakllantirish masalasi nafaqat kasbiy tayyorgarlik, balki zamonaviy ta’lim jarayonining sifatini oshirish bilan chambarchas bog‘liq. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, texnik ijodkorlikni rivojlantirish jarayoni murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, u o‘quvchilarning motivatsiyasi, laboratoriya faoliyati, innovatsion metodlar va fanlararo integratsiyalashgan yondashuvlar bilan bevosita bog‘liq.

Muhokama qilishda birinchi jihat - pedagogik sharoitlarning ahamiyati. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, motivatsion muhit yaratish bo‘lajak o‘qituvchilarda texnik faoliyatga bo‘lgan qiziqish va ichki intilishni uyg‘otadi, bu esa ijodiy yondashuv va mustaqil izlanishlarni rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, laboratoriya mashg‘ulotlari, konstruktorlik va modellashtirish ishlari talabalarda muammoli vaziyatlarni hal qilish, tajriba o‘tkazish va texnik qarorlarni ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Ikkinchi jihat - innovatsion pedagogik yondashuvlar va STEAM integratsiyasi. STEAM yondashuvi texnologiya, muhandislik, matematika va san’atni birlashtirib, bo‘lajak o‘qituvchilarning texnik tafakkurini, mantiqiy fikrlashini va ijodiy qobiliyatlarini bir vaqtda rivojlantirishga imkon beradi. Loyiha asosida o‘qitish esa talabalarda mustaqil faoliyatni rag‘batlantirib, texnik muammolarni yechish jarayonida kreativ qarorlar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, refleksiv faoliyat va baholash tizimi muhim o‘rin tutadi. Talabaning o‘z ishini tahlil qilishi, xatolarni aniqlashi va natijalarni qayta ishlashi ijodiy jarayonning mustahkamlanishiga yordam beradi. Shu bilan birga, laboratoriya mashg‘ulotlarida texnologik vositalar va raqamli resurslardan samarali foydalanish texnik ijodkorlikni rivojlantirishni sezilarli darajada tezlashtiradi.

Muhokama davomida aniqlanishicha, pedagogik sharoitlar va metodik vositalar kompleks tarzda qo‘llanilganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida texnik tafakkur, kreativlik va amaliy kompetensiyalar barqaror rivojlanadi. Shu bilan birga, bu jarayon kasbiy tayyorgarlikning samaradorligini oshirish, talabalarni murakkab texnik vazifalarni yecha oladigan, innovatsion fikrlaydigan mutaxassislar sifatida shakllantirish imkonini beradi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqotlar va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining texnik ijodkorligini shakllantirish jarayoni kompleks pedagogik yondashuvni talab qiladi. Texnik tafakkur va kreativlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy omillar - motivatsion muhit yaratish, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarning ustuvorligi, innovatsion pedagogik texnologiyalar, loyiha asosida o‘qitish hamda STEAM yondashuvi - birgalikda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini sezilarli darajada oshiradi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, texnik ijodkorlikning shakllanishi nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish va yangi g‘oyalar yaratish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, refleksiv faoliyat va baholash tizimining mavjudligi talabalarning o‘z ijodiy jarayonini tahlil qilish, natijalarni qayta ishlash va o‘zlashtirishni mustahkamlaydi.

Umuman olganda, pedagogik sharoitlarni kompleks tarzda tashkil etish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining texnik tafakkurini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy kafolati bo‘lib, bu nafaqat individual kompetensiyalarni oshirishga, balki boshlang‘ich ta’lim sifatini yaxshilashga ham

xizmat qiladi. Shu sababli zamonaviy ta’lim muassasalarida texnik ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan strategik yondashuv va amaliy chora-tadbirlarni tizimli joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi” mavzusidagi nutqi. – Toshkent, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. “Raqamli ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi (2021–2025 yillar)”. – Toshkent, 2021.
4. Shomirzayev M.X. Pedagogik innovatsiyalar va texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
5. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2020.
6. Qodirov A., Raxmonqulova M. Boshlang‘ich ta’limda texnologiya fanini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
7. To‘raqulov F. Pedagogik psixologiya va ijodkorlik. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018.
8. Xasanov M., Sodiqov R. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asoslari. – Toshkent: Universitet, 2020.
9. Xoliqova D., Jo‘raqulova S. Boshlang‘ich ta’limda kreativ yondashuvlar. – Termiz: TDPI, 2022.
10. UNESCO. Information and Communication Technology in Education: A Curriculum for Schools and Programme of Teacher Development. – Paris: UNESCO, 2018.

Бахронова Комила Ядгоровна
Доктор психол. наук, доцент.
Бухарский университет инновационного образования и медицины
E-mail: komilaba338@gmail.com

ДИАГНОСТИКА И ПРОФИЛАКТИКА ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ РАССТРОЙСТВ У ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. *В статье рассматриваются особенности психологических расстройств, проявляющихся у учащихся школьного возраста. Актуальность темы обусловлена ростом эмоциональных и поведенческих нарушений среди детей, связанным с учебной нагрузкой, социальными трудностями и семейными проблемами. Цель исследования заключается в анализе причин возникновения психологических расстройств у школьников, выявлении их ранних признаков и разработке эффективных методов диагностики и профилактики. В работе представлены современные подходы к диагностике эмоциональных и поведенческих нарушений, описаны психологические и педагогические методы коррекционной работы. Особое внимание уделяется роли школьного психолога и педагогического коллектива в создании благоприятной образовательной среды, способствующей сохранению психического здоровья*

Ключевые слова: *психологические расстройства, школьники, тревожность, депрессия, гиперактивность, помощь, диагностика, коррекция.*

DIAGNOSIS AND PREVENTION OF PSYCHOLOGICAL DISORDERS IN SCHOOL-CHILDREN

Annotation. *The article examines the peculiarities of psychological disorders manifested among school-age students. The relevance of this topic is determined by the increasing incidence of emotional and behavioral disorders among children, which are associated with academic pressure, social difficulties, and family problems. The purpose of the study is to analyze the causes of psychological disorders in schoolchildren, identify their early symptoms, and develop effective methods for diagnosis and prevention. The paper presents modern approaches to diagnosing emotional and behavioral disorders and describes psychological and pedagogical methods of corrective work. Special attention is given to the role of the school psychologist and the teaching staff in creating a favorable educational environment that contributes to maintaining students' mental health.*

Key words: *psychological disorders, schoolchildren, anxiety, depression, hyperactivity, help, diagnosis, correction.*

Введение. Школьный возраст является одним из ключевых этапов психосоциального развития ребенка. В этот период происходят значительные изменения в когнитивной, эмоциональной и социальной сферах, что обуславливает формирование базовых компонентов личности, а также подготовку к более сложным жизненным и образовательным задачам. Психология ребенка в школьном возрасте охватывает широкий спектр вопросов, включая когнитивное развитие, особенности взаимодействия с окружающими, мотивацию, эмоциональные реакции и развитие самосознания.

Школьный возраст охватывает период с 6-7 до 12-13 лет и традиционно делится на младший школьный (6-9 лет) и старший школьный (10-12 лет) периоды. В это время у ребенка развиваются более сложные когнитивные и социальные навыки, и он постепенно переходит от непосредственного восприятия и действия к абстрактному и логическому мышлению.

На данном этапе школьник начинает осваивать основные школьные дисциплины, развивает способности к чтению, письму, счету, а также приобретает навыки самостоятельной работы. В этом возрасте активно формируются основные когнитивные функции, такие как внимание, память и восприятие, а также развиваются представления о себе и окружающем мире..

Когнитивное развитие школьника характеризуется значительными изменениями в способах восприятия, анализа и переработки информации. По мнению Жана Пиаже, школьный возраст соответствует стадии конкретных операций, когда ребенок начинает работать с конкретными объектами, но еще не способен к абстракциям, характерным для подросткового возраста.

Мышление школьника в этом возрасте становится более логичным и последовательным. Однако оно еще связано с конкретными объектами и ситуациями. Дети начинают понимать причинно-следственные связи, могут классифицировать объекты и организовывать их в категории. В младшем школьном возрасте преобладает наглядно-образное мышление, а в старшем – более логическое и последовательное, хотя абстрактное мышление начинает развиваться только в подростковом возрасте.

Однако именно в этот период может проявиться ряд психологических нарушений, которые оказывают влияние на эмоциональное, социальное и интеллектуальное развитие ребенка.

1. Причины нарушений психологии ребенка в школьном возрасте

Нарушения психологии школьников могут иметь множество причин, как внешних, так и внутренних. Важно понимать, что они могут возникать не только из-за проблем в семье или школе, но и из-за особенностей самого ребенка.

Основные причины:

Семейные проблемы: Неполные семьи, эмоциональные или физические насилия, недостаток внимания со стороны родителей - все это может привести к возникновению психологических проблем у ребенка. Например, исследования показывают, что дети, выросшие в семьях, где часто происходят конфликты или насилие, в два раза чаще страдают от тревожных расстройств. Одним из ярких примеров является случай, описанный в работах американского психолога Джона Боулби, который утверждал, что нестабильность в отношениях с родителями может стать основой для развития тревожных расстройств у ребенка.

Школьная среда: Психологические проблемы могут быть связаны с учебным процессом, отношениями с учителями или одноклассниками. Перегрузка, проблемы с адаптацией, буллинг и отсутствие эмоциональной поддержки со стороны школьного коллектива - все это может вызвать стрессовые реакции. Исследования показывают, что 20-30% школьников в возрасте 10-15 лет подвергаются буллингу, что может стать фактором риска для развития депрессии и низкой самооценки.

Возрастные особенности: Школьный возраст - это период активного развития, когда дети начинают осознавать себя и свое место в мире. Этот процесс может быть затруднен у некоторых детей из-за слабых социальных навыков, неврологических особенностей или недостаточного уровня психической зрелости. Например, дети с дефицитом внимания или гиперактивностью часто испытывают трудности в адаптации к требованиям школьной жизни.

2. Основные виды психологических нарушений у детей школьного возраста

Психологические расстройства у школьников могут проявляться различными способами. Наиболее часто встречающиеся нарушения включают:

Тревожные расстройства: Дети, испытывающие постоянное чувство тревоги, могут иметь проблемы с концентрацией, быстро уставать, испытывать страхи, связанные с учебой, социализацией или здоровьем. Например, в одном из исследований, проведенных на основе анализа состояния 1500 школьников, было установлено, что тревожные расстройства наблюдаются у 10-12% детей школьного возраста. Тревога часто проявляется в форме панических атак или устойчивого страха перед школой, что приводит к пропускам занятий и социальной изоляции.

Депрессия: Несмотря на то, что депрессия чаще ассоциируется с взрослыми, она может проявляться и у детей. У детей школьного возраста депрессия может проявляться через повышенную раздражительность, апатию, проблемы с концентрацией, снижение интереса к прежним занятиям, а также через физические симптомы, такие как головные боли или боли в животе. В одном из крупных исследований, проведенных в Великобритании, было показано, что 1 из 20 школьников страдает от депрессии, что делает это расстройство одним из самых распространенных у детей.

В школьном возрасте начинается активное формирование самосознания. Ребенок начинает различать «я» и «не я», строить более четкие представления о своих сильных и слабых

сторонах, а также осознавать свою роль в группе сверстников. В этот период особенно важна поддержка взрослых, поскольку положительное восприятие себя связано с успешной адаптацией в школьной среде.

В переходный период в школьной жизни ребенок может испытывать трудности с адаптацией к новым условиям - как учебным, так и социальным. Это может привести к трудностям с установлением контактов с одноклассниками, ухудшению успеваемости, а также развитию низкой самооценки. Например, в исследовании, проведенном среди первоклассников в России, было обнаружено, что 15% детей испытывают значительные трудности в социальной адаптации в первые месяцы после начала учебы.

Симптомы гиперактивности и нарушения внимания (СДВГ): Дети с синдромом дефицита внимания и гиперактивности часто не могут сосредоточиться на учебных заданиях, им трудно соблюдать дисциплину, они бывают импульсивными и легко отвлекаются. Эти нарушения могут влиять на их успеваемость и взаимоотношения с учителями и одноклассниками. Около 5-7% школьников по всему миру страдают от СДВГ, что делает это расстройство одним из самых распространенных.

Эмоциональные реакции становятся более разнообразными и дифференцированными. Ребенок начинает осознавать сложность человеческих отношений, проявлять эмпатию и сочувствие, а также сталкиваться с первыми конфликтами в межличностных взаимодействиях. Важно, чтобы в этот период взрослые помогали ребенку осваивать навыки эмоциональной саморегуляции, а также разрешения конфликтных ситуаций.

Агрессивное поведение, нарушение дисциплины, склонность к конфликтам и нарушению правил могут быть признаками психических нарушений. Такие дети могут быть замкнутыми или, наоборот, проявлять агрессию по отношению к окружающим. Примером может служить поведение подростков, страдающих от расстройстваConduct Disorder (расстройства поведения), которое часто связано с социальными и эмоциональными проблемами в семье и школе.

Социальные взаимодействия в школьном возрасте становятся более сложными. Ребенок начинает активно вступать в социальные группы, разрабатывать стратегии общения с учителями и сверстниками, что способствует формированию социальных навыков.

В старшем школьном возрасте влияние сверстников на ребенка становится более заметным. Друзья и одноклассники играют важную роль в развитии самооценки и в формировании личных и социальных идентичностей. В этот период дети начинают осознавать важность групповой принадлежности и могут переживать сильное давление сверстников.

Психологические нарушения в школьном возрасте могут серьезно повлиять на личностное и социальное развитие ребенка. Например, дети с тревожными расстройствами или депрессией часто испытывают трудности в общении с одноклассниками, не могут полноценно интегрироваться в коллектив. Это может привести к социальной изоляции, плохим отношениям в классе и чувству одиночества.

Кроме того, нарушения психики могут повлиять на академические достижения. Неспособность сосредоточиться, нехватка энергии или эмоциональная нестабильность мешают ребенку усваивать материал, что часто приводит к снижению успеваемости и ухудшению отношений с учителями. Исследования показывают, что дети с СДВГ и депрессией имеют

в два раза более низкие результаты на тестах по сравнению с детьми, не страдающими от этих расстройств.

Теперь перейдем к анализу результатов, полученных непосредственно на основе метода Кеттелла. Прежде всего, следует отметить, что данные, полученные по каждому фактору, информируют нас о формировании того или иного признака, который включает 16 факторов, связанных с личностью и личностным профилем. Наша главная цель - сделать определенный уровень социально-психологических выводов, сравнивая детей двух разных категорий («n1» и «n2») одного возраста.. В этом контексте мы стремились оценить черты личности по критериям Кеттелла в условно принятой нами группе детей здорового («n1») типа и с помощью этой оценки разработать определенный уровень практических рекомендаций. Следовательно, аналитические разработки возможностей метода Кеттелла и каждого из 16 факторов в нем доступны во многих научных литературных источниках. Поэтому в этом анализе мы сочли

необходимым дать интерпретацию методологии, не сосредотачиваясь на каждом из 16 факторов, объединив данные, отражающие эмпирические результаты по этим факторам, в 3 общепринятых компонента. Были включены следующие критерии:

I. Факторы, характеризующие эмоционально-волевые компоненты: C; F; G; I; Q; Q_3; Q_4 ;

II. Коммуникативные факторы, выражающие компоненты: A;H;E;N;L;

III. Когнитивные факторы, выражающие компоненты: B; M; Q_1; Q_2.

Следовательно, основной задачей отбора этих критериев является обеспечение сравнительной оценки поведения учащихся младшего школьного возраста, на основе этих компонентов путем раздельного выделения личностных компонентов, формирующихся в личности здоровых (n_1) и нездоровых (n_2) детей. Также с помощью этих оценок была предпринята попытка сформулировать определенные предположения о сильных и слабых сторонах, характерных для данной категории детей (таблица-1).

Таблица-1

Сравнительно-типичные показатели проявления компонентов личности у учащихся младшего школьного возраста

Компоненты								
критерий / объект	Эмоционально-волевой		Коммуникативный		Когнитив-ный		Итого	
	а	б	а	б	а	б	а	Б
n_1=58	26	32	33	25	30	28	30	28
%	44,8	55,2	56,9	43,1	51,7	48,3	51,7	48,3
n_2 = 55	17	38	18	37	27	28	21	34
%	31,9	69,1	32,7	67,3	49,1	50,9	38,2	61,9

Как видно из таблицы в здоровой группе детей (n_1 =58), а также в нездоровой группе детей (n_2 =55) шкала показателей отличается тем, что они проявляются на разных уровнях. Это говорит о том, что существует тенденция изучать каждого ребенка или группу в отдельности и реагировать на нее на этой основе.

В частности, проявление факторов эмоционально-волевого компонента («C»; «F»; «G»; «I»; «Q»; «Q»$_3$; «Q»$_4$) свидетельствует о том, что в группе n_1= 58 этот показатель достигает 32 человек, то есть 55,8% по сравнению с показателями определенной степени адеквата («а»), то есть 44,8% по сравнению с неадекватом («б»). На данный момент стало известно, что шкала этих показателей находится в группе 17 человек, (30,9%) адекватных и 38 (69,1%) «неадекватных» показателей в группе нездоровых детей (n_2 = 55). То есть в здоровой группе детей (n_1), в большем количестве случаев, чем в нездоровой группе детей (n_2), эмоциональная устойчивость, психическое перенапряжение, ответственность, настойчивость, немного спокойствия, самоконтроль являются «показателями адекватности» (то есть если эти качества проявляются выше среднего) высокоактивных качеств. А в группе нездоровых детей (n_2=55) мы видим, что показатели несоответствия этим качествам (критерий«в») - более выражены (табл.1), что свидетельствует о еще большей социальной необходимости организации более коррекционной работы в эмоционально-волевой сфере с детьми, в которых наблюдаются определенные нарушения поведения.

В проявлении факторов («A»; «H»; «E»; «N»; «L») коммуникативность», выбранных в качестве второго компонента методом Кеттелла, мы видим определенную степень несоответствия у членов обеих групп («n_1» и «n_2»).

В частности, в группе здоровых детей (n_1 = 58), «а»-нормой показателей адекватности являются 33 человека (56,9%), результат которых связан с личностными отношениями у

здоровых детей «инициативность»-A; настойчивость-H; лидерство-E; дипломатичность-H; уверенность в себе-J является еще одним подтверждением относительно высокой выраженности , а у нездоровых детей можно наблюдать, что показатели этого фактора проявляются на относительно низком уровне. Точнее, шкала адекватных показателей коммуникативности (критерий в) составила лишь 18 (22,7%) в группе нездоровых детей (n_2 = 55). У 37 детей (67,3%) были зафиксированы некоммуникативные показатели.

Следующим этапом второй главы нашего исследования является мето-дология социально-психологической адаптации (К.Роджерс, Р.Даймонд), анализу которой посвящены результаты, полученные на ее основе.

Таблица-2

Сравнительный анализ результатов, полученных методом социально-психологической адаптации

№	Критерии		n_1 =58		n_2 =55		Итого n_1 +n_2 =113	
			n	%	n	%	N	%
1	Адаптация	А	40	69,0	27	49,1	67	59,3
		Б	18	31,0	28	50,9	46	40,7
2	Самопринятие	А	39	67,2	21	38,2	60	53,1
		Б	19	32,8	34	61,8	53	46,9
3	Принятие других	А	36	62,1	20	36,4	56	49,5
		Б	22	37,9	35	63,6	57	60,5
4	Эмоциональная комфортность	А	39	67,2	17	30,9	56	49,5
		Б	19	32,8	38	69,1	57	50,5
5	Интернальность	А	30	51,7	33	60,0	63	55,7
		Б	28	48,3	22	40,0	50	44,3
6	Стремление к доминированию	А	40	69,0	42	76,4	82	72,5
		Б	18	31,0	13	25,6	31	27,5
Итого (в среднем)		А	37	63,8	27	49,1	64	56,6
		Б	21	36,2	28	50,9	49	43,4

В этих экспериментах в основном участвовали учащиеся младшего школьного возраста (58 человек). Из них 30-мальчиков и 28-девочек. Средний возраст испытуемых составлял 10-11 лет. В выбранную группу вошли дети, испытывающие трудности в учёбе и поведении. Большинство учащихся из неполных семей. Родители многих из них не имеют постоянной работы. Большинство детей попадают в так называемую «опасную группу». В большинстве случаев у таких детей наблюдается тенденция к развитию расстройств личности. Она отличается тем, что большинство учеников имеют относительно педагогическую и социальную отсталость.

Таким образом, проявления первичных поведенческих расстройств у опрошенных респондентов анализировались на основе показателей адекватности («а») уровня социально-психологической адаптации и неадекватности («б») уровня социально-психологической адаптации.

При обработке результатов опроса социально-психологической адаптации (К.Роджерс, Р.Даймонд) были получены данные, подтверждающие наличие признаков дезадаптации у учащихся исследуемых групп (таблица 2, рисунок 2).

В частности, средняя суммарная шкала показателей, связанных с проявлением факторов адаптации (n_1=58), в какой-то мере адекватна («а») 40 учащимся, то есть составляет 69,0%, по сравнению с суммой неадекватных («б») показателей, то есть 18 учащихся, которые составляют 31,0%. При этом выяснилось, что шкала этих показателей в группе нездоровых детей (n_2=55)

находится в пределах 27 (49,1%) адекватных и 28 (50,9%) «неадекватных». То есть в группе здоровых детей (n_1) адаптация была выше, чем в группе нездоровых детей (n_2), а в группе нездоровых детей (n_2=55) была высокая степень адаптации (то есть, эти качества выше среднего) показатели (критерий «б») - более выражены, что свидетельствует о возрастающей социальной потребности в организации более корректирующей работы в области адаптации с детьми с определенными расстройствами поведения.

Согласно показателю принятия себя, здоровая группа (n_1=58) состояла из 39 членов, то есть 67,2%, по сравнению с адекватными («а») показателями, и 19 членов по сравнению с неадекватными («б») показателями, то есть, 32,8%, тогда как шкала этих показателей составила 21 учащихся в группе нездоровых детей (n_2=55) по сравнению с адекватной («а»), то есть, 38,2%, что неадекватно («б») и 34,8 учащихся, или составляет 61,8%.

Согласно показателю принятия других, количество членов здоровой группы (n_1=58) составило 36 учащихся по сравнению с адекватной («а»), то есть, 62,1%, и 22 учащихся по сравнению с количеством неадекватных («б») показателей, то есть, 37 учащихся составляет 9%, при этом масштаб этих показателей в группе нездоровых детей (n_2=55) составляет 20 человек, то есть, 36,4%, по сравнению с показателями адекватными («а»), что является неадекватным («б») и 35,6 учащихся или составляет 63,6% и конечно же, этим отделяется.

По результатам показателя эмоционального комфорта в группе здоровых детей (n_1=58) составил 39% от адекватных («а»), то есть, составляет 67,2%, и 19 учащихся по сравнению с количеством неадекватных («б»), то есть, в то же время масштаб этих показателей составил 17,9 учащихся то есть, составляет 30,9%, по сравнению с адекватными («а») показателями в группе нездоровых детей (n_2 =55), что является неадекватным («б») 38 учащихся, или 69,1% от общего числа.

Полученные результаты показателя интернальности (уровень субъективного контроля) показывают, что в группе здоровых детей (n_1=58) составляло 30 человек по сравнению с показателями адекватного («а»), то есть, 51,7%, и 28 учащихся по сравнению с количеством неадекватных («б») показателей, то есть, 48 учащихся. В то же время в группе нездоровых детей (n_2=55) количество показателей достигло 33% по сравнению с адекватным («а»),то есть, 60,0%, что является неадекватным («б») по сравнению с 22 учащихся, или 40,0%.

Полученный результат по показателю стремление к доминированию в группе здоровых детей (n_1=58) составил 40 учащихся по сравнению с показателями адекватных («а»), т.е. составляет 69,0%, и этот показатель составил 18 учащихся по сравнению с количеством неадекватных («б») показателей, т.е. в то же время в группе нездоровых детей (n_2=55) показатель данных критерий составил 42,0 учащихся т.е. составил 76,4% по сравнению с адекватным («а») показателем, что является неадекватным («б») и 13,6 учащихся, или 25,6%.

Оценивая средние общие результаты по 6 выявленным показателям, мы можем увидеть, что 63,8% из 58 тестируемых здоровых детей показали «адекватность» и 36,2% «неадекватность». В то же время мы видим, что 49,1% из 55 тестируемых нездоровых детей имеют тенденцию к проявлению «адекватности», а 50,9% имеют в среднем общую «неадекватность».

Исходя из общего вывода результатов этого корреляционного анализа, представленного выше, можно сказать, что такие методы родительских отношений, как социальное одобрение и симбиоз, приводят к повышению гибкости детей с нарушениями поведения, снижению уровня устойчивости и доминантности, позволяя более рационально и конструктивно вести себя в фрустрационных ситуациях, а также контролю поведения. А проявление родителями особенностей эмоционального неприятия и авторитарной гиперсоциализации в той или иной степени отрицательно сказывается на процессе психической адаптации у детей. А это требует определенного уровня социально-психологического диалога и обучения с родителями детей, у которых наблюдаются поведенческие нарушения

4. Как помочь ребенку?

Раннее выявление и корректировка психологических нарушений играет ключевую роль в поддержке ребенка. Важно своевременно заметить симптомы и обратиться за помощью к специалистам.

Учебная мотивация у младших школьников часто проявляется через желание угодить взрослым или получить положительную оценку, в то время как у старших школьников мотивация может быть связана с самореализацией и стремлением к профессиональному будущему. Однако мотивация может изменяться в зависимости от образовательных условий и особенностей психофизического развития ребенка.

Трудности в учебе могут привести к снижению мотивации, что особенно заметно в старшем школьном возрасте. Важно, чтобы педагог и семья вовремя замечали признаки демотивации и помогали ребенку преодолевать трудности через адаптацию образовательного процесса, создание поддерживающей атмосферы и стимулирование положительных успехов.

Работа с психологом: Индивидуальные или групповые занятия с детским психологом могут помочь ребенку научиться справляться с эмоциями, тревогой, агрессией и другими проявлениями стресса. Например, когнитивно-поведенческая терапия показала высокую эффективность в лечении тревожных расстройств и депрессии у детей.

Работа с родителями: Важной частью лечения является работа с родителями, которые могут научить ребенка новым способам решения проблем и справляться с собственными переживаниями. В случае сложных семейных ситуаций важно привлекать семейных терапевтов. Программы поддержки родителей, такие как "Родители за мир" в Великобритании, показали хорошие результаты в снижении конфликтов в семье и улучшении психологического состояния ребенка.

Поддержка со стороны школы: Важно, чтобы школа была настроена на поддержку детей с психоэмоциональными проблемами. Учителя и школьные психологи должны иметь возможность работать с детьми, помогать им в адаптации и обеспечивать эмоциональное благополучие в учебном процессе. Программы психоэмоциональной поддержки, такие как «Школьный психолог в каждом классе», позволяют создать атмосферу доверия и безопасности в образовательном учреждении.

Мотивация в школьном возрасте играет центральную роль в успешности обучения. В младшем школьном возрасте мотивация может быть в значительной степени внешней (например, награды или похвала от взрослых), но по мере взросления появляется внутренняя мотивация, связанная с личным интересом и потребностью в успехе.

Учитель, как авторитет в образовательной среде, играет ключевую роль в процессе социализации ребенка. Отношения с учителями могут существенно влиять на уверенность ребенка в себе, а также на его академическую мотивацию. Семья же остается основным источником эмоциональной поддержки и первичной социализации, особенно на ранних этапах школьного обучения.

Психология ребенка в школьном возрасте является важной областью исследования, которая помогает понять, как когнитивные, эмоциональные и социальные процессы влияют на развитие личности ребенка в этот критический период. Понимание особенностей психологии школьников позволяет эффективно поддерживать их развитие, направлять усилия на формирование здоровых отношений, развитие самосознания и мотивации к обучению, что имеет долгосрочные последствия для их успеха в жизни и обучении.

Нарушения психологии ребенка в школьном возрасте - это сложная и многогранная проблема, требующая комплексного подхода. Важно, чтобы дети, сталкивающиеся с психологическими трудностями, не оставались один на один с ними, а получали поддержку от родителей, педагогов и специалистов. Раннее вмешательство и грамотная помощь могут существенно улучшить качество жизни ребенка и помочь ему полноценно развиваться в школьной среде и за ее пределами.

Согласно проведенному анализу, после применения определенного уровня психокоррекционной программы, был отмечен ряд положительных результатов в устранении семейных проблем у большинства родителей, выявлены такие действия, как желание проявить сочувствие к ребенку, теплое эмоциональное отношения.

Обнаружено достоверное ($P<0,05$) снижение показателей эмоциональ-ного отрицания и инфантилизации типов родительского стиля отношения. И это связано с тем, что положительные изменения в эмоциональном состоянии родителей по отношению к своему

ребенку свидетельствуют о том, что в теплых эмоциональных отношениях с ним отчетливо проявляются показатели симпатии и взаимного доверия. Сравнительный анализ стиля родительских отношений до и после проведения курса психокоррекции представлен в таблице 3.

Представленные данные свидетельствуют о том, что в результате проведенной психокоррекции дети способны добиться применения рационального способа поведения, направленного на разрешение ситуации. Главным образом появляется мотивация, желание преодолеть конфликты и препятствия. Следовательно, формирование тенденции к адекватному поведению в случае фрустраций у детей с нарушениями поведения также проявлялось в определенной степени.

По оценкам родителей, доля групповых конформных коэффициентов в обеих группах выше показателя после коррекции, чем показатели до коррекции, что свидетельствует о том, что дети с поведенческими нарушениями имеют повышенные адаптационные возможности по отношению к окружающей среде. В то же время достоверные различия ($p<0,05$) были выявлены в показателях психокоррекции до и после оценки социальной адаптации детей к своему окружению у родителей. По оценкам родителей, в группе детей с нарушенными поведения было установлено, что групповой конформный коэффициент достоверно выше показателя после психокоррекции и до коррекции.

Таблица -3

Средне-общие, сравнительно-типовые показатели отношения родителей к детям из нездоровых групп
(n1 = 55)

№	Критерии	До коррекции				После коррекции				Промежу-точ-ные баллы	
		«а»		«б»		«а»		«б»		««а»	««б»
		N	%	N	%	N	%	n	%	N	%
1	Принятие – отвержение	20	36,4	35	63,6	32	58,2	23	41,8	24-33	0-8
2	Социальное Одобрение (кооперация)	23	41,8	32	58,2	34	61,8	21	38,2	7-8	1-2
3	Симбиоз	27	49,1	28	50,9	39	70,9	16	29	6-7	1-2
4	Авторитарная гиперсоциализация (контроль)	22	40,0	33	60,0	36	65,5	19	31,5	6-7	1-2
5	Инфантилизация (Отношение к неудачам ребенка).	16	29,1	39	70,9	32	58,2	23	41,8	7-8	1-2

Стоит также отдельно отметить, что в ходе исследования важно определить, насколько эффективны наши программы, связанные с процессом коррекции семьи. Поэтому был проведен определенный корреляционный анализ по диагностике данной эффективности. Было отмечено, что количество продуктивных показателей увеличивалось в экспериментально-испытательном этапе исследования в течение некоторого времени. При фиксации этих результатов была изучена и проанализирована деятельность 50 родителей в соответствии с задачами исследования, как объекта «эксперимент» работы на основе специальных программ, а также общетрадиционная деятельность 51 родителя как объекта «контроля» (табл.4).

Таблица-4

Показатели эффективности, связанные с семейной психокоррекцией

Группы	Количество респондентов	Уровень					
		Высокий		Средний		Низкий	
		n	%	n	%	N	%
Группа «Эксперимент» а) до эксперимента б) после эксперимента	50 50	7 20	14,0 40,0	13 20	26,0 40,0	30 10	60,0 20,0
Группа «Контроль» а) до эксперимента б) после эксперимента	51 51	8 10	15,7 19,6	16 20	31,3 39,2	27 21	52,9 41,2

Анализ полученных эмпирических данных показал достоверную разницу между «экспериментальной » и «контрольной» группами. Таким образом, исследование подтвердило возможность достижения эффективности результатов, связанных с семейной психокоррекционной деятельностью.

Анализ полученных эмпирических данных показал, что существует существенная разница между «экспериментальной» и «контрольной» группами. Следовательно, можно отметить, что показатели «высокого» уровня работоспособности у учащихся «экспериментальной» группы увеличились с 7 до 20 человек, в то время как показатели «низкого» уровня снизились с 30 до 10 человек, причем у респондентов «контрольной» группы разница между такими показателями незначительна. Об этом свидетельствует эффективность разработанной программы психологического подхода, основанной на семейной коррекции.

Заключение. Данное исследование направлено на определение влияния родительской оценки и отношения на личностное развитие детей с поведенческими расстройствами, а также на изучение динамики семейных отношений в процессе психологической коррекции семьи и выявление социальных факторов, способствующих успеху семьи. психокоррекция. и по результатам исследования были сделаны следующие общие выводы.

1**.** Анализ структуры личности детей с нарушениями поведения показал, что по сравнению со здоровыми детьми у них выражена дисгармония. Этот процесс определяется и оценивается определенными социально-психологическими факторами: слабостью эмоционального контроля, высоким уровнем эмоционального возбуждения, высоким уровнем тревожности, выраженным проявлением таких ситуаций, как высокая возбудимость, необычность, ригидность, фрустративность.

2. Анализ структуры личности детей с расстройствами поведения показал, что у них выражена дисгармония по сравнению со здоровыми детьми. В то же время этот процесс определяется и оценивается четким выражением определенных социально-психологических факторов: слабость эмоционально-волевого контроля, высокий уровень эмоциональных переживаний, высокий уровень тревожности, высокая чувствительность, одиночество, ригидность, разочарование.

3. Анализ родительских оценок поведения детей в ситуации определенной степени фрустрации показал, что родители детей с поведенческими расстройствами неадекватно воспринимали своего ребенка в отличие от родителей из здоровой группы детей. Это говорит о том, что стиль инфантильного отторжения является приоритетом для родителей детей с поведенческими расстройствами.

4.Степень психической дезадаптации детей является самомотивирующим фактором изменения дисфункциональных отношений родителей в семейной системе, хотя проявление таких черт, как самоудовлет- воренность, тревожность, агрессия, инфантильность, враждебность, высокомерие, агрессия, демонстрируют признаки определенных поведенческих расстройств, еще раз подтверждено наличие специфической динамики.

5. Результаты семейной психокоррекции с детьми и их родителями на экспериментальных площадках показали, что в целом сегодняшные родители понимают своих детей, уважают их индивидуальные психологические способности, уделяют время детям, поддерживают «симбиоз» их интересов и стремлений, ведущий к уменьшение «мелких неудач» в развитии отношений. В результате у родителей формируется чувство понимания ребенка, правильное восприятие его поведения, совместное исправление в нем недостатков, взгляд на ребенка с уверенностью.. Таким образом, необходима уделить особое внимание социально-психологической грамотности родителей, наличее социально-психологической дисбалансов в понимании их детей приводить к возникновению конфликта между ребенком и родителя. Эти конфликты приводят к формированию поведенчиских нарушений ребенка.

6. Отсутствие положительных эмоциональных взаимодействий между родителями детей с поведенческими расстройствами, возникновение конфликтов между ребенком и родителями, а также то, что эти конфликты приводят к формированию поведенческих расстройств у ребенка, серьезное внимание уделяется улучшению социально-психологической грамотности родителей.

Использованная литература.

1. Александровская Э.М., Гильяшева И.Н. Адаптированный модифицированый вариант детского личностного вопросника Р.Кеттелла: Методические рекомендации. – М.: Изд–во МГУ,1993.-34 с

2.Дубровина, Н. А. Психология школьника: Влияние эмоциональных и социальных факторов на развитие ребенка. - М.: Академия, 2015.

3. Захаров И. М. Психология ребенка школьного возраста: Проблемы и пути коррекции. - СПб.: Питер, 2018.

4. Рогова Н. С. Психология детского возраста: Эмоциональные расстройства у детей. - М.: Просвещение, 2017.

5. К.Я.Бахронова Особенности психокоррекции нарушений поведения у детей и подростков. “Вестник интегративной психологии” г. Ярославль, 2017. №15. – С. 136-139.

6. Леви В. М. Психология школьников с расстройствами поведения: Проблемы и подходы. - М.: МГУ, 2016.

7. Шмидт Н. П. Психология детей с СДВГ: Особенности, диагностика и лечение. - М.: Тандем, 2020.

Fayziyev Zohiddin Hasanboyevich
Qarshi davlat universiteti dotsenti, Psixologiya fanlari doktori (DSc)

RAHBAR-XODIMLARDA STRESS HOLATINI YENGISHNING ILMIY-NAZARIY MODELLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada rahbar-xodimlarda stress holatini yengishning ilmiy-nazariy modellari tahlil qilinadi. Stressni boshqarish mexanizmlari, psixologik himoya strategiyalari va rahbarlik faoliyatida samarali emotsional barqarorlikni ta'minlash usullari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada zamonaviy psixologik nazariyalar asosida stressni oldini olish va kamaytirish mexanizmlari ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqot rahbar-xodimlarning ish samaradorligini oshirish va ularning ruhiy salomatligini mustahkamlashga qaratilgan tavsiyalarni o'z ichiga oladi.*

Kalit so'zlar: *stress, rahbar-xodim, stressni boshqarish, emotsional barqarorlik, ilmiy-nazariy modellari.*

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ПРЕОДОЛЕНИЯ СТРЕССОВЫХ СОСТОЯНИЙ У РУКОВОДИТЕЛЕЙ И СОТРУДНИКОВ

Аннотация. *В статье рассматриваются научно-теоретические модели преодоления стрессовых состояний у руководителей и сотрудников. Анализируются механизмы управления стрессом, психологические стратегии защиты и методы обеспечения эффективной эмоциональной устойчивости в управленческой деятельности. Кроме того, на основе современных психологических теорий представлены научные подходы к профилактике и снижению уровня стресса. Исследование включает рекомендации, направленные на повышение эффективности работы руководителей и укрепление их психического здоровья.*

Ключевые слова: *стресс, руководитель-сотрудник, управление стрессом, эмоциональная устойчивость, научно-теоретические модели.*

SCIENTIFIC-THEORETICAL MODELS FOR OVERCOMING STRESS IN MANAGERS AND EMPLOYEES

Annotation. *The article analyzes scientific-theoretical models for overcoming stress in managers and employees. Stress management mechanisms, psychological defense strategies, and methods for ensuring effective emotional stability in leadership activities are examined. Additionally, the article presents scientifically grounded approaches to stress prevention and reduction based on modern psychological theories. The study includes recommendations aimed at increasing managerial efficiency and strengthening mental well-being.*

Key words: *stress, manager-employee, stress management, emotional stability, scientific-theoretical models.*

Rahbar va xodimlar faoliyatiga hozirgi zamon qo'yayotgan talablaridan biri u tomonidan vazifalar va vaziyatlarni hal etishning turli-tumanligi va murakkabligidir. Eng yuqori muvaffaqiyatga erishishga yo'naltirilgan mehnat faoliyati har doim mazkur faoliyatga xos bo'lgan inqirozli vaziyatlarni yengish zarurati bilan bog'liq bo'lishi muqarrar. Tadqiqotlarda ko'rsatilganidek, rahbar faoliyatidagi murakkab vaziyatlar o'z xarakteri jihatidan ko'proq ish yuklamasini zo'riqish bilan kutish, o'zi va boshqalar ustidan doimiy nazoratni o'rnatish, natijalardagi turg'unlik, faoliyatdan ketish, ya'ni faoliyatning almashinuvi tipik xisoblangan faoliyat turlariga yaqinroqdir. Shunga ko'ra, rahbar faoliyatini kazusli vaziyatlar va ularning yengib chiqish bilan bog'liq jarayonni ko'rib chiqish mumkin bo'lgan poligonga o'xshatish mumkin[4].

Rahbarlik faoliyati shunchalik murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga egaki, unda eng yuqori, muhim va uzoq muddatli samaradorlikka faqatgina uning o'ziga xos muhim talablariga javob bera oladigan nomdor va e'tibor qozongan sport namoyondalari erishadilar. Har doim faoliyat natijasining yuqori ahamiyati va unga mas'uliyatlilik mazkur faoliyatni amalda tengi yo'q faoliyat deb belgilash

imkonini beradi. Sharoitlarning alohida o‘ziga xosligi rahbar uchun ahamiyatli kechinmalar kompleksi manbai hisoblanib, faoliyatning alohida vaziyatlarini, jumladan, inqirozli vaziyatlarni, buning orqasidan esa rahbarning butun hayot faoliyatini ham o‘zgartirib yuboradi va mazkur faoliyatni murakkab vaziyatlar modeli, ya’ni uni doimiy yengish modeli sifatida qarab chiqishni taqozo etadi. Boshqa belgilardan farqli o‘laroq, ahamiyatli kechinmalar inqirozli vaziyatlarning “erta” belgisi hisoblanadi va inqirozli, muammoli vaziyatlarning yuzaga kelishi haqida signal beradi. Bundan tashqari, olimlar rahbar faoliyatining boshqa maxsus xususiyatlari ichida quyidagilarni alohida qayd etib o‘tganlar:

• uning natijaga yo‘naltirilganligi;
• sharoitlarning ekstremalligi (ham oilada, ham ishda);
• vazifaning stress olishga “qulay”ligi;
• boshqaruvdagi hayotning “qisqaligi”.

Bunday murakkab faoliyatni bajarish natijasida rahbar o‘zining butun boshqaruvdagi hayoti mobaynida turli xil muammoli vaziyatlarga tushib qoladi, ularni yengish esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri faoliyatning o‘zidagi boshqaruvchanlik xususiyatlari bilan aloqador hisoblanadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, muammoli vaziyatlar rahbar faoliyatini bajarishdagi o‘ziga xos o‘ta qiyin vaziyat bo‘lib, uning maxsus sharoitlari rahbarning ichki dunyosida ahamiyatli kechinmalar tarzida aks etadi, ularning korreksiyasi uchun xulq-atvor korreksiyasi kabi tashqaridan professional psixologik yordam zarur bo‘ladi.

Shu mavzuga yaqin tadqiqotlar olib borgan olimlar tomonidan boshqaruv faoliyatidagi inqirozli, kazusli vaziyatlarning 5 ta asosiy tipi ajratib ko‘rsatgan:

• ahamiyatli munosabatdan so‘ng;
• ahamiyatli natijadan so‘ng;
• hal qiluvchi uchrvshuv oldi (o‘ta murakkab va ahamiyatli uchrashuv oldidan);
• boshqaruv natijalari va umuman faoliyat jarayonidagi turg‘un davrlar;
• boshqaruv faoliyati va karyerasini tugallash arafasida.

Kutilmagan vaziyatlarning xilma-xil variantlaridan aynan mazkur 5 tipi rahbarlar uchun o‘ta muhim va muammoli hisoblanadi, ularni boshqa kishilar yordamisiz yengish qiyin va buning uddasidan har doim ham chiqib bo‘lmaydi.

Rahbarda dastlabki ish faoliyatidan boshlab murakkab va mas’uliyatli vazifalarni hal qilishga o‘rganadi hamda ularni hal qilish uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratish maqsadida “psixologik himoya” ning turli shakllarini izlaydi, yaratadi va keyinchalik takomillashtirib boradi, o‘z faoliyatining bu jabhasida malakali yordamni ololmasdan, ko‘pincha, odatlar, belgilar, marosimlardan o‘ziga “himoya” izlaydi. Psixologik himoyaning bunday “stixiyali” shakllari rahbarga o‘z faoliyatini amalga oshirishda zarur shart-sharoitlarni yaratishi ham mumkin, jumladan, stressli vaziyatlarni yengishning ba’zi holatlarida ular yetarli bo‘lmay qoladi. Mazkur “yetishmovchilik” shunda namoyon bo‘ladiki, “rahba-xodim” tizimida xodim roli past darajada bo‘ladi. Xodim qoidaga ko‘ra, “lider” emas, eng yaxshi holatda u faqat rahbarning u yoki bu topshirig‘i yoki iltimosini bajaruvchi “yordamchi” bo‘lib qoladi, xolos. Mana shu passiv pozitsiyali munosabati bilan xodim o‘z oldiga rahbar ichki dunyosiga kirib borish va o‘z rahbarini “chuqur o‘rganish” ni amalga oshirish maqsadida mana shu ichki dunyoni boshqarish vazifasini qo‘ymaydi. Shu bois, xodim amalda rahbar shaxsiga, jumladan, uning motivatsiyasi, professionalizm va boshqa shaxs tuzilmalariga zarur ta’sirni o‘tkaza olishga qodir emas.

Mazkur stixiyali shaklning yetishmovchiligi yana shunda namoyon bo‘ladiki, rahbar o‘zini psixologik qo‘llab-quvvatlovchi shaxsiy guruhini sinamasdan tanlaydi va uni optimal boshqarishga qodir bo‘lmay qoladi. Bundan tashqari, mazkur guruhda “ortiqcha” odamlarning mavjudligi munosabati bilan nafaqat psixologik yordam ko‘rsatish vazifasini hal eta olmaydi, balki ko‘pincha xalaqit ham beradi.

Yuqorida ko‘rsatilgan “yetishmovchilik”, shuningdek, rahbar va xodim-lider yoki shaxsiy psixologi (idealda – ma’naviy ustozi) bo‘lmaganida o‘z vaqtida ishida amaliyotda ma’lum bo‘lgan “ahamiyatli stressli kechinmalar kundaligi”, har kuni o‘zini-o‘zi nazorat qilish tizimi kabi psixologik qo‘llab-quvvatlovchi amaliy vositalardan foydalanishga o‘rganmaydi. Biroq bunday odamlar bo‘lmaganida (xodim-lider yoki shaxsiy psixolog nazarda tutilyapdi) rahbarning ahamiyatli kechinmalar kundaligi, og‘zaki va yozma dialoglarni birgalikda olib borish kabi birgalikdagi faoliyat

shakllarini amalga oshira olmay qolardi. Shu tariqa rahbar psixologik tayyorgarligida faqatgina stixiyali shakllarning mavjudligi sportchining aybi emas, uning uchun falokat sifatida qabul qilsa bo‘ladi.

Shunga qaramay, rahbarlar o‘z faoliyatlaridagi asosiy va tipik stressli vaziyatlarni yengish borasida sinovlar va xatolarga yo‘l qo‘yish usuli yordamida tajriba orttirib, maxsus amaliy usullarning butun bir tizimini yaratdilar va unga ko‘ra mazkur stressli vaziyatlarni ko‘pincha muvaffaqiyatli yengib keldilar.

Tajribalardan (o‘tgan kuzatishlardan) shu narsa aniqlanganki, har bir tajribali rahbarda asosiy faoliyatning stressli vaziyatlarida o‘zining individual, yaxshi ishlab chiqilgan o‘zini-o‘zi nazorat qilish, o‘zini-o‘zi optimallashtirish, o‘z holati va xulqini boshqarish tizimi shakllangan bo‘ladi. Ana shu asosda yetakchi rahbarlar boshqa rahbarlarning ko‘pchiligidan farqli o‘laroq inqirozli vaziyatlarda ularni muvaffaqiyatli yengish majburiyatiga ega ustanovkadan iborat o‘zining faol pozitsiyasini qo‘ya biladi.

Mazkur faol pozitsiya bilan bir qatorda rahbar stressli vaziyatlar ta’siriga, undagi ekstremal sharoitlarga shaxslilik sifatlarining butun bir majmuasini qarama-qarshi qo‘yadi, bu esa uning har qanday stressli vaziyatlarni muvaffaqiyatli yengib o‘tishini ta’minlaydi.

Shunday qilib, rahbar stressli vaziyatlar ta’siriga o‘z shaxsini “psixologik himoya” mexanizmi sifatida qarama-qarshi qo‘yadi. Aytish mumkinki, ko‘pincha tashqaridan, boshqa odamlardan o‘z vaqtida yordam olmaydigan rahbar noma’qul muhit sharoitida psixologik himoyalanishning o‘z tizimini ixtiro qiladi va shu tariqa stressli kechinmani yengish borasida o‘z konsepsiyasini ishlab chiqadi.

Mazkur stixiyali xarakterdagi tajriba rahbar tomonidan xodimning tugallanmagan ishining oqibati, u o‘z vaqtida rahbarni stressli kechinmalarni yengishga o‘rgatmaganligi borasidagi “psixologik vakuum”ni to‘ldirish natijasidir.

Stressli kechinmalarni yengish oldindan maslahatli va kelishilgan samarali jarayon sifatida “yengish sharoitlari”ning barchasi harakatga keltirilganda, jumladan, quyidagi hollarda to‘g‘ri deb baholanadi:

• asosiy faoliyatning yuksak mahorat darajasida bajarish;

• rahbarga xos shaxslilik sifatlari kompleksining qaror topganligi;

• boshqaruv faoliyatini yuqori saviyada kechishini ta’minlovchi barcha omillarni bilish va albatta, hisobga olish;

• rahbar-xodim, rahbar-jamoa, psixolog-rahbar, rahbar-xodim-psixolog tizimida maksimal samarali faoliyatni ta’minlash;

• rahbar atrofidagi muhit boshqaruv faoliyatining o‘zaro ta’siri va uni optimallashtirish (rahbar – psixologik qo‘llab- quvvatlash guruhi).

Amaliy tajriba jarayoni shuni tasdiqladiki, stressli kechinmalarni yengishdagi muvaffaqiyat-muvaffaqiyatsizlik boshqaruv faoliyatining butun majmuasi, ijtimoiy-psixologik va shaxslilik omillari bilan belgilanadi. Ularni maqsadga yo‘naltirilgan holda hisobga olish rahbarlarni (jamoani) stressli kechinmalarni yengishga tayyorlash jarayonini optimallashtirish imkonini beradi, oxir oqibatda esa shaxsni shakllantirish integral vazifasini hal qilish, uning professional kamolotini ta’minlash uchun zamin hozirlaydi.

R.Zagaynov fikricha, boshqaruv faoliyatida stressli vaziyatlarni yengishning psixologik konsepsiyasi ana shulardan iborat. Mazkur konsepsiyani amaliy hayotga tatbiq etish har bir tipik stressli vaziyatni yengishga o‘rgatishning maqsadli dasturi va texnologiyasini ishlab chiqishni taqozo etadi [6].

A.G.Asmolov fikricha, psixologik himoyani tashkil etish psixologik tayyorgarlikning asosiy vazifasidir, u qanchalik erta yaratilsa, shunchalik rahbar o‘zining asosiy faoliyatidagi vazifalarni oson hal qila oladi, degan ilmiy amaliy g‘oyani ilgari suradilar[5].

Shu munosabat bilan ular rahbar psixologiyasi nazariyasi va amaliyotiga “erta psixologik tayyorgarlik” tushunchasini kiritishni taklif etadilar va uni quyidagi sharoitlarni ta’minlashdan iborat deb hisoblaydilar.

1) psixologik himoyaning amaliy vositasi bo‘lgan “ahamiyatli kechinmalarni qayd qilish kundaligi”ni tutishga o‘rgatish (mazkur kundalik o‘z kechinmalari, ya’ni o‘z–o‘zi bilan kurashish va o‘zini yuksaltirishga o‘rgatish maqsadida olib boriladi);

2) amaliy yordamchilarni izlashga o‘rgatish (psixologik qo‘llab-quvvatlash guruhlari)

3) shaxslilik sifatlarini tarbiyalash: doimiy motivatsiyalashish, “yopiqlik”, “ishonch-e’tiqod”.

“Erta psixologik tayyorgarlik” masalalarini o‘z vaqtida hal etish rahbarni uning asosiy faoliyatidagi tipik stressli vaziyatlarning salbiy omillari ta’siridan psixologik himoyalanish tizimi bilan qurollantiradi.

Stressli kechinmalarni yengishga tayyorgarlikni tashkil etish stressli vaziyatlarni muhim va muvaffaqiyatli yengishni ta’minlovchi psixologik himoyaning faol shakllarini ishlab chiqish va takomillashtirishdan iborat. Ular quyidagilarni tashkil etadi:

• psixolog bilan birgalikda ahamiyatli kechinmalar kundaligini olib borish, bunda psixologning roli yozuvlarni va kechinmalarni psixologik tahlil qilib, tegishlicha korreksiya qilishdan iborat bo‘ladi;

• rahbarning ahamiyatli kechinmalari va xulqini o‘z vaqtdida korreksiya qilishning turli shakllarini qo‘llash (psixolog bilan og‘zaki va yozma dialog, bavosita shakllar: xat, telegramma, telefon qo‘ng‘iroqlari va h.k.);

• psixologik qo‘llab-quvvatlash guruhi a’zolari xulqini samarali bilib va ongli tanlash va boshqarish.

Mazkur vosita va usullarni mahoratli qo‘llash hamda o‘rni-o‘rnida foydalanish zarurligi stressli vaziyatlarni yengishga shart-sharoitlarni yaratishni ta’minlaydi. Boshqaruv misolida shuni tan olish zarurki, eng muhim psixologik vazifa o‘z vaqtida yosh rahbarga real psixologik yordamni amalga oshirishni ko‘rsatish mumkin. Shu sohada olib borilgan tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, bunday yordam bo‘lmaganida shaxsning o‘zini o‘zi tarbiyalashidagi “oldinlab ketuvchi samara” kuzatiladi, uning natijasida ko‘pincha “shaxsning qiyshayishi” (A.Kempinskiy termini) yuzaga keladi. U xususan, rahbarning salbiy motivatsiyaga ega bo‘lishida namoyon bo‘ladi, bu motivatsiya asosida rahbar xodimlariga nisbatan negativizm, alamzadalik, nafrat va shunga o‘xshash hissiyotlar namoyon bo‘ladi, natijada shaxsda negativizm, individualizm va insonni yomon ko‘rish kabi salbiy xususiyatlari mustahkamlanib qoladi.

Shunday qilib, kazusli va stressli vaziyatlarni yengishni professional jihatdan tayyorgarlik ko‘rgan mutaxassislar va psixologlarsiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Psixologning professional va insoniy resurslariga esa bir qator talablar qo‘yiladi. Jumladan, u quyidagi malakalarga ega bo‘lishi kerak: a) rahbarlarning insoniy va professional ishonchini qozona olishi; b) u bilan o‘rnatilgan ishonchli aloqani saqlay olishi va doimiy rivojlantirib borishi; oilaviy hayotning va rahbar faoliyatining barcha yuz berishi mumkin bo‘lgan muammoli vaziyatlarida (ayniqsa, stressni keltirib chiqaruvchi vaziyatlarda) real va professional hamda insoniy psixologik qo‘llab-quvvatlashni amalga oshira bilishi kerak.

Psixologning rahbar bilan bo‘ladigan amaliy faoliyatini yo‘naltirishning shartli prinsipi insonga shaxslilik-insonparvarlik yondashuvidir. Amaliy psixologni tayyorlash o‘z ichiga ikki o‘zaro aloqador yo‘nalishni qamrab oladi: birinchisi, psixologni umumiy tayyorlash yo‘nalishi bo‘lib, universal maqsadli dastur bilan ta’minlanadi, u o‘z ichiga umumiy amaliy malakalar, prinsiplar, yondashuvlarni shakllantirishni qamrab oladi. Ikkinchi yo‘nalish psixologning konkret stressli vaziyatlarda samarali harakat qilish imkonini beradigan tayyorgarlikni nazarda tutadi.

Ba’zi mualliflarning ta’kidlashicha, stressli kechinmalarni yengishni ta’minlovchi (tayorlangan) usullarning ko‘pchiligi yengish resurslarini emas, yenguvchi reaksiyalarni tadqiq etishga mo‘ljallangan. Bir vaqtda esa yengish reaksiyalari stressorlar harakatga tushgandan keyin yuzaga keladigan u yoki bu xulq-atvordan iborat bo‘ladi, yengish resurslari esa, shaxs stressorlar ta’sir etishni boshlamasdan oldin ega bo‘lgan kategoriyadir [33]. Aynan resurslar stressorlar bilan o‘zaro ta’sirning salbiy oqibatlarini kamaytirishga olib keladi [33]. Stressni yengish resurslarini tadqiq etishga asosan stressning transakt modellarida alohida urg‘u berilishini hisobga olsak, bu modellarni shaxsdagi stressni yengishi uchun individual resurslarini o‘rganishga bo‘lgan yondashuvni aniqlash maqsadida qarab chiqish zarurati tug‘iladi. Aynan bir stressorga turli xil individlar turlicha reaksiya bildiradilar. Mazkur sharoitlardagi reaksiya tipi va xulqning yo‘nalganligi shaxsning individual xususiyatlari, jumladan, uning stressni yengishda individual psixologik resurslariga bog‘liq bo‘ladi.

V.A.Bodrov [2000] resursli yondashuvga psixologik stress nazariyasi rivojlanishining zamonaviy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraydi va bu holatning kelib chiqishi va rivojlanishida shaxs resurslari rolini ishlab chiqishni taklif etadi [36]. Resursli yondashuv inson psixik faolligi xususiyatlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan hamda axborotni qayta o‘zgartirish jarayonlariga maksimal talablar qo‘yilganda inson faoliyatining axborotni qabul qilish va o‘zgartirish jadallashmoqda. Stressni boshqarishga resursli yondashuvda tasdiqlanadiki, axborotni ishlovchi tizim vaqtning har bir lahzasida o‘zgaruvchan, biroq chegaralangan resurslarga ega hisoblanadi. Psixolog V.A.Bodrov ta’kidlashicha psixologik stressning har qanday turi (shaxslilik, shaxslararo, oilaviy, jamoaviy va boshq.) o‘z asosiga ko‘ra, informatsion xarakterga ega, ya’ni uning rivojlanish manbai tashqi xabarlar, real yoki taxmin qilinayotgan voqe-hodisalar, noxush voqealarning ta’sir ko‘rsatish ehtimoli, ularning xavfi haqidagi axborotli yoki psixikani jarohatlovchi hodisalar, vaziyatlar va ularning oqibatlari bilan bog‘liq o‘tmish tasavvurlaridan iborat “ichki informatsiya”dir[1;2;3].

Rahbar faoliyatini boshqarish jarayonlarini o‘rganish asosida shaxs resurslarining ko‘pligi g‘oyasini ilgari surib, D.Navon (1999) inson resurslari konsepsiyasining bir qator postulatlarini ilgari suradi:

- “inson tizimi” har qanday paytda ham resurslar deb ataluvchi axborotni o‘zgartirishning ma’lum sonli imkoniyatlariga ega bo‘ladi;

- rahbar faoliyatining mazmuni qo‘llanilgan resurslar va ularni qo‘llash samaradorligi soni bilan xarakterlanadi;

- rahbar uchun ma’lum paytlarda mehnat vazifasi axborotning (stimullar sifati va soni, joylashish va h.k.) hamda insonning (professional qobiliyatlar, ahamiyatlilik, murakkablik va h.k.) bir qator parametrlari bilan belgilab beriladi, ularning mutanosibligi boshqaruv faoliyatining resurslar bilan ta’minlanishini taqozo etadi.

- rahbar funksiyasi ishchi informatsiya va resurslar kattaligi mutanosibligi bilan xarakterlanadi [1;2;3].

Tadqiq etilayotgan muammo bo‘yicha adabiyotlar tahlili va empirik kuzatishlarimiz natijalari rahbarlar faoliyatiga ta’sir etadigan stressli kechinmalarni shartli ifoda etuvchi shaxsiy maydonini loyihalash imkonini berdi. Mazkur shaxsiy maydonni loyihalash tuzilmasiga tayanish asosida boshqaruv faoliyatida stressli kechinmalarni muvafaqqiyatli yengishning ijtimoiy-psixologik modelini ishlab chiqishga erishdik.

Foydalanilgan ababiyotlar ro‘yxati.

1. Бодров В. А. Психологический стресс: развитие учения и современное состояние проблемы. М.: Изд-во «Институт психологии РАН». 1995. 136 с. 20.

2. Бодров В. А. Информационний стресс. М.: Изд-во «Институт психологии РАН», 1997. С.62-64. 21. Бодров В.А. Психологический стресс: развитие и преодоление. М.: PerSe. 2006, - С.146-148, 131, 22.

3. Бодров В.А., Турзин П.С., Евдокимов А.В. Комплексная методика моделирования психической напряженности. В кн.: Методики диагностики психических состояний и анализа деятельности человека. М.: Институт психологии РАН. 1999. с. 75-84.

4. Боймуродов Н. Раҳбар психологияси. Т.: 2005. 149 б.

5. Асмолов А.Г. Психология личности. – М.: МГУ. 1990. -180 с.

6. Загайнов Р.М. Психолог в команде. –М.: Фис. 1994. -144 с.

Qo‘chqorov Sobirjon Ahadjonovich
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

CHAQIRIQQACHA HARBIY TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARIDA EKSTREMAL KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI, SHAKL, METOD VA VOSITALARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ilm-fanda inson va uning turmush sharoiti o‘rtasida ajralmas aloqalar mavjudligi va insonning xulq-atvorini to‘g‘ri tushunish yoki unga ijtimoiy psixologik yordam ko‘rsatish uchun uning borlig‘i va rivojlanishi, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini tashkil etish amalga oshiriladigan hayotiy (ijtimoiy) vaziyatning xususiyatlarini hisobga olish kerak. Bu borada turli ilmiy yo‘nalishlar doirasida ko‘p sonli empirik va eksperimental ma’lumotlar to‘plangan.*

Kalit so‘zlar: *Vatan, ekstremal, kompetentlik, sadoqat, vaziyat, psixologik, imtiyoz, parameter, obyekt, epizod, harbiy, siyosiy, milliy, subyekt, metod, jismoniy, pozisiya, stress, vatanparvarlik, pedagogik, analitik, professional, jangovar, refleksiya, yondashuv, tadqiqot.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается вопрос о существовании неразрывной связи между человеком и условиями его жизни в науке, а для правильного понимания поведения человека или оказания ему социально-психологической помощи необходимо учитывать особенности жизненной (социальной) ситуации, в которой протекает его существование и развитие, и организовывать систему военно-патриотического воспитания детей. В рамках различных научных направлений по этому вопросу накоплен большой объем эмпирических и экспериментальных данных.*

Ключевые слова: *Родина, крайность, компетентность, лояльность, ситуация, психологический, привилегия, параметр, объект, эпизод, военный, политический, национальный, субъект, метод, физический, позиция, стресс, патриотизм, педагогический, аналитический, профессиональный, боевой, рефлексия, подход, исследование.*

Abstract. *This article discusses the existence of an inseparable connection between a person and his living conditions in science, and in order to correctly understand human behavior or provide him with socio-psychological assistance, it is necessary to take into account the characteristics of the life (social) situation in which his existence and development take place, and to organize a system of educating children in the spirit of military-patriotic spirit. A large number of empirical and experimental data have been collected in this regard within the framework of various scientific directions.*

Key words: *Homeland, extreme, competence, loyalty, situation, psychological, privilege, parameter, object, episode, military, political, national, subject, method, physical, position, stress, patriotism, pedagogical, analytical, professional, combat, reflection, approach, research.*

Kirish. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida jamiyatda Vatanni sadoqat bilan himoya qilish, fidoyilik tuyg‘ularini rivojlantirish, ularda Vatanga sadoqat, mas’uliyatni shakllantirishga qaratilgan keng qamrovli ishlar negzida ta’lim tizimida, xususan harbiy ta’limda ham talabalarning jismoniy ko‘nikmalarini oshirish, jangovarlik ruhiyatini oshirish, taktik bilimlari va imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratailgan ta’limiy maqsadlar ham ko‘zda tutilgan. Shu ma’noda oliy ta’lim tizimida chaqiriqqacha harbiy ta’lim talabalarini tayyorlashning yangi sifat bosqichiga olib chiqish va kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishning mazmun-mohiyatini o‘rganish, undagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmqoda.

Adabiyotlar tahlil. Jamiyatimizning yangi rivojlanish bosqichida “jamiyat yoshlarida vatanparvarlik ruhini kamol toptirish, madaniy-ma’naviy, axloqiy kamoloti sur’atlarini tezlashtirish, ta’lim-tarbiya ishlarini oqilona yo‘lga qo‘yish, ma’rifiy tadbirlarni muntazam amalga oshirish benihoya katta ahamiyatga ega. Agar inson to‘g‘ri tarbiya topmasa, uning faoliyati jamiyat uchun zararli bo‘ladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu haqda quyidagi fikrlarni bildirganlar: “O‘z farzandlarida yuksak vatanparvarlik ruhini kamol toptiraolmagan davlat, qanday qudratli qurolga ega bo‘lmasin, mudofaa qobiliyatini mustahkamlay olmaydi”[1]. Demak, chaqiriqqacha harbiy ta’lim

talabalarda vatanparvarlik tuyg‘usiga asoslangan jangovarlik pozitsiyasini rivojlantirish, jismoniy kamolotini mustahkamlash dolzarb vazifalardan biridir. Buning uchun esa, pedagogik jarayonda ta’lim sifatini oshirish, samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning mazmunini chuqur tahlil qilish kerak bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33-yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigida hozirgi vaqtda jahonda va mintaqamizda harbiy-siyosiy vaziyat keskin o‘zgarganligi, milliy va global xavfsizlik sohasida xatar va tahdidlar tobora kuchayib borayotganligi, ana shunday o‘ta mas’uliyatli vaziyatda milliy armiyamizni yanada rivojlantirish va takomillashtirish borasida puxta o‘ylangan va izchil harakatlarni davom ettirish zarurligiga alohida e’tibor qaratdi.

Ayniqsa, harbiy soha kadrlarini kasbiy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan uzluksiz olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishlarining dolzarb ahamiyati hamda barcha bo‘g‘indagi professional harbiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, milliy armiyamizni yanada rivojlantirish, tayyorlanadigan harbiy kadrlarning umumiy madaniyatini oshirish, ularning dam olishi va sport bilan shug‘ullanishi uchun barcha qulay sharoitlarni yaratish, bu jarayonda harbiy bilim yurtida haqiqatan ham ta’lim olishga munosib, yuksak aql-zakovat va yetakchilik qobiliyatiga ega bo‘lgan yoshlarni aniqlash uchun ularni o‘qishga tanlab olishda talabni oshirish zarurligiga alohida e’tibor qaratildi [2].

Zero, “farzandlarimizni o‘zimiz asramasak, o‘zimiz avaylamasak, o‘zimiz tarbiyalamasak, birov chetdan kelib bu ishni biz uchun bajarib bermaydi. Shu sababli har bir ofitser ta’sirchan shakl va usullardan foydalanib, adashgan yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga qaytarishni harbiy xizmat kabi o‘zining muhim burchi deb bilishi kerak”[24;141]. Shunday ekan, ta’lim tarbiya sohasida mehnat qilayotgan har bir pedagog va mas’ul mashg‘ulot rahbarlari chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarida jismoniy-taktik ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali ularning harbiy tayyorgarlik xholatini oshirish, shuningdek, ularning ongi va qalbiga, ona – Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat g‘oyalarini chuqur singdirishga muhim vazifa sifatida qarash lozim[94;130-131].

Fidoyilik, mardlik sadoqat, mehr oqibat kabi insoniy fazilatlar chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarida jangovarlik ruhiiyatini rivojlantiradi. Buning uchun «yangi davr o‘qituvchilarini tarbiyalash, peadgogika fanini rivojlantirish, innovatsion ta’lim texnologiyalari, kreativ yondashuvlar haqida»[25;143] ko‘proq bosh qotirishimiz va ularning rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqishimiz zarur.

2018-yil 23-fevral O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori asosida «Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi»ishlab chiqildi va u to‘rt bosqichni o‘zida mujassam etgan. Ushbu konsepsiyada davlat yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini tashkil etish, uning natijalari monitoringini yuritishni ta’minlaydigan asosiy institut ekanligi qayd etildi. Davlat yosh avlodning tarbiya jarayonini oilada, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim muassasalarida, harbiy xizmat davomida, shuningdek, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, turli davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari doirasida tashkil etadi.

60112000-Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:

Umumiy kompetensiyalar:

shaxsiy o‘sishga intilishni shakllantirish va obyektiv baholash, shuningdek, ta’lim oluvchilarning intellektual rivojlanish darajasini oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hal etishda umumkasbiy va mutaxassislik fanlarning asosiy qoidalari va metodlaridan samarali foydalana olish;

ona tilida o‘z fikrlarini tizimli va erkin bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishlash, ommaviy nutq so‘zlash uchun ona tili va chet tillaridan birida yozma va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini egallaganlik;

axborotni olish, saralash, saqlash va qayta ishlash metod, usul va vositalaridan foydalanish va mediasavodxonlik; global kompyuter tarmoqlar bilan ishlash ko‘nikmalariga egalik.

ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, ilmiy bilish yutuqlariga erishish tamoyillarini anglash;

gigiena, mehnat muhofazasi va tashqi ta’sirlardan himoya qilish qoidalari talablariga muvofiq, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirishga qobiliyatlilik.

Kasbiy kompetensiyalar:

o‘quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta’lim amaliyotiga tatbiq etish;

ta’lim jarayoni sub’ektlarining birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyati va shaxslararo o‘zaro harakatini tashkil etish usullarini egallaganlik;

kasbiy vazifalarni hal etishda fanlararo bog‘liqlikni amalga oshirish, shuningdek, nazariya va amaliyot uyg‘unligini, uzviylik va uzluksizligini ta’minlash;

tanqidiy fikrlash metodikasini o‘zlashtirganlik;

harbiy darslarida texnika xavfsizligini ta’minlash va laboratoriya tajribalarini xavfsiz o‘tkazish;

inklyuziv ta’limga qadriyatli munosabatning tarkib topganligi; uzoq vaqt davolanishga muhtoj o‘quvchilar bilan ishlash (gospital pedagogika) texnologiyasiga ega bo‘lishi;

ta’lim oluvchilarga o‘zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanlikka doir kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga imkon beradigan natijaviylik va mobillikka yo‘naltirilgan o‘qitishga qobiliyatlilik.

Quyida "Vaziyatli yondashuv asosida talabalarning ekstremal kompetentligini rivojlantirish" mavzusida ishlatiladigan shakl, metod va vositalarni tahliliy tarzda keltirib o‘tamiz.

Talabalarning ekstremal kompetentligini rivojlantirish uchun quyidagi shakllar qo‘llaniladi:

1-jadval

Vaziyatli yondashuv asosida talabalarning ekstremal kompetentligini rivojlantirish shakllari

№	Shakl nomi	Mazmuni
1	Trening mashg‘ulotlari	Simulyatsiya qilingan ekstremal vaziyatlarda talabalar bilan ishlash.
2	Amaliy laboratoriya ishlari	Murakkab sharoitlarda tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirish.
3	Jamoaviy loyiha ishlari	Guruh bilan ishlash orqali stressga chidamlilik va hamkorlik qobiliyatini oshirish.
4	Ijtimoiy rolli o‘yinlar	Real hayotga yaqin ekstremal vaziyatlarni rolli o‘yin orqali namoyon etish.
5	Keys-stadi (vaziyatlar tahlili)	Muayyan ekstremal vaziyatni tahlil qilib, yechim topishga yo‘naltirish.
6	Viktorinalar va tezkor testlar	Qisqa vaqt ichida javob berish ko‘nikmasini rivojlantirish.

Vaziyatli yondashuvda qo‘llaniladigan asosiy metodlar quyidagicha:

2-jadval

Vaziyatli yondashuv asosida talabalarning ekstremal kompetentligini rivojlantirish metodlari

№	Metod nomi	Mazmuni
1	Simulyatsiya usuli	Talabalarni real sharoitga yaqin ekstremal vaziyatlarga moslashtirish.
2	Muammoli ta’lim	Talabalar oldiga yechilishi qiyin bo‘lgan vazifalarni qo‘yish.
3	Muammoli savol-javob	Muammoli savollar orqali tezkor fikrlash qobiliyatini shakllantirish.
4	Diskussiya va debatlar	Stress ostida o‘z fikrini himoya qilish va qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish.
5	Keys usuli (Keys-stadi)	Muayyan vaziyatni o‘rganib, tahlil qilish va optimal yechim topish.
6	Rol o‘yinlar (Role-Play)	Turli ijtimoiy rollarni bajarish orqali vaziyatni amaliyotda sinash.
7	Jamoaviy ish	Bir guruh bilan ekstremal vazifalarni bajarish orqali kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish.

№	Metod nomi	Mazmuni
8	Vaziyatli topshiriqlar	Talabalarni kutilmagan murakkab sharoitlarda muammoni hal qilishga undash.

3-jadval

Vaziyatli yondashuv asosida talabalarning ekstremal kompetentligini rivojlantirish vositalari

№	Vosita nomi	Tavsifi
1	Simulyatorlar	Ekstremal sharoitlarni yaratish uchun virtual yoki fizik simulyatorlar.
2	Ta’lim texnologiyalari	Elektron platformalar, masalan: Moodle, Zoom, virtual laboratoriyalar.
3	Interaktiv materiallar	Elektron keyslar, vaziyat tahlili uchun multimedia dasturlari.
4	Kuzatish va monitoring vositalari	Talabalar faoliyatini baholash va stress darajasini kuzatish uchun dasturlar.
5	Vaziyatli kartochkalar	Rolli o‘yinlar yoki keyslar uchun oldindan tayyorlangan topshiriqlar.
6	Video va audio materiallar	Ekstremal sharoitlarni ko‘rsatib beruvchi ta'limiy videolar va audio yozuvlar.
7	Real texnologik jihozlar	Murakkab texnologiyalar bilan ishlash orqali amaliy ko‘nikmalarni oshirish.
8	Vaqtni boshqarish vositalari	Vaqt chegaralarini o‘rnatish uchun taymerlar va texnologiyalar.

Vaziyatli yondashuv talabalarda ekstremal sharoitlarda tezkor, aniq va ijodiy qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, u murakkab vaziyatlarda mustaqil fikrlash va to‘g‘ri yo‘l tanlash malakasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim jarayonida turli shakl, metod va texnologiyalarni kompleks qo‘llash natijasida talabalarning stressga chidamliligi ortadi, analitik va kreativ fikrlash qobiliyati faollashadi hamda ular real ekstremal vaziyatlarda samarali faoliyat yuritish uchun zarur kompetensiyalarni egallab boradi.

Ekstremal kompetentlikni rivojlantirish jarayonida qo‘llaniladigan metodlar ichida, avvalo, muammoli o‘qitish alohida o‘rin tutadi. Bu yondashuvda talabalarga kutilmagan, murakkab va ko‘p qirrali vaziyatlarda yechim topishni talab qiluvchi topshiriqlar taqdim etiladi. Simulyatsiya, rolli o‘yinlar va real vaziyatlarni modellashtiruvchi mashg‘ulotlar orqali ular xavf tug‘diruvchi vaziyatlarda qanday harakat qilish kerakligini amaliy jihatdan sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Case-study metodida esa real yoki shartli vaziyatlar chuqur tahlil qilinib, har bir talaba muammoning optimal yechimi haqida argumentlashtirilgan qaror qabul qilishga o‘rgatiladi.

Amaliy tajribalar, virtual laboratoriyalar va interaktiv mashg‘ulotlar ekstremal sharoitlarni xavfsiz tarzda modellashtirishga imkon yaratib, talabalarda tezkor qaror qabul qilish, xavfni baholash, muqobil yechimlarni ko‘ra bilish kabi ko‘nikmalarni mustahkamlaydi. Refleksiya jarayoni esa ekstremal kompetentlikning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, unda talabalar o‘z qarorlarini tahlil qiladi, xatolarni aniqlaydi va ularni bartaraf etishning samarali yo‘llarini izlaydi.

Ekstremal kompetentlikni shakllantirishning muvaffaqiyati bir qator shart-sharoitlarning ta’minlanishiga bog‘liq. Avvalo, o‘qituvchilarning bu sohada puxta metodik tayyorgarlikka ega bo‘lishi zarur. Pedagog ekstremal vaziyatlar psixologiyasi, xavfni boshqarish, simulyatsiya texnologiyalari va muammoli o‘qitish metodikasini chuqur bilishi lozim. Ikkinchi muhim omil - innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etishdir. Virtual muhitlar, simulyatorlar, multimedia vositalari va interaktiv platformalar talabalarga xavfli vaziyatlarni xavfsiz tarzda boshdan kechirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, ta’lim muhiti real hayotga yaqinlashtirilgan bo‘lishi, ya’ni talabalar duch kelishi mumkin bo‘lgan murakkab sharoitlar modellashtirilgan bo‘lishi zarur. Bunday yondashuv ularda tanqidiy, mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, vaziyatga mos strategiyalarni shakllantirishga ko‘maklashadi. Natijada, talabalarda ekstremal vaziyatlarda tezkor moslashish, xavf darajasini baholash va to‘g‘ri qaror qabul qilish kompetentliklari shakllanadi.

4-jadval

Talabalarda ekstremal kompetentlikni baholash mezonlari

№	Mezon	Ko‘rsatkich	Daraja
1.	Bilim darajasi	Nazariy bilimlarga ega bo‘lish	Yuqori, O‘rta, Past
2.	Amaliy ko‘nikma	Amaliy topshiriqlarni bajarish sifati	Yuqori, O‘rta, Past
3.	Moslashuvchanlik	Noaniq vaziyatlarga moslashuvchan yondashuv	Yuqori, O‘rta, Past
4.	Qaror qabul qilish	Tezkor va to‘g‘ri qaror qabul qilish	Yuqori, O‘rta, Past
5.	Refleksiya	O‘z qarorlarini tahlil qilish	Yuqori, O‘rta, Past

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, talabalarda ekstremal kompetentlikni rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Noaniq va murakkab vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish, moslashuvchan yondashuv va refleksiya qobiliyatlari yuqori darajada rivojlangan shaxslar bugungi jamiyat ehtiyojlariga javob beradi. Ekstremal kompetentlikni rivojlantirish uchun innovatsion metodlardan foydalanish, simulyatsiyalar va real hayotiy vaziyatlarni qo‘llash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. 2018-yil 23-fevral O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori.
3. Jabborov K.K. Kollej o‘quvchilari jismoniy tarbiyasining pedagogik texnologiyasi monitoringi. Avtoref. dis.. kand. ped. nauk. - T.: - 2008. – S.20.
4. Баротов Ш.Р. Психологическая служба образования: от теории к практике. (Учебно-методичевкое пособие). – Бухара: Дурдона, 2017.С-114.
5. Досумходжаев Ф.А. Вазиятли ёндашув асосида бўлажак хуқуқшуносларнинг ватанпарварлик туйғусини ривожлантириш механизмлари: п.ф.б.ф.д (PhD) диссер автореферати. – Тошкент, 2022. – Б. 13.
6. Қўйсинов О.А. Компетентли ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларнинг касбий–педагогик ижодкорлигини ривожлантириш технологиялари: Педагогика фанлари бўйича докторлик (DSc) дисс. – Тошкент, 2019. – 200 б.
7. Махмудов А.Х. Бўлажак магистрларни компетентли тайёрлашнинг дидактик таъминотини такомиллаштириш. Автореф. пед. фан. док. – Т. 2017. – 30 б.
8. Уразова М.Б. Бўлажак касбий таълим педагогини лойиҳалаш фаолиятига тайёрлаш технологиясини такомиллаштириш // педагогика фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент давлат педагогика университети 2015.
9. Юлбарсова Х.А. Интегратив ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларнинг коммуникатив компетентлилигини шакллантириш технологияси: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Наманган 2019.

Рахимова Мулкижахон Бахтиёровна
Магистр направления русской лингвистики
Бухарского международного Университета

ЛЕКСИКОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ДИСКУРСА: ЯЗЫК ЗАБОТЫ, ПООЩРЕНИЯ И ПОДДЕРЖКИ

Аннотация. *В статье представлен лексикологический анализ педагогического дискурса, фокусирующийся на лексике заботы, поощрения и поддержки. Исследование опирается на корпусные данные (аудирование уроков, учебные тексты, методические рекомендации, интервью с педагогами) и комбинирует методы лексико-семантического анализа, коллокационного и прагмалингвистического подходов. Выявлены стратегические языковые маркеры эмоциональной поддержки, модели вербализации заботы и специфические лексические поля, отражающие педагогические практики. Сделаны выводы о роли лексики заботы в формировании благоприятного учебного климата и предложены рекомендации для методической подготовки педагогов.*

Ключевые слова: *педагогический дискурс, лексикология, лексика заботы, поощрение, поддержка, коллокация, прагмалингвистика.*

PEDAGOGIK DISKURSNING LEKSIKOLOGIK TAHLILI: G‘AMXO‘RLIK, RAG‘BATLANTIRISH VA QO‘LLAB-QUVVATLASH TILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada pedagogik diskursning leksikologik tahlili – g'amxo'rlik, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash leksikasi tahlil qilinadi. Tadqiqot korpus ma’lumotlariga (dars yozuvlari va audioyozuvlari, o'quv matnlari, uslubiy tavsiyalar, pedagoglar bilan suhbatlar) tayangan holda leksiko-semantik tahlil, kollokatsion tahlil va pragmalingvistik yondashuvlarni uyg'unlashtiradi. Emotsional qo'llab-quvvatlashning til belgilarini, g'amxo'rlikni so'zlash tartibini va pedagogik amaliyotlarni aks ettiruvchi leksik maydonlarni aniqlaydi. Leksikaning ijobiy o'quv muhitini shakllantirishdagi roli xulosalar qilingan va pedagoglarni o‘qitish uchun metodik tavsiyalar taklif etilgan.*

Kalit so'zlar: *pedagogik diskurs, leksikologiya, g'amxo'rlik leksikasi, rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash, kollokatsiya, pragmalingvistika.*

LEXICOLOGICAL ANALYSIS OF PEDAGOGICAL DISCOURSE: THE LANGUAGE OF CARE, ENCOURAGEMENT, AND SUPPORT

Abstract. *This article presents a lexicological analysis of pedagogical discourse with a focus on the language of care, encouragement and support. The study is based on a corpus including classroom recordings, educational texts, methodological guidelines and interviews with teachers, and employs lexicosemantic, collocational and pragmalinguistic methods. It identifies linguistic markers of emotional support, patterns of verbalizing care and specific lexical fields that reflect pedagogical practices. The findings demonstrate the role of care-oriented vocabulary in creating a supportive learning environment and provide methodological recommendations for teacher training.*

Keywords: *pedagogical discourse, lexicology, language of care, encouragement, support, collocation, pragmalinguistics.*

Актуальность исследования. Современная образовательная практика всё чаще подчёркивает важность эмоционального климата в классе как фактора успешного обучения и психологического благополучия учащихся. Однако именно лингвистическая составляющая педагогического взаимодействия нередко оказывается вне внимания исследователей. Педагогический дискурс - это совокупность речевых практик, формирующихся в образовательной среде и отражающих цели, ценности и отношения участников педагогического процесса. Он объединяет

устные и письменные формы общения учителя с учениками, коллегами и родителями, где язык выполняет не только информативную, но и эмоционально-регулятивную функцию.

Важнейшим компонентом педагогического дискурса является язык заботы, поощрения и поддержки - особый пласт лексики, с помощью которого педагог выражает эмпатию, доброжелательность и готовность помочь. Эти речевые акты формируют у ребёнка ощущение безопасности, принятия и значимости, что напрямую влияет на мотивацию, самооценку и успешность обучения. Именно через слова педагог реализует не только дидактическую, но и гуманистическую миссию - создаёт пространство доверия и взаимного уважения.

Тем не менее, современные исследования и наблюдения показывают дефицит языка заботы и поддержки в школьной среде. В условиях повышенной нагрузки, формализации образовательных требований и эмоционального выгорания педагогов нередко наблюдается скудность эмоционально-поддерживающих выражений, преобладание оценочной, директивной и критической лексики. Многие учителя используют сухие, нейтральные или авторитарные формы общения, что снижает качество педагогического взаимодействия и ослабляет эмоциональную связь между участниками образовательного процесса.

Таким образом, изучение лексики заботы, поощрения и поддержки в педагогическом дискурсе не только восполняет научный пробел, но и имеет значимый практический потенциал. Понимание закономерностей употребления поддерживающей лексики способствует развитию эмоционально-интеллектуальной культуры учителя, профилактике профессионального выгорания и повышению эффективности педагогической коммуникации.

Предмет исследования. Предметом исследования являются лексические единицы и лексико-семантические поля педагогического дискурса, направленные на выражение заботы, поощрения и поддержки.

Объект исследования. Объектом исследования выступает педагогический дискурс в современных школьных и внеклассных коммуникативных практиках (устные формы общения педагога с учениками, письменные методические тексты, учебные пособия и советы для педагогов).

Степень изученности темы в Узбекистане, России и за рубежом

Россия. В российской лингвистике и педагогике интерес к педагогическому дискурсу проявился активно с конца 1990-х годов. Наиболее значимые исследования принадлежат Е.И. Шейгал, В.И. Карасику, Т.А. ван Дейку (в переводных версиях), а также работам И.А. Стернина, В.А. Кухаренко, О.В. Орловой, Н.Д. Голуб. Эти авторы рассматривали педагогический дискурс как разновидность институционального общения с ярко выраженной этической и эмоциональной составляющей.

Особое внимание уделяется анализу **языка эмпатии**, **педагогической поддержки** и **коммуникативных стратегий учителя** (работы О.С. Иссерс, И.А. Фроловой, Е.В. Клюевой). В последние годы в России усиливается корпусная и когнитивно-прагматическая ориентация исследований (например, проекты Национального корпуса русского языка, исследующие школьные коммуникации).

Узбекистан. В Узбекистане исследования педагогического дискурса находятся на этапе становления. Преимущественно они ведутся в русле методики преподавания языков, психолингвистики и культурологии образования. Работы З.Х. Ходжаевой, Г.Р. Алимовой, Ф. Муминовой и др. затрагивают вопросы педагогического общения, этикета учителя, речевого воздействия. Однако системного анализа лексики заботы и поощрения пока нет. Исследования носят фрагментарный характер, ограниченные в основном описанием «этикетных формул» или анализа речевых актов.

Проблема дефицита заботливого и поддерживающего языка в школьной практике Узбекистана обозначается психологами и педагогами, но ещё редко становится предметом лингвистического анализа.

Опыт зарубежных стран и частично - российских исследований показывает, что язык заботы и поддержки может и должен быть предметом целенаправленного формирования у педагогов. Для образовательной системы Узбекистана особенно важно перенять следующие подходы:

Институционализация эмпатийного общения - включение в программы педагогических вузов дисциплин, посвящённых языку заботы и позитивной коммуникации.

Создание национального корпуса педагогического дискурса (на узбекском и русском языках) для анализа реальной школьной речи.

Методические тренинги по использованию поддерживающих фраз, позитивного обратного отклика и формул доверия.

Междисциплинарное объединение - соединение лингвистики, педагогики и психологии в исследовании школьного языка.

Мониторинг речевой культуры педагогов как критерия профессиональной компетентности.

Сопоставительный анализ представленных направлений демонстрирует различия в научных подходах, степени системности и практической реализации идей «языка заботы» в педагогике. На основе полученных данных можно выделить несколько аспектов зарубежного и российского опыта, представляющих интерес для образовательной системы Узбекистана.

Выявленные особенности изученности темы определили выбор методологических инструментов настоящего исследования, направленных на системное описание лексики заботы, поощрения и поддержки в педагогическом дискурсе.

Теоретическая часть и методология исследования

1. Теоретические основания исследования

Теоретическая база работы опирается на междисциплинарное понимание педагогического дискурса, объединяющего лингвистику, психологию и педагогику. Под педагогическим дискурсом понимается совокупность речевых актов, текстов и коммуникативных стратегий, реализуемых в образовательной среде и направленных на передачу знаний, формирование ценностей и регулирование межличностных отношений между учителем и учащимися.

Основу анализа составляют теории институционального дискурса (В.И. Карасик, 2000; Т.А. ван Дейк, 1997), коммуникативной личности (И.А. Стернин, 2002), прагматики общения (О.С. Иссерс, 2008), а также концепции языка заботы и эмпатийной педагогики (Noddings, 2003; Rogers, 1994). Эти направления подчеркивают, что педагогическая речь не нейтральна: она всегда связана с системой ценностей, эмоций и установок, которые формируют воспитательное воздействие.

Лексика заботы, поощрения и поддержки в данной парадигме рассматривается как лексико-семантическое ядро гуманистического педагогического дискурса. Она включает слова и выражения, выполняющие функции:

эмпатийного понимания («я вижу, что тебе трудно», «давай попробуем вместе»);

поощрения («молодец», «у тебя получится»);

поддерживающего внушения («ты важен», «я верю в тебя»).

Таким образом, язык заботы выступает средством не только речевого воздействия, но и психологической регуляции образовательной среды, создавая атмосферу доверия и принятия.

2. Методологические подходы

Исследование базируется на синтезе трёх ключевых методологических направлений:

Лингвистический (лексиколого-семантический) подход - позволяет выявить системные особенности слов, выражающих заботу и поддержку, их семантические поля и деривационные связи. Используется метод компонентного анализа, а также классификация лексических полей по степени эмоциональной окрашенности.

Прагмалингвистический подход - направлен на исследование функций поддерживающих выражений в конкретных коммуникативных ситуациях. Анализируются речевые акты по модели Серля и Остина: утверждения, просьбы, поощрения, комплименты, эмпатийные реакции.

Корпусный и коллокационный анализ - предполагает построение двуязычного корпуса педагогического дискурса (русского и узбекского языков). Используется вычисление частотности, индекс ассоциативной силы (MI), t-score и контекстуальный анализ устойчивых выражений. Это позволяет объективно выявить частотные формулы поощрения и заботы, характерные для школьной речи.

3. Исследовательские процедуры

Сбор данных. Корпус включает:

аудиозаписи и стенограммы уроков в школах Узбекистана и России;

тексты учебников и методических пособий;

интервью с педагогами и анализ профессиональных форумов.

Обработка данных. Тексты размечаются по типу высказываний (информативные, директивные, поддерживающие) и по эмоциональной направленности (нейтральные, поощрительные, эмпатийные).

Качественный анализ. Осуществляется выборка типичных примеров выражений заботы и поддержки, их классификация по семантическим категориям (эмпатия, мотивация, доверие, позитивное подкрепление).

Сравнительный анализ. Сопоставляются результаты русскоязычного и узбекоязычного корпусов, выявляются национально-культурные особенности выражения заботы.

4. Теоретические принципы и ожидаемые результаты

Педагогический дискурс отражает ценностную систему общества, а язык заботы - показатель гуманизации образования.

Поддерживающая лексика формирует у учащихся ощущение принадлежности и снижает тревожность.

Речевая культура педагога - фактор эмоционального климата класса.

Корпусный анализ позволяет выделить «лексикон заботы» как устойчивую подсистему педагогического языка.

Ожидается, что теоретико-методологическая часть исследования позволит создать научно обоснованную модель анализа педагогического дискурса, применимую в практике подготовки учителей и в разработке курсов по развитию профессиональной речевой компетентности.

1 Лингвистический (лексико-семантический) В.В. Виноградов, Ю.Н. Караулов, Г.В. Колшанский Выявление лексических полей и семантических структур слов, связанных с заботой и поддержкой Компонентный анализ, контекстуально-семантический анализ Позволяет классифицировать лексику заботы по степени эмоциональности и семантическим признакам

2 Прагмалингвистический Дж. Остин, Дж. Сёрль, О.С. Иссерс Анализ коммуникативных функций и речевых актов поддержки Анализ речевых актов (директивов, комплиментов, поощрений), контекстный анализ Помогает выявить, в каких ситуациях и с какими интенциями используется язык заботы

3 Корпусный и коллокационный Т. МакЭнери, М. Скотт, В. Плоткин Количественное выявление частотных сочетаний слов, выражающих заботу и поддержку Статистический анализ (MI, t-score), построение коллокаций, частотные списки Позволяет объективно определить наиболее употребительные формулы поощрения и заботы

4Социокультурный М. Фуко, В.И. Карасик, Н. Фэйрклаф Интерпретация педагогического дискурса как отражения ценностей и норм общества Дискурс-анализ, интерпретация речевых стратегий Помогает понять, как культурные контексты влияют на выражение заботы и эмпатии

5Психолингвистический К. Роджерс, Н. Ноддингс Осмысление связи речи с эмоционально-ценностной сферой личности педагога Ассоциативный эксперимент, анализ эмпатийных высказываний Позволяет оценить эмоциональный эффект лексики заботы на восприятие учащихся

Совокупность рассмотренных подходов позволяет рассматривать язык заботы, поощрения и поддержки как многомерное явление, включающее лингвистический, психологический и культурный уровни анализа. Следующий этап исследования связан с практической реализацией этих теоретических принципов при анализе реального педагогического дискурса.

Заключение. Проведённый лексикологический анализ педагогического дискурса показывает, что язык заботы, поощрения и поддержки является центральным компонентом гуманистически ориентированной образовательной среды. Лексические средства, выражающие эмпатию, доверие, поддержку и позитивное подкрепление, выполняют важнейшие функции эмоциональной регуляции, формирования мотивации и укрепления психологической безопасности

учащихся. Именно через поддерживающую речь педагог создаёт условия для конструктивного взаимодействия, снижает учебную тревожность и способствует развитию внутренней уверенности ребёнка в своих силах.

Исследование продемонстрировало, что язык заботы образует самостоятельное лексико-семантическое поле, включающее устойчивые выражения, коммуникативные формулы и прагматические конструкции, направленные на поддержку и поощрение. Эти элементы не являются случайными или ситуативными: они системно проявляются в педагогической коммуникации и формируют особый стиль взаимоотношений между учителем и учеником. Прагмалингвистический анализ показал, что такие выражения выполняют функции мотивации, смягчения, подтверждения усилий ученика, создания атмосферы принятия и доверия.

Сравнение русскоязычного и узбекоязычного педагогического дискурса выявило как универсальные, так и культурно-специфические элементы заботливой речи. В узбекской педагогической традиции доминируют коллективистские ценности и лексика доверия и терпения, в то время как в российской практике чаще встречается индивидуализированная поддержка, акцентирующая личностный рост учащегося. Эти различия подчёркивают необходимость учета национально-культурных особенностей в разработке методик речевой подготовки педагогов.

Полученные результаты подтверждают, что язык заботы является не только коммуникативным инструментом, но и педагогическим ресурсом, влияющим на развитие ученика, его самооценку и успешность обучения. Формирование культуры «заботливой речи» должно рассматриваться как важнейшая профессиональная компетенция современного педагога. Её развитие требует целенаправленной подготовки, методической поддержки и системного внедрения в образовательные программы.

Таким образом, анализ языка заботы, поощрения и поддержки открывает новые перспективы для гуманизации педагогического дискурса, способствует совершенствованию коммуникативной культуры учителей и развитию эмоционально благополучной образовательной среды. Его дальнейшее изучение имеет высокую теоретическую и практическую значимость для современного образования.

Литература.

1. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. - Волгоград: Перемена, 2002. - 477 с.
2. Иссерс О. С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи.-
3. Стернин И. А. Основы речевого общения.-
4. Лисина М. И. Проблемы общения и речи в онтогенезе человека.-
5. Роджерс К. Взгляд на психотерапию. Становление человека.-
6. Ноддингс, Северная Забота: женский подход к заботе-
7. Гоулман, Д. Эмоциональный интеллект: почему он может быть важнее- Н
8. Ван Дейк Т. А. Язык. Познание. Коммуникация.-
9. Крысин Л. П. Современный русский язык: Социальная и коммуникативная дифференциация.– М.
10. Абдуллаева М. Х. Педагогический дискурс в образовательной среде Узбекистана: социокультурный аспект.// Журн
11. Юсупова З. Т. Лингвокультурные особенности педагогического общения в школах Узбекистана./
12. Фэйрклоу, Н. Язык и- Л
13. Харгривз, А. Преподавание в обществе знаний: образование в эпоху- Новый
14. МакЭнери, Т., Харди, А. Корпусная лингвистика: метод, теория и практика.- Кэмб

Sharipova Tursunoy Bozor qizi
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi,
O‘zbek tili va adabiyoti folklori instituti tayanch doktoranti

INTERTEKSTUALLIK VA INTERMATN: O‘ZBEK ADABIYOTIDAGI DAVOMIYLIK

Annotatsiya. *Ushbu maqolada intertekstuallik hodisasi va uning nazariy asoslari, evolutsion bosqichlari haqida fikr yuritilgan. Intertekstuallik va intermatn istilohlari izohlangan. Ushbu hodisaning o‘zbek adabiyotidagi tarixiy ildizlaridan bugungi kungacha bo‘lgan adabiyotdagi o‘rni ko‘rsatib berilgan. O‘quvchilar tafakkurida matnlararo aloqa hodisasining o‘rni yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Intertekstuallik, intermatn, muallif o‘limi, postmodern adabiyoti, o‘quvchi tafakkuri, allyuziv nom*

INTERTEXTUALITY AND INTERTEXT: CONTINUITY OF TRADITIONS IN UZBEK LITERATURE

Abstract. *This article discusses the phenomenon of intertextuality, its theoretical foundations, and evolutionary stages. The terms intertextuality and intertext are explained. The place of this phenomenon in literature from its historical roots in Uzbek literature to the present day is shown. The place of the phenomenon of intertextual communication in the thinking of readers is highlighted.*

Keywords: *Intertextuality, intertext, death of the author, postmodern literature, reader's thinking, allusive title*

ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНОСТЬ И ИНТЕРТЕКСТ: ПРОДОЛЖАТЕЛЬНОСТЬ ТРАДИЦИЙ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. *В статье рассматривается феномен интертекстуальности, его теоретические основы и этапы развития. Даётся объяснение терминам «интертекстуальность» и «интертекст». Показано место этого явления в литературе от его исторических корней в узбекской литературе до наших дней. Выделено место феномена интертекстуальной коммуникации в мышлении читателей.*

Ключевые слова: *Интертекстуальность, интертекст, смерть автора, постмодернистская литература, мышление читателя, аллюзивное название*

Kirish. Har bir davr adabiyotshunoslik tarixida o‘zning chuqur izini qoldirmay ketmaydi. XX asrning ikkinchi yarmidan adabiyotshunoslik olamiga kirib kelgan yangi adabiy oqim ya’ni – Postmodern adabiyoti o‘zi bilan yangicha nazariyalar va qarashlar bilan namoyon bo‘la boshladi. Shunday nazariyalardan biri va bugungi kunda dolzarb yo‘nalishlardan biriga aylangan tushunchalardan biri bu intertekstuallikdir. Bu atama fransuz olimasi Yu. Kristeva tomonidan o‘tgan asrning 60- yillarida fanga olib kirildi. Kristeva o‘zining intertekstuallik konsepsiyasini 1924-yilda yozilgan M. Baxtinning asarini qayta ko‘rib chiqish asosida ishlab chiqdi. Kristeva o‘zining “Baxtin, so‘z, dialog va roman” nomli ilmiy tadqiqotida intertekstuallik haqida shunday deydi: “Har qanday matn iqtiboslar mozaikasi sifatida tuzilgan; har qanday matn boshqa matnni o‘zlashtirish va o‘zgartirish natijasidir.”[15] – degan fikrlarni qoldiradi. Bu talqin Kristevaning strukturalist va semiotik yondoshuvlari bilan bog‘liq bo‘lib, u intertekstuallikni til, semiotika va psixoanaliz kavramlari orqali tahlil qiladi.

Intertekstuallik nazariyasining ildizlari, aslida, ancha oldingi yillarga borib taqaladi. Xususan rus adabiyotshunosligi va matn nazariyasida M. Baxtin matnni “Dialogik” hodisa sifatida izohlagan. U matnlarni tadqiq qilib quyidagi fikrlarni aytadi: “Hech qanday sof matn yo‘q, bo‘lishi mumkin ham emas. Matnlar tadqiqotlar uchun yoki boshqa bir maqsadlarda takrorlanishi mumkin.”[1] Baxtinning ta’kidlashicha: “Matnda ma’lum bir g‘oyalar, fikrlar, so‘zlarning ma’lum bir to‘plami boshqa bir ovozlar orqali uzatiladi. Muallif niyatining obyekti bu g‘oyalar to‘plamining o‘zi emas, balki o‘sha g‘oya, fikrlarning o‘ziga o‘xshash ovozini topishdir. Umuman olganda uning niyati mavzuni ko‘p va

turli xil ovozlar bilan yetkazishdir."[1] Bu qarash intertekstuallik nazariyasining metodik ilk asosini yaratadi. Matnlararo aloqa nazariyasini Baxtin dialogik ovozlar, ularning ijtimoiy- tarixiy omillariga e'tibor qaratgan bo'lsa, Kristeva ovozlarning hosil bo'lish, mexanizmiga ya'ni matnning semiotik sitatalar sifatida sharhlaydi, matn ichidagi iqtiboslar va kodlarni aniqlaydi. Bu ikki qarash ham bir-birini to'ldiruvchi nazariyalardir. Baxtin matnning ijtimoiy-dialektik asosi, ovozlararo munosabatlar haqida fikr yuritgan bo'lsa, Kristeva esa shu munosabatlarning qanday semiotik vositalar bilan amalga oshishini aniqlaydigan metodikani ishlab chiqdi.

Adabiyotlar tahlili. Intertekstuallik nazariyasi XX asrning oxiri XXI asr boshlarida turli ilmiy maktablarda yanada boyitilib, yanada kengaydi. Bu davrda fan va texnikaning shiddat bilan rivojlanishi, insonlar hayotining tubdan o'zgarishi natijasida intertekstuallik ham nafaqat tilshunoslik va adabiyotshunoslik balki, madaniyatshunoslik, kino va san'at miqyosida ham tahlilga tortila boshlandi. Yuliya Kristevaning semiotik va struktur talqini va Baxtinning dialogik yondashuvi asosida yuzaga chiqqan bu konsepsiya poststrukturalizm va postmodernizm davrida yanada chuqurlashdi. Ayniqsa, Roland Bart[2,3], Jerar Jenett[4,5], Кузмина Н. А.[6] kabi nazariyotchilar intertekstuallik nazariyasini yanada rivojlantirdilar.

Roland Bart o'zining tadqiqotlarida matn va uning tahlili haqida shunday deydi: "Matnning asosi uning to'liq o'rganishga yaroqli ichki, yopiq tuzilishi emas, balki uning boshqa matnlarga, boshqa kodlarga, boshqa belgilarga kirishi; matn faqat matnlararo munosabatlar, intertekstuallik tufayli mavjud bo'ladi."[2] Bart uchun muhim narsa matnning yaratilishidan ko'ra uning o'qilishidir. Bu xususda Bart o'zining tadiqotida Kristevaning izlanishlarini tahlil qilib shunday yozadi: "Kristeva intertekstning paydo bo'lish tartibini "o'qish" deb ataydi. Yozish interteksti boshqa odamlarning nutqlarini o'qish jarayonida yoziladi va shuning uchun har bir matn boshqa matnlarning kesishishi bo'lib, undan kamida yana bitta matn hosil bo'ladi."[3] Bart Kristevaning intertekstuallik nazariyasini tadqiq qilar ekan, matnlararo munosabatlarda matndagi ko'p ovozlilikni tartibi haqida ham fikr yuritadi: "Matn – bu asar tomonidan o'zlashtirilgan, ammo aniq vazifasi hali berilmagan madaniy ma'nolarning yig'indisidir. Matndagi ovozlarni tartibga solish, uni hech bo'lmaganda tartiblash uchun qulay qilish maqsadida Bart "kod" tushunchasini kiritdi. Bart kiritgan kod iqtiboslar makonidir, u matnda o'zaro bog'langan madaniy ovozlardan iboratdir."[3] Rolan Bart uchun asarning yozilish jarayoni emas, o'qilish jarayoni muhim ekan, endi u yana yangi bitta nazariya "muallif o'limi" tushunchasini ilgari suradi. "Matn – bu minglab manbalardan olingan iqtiboslar to'qimasi, ularni yagona manba - muallifga nisbat berish mumkin emas." [2]

Jerar Jenett zamonaviy adabiyot nazariyasi bo'yicha yetakchi mutaxassis, strukturaviypoetika, ritorika bo'yicha klassik asarlar muallifidir. Keyingi yillarda intertekstuallik nazariyasini tizimlashtirib struktural-tizimli ravishda o'rgangan. Kristevaning intertekstuallik g'oyasidan farqli ravishda Jenett yangi bir istilohlarni taklif etadi. "O'sha paytda matnlar o'rtasidagi turli munosabatlarni tasvirlash uchun intertekstuallik ishlatilgan. Biroq, men munosabatlarning yanada o'ziga xos turlarini aniqladim (iqtibos, ishora va boshqalar), buning uchun men yangi atama – gipermatnni taklif qildim. Men ilgari intertekstuallik so'zi bilan belgilangan keng tushunchani "transtekstuallik" deb belgilashni taklif qildim".[5] Endi u o'zi transtekstuallik deb nomlagan (Yu. Kristevaning an'anaviy tadqiqida inter-tekstuallik) tushunchani guruhlarga ajratadi. Uning yozishicha: - Matnlararo aloqa funksiyalaridan eng yorqin misoli bu qo'shtirnoqlar bilan ajratilgan iqtiboslardir. Ular boshqa bir matnga aniq murojaat qilishadi. Bu turni intertekstuallik deb nomlaydi (iqtibos, allyuziya). Matnga bevosita tegishli ammo asosiy matndan tashqarida joylashgan unsurlar (nom, muqova, muallif so'zi, izohlar) bu tur aloqalarni paratekstuallik deya nomlaydi. Bir matnning boshqasiga munosabati, ya'ni sharh, tahlil yoki tanqid shaklida ifodalanishi esa metatekstuallikdir. "Barcha adabiyotshunoslar asrlar davomida, hatto o'zlari ham sezmay turib, metamatnlar ishlab chiqadilar."[5] Yana bir bog'lanish turini keltiradiki, u parodiya va taqlid uchun gipermatnlilik atamasidir. Va nihoyat janr, uslub, yoki shakl orqali yuzaga keladigan umumiy o'shashliklarga arxitekstuallik deya nom beradi.[4]

Shunday qilib, jahon adabiyotida intertekstuallik nazariyasining rivojlanish bosqichi uch asosiy yo'nalishda kechdi:

- Semiotik yo'nalish (Kristeva) – matn belgilar tizimi o'rtasidagi o'zaro aloqa
- Diologik yo'nalish (Baxtin) – matnlar ijtimoiy ovozlar dialogidir
- Struktural-sistemali yo'nalish (Jenett) – matnlararo bog'lanishning tipologik tasnifi.

Bu uch yo‘nalish ham hozirgi kunda adabiyotshunoslik, kino, san’at, madaniyat olamida keng qo‘llanilib kelmoqda.

So‘nggi yillarda o‘zbek adabiyotshunosligida ham intertekstuallik nazariyasi tadqiqi bo‘yicha izlanishlar amalga oshmoqda. G‘arb adabiyotshunosligida shakllangan “intertekstuallik”, “madaniy kod”, “muallif o‘limi”, “matnlararo dialog” kabi tushunchalar o‘zbek adabiyotida milliy badiiy tafakkur bilan uyg‘un holda shakllanmoqda. Ushbu qarashlarning shakllanishida adabiyotshunoslarimizning nazariy qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. M. Yo‘ldoshev, M. Xolbekov, M. Xomidova va boshqa tadqiqotchilarning izlanishlari diqqatga sazovordir.

Ma’rufjon Yo‘ldoshev o‘z tadqiqotlarida intertekstuallik hodisasi haqida quyidagicha fikr yuritadi: “Poststrukturalistlar talqinidagi intertekstuallik – bu matnlarning har biri eski matn parchalaridan iborat. Hech qaysi matn sof tarzda uchramaydi. Ular qaysidir madaniyatning bir parchasidir. Go‘yoki intertekstuallik har bir matnga xos bo‘lgan xususiyat, bunday xususiyatga ega bo‘lmagan matnning o‘zi yo‘q. Chunki hamma gaplar ilgari aytib bo‘lingan, mobodo biror yangi gap kelib qolsa, u ham baribir eski, avvaldan ma’lum narsaning yangicha kombinatsiyasidan boshqa narsa emas. Bu o‘rinda yozuvchining ahamiyati yo‘qoladi. Lekin bu qarash birmuncha yanglish qarashdir. Chunki badiiy asarga olib kirilayotgan intertekst yozuvchining muayyan maqsadiga ko‘ra badiiy asarning ma’lum bir qismidan joy oladi. Kiritilgan intertekst esa badiiy asarning badiiy estetikasiga xizmat qiladi.”[14] Ma’rufjon Yo‘ldoshev intertekstual yondashuvni metadologik jihatdan tahlil qilib, o‘zbek adabiyotida an’ana va yangilanish orasidagi aloqalarni, o‘zbek adabiy muhitida intertekstual tahlilning ilmiy asoslarini shakllantirishga hissa qo‘shmoqda.

Maqsudaxon Xomidova ham o‘z tadqiqotlarida intertestuallik hodisasini atroflicha o‘rganadi. Uning matn ichidagi birliklariga diqqat qaratadi. Yozuvchi qaysi manbalar orqali kiritgani va allyuziya, iqtibos, sarlavha, epigraf kabi intertekstual aloqani shakllantiruvchi birliklar haqida to‘xtalib o‘tadi. U intertekstuallikni hosil bo‘lishini ta’minlovchi manbalar sifatida quyidagilarni ko‘rsatadi: “badiiy matnda intertekst sifatida muqaddas kitob va hadislar, folklor namunalari, boshqa bir yozuvchining asarlaridan parchalar keng qo‘llanadi. Intertekstlar o‘z navbatida milliy-mental xususiyatlarga ega bo‘ladi. Chunki badiiy matn muallifi ko‘proq intertekst sifatida xalq ichida mashhur bo‘lgan asardan parcha yoxud xalqning milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda milliy adabiyotdan, xalq og‘zaki ijodidan foydalanadi.”[13] Tadqiqotchi zamonaviy o‘zbekadabiyotida intertekstual holatlarni madaniy-semantik tahlil qilib, bu jarayonni adabiy jarayon va o‘tmish bilan bog‘laydi.

Shunday qilib, intertekstual yondashuv bugungi adabiy tahlil metodlarida strukturalizm, semiotika bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u matnni yagona mualliflik mahsuli sifatida emas, balki madaniyatlararo muloqot maydoni sifatida talqin qiladi.

Intertekstuallik nazariyasi matnni yopiq tuzilma emas, matnlar bilan uzviy aloqada yashaydigan bir tizim sifatida qarash imkonini berdi. Bu nazariya tadqiqotchilari bilan maqolamizning kirish qismida tanishib o‘tdik. Begona matn izlari, madaniy kodlar va semantik unsurlarni o‘rganish zarurati bugungi kunga qadar izlanuvchilar diqqat markazidadir. Bu nazariya keyinchalik intermatn deb ataluvchi istilohning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Intertekstuallik – umumiy madaniy, falsafiy tushuncha bo‘lsa, intermatn shu aloqaning badiiy matn ichidagi ifodasidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Intermatn - bu matnlarning o‘ziga xos o‘zaro bog‘lanishi, masalan, bir asardagi boshqasiga tegishli iqtibos yoki ishoralar. Intertekstuallik kengroq tushuncha bo‘lib, barcha matnlarning o‘zaro bog‘lanishi va bir-biriga bevosita yoki bilvosita murojaat qilishi kabi umumiy xususiyatini ifodalaydi, asarning semantik teranligini yaratadi. Intermatn element, intertekst esa xossa, deyish mumkin.[16] Bu ikki istiloh haqida Kuzmina o‘zidan ilgari amalga oshirilgan tadqiqotlarni umumlashtirib, quyidagicha fikr yuritadi: “Tadqiqotchilar intertekstuallikni matnning boshqa matnlarga murojaat qilish orqali o‘z ma’nosini to‘liq yoki qisman shakllantirish, yana bir ma’noda intertekstuallikni matn ichidagi nutqlarning o‘zaro ta’siri deb aytaydilar. Intermatn atamasi qat’iy ta’riflari juda kam bo‘lgan bir tamoyildir. Intermatn o‘zida eski matolardan to‘qilgan yangi mato (Kristeva) ya’ni matn ichidagi iqtiboslarni o‘z ichiga oladi. Yagona matniy butunlik (intertekstual) makonni tashkil etuvchi elementlarning umumiyligini ochib beruvchi badiiy matn ko‘rinishlaridir.[6] Demak, intermatn tushunchasi intertekstual matnlarning o‘zaro qanday shakllar bilan bog‘lanishini badiiy matn ichida tadqiq qilar ekan. Intermatn o‘z ichiga allyuziya, remissensiya,

iqtibos, taqlid, parodiya, plagiat va h.k kabi shakllarni qamrab olar ekan. Kuzmina bu ikki termin haqida o‘zining xulosasini ham berib o‘tadi: “Shunday qilib, Intertekstuallik atamasi odatda intermatn atamasini ham o‘z ichiga qamrab oladi. Biz ko‘pincha ular bir-birining o‘rnini bosuvchi havolalar kabi qo‘llanilishini ta’kidlaymiz. Postmodernizm poetikasida intermatn va intertekstuallik atamasi bilan bog‘liq muhokamalar mavzu asosiga aylangan deb hisoblasak bo‘ladi. Lekin olimlar oxirgi atamani afzal ko‘rishadi, uni iloji boricha qat’iy va aniq belgilashga harakat qilishadi. Eng umumiy ta’rif, albatta, Bart, Kristeva maktabiga tegishli bo‘lib, har qanday matniy aloqadorlik intertekstuallik deb hisoblanadi.”[6]

O‘z tadqiqotlarida M. Xomidova ham: “Bugun o‘zbek tilida intertekstuallik va intermatnlik atamalari parallel tarzda qo‘llanmoqda. Har ikkisining mohiyati aslida bir bo‘lgani uchun biz o‘z ishimizda uslubiy g‘alizlikning oldini olish va jahon ilmiy tajribasiga suyangan holda intertekstuallik terminini qo‘llashni lozim topdik.”[13] – kabi fikrlari va Durdona Xudoyberganovaning “Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” kitobida ham quyidagicha berilgan: “**INTERMATN** [lot. inter – oraliq + matn] ayn. intertekstual matn. **INTERMATNLIK** ayn. intertekstuallik.”[7] – shu manbalar asosida biz ham maqolamizning badiiy tahliliy qismida shu kabi aloqalarni izohlashda intertekstuallik istilohidan foydalandik.

O‘zbek adabiyotida ham, albatta, intertekstuallik atamasi bilan nomlanmagan bo‘lsa-da, bu kabi aloqalar mavjud edi. Ularning ildizlari xalq og‘zaki ijodidan boshlanadi, desak yanglishmaymiz. Chunki xalq og‘zaki ijodi bugunga qadar yaratilgan adabiy, badiiy asarlarimiz uchun poydevor vazifasini o‘taydi. Masalan, xalq dostonlari, qo‘shiqlarida bir-biri bilan va bugungi kundagi adabiyotimiz bilan bog‘liq matniy aloqalar ko‘plab uchraydi. Tahlilimizni Guljahon Mardonovaning “O‘zbek xalq qo‘shiqlari” deb nomlangan turkumning “Alla” qo‘shiqlari qismidan boshlasak:

Alla, bolam, alla-yo, alla,
Polvon bolam, alla-yo, alla.
Momosining kuniga-yo, alla,
Darmon bolam, alla-yo, alla.
Teng-tushlari ichida-yo, alla,
***Tarlon** bolam alla-yo, alla. [10]*

Tarlon so‘zi o‘zbek tili izohli lug‘atida quyidagicha uchraydi: “Ola-chipor, chavkar; shu tusdagi ot.”[17] Demak, bu nom otning nomiga asoslanib ishlatilgan. Endi e’tibor beradigan bo‘lsak Tarlon nomi dostonlarimiz ichida ham uchraydi. Masalan, “Alpomish” dostoning o‘zida bir necha o‘rinlarda uchraydi: “Boybo‘rining Qultoy degan yilqichi bir qulibor edi. Alpomishga bir tarlon biyasi bor edi. Bir yarg‘oq qulun tug‘di, bul tulpor deb Boybo‘riga op kep bergan edi.”[9]

“Boychiborning enasini ko‘radi.
Kishnab shunday ***Tarlon*** biya keladi.”[9]

Nafaqat xalq dostonlarida, balki Tog‘ay Murodning ham “Ot kishnagan oqshom” asarida ham asosiy obraz sifatida Tarlon oti tanlangan. “Tarlon - xol-xol ot! Tarlon - otlar sarasi! Birodarlar to‘riq otning yuzdan biri yaxshi bo‘ladi, tarlon otning yuzdan biri yomon bo‘ladi! Birodarlar, ot tanimasang, tarlon ol!”[11] Onalarimiz allalarga orzu-umidlarini, o‘y-xayollarini qo‘shib aytishadi. Demak, farzandlarini ramziy ma’noda xuddi shu ot misoli bo‘lishlarini istaydilar. Xalqimizda azal-azaldan otlarga bo‘lgan ishtiyoq, zavq ularga qo‘yilgan nomlardan, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan va Yoshi kattalarning o‘g‘il farzandlariga nisbatan otlarning nomini aytib erkalatishlaridan ma’lumdir. Endi mehnat qo‘shiqlaridan olingan parchaga diqqatimizni qaratsak:

Hikmatimiz juda kam, xa-xu, dam-badam,
Temirni qizganda bos, xa-xu, dam-badam,
***Hazrat Dovud** yor bo‘lsin, xa-xu, dam-badam,*
Korimiz baror bo‘lsin, xa-xu, dam-badam. [10]

Qo‘shiq mazmunidan ko‘rinib turibdiki, temirchilik qo‘shig‘i. Bunda keltirilgan allyuziv nom Hazrat Dovud matnlararo aloqadorlikni keltirib chiqargan. Nega aynan Hazrat Dovud? Eng avval, Hazrat Dovud kim ekanligini bilishimiz kerak. ***“Hazrat Dovud yor bo‘lsin”*** iborasi dastlab diniy va mifologik asosga ega bo‘lgan matnlardan kelib chiqqan. Dovud - Qur’onda nomi zikr etilgan payg‘ambarlardan biri. Yahudiy va xristian diniy adabiyotlarida *David* nomi bilan ma’lum bo‘lgan. Dovudga Musodan so‘ng samoviy kitob – Zabur tushirilgan. Dovud temirchilikning asoschisi

hisoblanadi, o‘z qo‘l mehnati bilan tirikchilik o‘tkazgan: temirdan har xil asboblar yasab, uni sotib kun ko‘rgan.[18] Bu iboraning xalq qo‘shiqlarida, ayniqsa, mehnat qo‘shiqlarida ishlatilishi shoirona shaklda, diniy matndan folklor matniga o‘tgan intertekstdir. Bu ibora orqali o‘quvchi ishning barakasini va mehnatning muqaddasligini his qiladi. Dovud ismining o‘zida “Baraka manbai”, “ilohiy mehnatkash” ma’nolarini olgani bu nomning xalq mehnat qo‘shiqlari uchun yangi bir ma’no qo‘shishga xizmat qiladi.

Xalq og‘zaki ijodida shakllangan intermatn elementlari keyinchalik yozma adabiyotda yanada murakkab, ramziy shaklda namoyon bo‘la boshladi. Ayniqsa o‘zbek mumtoz adabiyoti she’riyati – Navoiy, Bobur va boshqa ijodkorlar ijodlarida bu hodisa yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu davr ijodkorlarining asarlarida ham o‘zidan oldingi ijodkorlar, ustozlarining asarlari va zamonasining ijodkorlari asarlari bilan matniy aloqalar kuzatiladi. Masalan, Alisher Navoiy “Xamsa” sining ikkinchi dostoni “Farhod va Shirin” dostonida

Emas oson bu maydon ichra turmoq,
***Nizomiy panjasiga panja** urmoq.*
Kerak sher olida sheri jangi
Agar sher o‘lmasa bore palange.[8]

Bu o‘rinda ishlatilgan “*Nizomiy panjasiga panja urmoq*” misrasidagi ***Nizomiy panjasi*** so‘zi Navoiydan oldin “Xamsa” yozgan Nizomiy Ganjaviyning “Panj ganj” asariga ishoradir. O‘zidan oldin bu maydonga kirib kelgan Nizomiylarning besh dostoniga yetgulik darjada asar yaratishdek katta ishga urinar ekan, bu maqsadga yetish oson emasligi, Ganjaviy bir sher bo‘lsa Navoiy o‘zini ham sherdek bo‘lishi, sher bo‘lmaganda ham yo‘lbarsdek bo‘lishi kerakligini aytib o‘tgan. Uning ezgu maqsadi amalga oshib turk elida ham jahonga mashhur “Xamsa” dunyoga keldi. Albatta, Navoining bu besh xazinasi o‘tmishdoshlarining asarlariga javob tarzida yozilgan. Undagi ismlar, asar nomlaridagi o‘xshashliklar bular hammasi oldin yaratilgan eski matnga yangi matnning javobidir.

Mumtoz asarlar orasida muhammaslar, nazira va taxmislar ham borki, ular to‘laligicha intertekstual hodisani shakllantiradi. Masalan, muxammaslarda ikki ijodkorning ijodiy mahorati namoyon bo‘ladi. Yangi baytlar oldingi g‘azal ma’nosiga uyg‘un bo‘lishi kerak. Navoiy o‘zining *“Ochmag‘ay erdi jamoli”* nomli g‘azaliga *“Bo‘lmag‘ay erdi jamoling”* nomli muxammas yaratadi.

Bo‘lmag‘ay erdi jamoling muncha zebo koshki,
Bo‘lsa ham qilg‘ay eding ko‘zlardin ixfo koshki,
Qilmag‘ay erding ulus qatlin tamanno koshki,
Ochmag‘ay erding jamoli olamoro koshki,
Solmag‘ay erding bori olamg‘a g‘avg‘o koshki. [19]

Ishqi ilohiy bilan tug‘ilgan, butun hayoti ilohiy ishqni kuylash bilan o‘tgan Boborahim Mashrabning “Kelmadi” radifli muxammasi o‘quvchiga hazrat Navoiyning “Kelmadi” radifli g‘azalini yodga soladi.

Va’da qildi bir kelay deb, ko‘zga uyqu kelmadi.
Termulib yo‘lida qoldim, sho‘xi badxo‘ kelmadi.
Necha kun shum raqiblar, ul pariro‘ kelmadi,
Dardidin o‘ldum tabib, dardimg‘a doru kelmadi.
Men shahidi ishq bo‘ldum, qatrayi suv kelmadi.
Mashrab.
Kecha kelgumdir debon, ul sarvi gulro‘ kelmadi,
Ko‘zlarimg‘a kecha tong otguncha uyqu kelmadi.

Lahza – lahza chiqdimu, chekdim yo‘lida intizor,
Keldi jon og‘zimg‘ayu ul sho‘xi badxo kelmadi [19]
Navoiy.

Mashrabning muxammasida berilgan birinchi misradagi yorni kutib ko‘zga uyqu kelmasligi, Navoiy g‘azali birinchi bayt ikkinchi misra bilan o‘xshashdir. Ikkinchi misra dagi yorni sho‘xi badxo ga o‘xshatilishi esa Navoiyning ikkinchi bayt, ikkinchi misrasi bilan hamohangdir.

Demak folklordan boshlangan intertekstuallik hodisasi o‘zbek adabiyotida izchil davom etib, mumtoz she’riyatda ramziy mazmunni ifodaladi. Zamonaviy she’riyatda esa falsafiy, milliy o‘zlik ifodasiga aylandi. Masalan, Rauf Parfi qalamiga mansub quyidagi she’rga diqqat qilaylik:

MEN KIMNIDIR KUTGAYMAN MAHZUN,
Men kimgadir yig‘lamog‘im shart.
Tanholik-la turibman o‘zim,
Mening bilan birgina zulmat.
Yiroqlarda ingranar List ham,
Qulog‘imga bo‘zlaydi ***Furqat.***
Huzurimga chiqmas bir odam,
Men baribir kutgayman faqat.[12]

Bu she’rda Furqat allyuziv nom sifatida kiradi. Shoir bu nomni bejizga qo‘llamaydi. Parchada Furqat ikki semantik yukni tashiydi: bir tomondan Furqat ya’ni “ajralish” ma’nosi bo‘lib, uni Vatan yoki hijron haqidagi iztirobli satrlarini kitobxon yodiga solmoqchidek, ikkinchi tomondan XIX asrda yashab ijod qilgan Zokirjon Furqat siymosiga badiiy allyuziyadir.

SABOLARDA O‘YNAYDI NAVO
Ufqlarda yoniq afsona -
Olgin Erkin Vohid she'rlarin.
Oydin yo‘llar qo‘shig‘in, mana,
Yo‘llar o‘zi aytar, dilbarim. [12]

Rauf Parfi qalamiga mansub ushbu she’r avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy muloqotni ifodalaydi. She’rning sarlavhasining o‘zi o‘zbek she’riyatining “davomiy ovozi”ni ifodalaydi. Erkin Vohidov shaxsiyati ve she’riy maktabiga ishora qiladi. Ushbu misralarda “Erkin Vohid she’rlarini olgin” degan murojaati bevosita allyuziyadir. Bu joyda shoir E. Vohidovning nomini ochiq tilga oladi.

